8-7, 60
M-12

Ma'naviyat asoslari

87.60
M-12

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI

B. KARIMOV
O‘. NORBOYEV
F. ZIYAYEV

MA’NAVIYAT ASOSLARI

O‘quv qo‘llanma

JIZZAX DPI
INV № 142825
AXBOROT RESURS MARKAZI

TOSHKENT
2021

UO'K 329.7(575.1)
KBK 66.3(5O'zb)
M12

Mas'ul muharrir:
M. QURONOV
Respublika ma'naviyat-ma'rifat markazi rahbarining birinchi muovini,
pedagogika fanlari doktori, professor.

Маънавият асослари [Матн]: ўқув қўлланма / Каримов Б. [ва бошк.]. – Тошкент: "Donishmand ziyosi", 2021. – 488 b.

Taqrizchilar:
N. JO'RAYEV,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
«Ijtimoiy fanlar» kafedrasi mudiri, siyosiy fanlar doktori, professor.

S. RAXIMOV,
Falsafa fanlari doktori, Toshkent Moliya instituti
«Ijtimoiy fanlar» kafedrasi professori.

Ushbu o'quv qo'llanmada milliy-ma'naviy tiklanish konsepsiyasi, ma'naviyatning tarkibiy qismlari, ma'naviyatda milliylik, umuminsoniylik, diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik, ma'naviyatga tahdid – o'zligimiz va kelajagimizga tahdid, shuningdek, Markaziy Osiyo xalqlari ma'naviyatining shakllanish jarayonlari, yurtimiz allomalarining diniy va dunyoviy ilmlar rivojiga qo'shgan hissalari, jadidchilik harakati namoyondalarining xalqni asriy qoloqlikdan uyg'otib, Turkistonda demokratik davlat barpo etish uchun olib borgan faoliyatlari ilmiy-nazariy jihatdan atroflicha yoritilgan.

Toshkent Moliya instituti Ilmiy kengashining 2018-yil 5-iyuldagi №11/11, 7-sonli yig'ilishi bayonnomasi asosida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-6866-5-6

© B. Karimov va boshq., 2021
© "Donishmand ziyosi", 2021

Yuksak ma'naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarga, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash biz uchun eng muhim masalalardan biridir.

Shavkat Mirziyoyev

MUQADDIMA

Dunyodagi barcha bilim va tajribalar, so'z, tushuncha, tasavvur hamda xulosalar bevosita yoki bilvosita inson faoliyati bilan bog'liq holda vujudga keladi, rivojlanadi, boyib, takomillashib boradi yoxud eskirib, umrini o'tab, zavolga yuz tutadi. Biroq, jahonda shunday bir buyuk hodisa borki, u odamzodning ongli hayoti mavjud ekan, hech qachon zavol ko'rmaydi. Shuning uchun ham uni o'ta noyob – fenomenal hodisa deb ataymiz. Bu sog'lom fikrlaydigan, ezgu orzu-umidlar bilan yashaydigan inson va jamiyat tomonidan hamma zamonlarda ham qadrlanib kelingan **ma'naviyat**dir.

Darhaqiqat, bashariyat o'z aqlini tanigan, ruh va vujudning farqini, hayot ma'nosini, ezgulikning mohiyatini anglaganidan buyon ma'naviyat unga doimiy hamrohdir. Inson ma'naviyat orqali tarixini, bugunini, kelajagini tasavvur qilish, baholash, shu tariqa zarur saboq va xulosalar chiqarish imkoniga ega.

Ma'lumki, insonning tashqi va ichki olami mavjud. Tashqi olamiga uning bo'yi-basti, ko'rinishi, xatti-harakati va boshqalar kiradi. Ichki olami esa, uning yashashdan maqsadi, fikr yuritishi, orzu-istaklari, intilishlari, his-tuyg'ularini o'z ichiga oladi. Insonning ana shu ichki olami ma'naviyatdir. Oziq-ovqat odamga jismoniy quvvat bersa, ma'naviyat unga ruhiy oziq va qudrat bag'ishlaydi. Ma'naviyat

ma'rifat va madaniyat bilan bog'liq. Ma'naviyat odamlarga tayyor holda vujudga kelmaydi. Unga muttasil o'qish, o'rganish, tajriba orttirish orqaligina erishiladi.

Abu Nasr Forobiy o'zining «Fozil odamlar shahri» kitobida inson takomilini to'rt bosqichga bo'ladi.

1. Ilk bosqichda inson qalbi go'yoki o'rmon bo'lib, unda g'azab, yolg'on va jaholat hukmron bo'ladi.

2. Komillik yo'liga kirishga ahd qilgan insonda o'zini o'zi anglashga qat'iy urinish ehtiyoji tug'iladi. Tinimsiz mehnat natijasida inson takomilining ikkinchi bosqichiga ko'tariladi. Bu davrda o'zini tiya bilish va adolat kabi xususiyatlarni asosiy mezonga aylantiradi.

3. Inson takomilining uchinchi davri ijodiy davr hisoblanib, unda mustahkam bilim, e'tiqod, o'zgalarni tushunish ustuvor mavqe kasb etadi.

4. Inson komillik sari intilar ekan, o'z takomilining to'rtinchi davrida donolik, faylasuflik maqomiga erishadi. Bu davrda uning adolati va muhabbati ham mukammal darajaga yetadi. Muhimi, u nafaqat o'zini, balki boshqalarni ham baxt-saodat sari yetaklay oladi.

Abu Nasr Forobiyning fikricha, inson o'z-o'zidan baxtli bo'la olmaydi, u baxtli bo'lishi uchun jamiyat unga ma'naviy unsurlarni taqdim qilib berishi kerak. Buning uchun, avvalo, odamlarni axloqiy jihatdan fozillashtirish zarur. Demak, odamlarni fozillashtirish uchun quyidagilarni bilish lozim:

1. Kishini tuyg'u quvvati oziqlantiradi va tuyg'u xayol surishiga turtki beradi.

2. Xayol tafakkurni hosil qiladi.

Kishilardagi eng birlamchi quvvat – tuyg'udir. Tuyg'usi o'lgan kishi axloqiy-ruhiy jihatdan rivojlanmaydi. Shu sababli alloma tuyg'u xayolning, xayol tafakkurning manbai ekanligini uqtiradi. Odamlar o'z tuyg'ularini avaylashi kerak, bu bilan xayol surishga yo'l ochiladi, xayol tufayli fikrlash va anglash kelib chiqadi. Mutafakkir bu uch

tuyg‘uni tarbiyalashni uqtirgach, endi qalb va miyani tushuntiradi.

Qalb badanning hech bir a’zosiga bo‘ysunmaydi, miya ham shunday, lekin u faqat qalbga bo‘ysunadi. Chunki qalb tuyg‘ular, hislar va sezgilar makoni bo‘lishi bilan insonning butun vujudini boshqaradi va miya ham undan quvvat oladi. Abu Nasr Forobiy miyaning qalbga bo‘ysunishini ta’kidlash bilan ma’naviy manba aqlda emas, ruhiy tuyg‘ularda ekanligiga ishora qiladi. Demak, tuyg‘ularni tarbiyalash bilan ma’naviyat hosil qilish mumkin va bu hol axloqiy fazilatlarning o‘zlikda tarkib topishiga olib keladi.

Jahondagi xalqlarni geografik nuqtayi nazardan tadqiq qilganimizda qiziq bir faktning guvohi bo‘ldik. Xitoyda ta’limotlar, hindlarda dinlar, Falastinda payg‘ambarlar, yunonlarda go‘zallik, bizda axloq juda dolzarb hisoblanadi. O‘zbek millati ulug‘ millat, buyuk millat. Millatning ulug‘ligi, buyukligi shundaki, kichik bir xato fojia bilan tugaydi. Bunga shaxsiy hayotda ham, davlat miqyosida ham ko‘plab misollar keltirish mumkin.

Xalqlar hayotidagi barcha buyuk voqealarning tag-zaminida u yoki bu g‘oya yotadi. Eng ulug‘ kashfiyotlar, avvalo, ular haqidagi orzu-niyatlardan boshlanadi. Islom g‘oyalari yarim dunyoni bir hovuch arablar atrofida birlashtirdi, «Kuch – adolatda» g‘oyasi buyuk temuriylarni vujudga keltirdi, Moskva atrofida birlashuv g‘oyasi qudratli Rossiyani maydonga keltirdi. Tenglik va ozodlik g‘oyasi fransuzlar mavqeini Yevropada sarbaland qildi.

G‘oyasizlik-chi? Millatni zaiflashtiruvchi, turg‘unlikka – tanazzulga olib boruvchi mana shu g‘oyasizlik, maqsadsizlikdir.

Tarix necha martalab aql-u iste’dodiga guvoh bo‘lgan Sharq xalqlari nega bunday zalolatga botdi. Nega biz Rossiya imperiyasi yetoviga tushib qoldik. Xitoylar yoki hindlar-chi? Buning sababi takror aytamizki – g‘oyasizlik.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan mamlakatimizdagi barcha soha va tarmoqlarda 2017 – 2021-yillarda

O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi asosida ulkan o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada kitob va kitobxonlikka alohida e’tibor berilmoqda. Zero, jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an’analarni chuqur qaror toptirish, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma’naviy-intellektual salohiyati, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda ona Vatani, xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda kitobxonlik madaniyatining o‘rnini bosa oladigan biror narsaning o‘zi yo‘q.

Kitob – sodiq do‘st, aziz mehmon, dilkash suhbatdosh, donishmand maslahatchi. Kitob avvalni oxir bilan, pinhonni oshkor bilan, yuksakni quyi bilan, xayolni mavjudlik uchrashtiradi. Kitob tufayli o‘tmish voqealari hozir bo‘lganday, o‘tganlar tirilganday bo‘ladi. Insonlar qismatidan hikoya qiluvchi mo‘jizani faqat kitobdan topish mumkin. Shuning uchun kitoblar – tafakkur xazinasidir.

Odam safiyulloh kitob bilan hayotga yo‘llangan. Muhammad sallallohu alayhi vasallam o‘qishni, yozishni bilmaganlar, ammo U zotga kitob nozil qilingan. Demak, kitobsiz inson komil emas, dindin emas.

Yoki Abdurahmon Jomiyning ta’kidicha:

Jahonda kitobdan yaxshi yor bo‘lmas,
Dahr g‘amxonasida g‘amgusor bo‘lmas.
Yolg‘izlik kunida undan har qachon
Ming rohat bo‘lur, lek bir ozor bo‘lmas.

Kitob – bu nafaqat ma’lumotlar, bilimlar yig‘indisi, ayni paytda u – ulug‘ tarbiyachi. Tarbiya deganda, odatda, yosh avlodni voyaga yetkazish tushuniladi. Bu, albatta, to‘g‘ri. Lekin tarbiyaning kengroq mazmuni ham bor. Aslida odamzod bir umr tarbiyaga muhtoj. U fe’l-atvori, tushunchasi, dunyoqarashini kamolga yetkazishi uchun umr bo‘yi zahmat cheksa arziydi. Zotan, kamolotning chek-u chegarasi yo‘q, kamolot uchun har qachon yuqoriga ko‘tarilish imkoniyati mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida»gi Qarori bugungi kun uchun nihoyatda muhim va dolzarb ahamiyatga ega hujjat bo‘ldi. U xalqaro maydonda mafkuraviy, g‘oyaviy va axborot kurashlari kuchayib borayotgan hozirgi murakkab va tahlikali globallashuv sharoitida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni zamon talablari darajasida tashkil etish zaruriyati taqozosi o‘laroq yuzaga keldi.

Tan olaylik: yoshlar tarbiyasida samarali mexanizm sifatida oila – mahalla – ta’lim muassasasi tizimi kutilgan natijani bermadi. Birgina misol: o‘tgan davrda uyushmagan, ya’ni hech qayerda o‘qimaydigan yoki ishlamaydigan yoshlar maqsadli g‘oyaviy-tarbiyaviy ishlardan chetda qoldi. Buning natijasida ayrim navqiron yoshlarimizning jinoyat ko‘chasiga, ekstremistik va terroristik harakatlarga qo‘shilib ketishi kabi hollar ro‘y berdi. Shuning uchun ham yoshlarning barcha qatlamini qamrab oladigan, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik tuyg‘usining yuksalishiga, el-yurt taqdiri uchun mas’ullik hissining oshishiga xizmat qiladigan alohida markaz zarur edi. Shu ma’noda qabul qilingan mazkur qaror xalqimiz ma’naviy-ma’rifiy hayotida muhim voqea bo‘ldi.

Haqiqatan ham, ma’naviyat qanchalik yuksak bo‘lsa, inson qalbida johillik, yovuzlik, xudbinlik, yalqovlik kabi salbiy illatlarga o‘rin qolmaydi, uning o‘rnida yoshlarimiz ongida vatanparvarlik, yaratuvchanlik tuyg‘ulari yuksak darajaga ko‘tariladi, o‘zaro munosabatlarda samimiylik, birdamlik, mehr-oqibat, e’tiqod, iymon, mas’uliyat va boshqa bir qator ijobiy fazilatlar xalqimiz turmush tarzining ajralmas boyligi darajasida yana ham mustahkam o‘rin egallaydi.

Qarorda belgilangan o‘ta muhim vazifalarni hal qilish uchun mustaqillik ma’naviyatini shakllantirish va milliy istiqlol g‘oyasini chinakam moddiy kuchga aylantirish strategik ahamiyatga egadir. Bu, o‘z navbatida, biz qo‘lga kiritgan istiqlolning ma’no va maz-

muni, milliy o‘zlikni anglash, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini mustahkamlash, vatan va millat istiqboli uchun har bir shaxsning mas’ulligini anglab yetishga o‘z ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta’kidlanganidek: «Ma’naviyat hayotimizda muhim voqea bo‘lgan O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi Markazi, Imom Buxoriy va Imom Termiziy nomlaridagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, Islom akademiyasi kabi ilmiy-ma’rifiy muassasalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish ishlari boshlanganini alohida qayd etish zarur. Shular qatorida buyuk allomalarimizning yodgorlik majmualari qoshida hadisshunoslik, islom huquqshunosligi, tasavvuf, kalom va aqida ilmi kabi diniy-ma’rifiy yo‘nalishlarni o‘rganish bo‘yicha maxsus maktablar tashkil etildi. Albatta, bizning bu ishlarimiz chuqur ilmiy va amaliy asoslarga ega.

Ma’lumki, qadimiy madaniyat va sivilizatsiyalar chorrahasi bo‘lgan yurtimiz zaminidan o‘rta asrlarda minglab olim-u ulamolar, buyuk mutafakkir va shoirlar, aziz-avliyolar yetishib chiqqan, ularning aniq fanlar va diniy ilmlar sohasida qoldirgan bebaho merosi butun insoniyatning ma’naviy mulki hisoblanadi».

Ushbu o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2011-yil 17-sentabrdagi 392-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan «Ma’naviyat asoslari» fanidan namunaviy dastur (bakalavr yo‘nalishi uchun) asosida tayyorlandi. So‘nggi yillarda olimlar, adabiyotshunoslar va ma’naviyat masalalari bilan shug‘ullanayotgan mutaxassislar: Begali Qosimov, Abdurahim Erkayev, Sobir Mirvaliyev, Boqijon To‘xliyev, Narzulla Jo‘rayev, Ergash Ochilov, Ibrohim Haqqul, Shuhrat G‘oyibnazarov, Muhammadjon Quronov, Shuhrat To‘rayev va boshqalar tomonidan chop etilgan o‘quv qo‘llanmalar, risolalar va maqolalaridan foydalanganimiz uchun ustozlarimizga chuqur minnatdorchilik bildiramiz.

Mazkur o‘quv qo‘llanma ma’naviyat masalalari bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, o‘qituvchilar, oliy o‘quv yurti talabalari, ma’naviyat olami bilan qiziquvchilarga tavsiya etiladi.

Har bir xalq ulkan daraxtga o'xshaydi. Uning ildizlari naqadar teran bo'lsa, qaddi-basti ham shunga yarasha ulug' bo'ladi. Ma'naviyat xalqning ana shunday o'q tomiridir. Bu ildizlardan suv ichgan avlod kam bo'lmaydi. Ko'zlangan murodga ham shu quvvat bilan yetib keladi.

I BO'LIM. MA'NAVIYAT VA UNING INSON KAMOLOTIDA TUTGAN O'RNI

1-MAVZU. «MA'NAVIYAT ASOSLARI» FANINING PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI

Reja:

1.1. Ma'naviyat tushunchasining ta'rifi va tarixi.

1.2. «Ma'naviyat asoslari» fanining kategoriyalari, uning rivojlanish qonuniyatlari.

1.3. «Ma'naviyat asoslari» fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi.

Tayanch so'z va iboralar

Milliy istiqlol, demokratik tamoyillar, ma'naviy barkamollik, inson takomili, tuyg'u, xayol, tafakkur, ma'naviy manba, komil inson, inson ma'naviyatining mohiyati, ma'naviyat kategoriyalari, shaxsning maqomi, ma'naviyatning rivojlanish qonuniyatlari, «Ma'naviyat asoslari» fanining ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan bog'liqligi.

1.1. Ma'naviyat tushunchasining ta'rifi va tarixi

Milliy istiqlol tufayli asriy orzu-armoni ushalgan o'zbek xalqi o'zligini anglashga muyassar bo'ldi. Mustaqillik o'z tilini, dinini,

milliy-madaniy merosi-yu, qadriyatlarini qayta tiklash, rivojlantirish va boyitish imkonini berdi. O'tmishni xolisona baholash, tarixni o'rganish va to'g'ri xulosa chiqarish, o'z kelajagini belgilashdek baxtga musharraf etdi. Bu esa milliy ma'naviyatning shakllanishi va ravnaq topishida ijtimoiy-siyosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Mustaqillik yillarida ma'naviy yuksalish tufayli xalqimizning dunyoqarashi tubdan o'zgargani, demokratik tamoyillar asosida yashashga bo'lgan intilish kuchaygani, o'zini, o'zligini yorqin namoyon eta boshlagani bu fikrning isbotidir. Ma'naviyat benihoya keng qamrovli, chuqur mazmun-mohiyatga ega tushuncha. Uning shakllanishida Qur'oni karim, Hadisi sharif, tasavvuf tamoyili, islom falsafasining ta'siri katta ahamiyatga ega.

Hazrat Alisher Navoiy favqulodda shaxs, dohiy san'atkor. Tarix har zamonda bir in'om etadigan mutafakkir. Uning ijodi hududsiz bir ummon. Unga tushgan g'avvos quruq chiqmaydi. Har kim o'z aqliga, o'z g'ayratiga, qunt-chidamiga ko'ra, albatta, nimadir topib chiqadi. Avvalo, unda insonning kundalik hayotidan insoniyatning dolzarb muammolarigacha javob bor.

Alisher Navoiy asarlarining lug'atida ma'naviyatning besh ma'nosi borligi qayd etiladi. «Ma'naviyat» («ma'ni»dan olingan) – g'oya, mazmun, fikr, xususiyat, jihat. Demak, insonning fikri, aqli, g'oyasi, ishonch-e'tiqodi, fe'l-xulqi, yurish-turishi, borliqqa, tabiat-jamiyatga, yaxshilik-yomonlikka munosabatlarining yig'indisi. Shunchaki yig'indisi emas, shakllangan muayyan sharoitga tatbiq qilish mumkin bo'lgan majmui.

Insoniyat bino bo'lgandan buyon bu masalalar bilan shug'ullanib keladi. Har bir millatning bu borada asrlar davomida muayyan bir dasturi, an'analari shakllangan. Vaqti bilan u susaygan, vaqti bilan kuchaygan. Lekin har bir millatda bo'lgan.

Ma'naviyat, biz – o'zbeklar uchun hamisha eng muhim mavzu bo'lib kelgan. Chunki ma'naviyat insonlikning birinchi belgisidir. In-

son xalloqi olamning barcha mavjudotlaridan aqliga, fikrlashiga ko‘ra farqlanadi. Va bular til, so‘z orqali yuzaga chiqadi. To‘g‘ri, hayvonda ham til bor, ovoz ham bor. «Ammo, – yozadi Alisher Navoiy, – chun alfoz va ibratdin murod ma’nidur va mazkur maxluqotdin maqsud insondur». Bu so‘z esa shunday qudratliki, «sharifidin o‘lgan badang‘a ruhi pok yetar, xasifidin hayotliq tang‘a zahri halok xosiyati zuhur etar». Alisher Navoiy «maxluqotdin maqsud insondur» degan so‘zini boshqa asarlarida keng sharhlaydi va «komil inson» konsepsiyasini ilgari suradi.

Inson deganda, birinchi navbatda, biz uning hayotini, bu hayotning real mazmunini ko‘zda tutamiz. Uning kishiga bir marta beriladigan ulug‘ ne’mat ekanligini, g‘animat umrdan bahramad bo‘lish, uni yaxshilik-ezgulik yo‘lida sarf etish, shu orqali umrni abadiylashtirish haqida fikr yuritamiz.

Alisher Navoiyning hikmatga aylanib ketgan mana bu fard – muammosini olib ko‘raylik:

Bu gulshan ichraki yo‘qtur baqo guliga sabot,
Ajab saodat erur chiqsa yaxshilik bila ot.

Inson haqida gap ketganda yana bir narsani qayd etmoq kerak. Sarv qaddining mavzunligi bilan, gul ruxsorining gulgunligi bilan qadrli. Inson ham nomiga, o‘z qadriga, o‘z mavqeiga munosib bo‘lishi kerak. Alisher Navoiyning fikricha, insonning dunyoga kelib kamolotga yetmay o‘tishi hammomga kirib, toza bo‘lmay chiqishdek gapdir:

Kamol et kasbkim, olam uyidin,
Sanga farz ulmag‘ay g‘amnok chiqmoq.
Jahondin notamom o‘tmak – biaynih,
Erur hammomdin nopok chiqmoq.

Biz bugun insonni har tomonlama kamol toptirish haqida gapirar ekanmiz, uning Alisher Navoiy orzulariga hamohang ekanligini mamnuniyat bilan ta’kidlaymiz.

Mutafakkir «komil inson» g‘oyasini, ma’naviyatning inson uchun hayot-mamot masalasi ekanligini atroflicha asoslaydi.

«Yaxshi nom» bilangina dunyoda boqiy qolish mumkin.

Odamiy ersang, demagil odami,
Oniki yo‘q, xalq g‘amidin g‘ami.

Chinakam inson uchun kishilikni ulug‘lash, uning baxtli bo‘lishi lozimligini e’tirof etish hali oz. Bu baxt uchun kurashmoq ham zarur. Alisher Navoiy bu yo‘lda ham buyuk jasorat ko‘rsatdi. Insonparvarlikni har qanday muqaddas narsadan muqaddasroq bildi. Uni islom olamining eng muqaddas, mo‘tabar dargohi Ka’bani obod qilish bilan teng tutdi. Shoir yozadi:

Kimki bir ko‘ngli buzug‘ning xotirin shod aylagay,
Oncha borki, Ka’ba vayron bo‘lsa, obod aylagay.

Bir ko‘ngli siniq kishining ko‘nglini ko‘tarish, shod etish shu qadar ulug‘ ishki, bu vayron bo‘lgan Ka’bani obod qilgan darajadadir. Odamning ko‘ngli Ka’baga qiyoslanyapti. Ko‘ngil siniqligi Ka’ba vayronligiga o‘xshatilyapti. Mehr-muruvvatning bunday timsoli, o‘ylaymizki, har qanday kishini larzaga soladi.

Alloma elning nafini hamisha o‘zligidan ustun qo‘ydi. Uni hamisha eng yuksak mezon deb bildi. Axir:

Yuz jafo qilsa manga, bir qatla faryod aylamon,
Elga qilsa bir jafo, yuz qatla faryod aylaram, –

demoq uchun kishi el dardini qanchalar teran bilmog‘i kerak! Yo‘q, bilishgina emas, u bilan bir tandek, bir vujuddek yashamog‘i lozim.

«Ma’naviyat asoslari» fanining vazifasi komil insonni tarbiyalashning ilmiy-nazariy asoslarini yaratish va targ‘ib etishdan iborat ekan, u madaniy-ma’naviy merosga tayanadi.

O‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki, yetuk insonning ichki va tashqi qiyofasini nazarda tutib, ozod, erkin, o‘z huquqlarini biladigan, munosib yashash uchun o‘zining kuch-qudrati, bilim va tajribasiga

ishongan, o‘z manfaatini jamiyat manfaati bilan mushtarak holda ko‘radigan insonni nazarda tutmoqda. Binobarin, yuksak axloqiy xislat va fazilatlarga ega bo‘lgan kishilarda adolatlilik, mehr-muruvvat, saxovatpeshalik, ezgulik kabi tushunchalar to‘la shakllangan bo‘ladi. Ayniqsa, bu ularning odamiyligida yaqqol ko‘rinib turadi.

Keyingi paytlarda ma’naviyatga oid e’lon qilinayotgan kitoblarda. o‘tkazilayotgan anjumanlarda «ma’naviyat» tushunchasiga ta’rif berish, uning jamiyat, inson va millat taraqqiyotidagi o‘rniga katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, «Vatan tuyg‘usi» kitobining mualliflari «Ma’naviyat – jamiyatning, millatning va yoki ayrim bir kishining ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi tushuncha», deb ta’riflaganlar.

Sobir Mirvaliyev «Ma’naviyat ufqlari» maqolasida ma’naviyat bir vaqtning o‘zida «madaniyat, ma’rifat va mafkura tushunchalarini o‘ziga singdiradi», degan fikrni ilgari suradi. Bu narsa ma’naviyatni ayrim xususiyatlar va jihatlar, belgilar asosida emas, balki insonni bir butun ijtimoiy mavjudot tarzida olib, uning milliy va individual qiyofasini belgilash imkoniyatini beradi. Ma’naviyat nuqtayi nazaridan baholanganda yo jamiyat, yo xalq-millat, yo shaxs ma’lum qiyofada gavdalantiriladi, uning shaxsiy, milliy yoki umuminsoniy qiyofasi, mohiyati, mazmuni, tarixdagi o‘rni va ahamiyati belgilanadi. Ijobiy va ijodiy baho olgan tarixiy, milliy va shaxsiy qadriyatlar ma’naviyat olamining mulki hisoblanadi. Ana shu ma’noda ma’naviyat, ma’rifat va mafkura o‘rtasidagi dialektik aloqadorlik to‘g‘ri talqin etilgan.

Bundan tashqari, bir qator olimlarimiz «odob, bilim, ilm, iymon, ixlos va insoniyat kamoloti uchun ijobiy ta’sir qiluvchi tizim yoki ma’naviyat – insonning aqliy, axloqiy, ilmiy, amaliy, mafkuraviy qarashlar yig‘indisi hisoblanib, diniy va dunyoviy qarashlarning aks etish darajasidir», deb ta’rif berib kelmoqdalar.

Haqiqatan ham, ma’naviyat deganda, insonlarda shu xislatga oid jarayonlarning mujassamlashganligini e’tirof etibgina qolmasdan, balki insonlarni ruhan poklanishga, turli nojo‘ya xususiyatlardan

uzoq bo‘lishga yordam beradigan xislatlarni ham tushunish kerak. Binobarin, har bir inson nafaqat jismonan ulg‘ayishi, balki uning qalbidagi insoniylik xislatlari o‘sib, kengaya borishi, sermazmun bo‘lishi talab etiladi. Ma’lumki, insonning ichki dunyosi ham bir ummondir. Bu ummondagi ijobiy sohalar kuchliroq, baquvvatroq bo‘lgandagina u yuksak ma’naviyatli bo‘la oladi. Yuksak ma’naviyatli odamlar qanchalik ko‘p bo‘lsa, bu, o‘z navbatida, qurilayotgan yangi jamiyat poydevorining mustahkam bo‘lishiga yordam beradi. Demak, yuksak ma’naviyat bu iymon-e’tiqodni butun, insonparvarlik, jamiyatparvarlik, vijdonni kuchli qiladigan fazilatlardir.

Inson ma’naviyatining mohiyati dialektik xarakterdadir. Uning turli tomonlari bir-biri bilan bog‘langan. Shu sababli ma’naviyatning mohiyatini Birinchi Prezident Islom Karimov quyidagicha izohlaydi: «Ma’naviyat insonga havodek, suvdek zarur. Sahrodagi sayyoh har doim buloqdan chanqog‘ini bosadi. Xuddi shuningdek, inson ham necha-necha azoblar va qiyinchiliklar bilan ma’naviyat chashmasini izlaydi. Yer, oila, ota-ona, bolalar, qarindosh-urug‘lar, qo‘ni-qo‘shnilar, xalq, mustaqil davlatimizga sadoqat, insonlarga hurmat, ishonch, xotira, vijdon, erkinlik – ma’naviyatning ma’nosi ana shunday keng. Inson uni Inson darajasiga ko‘taradigan asoslarning asosini o‘z aqli bilan tom ma’noda qamray olmaydi. Inson o‘zini xalqining bir zarrasi deb sezgandagina, u haqda o‘ylab, mehnat qilib yashagandagina ma’naviyat bilan tutashadi. Bizning odamlarimiz Vatandan uzoqlashganda juda iztirob chekadilar, chunki ularning ma’naviyat chashmasi go‘yo uzoqlashib ketgandek bo‘ladi. Shuning uchun ham xalq Vatandan yiroqlikni og‘ir qabul qiladi, chunki unda har bir qadrdon kishi uchun qayg‘uradigan umumiy qalb bor»[1].

Ma’rifatli inson bilimlidir. Bilim insonning fazilatini ulug‘lovchi xususiyatlardan biridir. Bilim olish ma’rifatli bo‘lish, turli sohalarda

---

[1] Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. Asarlar to‘plami, 1-jild. T.: «O‘zbekiston» , 1996, 80–81-betlar.

ma'naviy va moddiy g'alaba qilish uchun zarur. Bilimsiz, ma'rifatsiz kishi himoyasizdir. Ma'rifat orqali inson o'z ongini boyitadi va barcha moddiy, ma'naviy boyliklardan bahramand bo'ladi. Ayniqsa, bozor munosabatlariga o'tish jarayonlarida insonlar ma'rifatli bo'lmas ekanlar, ular hayot qiyinchiliklariga bardosh bera olmay, qiynaladilar.

Bilimli, ma'rifatli kishilarning ko'payishi jamiyat boyligidir. Baxtiyor kelajak bilim bilan yaratiladi. Istiqbolning kafolati bilimli kishilardadir. Ma'naviyatni yuksaltirish ham ma'rifatga bog'liqdir. Milliy qadriyatlarni, uning tarixini, kelajagini anglash ma'rifat orqali amalga oshadi. Buning uchun bilim bilan qurollanmoq kerak. Yaxshi yashash, baxtli bo'lmoq ham bilim orqali amalga oshadi. Inson qanchalik ko'p bilsa, uning kuch-qudrati shunchalik oshaveradi. Tevarak-atrofni bilish, jamiyat taraqqiyotini tushunish, hodisalarga baho berish ham bilim va ma'rifat orqali amalga oshadi.

Abu Abdulloh Rudakiy aytadiki:

Har kishi olmasa hayotdan ta'lim,
Unga o'rgatolmas hech bir muallim.
Kishilar aqlining charog'i bilim,
Yomonlikdan saqlanish yarog'i bilim.

Yoki alloma Abulqosim Firdavsiy ta'biricha:

Ilmdan bir shu'la dilga tushgan on,
Shunda bilursankim, ilm bepoyon.

Inson bilim orqali dunyoni qanchalik ko'p bilib borsa, o'z faoliyatini ham shunchalik yaxshi anglay boradi. Umrning ziynati, mazmuni ham insonning o'z bilimi orqali yuqoriga qarab intilishidadir. Bilim olish uchun vaqtni ayamaslik, vaqtdan foydalanish lozim.

Xulosa qilib aytganda, inson ma'rifat va bilim orqali yuksak ma'naviyatlilik cho'qqilarini egallaydi, barkamol, komil inson bo'lib yetishadi. Shu sababli «Ma'naviyat asoslari» fani komil insonni tarbiyalab, voyaga yetkazishda muhim o'rin tutadi.

1.2. «Ma'naviyat asoslari» fanining kategoriyalari, uning rivojlanish qonuniyatlari

«Ma'naviyat asoslari» fan sifatida shakllanayotgan sharoitda uning kategoriya (tushuncha)larini aniqlash, bir tizimga keltirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Sababi, uning kategoriyalari aniqlanmagan ekan, u fan maqomiga ega bo'la olmaydi. Ammo, ma'naviyat barcha ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida bo'lganligi sababli, uning tushunchalarini bir tizimga keltirish talab etiladi. Chunki, uning ayrim tushunchalarini falsafa, estetika, etika, dinshunoslik, madaniyatshunoslik va boshqa fanlar bilan hamda ularning uyg'unligisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Aslida «Ma'naviyat asoslari» ham boshqa fanlar kabi o'zining mustahkam kategoriyalariga ega. Ularni shartli ravishda shaxs, millat va jamiyat hayoti bilan bog'liq bo'lgan quyidagi tushunchalarini kiritish mumkin: shaxsning o'z-o'zini anglashi, bilimdonlik, qalbi tozalik, saxiylik, samimiylik, xayrixohlik, iymonlilik, halollik, e'tiqodlilik, diyonatlilik, poklik, mehr-shafqatlilik, vijdonlilik, rostgo'ylik, adolatparvarlik, ota-onaga hurmat, oilaga sadoqat, vafodorlik, to'g'rilik va boshqalar.

Shaxsning millat vakili sifatidagi maqomida: milliy o'z-o'zini anglash, milliy g'urur, millatparvarlik, vatanparvarlik, millat taqdiriga nisbatan mas'uliyatni, milliy manfaat ustuvorligini his etish, milliy til, milliy tarix, adabiyot, san'at, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar, davlat tizimiga, qonunlarga hurmat, vazminlik, o'z kasbining mohir ustasi bo'lish va uni qo'llab-quvvatlash, mamlakat ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotida faollik va boshqalar.

Shaxsning jamiyat vakili sifatidagi maqomida: mamlakatning jahondagi nufuzini oshirishda mas'ullik, jahon sivilizatsiyasi yutuqlarini egallash, jahon xalqlari oldida turgan umumbashariy muammolarga befarq bo'lmaslik, milliy va umuminsoniy manfaatlar uyg'unligini

anglash, inson tabiatning bir bo‘lagi ekanligi, uni asrashda mas’ullik va boshqa bir qator tushunchalarni kiritish mumkin.

Ma’naviyat, g‘oya, mafkura, madaniyat, ma’rifat, din, axloq, nafosat bu sohadagi asosiy kategoriyalar tizimini tashkil qiladi. Shuningdek, insonga xos ruhiyat, uning qalbi va ongi, ma’naviy qiyofasi, his-tuyg‘ulari hamda kechinmalari majmui ham ana shu tizim doirasiga kiradi. Ushbu kategoriyalar insoniyat tarixi va jamiyat taraqqiyoti jarayonida birdaniga va bir yo‘la shakllanib qolmagan. Shubhasiz, insoniyat uzoq davom etgan tarixiy jarayonda ma’naviy hodisa va narsalarga xos xususiyatlar hamda belgilarni chuqurroq anglab, ulardagi juz’iy va umumiy tomonlarini muttasil o‘rganib borgan.

Tarixiy rivojlanish jarayonida jamiyat va kishilarning talab-ehtiyojlari natijasida ma’naviyat kategoriyalari shakllaridan goh biri, goh boshqasi umumiy tizimning markaziga, hayotning oldingi pog‘onasiga chiqadi: yurtda dushmanlar hukmronlik qilganda – ozodlik, mustaqillik; diktatura davrida – erkinlik; Vatan mustaqilligiga xavf tug‘ilganda – vatanparvarlik; milliy o‘zlikni anglash va milliy uyg‘onish davrida – tarixiy va madaniy merosni o‘rganishga intilish; urush sharoitida tinchlik va barqarorlikka ehtiyoj kuchayib boradi. Shu tariqa ijtimoiy jarayonlar rivojida ma’naviyat kategoriyalari ma’lum bir shaklning dolzarbligi, boshqasining zarurligini bir qadar xiralashtirganday, ularning ayrimlari yuksak ma’naviyatga yaqinlashganday, boshqalari esa undan uzoqlashganday bo‘lib tuyuladi.

Ma’naviyat kategoriyalarining namoyon bo‘lish shakllari orasida o‘z ahamiyatini, ijobiylik hamda foydalilik xususiyatlarini doimo saqlab qoladiganlari ham bor: inson vujudining tirikligi, uning umri va hayoti, sihat-salomatligi, sog‘lom nasl va avlodlar vorisligi, ijtimoiy faoliyati va munosabatlari, mehnati, bilimi, muomalasi va boshqalar. Bular inson va jamiyat bor ekan, o‘zining ijtimoiy ahamiyatini saqlab qolaveradi, ularning qarama-qarshisi bo‘lgan o‘lim, kasallik, ma’nosiz hayot kechirish, bilimsizlik ham tarixiy jarayonlarning do-

JIZZAX DPI
INV № 142885
AXBOROT RESURS MARKAZI

imiy hamrohidir. Taraqqiyotga intilish bor ekan – tanazzul va boshqa illatlar insoniyatni doimo ta'qib qiladi. Yuqoridagi ijobiy kategoriyalarning ahamiyati ham ularga teskari bo'lgan jihatlarga nisbatan solishtirib aniqlanadi.

Ma'naviyat kategoriyalari tizimini tavsiflashda axloq, madaniyat, g'oya, mafkura, ma'rifat va din bilan bog'liq boshqa ko'plab xususiy tushunchalarni ham nazardan qochirmaslik lozim. Ular ma'naviyat kategoriyalarining tarkibiy qismi bo'lib, ma'naviyat kategoriyalari ushbu tushunchalar uchun umumiy mezon vazifasini bajaradi. Ma'naviyat kategoriyalari bir tomondan, inson tafakkuri mahsuli, ikkinchi tomondan, ma'naviy voqea va hodisalarning inson miyasida aks etish natijasi, uchinchidan esa, inson ongining voqelikka yaqinlashishi va dunyoni bilish vositasidir. Ma'naviyat kategoriyalari ma'naviy hayot hodisalarini anglashda nazorat va metodologik ahamiyat kasb etadi.

Bunda ma'naviyat kategoriyalari, birinchidan, insonning jamiyatdagi hodisalar mohiyati va tizimini, ularga xos qonuniyatlarni anglash jarayonida erishgan bilimlarning natijasi, ikkinchidan, hayotni yanada chuqurroq bilish va uning sirlari hamda qonuniyatlarini ochishda qo'llaniladigan muhim ilmiy vositalar hisoblanadi. Ularni bir-biridan ajratib yoki mutloqlashtirib yuborish noto'g'ri. Chunki, ma'naviyatning o'zi bir butun, yaxlit va ko'p qirrali ijtimoiy hodisa bo'lganidek, ma'naviyat kategoriyalari ham o'zaro aloqadorlikda namoyon bo'ladi. Ilm-fanning vazifasi ularni bir-biridan farqlay olish hamda umumaloqadorlik va bir butunlikda tadqiq etib, ma'naviyatning xususiyat va belgilarini ochish, amaliyotda uning imkoniyatlaridan ijodiy foydalanishga ko'maklashishdan iboratdir.

Ilmiy-nazariy va metodologik nuqtayi nazardan olganda ma'naviyat kategoriyalari obyektiv mazmunga ega bo'lib, ma'naviy hodisalar va jarayonlar tufayli ro'yobga chiqadi, namoyon bo'ladi, hayotning o'ziga xos xususiyatlari, tomonlari, belgilarini ifodalovchi voqelik

sifatida inson tafakkurida aks etadi. Ularning har biri ma'naviyat yo'nalishidagi barcha fanlar uchun ilmiy-metodologik ahamiyatga ega bo'lgan umumiy kategoriyalar hisoblanadi.

Ma'naviyat kategoriyalari moddiy olamdan, uning tushunchalaridan tubdan farq qiladi. Ko'p hollarda ularning bahosi va qiymatini aniq raqamlarda ifodalash qiyin, ularga xos xususiyat va qadrli jihatlarni muayyan foizlar va ko'rsatkichlar bilan o'lchab bo'lmaydi. Bu borada ushbu tushunchalarning qadri, inson va jamiyatga ta'siri muhim ahamiyat kasb etadi. Aslini olganda, ma'naviyat kategoriyalarining aniq formulasi, timsolini topish qiyin, ularning mazmun-mohiyati, qadri va ahamiyatini ko'proq qiyoslash va taqqoslash orqali bilib olish mumkin. Shu ma'noda ma'naviyat kategoriyalari inson hayotining ajralmas qismi, jamiyatda amalga oshayotgan o'zgarishlar va jarayonlarning inson ongidagi in'ikosi, haqiqiy mezoni, bashariyat doimo intilib yashaydigan maqsad va ideallar majmui, hamma zamonlar uchun ularning mazmun-mohiyatini belgilaydigan eng muhim umuminsoniy qadriyatlarning ifodasi bo'lib qolaveradi.

Taniqli faylasuf Abdurahim Erkayevning ilmiy tadqiqotlarida qayd etilganidek, jamiyatning umumiy qoidalaridan tashqari, ma'naviyatning o'ziga oid qonunlari bor. Ular tabiat va jamiyat qonunlari kabi obyektiv xarakterga ega, hech kimning xohish-irodasiga bo'ysunmaydi. Biroq, tabiat qonunlaridan farqli, jamiyatning barcha qonunlari kabi ma'naviyat qonunlari, garchi odamlarga bo'ysunmasa-da ularning ongli faoliyati tufayli yuzaga chiqadi. Ma'naviy yuksalishning xususiyatlarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

1) jamiyat taraqqiyoti jarayonida sog'lom ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlar muttasil o'sib borishi qonuni;

2) ma'naviyat rivojlanishining madaniy taraqqiyot darajasiga (yoki ma'naviy hayotning ijtimoiy hayotga) bog'liqligi qonuni;

3) ma'naviyat rivojlanishining ijtimoiy ong va ijtimoiy munosabatlar rivojlanishi darajasi bilan o'zaro bog'liqligi qonuni.

Ma'naviyat qonunlari jamiyat qonunlarining xususiy ko'rinishidir. Bu – ma'naviyatning yaxlit tizim sifatidagi yuksalish qonunlaridir. Bundan tashqari, ma'naviyat tarkibiy tuzilmalarining rivojlanishi va faoliyat ko'rsatishini ifodalaydigan qonunlar bor. Ular ma'naviyatning xususiy qonunlaridir. Masalan, axloq, til, adabiyot, san'at qonunlari kabi.

Insonning birlamchi moddiy ehtiyojlari qondirilishi unda ruhoniy, ma'naviy ehtiyojlarni uyg'otadi. Qorni to'q, xavf-xatardan xoli inson qo'shiq aytgisi, raqs tushgisi, surat chizgisi, biror narsa yasagisi, o'ylab topgisi keladi. O'z navbatida, bu ehtiyojlarning qondirilishi ular yanada sifatli, mukammal va mazmunli bo'lishiga yangi ehtiyoj tug'diradi. Inson ehtiyojlari ortishi ijtimoiy taraqqiyot qonuni, ma'naviy rivojlanishi qonunidir. Ammo insonning barcha ehtiyojlari, jumladan, moddiylari ham o'z ma'naviy jihatlariga ega. Hayvonot olamida ehtiyojlar yuksalmaydi, faqat o'zgaradi, natijada biologik organizm tabiatga moslashadi, xolos. Insonning esa ehtiyojlari muttasil yuksaladi: moddiylari ham, ma'naviylari ham. Bir ehtiyojning qondirilishi undan yuksakroq yangi ehtiyojlarni tug'diradi.

Ehtiyojlar yuksalishi va ma'naviyat rivojlanishi – o'zaro chambarchas bog'liq. Ehtiyojlar yuksalsa, ma'naviyat rivojlanadi, rivojlangan ma'naviyat esa yuksak ehtiyojlarni taqozo etadi. Rivojlangan ma'naviyat – qondirilgan sog'lom ehtiyojlarning yuzaga chiqishi va ayni paytda nisbatan yuksakroq yangi ehtiyojlarning tug'ilishidir. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida ma'naviyat yuksalishi va ehtiyojlar o'sishi o'rtasidagi aloqalar ikkinchi darajali, yuzaki, tasodifiy va muvaqqat emas, muhit, zaruriy, takrorlanuvchan va doimiy aloqalardir. Shu sababdan, bu aloqalar ma'naviyat yuksalishi qonunidir. Lekin ehtiyojlarning o'zi bevosita ma'naviyat tarkibiga kirmaydi, balki uning rivojlanish sabab va oqibati, shart-sharoiti, harakatlantiruvchi kuchini tashkil qiladi. Ehtiyojlarning yuksalishi inson tabiatiga, asl mavjudligiga mos. Shu ma'noda, insonni «ehtiyojlari yuksaladigan mavjudot» deyish o'rinlidir.

Ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlarni mazmuni, vazifalari, ahamiyati, muayyan ijtimoiy ong shakliga mansubligiga qarab ikki guruhga bo'lish mumkin:

1. Umumma'naviy, ya'ni ma'naviyat yaxlit tizim, bus-butunlik sifatida taqozo etadigan va vujudga keltiradigan ehtiyojlar.

2. Ma'naviyatning nisbatan mustaqil tarkibiy qismlari sifatida ijtimoiy ong shakllari taqozo etadigan va vujudga keltiradigan ehtiyojlar.

Birinchi guruhga mansub ehtiyojlar quyidagilardan iborat: a) insonning o'z tabiati (mohiyati)ni takomillashtirish ehtiyoji; b) ijtimoiy yaratuvchanlik imkoniyatlari (salohiyati)ni oshirish ehtiyoji; v) shaxs sifatida qobiliyatlarini yuzaga chiqarish ehtiyoji; g) erkinlik darajasini orttirib borish ehtiyoji.

Ularning har biri ko'plab talab, me'yor, mezon va ko'rsatkichlarni qamrab oladi. Masalan, insonning o'z tabiatini takomillashtirish ehtiyojini oladigan bo'lsak, u avvalo insonning aqlli, ongli bioijtimoiy mavjudot ekanidan kelib chiqadi. Demak, umumma'naviy ehtiyojlar inson aqli, tafakkuri, bilimlari, tuyg'ulari, ijtimoiy faolligi va aloqalari boyishiga bog'liq. Inson biologik tabiatiga ko'ra sog'lom bo'lishi (jamiyat miqyosida bu sog'liqni saqlash tizimi va tibbiyot fanlari rivojlanishini taqozo etadi) lozim. Ijtimoiy tabiatiga ko'ra, jamoaviylik tuyg'usi mustahkamlanib, ijtimoiy aloqalari va muloqot maydoni muttasil kengayib borishi, jamiyatdagi mavjud tartib-qoidalar, me'yorlarni yaxshi bilishi, o'z manfaatlarini jamiyat manfaatlari bilan uyg'unlashtira olishi kerak.

Inson – o'z oldiga ongli maqsad qo'yib, mehnat qiladigan, tabiat, jamiyat va o'z-o'zini qayta yaratadigan mavjudot. Inson yaratuvchilik faoliyatini takomillashtirish uchun muttasil nazariy va amaliy bilimlari, mehnat va ijod ko'nikmalari, hayotiy tajribasini oshirib borishi lozim. Bular jamiyatda ta'lim-tarbiya tizimi vujudga kelishi va jamiyat bilan birga rivojlanib borishini taqozo etgan. Ota-ona farzandiga bo-

laligidan mehnat qilish, yashash qoidalarini, aka-ukasi, qo'ni-qo'shnisi, tengdosh-do'stlari bilan ahil bo'lish, bir-birini qo'llab-quvvatlashni, oila, mahalla va jamoat joylarida intizom saqlashi, xushmuomalalikni, urf-odat, an'analar uchun mas'ul bo'lishni, ularga itoat etishni o'rgatadi. Bolada, jamoaviylik tuyg'ulari, mas'uliyat, muloqot, birga yashash va mehnat qilish me'yorlari asta-sekin qaror topadi. Bu uning ijtimoiylashuvidir.

Mehnat qilish va yaratuvchanlikni, biror kasb-hunarni bola dastlab oila, urug'-jamoa, mahalla, nisbatan rivojlangan jamiyatlarda esa maxsus tashkil etilgan ta'lim, kasb o'rgatish muassasalarida o'rganadi. Tarbiyaning barcha yo'nalishlari, jumladan, jismoniy va mehnat tarbiyasi ma'naviyatga daxldordir. Tarbiya, ta'lim qatori, jamiyat umumma'naviy ehtiyojlarini yuzaga chiqarishda hal qiluvchi institutdir. Inson o'z ijodiy-yaratuvchanlik salohiyatini o'stirishi, shaxs sifatida namoyon bo'lishi uchun yaxshi ta'lim-tarbiya olishi, chuqur bilim, kasb mahorati, mehnat, ijod ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak. Bundan tashqari, o'z ishi, faoliyatini tanqidiy tahlil qilib, kamchiliklaridan qutulishga harakat qilishi lozim. Bular esa insonning o'z-o'zini tarbiyalash, bilim va malakasini oshirish (o'qish) ehtiyojidir. Demak, ehtiyoj nafaqat oila, jamiyat tomonidan tarbiyalanadi, shuningdek, u insonning shaxsiy ongli faoliyati mahsulidir. U insonning ichki, o'z-o'zini takomillashtirish va qayta yaratish omiliga aylanadi.

Jamiyat tashkil qilgan ta'lim-tarbiya tizimida inson, asosan obyektdir. O'z-o'zini tarbiyalash tizimida esa u bir vaqtda ham obyekt, ham subyekt hisoblanadi. Mehnatsevarlik, faollik, izlanish, mahoratga, tanlagan sohasida komillikka intilib, o'z ustida ishlash insonning shaxs sifatida o'zligini namoyon etishi, salohiyati, qobiliyatini yuzaga chiqarishning zarur shartidir. Bular orasida yana bir muhim shart borki, bu insonning erkinlik darajasidir. Erkin bo'lmagan inson na hayotda, na ijodda o'z imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqara oladi. Insonda erkinlik ehtiyojlarining o'sib borishi jamiyat taraqqiyoti bi-

lan, ijtimoiy qadriyatlar tizimining insonparvarligi, tafakkur erkinligi, tolerantlik qaror topishi, ma'naviy muhit mustahkamlanishi bilan bog'liq.

Ikkinchi guruhga ijtimoiy ongning alohida shakllariga oid ehtiyojlar tizimi kiradi: a) e'tiqodiy, ya'ni ilmiy-falsafiy va diniy ehtiyojlar – narsa va hodisalar, jamiyat va inson, abadiyat va foniylik mohiyatini anglashga intilish, hayot ma'nosini, yashashdan maqsadni bilish; b) axloqiy ehtiyojlar – ezgulik, insonparvarlik, vatanparvarlikka intilish, vijdon amriga quloq tutib yashash, baxtli turmush kechirish; v) estetik ehtiyojlar – go'zallikka intilish, hayotni, tabiat va jamiyatni go'zallashtirish («go'zallik qonunlari bo'yicha» qayta yaratish), go'zallikdan zavq-shavq tuyish, huzur-halovat olish, nozikta'b inson bo'lish, ijod qilish; g) huquqiy ehtiyojlar: adolatni qaror toptirish, insonni, tabiatni turli adolatsizlik, zo'ravonlik va ekstremistik tajovuzlardan himoya qilish, inson huquqlarini, qonun ustuvorligini har tomonlama ta'minlash; d) siyosiy ehtiyojlar – huquqiy demokratik davlat, ochiq fuqarolik jamiyati qurish, demokratiya va ijtimoiy adolatga asoslangan boshqaruv tizimini yaratish va uzluksiz takomillashtirib borish, davlat va fuqaro, jamiyat va shaxs manfaatlarini uyg'unlashtiradigan, ijtimoiy-siyosiy va huquqiy mexanizmni ishlab chiqish va doimiy ravishda takomillashtirib borish; e) boshqa ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlar: oilani mustahkamlash, urf-odatlar, marosim, an'analarni takomillashtirish, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sportni rivojlantirish, axborot olish, hordiq chiqarish, bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazish va hokazo. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida sog'lom ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlarning muttasil o'sib borishi ma'naviyat yuksalishi qonunlaridan biridir.

Ma'naviy hayotning g'oya, mafkura, axloq, madaniyat, ma'rifat bilan bog'liq xususiy sohalarga doir bir qator qonun va tamoyillari bor. Ular yuqorida ko'rsatilgan qonunlar bilan birga, ma'naviyatga xos qonun-qoidalar tizimini tashkil qiladi hamda shu sohadagi nar-

sa va hodisalar, voqea va jarayonlar orqali namoyon bo‘ladi. Mazkur tizimni hozirgi zamondagi o‘zgarishlar bilan bog‘lab, o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ayniqsa, hozirgi davrda jahonda va mamlakatimizda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarning ma’naviyat sohasidagi xususiyatlarini bilib olish, qo‘lga kiritilgan ilmiy dalillarni tajribada qo‘llash, mazkur yo‘nalishdagi vazifalarni aniqlash, zarur chora-tadbirlarni belgilash imkonini beradi.

1.3. «Ma’naviyat asoslari» fanining boshqa fanlar bilan bog‘liqligi

«Ma’naviyat asoslari» fani dunyoda o‘qitilayotgan 2000 dan ortiq fanlar va maxsus kurslarning barchasi bilan aloqada desak, xato bo‘lmaydi.

«Ma’naviyat asoslari» falsafa fani bilan bog‘langan bo‘lib, falsafaning kategoriya yoki tushunchalaridan, qonunlaridan foydalanadi. Falsafa bergan umumiy xulosalar «Ma’naviyat asoslari» uchun juda muhimdir.

Falsafada o‘qitiladigan ijtimoiy ong shakllari – san’at, madaniyat, axloq, estetika, din kabi sohalarsiz insonda yuksak ma’naviyatni shakllantirib bo‘lmaydi. Bu sohalarda falsafa bergan umumiy, nazariy fikrlar «Ma’naviyat asoslari» uchun mushohada obyektlaridir. Shuningdek, «Ma’naviyat asoslari» fanini o‘qitish jarayonida Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar, dinshunoslik, tarix, siyosatshunoslik, adabiyot, ona tili, iqtisodiyot nazariyasi, odobnoma, mantiq, etika, psixologiya, axloqshunoslik, sotsiologiya, ekologiya va boshqa fanlarga ham murojaat qilinadi. Shuni ta’kidlash lozimki, bu «Ma’naviyat asoslari» fani tabiiy fanlar bilan bog‘liq emas, degan fikrni bildirmaydi. Binobarin, tabiiy fanlardagi o‘zgarishlar, kashfiyotlar ham inson ma’naviyati bilan aloqadorligini unutmasligimiz kerak. Kashfiyot qiluvchi olimlarning faoliyati ma’rifat bilan

bog‘langan. Ma’rifat esa ma’naviyatning tarkibiy qismidir. Demak, «Ma’naviyat asoslari» fani tushuncha va qonuniyatlarni rivojlantirish uchun tabiiy fanlarga ham suyanadi.

«Ma’naviyat asoslari» fani ko‘proq insonning his-tuyg‘usi, ichki kechinmalari, o‘zaro insoniy munosabatlari, insonning tabiat va jamiyatga bo‘lgan ixtiyoriy tuyg‘ulari bilan bog‘langan. Bu jarayonlarning har biri inson ongiga mukammal singdirilishi «Ma’naviyat asoslari» fani bilan bog‘liq bo‘ladi. Axloqshunoslik fanidagi tushunchalar «Ma’naviyat asoslari» fani tushunchalari bilan uzviy aloqada. «Ma’naviyat asoslari» ayniqsa Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar fani bilan ham yaqindan aloqada va bog‘lanishdadir. Ma’lumki, Milliy istiqlol g‘oyasi fanida g‘oya va mafkura tushunchalari, ularning insoniyat tarixi va taraqqiyotiga qanday ta’sir ko‘rsatgani, hozirgi davrning mafkuraviy manzarasi, dunyoni bo‘lib olish uchun kurash, yot g‘oyalarning mintaqa va mamlakatimiz aholisiga ta’siri, mamlakatda barpo etilayotgan jamiyat va bu jarayonda milliy va umuminsoniy g‘oyalarning qay tarzda ahamiyat kasb etishi o‘z aksini topgan.

Zikr etilgan sohalar insonning ruhiyati va ma’naviyati bilan bog‘liq. Yuzaki qaraganda, bu fanlar nisbatan bir-biridan uzoq tuyulsa-da, aslida chambarchas bog‘langandir. Bu fanlarni o‘zaro bog‘langan holda tahlil qilinsa, ularning ta’sirchanligi oshadi. O‘quvchi tomonidan yengilroq qabul qilinadi. Masalan, milliy istiqlol g‘oyasi, avvalo, ma’rifat orqali singdiriladi. Ma’rifatsiz milliy istiqlol g‘oyasining keng qirralari tushunilmaydi. Shu bilan birga, milliy istiqlol g‘oyasidagi Vatan ravnaqi, komil inson faoliyati, millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik, xalq farovonligini ta’minlashdagi omillar haqida so‘z borganda, bu sohalarni yuksak ma’naviyatli kishilarda aks etishi haqida fikr yuritiladi. Zero, milliy istiqlol g‘oyasining oliy maqsadi ezgu g‘oyalarga tayangan holda xalqning o‘z buyuk kelajagini bunyod etishga safarbar etishdan iboratdir. O‘zbekiston aholisini hozirgi hayot talablariga javob beradi-

gan g‘oya asosida mustahkam irodali, yuksak e’tiqodli, vatanparvar va insonparvar qilib tarbiyalash yuksak ma’naviyat bilan bog‘langan. Yuksak ma’naviyatga ega bo‘lgan kishilar yuqoridagi jarayonlarga xalq manfaati nuqtayi nazaridan yondashadi.

Ikkala fanda ham insonlarda ezgu niyatlarni tarkib toptirgan g‘oya mujassamdir. Milliy istiqlol g‘oyasi fani fuqarolarda mustaqillik dunyoqarashini va erkin fikr yuritish, mustaqil tafakkurga ega bo‘lish, sog‘lom ijtimoiy muhitni yaratishga yordam bersa, «Ma’naviyat asoslari» mazkur fan uchun zamin tayyorlaydi va ushbu yo‘nalishda barchani tarbiyalashga ko‘maklashadi. Istiqlol g‘oyasi jamiyatni yot va begona g‘oyalar ta’siridan himoya qilish, fuqarolarimizda mafkuraviy immunitetni shakllantirishga harakat qilsa, «Ma’naviyat asoslari» fani insonlarda Vatan tuyg‘usi, mehnatsevarlik, insonparvarlik, saxovat, yaxshilik, poklik, halollik kabi yuksak ma’naviy tuyg‘ular nazariyalarini ishlab chiqadi va milliy istiqlol g‘oyasini yoshlarga singdirishni tezlashtiradi. Bu fanlar o‘rtasidagi munosabat va aloqadorlik nisbiy bo‘lsa-da, ikkala fanning bahs mavzulari turlichadir.

Yuqorida ta’kidlanganidek, axloqshunoslik fani tushunchalarining ba’zilari bilan yaqin aloqadadir. Insonning ichki va tashqi go‘zalligi, axloqiy xislatlari donishmandlar hikmatlari, rivoyatlar axloqshunoslik fanida ham o‘rganiladi. Ammo bunda ularning tarixiy kelib chiqishi, mansublik doiralari chuqurroq o‘rganilsa, ma’naviyat asoslarida esa bularga amal qilish natijalariga ko‘proq e’tibor qaratiladi. Yoki siyosatshunoslik fanini olsak, u ham ma’naviyat asoslari bilan aloqadadir. Sababi, siyosat bilan shug‘ullanuvchilarning ma’naviyati «Ma’naviyat asoslari» fanida muhokama qilinadi. Shu bilan birga, siyosatning o‘zi ma’naviyat bilan aloqada bo‘lib, jamiyat ruhiy holatining shakllanishida bu ikkala soha muhim o‘rin egallaydi. Jamiyat siyosatining to‘laligicha qabul qilmagan va o‘z ma’naviyatini siyosatdan ustun qo‘ygan shaxslar kam emas.

Siyosatda talablar o‘ziga xos xususiyatga ega. Shaxsiy intilishlar davlat va jamiyat manfaatlariga mos tushmasligi mumkin. Shu jihatdan haqiqiy siyosatdonlar ma’naviyat asoslariga e’tibor qaratib, undan o‘z maqsadlarida foydalanishi zarur. Oqilona siyosat yuritish uchun yuksak ma’naviyatlilik talab etiladi.

«Ma’naviyat asoslari» Dinshunoslik fani bilan ham yaqindan aloqadadir. Dinshunoslikdagi iymon, e’tiqod, halollik, insonparvarlik, ilm, mehnatsevarlik, yaxshilik va boshqalar to‘g‘risidagi sohalar «Ma’naviyat asoslari» fanida tahlil qilinadi va bu sohalar jamiyatning ma’naviy muhiti bilan bog‘lanadi. Ma’naviy, diniy sohalar o‘zaro munosabatda ekanligi, ularning aksariyat qismi mujassam bo‘lgan shaxslar jamiyatning kelajagi «Ma’naviyat asoslari» fanida ta’kidlanadi.

Yoki pedagogika fanini oladigan bo‘lsak, bu fan ta’lim-tarbiyaning nazariy asoslarini hal etib bersa, bu nazariyalarning amaliyotdagi tasdiqlari «Ma’naviyat asoslari» fanida o‘z aksini topadi va hokazolar.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ushbu fanlar shaklan har xil bo‘lsa-da, mazmunan bir-birini boyitadi va to‘ldiradi.

O‘zbekistonning buyuk kelajagini yaratuvchilar yuksak ma’naviyatga ega bo‘lmoqliklari zaruriyatdir. Zero, ulardan, avvalo, aqlli, odobli, mehnatsevar, bilimli, siyosatdon, milliy g‘ururli, vatanparvar, insonparvar, halol, qo‘rqmas, baynalmilal, sofdil bo‘lishlari talab etiladi. Bu xislatlarni har bir shaxsda shakllantirish mazkur fanning maqsadidir.

Mustaqilligimiz sharofati bilan dunyoviy bilimlarni rivojlantirgan ajdodlarimizning hurmatini o‘rniga qo‘yish, ilm-ma’rifat, ma’naviyatning yuksakligini tarannum etgan buyuk bobokalonlarimiz hayoti va faoliyati haqida yoshlarga keng qamrovli ma’lumot berish imkoniyati yaratildi. Bu ezgu ishda «Ma’naviyat asoslari» fani kamarbasta bo‘lmoqda.

Xalqimiz milliy g‘ururini ko‘tarish jamiyatning ma’naviy qiyofasini o‘zgartirishga olib keladi. «Ma’naviyat asoslari» fani ana shu

dolzarb muammoni ham o‘rtaga qo‘yadi va uni hayotga tatbiq etadi. O‘zbek xalqining qadimiy tarixi, urf-odatlari, qadriyatlari haqida hozirgi avlod ko‘proq bilishni istaydi. Bu borada ularga «Ma’naviyat asoslari» fani eng yaqin yordamchi hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, mamlakatimizda Vatani va xalqiga jonkuyar, mustaqil fikrlaydigan, respublika muammolarini ongli ravishda mas’uliyat bilan hal eta oladigan ijodkor, yangilikka intiluvchan, istiqlol g‘oyalari va mafkurasiga sadoqatli avlodni voyaga yetkazish vazifasi «Ma’naviyat asoslari» fanining diqqat markazida.

Barcha islohotlarning taqdiri va ularning samarasi uchun javob beradigan, mamlakatimizning ertangi kuni va istiqboli uchun fidoyi insonlarni tarbiyalash borasida ustuvor davlat siyosati yuritilmoqda. Shu sababli, «Ma’naviyat asoslari» fani dasturida ko‘zda tutilgan mavzular mohiyat jihatidan ulkan maqsad va vazifalarni ko‘zlaydi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. «Ma’naviyat» so‘zining lug‘aviy ma’nosini angladingizmi?
2. Alisher Navoiy «komil inson» g‘oyasini hayotning eng dolzarb masalasi deyishining sababini izohlab bering.
3. «Shaxsiy manfaatlarni xalq, Vatan manfaatlari bilan uyg‘un» iborasini tahlil qiling.
4. Nima uchun xalqimiz Vatandan yiroqlikni og‘ir qabul qiladi?
5. Ma’naviyat kategoriyalarining mohiyatiga yetdingizmi?
6. Ma’naviyatni rivojlantirish qonunlarini tushuntirib bering.
7. «Ma’naviyat asoslari» fani qaysi ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan yaqindan aloqada ekanligini bilasizmi?
8. O‘zbekistonning buyuk kelajagini yaratuvchi yoshlarga qanday ulkan vazifalar yuklatilmoqda?

Men uchun vatan ozodligi, xalqimning omonligi, yurtimning ravnaqi, mana shu zaminda yashaydigan har bir oilaning farovonligidan boshqa oliy saodat yo'q.

Islom Karimov

2-MAVZU. MILLIY-MA'NAVIY TIKLANISH KONSYEPSIYASI, UNING MILLIY MUSTAQILLIKNI MUSTAHKAMLASHDAGI AHAMIYATI

Reja:

2.1. Inson ma'naviy kamoloti va jamiyat taraqqiyotining o'zaro bog'liqligi.

2.2. Milliy-ma'naviy tiklanish konsepsiyasining ishlab chiqilishi va uning nazariy hamda amaliy ahamiyati.

2.3. Milliy ma'naviyatning tiklanishi va rivojlanishida amalga oshirilgan tadbirlar.

Tayanch so'z va iboralar

Ma'naviyat va jamiyat, ijtimoiy adolat, pirovard maqsad, moddiy va ma'naviy taraqqiyot konsepsiyasi, yangi jamiyat qurish, milliy ruhiyat, milliy tiklanish, shaxs ma'naviyati, kuch – bilim va tafakkurda, mafkuraviy bo'shliq, ma'naviyat tushunchasining mazmuni, nazariy, metodologik, ma'naviy meros, millatimiz faxrlari.

2.1. Inson ma'naviy kamoloti va jamiyat taraqqiyotining o'zaro bog'liqligi

Ma'naviyat va jamiyat tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog'langan. Jamiyat ma'naviyatsiz bo'lmaganidek, ma'naviyat ham jamiyatdan tashqarida yuzaga kelishi, rivojlanishi aslo mumkin emas. Jamiyat ma'naviyat kamol topib, muayyan maqsadlar, manfaatlar asosida uyushgan kishilarning birligidir.

Kishilar ma'naviy kamolotning har qanday darajasiga faqat jamoaga birlashib, yashab, mehnat qilgandagina yetisha oladilar. Ma'naviyat insonga o'ziga xos betakror mohiyat, imkoniyat baxsh etadi, jamiyat a'zolarini birlashtiradi. Ma'naviyat shaxsning, insonning, xalqning, davlatning, jamiyatning kuchi va qudratidir, taraqqiyotini, imkoniyatini va istiqbollarini belgilab beruvchi ichki ijobiy, ruhiy omilidir.

Jamiyat taraqqiyoti va kishilarning ma'naviy kamoloti bir-biri bilan bog'langan, biri ikkinchisisiz voqe bo'lmaydigan murakkab jarayondir. Shuning uchun ham insoniyat tarixining barcha davrlarida olimlar bu jarayonning ichki mohiyatini, qonunlarini anglashga, ularga yo'nalish berishga harakat qilganlar. Barcha davrlardagi davlatlarda ta'lim-tarbiya, ma'rifiy ishlar tizimi ham shu maqsadlar bilan bog'langan.

Ta'lim-tarbiya ishlarining zaminida barcha davrlarda ham muayyan manfaatlar bilan bog'langan maqsadlar yotgan. Bu maqsadlar tizimi va ularning mohiyati davlatlar, turli siyosiy kuchlar yaratgan va amal qilgan mafkurada ifodalangan. Har qanday mafkura ham jamiyat ma'naviy kamolotini, unga zamin bo'ladigan ta'lim-tarbiya ishlari tizimini muayyan ijtimoiy, siyosiy maqsadlar bilan bog'lashga qaratilgan g'oyalardan iborat bo'lgan. Bu boradagi tadbirlar ma'naviyatning jamiyat taraqqiyotiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan katta omil ekanini chuqur anglashdan kelib chiqqan. Tarbiya, ta'lim zami-

nida yotgan har qanday g‘oya ijtimoiy adolat, insonparvarlik, yetuk axloq, demokratiya, huquq mezonlariga, ilm-fan yutuqlariga asoslangandagina jamiyat ma’naviy kamolotiga ijobiy ta’sir etishi mumkin.

Ma’naviyatning mohiyati va amaliy ahamiyati, ayniqsa, jamiyat taraqqiyotining burilish davrlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Davlatning kuchi va qudratini ma’naviy jihatdan barkamol bo‘lgan insonlargina belgilaydi. Ma’naviyatga e’tibor bermagan mamlakatda qayta iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy buhronlar sodir bo‘ladi. Jamiyat hayotidagi barcha buhronlarning tomiri ham kishilarning ma’naviy kamoloti darajasi va holatiga borib taqaladi. Xalqi ma’naviy jihatdan qashshoq bo‘lgan mamlakat, tabiiy boyliklari behisob bo‘lsa ham, hech qachon buyuk davlat bo‘la olmaydi. Bu fikrlar to‘g‘riligi insoniyat jamiyati taraqqiyotining har qadamida to‘la isbotlandi. Shu sababli ham hozirgi kunda jahondagi rivojlangan mamlakatlar, mustaqil taraqqiyoti yo‘liga o‘tib olgan yosh davlatlar jamiyat a’zolarining ma’naviy kamoloti masalasiga birinchi darajali ahamiyat berib kelmoqdalar.

Shu jihatdan ma’naviyat jamiyatning muhim tomonlaridan biridir. U insoniyat paydo bo‘lishi bilan vujudga kelgan, kundalik hayot va ishlab chiqarish jarayonining ma’naviy elementi sifatida namoyon bo‘lgan. Tarixiy taraqqiyotning borishi bilan u nisbiy mustaqillikka ega bo‘lib, turli shakllari qaror topa boshlagan. Aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralib chiqishi bilan ma’naviyatning mustaqil jabhalari rivoji ham yana tezlashgan, uning moddiy hayot bilan bog‘liqligi chuqurlashavergan.

Moddiy va ma’naviy hayot kategoriyalari ijtimoiy borliq va ijtimoiy ong kategoriyalaridan farq qilib, kishilarning ijtimoiy faoliyatlarini va o‘zaro munosabatlarini ifodalaydi hamda ularga nisbatan ancha aniqroq va mazmunliroqdir. Ular faqat ma’naviy hayotning moddiy hayotga bog‘liqligini ko‘rsatibgina qolmasdan, insonning mohiyatini, hayotiy faoliyatining asosiy shakllarini ham ifodalaydi. Bu kategoriyalar ijtimoiy hodisalarni kishilar faoliyatidagi moddiy

va ma'naviy jarayonlarning birligi sifatida tahlil etish lozimligini ko'rsatib beradi.

Jamiyat ma'naviy hayoti kishilar ishlab chiqarish faoliyati va o'zaro munosabatlarining subyektiv zamini bo'lib, o'z mohiyatiga ko'ra inson ijtimoiy hayoti, turmush tarzining muayyan usulidir.

Inson hayoti tajribasi, faoliyati, bilimi, ilmi, odob-axloqi, xatti-harakati bilan o'zining ma'naviy olamini boyitib boradi. Aqlan va axloqan boyib borgan sari o'z oldiga oliyjanob vazifalarni qo'yib, unga erishish uchun harakat qiladi. Harakat esa ma'naviy zaminni talab qiladi. Ma'naviy kamolot jarayonida inson xarakteri toblanadi.

Inson ongliligi o'z-o'zini anglashni ham ifodalaydi. Insonning mohiyati uning jismiy borlig'i bilan emas, balki ma'naviyati bilan bog'liqdir. Demak, ma'naviyatsiz inson bo'lmaganidek, ma'naviyatsiz ma'rifatli, rivojlangan jamiyat ham bo'lmaydi. Chunki, kishilar ma'naviyatda yangicha fikrlash bo'lmasa, ta'bir joiz bo'lsa, ongida islohot qilmay turib siyosiy-iqtisodiy islohotlar amalga oshishi qiyin kechadi va o'ylangan maqsadlarga erishib bo'lmaydi.

Har bir jamiyatning ma'naviyati inson kamolotining u yoki bu bosqichiga xos bo'lgan iymon va e'tiqodi, axloq-odobi, tajriba va malakasini o'z ichiga oladi va kishilarning faoliyati, iste'dodi, qobiliyati, yurish-turishida namoyon bo'ladi. Kishilarning ma'naviy fazilatlari, dunyoqarashi, mafkuraviy e'tiqodi bilan bog'lanib muayyan tartibga tushadi va ularning bevosita ta'siri natijasida jamiyat oldidagi vazifalarini anglashga yordam beradi.

Insoniyatning ma'naviy kamoloti imkoniyatlari cheksizdir. Bu cheksizlik insonning tabiati, u yashayotgan jamiyatning imkoniyatlari bilan belgilanadi. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida takomillashib, kengayib va chuqurlashib borayotgan axloqiy, huquqiy burch va mas'uliyat bilan bog'langan manfaatlar ma'naviy kamolotning yangi muammolarini keltirib chiqaraveradi. Muayyan oqilona manfaatning chegarasidan ikkinchisiga tadrijiy yo'l bilan o'tish ma'naviyat taraqqiyotining hal qiluvchi omilidir.

Ma'naviy kamolot xalqning tarixi, madaniy merosi, milliy, umuminsoniy qadriyatlarning mohiyati va ahamiyatini xolisona bilish, ulardan oqilona foydalanish, rivojlantirish bilan bog'liqdir. O'z milliy madaniyati, qadriyatlari, tarixiy merosidan bexabar va bebahra bo'lgan xalqlarda o'tmish haqidagi aniq tasavvur ham, kelajakka qaratilgan muayyan orzu-umid ham, bu yo'lda uyushqoqlik bilan kurash olib borish ishtiyoqi ham bo'lmaydi. Ma'naviy buhron holatiga tushub qolgan xalq undan chiqa olmasa, boshqa xalqlarning madaniyati ta'siriga tez berilishi, o'z milliy ruhiyatini yo'qotishi, qadr-qimmatini unutishi ham mumkin. Bunday xalqlar milliy ongi, ma'naviyati zaif bo'lgan etnik birlik sifatida tarix sahnasida o'zining munosib o'rnini egallay olmaydi. Bu fikrlar ham jamiyat va xalqning ma'naviy kamoloti bir-biri bilan uzviy bog'lanishda ekanligini ko'rsatadi.

Inson kamoloti ko'p qirralidir. Uning buyukligi, donoligi ham, birinchi navbatda, ma'naviy kamoloti darajasi bilan belgilanadi. Yetuk ma'naviyat sohibi bo'lgan, yangi muammolarni aql-zakovat bilan tahlil etadilar, ularni hal etishga o'z hissalarini qo'shadilar. Tarixiy taraqqiyotning barcha mas'uliyatli burilish davrlarida buyuk shaxslar jamiyat hayotida keskinlashayotgan ziddiyatlardan chiqish yo'llarini izlash bilan bog'liq bo'lgan ta'limotlarida inson ma'naviy kamolotining muayyan qirralariga alohida e'tibor berganlar. Xalqning ma'naviy kamoloti darajasi uning farzandlari faoliyatida, aql-zakovatida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Millatni ulug'laydigan mezon ham uning faoliyatiga asos bo'lgan ma'naviyatdir.

2.2. Milliy-ma'naviy tiklanish konsepsiyasining ishlab chiqilishi va uning nazariy hamda amaliy ahamiyati

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov davlat rahbari sifatida o'z faoliyatining eng muhim nuqtasiga

ma'naviy-madaniy, tarixiy merosga munosabat masalasini qo'ydi. Olib borilgan bu siyosatning mohiyati nimada?

Birinchidan, o'tmish, hozirgi zamon va kelajak bir-biridan ajralmas jarayon. Bu tarixiy qonuniyatdir. Hozirgi zamonni o'tmishdan, kelajakni hozirgi zamondan ajratib bo'lmaydi. To'g'ri, tarixda ham, ya'ni o'tmishda ham bu tarixiy qonuniyatni tan olmagan, ko'r-ko'rona undan chekingan rahbarlar, siyosiy oqimlar bo'lgan. Ammo, bu yo'l hech qachon taraqqiyotga olib kelmagan. Islom Karimov bu tarixiy qonuniyatni chuqur tushungani va uning ahamiyati nechog'liq buyukligini yurakdan his qilgani uchun rahbar sifatida ilk bor shu siyosatni e'lon qildi va bu siyosatning to'g'riligini amalda isbotladi.

Ikkinchidan, Islom Karimov Prezident sifatida o'z faoliyatining ilk boshidanoq ma'naviyatning ustuvorligini e'lon qildi va umrining so'nggi kunlarigacha bu siyosatning izchilligini ta'minladi. Darhaqiqat, qayerda yuksak ma'naviyat ustuvorlik qilsa, qayerda ma'naviyatga davlat miqyosidagi ish deb qaralsa, qayerda jamiyat a'zolarining aksariyat qismi yuksak ichki ma'naviyat yetukligiga ega bo'lsa, o'sha yerda taraqqiyot bo'ladi.

Sho'rolar hokimiyati yillarida milliy g'urur, iftixor, Vatanga muhabbat tuyg'ulari ko'p tashviqot qilindi-yu, ammo uning ma'nosi butunlay mavhumlashtirildi. Milliy tuyg'u, milliy iftixor o'z kindik qoni to'kilgan tuproqqa, o'z xalqiga e'tiqod tarzida emas, balki yuzlab millatlarni birlashtirgan sobiq SSSRga nisbatan e'tiqod tarzida tashviqot qilindi. Shu tariqa milliylik o'z asl ma'nosini yo'qotdi. «Milliy tuyg'u, – deb yozgan edi Islom Karimov, – inson uchun tabiiydir, chunki u ota-onasidan meros qilib olingan va bola o'z ota-onasiga, butun dunyoga aytgan birinchi so'zida ifodalanadi. O'z xalqiga, uning an'analariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmatni tarbiyalamasdan turib, o'z xalqini millatlarning butunjahon hamjamiyatida tenglardan biri sifatida idrok qiluvchi haqiqiy insonni, o'z Vatanining jonkuyarini tarbiyalash mumkin emas»[1].

[1] Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. Asarlar to'plami, 1-jild. T.: «O'zbekiston», 1996, 84-bet.

Mamlakatga rahbarlik qilmoqchi bo‘lgan yetakchi uchun yana bir shart shuki, u o‘zi belgilab bergan vazifalar ichidan asosiy xalqani topa bilishi va uni belgilab, maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qildira bilishga salohiyati yetarli bo‘lishi lozim. Yuqoridagilarni umumlashtiradigan bo‘lsak, mamlakatga rahbarlik qilmoqchi bo‘lgan yetakchi uni taraqqiy qildirishga xizmat qila oladigan ilmiy g‘oyalar majmuasi hisoblanadigan taraqqiyot konsepsiyasini ishlab chiqishi va uni amalga oshirishning imkoniyatlarini belgilab berishi talab etiladi.

Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyada mamlakatimiz va xalqimiz taraqqiyotini ta’minlashning asosiy omili sifatida milliy-ma’naviy tiklanish jarayoni ustuvor o‘rinni egalladi. Bu, albatta, bejiz emas. Ma’naviyat jamiyat taraqqiyoti, milliy kamoloti va shaxs barkamolligini belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi, chunki ma’naviyat rivojlangandagina jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy barqarorlik vujudga keladi hamda mamlakat va millat taraqqiy etadi. Bu, o‘z navbatida, shaxsning barkamol rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan zamin bo‘lib ham xizmat qiladi.

Buni chuqur his qilgan Islom Karimov mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan keyin ona zaminimizda demokratik davlat qurishning nazariy konsepsiyasini ishlab chiqar ekan, iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotni qurishning milliy-ma’naviy tiklanish bilan uyg‘un holda bo‘lishi kerakligini ham ilmiy asoslab berdi. Mamlakatimizda yangi jamiyat qurishning ilmiy-nazariy asoslarining aks ettirilishi jihatidan mukammal, fundamental dastur bo‘lgan «O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li» nomli asarida mustaqillikdan keyin O‘zbekistonni rivojlantirishning ma’naviy sohasidagi strategik vazifalarini ham belgilab berdi. Chunki unda iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotni qayta qurish sohasida ilgari surilgan barcha g‘oyalar bosib o‘tilgan qisqa davrda o‘zining ifodasini topdi va jamiyatimizni tubdan yangi bosqichga ko‘tardi.

Asarda ma'naviyatning xalqimizning ma'naviy ruhiyatini mustahkamlash va rivojlantirishdagi o'rni ham asoslab berilgan. Jumladan, shunday yozilgan: «Xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish – O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma'naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimizning qalbida butun Insoniyatning ulkan oilasida o'z mustaqilligini tushunib yetish va ozodlikni sevish tuyg'usi bilan birgalikda yetilgan»[1]. Ma'naviyatning milliy taraqqiyotidagi o'rni va uni o'zlashtirish zarurligi asarda ilmiy asoslangan. «Ma'naviyat o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi. Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi»[2].

Bu konseptual g'oyaning nazariy va amaliy ahamiyati shundaki, birinchidan, bu bilan muallif sobiq sho'rolar davrida ma'naviyatni rivojlantirishga uchinchi darajali omil sifatida qaralishining, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy inqirozning sabablarini ham ko'rsatib beradi. Ikkinchidan, ma'naviyatni rivojlantirmasdan, shaxsning ma'naviy ruhiyatini o'zgartirmasdan turib, jamiyatda ko'zlangan maqsadni amalga oshirish mumkin emasligini ilmiy asoslab berdi.

Milliy-ma'naviy tiklanishga bag'ishlangan konsepsiyasida vatanparvarlik shaxs ma'naviyatining ajralmas qismi ekanligini asoslab berishi alohida o'rinni egallaydi. Haqiqatdan ham o'z vatanini sevmagan, uning har qarich yeri uchun mas'ulligini his etmagan har bir inson ma'naviy jihatdan qashshoq hisoblanadi. Shu o'rinda bir muhim masalaga aniqlik kiritish lozim bo'ladi. U ham bo'lsa, «Milliy taraqqiyot» va «Milliy tiklanish» tushunchalarining mohiyati, mazmuni va me-

1 O'sha asar, 80-bet.

2 O'sha asar, 80-bet.

soni masalalaridir. Aslida ular bir-birlarini inkor qiluvchi tushunchalar emas. Aksincha meros, tarixiy xotirasi va zaminlari mustahkam millatlar uchun bu tushunchalarning o‘zaro uyg‘un holatigina milliy taraqqiyotni ta’minlaydi. Lekin falsafiy kategoriya (tushuncha) sifatida va o‘lcham (mezon)lari jihatdan ular bir-biridan farq qiladi.

Milliy taraqqiyot – evolutsion xarakterga ega. U pastdan yuqoriga tomon ko‘tarilishdan iborat bo‘lgan jarayondir. U millatning shakllanishi, takomillashuvi va yuksalishi kabi uzluksiz jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

Milliy tiklanish esa, millat taraqqiyoti tariximizning ma’lum bir bosqichida, ma’lum bir obyektiv va subyektiv sabablar oqibatida boy berilgan salohiyatni qaytadan millat taraqqiyotiga yo‘naltirish bilan bog‘liq bo‘lgan jarayondir.

Yana ham aniqroq aytadigan bo‘lsak, milliy tiklanish – u yoki bu millat hayotida sodir etiladigan, zo‘ravonlik yo‘li bilan uning avlod-ajdodlari tomonidan yaratilgan meros, urf-odatlar, an’analar, qadriyatlardan mahrum etilgan, tarixiy xotirasi toptalgan, milliy o‘zligini anglashi cheklangan, manfaatlari, maqsadlari, huquqlari poymol etilgan, tarixiy taraqqiyotning ma’lum bosqichiga kelib esa, o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritishi natijasida milliy rivojlanish borasida ana shu boy berilgan imkoniyatlarni istiqlol tufayli qo‘lga kiritib, ulardan foydalanishi, yaratilgan barcha moddiy va ma’naviy boyliklarni milliy rivojlanishga yo‘naltirishga qaratilgan umuminsoniy faoliyat hisoblanadi.

Dunyoda biror xalq, biror davlat yoki shaxs tomonidan olg‘a surilgan g‘oyalarni tushunib yetmaydigan xalq, davlat, shaxs qolmadi. G‘oyalarning erkin parvoz etish xususiyat va imkoniyatlari kengaydi. Faqat kim qanday g‘oyaga quloq tutadi, kim qanday g‘oyalarni asos qilib oladi – gap shunda. Fikrni, g‘oyani mahv etib yoki taqiq etib bo‘lmaydi. Fikr yo qabul qilinadi, yo qabul qilinmaydi, g‘oya yo davom ettiriladi, yo inkor etiladi. Mafkuraviy ahamiyat kasb etuv-

chi, inson dunyoqarashini belgilovchi g‘oyalar ziddiyatida kelishmovchilik bo‘lmaydi.

Mafkuraviy jihatdan ojiz jamiyat turli g‘oyalar tug‘ilishidan cho‘chiydi. O‘z yo‘li va mafkurasiga ega davlat, mamlakat va jamiyat fikrlar har xilligini ma’naviy taraqqiyot kafolati, deb tushunadi. Shuning uchun turli g‘oyalar, fikrlar, qarashlarga millat, davlat va muayyan jamiyat nuqtayi nazarini ifodalovchi g‘oyalarni qarshi qo‘yish lozim bo‘lsa, jaholat qarshisida ma’rifat nurining imkoniyatlari keng ochiladi. Bu fikr Sharq falsafasining mantiqiy davomi, ma’naviy takomillashimizning shu bugungi kundagi yangi zamonaviy va falsafiy talqinidir: jaholatga qarshi jaholat bilan jazo bermaslik – aqliy va ma’naviy kamolot belgisidir.

Har bir odamning o‘z hayot tarzi bilan bog‘liq maqsad va orzulari bo‘lganiday, millat va davlatning ham muayyan davr bilan bog‘liq maqsad va ideallari mavjud. Maqsad va ideal sari intilish millat va mamlakatning, albatta, shu bugungi hayoti va niyatidan yuksakroq ma’naviy manzil sari yurmog‘idir. Maqsad sari niyatlar aniq va ravshan bo‘lgach, istiqbol bayrog‘i ham yorqinroq hilpirab turadi, maqsad va ideallar aniq bo‘lmasa, istiqbol bayrog‘i bulutlar soyasida ko‘rinmay qoladi. Ana shu istiqbol bayrog‘i tomon ishonch va qat’iyat bilan olg‘a yurish, maqsadlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish nurli kelajak bo‘stoniga olib boradi.

Mafkura sohasida bizga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan yana bir xavf – bu o‘zbek millatining tarixini soxtalashtirish, turli xil g‘ayrimilliy talqinlar, siyosiy shiorlar bilan bizni tariximizdan, sharafli o‘tmishimizdan judo qilishga urinish tarzida namoyon bo‘lmoqda. Mustaqilligimizni qo‘lga kiritganimizdan keyin xalqimizning o‘z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlari, tarixini bilishga, o‘zligini anglashga qiziqishi ortib borayotganligi, odamzodning o‘z avlod-ajdodi kimligini, nasl-nasabi, tarixini bilish istagining doimiy ma’naviy ehtiyoj ekani va bu ehtiyojni tarix qondiradi.

Muayyan davrdagi milliy g‘oya, milliy mafkura, ya’ni jamiyatning asosiy maqsadini umumbashariy ideallar, demokratik tamoyillar bilan uyg‘unlashtirish masalasi juda muhimdir. Bu jarayon, millatni o‘z qobig‘ida o‘ralashib qolish xavfidan ozod etadi, unga jahon miqyosida keng tafakkur yuritish imkoniyatini beradi. Chunki insoniyat uchinchi mingyillikda ana shunday taraqqiyot va sivilizatsiyani qo‘lga kiritdi. Insoniyat taqdiri har bir millat va mamlakat taqdiri bilan, har bir millat va mamlakat qismati insoniyat istiqboliga daxldor bo‘lib qoladi. Davrimizning bunday o‘ziga xos va murakkab ijtimoiy-tarixiy jarayonlarini unutish aslo mumkin emas. Insonning o‘z millati hamda Vatani, shuningdek, insoniyat oldidagi mas’uliyati va burchini har bir yosh avlod ruhiga singdirish, yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘ularini insonparvarlik tamoyillari bilan uyg‘un kamol toptirish zaruriyati kuchayadi.

Ajdodlarimizdan qolgan ma’naviy meros har bir millatning nafaqat o‘tmishi, shuning bilan birga istiqboli uchun ham kuch, fidoyilik va ilhom manbai hisoblanadi.

2.3. Milliy ma’naviyatning tiklanishi va rivojlanishida amalga oshirilgan tadbirlar

O‘zbek xalqi salkam bir yarim asr mustamlakachilik zulmi ostida azob tortdi. Buning ikki asosiy sababi bor. Birinchi sabab xonliklar saltanati bosqinchi davlatlar ko‘z o‘ngida ichki nizolar tufayli tobora zaiflashib bordi. Buni diqqat bilan kuzatib borayotgan Rossiya imperiyasi aynan ular o‘rtasida nizo, nifoq urug‘larini sochib, bu siyosatni o‘ta mahoratli tarzda amalga oshirib bordi.

Xonliklardagi siyosiy arboblar tashqi siyosat masalalari, davlat xavfsizligini ta’minlash, jahon siyosatining yo‘nalishi Turkiston sari burilayotganligiga, shu bilan ertami, kechmi – bu siyosat bosqinchilik urushiga o‘z o‘rnini bo‘shatib berishini siyosiy ziyraklik, mantiq kuchi bilan anglashdek mas’uliyatdan uzoqlashgan edilar.

Turkistonga ofat buluti bo‘lib yog‘ilgan bosqin uchun Vatanni, davlatni katta janglarga tayyorlay olmagan hukmdorlarning bu siyosiy xatolari, qondosh, dindosh va millatdosh bo‘lib, o‘zaro til topisha olmaganliklari uchun tarix oldida javobgardirlar.

Ularning mana shu xatolari bois millatning bir yarim asr mobaynida g‘ururi toptalib, milliy qadriyatlari oyoq osti qilinib, millatning mard-u maydon bahodirlari yo‘q qilindi, millat uchun g‘am chekkan ma’rifat egalari qatl etildi yoki o‘zga yurtlarga umrbod surgun qilindi. Birinchi sabab shu tariqa ikkinchi sababga yo‘l ochib berar ekan, bosqinchilar Turkistonning xo‘jayini bo‘ldilar. Boshqaruvning to‘laqonli zo‘rlik va qonli jabr-zulm usuli joriy qilindi. Mustamlakachilik tizimining asosiy xususiyati va shiori adolatsizlik, bo‘ysunuvchi xalqlarni xor-u zorlik botqog‘iga uloqtirish edi.

Qo‘liga qullik kishani bog‘langanligi tufayli nomlari taqiq ro‘yxatiga tushgan ulug‘larimiz: Imom Buxoriy, Xoja Ahmad Yassaviy, Imom Termiziy, Najmiddin Kubro, Abu Mansur Moturidiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Bahovuddin Naqshband va yana ancha aziz-avliyolar tafakkuri hosilasi bo‘lgan ma’naviy xazinamizning haqiqiy merosxo‘rlaridan bebahra qilindi. Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Mirzo Boburlarning Vatan, el-yurt uchun tortgan bahodirlik na’ralari mustabid tuzum siyosatdonlariga ahamiyatsiz edigina emas, balki kommunistik mafkuraning zaiflashuvini kuchaytiruvchi jangovar vosita, avlodlarni erk va ozodlik uchun kurashga chorlovchi hayqiriq, millatni uyg‘otuvchi aks sado edi.

Xalqimizning ma’naviy-axloqiy merosi, buyuk tarbiya vositasi – Qur’oni karim va Hadisi shariflar bilan xalqimiz o‘rtasida tikanli maydon hosil qilindi va bu maydon kommunistik mafkuraning xudosizlikka asoslangan devori bilan to‘sildi. Xudosizlik ruhida tarbiyalangan qalbning insoniylik harorati yo‘qolib, yovvoyilik hislari shakllanadi, botiniylik o‘la boradi. Sovet davlati islomiy

iymon-e'tiqod bulog'i, axloqi barq urgan ne-ne ulug' allomalarni yetishtirgan Vatanimiz hududini mafkuraviy eksperiment, ya'ni tajriba maydoniga aylantirib, ushbu zaminni kommunistik tuzumning xudosizlik muhiti hukmron bo'lgan changalzor maydoniga aylantirmoqchi bo'ldilar.

Bu mudhishlikni sezib qolgan millatimiz faxrlari Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir kabi vatanparvar zotlarimizga dindor, millatchi tamg'asi bosilib, qatl qilindilar. Bunday adolatsizlik, qonunsizlik, zo'ravonliklarning cheki bo'lmagan, aksincha esa, uning ijodkori bo'lgan tuzum millatni ham, uning milliy-ma'naviy hayotini ham shafqatsiz davlat terroriga mubtalo qildi. Ularning bu qabohatlaridan dunyo larzaga keldi. Mustamlakachi tuzumni tarix va zamon rad qildi. Uning xarobalari o'rnida milliy ozodlik va milliy tiklanish bayrog'i ko'tarildi.

Faqat mustaqillikni qo'lga olishimiz sharofati tufayligina ma'naviy merosimizni, ko'hna va navqiron tariximizni o'rganish, jahon sivilizatsiyasidagi munosib o'rnimizni tiklash va demokratik davlat qurishdek baxtga musharraf bo'ldik.

Mustaqillikni qo'lga kiritganimizdan keyingi yillar ichida iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy sohalarda katta muvaffaqiyatlarga erishildi. Mamlakatimizda siyosiy barqarorlik vujudga keltirildi, bozor munosabatlariga o'tib, milliy-ma'naviy poklanish va tiklanishimizning murakkab vazifalarini vazminlik bilan amalga oshirmoqdamiz.

Mustaqillik yillarida ma'naviy merosimiz rahnamolarining nomlari tiklandi, ular tavallud topgan kunlar nishonlanmoqda, asarlari chop etildi. Chunonchi, Bahouddin Naqshband tavalludining 675 yilligi, Mahmud Zamaxshariy tavalludining 920 yilligi, Burhoniddin Marg'inoniy tavalludining 910 yilligi, Imom Moturidiy tavalludining 1130 yilligi, Abduxoliq G'ijduvoniy tavalludining 900 yilligi, Xo'ja

Ahror Valiy tavalludining 600 yilligi, Najmiddin Kubro tavalludining 850 yilligi, Imom Buxoriy hazratlari tavalludining 1225 yilligi, Ahmad Farg'oniy tavalludining 1200 yilligi nishonlandi.

YUNESKOning 1998-yildagi tadbirlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ahmad al-Farg'oniy tavalludining 1200 yilligini nishonlash to'g'risida»gi 1997-yil 27-noyabrdagi qaroriga ko'ra 1998-yili Ahmad al-Farg'oniy tavalludining 1200 yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Farg'ona shahrida Ahmad al-Farg'oniy nomi bilan ataladigan istirohat bog'i va qadimiy Quva shahrida Ahmad al-Farg'oniy haykali o'rnatildi. Alloma hayoti va ijodiga bag'ishlangan ilmiy anjumanlar, badiiy ko'rgazmalar o'tkazildi, kitoblari nashr qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 29-aprel qaroriga asosan «Imom al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligini nishonlash, ilmiy merosini o'rganish va targ'ib qilish, xotirasini abadiylashtirish» borasida katta ishlar qilindi. Imom Buxoriyning boy ma'naviy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib qilish maqsadida Imom Buxoriy xalqaro jamg'armasi tuzildi. Jamg'armaning asosiy vazifasi Qur'oni karim va Imom Buxoriyning «Al-Jomi' as-sahih»i tarjimalarining akademik nashrlarini tayyorlash, buyuk islomshunoslar ilmiy merosini tadqiq etish, diniy-falsafiy mavzularda anjumanlar o'tkazish va shular yordamida yosh avlodni milliy an'analarimizga sadoqat ruhida tarbiyalashdan iborat.

Imom Buxoriy yodgorlik majmui – Samarqand viloyati, Chelak tumani, Xartang qishlog'idagi alloma dafn etilgan qabriston musulmon ahlining eng tabarruk va aziz ziyoratgohlaridan bo'lib kelgan.

Islom Karimov «Imom Buxoriy yodgorlik majmui»ning ochilishiga bag'ishlangan marosimda so'zlagan nutqida ta'kidlaganidek: «Eng avvalo, bu ishlarni amalga oshirish zamirida savob degan oliyjanob tushuncha yotadi. Savob – ulug' insoniy fazilat, yuksak islomiy qadriyatlardan biridir. Mening komil ishonchim shuki, savob ishni har kim qilishi kerak, savob ishni har kuni qilish kerak.

Savobli amallar qilish esa xalqimizga xos azaliy xislatdir.

Savobli ishlarni qilgan odamga, uning el-u yurtiga albatta, Allohning rahmatlari yog‘iladi. Muqaddas qur’oniy oyatda ta’kidlanganidek, «Yaxshilikning mukofoti faqat yaxshilikdir». Biz ezgu ishlarni qanchalik ko‘p qilsak, ulug‘ ajdodlarimizning izzat-ikromini joyiga qo‘ysak, ularning tabarruk nomlarini butun dunyoga tarannum etsak, Yaratganimizning o‘zi bizni balo-qazolardan asraydi, bizga kuch-qudrat ato etadi, yo‘limizni ochib beradi»[1].

O‘zbekiston hukumati Jaloliddin Manguberdining mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi kurashda ko‘rsatgan mislsiz jasorati, vatanga va o‘z xalqiga sadoqat, cheksiz muhabbatini qadrlash, uning porloq ruhini abadiylashtirish maqsadida «Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligini nishonlash haqida» 1998-yilda qaror qabul qilindi. Qarorga ko‘ra, uning yurti Xorazmda haykal o‘rnatildi.

Islom Karimov «Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlangan nutq»ida «Jaloliddin Manguberdining hayot yo‘lini tahlil qiladigan, o‘sha tarixiy voqealarga bugungi kun ko‘zi bilan qarab baho beradigan bo‘lsak, ular bizni mana shunday tabiiy va ibratli saboq-xulosalar chiqarishga undaydi.

Birinchi xulosa shuki, hayot bor ekan, davlat, el-yurt bor ekan, shu erkin, osuda hayotni ko‘rolmaydigan, hasad va fitna bilan yashaydigan, zo‘ravonlik bilan o‘z hukmronligini o‘rnatishga, xalq tinchini buzishga urinadigan yovuz kuchlar hamisha bo‘ladi.

Bu – hayot. Bu hayotning achchiq haqiqati. Uni hech kim inkor etolmaydi. Buni nafaqat o‘z tariximiz va hayotimizda, balki boshqa xalqlar tarixi va hayoti misolida ham ko‘rish mumkin.

Ikkinchi xulosa shuki, hayot bor ekan, davlat, el-yurt bor ekan, o‘zing tug‘ilib o‘sgan, ota-bobolarning xoki yotgan, ertaga farzandla-

---

[1] Karimov I.A. Imom al-Buxoriy yodgorlik majmuining ochilishiga bag‘ishlangan marosimda so‘zlangan nutq. Asarlar to‘plami, 7-jild. T.: «O‘zbekiston», 1999, 183-184-betlar.

ring kamol topadigan tuproqning har bir qarichini muqaddas bilib, uni himoyalash, zarur bo‘lsa, bu yo‘lda jon fido etishga tayyor turish kerak.

Uchinchi achchiq xulosa shuki, har qaysi el, har qaysi yurt chetdan keladigan yovuz ofatdan ko‘ra, o‘z ichidan chiqadigan sotqin, iymonsiz, o‘zining manfaatini hamma narsadan ustun qo‘yadigan, kerak bo‘lsa, eng yaqin kishilarini ham sotadigan, o‘zini o‘stirgan, voyaga yetkazgan Vatanga qo‘l ko‘taradigan qabih kimsalardan nihoyatda ehtiyot bo‘lishi kerak. Bunday kuchlar, razil shaxslarning kibru havosi, manfur maqsadlari el-yurt tinchligi va taraqqiyotiga qanday xavf-xatar ekanini bugungi hayotimizda ko‘rib turibmiz.

Takror aytaman, bu nafaqat kechagi tariximiz, balki bugungi hayotimiz bilan hamohang achchiq saboqdir.

Yana bir saboq shuki, el-yurt va davlat uchun, uning taqdiri va kelajagi uchun qayg‘uradigan, odamlarning ezgu niyatlarini o‘ziga oliy maqsad qilib qo‘ygan, elim deb, yurtim deb yonib yashaydigan, har qanday vaziyatda ham xalqni birlashtirib, turli balo-qazolardan asrash uchun safarbar eta oladigan shaxslargina tarixda o‘chmas nom qoldiradi. Bu – haqiqat.

Jaloliddin Manguberdi ana shunday mardlarning yorqin timsoli va ibratli namoyandasidir.

Sulton Jaloliddinning bizga qoldirgan yana bir da’vati shuki, u barchamizni ona-yurtimizning beg‘ubor osmonini va osuda hayotini qadrlashga, o‘sib kelayotgan, ertaga bizning o‘rnimizni egallaydigan, dunyoda hech kimdan kam bo‘lmagan farzandlarimizning kelajagini, baxt-saodatini himoyalashga, yorug‘ istiqbolga intilib yashashga chorlaydi»[1].

«Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmui – Toshkent shahrining Yunusobod tumanidagi Bo‘zsuv kanali bo‘yida joylashgan.

---

[1] Karimov I.A. Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlangan nutq. Asarlar to‘plami, 8-jild. T.: «O‘zbekiston», 2000, 74-75-betlar.

Qatag‘on qurbonlari xotirasiga bag‘ishlab sobiq qatlgoh o‘rnida «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmui 2000-yilda bunyod etilgan. Bu – o‘zlikni anglashning, tarix bilan uyg‘ongan milliy tarjimayi holining mustaqillik ko‘zgusida namoyon bo‘lishning bir qirrasidir.

Uzoq va boy tariximiz hamda ma’naviyatimizning ildizi qadimga borib taqalishdan guvohlik beruvchi Xiva va Buxoro shaharlarining 2500 yillik to‘yining o‘tkazilishi jahon shaharsozlik madaniyati tarixining ibtidosi sifatida ham e’tirof etilgan edi. Shahrisabz, Termiz shaharlarining 2500 yilligi, Xorazm Ma’mun akademiyasining 1000 yilligi, ««Alpomish» eposining 1000 yilligi, Qarshi shahrining 2700 yilligi, Samarqand shahrining 2750 yilligi, Marg‘ilon shahrining 2000 yilligi va Toshkent shahrining 2200 yilligi, ««Avesto»ning 2700 yilligi jahon miqyosida nishonlanishi ma’naviyatimiz tomirlari naqadar qadimiyligi va baquvvatligining dalillaridir.

Samarqand sayqali ro‘yi zamin ast,
Buxoro quvvati islomi din ast.
Mashhad qalayi xo‘p joyi maskan,
Xiva Firdavs robbai olamin ast.

Mustaqillik tufayli Qur’oni karim o‘zbek tiliga tarjima qilinib, ko‘p nusxada chop etildi. Imom Buxoriyning to‘rt jildlik hadislari, Xoja Ahmad Yassaviyning «Hikmatlar» to‘plami, ko‘plab Qur’oni karim sharhlariga oid kitoblar chop etilganligini va ulardan xalqimiz bahramand bo‘layotganligining guvohi bo‘lib turibmiz.

Mustaqillik yillari iydi Ramazon va Qurbon hayit kunlari umumxalq bayrami sifatida xalqimiz hayotidan mustahkam o‘rin oldi. Har yili 3000 dan ortiq vatandoshlarimiz muborak haj safarlarini ado etgan bo‘lsalar, 2017-yildan bu ko‘rsatkich 7200 tani tashkil etdi. Mustaqillik yillari ko‘plab masjid va madrasalar ta’mirlandi. Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Bobur Mirzolarning nomlari qayta tiklandi. Amir Temur tavalludining 660 yilligi, Mirzo Ulug‘bekning esa 600 yilligi keng nishonlandi va shu munosabat bilan yurtimizda beqiyos ma’naviy-ma’rifiy ishlar amalga oshirildi.

O‘tgan yillar davomida yurtimizda jahondagi nufuzli universitetlar bilan yaqin hamkorlik aloqalari o‘rnatildi. Buning natijasida Toshkentda Buyuk Britaniyaning xalqaro Vestminster universiteti, I. Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universiteti, Italiyaning Turin politexnika universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, G. Plexanov nomidagi Rossiya davlat iqtisodiy akademiyasi, M. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Janubiy Koreyaning INXA universiteti yuksak xalqaro obro‘-e’tibor va chuqur tarixiy ildizlarga ega bo‘lgan Yevropa va Osiyoning yetakchi oliy o‘quv yurtlarining filiallari tashkil etildi hamda ular muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ushbu oliy o‘quv yurtlarida mashinasozlik, neft-gaz ishi, axborot texnologiyalari, iqtisodiyot va biznes boshqaruvi, moliyaviy menejment, tijorat huquqi kabi mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan mutaxassisliklar bo‘yicha bakalavr va magistrlar tayyorlanmoqda va ularning bitiruvchilari butun dunyoda tan olingan diplomlarga ega bo‘lmoqda.

Keyingi yillar davomida mamlakatimiz rahbariyati tomonidan oliy ta’lim tizimini isloh qilish bo‘yicha ko‘plab chora-tadbirlar amalga oshirildi. 6 ta yangi Oliy o‘quv yurti va 17 ta filial, shuningdek, yetakchi xorijiy universitetlarning 14 ta filiali ochildi. Prezidentimiz Shavkar Mirziyoyevning 2019-yil 8-oktabrdagi Farmoni bilan Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlangani muhim ahamiyat kasb etadi.

«Har ishki qilmish odamizod, tafakkur birla bilmish odamizod». She’riyat mulkining sultoni Alisher Navoiyning ushbu teran ma’noli satrlarida bashariyat taraqqiyoti uchun bilim nechog‘liq ulkan ahamiyatga ega ekani haqidagi haqiqat mujassamdir. Insoniyat tomonidan necha asrlar davomida to‘plangan bilim va orttirilgan tajriba bugungi avlodlarning bebaho boyligi, ulkan ma’naviyat va madaniyat merosi hisoblangan kitoblarda jamlangan. Markaziy Osiyoda eng yetuk

axborot va madaniyat markazi bo‘lmish Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi ushbu intellektual boyliklarning noyob xazinasi hisoblanadi.

«Umid», «Ustoz» jamg‘armalari 2013-yil 1-iyulda birlashtirilib, ular negizida «Iste’dod» jamg‘armasi tashkil etildi. «Iste’dod» jamg‘armasi orqali respublikamiz Oliy o‘quv yurtlari AQSH, Angliya, Germaniya, Avstriya, Ispaniya, Finlandiya, Italiya, Gretsiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Belgiya, Misr, Malayziya, Isroil kabi davlatlarning oliy o‘quv yurtlari bilan ta’lim, ilmiy, ilmiy-uslubiy sohalarda tajriba orttirish uchun talabalar, tadqiqotchi izlanuvchilar va professor-o‘qituvchilar almashinuvi bo‘yicha hamkorlik ishi olib borilmoqda. Shu bilan birga, xorijiy davlatlar oliy o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilari respublikamiz universitet va institutlarida dars berish uchun taklif qilinmoqda. Ular bugungi kunda ta’lim, tarbiya va milliy ma’naviyatimizni rivojlantirish ishlariga katta yordam bermoqda.

Taraqqiyot inson baxt-saodati, uning bu dunyoda farovon yashashi, kelajakka xizmat qilsagina mohiyatan ijobiy hodisa sanaladi. Barqarorlik, bunyodkorlik, taraqqiyotning ma’naviy ildizlari esa bu tushunchalarning istiqboliga yo‘l ochadi. O‘tmish bilan bugungi kunning uzviyligini ta’minlash, har qanday ma’naviy bo‘shliqni to‘ldirish bugungi davr siyosatining o‘ziga xosligini ko‘rsatadi. «2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi Harakatlar strategiyasi»da ilm-fan, adabiyot sohalarining rivojlantirishiga qaratilgan vazifalar ham shu uzviylikni ta’minlashga qaratilgandir. Harakatlar strategiyasining beshinchi ustuvor yo‘nalishida millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash bo‘yicha eng muhim vazifalar belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 28-apreldagi «Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy bog‘i hududida adiblar xiyobonini barpo etish to‘g‘risida»gi Qarorida Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy bog‘i mustaqillik

yillarida xalqimizning bunyodkorlik salohiyati bilan tobora chiroy ochib borgani, Milliy bog‘ni xalqimiz, avvalambor, yoshlarimizning madaniy-ma’rifiy saviyasini yuksaltirishga xizmat qiladigan, nafaqat yurtimiz, balki jahonning turli mamlakatlaridan mehmonlar va sayyohlar tashrif buyuradigan har tomonlama go‘zal, betakror, maskanga aylantirish alohida qayd etilgan. Ma’naviy hayotimizda o‘chmas iz qoldirgan atoqli so‘z san’atkorlarining tarixiy xotirasini abadiylashtirish, O‘zbekiston qahramoni, atoqli olim va jamoat arbobi Ozod Sharofiddinov, O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov, O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov, O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf xotirasiga bag‘ishlangan yodgorlik majmuasini barpo etilganligi ham avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy rishtalarni bog‘lashda yuksak ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik yillarida o‘zbek xalqi erishgan eng muhim tarixiy yutuqlardan biri barqarorlik zamirida, eng avvalo, xalq manfaatlarini har narsadan ustun qo‘yish, adolatni ta’minlash tamoyili turdi. Sohibqiron Amir Temurning «Kuch – adolatdadir!» degan qisqa, ammo purma’no so‘zlari bugungi jamiyat uchun dasturulamal, uning din peshvolariga ko‘rsatgan mehr-muruvvati ham barqaror ma’naviy muhiti uchun ibratga munosibdir. Taraqqiyot bosqichi, salohiyatidan qat’i nazar, dunyoning turli qit’alaridagi mamlakatlar iqtisodiy va ma’naviy buhronlar girdobiga tushib qolayotgan bugungi zamonda alloma ajdodlar tajribasiga suyanish, ular ruhidan madad olgan holda kelajak sari intilish istiqbolli ekani 2018-yilning 23-iyun kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolangan «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistonda Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarorda ham o‘z ifodasini topdi. Unga ko‘ra, «Islom dini rivojiga ulkan hissa qo‘shgan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Hakim Termiziy, Abu Mansur Moturidiy, Abu Muin Nasafiy, Qaffol Shoshiy, Abduxoliq

G‘ijduvoniy, Najmiddin Kubro, Burhoniddin Marg‘inoniy, Bahouddin Naqshband, Xo‘ja Ahror Valiy kabi allomalarning merosini ilmiy asosda chuqur tadqiq etish, ularning ilmiy-ma’naviy jasorati, ulug‘ insoniy fazilatini keng targ‘ib qilish» ham asosiy vazifalardan biri hisoblangani barqarorlikka xizmat qiladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Milliy-ma’naviy tiklanish konsepsiyasining mohiyatini tushuntirib bering.
2. Yangi jamiyat qurishning ilmiy-nazariy asoslari nimalardan iborat?
3. Milliy tiklanish bilan milliy taraqqiyotning farqini tushuntiring.
4. Inson uchun tarixdan judo bo‘lish... degan g‘oyani izohlang.
5. Konsepsiyaning metodologik ahamiyatini anglab yetdingizmi?
6. Milliy ma’naviyatning tiklanishi va rivojlanishida qanday muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritdik?
7. Jahondagi nufuzli oliy o‘quv yurtlari bilan yaqin hamkorlik haqida so‘zlang.
8. Harakatlar strategiyasining beshinchi ustuvor yo‘nalishi qanday sohalarni rivojlantirishni belgilab berdi?
9. Alisher Navoiy nomidagi Milliy bog‘ hududidagi adiblar xiyoboni haqida so‘zlang.
10. Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etilishidan maqsad nima?

Biz ma'naviyat va ma'rifat ishini vatanparvarlik ishi, vijdon ishi, deb bilamiz. Vijdoni, ma'naviyati bor inson Vatanni albatta yaxshi ko'radi. Vijdon, ma'naviyat degani – xalqqa, Vatanga chin yurakdan xizmat qilish demakdir.

Shavkat Mirziyoyev

3-MAVZU. MA'NAVIYATNING TARKIBIY QISMLARI, ULARNING O'ZARO MUNOSABATLARI VA RIVOJLANISHI

Reja:

3.1. Ma'naviyat va madaniyat, ularning o'zaro munosabati.

3.2. Ma'naviy meros – ma'naviyat taraqqiyotining asosi.

3.3. Ma'naviyat va mafkura, ularning jamiyat hamda inson hayotida tutgan o'rni.

Tayanch so'z va iboralar

Ma'naviyatning tarkibiy qismlari, madaniyat, aql-farosatga ishlov, madaniy meros, ziyolilik, ma'naviy meros, jamiyat, yangilanish, ma'naviy qadriyat, yozma manbalar, mehr-oqibat, millat, tarixiy xotira, iymon, e'tiqod, milliy g'oya, istiqlol mafkurasi, jamiyat taraqqiyoti, ozod, obod Vatan, mamlakat qudrati.

3.1. Ma'naviyat va madaniyat, ularning o'zaro munosabati

Ma'naviyat ham boshqa tushunchalarga o'xshab o'zining mustaqil tarkibiy qismlariga ega. Uning asosini ma'naviy meros, madaniyat,

mafkura va qadriyat kabilar tashkil qiladi. Aslini olganda, ma'naviyat va madaniyat bir-biriga yaqin tushunchalardir. Ammo ular bitta narsa emas, biri ikkinchisidan farq qiladi. Shu bilan birga, ular bir-birini to'ldirib turadi.

Madaniyat va ma'naviy meros haqida ham shunday deyish mumkin. Shu sababdan, avvalo, madaniyat va uning turlarini tahlil etish maqsadga muvofiqdir. Chunki madaniyatni, xususan, ma'naviy madaniyatni bilmasdan, o'rganmasdan turib, ma'naviy meros to'g'risida gapirish ancha mushkul, chunki ma'naviy meros ma'naviy madaniyat doirasiga kiradi.

Agar ma'naviyat tushunchasi barcha ma'naviy narsalar va xususiyatlarni – insoniyatning ijodiy, ilmiy, falsafiy, huquqiy, diniy, badiiy, axloqiy va shu kabi tasavvurlar, tushunchalar majmuini anglatsa, ma'naviy madaniyat esa ana shu tushuncha, bilim va tajribalarning kundalik hayotda qo'llanishini anglatadi. Turli omillar, hayotiy tajriba, tarbiya, axloqiy ma'rifat, san'at, adabiyotning ta'siri natijasida shaxs muayyan darajada o'z ongi, xulq-atvorida jamiyatdagi ma'naviy madaniyatni o'ta murakkab tuzilgan dasturga o'xshashi mumkin, ya'ni inson turli vaziyatlarda o'zini ma'naviy jihatdan qanday tutishi kerakligi borasida ko'maklashuvchi tajribalarni singdiradi.

Shuningdek, ma'naviy madaniyat inson ongini betinim ijod qilib turuvchi jihatlari – yechimi murakkab bo'lgan qiyin vaziyatlarda muayyan bir qaror qabul qilishga yordam beradigan ma'naviy tafakkur, his-tuyg'u kabi omillarga ham suyanadi. Ma'naviy madaniyat kishining harakatlari, voqelikning baholay olish salohiyati, axloqiy bilim va tajribalari, ulardan foydalana bilish qobiliyati, yaxshi-yomon, ijobiy-salbiy vaziyatlarni farqlash bilan ham bog'liq. Har qanday sharoitda ma'naviy-axloqiy me'yorlarga sodiq qolish, o'zgalar tashvishiga sherik bo'lish, axloqqa doir tajribalarni amalda qo'llay olish, shaxslararo muloqotda ijobiy fazilatlarni namoyon eta olish ham ma'naviy madaniyat darajasini ko'rsatadi.

Madaniyat atamasi keng ma'noda qo'llanilib, jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy-ma'naviy hayotida qo'lga kiritilgan yutuqlarini, muayyan xalq yoki ijtimoiy guruhning ma'lum davrda erishgan natijalari, o'qimishlilik, ta'lim-tarbiya ko'rganlik, ziyolilik va ma'rifatlilik hamda turmushning inson ehtiyojlariga mos keladigan sharoitlar majmuini ifodalaydi.

Inson faoliyatining ikki asosiy turi moddiy va ma'naviy madaniyatlarga bo'linadi. Moddiy madaniyat moddiy faoliyatning barcha sohalari hamda ularning har birida erishilgan natijalar – mehnat qurollari, turarjoy, kundalik turmush buyumlari, kiyim-kechak, transport, aloqa vositalari va shu kabilarni o'z ichiga oladi.

Ma'naviy madaniyatga aqliy va ma'naviy yaratuvchanlik sohalari – bilim, odob-axloq, ta'lim-tarbiya, huquq, falsafa, din, fan, san'at, adabiyot va shu kabilar kiradi. Uyg'onish va ma'rifatparvarlik davrlarida madaniyat yetukligi deganda, inson va jamiyat hayotida insonparvarlik, ma'rifatparvarlik g'oyalari ustuvor o'rin tutishi lozimligi tushuniladi.

Shunday ekan, madaniyat nima? Madaniyat tushunchasini izohlashga bag'ishlangan ko'plab ilmiy adabiyotlar mavjud.

Amerikalik madaniyatshunos olim Eduard Taylor (1832–1917) o'zining «Pervobытnaya kultura» (1871) asarida: «Madaniyat keng ma'noda kishining jamiyat a'zosi sifatida o'zlashtirgan bilimi, e'tiqodi, san'ati, axloq-odobi, qonun-qoidalari va boshqa bir qator qobiliyatlari va odatlari yig'indisidan tashkil topadi»[1], – deb ta'rif bergandi.

Faylasuf va madaniyatshunos V.M. Rozin iborasi bilan aytganda, «Qancha yirik madaniyatshunos bo'lsa, shuncha nazariyalar, tushunchalar mavjud»[2]. Darhaqiqat, E.B.Taylor zamonida madaniyatning 7 ta ta'rifi berilgan bo'lsa, 1950 yillarda uning soni 150

[1] Тайлор Э.Б. Первобытная культура. Москва, «Политиздат», 1989, С. 57.
[2] Розин В.М. Культурология. Учебник. Москва, «Форум», 1998, С. 49.

taga, hozirgi kunda esa 800 taga yetdi. Bu ta'riflar umumlashtirilsa, «madaniyat» so'zining mazmunini quyidagicha tushunish mumkin:

1. Madaniyat – uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar, osori atiqalar yig'indisi.

2. Madaniyat – u yoki bu jamiyatga xos falsafiy qarashlar, ilm, fan, maorif, san'at, axloq, din, huquq, siyosat, maishiy xizmat ko'rsatish darajasini aks ettiruvchi omillar, ijtimoiy taraqqiyot darajasi.

3. Madaniyat – umuminsoniy hodisa. Faqat bir xalqqa tegishli, bir xalqning o'zigina yaratgan sof madaniyat bo'lmaydi. Har bir milliy madaniyatning asosiy qismini shu millatning o'zi yaratgan bo'lsa-da, unda jahon xalqlari yaratgan umuminsoniy madaniyatning ulushi, ta'siri bo'lishi tabiiy hol. Madaniyat aholining biron tabaqasi yoki sinfiga emas, barchaga barobar xizmat qiladi. Masalan, san'at va adabiyot durdonalari, me'morlik yodgorliklari, fan-texnika yutuqlari va boshqalar barchaga tegishlidir.

4. Madaniyat – insonlar hayotida, jamiyat rivojida shakllangan milliy, umuminsoniy qadriyatlar majmui.

5. Madaniyat – har bir kishining tarbiyalanganligi, insoniylik fazilatlari va ijodiy faoliyatining ifodasidir.

Demak, madaniyat insonning faoliyati, uning natijasida yaratilgan moddiy va ma'naviy ne'matlar, fazilatlar, qadriyatlar bo'lib, o'z navbatida, shaxsning shakllanishi va kamol topishida muhim omil hisoblangan ijtimoiy hodisadir.

Madaniyatning tilga, dinga, an'analarga, qadriyatlarga, iqtisodiyotga yaqinligini inobatga olib, milliy, mintaqaviy, davriy jihatdan bir necha turlarga bo'lish odati keng tarqalgan. Milliy madaniyatda til asosiy vosita sifatida olinsa, mintaqaviy madaniyatda diniy, axloqiy, badiiy, moddiy, geografik yaqinlik, umumiylik nazarda tutiladi.

Madaniyat to'g'risidagi dastlabki nazariy tasavvurlar sivilizatsiyaning ilk bosqichlarida paydo bo'lib, dunyoning mifologik suratida

mustahkamlangan edi. Antik davrdayoq insonlar hayvonlardan farqlanishini bilganlar va tabiat dunyosini insoniyat dunyosidan ajratadigan qirra borligini tushunib yetganlar. Keyinchalik bu farqni «madaniyat» («kultura») deb ataydilar.

Oradan vaqt o'tib, bu so'z bilan inson faoliyati predmetlarini va ularni yarata oluvchi inson fazilatlarini atay boshladilar. Shu davrdan boshlab madaniyat dunyosi tabiiy kuchlar faoliyati natijasi emas, balki insonning bevosita tabiat yaratgan narsalarini qayta ishlash va o'zgartirishga qaratilgan faoliyatining natijasi sifatida qabul qilinmoqda.

Madaniy meros – bu o'tmishdan qolgan qadriyatlar, g'oyalar, tajriba, bilimlar, ularni o'zlashtirish yo'llari, ya'ni kishilarning ijodiy faoliyat usullari va mahsullari hamda uning natijalaridir. O'zlashtirish yoki aniqrog'i, madaniy meros munosabat jarayoni o'ta muhim bo'lib, madaniyatning harakatdagi asosiy qonunlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon insoniyatning o'tmishi, buguni va kelajagini bir butun holda birlashtirib, millat, xalqning mulki, bebaho boyligiga aylanadi. Bor narsani izlash, ma'lum narsani ochish, qilingan kashfiyotni kashf etish kerak bo'lmaganidek, o'tmishda ajdodlar qilgan ishni takrorlash shart emas. Erishilgan yutuqlardan kelib chiqib, jamiyat o'z maqsadlarini amalga oshirishning qisqa yo'llarini tanlaydi. Bundan tashqari, ma'naviy meros kishilarning saviyasini behad kengaytiradi, ular hayotini aqliy va hissiy jihatdan boyitadi, ma'rifat va ma'naviyatning tuganmas manbai bo'lib xizmat qiladi.

O'tmishdan batamom uzilish, uni unutish mumkin emas. Insoniyat tarixida «eski» madaniyatdan voz kechib, mutlaqo yangi madaniyat yaratishga urinishlar bo'lgan, biroq bunday urinishlar xunuk natijalarga olib kelgan. Bunga 1920-yillarda Sovet Rossiyasida «proletar madaniyati»ni yaratishga urinishni yoki «madaniy inqilob»ni misol tariqasida keltirish mumkin. Bu «inqiloblar» jarayonida yangi madaniyat yaralmadi, aksincha, borini ham yo'q qilishga: qo'lyozma-

lar, kitoblar, suratlar yoqildi, ko‘plab diniy me’moriy yodgorliklar buzildi, eng achinarlisi, ko‘plab madaniy qadriyat egalari mavh etildi. Oqibatda o‘tmish bilan bog‘liq uzviylik buzilib, jamiyat ma’lum darajada ma’nan orqaga ketdi.

Madaniyatning me’yoriy rivojlanishi uni asrab, kelgusi avlodlarga meros qilib qoldirishni bildiradi. Biroq, bu jarayon oddiy va bir xilda kechmaydi. Ma’naviy qadriyatlarning mundarijasi, ularni qayta ko‘rib chiqish va qayta baholash, o‘zaro bog‘liqlik usullari, munosabat tiplari, bilimlarni asrash va uzatish, hayot me’yorlari, voqelikni estetik idrok qilish xususiyati o‘zgarmasdan qolmaydi, ular uzluksiz harakatda bo‘ladi. Meros serqirra va ko‘p qiyofalidir. Uning aniq namoyon bo‘lish tiplarining ko‘pligi, tendensiyalar xilma-xilligi bilan farqlanadi.

Har bir yangi avlodning o‘tmishdagi merosga vorislik qilishi farqlanadi: san’atdagi o‘lcham fandagidan boshqacha; tabiiy fanlar gumanitar fanlardan farqli. Vorislik (merosdan foydalanish) har qanday sohada insonning avvalgi madaniy, ma’naviy, ilmiy boyliklarni o‘zlashtirishida namoyon bo‘ladi va ayni paytda mahalliy yoki dunyo miqyosidagi jarayonlar shaklida ham ifodalanishi mumkin. Vorislikning mahalliy (cheklangan) shakli madaniyatning kasbiy (professional), milliy, etnik va boshqa ko‘rinishlariga ega. Bu faoliyat madaniy bosqichlarda bir me’yorda, tekis yo‘nalish shakllarida bo‘lmay, uning bir bosqichdan ikkinchi bosqichga sakrab o‘tishi notekis buhronlar xususiyatiga ega.

Insoniyatning ma’naviy yutuqlarini meros qilib olishda vorislik jarayonlari keng miqyosli (umumiy) shaklda mufassal yo‘nalishda amalga oshadi. Masalan, qadimgi Misr, Bobil, Shumer zakovati, «Injil», «1001 kecha» ertaklari kabi madaniyat yodgorliklariga ijobiy ta’sir qildi. Yana, yer yuzidagi barcha xalqlarning zamonaviy bilim sohalariga asos bo‘lgan Bobil astronomiyasi, hind matematikasi, antik yunon falsafasi, Rim huquqi haqida ham shunday gapirish mumkin.

Agar madaniyat va ma'naviyat sohalari tarkibida til, udumlar, an'analar va boshqalar bo'lsa, ma'lum xalqning madaniyat tarixi doirasida meros qoldirish jarayoni yaxshiroq kechadi. Boshqa sohalarda esa texnika, fan, san'at kabi sohalardagi bir xalqqa tegishli meros boshqa xalqlarga ham tegishli mulkka aylanadi. Jahon adabiyotining qadimgi, o'rta asrlar, Uyg'onish davri, ma'rifatchilik bosqichlarida ijod qilingan durdonalari hozir ham, kelgusida ham barcha xalqlar uchun qadrli madaniy boyliklardir.

Madaniyatda keyingi avlodlarga meros qoldirish uchun belgilangan usul va mexanizmlar mavjud. Ulardan qadimiy osori atiqalarni namoyish qilish, og'zaki uzatish, folklor, san'at kabilar qadimdan amal qiladi, kino tasviri, magnit yozuvi, kompyuter xotirasi keyinroq paydo bo'ldi.

Barcha jamiyatlarda ham ma'naviy merosdan foydalanish imkoniyatlari, sharoitlari bir xil emas. Ular ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, g'oyaviy omillar bilan belgilanadi. Bu omillar merosning hajmi, tanlash xususiyati, intensivligiga bog'liq. Bizga ma'lumki, sobiq sovet jamiyatida, kommunistik g'oya hukmronligi davrida xalqlar, xususan, O'zbekiston ham o'zining haqiqiy tarixi, milliy va ma'naviy meroslaridan mahrum etilgan edi. Biroq, tarixda madaniy merosdan mutlaqo mahrum bo'lgan yoki undan foydalanmagan jamiyat yoki xalqlar bo'lishi mumkin emas.

Jamiyat madaniyat xususiyatini, uning mezon va mazmunini ziyolilar belgilaydi. Ziyolilik bu nafaqat keng bilimga ega bo'lishni, balki tashabbuskorlikni, javobgarlikni, axloqiy-estetik jur'atni va tug'ma iste'dodni bildiradi.

Ziyolilar – aqliy mehnatning xilma-xil murakkab turlari bilan shug'ullanuvchi qatlamdir (fan va madaniyat xodimlari, o'qituvchilar, ijodkorlar, muhandislar, texnologlar, shifokorlar).

Madaniyatlilik deganda, shaxsdagi kamtarlik, halollik, rostgo'ylik, saxovatpeshalik, insonparvarlik, yaxshilik, saxiylik kabi

insoniy fazilatlar, axloqiy qoidalarga to‘la amal qilish, o‘z millati hamda boshqa xalqlarni ham hurmat qilish xislatlari anglashiladi.

Ziyolilik aqliy kamolot egasi bo‘lish, nazariy masalalarni anglashga, ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishga tayyor bo‘lishdir. «Ziyolilik» yuksak darajada kamol topgan intellektni, keng bilimlilik, yuksak madaniyatlilikni anglatsa, «ziyoli» kishilik tabaqalari orasidagi ijtimoiy qatlamni anglatadiki, bu qatlam yuqori malakali aqliy mehnat bilan mashg‘ul bo‘ladi.

Yetarli bilimga ega bo‘lmagan holda dunyodagi barcha narsalar to‘g‘risida oz-oz va umumiy fikr bildira oluvchi kishi diletantdir. Diletantlik o‘sha shaxsda madaniyat kamligining belgisi bo‘lib, uning chinakam madaniyat va ziyolilikka aloqasi yo‘qdir. Ko‘proq uchraydigan holat – ba’zi ziyolilar yovuz odamlarga xizmat qilishi, qora niyatli bo‘lishi ham mumkin. Bu bahs talab mavzu.

Tarbiyalilik madaniyatning asosiy belgisi bo‘lib, tarbiyali ziyoli shaxsning umumiy madaniy saviyasi juda ko‘p xislatlarida aks etadi. Umumiy madaniyatga nutq madaniyati ham kiradi. Madaniyatli kishi sodda, qisqa, obrazli, ifodali va chiroyli nutq orqali o‘z fikrini bayon qiladi. «Nutqning kuchi oz so‘z bilan ko‘p ma’noni anglata olishda», – deb yozgan edi Plutarx. «Tilga ixtiyorsiz – elga e’tiborsiz», deydi Alisher Navoiy.

Ziyoli shaxsning estetik didi baland bo‘ladi, ya’ni faqat san’at asarlarining go‘zalligi to‘g‘risidagina emas, balki kishilarning, tabiat va jamiyatdagi go‘zallik va xunuklik haqida fikr yuritishga, qo‘pollik va adolatsizlikka qarshilik ko‘rsatib, uni bartaraf etishga qodir bo‘ladi. Hamma narsada me’yor va uyg‘unlik tuyg‘usi ziyolilikning yuksak xususiyatidir.

Ziyolilik bilim, ilm va tarbiya bilan kamol topadi. Ziyolilik tushunchasiga umumiy madaniyatdan tashqari qalb nozikligi, umuman, hayotga munosabatda yuksak ong, ijtimoiy faollik ham kiradi. Demak, «ziyolilik» tushunchasi faqat aqliy mehnat kishisiga taalluq-

li emas. Chuqur intellektga, olijanob his-tuyg'ularga ega bo'lgan, ma'naviy ehtiyojlari keng har bir kishini ziyoli deb atash mumkin. Ziyoli – intellektual shaxs, madaniyatli kishi bo'lish bilan birga, jamiyat va millat taqdiriga ma'naviy javobgar bo'lganligidadir. Intellektual, oqil inson individual holatlarda o'z fikridan qanoatlanmaydigan, o'z zarariga bo'lsa-da, rost gapiruvchi, o'z xatosini tan oluvchi, shaxsiy manfaatidan Vatan manfaatini ustun qo'yuvchi ziyolidir. Ziyolining shu xususiyatlarida komillik belgilari namoyon bo'ladi.

Madaniyatni qo'llanish jihatidan turlarga bo'lish munozarali bo'lsa-da, biz ularning mavjudligini inkor qila olmaymiz. Madaniyat ijtimoiy taraqqiyotlarning tafovutlarini yo'qotmaydi, aksincha, uning xilma-xilligini yanada kengaytiradi. Shuning uchun ularni tobora chuqurroq o'rganish madaniyat to'g'risidagi tasavvurimizni kengayib borishiga xizmat qiladi.

Madaniyat tushunchasi qo'llanish jihatidan xilma-xil bo'lgani kabi, kundalik hayotda (*oddiy ong*) va fanda ham turli mazmun kasb etadi. Biz «muomala madaniyati», «mehnat madaniyati», «iqtisodiy madaniyat», «siyosiy madaniyat», «huquqiy madaniyat» kabi iboralardan foydalanamiz va ularga ko'nikib qolganmiz. Kundalik hayotda madaniyatdan voqelikni baholash tushunchasi sifatida va shaxsning ma'lumotliligi, xushmuomalaligi, ozodaligi, vazminligi kabi xususiyatlari bilan bog'lab tushuntirish odatga aylangan.

«Madaniyatli kishi» tushunchasiga qo'shib ishlatiluvchi sifatlar juda keng bo'lib, uni qo'llash jamiyatning umumiy madaniy darajasi va shaxsning sotsial statusiga bog'liqdir. Hozirgi davrda «ishlab chiqarish madaniyati», «xizmat ko'rsatish madaniyati», «dam olish madaniyati» to'g'risida ko'p gapirilmoqda. Bu iboralardagi madaniyat» orqali ijtimoiy institutlarning samarali faoliyat ko'rsatishlari tushuniladi.

Ba'zan madaniyat to'g'risidagi tasavvurlar shaharlar turmush tarzi, teatrlar va kutubxonalarga tez-tez borib turish, «madaniy» kishilar

bilan do‘stlashish va chiroyli narsalar bilan bog‘liq, deb fikr qilinadi. Gazetalarda, statistik ma’lumotlarda «iqtisod va madaniyat», «fan va madaniyat», «siyosat va madaniyat» kabi iboralar ko‘p ishlatiladi. Bunda madaniyat ma’naviy ustqurma yoki axloq va san’at sohalari bilan cheklanib qoladi.

Muomala madaniyati hayotimizning asosini tashkil etadi. Ming afsuski, kishilar muomala, muloqotni serma’no va sermazmun qilish zarurligini har doim ham sezmaydilar. Muloqot faoliyatimiz va turmush tarzimizning tarkibiy qismi sifatida iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy, ruhiy, informatsion ehtiyojlarimizni qondirish uchun xizmat qiladi. Muloqotning qanchalik maqsadli va mazmunli bo‘lishi ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarimizning qanchalik aniqligiga, mohiyatiga bog‘liq. Aynan muomala va muloqot orqali kishilar bir-birlarini biladilar, ijtimoiy shaxs sifatida shakllanadilar, o‘zlarida u yoki bu fazilatlarni rivojlantiradilar. Shuning uchun ham muloqot madaniyati tarbiyaning, shaxs kamolotining asosiy shartiga aylangan.

Til, milliy ong, din va urf-odatlarsiz birorta kishilik jamiyati, shu bilan birga madaniyat ham bo‘lgan emas. Bundan keyin ham bo‘lmaydi. Biroq bu boyliklarning, qadriyatlarning mavjudligini tan olish boshqa-yu, ularga bo‘lgan munosabat boshqa. Tarixiy-madaniy boyliklarni o‘rganish va asrash kishida o‘tmishga, o‘tgan avlodlar qoldirgan madaniy merosga hurmat bilan qarashni o‘rgatadi. Bunday fazilatlardan uzoq kishi nigilizmga (*quruqdan quruq inkor etish*), o‘tmish boyliklariga eskilik qoldig‘i sifatida qarashga moyil bo‘ladi. Bo‘lar-bo‘lmasga o‘tmishga tosh otish, o‘tmishdan faqat nuqsonlar izlash – madaniyatsizlik belgisi. Madaniyatni biryoqlama yoki tayyor andozalar nuqtayi nazaridan baholab bo‘lmaydi. U to‘g‘ri anglashni, keng qamrovli o‘lchovdan kelib chiqib, baholashni taqozo etadi. Bu fazilatlar o‘z-o‘zidan shakllanmaydi. Ularni kishiga madaniyat o‘rgatadi.

Tarixiy-madaniy boyliklarni o‘rganish va asrash o‘tmish uchun emas, eng avvalo kelajak uchun, yosh avlodlarni vatanparvar, millat-

parvar qilib tarbiyalash uchun zarur. Hozir yaxshi yashash uchun rivojlangan g'arb mamlakatlariga havas qilish hollari paydo bo'layapti. Ko'pgina yoshlarni ana shunday davlatlarda yashashga intilayotgani ham sir emas. Albatta, kimning qayerda yashashi uning umuminsoniy huquqi. Biroq xorijdagi behayolik, beodoblik, madaniyatsizlikni, qilpillab, baqirib, sakrab qo'shiq aytishni ba'zilar «chiroyli hayot» deb o'ylaydilar. Aslida chiroyli hayot Vatan ravnaqi uchun fidokorona va oqilona mehnat natijasidir.

Demak, el, yurt manfaati uchun mehnat qilish, madaniy boyliklar yaratish bilan chiroyli yashashni ta'minlashi mumkin. Tarixiy-madaniy boyliklarga to'g'ri munosabatni uyg'otish esa kishida nafaqat tarixiy obidalarni asrash, madaniy merosni sevish, shu bilan birga ota-bobolarimiz orzu qilib kelgan huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish hissini shakllantiradi.

Markaziy Osiyo xalqlari ma'naviy va madaniyat tarixining ibtidosi asrlar qa'riga singib ketgan bo'lib, ularning necha ming yillik ma'naviy kamolot pillapoyalarini bosib o'tganligini aniqlash bugungi kun uchun anchayin muammo. Boshqacha qilib aytganda, bugungi ayrim saltanatlar ahli qabila qabila bo'lib yashagan zamonlarda bizning muborak zaminimizda ilmu fan barq urib yashnagani, tabiiy ilmlar, xususan, tibbiyot, matematika, astronomiya kabi fanlar madrasalarda o'qitilgani, ilmiy akademiyalar tashkil etilib, mag'ribu mashriqqa nom taratganini eslasak va bundan har qancha g'ururlansak arziydi.

Jamiyat taraqqiyotining har bir yangi bosqichi oldingi jamiyatning madaniy yutuqlarini zaruriy ravishda meros qilib oladi, uni qayta ishlaydi, undan ijodiy foydalanadi, uni yangi yuqori bosqichga ko'taradi. Insoniyat tomonidan yaratilgan eng yaxshi va qimmatli narsalar, moddiy va ma'naviy boyliklar yangi tarixiy sharoitda o'zlashtiriladi, qayta ishlanadi va rivojlantiriladi. Har bir avlod o'zi uchun maxsus yangi moddiy baza tashkil etmasligi, ilm-fan va madaniyatni yan-

gidan yaratilmasligi, balki o‘zidan oldingi avlodlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy madaniyatdan meros sifatida foydalaniladi.

Madaniyat – umuminsoniy hodisa, u barchaga barobardir. Masalan, maqomlar, adabiyot, me’morlik durdonalari, fan-texnika yutuqlari, transport va aloqa vositalari va boshqalar barchaga tegishlidir. Ammo, bu madaniyatning milliy shakli bo‘lmaydi, degan ma’noni anglatmaydi. Chunki u qanchalik umuminsoniy bo‘lmasin, baribir uning zaminlari milliylikka borib taqaladi. Umuminsoniyat mulkiga aylangan har qanday madaniyat ham u yoki bu millat tomonidan yaratiladi, u madaniyatga o‘ziga xos bo‘lgan tomonlarini singdiradi. Masalan, umuminsoniyat mulkiga aylangan Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlaridagi hunarmandchilik va arxitektura durdonalari, eng avvalo, o‘zbeklarniki, ularga avlod-ajdodlarimiz o‘zlariga xos milliy jilo berganlar. O‘zbekona bunday san’at asarlari dunyoning boshqa xalqlarida uchramaydi. Xuddi ana shu xususiyati bilan ular milliy hisoblanadi.

Avlod-ajdodlarimizdan qolgan ana shu moddiy va ma’naviy meros mustaqillik sharoitida ma’naviy tiklanishimiz uchun asosiy manba bo‘lib kelayotganligi, ruhiyatimizni boyitib borayotganligi madaniyat va ma’naviyatning har doim ham uyg‘un rivojlanishini tasdiqlovchi yorqin misol bo‘la oladi. Ular har doim bir-birlariga ijobiy ta’sir o‘tkazib, boyitib kelganlar. Ularning uzviyligi umummilliy ma’naviyatni rivojlantirishga asos bo‘lib keladi.

3.2. Ma’naviy meros – ma’naviyat taraqqiyotining asosi

Endi ma’naviy meros va uning ma’naviyat rivojlanishidagi ba’zi jihatlarini bayon etamiz. Ma’naviy merosni izohlashdan oldin umuman sivilizatsiya, meros, xususan, madaniy meros, ma’naviy meros tushunchalarining nisbati, xususiyatlari, farqlarini bilib olish lozim bo‘ladi. Chunki ma’naviy meros umuman merosning, xusu-

san, madaniy merosning tarkibiy qismi sanaladi. Madaniy merosni tushunmasdan ma'naviy merosni ham tushunish qiyin. Bu tushunchalarda umumiylik bo'lsa ham, ular birday emas, o'zaro qaysi bir jihatlari, xususiyatlari bilan farqlanadi. Bundan tashqari, oldingi masalada ko'rganimizdek, har bir jamiyat va davr o'z madaniyat turiga ega bo'ladi.

Jamiyat, davr o'zgarishi bilan uning madaniyat turi va ma'naviyatida o'zgarish, yangilanish bo'ladi, ammo, madaniy taraqqiyot uzilib qolmaydi, ilgarigi madaniyat, sivilizatsiya yo'q bo'lib ketmaydi, balki madaniy meros sifatida saqlanib qoladi. Meros – insoniyatning har bir tarixiy bosqichida yashagan avlodlari tomonidan yaratilgan va keyingisiga yetib kelgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklari majmuidir. Madaniy meros ham meros doirasiga kiradi, ammo, undan bir oz farq qiladi. O'tmishdagi barcha madaniyat yodgorliklari meros sifatida saqlanib qolishi mumkin, lekin ularning hammasi ham madaniy qadriyatga ega bo'lavermaydi. Madaniy merosga kishilikning kelgusi taraqqiyotiga, ma'naviy yuksalishiga xizmat qiladigan, unga ijobiy ta'sir qiladigan qadriyat ahamiyatiga ega bo'lgan tomonlar hisobga olinadi.

Madaniy va ma'naviy meros o'zaro bir-biridan farq qilsa-da, ularning o'rtasida o'tib bo'lmas «Xitoy» devorini qo'yish ham mumkin emas, madaniy merosni barpo etishning zamirida ham ma'naviyat – ya'ni insonning ma'naviy-ruhiy bilimlari, qobiliyati, iste'dodi, aqli, empirik va nazariy bilim faoliyatlari yotadi. Madaniy va ma'naviy meros o'rtasida umumiylik ham, farqli tomonlar ham mavjud. Ayni paytda ular o'rtasida yuqorida aytilgan aloqadorlik, bog'liqlik, o'zaro munosabat, ta'sir bor. Shuningdek, madaniy meros, o'z ko'lami jihatdan ma'naviy meros tushunchasidan kengroq.

Madaniy merosda ko'proq umumiylik ustunlik qilsa, ma'naviy merosda xususiylik ustunlik qiladi. Madaniy meros umuman madaniyat yutuqlarini o'z ichiga qamrab olsa, ma'naviy meros ma'naviy

madaniyat yutuqlarini o‘z ichiga qamrab olishi bilan farqlanadi. Madaniy merosning qadri abadulabad tushmaydigan qismiga milliy qadriyat deyiladi.

Ma’naviy boyliklar avloddan avlodga, bir tuzumdan ikkinchi tuzumga meros sifatida o‘tadi va jamiyat, uning ma’naviy taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ma’naviy meros deb uzoq va yaqin o‘tmishdagi, hozirgi davrdagi ma’naviy jihatdan g‘oyat qimmatli, o‘chmas iz qoldiradigan, mangu yashaydigan, butun ijtimoiy manfaati va ehtiyojiga, ezgulikka xizmat qiladigan umuminsoniy ma’naviy boyliklarga aytiladi. Ma’naviy meros ma’naviy qadriyat sifatida namoyon bo‘lib, unga ilm-fan, jumladan, falsafa, adabiyot, san’at, axloq, dunyoviy ta’limotlar, hurfikrlik va boshqalar kiradi.

Ma’naviy meros moddiy merosdan farqli ravishda olamda va insonning ichki dunyosida ro‘y bergan, berayotgan yoki berishi mumkin bo‘lgan intellektual va psixologik holatlar, xatti-harakatlar amaliy faoliyat va uning natijalarini anglashga keng imkoniyatlar yaratishi bilan qadrlidir. Shu bilan birgalikda, ma’naviy merosni moddiy merosga qarama-qarshi qo‘yib bo‘lmaydi. Chunki bizgacha yetib kelgan moddiy meros insonning ongiga ta’siri nuqtayi nazaridan ayni vaqtda ma’naviy merosga aylanishi ham mumkin. Masalan, bizga qadar yetib kelgan uzoq o‘tmishda yaratilgan tarixiy obidalar moddiy merosga mansub bo‘lsa-da, ulardagi muhandislik, bezak ishlari, qurilish tarixi va unga oid ashyolarning tayyorlanishi, bunyodkorlari va boshqa jihatlariga ko‘ra ma’naviy merosga aylanadi. Xuddi shuningdek, moddiy ne’matlar ishlab chiqarish texnologiyalari va uskunalari moddiy merosga mansub bo‘lsa-da, bu boradagi an’analarning ajdodlardan avlodlarga o‘tishi ma’naviy meros tarzida amalga oshadi.

Shu jihatdan olib qaraganda, insoniyatning yozma manbalarda aks etmagan ko‘plab tabiiy ko‘nikmalari ma’naviy meros tarzida ajdodlardan avlodlarga o‘tib keladi. Yozuvning paydo bo‘lishi ma’naviy merosni saqlash va boyitish yo‘lidagi insoniyat erishgan

eng katta yutuq hisoblanadi. Yozuv tufayli hozir ilm-fanda insoniyat taraqqiyoti, jumladan, ma'naviy merosining besh ming yildan ortiq tarixi, yer va koinot jismlarining bir necha million yillik davri haqidagi ma'lumotlar jamlangan. Kishilar ongi, ichki dunyosi, tafakkur tarzi, his-tuyg'ulariga ta'sir etib, ularni boyitish, rivojlantirish, yangi g'oyaviy yo'nalishlarga boshlashi ma'naviy merosning asl mohiyatini ifodalaydi. Shuningdek, bugungi kunda ma'naviy merosning odamlar hayot tarziga chuqur ta'sir etadigan qadriyat sifatida ahamiyati tobora yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq o'tmishda toptalgan ma'naviy merosimizni tiklashga qat'iyan kirishildi. Istiqlolimizning o'tgan o'ttiz yili ana shu merosimizni o'zlashtirish orqali chinakam milliy tiklanishimizga erishdik. Ammo bu borada ham oldimizda juda katta vazifalar turibdi. Ana shulardan biri hali merosimizning bizga noma'lum, ammo dunyoning turli davlatlarida saqlanayotgan jahon sivilizatsiyasida munosib o'rin egallab kelgan juda ko'plab moddiy va ma'naviy merosimizni ona diyorimizga keltirishimiz, ularni o'rganishimiz, dunyoqarashimiz va ma'naviyatimizning ajralmas qismiga aylantirishimiz zarur bo'ladi.

3.3. Ma'naviyat va mafkura, ularning jamiyat hamda inson hayotida tutgan o'rni

Biz yashayotgan zamin qadim-qadimdan madaniyat va ziyo maskani bo'lib, xalqimiz boy madaniy va ma'naviy merosga, yuksak qadriyatlarga ega xalqdir. Buyuk bobolarimiz, jahonga mashhur mutafakkirlarimiz Muhammad Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Abdullo Muhammad Ismoil al-Buxoriy, Abu Nasr Forobiy, Abu Mansur al-Moturidiy, Ahmad Yassaviy, Abduxoliq G'ijduvoniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Amir Temur, Muhammad Tarag'ay Ulug'bek, Zahiriddin

Muhammad Bobur, Pahlavon Mahmud, yurtimizda yashab ijod qilgan boshqa ko‘plab siymolar jahon fani, madaniyati va sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shganlar. Birgina mutafakkir shoirimiz Alisher Navoiy ijodiy merosining dunyo badiiy madaniyatiga ta’sir salohiyatini hatto chamalab ham, o‘lchab ham bo‘lmasa kerak.

O‘tmish ma’naviyatimizdan o‘rganadigan o‘gitlarimiz tarixan qanchalik tubsiz bo‘lsa, mazmunan ham shunchalik cheksizdir. Zotan, rivoyat, ertak, dostonlardagina bitilib qoldirilgan xalq an’analari, rasm-rusumlari, qahramonliklarini olaylik yoki miloddan oldin yurtimizda yuzaga kelib, keng tarqalgan zardushtiylik dini o‘gitlari, qoida-tartiblari, insoniy g‘oyalariga nazar tashlaylik, yo bo‘lmasa, yuqoridagi nomlari zikr etilgan har bir mutafakkir ma’naviy merosini bir-bir o‘rganaylik. Axir, bularning har biri bir olam ma’naviy xazina.

Milliy g‘oya O‘zbekistonda yashovchi barcha millat va elat vakillarining tub manfaatlarini, xalqimizning asrlar mobaynida intilib kelgan orzu-niyatlarini, oliyjanob maqsad-muddaolarini o‘zida mujassam etadi. Xalqimiz asrlar mobaynida ezgu niyat qilib kelgan mustaqillikni saqlash va mustahkamlash O‘zbekistonning har bir fuqarosining muqaddas burchidir. Buning uchun barcha bir yoqadan bosh chiqarib, muqaddas ona Vatanning hayotiy manfaatlarini yurakdan his etgan holda ularni ro‘yobga chiqarish uchun faol harakat qilishi, kurashishi zarur. Bu jarayon xalqimizning manfaatlarini, ularni o‘zida mujassam etadigan milliy g‘oyani anglash bilan bog‘liq holda kechadi.

Hamonki, millat o‘z rivojida g‘oyaga muhtoj ekan, g‘oyasiz jamiyat yo‘q. Faqat ikki jihatni esdan chiqarmaslik kerak. Birinchisi shuki, jamiyatda ezgu g‘oyalar bosh ko‘taraveradi. Ikkinchi jihat shundan iboratki, agar jamiyatda shu jamiyat a’zolarining manfaatlarini ifodalash, himoya qilish, yo‘naltirish, amalga oshirishga qaratilgan g‘oyalar o‘rtaga tashlanib, joriy etilmasa, o‘zgalar manfaatini ko‘zlaydigan yot g‘oyalar kirib kela boshlaydi. Inson hayotida ham,

jamiyat taraqqiyotida ham g‘oyalar muhim o‘rin tutadi. Shu ma’noda, insoniyat tarixi g‘oyalar tarixidir.

Insoniyatning ko‘p asrlik tarixi shundan dalolat beradiki, bu dunyoda o‘zining milliy davlatni qurishga azmu qaror qilgan har qaysi xalq yuksak vazifasini amalga oshirish, shu yo‘lda odamlarni birlashtirish va safarbar qilish, ularning qalbida ishonch uyg‘otish, eski ijtimoiy tuzumdan mutlaqo yangi tuzumga o‘tishda o‘ziga qo‘shimcha kuch-quvvat va madad topishda umumiy, yagona maqsad va orzu-intilish ifodasi bo‘lgan milliy g‘oyani tayanch va suyanch deb biladi.

Ma’naviyat bilan mafkura orasidagi aloqadorlik ham murakkab. Ma’naviyatga qaraganda mafkura tor tushuncha, u ayrim sinf va siyosiy partiyalar, guruhlarning qarashlari yig‘indisidir. Shuni ta’kidlash kerakki, ma’naviyat yuqorida zikr etilganday, o‘z ichiga mafkurani, ya’ni dunyoqarashni ham oladi, demak, «ma’naviyat mafkurasiz yashay oladi», deb bo‘lmaydi. Inson borki, uning ma’naviyati bor, bu ma’naviyat uning madaniyatga, ma’rifatga va mafkuraga, dunyoqarashga e’tiqodini belgilaydi.

Haqiqatan mafkura ma’naviyatga nisbatan tor tushuncha bo‘lsada, u doimo siyosiy, falsafiy va yuridik tizimlar qo‘lidagi qurol bo‘lgani uchun o‘zida real kuch imkoniyatlarini jamlaydi va ma’naviyatga tez, dadil ta’sir qilish xususiyatiga ega. Agar mafkura millat, mamlakat taraqqiyotining obyektiv qonuniyatlarini nazarda tutmagan, shaxsiy mayl, subyektivizm, tarafkashlik yoxud antigumanistik g‘oyalar bilan sug‘orilgan bo‘lsa, umummillat va mamlakat ma’naviyatini tanazzulga tomon yetaklashi mumkin. Shuning uchun ma’naviyat va mafkura aloqadorligida insoniylik va insonparvarlik, shaxs, millat va jamiyat taraqqiyoti asosiy mezon qilib olinsagina mafkura ma’naviyatga xizmat qiladi.

Sho‘rolar zamonida mafkura faqat sinfiy bo‘ladi, u milliy bo‘lishi mumkin emas, deb hisoblanar edi. Milliy mafkura xususida hatto so‘z

ham yuritilmas edi. Buning natijasida o‘zbek millatining milliy ongi, dunyoqarashi, milliy g‘ururi, iftixori anchagina sustlashtirib yuborilgan edi. Milliy mustaqillikka erishilgach, O‘zbekiston hukumati tomonidan milliy istiqlol mafkurasining nazariy jihatdan ishlab chiqilishi, uni xalq orasida keng targ‘ib-u tashviq qilish, har bir fuqaro ongiga mustaqillik mafkurasini mazmun-mohiyatini singdirish, istiqlol yo‘liga mos va xos o‘zbek milliy mafkurasini ilmiy asosda yaratish kabi o‘ta muhim va sharafli ishlarga qo‘l urildi.

Milliy istiqlol mafkurasi yurtimizda yashovchi har bir fuqaro, xalqimizning yuksak ma’naviyati, an’ana va udumlari, ulug‘ bobolalonlarimizning o‘lmas merosidan oziqlanadi. Adolat va haqiqat, erkinlik va mustaqillik g‘oyalari hamda xalqimizning ishonch-e’tiqodini aks ettiradi. Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligini ta’minlashga xizmat qiladi. Jamiyat a’zolarini, aholining barcha qatlamlarini O‘zbekistonning buyuk kelajagini yaratishga safarbar etadi. Millati va dinidan qat’i nazar, fuqarolarimizning qalbida ona Vatanga muhabbat, mustaqillik g‘oyalariga sadoqat va o‘zaro hurmat tuyg‘usini qaror toptiradi. Jamoatchilik qalbi va ongiga fikrlar xilma-xilligi, vijdon erkinligi tamoyillariga rioya qilgan holda ma’rifiy yo‘l bilan singdiriladi.

Mafkura jamiyat taraqqiyotida quyidagi vazifalarni bajaradi:

– davlat rivojlanishining iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-ma’rifiy sohalaridagi vazifalarni o‘zida mujassamlashtiradi;

– bir davlat, bir mamlakat miqyosida barcha fuqarolarni, turli millat, elat, sinflar va ijtimoiy guruhlarni bir g‘oya va maqsad sari birlashtirishga xizmat qiladi;

– davlat olib boradigan ichki va tashqi siyosat g‘oyalarini o‘zida mujassamlashtirib, uni fuqarolarga targ‘ib etadi;

– davlat doirasida yashayotgan fuqarolarni yaratuvchanlik, bunyodkorlik, ijodkorlik faoliyatlarini rivojlantiradi va ularni jamiyat maqsadlariga yo‘naltiradi;

– xalqning orzu-umidlarini o‘zida ifoda ettiradi, jamiyatda mavjud bo‘lgan muammolarni hal qilish uchun butun jamiyat va fuqarolarni harakatga keltiradi;

– mafkura jamiyatda ma’lum siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy-ma’rifiy qarashlarni shakllantiradi.

Milliy istiqlol mafkurasi O‘zbekistonda ozod Vatan, erkin va farovon hayot yaratishga qaratilgan umummilliy hodisa sifatida quyidagi bir qator o‘ziga xos amal qilish tamoyillariga ega: mamlakatning mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qilish; davlatimizning hududiy yaxlitligi va sarhadlari daxlsizligini ta’minlashda yordam berish; qonun ustuvorligini ta’minlash; demokratiya va o‘zini o‘zi boshqarishning hayotda mustahkam o‘rin egallashiga asoslanish; milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligiga tayanish; xalqaro huquq qoidalariga mos kelish; iqtisodiy plyuralizm va xilma-xil mulkchilikning erkin shakllanishini ta’minlash; davlatning bosh islohotchi ekani va mamlakatda ijtimoiy barqarorlikning ta’minlanishiga tayanish; vijdon erkinligi va fikrlar rang-barangligi muhitini shakllantirish; o‘tish davrida aholining ijtimoiy himoyalanganligi, jamiyat hayoti barcha sohalarining erkinlashuvi, islohotlarning tadrijiyligi jarayonlarga xizmat qilishi. Mazkur tamoyillarning barchasi bir-biri bilan chambarchas aloqada va bog‘liqlikda namoyon bo‘ladi. Bu, o‘z navbatida, ularning respublikamizda yashovchi barcha millat va elat vakillarining umumiy manfaatlarini, xalqimizning asrlar mobaynida intilib kelgan orzu-istaklarini, oliyjanob maqsad-muddaolarini o‘zida mujassam etishi bilan belgilanadi.

O‘zbekistonning milliy mafkurasi mamlakatimizning mana shu mintaqada, yon-atrofdagi davlatlar orasida va jahon miqyosida o‘ziga munosib o‘rnini, yana ham aniqroq aytadigan bo‘lsak, o‘zining ixtisosini to‘g‘ri va xolisona anglab, shu asosda izchil harakat qilishimiz uchun xizmat etishi zarur.

Har qanday xalqni xalq, millatni millat qiladigan, uning yo‘li va maqsadlarini aniq-ravshan charog‘on etadigan mafkura – milliy

g'oyani shakllantirishning asosiy sharti – odamlarning tafakkuri, dunyoqarashining voqelikka nisbatan ta'sirini inobatga olishdir. Shu ma'noda milliy g'oya, milliy ong tuyg'usining mohiyatini to'g'ri anglash, uni tarbiya qilish, uni bugungi kunning eng zarur vazifalardan biri sifatida e'tirof etish, bu xususda bahs-u munozaralar olib borish, fikr almashish ijtimoiy taraqqiyotimiz uchun katta foyda keltiradi. Chunki hech qachon kishilik jamiyatida g'oyaviy bo'shliq bo'lmagan. Agar shunday bo'shliq paydo bo'lsa, so'zsiz uning o'rnini bizning tabiatimizga begona turli xil mafkuraviy to'siqlar egallab olishi va o'z ta'sirini o'tkazishi muqarrar.

Xulosa qilib aytganda, ma'naviyat mafkurasiz rivojlana olmaydi. Chunki, inson ruhiyatini shakllantirish, milliy qadriyatlarni tiklash va jamiyat maqsadlarini amalga oshirishda mafkura harakatga keltiruvchi kuch sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Mafkura – umummillatga, umumxalqqa, butun jamiyatga taalluqli ulkan g'oyalar birligidir. Ammo, uning ildizlari har bir insonning qalbida, vijdonida, iymonida, aql-idrokida va tafakkurida. Shu bois haqiqiy insoniy mafkurasi bor xalq, mamlakat, jamiyat qudratlidir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Madaniyat nima? Uning qanday turlarini bilasiz?
2. Nima uchun madaniyat umuminsoniy hodisa hisoblanadi?
3. Madaniy va ma'naviy merosning farqini tushuntiring.
4. Ma'naviy merosning moddiy merosdan farqini izohlang.
5. Madaniy qadriyatlar va ma'naviy meros qanday maqsadga xizmat qiladi?
6. Milliy ma'naviyatning tarkibiga qanday qadriyatlar kiradi?
7. Milliy istiqlol g'oyasini mazmuniga to'xtalib o'ting.
8. Ma'naviyat bilan mafkurani farqini tushuntirib bering.
9. Mafkura jamiyat taraqqiyotida qanday vazifalarni bajaradi?

Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.

Shavkat Mirziyoyev

4-MAVZU. MA'NAVIYATDA MILLIYLIK VA UMUMINSONIYLIK

Reja:

4.1. Milliy ma'naviyat va uning xususiyatlari.

4.2. Umuminsoniy ma'naviyat va uning zaminlari.

4.3. Diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikning mustahkamlanishi.

Tayanch so'z va iboralar:

Shaxs ma'naviyati, milliy ma'naviyat, mintaqaviy ma'naviyat, umuminsoniy ma'naviyat, taraqqiyot dasturi, vatanparvarlik, axloqiy erkinlik, eng oliy ideallar, millatlararo munosabatlar, milliy o'zlik, millat va elat, urf-odatlar, diniy e'tiqod, ijtimoiy barqarorlik.

4.1. Milliy ma'naviyat va uning xususiyatlari

Milliy ma'naviyat, avvalo, tarixiy hodisa ekanligi bilan ajralib turadi. Milliy ma'naviyat tarixi millatning ma'naviy takomil jarayoni bilan bog'liq. Milliy-ma'naviy kamoloti zamonda, ya'ni millatning butun tarixi davomida yuz beradi. Bunda esa, u ba'zan shiddat bilan

yuksalib borsa, ba'zan esa ma'lum darajada tanazzulga yuz tutishi ham mumkin. Insoniyat tarixiy jarayoni uchun bir narsa ayonki, tarix hodisalari, shaxslar, voqealar o'tib ketadi, moddiy madaniyat unsurlari yemiriladi. Ammo, ma'naviyat yuksalib, boyib, tobora kengroq ko'lam va teranroq mazmun kasb etib boraveradi. Millatning aksariyat qismi ma'naviy tanazzulga yuz tutgan fojiaviy sharoitlarda ham milliy ma'naviyat yo'qolmaydi, ko'lami va mazmuni jihatdan o'zi yetishgan kamolot bosqichini yo'qotmaydi. Milliy ma'naviyat erishgan kamolot bosqichini yo'qotish uchun (shu jumladan, umummilliy ma'naviyatni ham) ajdodlar yaratgan barcha ma'naviy merosni mavh etish, insonlar xotirasini tamomila o'chirib tashlash, ulardan hatto irsiy xotirani ham barbod qilib – manqurtga aylantirish zarur.

Milliy ma'naviyat – muayyan millatning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy rivojlantirish jarayonida yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklari, u yashayotgan hudud, madaniy meros, milliy madaniyat, til, milliy ong, millat tarixi, o'tmishi, turmushi va yashash tarzi, hayotining tartib-qoidalari hamda bu bilan bog'liq milliy xususiyatlar majmuini ifodalaydi. U umuminsoniy qadriyatlar tizimida millatga xos eng umumiy jihatlarni aks ettiradi.

Milliy ma'naviyat tizimining quyidagi tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Millatning genofondi, tabiiy betakrorligi, o'ziga xosligi, tarixiy o'zgaruvchanligi va ijtimoiy rang-barangligi.

2. Millat tarixi, o'tmishi, kelajagi va ma'naviy merosi.

3. Milliy hudud, jamiyat va undagi jarayonlar, moddiy va madaniy yashash sharoitlari, iqtisodiy asos va ijtimoiy ustqurma bilan bog'liq jihatlar.

4. Urf-odatlar, an'ana, marosimlar, turmush tarzi va boshqa milliylik, ular bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlar.

5. Milliy til, milliy madaniyat va ma'naviyat, milliy ong va milliy ruh, milliy tuyg'ular va g'oyalar.

Bu qadriyatlar muayyan millat kishilari uchun umumiy bo‘lib hisoblanadi. Milliy ma’naviyat muayyan millatga mansub qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘lovchi halqalardan biridir. Muayyan kishi yoki shaxs umuminsoniy qadriyatlarni anglashda o‘z faoliyatini ushbu qadriyatlar mezoniga moslashtirishda milliy ma’naviyat bilan bog‘liq jihatlarni nazarda tutadi.

Millat mavjud ekan, milliy ma’naviyat bo‘ladi. Milliy ma’naviyatni yo‘qotish mumkin emas. Uni yo‘qotish uchun qanchalik harakat qilinsa, shunchalik milliylikni, milliy ma’naviyatni saqlash uchun kurash kuchayadi. Inson qalbidagi milliylikni yo‘qotish mumkin emas. Milliy ma’naviyat hodisasi tarixiy hamda bugungi kunda mavjudligini saqlab turgan ko‘p o‘lchamli voqelikdir. Inson ma’naviy olami o‘lchamlari cheksiz bo‘lib, uni hech bir narsa bilan o‘lchash, qiyoslash mumkin emas. Milliy ma’naviyat, avvalo, milliy ongda rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun ham mustaqillikka erishganimizdan buyon milliy ongni rivojlantirishni tarbiyaviy ishning muhim bo‘g‘imi sifatida olib qaramoqdamiz. Milliy ongning rivojlanishi pirovard milliy o‘zlikni anglash sari yetaklaydi.

Har bir millat o‘z qadriyatlarining yaratuvchisigina emas, balki uni asrab-avaylovchi va kelajakka yetkazuvchisi hamdir. Milliy qadriyatlarning saqlanishi uchun har bir millatning o‘zi mas’uldir. Hatto biror imperiya yoki davlatga qaram bo‘lgan millatning milliy ma’naviyatini saqlash tuyg‘usi yo‘qolib ketmaydi. Millatni milliy ma’naviyatning obyekti va subyekti sifatida tushunish, u bilan bog‘liq milliy ma’naviyat tizimini ilmiy tahlil qilishga ijtimoiy qadriyat sifatida qarash imkonini beradi. Bu esa milliy ma’naviyatning namoyon bo‘lishi, uning tarixiy rivojlanish jarayonida o‘tmishdan kelajakka tomon harakatini tahlil qilishga imkon yaratadi. Milliy ma’naviyat kishilarning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy birligini ta’minlaydigan etnik makonda shakllanadi, rang-barang tarzda, turli shakllarda namoyon bo‘ladi, kishining ongiga ta’sir qiladi.

Milliy ma'naviyat kishilarning o'zaro munosabatlarida, ijtimoiy faoliyatida ko'zga tashlanadi hamda ana shu munosabat, faoliyat, maqsad, ehtiyoj va intilishlar uchun ma'naviy asos bo'ladi. Milliy ma'naviyat va ularning aloqadorligi ifodasi bo'lgan qadriyatlar tizimi, millatning o'zi bilan birga tarix silsilasi, zamona zayli, ijtimoiy va siyosiy jarayonlar ta'sirida shakllanadi va rivojlanadi. Bu qadriyatlar ko'proq millatning etnik xususiyatlari va etnik makoni bilan bog'liq. Xalqlarning ijtimoiy taraqqiyoti esa ularning milliy etnik qadriyatlari ravnaqi bilan uzviy aloqadorlikda davom etadi. Milliy ma'naviyat, o'z tabiatiga ko'ra, tor doirada saqlanib qolmaydi, balki turmush jarayonida muttasil yangilanib, boshqa xalqlar qadriyatlari yutuqlari bilan boyib boradi.

O'zbekistonning taraqqiyot dasturi, uzoq va davomli maqsadlarini belgilashda xalqning moddiy va ma'naviy olamini yuksaltirish, yosh avlodni ajdodlar qoldirgan o'lmas merosni chuqur o'rganish, anglash, qadrlash bilan birga, umumbashariy qadriyatlar, zamonaviy ilm-fan cho'qqilarini egallash ruhida tarbiyalash masalasi ustuvor vazifa qilib olingan. Chunki, ertaga kattalar o'rnini bosadigan yoshlar aynan shunday oziqlangan zaminda voyaga yetgan taqdirdagina komil insonlar bo'lib, haqiqiy tayanch va suyanchga, yengilmas ma'naviy kuchga aylanib, jahon maydonlarida har qanday bellashuv va sinovlarga tayyor tura oladilar. Millat va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar ma'naviy tarbiya tufayli ajdodlardan asta-sekin tadrijiy ravishda avlodlarga o'tadi.

Ma'naviyatning milliy asoslari millatning tarixi, taraqqiyoti va bugungi rivojlanish darajasining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. O'zbek xalqi o'z ma'naviyatining milliy-etnik asoslarini, tarixiy va madaniy qadriyatlarini va o'ziga xos ijobiy an'analarini ming yillar mobaynida asrab-avaylab, boyitib kelmoqda. Ko'p ming yillik tariximiz shundan dalolat beradiki, eng og'ir davrlarda ham xalqimizning murakkab sinovlardan o'tishi, hayotning turli to'fonlariga mardona

dosh berib, qaddi-qomatini tik tutib yashashga katta madad baxsh etadigan kuch – yuksak ma'naviyat va adolatga intilish tuyg'usi bo'lgan. Xalqimiz hayot yo'lini, merosini o'rganar ekanmiz, ana shu ikki haqiqat bu jarayonning bosh mezoni bo'lib kelganiga ishonch hosil qilamiz.

Umuminsoniylik tuyg'usi faqat o'z xalqi qadriyatini ardoqlash, targ'ib-tashviq etish bilan cheklanmaydi, balki u har bir xalq, elat, urug' qadriyatlarini qanday holatda bo'lsa, shundayligicha qabul qilib, ularni hurmat qilishni taqozo etadi. Har bir millatning o'zi qadrlaydigan madaniyati, tili, an'analari, urf-odatlari, marosimlari va odob me'yorlari bor. Dunyoda aholisi son jihatidan ko'p yoki kamroq xalq bo'lishi mumkin, ammo madaniy va ma'naviy sohada bir-biridan kam yoki ortiq millat yo'q. Har bir millatning o'ziga xos o'tmishi, madaniy va ma'naviy qadriyatlari, milliy qahramonlari bor.

Bir millatning o'zga millat faoliyatini baholovchi hakam bo'lishga haqqi yo'q. Biror-bir ta'limot davlat shakli yoki yashash usulini qabul qila olmagani uchun muayyan millatni ayblab bo'lmaydi. Shu ma'noda, umuminsoniylik tuyg'usi faqat bir millat qadriyatlarini butun olamga yoyish yo'li bilan emas, balki barcha millat va elatlar qadriyatlarini asrab-avaylash, hurmat qilish va olamdagi milliy rang-baranglikning tabiiy rang-baranglik bilan uzviy aloqada ekanligini anglash yo'li orqali boyib boradi.

Milliy ma'naviyat millatning tabiiy-tarixiy rivoji, ijtimoiy turmushi, yashash tarzi, o'tmishi, kelajagi, madaniyati, ma'naviyati, urf-odatlari, an'analari, tili, u vujudga kelgan hudud bilan uzviy bog'langan. Ular xilma-xil shakllarda, bir-biri bilan uzviy aloqada namoyon bo'ladi, o'ziga xos milliy qadriyatlar tizimini tashkil qiladi. Bu tizimda tabiiy-tarixiy birlikni ta'minlovchi qadriyatlar – qon-qardoshlik, madaniy-ma'naviy yaqinlik, o'tmish va ma'naviy meros, ona yurt tuyg'usi kabi tushunchalarni ko'rish mumkin.

Milliy ma'naviyatda milliy manfaat ham muhim rol o'ynaydi. Sobiq sho'rolar davrida milliy manfaatni millatchilikka yo'yganlar

va milliy manfaat yuzasidan harakat qilgan kishilarni, rahbarlar va yozuvchilarni millatchi deb badnom etganlar. O‘zbek xalqi uchun umuminsoniy ma’naviyat bilan birga milliy ma’naviyat va uning boyliklari ham g‘oyat qimmatlidir. Bularga o‘zbek xalqning o‘zi yaratgan, boyitgan, saqlab kelayotgan, avloddan avlodga o‘tib, boyib, sayqal topib, rivojlanib borayotgan milliy-ma’naviy boyliklar, ajdodlardan qolgan axloqiy an’ana, marosimlar, pand-nasihatlar kiradi.

Markaziy Osiyolik mutafakkirlarning ilmiy merosida, manbalarda o‘zbeklarda qadrlangan, o‘zbekona axloq, odobga oid ma’naviy fazilatlar haqida ko‘plab qimmatli fikr, ma’lumotlar mavjuddir. Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining «Boburnoma» asarida o‘zbeklarga xos bo‘lgan ko‘plab ma’naviy-axloqiy sifatlarni tasvirlaydi. Bular iymon va e’tiqodlilik, andishalik, oilaga muhabbat, bolajonlik, halollik, birovning haqqiga xiyonat qilmaslik, farzandlarning ota-onalarga, aka-uka, opa-singil, qarindosh-urug‘larga mehribonligi, diniy qadriyatlarga rioya qilish, savodxonlik, sahovatlilik, xushfe’llik, shirinso‘zlik, mardlik, odillik, hayolilik, mehnatsevarlik va boshqalar.

Adolat tuyg‘usi, o‘z davrining huquqiy mezonlari asosida yashash, o‘zganing mol-mulkiga ko‘z olaytirmaslik, haromdan hazar qilish, insof va diyonat, mehr-oqibat kabi millatimizga xos bo‘lgan ezgu tushunchalar bugungi kunda ham ma’naviy hayot asoslarini tashkil etadi. Turli millat vakillariga hurmat, ular bilan bahamjihat yashash, dinlararo bag‘rikenglik, dunyoviy bilimlarga intilish, o‘zga xalqlar tajribalari va madaniyatini o‘rganish kabi xususiyatlar ham xalqimizda azaldan mujassam. Shu bilan birga, milliy xarakterga xos bo‘lgan muruvvat, andisha, or-nomus, sharm-u hayo, ibo-iffat kabi fazilatlar, millatimizni ko‘p jihatdan ajratib turadigan mehmondo‘stlik, bag‘rikenglik, oqko‘ngillik xususiyatlari o‘zbek ma’naviyatining milliy asoslarini tashkil etadi.

Qadimdan O‘zbekiston hududida asrlar davomida turli madaniyat va sivilizatsiyalar yonma-yon yashab kelgan, bu esa tinchliksevarlik,

saxovat, mehr-oqibatlilik fazilatlari bilan ajralib turadigan o‘ziga xos mentalitetning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Bu nafaqat noyob o‘ziga xoslik, balki ahamiyati va mohiyati jihatdan bebaho bo‘lgan g‘oyat katta boylikdir. Bir tomondan, xalqning o‘ziga xosligi va betakrorligini saqlash uchun, boshqa tarafdan, tarixan shakllangan qadimiy milliy madaniyatlar, san’at va xalq ijodiyoti, ming yillar mobaynida tarkib topgan milliy an’ana va urf-odatlarning o‘zaro yaqinlashuvi hamda bir-birini boyitishda O‘zbekistonda yashayotgan turli millat, elat vakillari o‘rtasida o‘zaro hamjihatlik va hurmat muhitini qaror toptirish uchun ochilayotgan imkoniyatlar yuksak ahamiyatga ega. Insonlar o‘rtasidagi ana shu o‘zaro hurmat muhiti, ular qaysi tilda so‘zlashishidan qat’i nazar, O‘zbekiston deb atalgan yagona Vatanda hukm surayotgan tinchlik, barqarorlik va osoyishtalikning eng muhim asosi va garovi bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston tarixining turli sahifalari ko‘zdan kechirilganda, o‘zbek xalqi ma’naviyati bilan bog‘liq shunday ma’lumotlarga duch kelish mumkinki, ular halollik, haromdan hazar, tamagirlikdan nafratlanish, kamtarlik singari tuyg‘ular millatga xos eng oliyjanob fazilatlar ekanligidan dalolat beradi. «Birovning haqi», «qiyomat qarz», «peshona teri» degan tushunchalar buning yaqqol ifodasidir. Masalan, «Boburnoma»da temuriy hukmdor Umarshayx Mirzoning naqadar adolatli va halol inson bo‘lganligini ko‘rsatuvchi bir ma’lumot keltirilgan. Bir yili Xitoydan Farg‘onaga kelayotgan ming kishilik karvon O‘sh tog‘larida qor ko‘chkisi ostida qolib halok bo‘lgan. Umarshayx Mirzo darhol odamlarni yuborib, karvonning yuklarini nazorat ostiga oldirgan. Egalari halok bo‘lgan shu mollarni ikki yildan ziyod ehtiyotlab saqlatgan. Samarqand va Xurosonga maxsus odam yuborib, karvon egalarining merosxo‘rlarini daraklatib toptirgan va ularni o‘z mamlakatiga chaqirtirib, mollarini to‘laligicha qo‘llariga topshirgan.

Hozirgi davrda ham hayotimizda shunday ezgu tushunchalar barqaror va ustuvor. Bunday misollar ma’naviyatning milliy asoslari

mustahkam ekanidan dalolat beradi. Har qanday xalq ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odatlari va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu borada ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omil va manba sifatida xizmat qiladi. Shunday manbalardan biri – xalqimizning miloddan oldingi davrdagi hayoti, dunyoqarashi, odam va olam to'g'risidagi tasavvur, urf-odatlar va ma'naviy qadriyatlari, g'oyalari, diniy qarashlari haqida ma'lumot beruvchi «Avesto» hisoblanadi.

Hayotda eng ko'p ishlatiladigan so'zlardan biri – Vatan desak, xato bo'lmas. Inson inson bo'libdiki, bu so'zning ma'nosini anglashga intiladi. Ammo buyuk ajdodlarimiz merosiga murojaat qilish, boshqa el va xalqqa mansub ulug' insonlar ijodini o'rganish, xalq donoligining ajoyib namunalari bo'lgan maqollar, rivoyatlarga quloq tutish jarayonida bu muqaddas tushunchaning yangidan yangi qirralarini kashf etamiz. Ammo shunga qaramay, har bir avlod «Vatan» tushunchasini yangidan kashf etadi, o'z ijodi, kashfiyotlari va faoliyati bilan uning ma'no-mazmunini kengaytiradi. Vatan deganda, tasavvurimizda dastlab insonning kindik qoni to'kilgan tuproq, uni kamolga yetkazgan, hayotiga ma'no-mazmun baxsh etadigan maskan gavdalanadi. Zero, har bir kishining o'z tug'ilgan yeri, o'sib-ulg'aygan yurti bor. Turli sabablarga ko'ra, vatandan uzoqda yashashga majbur bo'lgan musofirlarning o'z kindik qoni to'kilgan o'lkaga talpinib yashagani, yurt sog'inchi bilan o'rtangani ham shundan. Hind zaminida ulkan davlat barpo etgan, ilm-u fan, adabiyot va san'atda o'chmas iz qoldirgan shoh Zahiriddin Muhammad Boburning Andijondan keladigan har bir xabarga mushtoq bo'lgani, yurtdan mujda keltiruvchi meva-chevalarni ko'rganida yosh bola yanglig' o'zini tutolmagani ham shundan.

Inson yuragini larzaga soluvchi quyidagi o'tli misralar ham ana shu tuyg'ularning ifodasi o'laroq bitilgani shubhasiz:

Ko'pdan beriki yor-u diyorim yo'qdur,
Bir lahzavu bir nafas qarorim yo'qdur.
Keldim bu sori o'z ixtiyorim birla,
Lekin borurimda ixtiyorim yo'qdur.

O'zbek xalqining hozirgi milliy ma'naviyati va qadriyatlari o'tmish milliy ma'naviyatimizning davomi bo'lib, ularga do'stlik, mehmondo'stlik, odamgarchilik, insonparvarlik, axloqiy teranlik, tadbirkorlik, fazilatlilik, saxiylik, xushmuomalalilik, jamoa ichida o'zini tuta bilishlik, hayotlilik, sizlab muomala qilish, ozodalik, xushchaqchaqlik, mardlik, samimiylik, lutfi karamlilik, shirinso'zlik, tashabbuskorlik, ona yurt va xalqiga muhabbatlilik, insoflilik, diyonatlilik, rostgo'ylik, halollik, or-nomuslilik, to'g'rilik, poklik, vazminlik, hojatbarorlik, ota-ona va kattalarni hurmat qilish, mehnatsevarlik, o'tmishga hurmat, insoflilik, milliy g'urur, mustaqillikni qadrlash, vatanparvarlik, millatparvarlik va boshqa milliy-ma'naviy-axloqiy fazilatlar kiradi.

Milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'usining o'qtomiri – yagona. Zero, o'zi mansub bo'lgan millatdan g'ururlanuvchi insonga shu xalq makon tutgan zamin – Vatandan g'ururlanish ham begona emas. U yurtini yanada obod, elini esa tobora ma'mur ko'rishni istaydi. Agar Vataniga yovuz g'anim ko'z olaytirsa, unga ko'ksini qalqon qiladi. Milliy g'ururga ega inson o'zga xalq vakillarining shunday tuyg'usiga ham ehtirom bilan qaraydi. Har bir millatga, u xoh katta, xoh kichik bo'lgan, ayni tuyg'u yot emasligini tan oladi. Shu tariqa boshqa xalqlar bilan o'zaro do'st va hamkor bo'lib yashab, mushtarak nurli istiqbolni barpo etishga harakat qiladi.

Milliy g'urur har bir xalq uchun bitmas-tuganmas ruhiy kuch-quvvat manbaidir. Bunday g'ururga ega bo'lmagan millatning boshi ham, qaddi ham egik bo'ladi. U o'zining dunyo hamjamiyatidagi qonuniy o'rnini talab qila olmaydi. Irodasi bukilib, ma'naviy kuchi sinadi. Oqibatda, manqurt kabi o'zgalarga mute bo'lib qoladi. Ayni choqda,

milliy g'ururni suiiste'mol qilish ham yaramaydi. Zero, tarixda ba'zi yovuz yo'lboshchilar, buzg'unchi mafkura vositasida butun boshli xalqlar g'ururini noto'g'ri o'zanga solib yuborganiga misollar juda ko'p topiladi. Ular ko'p yillar davomida fuqarolar ongiga biz oliy irqqa mansubmiz, demak, dunyoning xo'jayini ham o'zimiz – bizga barcha so'zsiz itoat etishi, har qanday xizmatimizga tayyor turishi shart, degan yolg'on g'oyani singdirgan. Bunday shovinistik, fashistik qutqu qanday mudhish oqibatlarga olib kelgani hech kimga sir emas.

Odatda, davlatning naqadar jadal taraqqiy etishi, mamlakatning xalqaro nufuzi qanchalik ortishi ko'p jihatdan inson omiliga, chunonchi, fuqarolarning ma'naviy salohiyati, milliy g'ururiga bog'liq. Shu sabab shiddatkor zamon bilan teng odim tashlashni istagan har bir davlat, eng avvalo, o'z kelajagi – yoshlarni ana shunday fazilat sohibi qilib tarbiyalashga alohida e'tibor qaratadi.

Milliy g'urur, Vatanga muhabbat har bir yigit-qizda o'z yurti, o'z eli taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishga bo'lgan ichki rag'batni tarbiyalashdan boshlanadi. Zero, shu yurtda yashab turib, unga biror naf keltirmaslik – eng katta ayb, hatto gunohi azimdir. Shu nuqtayi nazardan, bugungi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir ma'naviy targ'ibot tadbirlari uyg'unligini quyidagi omillar ta'minlaydi:

– aqliy-ma'naviy kamolot va jismoniy salomatlik uyg'unligiga erishish;

– vatan va xalq oldidagi burch hamda mas'uliyatni anglash;

– milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ehtirom va sadoqat ko'rsatish;

– davlat mustaqilligini barcha sohalar, chunonchi, harbiy sohani ham mustahkamlash va boshqalar.

Milliy g'urur, Vatanga muhabbat tuyg'ulari, avvalo, o'zi mansub bo'lgan xalq, o'zi tug'ilib o'sgan yurt tarixini chuqur bilishga tayanadi. O'zbek xalqi tarixida ham yuksalish, ham tanazzul davrlari bo'lgan. Kamol-u zavol sabablarini aniqlash, tarixdan zarur saboqlar

chiqarishning bosh garovidir. Biz taraqqiyga erishgan bo‘lsak, bunga nima imkon berdi-yu, tanazzulga yuz tutgan bo‘lsak, bunga nima sabab bo‘ldi? Shunday savollar ustidagi o‘y-mulohazalar esa bizni quyidagi xulosalarga olib kelishi aniq: IX – XII va XIV – XV asrlarda yuz bergan ikki Uyg‘onish davri o‘zbek xalqining salohiyatini butun dunyoga yorqin namoyish etdi. Demak, XVI – XX asrlardagi milliy parokandalik va mudhish istibdoddan so‘ng mustaqillikni qo‘lga kiritgan xalqimiz ana shu ikki Uyg‘onish davriga mushtarak yuksak marralarni ko‘zlashga nainki haqli, balki burchli hamdir. Bu marralarni zabt etishda esa bugun yoshlik pallasida turgan yigit-qizlar asosiy va hal qiluvchi kuch hisoblanadi.

Millat, xalq bor ekan, uning ma’naviy dunyosida milliy jihatlar doim saqlanib keladi. O‘zbeklarning milliy ma’naviyati, erkak va ayollarning o‘ziga xos sharqona axloqiy fazilatlar-u ota-ona, farzandlar, qo‘ni-qo‘shnilar, mahalla-kuy aloqalari, halollik, vijdon bilan bog‘liq ma’naviyati faqat o‘tmish sadosi emas, balki hozirgi kun uchun ham xosdir.

O‘zga millatlarning ma’naviy qadriyatlari qanchalik ta’sir ko‘rsatmasin kattalarga, ota-onaga hurmat, kamtarlik, halollik, iymon, mehnatsevarlik, mehmondo‘stlik singari milliy-ma’naviy fazilatlarimiz barqaror. Chunki bu ma’naviy xislatlar avloddan-avlodga o‘tib, qon-qonimizga singib ketgan. «Ayollarimiz qanchalik zamonaviylashmasinlar, ular hayo, ibo, nomus, nafosat bobida, oila, qarindosh-urug‘larga nisbatan munosabat masalasida sharqona, o‘zbekona fazilatlarini tark etmaydilar. Millat bor ekan, uning ma’naviyati saqlanib qoladi va rivojlanaveradi.

Odatda, kishilar ko‘pincha ikki ishda katta xatoga yo‘l qo‘yadilar. Birinchisi – yoshlarni hali yosh deb, ularga ishonmaganida, ikkinchisi –keksalarni qariya deb chetga surib qo‘yganida. Yoshlarda kelajakka intilish bilan bog‘liq bo‘lgan katta tashabbus, kuch va g‘ayrat bo‘ladi. Keksalar esa hayot yo‘lida ko‘p issiq va sovuq

unlarni boshidan kechirib, boy tajriba orttirgani uchun ularda ...roqni o'ylab, bosiqlik bilan ish qilish, yetti o'lchab bir kesish singari ma'naviy boylik va yetuk tafakkur salohiyati bor. O'zbeklarning «Quri bilganni – pari bilmas» degan hikmatida ko'p ma'no bor. Yoshlarning tashabbusi, kuchi g'ayrati, keksalarning boy hayotiy tajribasi bilan bog'langandagina yaxshi ijobiy samara beradi. Keksa avlodning bilimi, hayot tajribasi yoshlar uchun ma'naviy kamolot va ibrat maktabidir.

Sovet-totalitar tuzumi sharoitida ma'naviy-axloqiy fazilatlarning milliy jihatlari, an'nanalarini inkor etish yoki kamsitish kuchaydi. Ular ma'naviy qoloqlik ifodasi sifatida talqin etildi. Sharq xalqlarining, jumladan, o'zbek xalqining mingyillik ma'naviy boyliklarini o'zida mujassamlashtirgan hadislar, shariat hukmlari diniy xurofot sifatida qoralandi.

Xalqimizning axloq, andisha, sharm-u hayo, halollik va pokizalik, inson qadr-qimmati to'g'risidagi ma'naviy qadriyatlarga zid bo'lgan yevropacha an'analar yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir o'tkazdi. Shu tufayli ma'naviy tubanlik yuzaga keldi. Abdulla Avloniy va boshqa ma'rifatparvar fidoyilar XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Turkistonda hukmron bo'lgan ma'naviy inqiroz haqida gapirib, bu og'ir vaziyatdan ta'lim-tarbiya ishlarini yaxshilash, axloqiy yuksalish orqaligina chiqish mumkinligini qayd qilgan edilar. «Tarbiya, – degan edi Abdulla Avloniy, – bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir»[1].

Sovet totalitar tuzumi barbod bo'lishi, O'zbekistonning o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi jamiyatimiz ma'naviyatida chuqurlashib borayotgan inqirozning oldini olish uchun Tangrining inoyati, xalqimizning baxti bo'ldi. Milliy mustaqillik tufayli jamiyatimizda, milliy ma'naviyatda poklanish, o'nglanish, tiklanish jarayoni yuz

[1] Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Tanlangan asarlar, 2-jild. T.: «Ma'naviyat», 1998, 34-bet.

berdi. Yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik, millatparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy g‘urur tuyg‘usini kuchaytirish, iymon, vijdon, halollik, poklik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik singari xislatlarni shakllantirish, mustaqillikning ongli fidoyisiga aylantirish hozirgi kundagi milliy-ma’naviy tarbiya ishining asosiy maqsadidir.

Milliy tarbiya – u yoki bu millatni, elatni tashkil qiluvchi kishilarning milliy madaniyati, merosni, qadriyatlarni, urf-odatlarni, an’analarni o‘zlashtirishdagi faoliyatini rivojlantirish bo‘lib, u milliy ong va milliy o‘zlikni anglashning subyektidir.

Milliy tarbiyaning asosiy yo‘nalishlarini millatparvarlikni, halqparvarlikni, vatanparvarlikni, yuksak insoniylikni rivojlantirish, merosni, urf-odatni, qadriyatlarni, fan-texnika, texnologiyalarni o‘zlashtirishga intilishni rag‘batlantirish, mehr-oqibat, iymon-e’tiqod, or-nomus, insof-diyonat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mohiyatini tushunib yetish va unga amal qilish ruhiyatini shakllantirish kabilarni tashkil etadi.

Milliy tarbiyaning yana bir yo‘nalishi – ota-ona, qarindosh-urug‘larning hurmatini joyiga qo‘yish, oilaning muqaddasligi tuyg‘ularining barkamol bo‘lishiga erishish, o‘zaro munosabatlarda yonma-yon yashayotgan o‘zga millatlar va elatlar vakillarining manfaatlarini hisobga olish kabilar tashkil etadi.

Axloq ma’naviyatning o‘zagi bo‘lib, insondagi insoniylikning jamiyatda namoyon bo‘lishidir. Jamiyat o‘z axloq normalarini ishlab chiqadi. Har bir fuqaro unga bo‘ysunishga majbur. Axloq normalarini mensimaslik kishi obro‘sini yo‘qotadi. Odamlar bunday kimsaga nafrat bilan qaraydilar. Axloq ma’naviy hayotni risolaga soladi, jamiyatda tartib o‘rnatadi. Har bir xalq alohida milliylik va umuminsoniylik mushtarak holda singgan bo‘ladi. Axloqiy qadriyatlar esa merosiy axloq, ya’ni o‘tmishda yashab, bizlarga berilayotgan qadriyatlardir. Bizlarda barcha xalqlarda bor bo‘lgan umuminsoniy qadriyatlar e’zozlanadi. Ma’naviyati yuqori xalq boshqa xalqlarni hurmat

qiladi. O‘zbekiston xalqlari axloqi, madaniyatining shakllanishiga insonparvarlik, baynalmilallik, ijtimoiy adolat, erkinlik, milliy iftixor, halollik, birdamlik, bilimdonlik, tenglik kabi qadriyatlar o‘z hissasini qo‘shgan.

Yurtimizda axloqiy erkinlik va axloqiy burch kelajagi buyuk davlat qurishga imkoniyat bermoqda. Axloqiy ma’rifat shunchalik zarurki, unda ibratli hikoyalar, rivoyatlarning o‘rni beqiyosdir. Mavlono Mir Alisher Navoiy yozganidek:

Gar kuchuk birlan xo‘tikka qancha qilsang tarbiyat,
It bo‘lur, eshak bo‘lur, bo‘lmaslar aslo odami.

Demak, axloq faqatgina tarbiya orqaligina qo‘lga kiritiladigan qadriyat emas, unda irsiy faktor ham muhim rol o‘ynaydi. O‘zbek xalqi tagli-tugli, axloq-odobni yaxshi ko‘ruvchi xalq. Qadimdan odob-axloqni e’zozlagan xalqimiz o‘z farzandlarini doimo go‘zal axloqqa chorlagan. Sharqona odob, sharqona lutf, so‘zlovchi yoki hamsuhbatini ruhiyatiga qarab muloqot qilish san’ati o‘zbeklarda kuchli bo‘lgan.

Ma’lumki, jamiyat taraqqiyoti barcha davlatlarda rivojlanishning mohiyati, uning sur’ati, insonlarning odobi, tarbiyasi, xulqi va ma’naviy-madaniy, axloqiy kamoloti yuksak bo‘lsa, shu yerda jamiyatning ijtimoiy adolat mezonlari tez rivojlanganligi tarixdan ma’lum. O‘zbekistonda insonparvar huquqiy demokratik davlatning uch muhim jihati bor: iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy. Bu jihatlar qancha mustahkam va baquvvat bo‘lsa, kelajagimiz ravnaqi tez rivojlanadi.

Insonga berilgan eng ulug‘ ne’mat hayot bo‘lsa, insoniyat intilib kelgan eng ulug‘ maqsadlar tinchlik va totuvlikdir. Vatanimizda hukm surib kelayotgan tinchlik, xotirjamlik, totuvlik, hamjihatlik hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydigan boyligimizdir. Bu esa, o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmaydi.

Qat'iy ishonch va alohida iftixor bilan aytish mumkinki, O'zbekistonning mustaqillikka erishishi ko'p millatli respublikamizda millatlararo munosabatlarni yanada takomillashtirish va millatlararo totuvlikni mustahkamlash borasida ham yangi davrning boshlanishiga asos bo'ldi.

4.2. Umuminsoniy ma'naviyat va uning zaminlari

Umuminsoniy ma'naviyat – butun insoniyatga, jahon xalqlariga tegishli bo'lgan ma'naviy boyliklardir. Umuminsoniy ma'naviyat uzoq va yaqin o'tmishda yaratilgan, hozirda esa ma'naviy jihatdan juda qimmatli, inson qalbida o'chmas iz qoldiradigan, mangu yashaydigan, insoniyat ijtimoiy manfaati, ehtiyoji uchun xizmat qiladigan, ularni ezgulikka yo'llaydigan ma'naviy boyliklardir. Umuminsoniy ma'naviy boyliklarga esa ilm-fan, jumladan, falsafiy tafakkur yutuqlari, adabiyot va san'at asarlari, kashfiyot va ixtiro, din, siyosat, huquq sohasidagi natijalar, hurfikrlik, umuminsoniy axloqiy me'yorlar va boshqalar kiradi.

Umuminsoniy ma'naviyat o'z ijobiy ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydi. Oltin zanglamas, quyosh qoraymas deganlaridek, umuminsoniy ma'naviyat ham doim qadimiy va navqiron bo'lib turaveradi. Ular umumbashariy ma'naviyat deb ham yuritiladi. Inson ozodligi, salomatligi, har bir shaxsning yashash, bilim olish, keksayganda ijtimoiy himoyalanish imkoniyatlari va u haqda g'amxo'rlik qilish kabi ma'naviy mas'uliyat o'z ahamiyatini doim saqlab qolaveradi. Adolat, tenglik, ahil qo'shnichilik kabi ma'naviy qadriyatlar asrlar osha yashab kelmoqda, uni butun insoniyat avaylab-asrab kelmoqda. Mehnatsevarlik, ezgulik, yaxshilik qilish, tinchlik, do'stlik, halollik, vatanparvarlik va boshqalar ham umuminsoniy ma'naviyat sanalib, u har bir xalq, millatda o'ziga xos ravishda namoyon bo'ladi.

O‘zidan kattalarni, ota-onani hurmat qilish, farzandlar haqida g‘amxo‘rlik qilish ham umuminsoniy ma’naviy jihatlar bilan ajralib turishini yoddan chiqarmaslik kerak. Vijdon, burch, baynalmilalchilik ham umuminsoniy ma’naviyat tizimidan o‘rin olgandir. Ma’naviyatlik tushunchalarining milliy chegarasi yo‘q. U hamma millat, xalq uchun barobar tegishlidir. Ammo, ularning hammasi faqat muayyan milliy shaklda namoyon bo‘ladi. Umuminsoniy ma’naviyatda biz milliy ma’naviyatning eng oliyjanob, eng yuksak ko‘rsatkichlarining umumjahon miqyosida mujassamlashgan birligini ko‘ramiz.

O‘z taraqqiyoti uchun har bir millat umuminsoniy ma’naviyat boyliklaridan, xazinasidan foydalanishi, unga suyanishi tarixiy zaruratdir. Buningsiz zamonaviy ilg‘or millat haqida orzu qilish mumkin emas. Umuminsoniy ma’naviyat boyliklaridan foydalanish milliy cheklanganlik qobig‘idan chetga chiqishga, olamni kengroq anglash va kuzatishga undaydi.

Agar milliy ma’naviyat bo‘lmasa, umuminsoniy ma’naviyat yo‘q, umuminsoniy ma’naviyatsiz esa hozirgi zamon ilg‘or millatlari yo‘q. Millatlar umumjahon, umumbashariy ma’naviyatning yaratuvchilaridir. Bizning milliy xususiyatlarimiz umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘lanib ketgan. Asrlar davomida xalqimiz umumbashariy, umuminsoniy qadriyatlar takomiliga ulkan hissa qo‘shgan. Turli millat vakillariga hurmat, ular bilan bahamjihat yashash, diniy bag‘rikenglik, dunyoviy bilimlarga intilish, o‘zga xalqlarning ilg‘or tajribalari va madaniyatini o‘rganish kabi xususiyatlar ham xalqimizda azaldan mujassam.

Ma’naviy mazmun kasb etadigan narsa va hodisalarga nisbatan ishlatiladigan umuminsoniy ma’naviyat har qanday xalq, jamiyat va davlat hayot tarzining asosiy mezoni bo‘lib hisoblanadi. Umuminsoniy Ma’naviyat tushunchasida ma’naviyatni tirik tabiatning bir qismi bo‘lgan odamzodning hayoti va kamoloti hamda tarixiy, siyosiy va boshqa birliklar (ijtimoiy subyektlar) uchun ahamiyati ham o‘z

aksini topadi. Umuminsoniy ma'naviyatning namoyon bo'lish shakllari orasida o'z ahamiyatini ijobiylik hamda foydalilik xususiyatlarini doimo saqlab keladiganlari ham bor, ularga inson vujudining tirikligi, uning ijtimoiyligi, inson umri va hayoti, sihat-salomatligi, ijtimoiy faoliyati va munosabatlar, mehnati, bilimi, muomalasi va shu kabilar kiradi. Ular inson va jamiyat bor ekan, o'zining ijtimoiy ahamiyatini saqlab qoladi, ularga qarama-qarshi bo'lgan o'lim, kasallik, ma'nosiz hayot kechirish, bilimsizlik va boshqalar ham tarixiy jarayonlarning doimiy hamrohidir.

Umuminsoniy ma'naviyatning eng oliy shakllari ma'naviy ideal sifatida qaraldi. Jamiyat tarixining hamma davrlarida odamlar ana shu ideallarga intilib, ularga erishishni orzu qilib yashaydilar, kundalik hayotda va ilmiy adabiyotda eng oliy ideallar bir qator ibora va tushunchalar orqali ifodalanadi:

– ma'naviy va axloqiy poklikning umumiy belgisi – yaxshilik;
– nafosat belgisi – go'zallik;
– bilimlarimiz va fan yutuqlarining amaliyotga mosligi – haqiqat;
– inson huquqlarining oliy ifodasi – erkinlik va tenglik;
– siyosatning to'g'riligi – adolat;
– odamlar o'rtasidagi ijobiy munosabatlar – do'stlik;
– eng xokisor va beg'araz tuyg'ular asosidagi qalblarning mushtarakligi – muhabbat;
– orzu-umidlarga erishish – baxt-saodat;
– o'z yurtini sevish va ardoqlash – vatanparvarlik va shu kabilardir.

Voqelikda ushbu ideallar bilan birga, ularning ziddi – yovuzlik, yomonlik, xunuklik, yolg'on, erksizlik, tengsizlik, adolatsizlik, dushmanlik, nafrat, xiyonat kabilar ham muayyan tarzda namoyon bo'ladi. Tarixiy taraqqiyot jarayonida umuminsoniy ma'naviyatni barqarorlashtirish yo'llari va usullarining bu boradagi maqsadlar bilan uyg'unlashtirilishi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarni amalga oshirish

davrida nihoyatda qat'iy ahamiyat kasb etadi. Bu o'rinda uch asosiy jihatga e'tibor berish lozim.

1. Kishilarning umuminsoniy ma'naviyati va ularga erishish yo'llari haqidagi qarashlarida o'tmish avlodlardan meros qolgan orzu-umidlar, tasavvurlarning ham ahamiyati beqiyosdir. Zero, har bir avlod umuminsoniy ma'naviyatni barqarorlashtirish va oliy maqsadlarga erishish borasida o'tmish avlodlarning tasavvur va xulosalarini meros qilib oladi, o'z faoliyati, zamonasidagi o'zgarish va jarayonlarga ham ana shunday nuqtayi nazardan yondashadi.

2. Har bir avlodning o'tmishdoshlaridan meros bo'lib kelgan umuminsoniy ma'naviyat to'g'risidagi tasavvur va orzu-umidlardan tashqari, o'zi to'plagan tajriba, ana shu tajriba asosida vujudga kelgan qarashlar ham bor. Demak, har qanday davrda ma'naviy idealga erishish yo'lida harakatlar boshlanganda, ularni amalga oshirishning reja va dasturlari tuzilayotganda, kishilarning ruhiy-ma'naviy tayyorgarligi bu boradagi maqsad, qiziqish, ehtiyoj va talablarini hisobga olish zarur.

3. Umuminsoniy ma'naviyat to'g'risidagi tasavvurlar, ehtiyojlar, intilishlar asosida vujudga kelgan turli reja va dasturlarda ko'proq bu boradagi faoliyatning nazariy, umumiy jihatlariga e'tibor beriladi. Bu hol, ayniqsa, jamiyat taraqqiyotida tub burilish va chuqur o'zgarishlar yuz berayotgan davrda yaqqol namoyon bo'ladi.

Ammo bu boradagi rejalardan amaliyotga o'tilganda, tajribada maqsadlarga erishish uchun bevosita harakat boshlanganda kutilmagan holatlar yuzaga chiqa boshlaydi. Bular esa, o'z navbatida, bosh maqsadga erishish borasidagi kundalik faoliyatda turli xil yo'llar, usullardan foydalanishni talab qiladi. Umuminsoniy ma'naviyatning ba'zi shakllari bilan bog'liq yana bir masala bor; ularning hayotda qaror topishi muayyan to'siq va qiyinchiliklar orqali kechadi. Natijada, ideal mutloq to'la-to'kis amalga oshmaydi, uning ba'zi bir jihatlari hayotga tatbiq etiladi, boshqalari esa kelajak avlodlarga meros bo'lib

qoladi. Odamzod esa idealsiz, unga intilmasdan, kelajakka umid ko‘zlarini tikmasdan yashay olmaydi.

Inson hayotda faqat ideallar, ularga erishish to‘g‘risidagi orzular bilan qanoatlanib qolmaydi. U o‘z ideallariga erishish, ularni barqaror qilish yo‘lida boshqa ehtiyoj, talab va qiziqishlarni qondirishi, o‘zga kishilar bilan munosabatda bo‘lishi, jamiyat talablarining bajarilishi, o‘z burchini ado etish va boshqa sohalarda faoliyat yuritishi lozim. Shu ma’noda kishilar doimo idealga intilib, real hayotdagi vazifalarni bajarib, orzu-umidlar bilan real voqelik orasida umr o‘tkazadilar. Ideallarga intilish orzusi bilan real hayotda yashash zarurati o‘rtasidagi muayyan ziddiyat odamzodni yashashga undaydigan, umrining eng qiyin, murakkab davrlarda ham umid uchqunlari saqlanib qolishi uchun asos bo‘ladigan umrguzaronlikning asosiy tamal toshi, inson hayotining mazmuni, ma’nosi va qadrini belgilaydigan obyektiv jarayondir.

Umuminsoniy ma’naviyat omilkor faoliyatga chorlovchi optimistik g‘oyalar, shiorlar rolini o‘ynashi ham mumkin. Bunday holda ular kishini amaliy ishlar qilishga undaydigan, uning faoliyatiga ma’no va mazmun bag‘ishlaydigan, maqsadini aniqlash imkonini beradigan, biror jarayonga, jamiyatda amalga oshirilayotgan vazifalarga nisbatan shaxs yoki ijtimoiy subyektlarning qanday munosabatda bo‘layotganini oydinlashtirish imkonini beradigan ma’naviy mezonga aylanadi.

Insonning yashash joyi, o‘tmish avlodlarining xoki yashiringan zamin, o‘zi tug‘ilgan yurt bilan bog‘liq umuminsoniyatga xos bokira tuyg‘ulari bor. Bu tuyg‘ular tug‘ilgan uydan, mahalla, qishloq, shahar ko‘chasidan tarbiyalana boshlaydi, kishi mansub bo‘lgan tarixiy birlik, uning o‘tmishi bilan bog‘langan ijtimoiy hududga nisbatan munosabatda namoyon bo‘ladi. Har bir kishi Yer sayyorasining farzandi ekanligini, o‘zi uchun suyukli hudud, sayyoraning tarkibiy qismi bo‘lgan Vatanning talabiga mos keladigan inson darajasiga ko‘taradi.

Sayyoramiz kishilariga xos umuminsoniy ma'naviyatning shakllanishi va takomillashuvi uchun Yer yuzida tiriklikning vujudga kelishi, rivojlanishi, odam zotining ongli faoliyati, mehnati, madaniyat va ma'naviy kamolotga erishish bosqichlari, tabiat va jamiyatda amalga oshirilgan ishlari bilan bog'liq jarayonlarni ifodalaydigan tarix ham o'z ahamiyatiga ega.

Tarix – odam zotining vujudga kelgan ilk davrdan bizning kunlarimizgacha yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklari, insoniyat hayotida ro'y bergan o'zgarishlarni hozirgi avlod va kelajakka yetkazib berishga xizmat qiladi. U avlodlar ruhi oldidagi qarzdorlik tuyg'usini qo'zg'agan, o'tmish voqealarini o'rganish zarurati tug'ilgan va kelajak rejalarini tuzish jarayonida rivojlanishning aniq yo'li va usullari tanlab olinayotgan davrlarda yuksak ma'naviyat mezoniga aylanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda tarixiy xotirani tiklash, mustaqillikni mustahkamlash, aholi qalbi va ongida milliy istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhini singdirishga katta ahamiyat berilayotgani bejiz emas. Bu esa, o'z navbatida, xalqimizga xos milliy ma'naviyatning umuminsoniy ma'naviyat xazinasiga munosib hissa bo'lib qo'shilishi, yurtimizda yuksak ma'naviyat tamoyillarining ustuvorligini ta'minlash, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuminsoniy nuqtayi nazardan yoshlarni tarbiyalashning ma'naviy taraqqiyoti mezonlari nimalarda aks etadi?

1. Ma'naviy taraqqiyot yo'lida jahon ahli, boshqa xalqlar, davlatlar, madaniyatlar bilan integratsion aloqalar o'rnatish.

2. Mintaqaviy qadriyatlarni asrash va ularni rivojlantirish uchun etnoregional aloqalarni olib borish.

3. Jahoniy dinlardan biriga aylangan va o'zida umuminsoniy qadriyatlarni saqlayotgan islomiy ma'naviyatga tayanish.

4. Jahon xalqlari bilan birgalikda tinchlik, barqarorlik, inson taraqqiyoti uchun kurashish.

5. Demokratik tamoyillarga sodiqlik, umumjahon amal qilayotgan prinsiplarga, huquq normalariga, axloq qoidalariga rioya qilish.

6. Iqtisodiy integratsiya orqali umumiy ijtimoiy-madaniy makon yaratishda ishtirok etish.

7. Ilm, fan, ma'rifat, ta'lim-tarbiya sohalarida jahon ahli erishgan yutuqlarni joriy etishga intilish.

Umuminsoniy qadriyatlar negizida, eng avvalo, dunyodagi davlatlar bilan hamkorlik barcha xalqlar, millat va elatlarga xos rang-baranglik asosiga qurilgan Integratsion aloqalar yotadi. Hozirgi davrda umuminsoniy aloqalar, munosabatlar mamlakatlarning o'zaro tengligi, bir-birlarining ichki ishlariga aralashmaslik, xalqlarning o'z huquqini o'zi belgilashi kabi tamoyillarga tayanadi. Olamdagi barcha xalq va millatlarga xos rang-baranglik ularni bir-biridan ajratish emas, balki umumiy uyg'unlikni shakllantiradigan mushtaraklik belgilaridir.

Insonparvarlik, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, ularni asrab-avaylash bilan birga yangi zamon talablariga mos ravishda takomillashib borish – umuman olganda, ma'naviy taraqqiyot mezoni, milliy ravnaq asosi, yoshlar kamolotining eng muhim omilidir. Bunday ruhiyatdagi odam hech qachon birovga tazyiq qilmaydi, shafqatsizlik va zo'ravonlik kabi g'ayri insoniy illatlarga hamisha nafrat bilan qaraydi. O'z tabiatiga mos ravishda bag'rikeng va muruvvatli bo'ladi.

4.3. Diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikning mustahkamlanishi

O'zbekistonning geografik nuqtayi nazardan muhim savdo yo'llari chorrahasida joylashgani, ko'plab davlatlar bilan iqtisodiy, madaniy aloqalar qilgani yerli xalqning diniy va madaniy hayotiga katta ta'sir ko'rsatgan va o'ziga xos turmush tarzini shakllantirishda muhim omillardan biri bo'lib xizmat qilgan. Millati va diniy qarash-

laridan qat'i nazar, insonni ardoqlash va o'zgalarni qadrlash, kattalarga hurmat va boshqalarni izzat qilish kabi tuyg'ular xalqimizning yuksak sifatlariga aylangan. Aynan shu omillar xalqimizning nafaqat ma'naviy-ma'rifiy, balki diniy bag'rikeng (tolerant)ligining ma'naviy asosini tashkil qiladi.

Tolerant (*lot.* – chidamoq) umumiy ma'noda biror narsa, hodisani, o'zgacha fikr yoki qarashni, o'z shaxsiy tushunchalaridan qat'i nazar, imkon qadar chidam va toqat bilan qabul qilishni anglatadi. Diniy bag'rikenglik esa vijdon erkinligi nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etib, boshqa shaxsning diniy e'tiqodi o'zga dinga, uning vakillariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni, turli din hamda konfessiya vakillari e'tiqodida aqidaviy farqlar bo'lishiga qaramay, ularning yonma-yon va o'zaro tinch-totuv yashashini anglatadi. Diniy tolerantlik to'la ijtimoiy tenghuquqlilik, inson erkinligiga nisbatan zo'rlikni qoralovchi qarashlar va munosabatlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Diniy bag'rikenglik hamisha diniy zamindagi adovatga qarshi o'ziga xos qalqon vazifasini bajargan. U turli e'tiqodlarning bir zamon va makonda birgalikda mavjud bo'lishiga, ularning tasnifchilari o'rtasidagi hamkorlik va hamjihatlikning shakllanishiga yo'l ochgan. Bu esa, o'z navbatida, yurt tinchligi va taraqqiyoti, umuminsoniy madaniyat va ma'naviyat rivojiga xizmat qilgan. Bag'rikenglik qoidalari birdaniga paydo bo'lmagan, balki har bir xalq tarixiy tajribasining mahsuli o'laroq, avloddan avlodga o'tib kelgan. Bag'rikenglikdan – ulug'lik, qanoatdan – rohat, ixlosdan – muhabbat paydo bo'ladi. Bag'rikenglik inson fazilatlarining tarkibiy qismi, ichki madaniyatining ifodasidir.

Bag'rikenglik – yon berish, andisha yoki xushomad emas. Bag'rikenglik – eng avvalo, insonning barcha huquqlari va asosiy erkinliklarini tan olish asosida shakllangan ana shu asosiy qadriyatlarga tajovuzlarning bahonasi bo'lib xizmat qilmaydi. Bag'rikenglikni alohida shaxslar, guruhlar va davlatlar namoyon qilishi lozim.

Bag‘rikenglik – inson huquqlarini qaror toptirish, plyuralizm (shu jumladan, madaniy plyuralizm), demokratiya va huquqning tantanasi uchun ko‘maklashish majburiyatidir. Bag‘rikenglik – aqidabozlikdan, haqiqatni mutlaqlashtirishdan voz kechishni anglatuvchi va inson huquqlari sohasidagi xalqaro-huquqiy hujjatlarda qabul qilingan qoidalarni tasdiqlovchi tushunchadir.

Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekiston azaldan turli urf-odat, madaniyat, tillar, turmush tarziga ega bo‘lgan, xilma-xil dinlarga e’tiqod qiluvchi xalq vakillari yashagan o‘lka hisoblanadi. Millati va diniy qarashidan qat’i nazar, insonni ardoqlash, qadrlash, hurmat va izzat qilish kabi tuyg‘ular mintaqa xalqlarining yuksak fazilatlari sirasiga kiradi.

Imom Moturidiy, Hakim Termiziy, Abu Lays Samarqandiy va Burhoniddin Marg‘inoniy kabi yurtimiz allomalarining ko‘plab asarlarida o‘zga din vakillariga doimo hurmat ko‘rsatish kerakligi alohida qayd etib o‘tiladi. Ahmad Yassaviy hikmatlarida bunday deyiladi:

Gunoh ermish, kofirlarga bermang ozor,
Ko‘ngli qattiq dilozordin xudo bezor,
Alloh haqqi bunday qulga sijjin tayyor,
Donolardan eshitib bir so‘z aytdim mano.

Buyuk Amir Temur islomni fanatizmdan xoli, umuminsoniy bir e’tiqod deb tushungan. Ayni vaqtda o‘z saltanatidagi boshqa diniy konfessiyalarga ham g‘amxo‘rlik ko‘rsatgan. Mardlikka javob mardlik-da. Bu esa Yevropaning chuqur ehtiromini uyg‘otgan. Bir misol. Fransiya qiroli Karl VI Sohibqiron Amir Temurga ehtiromini shunday bayon etgan: «Siz janobi oliylariga ko‘pgina nasroniylarga ko‘rsatgan ehtiromingiz, g‘amxo‘rligingiz va taqdim etgan in’omlaringiz uchun o‘z minnatdorchiligimizni izhor etgaymiz. Biz ham sizning odamlaringiz foydasiga, imkon bo‘lsa, ularga muvofiq yoki ortiqroq munosabatda bo‘lishga tayyormiz».

Samarqand shahrida Sohibqiron Amir Temur davrida bunyod etilgan, Doniyor payg'ambar nomi bilan ataladigan maqbara islom, xristian va yahudiy dini vakillari tomonidan birdek e'zozlanadi. El-yurtimiz necha asrlardan buyon bu qutlug' qadamjoni asrab-avaylab, unga hurmat-ehtirom ko'rsatib kelmoqda. Shu misolning o'zi oliyjanoblik, ezgulik va tom ma'nodagi bag'rikenglik fazilati xalqimiz tabiati, mentaliteti asosini tashkil etishidan dalolat beradi.

Vatanimiz hududida islom dini qaror topganiga qadar zardushtiylik, buddaviylik, moniylik, xristianlik, mazdakiylik, shomoniylik kabi dinlar birga yashagan. Uzoq yillar davom etgan bag'rikenglik asosida o'sha davrlardayoq betakror tolerantlik madaniyati vujudga kelgan. Shunday ekan, dinlararo bag'rikenglikning mafkuramizning asosiy g'oyalaridan biri etib belgilanishi bejiz emas ekan. Dinlararo bag'rikenglik g'oyasi – xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda, oliyjanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashni anglatadi. Qadim-qadimdan din aksariyat ma'naviy qadriyatlarni o'ziga mujassam etib keldi. Milliy qadriyatlarning asrlar osha bezavol yashab kelayotgani ham dinning ana shu tabiati bilan bog'liq.

Chunki dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik g'oyalariga asoslanadi, yaxshilik, tinchlik, do'stlik kabi fazilatlarga tayanadi. Odamlarni halollik va poklik, mehr-shafqat va bag'rikenglikka da'vat etadi. Dinlar ijtimoiy hayotda kishilarni munosabatlarda me'yorlashtirishga yordam berib kelmoqda. Dinlar:

– umuminsoniy axloq me'yorlarini o'ziga singdirib, ularni hamma uchun majburiy xulq-atvor qoidalariga aylantirgan;

– odamlarning bahamjihat yashashiga ko'maklashgan;

– insonlarning ishonch hissini mustahkamlagan hamda siyosiy sinovlari, muammo va qiyinchiliklarni yengib o'tishlarida kuch bag'ishlagan;

– umuminsoniy ma'naviy qadriyatlarni saqlab qolish hamda ajdodlardan avlodlarga yetkazishga yordam bergan – madaniyat rivojiga ta'sir ko'rsatgan.

Turli diniy e'tiqoddagi kishilarning oliyjanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashi kishilik jamiyati ravnaqi yo'lida xizmat qilishni anglatib, hozirgi vaqtda bu ezgu g'oya nafaqat dindorlar, balki jamiyatning barcha a'zolari o'rtasidagi hamkorlikni nazarda tutadi.

Diniy bag'rikenglik tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, ozod va obod Vatan qurishning muhim shartidir.

Vijdon erkinligi har kimning o'z e'tiqodiga ko'ra, mazkur jamiyatda mavjud ijtimoiy me'yorlarni buzmagan holda vijdoni buyurgani bo'yicha yashash, ishlash imkoniyati. Bunda dinga munosabat masalaning bir tomoni hisoblanadi. Siyosiy jihatdan vijdon erkinligiga demokratiya ko'rinishlaridan biri sifatida qaraladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunda (1991-yil 14-iyunda qabul qilingan, 1998-yil 1-mayda yangi tahriri tasdiqlangan) nazarda tutilgan.

O'zbekistonda din va diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan, shuningdek, kuch ishlatishni targ'ib qilish, millatlar va diniy tashkilotlar orasiga nizo solish uchun dindan foydalanish va konstitutsiyaviy tuzum asoslariga qaratilgan harakatlar man etiladi. Barcha fuqarolar uchun vijdon erkinligi talablari va tamoyillarini amalga oshirish imkoni to'la ta'minlanib, u jamiyatimiz ma'naviy hayotining tarkibiy qismiga aylangan. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar masalasi ijtimoiy hayotda muhim va murakkab masala bo'lib, uning zamirida shaxsning huquqi, demokratiya, adolatparvarlik va insonparvarlik kabi ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va axloqiy tushunchalar turadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: «Hozirgi vaqtda diyorimizda 130 dan ziyod millat va elat vakillari o'zaro ham-

jihat yashamoqda, 16 konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar erkin faoliyat yuritmoqda.

Jamiyatimizda hukm surayotgan o‘zaro do‘stlik va hamjihatlikni yanada rivojlantirish, qaysi millat, din va e’tiqodga mansubligidan qat’i nazar, barcha fuqarolar uchun teng huquqlarni ta’minlash e’tiborimiz markazida bo‘ladi. Ularning o‘rtasiga nifoq soladigan ekstremistik va radikal g‘oyalarni tarqatishga O‘zbekistonda mutlaqo yo‘l qo‘yilmaydi»[1].

Asrlar davomida tili, madaniyati, yashash va turmush tarzi hamda diniy e’tiqodlaridan qat’i nazar, kishilar bir-birlari bilan munosabatda bo‘lish, o‘zaro qo‘shnichilik aloqalarini tashkil etish, og‘ir vaziyatlarda bir-birlarini qo‘llab-quvvatlashga ehtiyoj sezib yashaganlar. Dastlab yaqinlashuv tabiiy ofatlarni bartaraf etish yo‘lida birgalikda harakat olib borish, tabiatan jangarilik xususiyatiga ega bo‘lgan etnik guruhlarning xurujiga qarshi kurashish zaruriyatidan kelib chiqqan bo‘lsa, insoniyat taraqqiyotining keyingi bosqichlarida esa tobora global xususiyat kasb etayotgan muammolarni hamjihatlikda hal etish, insoniyatni muqarrar xavfdan asrab qolishga bo‘lgan intilish bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy munosabatlar ko‘lami tobora kengayib borgani sayin bu ehtiyoj o‘ziga xos dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Kishilik taraqqiyoti tarixi turli xalqlar, millat va elatlarning tinch-totuv yashashi ijtimoiy rivojlanishni kafolatlovchi muhim omil bo‘lib kelganligidan dalolat beradi.

Ma’lumki, o‘lkamiz asrlar davomida Buyuk ipak yo‘lining chorrahasi hisoblangan. Bu yerda turfa millat vakillari uchrashgan, o‘zaro muloqotda bo‘lgan, birgalikda umrguzaronlik qilgan. Shu tariqa turli millatlarning boy tajribasi, teran donishmandligi umumlashgan. Xalqimizga xos mehmondo‘stlik, bag‘rikenglik, mushohadakorlik fazilatining ildizlari ham ana shunda. Qolaversa, Jaloliddin Rumiy,

[1] Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: «O‘zbekiston», 2017, 9-bet.

Sa'diy Sheroziy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur singari Sharqning mumtoz shoirlari ijodi ham xuddi ana shu maqsadga xizmat qilgan. Alisher Navoiy o'z asarlari qahramonlarini turli millat vakillari sifatida ta'riflaganligi bejiz emas. Bu qahramonlar orasida turk ham, fors va arab ham, yunon ham, xitoy va armani ham bor. Mumtoz adabiyot namunalari kishilarda bag'rikenglik, to'g'riso'zlik, mehr-oqibat tuyg'ularini shakllantirgan.

Mustaqillik keng qamrovli islohotlar, demokratik va oshkoralikni rivojlantirish, milliy masalaga, milliy tillar va madaniyatlar, milliy urf-odatlar, milliy qadriyatlarga, o'tmish tariximiz, madaniy merosga, diniy qadriyatlarga, xullas, milliy va millatlararo munosabatlarga bevosita taalluqli bo'lgan murakkab muammolarni hal qilish uchun keng yo'l va istiqbol ochib berdi.

Ijtimoiy taraqqiyotning mahsuli bo'lgan ijtimoiy-etnik birliklar bir-biridan o'zining turmush tarzi, tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlari, iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra farq qiladi.

Har bir millatning qiyofasi, uning katta yoki kichikligidan qat'i nazar, eng avvalo, o'zining milliy ongi va psixologiyasida ifodalanadi. Muayyan jamiyatda istiqomat qiluvchi har bir millatning ma'naviy qiyofasi o'sha jamiyatning moddiy, ijtimoiy-tarixiy sharoitlariga qarab o'zgarib boradi.

Insoniyat tarixiga XXI asr madaniyatlararo muloqot davri sifatida kirganligi, shubhasiz. Chunki ilmiy-falsafiy va ruhiy-ma'naviy taraqqiyot yo'llari kesishgan bugungi davrda, mafkuralarning peshqadamlik uchun raqobatga kirishishi insoniyat taqdiri uchun hayot-mamot muammosi bo'lgan tinchlik masalasini jiddiy xavf ostiga qo'ydi. Shuning uchun ham globallashuv davrida jahon hamjamiyatining asosiy diqqat-e'tibori sivilizatsiyalar muloqotini targ'ib etishga qaratilmoqda.

Albatta, yagona umuminsoniy madaniyat, umuminsoniy ma'naviyatni yaratishning imkoniyati yo'q. Jahon madaniyati turli millat va elatlarning o'ziga xos madaniyatlari majmuidan iborat. Shunday

bo‘lsa-da, ularning har birida umumiy qadriyatlar mavjudligini inkor etib bo‘lmaydi. Xususan, ezgulik barcha xalqlarga xos qadriyatlarning gultojisidir. Shunday bo‘lishi tabiiy. Chunki, odamzod azaldan yaratuvchi, ijodkordir. Ayrim buzg‘unchi g‘oyalar hukmronlik qilgan davrlar tarix silsilasida arzimas davrni tashkil etadi. Odamlar har biri betakror qiyofa, fe’l-atvor, fikr-andisha, hayot tarzi va alohida qobiliyatga ega bo‘lsa ham, odamzod uchun azaliy bo‘lgan ezgulik atalmish bebaho ne’matdan birdek bahramand. Ezgulik – taraqqiyotning asosi, ijodkorlikka ilhom bag‘ishlovchi kuchdir. Madaniyatning buyuk bo‘lishi, avvalo, ezgu g‘oyalarning jamiyatda ustuvor bo‘lishi bilan bog‘liq.

Markaziy Osiyo o‘zining ko‘p ming yillik tarixi davomida jahon ilm-faniga beqiyos hissa qo‘shgan son-sanoqsiz olim-u umaro, fozil-u fuzalolarni yetishtirib berdi. Bu o‘lkada shakllangan va taraqqiy topgan madaniyat o‘zining haybati bilan hanuz dunyo jamoatchiligining hayratini oshirmoqda. Markaziy Osiyo xalqlarining ma’naviy-ruhiy dunyosi o‘zining yuksak gumanizm va bag‘rikengligi bilan butun dunyoga o‘rnak bo‘lmoqda.

Agar 1897-yilda mamlakatimizning bugungi hududida 70 ta millat va elat vakillari yashagan bo‘lsa, 1926-yilda ularning soni 91 taga, 1959-yilda 113 taga, 1979-yilda esa 123 taga yetgan. Bugungi kunga kelib, ularning soni 138 ta bo‘lib, O‘zbekiston aholisi tarkibidagi ulushi 10 foizni tashkil etadi.

Bir donishmanddan: «Qaysi xalq, qaysi millat afzal?» deb so‘rashibdi. Donishmand esa ikki qo‘liga yerdan tuproq olibdi-da, «Mana shu tuproqning qaysi biri afzal?» deya ularga yuzlanibdi. So‘ngra tuproqni bir-biriga qo‘shib, bunday lutf qilibdi: «Ikki qo‘limdagi tuproqning bir-biridan farqi bo‘lmagani kabi, hamma xalq, hamma millat ham birdaydir». Demak, hech bir millat boshqasidan ortiq ham, kam ham emas.

Buni xorijlik mutaxassislar ham e’tirof etishmoqda. Millatlararo munosabatlar bilan bog‘liq muammolarni yechishda uch xil yo‘l mav-

jud. Birinchi yo‘l AQSH, Fransiya, Germaniya kabi davlatlarga xos bo‘lib, u iqtisodiy farovonlikni ta’minlash, turli etnik guruhlarning moddiy ehtiyojlarini har tomonlama qondirishga asoslanadi. Iroq, Afg‘oniston, Sobiq Yugoslaviya yoki Qirg‘iziston kabi mamlakatlarda namoyon bo‘lgan ikkinchi yo‘l zo‘rlikka tayanish va har qanday milliylikni bostirishga intilish bilan ajralib turadi. Uchinchi yo‘lning eng yorqin timsoli O‘zbekiston bo‘lib, unda millatlararo hamjihatlikni ta’minlashda milliylik va umuminsoniylikning eng yaxshi jihatlarini o‘zida mujassam etgan ma’naviyat, ta’lim, mehr-muruvvat kabi qadriyatlar negiziga asoslanib, siyosat olib borilmoqda.

Bozor munosabatlariga o‘tish davrida ko‘p millatli davlatlar uchun milliy siyosatni to‘g‘ri, aniq ko‘zlangan maqsad asosida olib borish juda muhim. Bu esa, taraqqiyotning jadallashuviga yordam beradi. Millatlarning va ular madaniyatlarining bir-biriga ta’sir ko‘rsatishi ko‘p millatli davlatlarda yashayotgan xalqlarning ma’naviy-axloqiy boyishi uchun yaxshi manba bo‘lib xizmat qilib kelgan.

Millatlararo totuvlik – millatlararo ahillik, xalqaro do‘stlik; milliy istiqlol mafkurasining asosiy g‘oyalaridan biri: muayyan hudud, davlatda turli millat vakillarining bahamjihat yashashi, hamkorlikda faoliyat yuritishini ifodalovchi tushuncha. Yer yuzidagi 1600 dan ortiq millatdan bor-yo‘g‘i 200 ga yaqini o‘z davlatchiligiga ega, xolos. Bunday sharoitda butun dunyoda millatlararo totuvlikni ta’minlash uchun ularning manfaatlari, ruhiyati, intilishlarini muntazam o‘rganib borish, siyosiy-ijtimoiy hayotda buni doimo e’tiborga olish zarur. Jahon tajribasi millatlararo totuvlikni ta’minlashga biryoqlama, yuzaki yondashuv jiddiy muammolar keltirib chiqarishi mumkinligini ko‘rsatadi. Xususan, davlatga o‘z nomini bergan millat bilan o‘sha joyda yashaydigan boshqa millatlar o‘rtasidagi munosabatlar jiddiy e’tiborni talab qiladi.

Millat bor ekan, «milliy g‘urur», «milliy iftixor» degan tushunchalar ham bo‘ladi. Ko‘pincha bu tushunchalarga baynalmilalchilik tuyg‘usi qarama-qarshi qo‘yiladi. Aslida bu tushunchalar bir-biriga

zid emas, aksincha, bir-birini to‘ldiradi. O‘z millatini, xalqini sevgan odam boshqa millat vakillariga ham hurmat bilan qaraydi. Axir, ko‘hna Sharqda: «Mehr mehrni jalb qiladi. Boshqalar sizga mehr berishini istasangiz, avvalo, o‘zingiz ularga mehr bering», deya bejizga aytilmagan. Milliy munosabatlarda muvozanat buzilgan yurtda, ya’ni ashaddiy millatchilik avj olib, boshqa millat vakillari haq-huquqi poymol bo‘lgan joyda fojialar ro‘y beradi. Sobiq Yugoslaviya hududida yoki 2010-yil Qirg‘izistonda ro‘y bergan qonli voqealar bunga misol bo‘la oladi.

Millatlararo munosabatlardagi barqarorlik o‘z-o‘zidan yuzaga kelmaydi. Mamlakatimizga tatbiqan olinganda esa, millatlararo munosabatlarning teng huquqlilik, o‘zaro hurmat, do‘stlik va hamkorlikka asoslangan o‘ziga xos sifatiy holati – millatlararo totuvlik qaror topganligini alohida qayd etish lozim. Boshqacha aytganda, oqilona tashkil etilgan milliy siyosat natijasida muayyan kuchlar alanga olishidan manfaatdor bo‘lgan, mustabid tuzum davrida darz keta boshlagan etnik munosabatlar istiqlol tufayli mutlaqo yangi asosda rivoj topmoqda.

Mintaqada yashovchi o‘zbek, tojik, qirg‘iz, qozoq, qoraqalpoq, turkman, uyg‘ur va hokazo xalqlarning urf-odatlari va an’analariga muvofiq tashkil etilayotgan turli marosimlarda hamjihatlikda ishtirok etish aholi, shu jumladan yoshlarda milliy urf-odat va an’analarga nisbatan hurmat hissini qaror toptiradi. Bir-birlarining tili, madaniyati, diniy e’tiqodini hurmat qilgan xalqlar o‘rtasida nizolar kelib chiqmaydi, aksincha, mamlakatning ravnaqi va ertangi istiqboli yo‘lida birgalikda harakat qilishga bo‘lgan rag‘bat yuzaga keladi.

Sho‘rolar davrida o‘z tug‘ilgan zaminidan majburan badarg‘a etilgan ko‘plab xalq vakillari O‘zbekistonga ko‘chirib kelindi. Xalqimiz og‘ir kunida ularga yordam qo‘lini cho‘zdi, bir burda nonini baham ko‘rdi. Koreys, nemis, turk, polyak, grek, qrim tatarlar bu yerda o‘zlarining ikkinchi vatanini topdi. Ularning hozirgi avlodlari uchun esa O‘zbekiston ona Vatandir. Chunki ular shu yerda tug‘ildi, ulg‘aydi, obro‘-e’tibor topdi.

Respublikamizda ta'lim o'zbek va qoraqalpoq tillaridan tashqari rus, tojik, qozoq, qirg'iz va turkman tillarida olib borilmoqda. Ana shu tillarda ham o'rta, ham oliy ta'lim olish imkoniyati mavjud. Bundan tashqari, ko'pgina madaniyat markazlarida yakshanba maktablari ochilgan. Ularda ona tili va davlat tili, urf-odat va an'analar, madaniyat va san'at o'rgatiladi. Bugungi kunda koreys madaniyat markazlari assotsiatsiyasi, rus, arman, yahudiy, polyak, grek, gruzin, xitoy, tatar va boshqa milliy-madaniy markazlarda ana shunday maktablar muvaffaqiyatli ish olib bormoqda.

Shu bilan birga, bir mamlakat doirasida milliy manfaatlarni teng qondirish, ular rivojini ta'minlash juda murakkab masala ekanini ham anglamog'imiz darkor. Millatlararo totuvlik g'oyasi ana shu masalani to'g'ri hal qilishga yordam beradi. Bu g'oya – bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlikning ma'naviy asosidir. Bu g'oya – har bir millat vakilining iste'dodi va salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratadi va uni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi ezgu maqsadlar sari safarbar etadi. Mamlakatimizda ushbu g'oyani amalga oshirishga katta e'tibor berilmoqda.

Barcha qonunlarimizda, ayniqsa, O'zbekiston Konstitutsiyasida fuqarolarning teng huquqliligi muhrlangan. Jumladan, uning 8-moddasida: «O'zbekiston xalqini millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi», deb belgilab qo'yilgan. «O'zbekiston xalqi» tushunchasi esa mamlakatimizda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elat vakillari o'rtasidagi o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlik uchun ma'naviy asos bo'lib xizmat qiladi. Ana shunday milliy siyosat natijasida mamlakatimizdagi turli millatga mansub fuqarolar jamiyatimiz ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotida faol ishtirok etib, mustaqilligimizni yanada mustahkamlash, davlatimizning buyuk kelajagini ta'minlash yo'lida sidqidildan mehnat qilmoqda.

Toshkent shahrining markazida buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy nomidagi bog‘ barpo etilib, uning kiraverishida shoirning muhtasham haykali qad rostladi. Ziyoratgohning chorustuniga o‘rnatilgan gumbaz ostida quyidagi satrlar bitilgan:

Olam ahli, bilingiz ish emas dushmanlig‘,
Yor o‘lingiz bir-biringizgakim, erur yorlig‘ ish.

Alisher Navoiyning bu o‘lmas satrlari bugungi kun uchun ahamiyati yanada yuksak mazmun-mohiyat kasb etmoqda. Endilikda ushbu hikmatli bayt Yer yuzida istiqomat qiluvchi barcha elat-u millat vakillarining qalbidagi ezgu his-tuyg‘ularni o‘zida jamlagandek tuyuladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Shaxs ma’naviyati va milliy ma’naviyatlarning mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.
2. Milliy ma’naviyat tizimi tarkibiy qismlarining bir-biridan farqini aniqlang.
3. Adolat tuyg‘usi, o‘z davrining huquqiy mezonlari haqida so‘zlang.
4. Umuminsoniy ma’naviyat boyliklariga nimalar kiradi?
5. Umuminsoniy ma’naviyatning eng oliy shakllari – ma’naviy ideallar qanday ifodalanadi?
6. Tarixiy taraqqiyot jarayonida umuminsoniy ma’naviyatni barqarorlashtirish yo‘llari va usullarini aytib bering.
7. Umuminsoniy nuqtayi nazardan yoshlarni tarbiyalashning ma’naviy taraqqiyot mezonlari nimalarda aks etadi?
8. Millatlararo totuvlik, ahillik, xalqlar do‘stligi milliy istiqlol mafkurasining asosiy g‘oyalaridan biri ekanligi haqida so‘zlang.
9. Qaysi milliy-madaniy markaz faoliyati bilan yaqindan qiziqdingiz? Atroflicha ma’lumot bering.

Jamiyatimizda sog'lom fikr, sog'lom kuch ustuvor bo'lishi uchun biz ma'naviy hayotimizni yuksaltirish, aholi, avvalo yoshlarimizni turli zararli ta'sirlardan asrash, ularni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash haqida muntazam o'ylashimiz, faol ish olib borishimiz zarur.

Shavkat MIRZIYOYEV

5-MAVZU. MA'NAVIYATGA TAHDID – O'ZLIGIMIZ VA KELAJAGIMIZGA TAHDID

Reja:

5.1. Globallashuv jarayonlari va uning salbiy ta'siri.

5.2. Diniy ekstremizm va terrorizm davr vabosi.

5.3. Ma'naviy tahdidlarga qarshi kurash usullari.

Tayanch so'z va iboralar

Globallashuv, mafkuraviy tahdid, ommaviy axborot vositalari, ommaviy madaniyat, mafkura poligoni, ma'naviy xavfsizlik, diniy oqimlar, vayronkor g'oyalar, diniy ekstremizm, terrorizm, islom olamining siyosiylashuvi, diniy xavfsizlik.

5.1. Globallashuv jarayonlari va uning salbiy ta'siri

Insoniyat har doim ziddiyatlar va xavotirlar girdobida yashab kelgan. U o'z boshidan jahon urushlari, yadro qurollari xavfi, turli tabiiy va texnogen fojialarni kechirgan, ular bugun ham davom etib kelmoqda. Bugun u o'zining ta'sir kuchi bilan yuqorida keltirilgan xabarlardan kam bo'lmagan globallashuvning xavf-xatarlariga duch kelmoqda. Asosiy xavf shundan iboratki, u yuksak rivojlangan mam-

lakatlarga endi taraqqiyot yo‘liga kirib borayotgan mamlakatlardagi millatlar va elatlarni qaram qilish, ularning moddiy boyliklarini qo‘lga kiritishda qirg‘inbarot qurol kuchi bilan emas, balki o‘zlarida mavjud bo‘lgan fan va texnika, texnologiya yutuqlarini ommalashtirish, investitsiyalar kiritish, iqtisodiy integratsiyani jadallashtirish kabi omillardan foydalanish vositasida ularning ongi, qalbi va ruhiyatini egallash, oxir-oqibatda ular ustidan hukmronlikni to‘la o‘rnatish imkoniyatini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Ko‘rinishidan, har ikki tomon ham globallashuv jarayonidan manfaat ko‘rayotgandek bo‘lsa-da, amalda asosiy manfaatni katta intellektual salohiyat, fan-texnika, texnologiya yutuqlari va zamonaviy ommaviy kommunikatsiyalarga ega bo‘lgan mamlakatlar ko‘rmoqda, bunga ega bo‘lmaganlar esa ana shu taraqqiy etgan mamlakatga o‘zlari oxirigacha anglab yetmagan holda bog‘lanib qolayotir. Negaki, globallashuv zamirida gegemonlik g‘oyasi mavjud bo‘lib, turli mazmunda, jumladan, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy kabi sohalarda o‘zini namoyon etib kelmoqda. Buning natijasida taraqqiyot yo‘lidan borayotgan va rivojlanayotgan mamlakatlar, millatlar, elatlarning milliy ma’naviyati va moddiy imkoniyatlari globallashuvning qurboniga aylanmoqda.

Millat insonlar joni va qoni bilan yaratilgan oliy qadriyatlardan biridir, uning ma’nan o‘lishi esa muqarrar ravishda butun insoniyatning jismonan o‘lishiga olib keladi. Shuning uchun ham millatni asrash, uning asosiy kuchi – «men»ini ta’minlaydigan ma’naviyatni asrash globallashuvning avj olishi sharoitidagi o‘ta muhim milliy manfaatlarga molik masalaga aylanib bormoqda. Chunki, u jadallashgani sari milliy ma’naviyatlarga nisbatan xavf-xatar va tahdidlar oshib bormoqda. Bunga befarq bo‘lish esa, ertaga milliy ma’naviyatni asrash uchun kech bo‘ladi.

Bugungi globallashuv sharoiti jamiyat sog‘lom turmush tarzining har tomonlama mukammal va serqirra bo‘lishni talab etmoq-

da. Buning boisi, jamiyatda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar bevosita hech kimni globallashuv jarayonidan chetda qoldirmaydi, aksincha, undan qochaman deganlar ko‘proq uning to‘riga tushib qoladi. Insonning axborot olishga bo‘lgan ishtiyoqi, turmush tarzi va kechinmalari o‘zi xohlagan holda bu vaziyatga olib borishi mumkin. Ijtimoiy hayotda hozirgi zamon texnotron, informatsion sivilizatsiyasi shakllanishining ahamiyatli tarkibiy jihati sifatida jahon globallashuvi namoyon bo‘lmoqda. Global informatsion almashinuv vatanparvarlikni shakllantirishda avvalgi zamon sharoitidan butunlay boshqa vaziyatni yaratadi, chunki avval har bir mamlakatda inson, asosan o‘z davlati, millati, vatani tomonidan shakllantirilgan axborotlar tizimi ta’sirida rivojlangan bo‘lsa, endi inson jahon miqyosida butun insoniyat yaratgan axborotlar oqimining hal qiluvchi ta’siri ostida shakllanadi.

Shuning uchun hozirgi kunda axborot tizimi asosidagi globallashuv xalqimizning sog‘lom turmush tarzini o‘zgartirishga, ayniqsa, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, an’analar, marosimlar hamda urf-odatlarga turli ko‘rinishda tahdid solmoqda. Bunga sabab, globallashuv jahonning mafkuraviy manzarasini o‘zgartirib, yangi-yangi g‘oya va qarashlarni vujudga keltirayotganidir. Global hamjamiyat ko‘z oldimizda dunyoni avvalgi ilmiy kashfiyotlar va inqiloblardan tubdan farq qiluvchi jihatlari bilan o‘zgartirib yubormoqda. Ro‘y berayotgan o‘zgarishlarning tezligi va chuqurligi inson iqtidori va insoniyatga yon-atrofga moslashish, sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarning yo‘nalishini belgilab olish, o‘zining ongini zaruriyatga muvofiqlashtirishini talab etmoqda. Natijada, insoniyat o‘zi uchun qulay va keng daromadli iqtisodiy muhitni undan axtarishga intilmoqda. Har bir shaxs, xususan yoshlar ko‘proq iqtisodiy faollik va sog‘lom ruhiy muhitni o‘zlashtirishga harakat qilib, o‘zi anglamagan holda milliy meros va ma’naviy madaniyatga salbiy ta’sir etuvchi makonga tushib qolmoqda.

Shu ma'noda siyosiy-falsafiy tushunchalar tizimiga mamlakatning ijtimoiy va siyosiy xavfsizligini ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida «milliy-ma'naviy xavfsizlik» tushunchasini kiritish mumkin. Chunki uni ta'minlash faqat milliy ma'naviyatni asrash bilan cheklanmaydi, balki uning qamrovi keng bo'lib, butun milliy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy halqasini tashkil etadi. Sababi, milliy ma'naviy ong, dunyoqarash, ruhiyat, qalb va axloq kabilarni o'zida mujassamlashtirgan. Ulardagi o'zgarishlar tabiiy ravishda jamiyatning siyosiy, ijtimoiy hayotida, mamlakatdagi barqarorlikda sodir bo'ladigan munosabatlarda ham o'z ifodasini topadi.

Milliy-ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash har bir vatandoshimiz ongida vatanparvarlik, ona Vatanimizning chegara daxlsizligini asrash, xalqparvarlik, o'z xalqi, Vatani manfaatlari yo'lida fidoyilik, uning barqarorligi, nufuzini asrashda mas'ullik, g'urur, iftixor, yoshlarimizni yovuz g'oyalar tajovuzidan himoya qilish mamlakatimizda ma'naviy-ruhiy yuksaklikni ta'minlash zarurligini anglab yetishdek muhim vazifalarni hal qilish imkonini beradi. Ma'naviyati qashshoq inson, millat va xalqda ana shu tuyg'ular mavjud bo'lmaydi, u ruhan tushkunlikka mubtalo bo'lgan, o'zgalarga itoatkor, ularning orqasidan yuradigan bo'lib qoladi. Keltirilganlardan ko'rinib turibdiki, ma'naviyatning yemirilishi, uning barbod bo'lishi boshqa barcha sohalarning ham barbod bo'lishiga olib keladi.

Globallashuv jarayoni va ommaviy kommunikatsiyalar orqali kirib kelayotgan turli sohalardagi yutuqlar ta'sirida ommaviy madaniyat milliy ma'naviyatimizni o'ziga singdirib borayotganligini anglab yetmayotganlar ko'pchilikni tashkil qilayotganligi tufayli, milliy ma'naviyatimizning istiqboli qanday xavf-xatarda qolishi mumkinligini tasavvur etish murakkab kechmoqda. Bu xavf-xatarlar hozir to'g'ridan to'g'ri o'zini moddiy kuch sifatida namoyon etmayotgan bo'lsa-da, taraqqiy etgan mamlakatlarning fan, texnika, texnologiya sohasida erishgan yutuqlari, ular kiritayotgan kapitallar orqali millat-

doshlarimiz, ayniqsa, yoshlarimiz ongi va qalbiga kirib kelmoqda va ularning bu jarayonlarni ilg‘ab olishi murakkab kechmoqda. Chunki biz uni xohlaymizmi-yo‘qmi, baribir ma’naviyatga qaraganda moddiy manfaatdorlik ustuvor darajaga ko‘tariladi. Xuddi mana shu vaqt yutqazish vaziyatini keltirib chiqaradi.

Ommaviy axborot vositalari – matbuot, kino, radio, televideniye, kompyuter zamonaviy ijtimoiy madaniyat jarayonida salmoqli o‘rinni egallay boshladi. Axborot uzatishdagi kanallarning ko‘pligi, tezligi va uzoq ishlashi bilan ulkan hajmdagi ma’lumotlarga ega bo‘lmoqda. XX asr o‘rtalarida tadqiqotlarga ommaviy kommunikatsiya birinchi marta madaniyatning va kishilarning ijtimoiy munosabatidagi mutlaqo yangi tipi sifatida ta’riflandi. Bu vosita insonlarning axborot olishdagi raqobat kurashida qudratli kuchga aylandi.

Ommaviy axborot vositalari elektron texnika va yo‘ldosh aloqalardan foydalanib, kishilarni ijtimoiy hodisalar va madaniy boyliklarni bir vaqtda idrok qilishga undaydi, hammabop va omma yoqtiradigan yangi dunyoviy elektron madaniyati shakllandi. Haqiqatan ham, zamonaviy madaniyat xolisona tahlil qilinsa, ma’naviy madaniyat ko‘proq ommaviylik kasb etib borayotgani ma’lum bo‘ladi. Millati, yoshi, joyi ijtimoiy xususiyatlarga bog‘liq bo‘lmagan ommaviy iste’molchilarga ega bo‘ladi. Bu madaniyat namunalarini yaratish jarayonining o‘zi ommaviy xususiyat kasb etib, industriyaning maxsus ko‘rinishini o‘zida namoyon qiladi, ya’ni unda yuz minglab kishilar band bo‘lib, ularning «matbuot qiroli», shou tomoshabinlari, kino, televideniye, estrada yulduzlari bo‘ladi. Ommaviy madaniyat kishilarni hayotni befarq kuzatuvchi tomoshabinga aylantiradi, o‘zlari ham mavjud hayotni go‘yo sarob kabi tasavvur qiladilar.

Hozirgi paytda mafkuraviy kurash olib borish nishonlari ko‘p, lekin ularni ikki asosiy g‘oyaning kurashi bilan bog‘lash mumkin. Hozirgi dunyoning mafkuraviy manzarasida ikki qarama-qarshi

kuchning kurashi ko‘zga tashlanadi. Ulardan birinchisi, xalqlarning taraqqiyotga bo‘lgan intilishini ta’minlovchi ilg‘or mafkuradir, ikkinchisi esa, taraqqiyot yo‘lida olg‘a borayotgan xalqlarga to‘sqinlik qilishga intilayotgan ziyonkor va vayronkor mafkuradir. Bugungi kunda ilg‘or mafkuralar xalqlarning milliy-madaniy va ma’naviy-axloqiy an’analarga, umuminsoniy qadriyatlar hamda demokratik prinsiplarga, qudratli axborot texnologiyalariga tayanadi. Taraqqiyot inson huquqlari va erkinliklariga rioya etish, gumanizm, yadrosiz dunyo, milliy va diniy totuvlik, mintaqaviy mojarolarni bartaraf etish g‘oyalari ustuvor hisoblanadi. Biroq mafkuraviy vositalar bilan o‘zaro ta’sir doirasini kengaytirishga intilayotgan siyosiy kuchlar va harakatlar, shu jumladan, tajovuzkor millatchilik va shovinizm, irqchilik, diniy mutaassiblik va ekstremizm ham mavjud.

Bugungi kunda ommaviy madaniyat madaniy-mafkuraviy tazyiqning eng xavfli qurollaridan biriga aylangan. Iste’molchilik kayfiyati o‘zagini tashkil etgan ommaviy madaniyat asl kishilik jamiyatiga zid, uni poymol etadigan, mohiyatini buzadigan va oxir-oqibat insonni jon saqlashdan o‘zga maqsadi bo‘lmagan jonzot, hayvon darajasiga tushiradigan, xalqni esa olomonga aylantiradigan hodisadir. Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari, televideniye madaniyatni ommalashtirishning asosiy vositasi va manbai bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bu, avvalo, odamlarning qayg‘u va xursandchiligini ifodalagan, ularni qiziqtirgan har qanday muammoni tovarga, bir qolipga solingan ko‘ngilxushlikka aylantirilishida namoyon bo‘ladi. Globallashuv jarayonlari va uning yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan ommaviy madaniyat ekspansiyasi ta’sirida qadriyatlar tizimida sodir bo‘ladigan tub o‘zgarishlar ijtimoiy mavjudot hisoblangan insonda muayyan o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi, inson va jamiyat ma’naviy-axloqiy tayanchlaridan mahrum etiladi, jamiyat inqirozga uchraydi.

So‘nggi yillarda globallashuv jarayonlari g‘oyaviy ta’sir o‘tkazish imkoniyatlarining kengayishi, uslub va vositalarning takomillashu-

viga sabab bo‘lmoqda. Turli geosiyosiy kuch markazlari o‘zlarining geostrategik maqsadlari yo‘lida nishon sifatida tanlangan mamlakatni qaram qilib olish uchun avvalo mazkur xalqning qadriyatlari, tarixi va ma’naviyatidan judo qilishga e’tibor qaratmoqda.

Endilikda geosiyosiy nazorat o‘rnatish turli «rangli inqiloblar» shaklida, internet tarmog‘i, xorijiy tele va radiokanallari va bosma nashriyotlarda yo‘naltirilgan «axborot urushi» olib borish, mamlakat ichida milliy-separatistik, diniy ekstremistik yoki radikal siyosiy g‘oyalar bilan ongi zaharlangan «beshinchi kolonna»larning qo‘poruvchilik faoliyatini yo‘lga qo‘yish, «demokratiya eksporti» yoki «gumanitar intervensiya» kabi jozibali shiorlar ostida, aslida esa, suveren mamlakatlarning ichki ishlariga ochiqdan ochiq aralashish kabi usullarda olib borilmoqda. Buning tasdig‘ini 2010-yil boshidan Tunis, Misr, Liviya, Suriya, Iroq kabi mamlakatlarda ro‘y bergan va hozirgi kunda kuzatilayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar misolida ko‘rish mumkin. Yaqin vaqtlardan buyon bu qatorga Ukraina va Yamanni ham kiritish mumkin.

G‘alayonlar hukumatni ag‘darilishi bilan nihoya topgan davlatlarda asosiy omillardan biri ijtimoiy-iqtisodiy muammolar bilan bir qatorda aqidaparastlik ruhidagi oqim faollarining yashirin targ‘ibot-tashviqot olib borgani bugun hammaga ayon bo‘lib turibdi. «Arab bahori»dan so‘ng hokimiyat tepasiga Tunisda «Al-Nahda», Misrda bir yildan ziyod «Musulmon birodarlar» kabi islomiy partiya va tashkilotlarning kelishi, Iroq va Suriya mamlakatlarining katta hududini egallab olgan «Iroq va Shom islom davlati» guruhi tomonidan «Islom davlati» e’lon qilinishi fikrimizni isbotlaydi.

«Iroq va Shom islom davlati» terrorchilari turli manbalardan olingan islomiy ma’lumotlarni o‘z qing‘ir yo‘llariga mos tarzda sharhlashmoqda. Masalan, odamlarni qatl etish, yoshlarni qul qilish, ayollarni majburan erga berish va o‘z to‘daboshilarini xalifa deb atash, bosqin

bilan egallagan hududlarni esa «Islom davlati» deyish va boshqa shu kabi qabih ishlarni yoqlab, hech bir asossiz fatvolar berishyapti.

Vaholanki, islom qoidalariga binoan, fatvo berish huquqi, aqida va fiqh ilmida mukammal darajaga yetgan, Qur'on va hadis ilmini tafsirlari va turli sharhlari, sanadlari bilan to'liq yod biluvchi, qolaversa, muftiy martabasiga ega bo'lgan muayyan shaxslargagina berilishi mumkin.

Yuqoridagi fikrlarimizdan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, bugungi kunda butun dunyoni tashvishga solib har xil botil g'oyalarni ilgari surgan ekstremistik oqimlar turli ko'rinishlarda o'zligini namoyon qilmoqda. Buning boisi, hayotda ko'r-ko'rona qarashlari hamda diniy saviyalarning past bo'lishi, shunga qaramasdan har xil noto'g'ri diniy ishlarga qo'l urishlari demakdir.

Milliy ma'naviyatimiz xavfsizligini ta'minlashning moddiy jihatlari sifatida qaraydigan bo'lsak, uning sof ma'naviy omillari ham mavjudligini nazarda tutmog'imiz zarur. Ular millatdoshlarimiz ongi, dunyoqarashi va dunyo miqyosida shakllanayotgan ommaviy madaniyatga bo'lgan munosabatlarda o'z ifodasini topadi. Adolat yuzasidan shuni alohida ta'kidlash lozimki, mustaqillik yillarida ular ongi, dunyoqarashida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi, milliy-ma'naviy merosimizni o'zlashtirishga bo'lgan intilishlar kuchaydi, milliy urf-odat, an'ana, qadriyatlarimizning qayta tiklanishida faol ishtirok etib kelmoqda. Ayniqsa, yoshlarimiz ongida milliy g'urur, iftixor va vatanparvarlik tuyg'ulari rivojlanib kelmoqda. Ammo milliy ma'naviyatimizda bo'lgan bunday ijobiy munosabatlar bilan birga, ayrim millatdoshlarimizning ommaviy madaniyatni o'zlashtirishga moyillik, hatto uning ommaviylashib borishiga hissa qo'shishda gohida bilib yoki bilmasdan ishtirok etishdek ayanchli holatlar sodir bo'lmoqda.

Prezidentimiz iborasi bilan aytganda: «Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna

soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir»[1].

5.2. Diniy ekstremizm va terrorizm davr vabosi

Mustaqillik tufayli madaniy-ma’naviy merosimiz, tariximiz, an’analarimiz, urf-odatlarimiz, dinimiz tiklandi. Mustaqillikning ma’naviyat sohasidagi yana bir ne’mati shu bo‘ldiki, jamiyatimiz, davlatimizning dinga bo‘lgan munosabati o‘zgardi.

Shuni ta’kidlash joizki, din siyosat emas, lekin ma’naviy hayotning tarkibiy qismi. Din kishilarni o‘zini o‘zi idora etishga, yaxshi xislatlarni tarbiyalashga, yomon xislatlardan xalos bo‘lishga, og‘ir sinovlarga bardosh berishga, yorug‘ kunlarga intilib yashashga da’vat qilgan. Din kishilarning axloqiy fazilatlarini tarbiyalashda ijobiy rol o‘ynagan.

Jahondagi dinlarning asosiy tamoyillari doimiy ravishda barchaga insoniyat o‘z kuch-qudratini foydasiz, xatarli nizolarga sarflash uchun emas, balki o‘zining fitratiga, tabiat qonunlariga va Yaratganning buyruqlariga mos keladigan barqaror hayot uchun yaratilganini ta’kidlab turadi. Bugungi kun kishisi oldida turgan dolzarb muammolar orasida mohiyat-e’tibori bilan eng ahamiyatlisi – bu tinchlik-osoyishtalikni asrashdir.

Afsuski, Alloh taoloning ulug‘ ne’mati bo‘lmish tinchlikdan hamma ham barobar bahramand emas. Chunki dunyoning turli burchaklarida terrorchilar nohaq qon to‘kmoqdalar. Bunday mudhish voqealar qabih niyatli buzg‘unchi guruhlar tomonidan amalga oshirilishi butun dunyo tinchliksevar xalqlari qatori O‘zbekiston xalqining ham qalblarini qattiq larzaga solmoqda.

---

[1] Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – T.: «O‘zbekiston», 2017, 27-bet.

Shuning uchun ham biz doimo tinchlik va mehr-oqibatni o‘zida mujassam etgan muqaddas islom dinimizni pok saqlash, uni turli xil g‘arazli xuruj va hamlalardan, tuhmat va bo‘htonlardan himoya qilish, uning asl mohiyatini unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodimizga to‘g‘ri tushuntirish, islom madaniyati, ma’naviyati, ezgu g‘oyalarini keng targ‘ib etishni dolzarb vazifa sifatida bilamiz. Islom dinini niqob qilib, o‘zlarining g‘arazli maqsadlariga erishishga urinayotgan firqa va oqimlarga qarshi doimo sergak va hushyor turish zarurligini hech qachon esdan chiqarmaslik kerak.

Prezidentimiz Shavkat Mirzyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti minbaridan turib olg‘a surgan g‘oya va tashabbuslari ushbu o‘ta qiyin, o‘z-o‘zidan amalga oshib qolmasligi aniq jarayonning boshlanishi. Bu vazifalar nimalarda o‘z aksini topadi?

Ularning birinchisi davlatimiz rahbarining: «Biz butun jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa, deb hisoblaymiz», – so‘zlari bilan bog‘liq. Negaki, «Islom bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da’vat etadi». Bizni, deya davlatimiz rahbari barcha xalqlarni, umuman, bashariyatni ko‘zda tutgan. Negaki, tom ma’nodagi din ijobiy hodisadir. U irq, millat, yurt, dunyoqarash tanlamaydi, barchaga birdek ezgulik eltadi, tinchlik sog‘inadi.

Ikkinchidan, Prezidentimizning: «Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Bu muqaddas dinimizni zo‘ravonlik va qon to‘kish bilan bir qatorga qo‘yadiganlarni qat’iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz», – shartlari va ogohlantirishlari yetuk siyosatchi va ma’naviy barkamollik namunasi bo‘libgina qolmay, yalpi, mintaqaviy, ikki tomonlama munosabatlarda islom omilini siyosiy qo‘g‘irchog‘iga aylantirish, shu tariqa tegishli davlatlar, mamlakatlarga ta’sir o‘tkazish qat’iy qarshilikka uchrashini bildirib qo‘ydi. Har qanday diniy e’tiqod, madaniyat, an’ana, tarixiy bosqich, shaxslarni

qoralash aslida uning egasi bo‘lmish millat va davlatni yerga urish, obro‘sizlantirish, yakkalab qo‘yish, ruhan sindirishdan o‘zga narsa emas. Demak, islom dinini zo‘ravonlik va qon to‘kish bilan bir qatorga qo‘yish aslida biz o‘zbeklar va O‘zbekistonni oyoq osti qilishga urinishdir.

XXI asrga kelib, jahon dinlaridan biri – islomga qiziqish tobora ortib bormoqda. Afsuski, bu qiziqish ortida islomni niqob qilib, o‘zining jirkanch maqsadlarini amalga oshirishga urinayotgan kuchlar ham borki, ular nafaqat tinchlik va barqarorlikka, balki islom dini sofligiga ham katta tahdid solmoqda. Diniy ekstremistlarning yovuz maqsadlari, buzg‘unchi g‘oyalari bizni doimo hushyor va ogoh bo‘lishga chaqiradi. Mamlakatimizda muqaddas dinimizni soxtalashtirishga urinayotgan turli mutaassib kuchlarning yovuz harakatlariga qarshi kurashish, yoshlarni ekstremizm xataridan himoya qilish bo‘yicha qator xayrli ishlar amalga oshirilmoqda.

Eng avvalo, e’tirof etish lozimki, har qanday diniy e’tiqod kabi, islom ham barcha vaqtlarda, shu jumladan dahriylik keng targ‘ib etilgan sho‘rolar tuzumi davrida ham, ijtimoiy munosabatlar va ma’naviy-ruhiy hayotga o‘z ta’sirini o‘tkazib turgan muhim omillardan biri bo‘lib kelgan. Ijtimoiy munosabatlarning uyg‘unligi hamda ma’naviy-ruhiy hayotning tabiiyligi esa, har qanday jamiyatning ichki siyosiy barqarorligini belgilovchi asosiy omillardan ekanligi hech kimga sir emas. Ushbu nuqtayi nazardan qaraganda, islom va siyosat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni inkor etib bo‘lmaydi. Buning sababi esa, islom dini xalqimizning ong-u shuuri va mentalitetiga shu qadar singib ketganki, uni hech qanday kuch, hech qanday tashviqot bilan chiqarib bo‘lmaydi.

Bundan kelib chiqadigan mantiqiy xulosa shuki, islom dini va musulmonchilik degan tushuncha bizning mintaqamiz uchun faqat o‘tmish tajribasigina bo‘lib qolmasdan, u – kelajak voqeligi hamdir. Islomning jamiyat hayotidagi roli, tom ma’nodagi hurfikrlik qaror

topayotgan mustaqillik davrida o‘zini yanada yaqqolroq namoyon etgani ham shunday xulosa chiqarishga asos beradi. Buni islomning jamiyatimiz uchun tabiiy roli va o‘rni, deb qabul qilish mumkin.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: «Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirayotganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o‘g‘il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim. Mana, ulug‘ ajdodimiz nima deb yozganlar: «Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo‘lishi yoki zaif bo‘lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e’tibordan qolib, o‘zgalarga tobe va qul, asir bo‘lishi ularning o‘z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog‘liq».

Qarang, qanday bebaho, oltinga teng so‘zlar!

Bugungi kunda yon-atrofimizda «diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, ommaviy madaniyat» degan turli balo-qazolarning xavfi tobora kuchayib borayotganini hisobga oladigan bo‘lsak, bu so‘zlarning chuqur ma’nosi va ahamiyati yanada yaqqol ayon bo‘ladi»[1].

Biroq islom olamining siyosiylashuvi jamiyat xavfsizligi va barqarorligi uchun katta tahdiddir. Ushbu holat islomning sof diniy e’tiqod chegarasidan chiqarib, davlat va jamiyat qurilishi masalalariga aralashuviga urinishdan boshlanadi. Mazkur hol musulmon Sharq mamlakatlari tarixida takror va takror namoyon etib kelayotgani yaxshi ma’lum. Bunday holatning vujudga kelish xavfi, u yoki bu jamiyat tarixida inqilobiy o‘zgarishlar ro‘y bergan davrlarda ayniqsa kuchayadi.

Ushbu o‘rinda diniy omil bilan bog‘liq yana bir muhim jihat haqida to‘xtalib o‘tish mantiqiy ko‘rinadi. Markaziy Osiyo mamlakatlarining mustaqillik yillaridagi taraqqiyot tajribasi, bizningcha,

[1] Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: «O‘zbekiston», 2017, 22–23-betlar.

musulmon jamiyatlarida milliy o‘zlikni anglash va islomiy uyg‘onish jarayonlari bir-biri bilan aloqador tarzda, hatto bir-biriga kirishib ketgan holda kechadi, degan xulosalarning to‘g‘riligini yana bir karra tasdiqlamoqda. Haqiqatan ham, milliy o‘zlikni anglash bilan bog‘liq xilma-xil jarayonlarni diniy qadriyatlardan ayri holda tasavvur etish amrimahol. Bizning jamiyatimiz ham, tabiiy bo‘lgan ushbu xususiyat o‘zining o‘ta hassosligi, nozikligi va shu bilan birga, xatarliligi bilan ajralib turadi. Mazkur ikki tushunchani bir deb qabul qilish, ularning o‘zaro nisbatini baholashda xatoga yo‘l qo‘yish – dinning siyosiylashuviga yo‘l ochib beradi. Shuni unutmaslik lozimki, ayrim hollarda jamiyatdagi muayyan kuchlar o‘zlarining g‘arazli siyosiy maqsadlariga erishish uchun ongli tarzda aynan shunday qiladilar. Ko‘pincha ushbu «uslub»dan nokonstruktiv muxolifat vakillari foydalanishga urinadilar.

Mustaqil taraqqiyotimiz yillarida to‘plangan tajriba ko‘rsatganidek, jamiyat xavfsizligiga din bilan bog‘liq tahdidlar aniq omillarining ta’siri tufayli kuchayishi mumkin. Ularning ba’zilarini keltirish mumkin.

Birinchidan, bunday holat dinning siyosiylashuvi kuchayganda yuz beradi. Fikrimizning isboti sifatida, mustaqillikning ilk bosqichida misli ko‘rilmagan darajada faollashgan diniy guruhlarning siyosiy va hatto, harbiylashgan tashkilotlarni tuzishga qaratilgan amaliy harakatlarini eslatish mumkin. O‘shanda bunday guruhlar O‘zbekistonni islomiy davlat deb e’lon qilishni ultimativ tarzda talab etishgacha borib yetdilar. Mafkuraviy markazi Namanganda bo‘lgan ushbu harakat mamlakatimizning boshqa mintaqalarida ham muayyan aks sado berib, umummilliy xavfsizlikka jiddiy tahdid tug‘dirganini inkor etib bo‘lmaydi.

Ikkinchidan, diniy xavfsizlikning buzilishiga olib keluvchi yana bir omil – bu jamiyatdagi radikal ekstremistik unsurlarning faollashuvidir. Odatda, bunday holatlar ularning homiylik qilayotgan tashqi

kuchlarning ko‘rsatmalari, moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlashi bilan yuzaga keladi. Buning isboti sifatida oxirgi yillarda O‘zbekiston hududida sodir etilgan ekstremistik-terroristik harakatlarni keltirish mumkin.

Uchinchidan, bunday holat keng xalq ommasining mamlakatda kechayotgan, ko‘pchilikning manfaatlari bilan bog‘liq u yoki bu jarayonlar mazmunidan noroziligi tufayli vujudga kelishi mumkin. Garchi O‘zbekistonda bunday bo‘lishiga zamin bo‘lmasa-da, lekin ayrim musulmon mamlakatlarida u o‘zini takror va takror namoyon etayotgani hamda qanchalik og‘ir oqibatlarga olib kelayotgani bizni sog‘lom xulosa chiqarishga undaydi. Ya’ni, bunday holatning oldini olishga qaratilgan barcha choralarni o‘z vaqtida ko‘rish umummilliy xavfsizlikni saqlab qolishning eng samarali yo‘li ekanligini bir daqiqa ham unutmaslik lozim.

Bir insonning Allohga bo‘lgan iymon-e’tiqodini boshqa birov o‘zining boshqalarga qarshi amalga oshirmoqchi bo‘lgan g‘arazli niyati vositasiga aylantirishga urinsa, u ikki karra jinoyatga qo‘l urgan bo‘ladi. Birinchidan, muayyan inson shaxsiga qarshi jinoyatga yo‘l qo‘yadi, chunki bir inson ikkinchi insonni o‘zining nopok manfaati vositasiga aylantirishga haqqi yo‘q. Yer yuzidagi barcha mavjudot inson uchun vosita, ammo hech bir inson o‘zga insonlar uchun vosita, qurol deb qaralishi mumkin emas. Ikkinchidan, o‘zga insonning Allohga bo‘lgan iymonidan o‘zining g‘arazli maqsadi uchun foydalanishga uringan zot Alloh oldida og‘ir gunohga botadi. Bunday odam, islomiy nuqtayi nazardan, nafaqat mo‘minlar safidan chiqadi, balki u oddiy munofiq darajasidan ham tubanlashadi. Chunki oddiy munofiq o‘zi sidqidildan mo‘min bo‘lmagan holda faqat odamlar ko‘ziga o‘zini dindor qilib ko‘rsatishga urinadi. O‘zgalar e’tiqodidan o‘z g‘arazli yo‘lida foydalanmoqchi bo‘lib, ular orasiga diniy asosda nizo solishga uringan kimsa esa Alloh oldida munofiqdan ham, mushrikdan ham battar kufyirga yo‘l qo‘yadi, deyish mumkin.

Taassufki, ba'zan islom dini va islom fundamentalizmi haqida gapirganda bu ikki tushunchani bir-biriga aralashtirib yuborish hollari uchramoqda, islom dini – Allohning dini, «islom fundamentalizmi» esa tor bir guruhlar tomonidan musulmonlarning diniy aqidalarini o'zlarining muayyan siyosiy maqsadlariga bo'ysundirib «talqin» etishlari. Bu «talqin»lar asosida siyosiy faoliyat boshlansa, islom ekstremizmi kelib chiqadi. Allohning kitobidagi oyatlarni mufassirlar turlicha tafsir qiladilar, payg'ambarimiz hadislari ham turlicha talqin etilishi mumkin, chunki insonlarning din masalalariga yondashuvi turlicha. Ammo o'z talqinini eng to'g'ri deb da'vo qilib, fikriga qo'shilmaganlarni islom nomidan qoralash, hatto kofirga chiqarishga urinish, kamida o'zga insonga zulm darajasiga ko'tarilgan takabburlikdir.

O'tgan asrning 80-yillaridan Afg'oniston diniy ekstremizm va fundamentalizmning yirik o'chog'iga aylandi. Ayrim yirik davlatlar o'zlarining geosiyosiy manfaatlarini ro'yobga chiqarish ilinjida Afg'onistondagi radikal islomchilarni amalda qo'llab-quvvatladi.

Markaziy Osiyoga diniy ekstremizning kirib kelishida Afg'oniston darvoza vazifasini o'tadi. Diniy-ekstremistik guruhlarning bosh maqsadi – xalifalik davlati tuzish shiori ostida siyosiy hokimiyatni egallashdir. Diniy ekstremistik tashkilotlarning asosiy maqsad va faoliyat uslublari quyidagilardan iborat:

– aholiga xanafiylik mazhabiga zid mutaassib va siyosiylashtirilgan diniy g'oyalarni singdirish. Buning uchun aholi ichida aqidaparastlik g'oyalari va «Hizbut-tahrir» (Hizb at-tahrir al-islomiy) guruhining ta'limotlari da'vat qilinadi, «jihod», «shahidlik» g'oyalari targ'ib qilingan adabiyot, video va audio tasmalar tarqatiladi, yashirin «hujralar» tashkil qilinib, o'qiyotganlarga mutaassib tushunchalar singdiriladi;

– ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, dinlararo va millatlararo munosabatlarni keskinlashtirish. Buning uchun aholi ichida va

xorijiy axborot vositalarida O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy holat, jumladan, diniy siyosat, imomlarning faoliyati bo‘yicha ig‘vo ma’lumotlar tarqatiladi, shuningdek, yashirin guruhlar tuzilib, ular tomonidan aqidaparastlik ruhidagi diniy tashviqot yuritiladi, terrorchilik harakatlari amalga oshiriladi;

– xorijda faoliyat yuritayotgan diniy-ekstremistik tashkilotlar bilan mustahkam aloqalar o‘rnatish, ular yordamida jangarilar tayyorlash.

«Hizbut-tahrir», avvalo, islom niqobi ostida ekstremistik g‘oyalar bilan yo‘g‘rilgan tushuntirish ishlarini olib boradi. Bunda hizbitchi har bir shaxsning fikrlash doirasiga qarab o‘z ta’limotiga da’vat etadi. Qolaversa, jamiyatda sodir bo‘layotgan u yoki bu shakldagi qiyinchiliklar, turli tabiiy ofatlardan o‘z maqsadlari yo‘lida foydalanib, g‘arazli niyatlarini amalga oshirishga intiladilar. Boshqacha aytganda, ularning nazdida hujum fikrga qaratilmog‘i lozim. Bu hujum fikriy kurashga, fikriy kurash, o‘z navbatida, fikriy inqilobga olib borishi kerak. Fikriy inqilobning orqasidan esa siyosiy inqilob sodir bo‘ladi. Mazkur vazifani ado etgan avlodning o‘zi hokimiyat tepasiga keladi.

Ayni paytda, «Hizbut-tahrir» guruhi kurashni uch bosqichda olib borishni ko‘zlaydi. Ulardan birinchisi «tasqif» – tushuntirish ishlari bosqichidir. Unda hali ongi to‘liq shakllanmagan, fikri zaif, ta’sirga beriluvchan yoshlarni tuzoqqa ilintirish, huquq-tartibot va hokimiyat idoralaridagi e’tiqodi sust ayrim shaxslarni o‘z tarafiga og‘dirishdek maqsadlarga erishish ko‘zlanadi.

Ikkinchi, «tafoul» – birgalikda harakat qilish bosqichida fikriy kurash orqali Ummatning oyoqqa turishi, fikriy ongliligi va kelajak masalalarini idrok qilishga erishish» yo‘lida fikriy inqilobga yetishish nazarda tutiladi.

Uchinchi, «inqilob» – to‘ntarish bosqichida esa tarbiyalangan ummat orqali hokimiyatni qo‘lga kiritish mo‘ljallanadi.

Yuqoridagilardan «Hizbut-tahrir» ham diniy ekstremistik tashkilotlar kabi mavjud konstitutsiyaviy tuzumni ag‘darib tashlab, hokimiyat tepasiga kelishga intilishi, yagona xalifalik davlatini qurish, uning asosiy va so‘nggi maqsadi ekani ko‘rinib turibdi. Shuning uchun ham, «Hizbut-tahrir»ning rasmiy faoliyat ko‘rsatishi deyarli barcha musulmon mamlakatlari, jumladan, arab davlatlarida rasman taqiqlangan.

Birinchi Prezident Islom Karimov «Turkiston» gazetasi muxbirining savollariga javoblarida ta’kidlaganidek, bunday kuchlar orasida «Hizbut-tahrir» tashkiloti ayniqsa faolligi bilan ajralib turadi. Uning vakillari bizning mamlakatimiz hududida ham yashirincha, pinhona ish olib borishga urinishmoqda. Ular asosan hali ongi shakllanib ulgurmagan, tajribasiz yoshlarimizni o‘z tuzog‘iga ilintirishga, turli yo‘llar bilan ularning miyasini zaharlab, o‘z xalqi, o‘z yurtiga qarshi g‘animga aylantirishga jon-jahdi bilan hech qanday mablag‘larini ayamasdan harakat qilmoqdalar. Tabiiyki, biz bunday yovuz intilishlarga aslo yo‘l qo‘yolmaymiz va qo‘ymaymiz ham»[1].

«Hizbut-tahrir» partiyasini qo‘llab-quvvatlaydigan ulamolar islom dunyosida juda ozchilikni tashkil etadi. Aksincha, uni inkor etadiganlar son-sanoqsiz. Bu partiyaning g‘oyasi va dasturi hanuzgacha dunyoning birorta mamlakatida ma’qullanmagan. Uning o‘zi rasmiy tashkilot sifatida tan olinmagan, balki ilk ta’sis topgan maskanidan tortib, dunyo mamlakatlarining hammasida uning faoliyati taqiqlangan. Islomda esa, ozchilikning emas, ko‘pchilikning fikriga qo‘shilish buyurilgan. «Mening ummatim yoppasiga adashib, zalolatga tushib qolmaydi, qachonki, ular orasida qarama-qarshilikni ko‘rsalaringiz, sizlar ko‘pchilik tomonida bo‘lingiz!» – degan sahih hadis ham ushbu fikrga dalil bo‘ladi.

---

[1] Karimov I.A. O‘z kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan qurmoqdamiz. Asarlar to‘plami, 7-jild. – T.: «O‘zbekiston», 1999, 299–300-betlar.

Respublikamizda faoliyat yuritishga intilgan boshqa oqimlarning o‘z oldilariga qo‘ygan maqsadlari ham yuqoridagilardan deyarli farq qilmaydi. Masalan, «jihodchilar»ning maqsadi diniy holatni Payg‘ambar davridagi ko‘rinishga qaytarish, ya’ni din, musulmonchilik o‘sha davrda qay holatda bo‘lgan bo‘lsa, bugun ham shunday qolishi kerak, degan da’voda namoyon bo‘ladi. Bunday tuzum bugun qanday natijalarga olib kelishi mumkinligini «Tolibon» harakatining Afg‘onistonda olib borgan siyosati va uning oqibatlari yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Markaziy Osiyo aholisi orasida islomni yoyish bilan bog‘liq da’vatchilar moliyaviy mablag‘lari va murabbiylari bilan oqib kela boshladilar. Chet ellik bu da’vatchilar musulmonlar asosiy qismining diniy ta’limotlardan bexabarligidan hamda ruhoniylar munosib zarba bermaganidan foydalanib, shu yerda, mamlakat ichida, doimo maksimalizmga moyil yoshlar orasida «sof» islom g‘oyasini tarqata boshlashdi. Ularning faoliyati turli xil islomiy guruhlarning tuzilishini tezlashtirdi va bu guruhlar mahalliy ruhoniylarning obro‘sidan foydalanib, diniy tashkilotlarni hokimiyat tuzilmalariga parallel tuzilmalarga aylantirishga urinib ko‘rishdi. Mavjud tashkilotlarning ayrimlari jinoyatchilikka qarshi kurash shiori ostida huquq-tartibot organlari funksiyasining bir qismini o‘z zimmalariga olishdi, mustaqil ta’limni yo‘lga qo‘yishdi, o‘z mahallalarida islom axloqi normalariga rioya etilishini nazoratga olishdi, ko‘chalarda soqchilik qila boshladilar.

Qizig‘i shundaki, nolegal faoliyat yuritayotgan sharoitda partiyaning yosh a’zolari faolligini rag‘batlantirish uchun maxsus diniy-huquqiy xulosa – «Hizbut-tahrir» fatvosi ishlab chiqildi. Unda partiya a’zolari targ‘ibot faoliyatining barcha turlari (adabiyot, varaqa tarqatish, oshkora munozaralar olib borish, yangi a’zolarni jalb qilish) jihodning birinchi zaruriy bosqichi, deb e’tirof etildi. Binobarin, «Hizbut-tahrir»ning shunday faoliyat uchun hukumat tomonidan hibsga olingan har qanday a’zosi, mazkur fatvoga muvofiq, o‘z-o‘zidan shahid

hisoblanadi. Partiyaviy adabiyotni tarqatishday ancha muvaffaqiyatli ishda moddiy rag'bat ham yaxshigina o'rin egallagandi: shu ish bilan shug'ullanganlarni «islom yo'lida xizmat qilganligi» uchun rag'batlantiribgina qolmay, balki ularga durustgina haq ham to'lashardi.

«Hizbut-tahrir» o'z faoliyatining sulhparvarligi to'g'risidagi fikrni saqlab qolish uchun varaqalarda «jihod», «fidoyi», «mujohid» va «shahid» singari atamalarni ishlatishdan tiyilgan. Lekin bir varaqada quyidagilar bitilgan: «Azizlik libosini kiyib, xo'rlik kishanini parchalaymiz. Xalifalik davlatini tiklashga da'vat etamiz. Joningizni ham, molingizni ham ayamang. Islom g'alabasi bo'sag'asida turinglar, Alloh ixtiyor etgan narsani bajarish arafasidagi ishlar qatnashchisi bo'lishga shoshiling». «Azizlik libosi» deganda, «shahidlik libosi», ya'ni xudkush terrorchi libosi tushuniladi.

1999-yil 16-fevralda bir qator qattiq portlashlar ro'y berdi. Toshkent shahrining turli joylariga: «Nodirabegim» kinoteatri, Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, Ichki ishlar vazirligi kabi ijtimoiy muhim binolar yaqiniga qo'yilgan avtomashinalarga o'rnatilgan portlash qurilmalari ishga tushdi. Lekin «asosiy portlash» O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi binosi yonida sodir etildi.

Nima uchun aynan shunisi asosiy hisoblanadi? Chunki shu kuni soat 11.00 da Vazirlar Mahkamasida mamlakatning 1998-yil yakunlariga hamda joriy yil ish rejalariga bag'ishlangan majlisi boshlanishi, unda Birinchi Prezident Islom Karimov ishtirok etishi mo'ljallangan edi.

Portlashlar natijasida 13 kishi halok bo'ldi, yuzdan ziyod odam turli darajadagi og'irlikda yarador bo'ldi. 30 dan ortiq ma'muriy va uy-joy binolari zararlandi. Lekin terrorchilik harakatlarining tashkilotchilari asosiy maqsadlariga erisha olmadilar – baxtli tasodif tufayli Prezident omon qoldi.

«Hizbut-tahrir»ga qarshi kurashda faqat repressiv xatti-harakat bilan g'olib chiqib bo'lmasligini amaliyot ko'rsatdi. Shu bois so'nggi

paytlarda «Hizbut-tahrir» va boshqa shu kabi guruhlarga a'zo bo'lganlarga qarshi kurashning faqat kuch ishlatish metodiga zo'r bermaslik yo'li tutilmoqda. O'zbekistonda ulamolar ishtirokida keng ko'lamda targ'ibot ishlari olib borilmoqda. Masjidlar imomlari xalifalik davri o'tib ketganligini tushuntirishmoqda, rasmiy shaxslar esa ota-onalari o'z farzandlarini turli diniy oqimlarning salbiy ta'siridan asrashga da'vat etishmoqda. Tarkibida hanafiya ulamolari, islomshunoslar va sharqshunoslar bo'lgan maxsus komissiyalar ish olib bormoqda. Bu komissiyalar turli shahar va qishloqlardagi mahallalarga borib, munozaralar uyushtirib,«Hizbut-tahrir»ga adashib kirib qolganlarni munozara va da'vatlar emin-erkin olib borilayotgan hanafiya masjidlari bag'riga qaytarishga urinishmoqda. Bunday munozaralarning uyushtirilishi «Hizbut-tahrir» faoliyatini zararsizlantirishda samarali vosita bo'lmoqda.

Mamlakatimizda yot g'oyalarga qarshi kurashda nazmning ta'siri naqadar kuchli ekanligini inobatga olib, e'tiboringizga Sayyora To'ychiyevaning «Qaytgin, bolam» nomli she'ridan parcha havola etishni ma'qul ko'rdik.

Quyosh horir, shom bo'ladi, kun botmaydi,
Kun botsayam, vaqt o'tmaydi, tong otmaydi,
«Ota» degan tovushginang uyg'otmaydi,
Qaytgin, bolam, quchog'imga qaytgin, bolam...

Vatansizlar Vatan qadrin qaydan bilsin,
Padarkushlar ota qadrin qaydan bilsin,
Yarim ko'nglim, bolam, sensiz qanday to'lsin,
Qaytgin, bolam, quchog'imga qaytgin, bolam...

Ne qilarsan iymonsizdan iymon so'rab,
Yurtiga o'q otganlardan imkon so'rab,
Sarsongina yuribsanmi makon so'rab,
Qaytin, bolam, quchog'imga qaytgin, bolam...

Ikki dunyo unutmagin bitta so'zim,
Har banda ham o'z yurtida aziz, qo'zim,
O'zing kelib, yopgin ochiq qolgan ko'zim,
Qaytgin, bolam, quchog'imga qaytgin, bolam.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: «Bugun qancha yoshlar soxta aldovlarga uchib, o'z umrini xazon qilayotganini o'ylab, to'g'risi, tunlari uxlamasdan chiqaman. O'zingiz ayting, aziz birodarlar, bu achchiq haqiqat yuragimizga xanjar bo'lib sanchilishi kerak emasmi?

Axir kechagina shu yoshlar, o'zimizning qorako'zlar, birimizning mahalladoshimiz, birimizning o'g'limiz, birimizning qizimiz yoki jiyanimiz edi-ku! Ular qachon adashdi, qachon noto'g'ri yo'lga kirib ketdi?

Biz nega g'aflatda qoldik? Qachon, qayerda xatoga yo'l qo'ydik? Farzandlarimiz qachon begonalarning qo'liga o'tib ketdi? Nima jin urdi-yu, ular o'z ota-onasi, o'z yurtining dushmaniga aylanib qoldi?»[1].

Jahondagi turli mamlakatlar olimlari tadqiqotlari va tahlillari islom ekstremizmini kompleks tarixiy tadqiqot etish uchun qator umumiy jihatlarni shakllantirish imkonini beradi. Ular asosan quyidagilar:

– diniy ekstremizm o'zida tarixan yana takrorlanib turish xarakteriga ega bo'lgan, lekin har doim ham agressiv shakllarda namoyon bo'lavermaydigan ashaddiy islom fundamentalizmini o'zida ifodalaydi;

– diniy ekstremizmning ijtimoiy bazasi asosan turli-tuman ruhiy larzalar va ijtimoiy inqirozlar hisoblanib, ekstremizm ana shu jarayonlarning oqibati, keyinroq esa, ana shu vaziyatning rivojlanish omili sifatida namoyon bo'lmoqda;

---

[1] Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: «O'zbekiston», 2017, 479-bet.

– diniy ekstremizm qayta tiklash va qayta o‘sib chiqish ijtimoiy bazalariga ega bo‘lib, transnatsional xarakterini kasb etmoqda. Lekin u butunlay yaxlit mafkura sifatidagi holatni doimo saqlagan holda ekstremizmning siyosiy maqsadlari va ularni amalga oshirish faoliyatlari u yoki bu tuzilmalar vositasida harakat qilishi aniq namoyon bo‘lmoqda;

– diniy ekstremizmning tarqalishi, odatda, ko‘proq lokal inqiroz muhitini paydo qiladigan ichki va mahalliy sabablarga bog‘liq bo‘lmoqda. Shu bilan bir vaqtda, uning qurolli faolligining kengayishi aksariyat hollarda tashqi shart-sharoitlar va omillar (ularning xalqaro markazlari yordamida) ta’sirida kechishi ko‘zga tashlanmoqda;

– terrorizm va ekstremizm qaysi mintaqalarda narkotik moddalarni yetishtirish, iste’mol qilish keng yoyilgan bo‘lsa, o‘sha hududda o‘zining chuqur ildizlariga ega bo‘ladi. Chunki, ular faoliyatining asosiy iqtisodiy manbai narkotik moddalarni yetishtirish va sotish hisoblanadi. Hozirgi davrda jahonda yetishtirilayotgan narkotik moddalarning deyarli to‘rtdan uch qismi Afg‘oniston hissasiga to‘g‘ri kelishi fikrimizning isbotidir.

Shuni alohida qayd etish joizki, hozirgi kunda xalqaro terroristik va ekstremistik markazlar o‘ziga xos kuch-qudratga ega bo‘lib, terroristik harakat xalqaro umumbashariy muammoga aylangan. Sababi, birinchidan, terrorizm va ekstremizm jahon jamoatchiligining dushmani bo‘lgan narkobiznes bilan bog‘liq. Ikkinchidan, ularni o‘z vaqtida mablag‘ bilan ta’minlab turadigan markazlar mavjud. Uchinchidan, ular terroristik harakatlarni olib boruvchi mamlakat kadrlar tizimiga ega. To‘rtinchidan, ular jahonning qaysi joyida qo‘poruvchilik, terroristik harakatlarni tashkil qilishlari borasida maxsus dasturga ega. Beshinchidan, ular terroristik, qo‘poruvchilik ishlarini olib borish uchun zamonaviy qurol-aslahalar bilan ta’minlangan.

5.3. Ma'naviy tahdidlarga qarshi kurash usullari

Tahdid – inson, jamiyat va davlat hayoti hamda faoliyatiga nisbatan muayyan davr mobaynida aniq maqsadga yo'naltirilgan mahalliy, hududiy, mintaqaviy va umumsayyoraviy salbiy omillarning tajovuzi tufayli aniq makon va zamonda vujudga keladigan xavf-xatar shakli. Tahdidlar turli-tuman: ichki, tashqi, makon nuqtayi nazaridan esa uzoq va yaqin bo'lishi mumkin. So'nggi yillarda voqealar shundan guvohlik beradiki, ularni iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ekologik, demografik, ma'naviy, mafkuraviy tahdidlarga ajratib tahlil etish mumkin.

Yer yuzining turli mintaqalarida sodir bo'layotgan, butun insoniyatga xavf solib turgan turli noxush hodisalarni tahlil qilgan sari, ularning barchasida inson omili bosh sababchi ekani oydinlashadi. XXI asr boshidagi tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki, muayyan davlat va millat xavfsizligi, barqarorligi, taraqqiyoti hamda istiqboli ko'p jihatdan mazkur millatga xavf solayotgan xavf-xatar va tahdidlarni anglab yetish salohiyati va qobiliyati darajasiga bog'liq. Tahdidga nisbatan befarqlik, loqaydlik oqibatida tanazzulga uchragan davlatlar ham bo'lgan. Aksincha, boqiylikka daxldor millatlar ham borki, ular muvaffaqiyatining asosiy omili bo'lg'usi tahdidni oldindan sezib, unga o'z vaqtida javob qaytargani bilan belgilanadi.

Tahdidli ijtimoiy-siyosiy vaziyatni vujudga keltiradigan turli xavf-xatar hamda ularni bartaraf etish muammosi buyuk ajdodlarimizning siyosat ilmiga doir fikr va xulosalarida o'z aksini topgan. Tahdidni yuzaga keltiradigan manbalarni ildiz otmasdan bartaraf qilish, unga nisbatan doimo ogoh, hushyor bo'lish, g'ofillikka yo'l qo'ymaslik haqidagi fikrlar alloma ajdodlarimizning siyosiy tafakkuridan keng o'rin olgan muhim jihatlardir. Bu borada mutafakkir Abu Nasr Forobiyning «Davlatni aql-idrok bilan boshqarish – xalq boshi-

ga tushgan xavf-xatarni kamaytirish va bartaraf etishdan iboratdir»[1], degan hikmatli fikrlarini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Buyuk ajdodlarimiz nazdida ogoh bo'lish muhim tamoyil darajasiga ko'tarilgan hamda ularning oldini olishning asosiy shartlaridan biri bo'lgan.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarida ta'kidlanganidek: «Beklik muqaddaslik va poklikni talab etadi. Hushyorlik, sergaklik u qo'ygan talablar qatorining boshida turadi. Bek sog', hushyor, sergak bo'lishi lozim. Ular g'ofil bo'lsa, balo yondashadi. Qaysi bek hushyor bo'lsa, elini mustahkamlaydi, yov bo'ynini yanchib, uning ustiga balolar yog'diradi. Yov bo'ynini yanchib tashlashni istagan kishi tunda ham, kunduzi ham qulog'ini sog'-hushyor tutishi lozim. Hushyorlik tufayligina yovni yengish mumkin, g'ofillik beklik bog'ini buzadi»[2].

Sohibqiron Amir Temur o'z saltanatini idora etishda barcha voqea-hodisalar, ijtimoiy-siyosiy jarayonlardan yetarli darajada boxabar bo'lib turish masalasiga alohida e'tibor qaratgan. Real xavf-xatarlarni oldindan ko'ra bilish, uning xavflilik darajasini aniqlash, uzluksiz ishlaydigan, o'z davri darajasidagi axborot tizimini shakllantirishni bosh vazifa qilib qo'ygan. «Har bir diyor aholisining ahvolidan ogoh bo'lib turdim. Har bir mamlakat ahvoli, sipoh-u raiyatning kayfiyatini, turish-turmushini, qilmish-qidirmishlarini, bular o'rtasidagi aloqalarni yozib menga bildirib turish uchun diyonatli, to'g'ri qadamli kishilardan voqeanavislar belgiladim»[3], deyiladi «Temur tuzuklari»da. Amir Temur mamlakat ichkarisida ham, tashqarisida ham yuz berayotgan katta-yu kichik voqea-hodisalar haqida xabar berishlarini talab qilgan va buni davlat xavfsizligini ta'minlashning muhim chorasi deb hisoblagan hamda saltanat barqarorligiga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rishda mablag'ni ayamaslikka da'vat qilgan.

---

[1] Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: «Meros», 2011, 164-bet.

[2] Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. – T.: «Akademnashr», 2015, 117-bet.

[3] Temur tuzuklari. – T.: «O'zbekiston», 2013, 77-bet.

Hazrat Alisher Navoiy ogohlikni ulug‘lab, loqaydlik, g‘ofillikning oqibatini o‘zining mana bu satrlarida ajoyib tasvirlagan:

G‘ofil o‘lma, nazardin itsa aduv,
Sham’ o‘chirganda yel ko‘rinurmi?

Bu satr ayrim: «Hamma yoq tinch. Janjal-to‘polonlar eh-he-e, bizdan qanchalar uzoqda. Hech narsa ko‘rinmaydi ham. Nimaga buncha bezovta bo‘lishimiz kerak?» – deb o‘ylaydigan loqayd, beg‘am, g‘ofil kishilarga tanbeh sifatida aytilmoqda. Mana, bundan salkam VI asr oldingi ogohlikka da’vatning asl nusxasi.

Bugun u yanada dolzarb. Ya’ni, ey azizlar, hech qachon «dushman uzoqda, ko‘zga ko‘rinmaydi, demak, u yo‘q», deb xotirjam, beg‘am bo‘lib qolmang. Siz yonib turgan shamning o‘chganini ko‘rganmisiz? Uni kim o‘chirdi? Atrofda hech narsa ko‘rinmaydi, ammo sham o‘chadi. Uni shamol o‘chirganini yaxshi bilasiz. Birpasgina loqayd bo‘lgan edingiz, yo‘q shamol birdaniga paydo bo‘ldi va uni o‘chirdi. Siz uyingizni yoritib turgan yagona nur manbai – shamni, ko‘rinmas dushman – shamoldan himoya qila olmay qoldingiz.

Xuddi shuningdek, siz uchun aziz, bebaho ne’matlaringizni yaxshilab asrang, himoya qiling. Kutilmagan xavf-xatarlardan, bexosdan ziyon yetkazishi mumkin bo‘lgan tahdidlardan omon yashaysiz, demoqchi.

Mavlono Mirzo Abdulqodir Bedil ogohlikning ziddi nodonlik (bilmaslik) ekanligini aytadi. U nodonlikning kasofatlarini bunday tasvirlaydi:

Nodonlik ovining o‘ljasi hasrat,
Nodonlik bahorin yomg‘iri kulfat.
Soch yulib, dodlamoq bilimsizlikdir,
Ogohlik ko‘zgusi bilmas nadomat.

Ya’ni, qayerda nodonlik bo‘lsa, o‘sha yerni falokat bosadi. Nodonlikni ov deb tushunsangiz, uning qopqoniga hasratdan boshqa

narsa tushmaydi. Nodon ovchi shikor joyiga u yerdagi shart-sharoitni bilmay boradi, hech narsani qo‘lga kirita olmaydi. Aksincha, kutilmagan balo, ofatlarga yo‘liqadi. Keyinchalik, bu ovni eslab pushaymon, hasrat qiladi.

Nodonlik bahor bo‘lsa, bu bahor osmonidan yerga yomg‘ir emas, kulfat, g‘am-alam yog‘adi. Biror kimsaning sochlarini yulib yig‘layotganini ko‘ring, balki bu ahvolga uning bilimsizligi sabab bo‘libdi. Ogoh bo‘lsa, boshiga bu ko‘rgulik tushmas edi.

Ogohlik ko‘zgusi bilmas nadomat. Ya’ni, agar ogohlik bir ko‘zgu bo‘lsa, ogoh odam hech unda o‘zining pushaymon chehrasi (aksi)ni ko‘rmaydi, deydi Mavlono Bedil. Demak, kimki dunyoni ogohlik qulog‘i bilan tinglab, unga ogohlik ko‘zlari bilan qarab yursa, hech qachon pushaymon bo‘lmaydi.

Buyuk ajdodlarimiz jamiyatga nisbatan davr o‘rtaga qo‘ygan talablar mohiyatini anglab yetishga intilib kelgan. Bunda tahdidli vaziyatning kelib chiqishiga sabab bo‘ladigan ichki omillar tahlili, chiqarilgan xulosalar ularning faoliyatida alohida o‘rin egallaydi. Jumladan, davlat siyosatidagi sog‘lom fikrlilik, uning davr muddaosi bilan hamnafas bo‘lishiga doir masalaga ham e’tibor berilgan. Bunda saltanat rahbari tomonidan o‘z zimmasiga yuklangan burch va mas’uliyatni chuqur anglash, raiyat tinchligi, omonligini saqlash uchun murakkab jarayonlar tizginini qo‘ldan bermaslikka intilish, davlat rahbarining butun fikr-u zikri jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni saqlashga xizmat qiladigan vositalarni izlab topishga qaratilmog‘i kerak, degan xulosaga kelingan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: «Mafkura sohasida bo‘shliq degan narsaning o‘zi hech qachon bo‘lmaydi. Chunki insonning qalbi, miyasi, ong-u tafakkuri hech qachon axborot olishdan, fikrlashdan, ta’sirlanishdan to‘xtamaydi. Demak, unga doimo ma’naviy oziq kerak. Agar shu oziqni o‘zi yashayotgan muhitdan olmasa yoki bu muhit uni qoniqtirmasa, nima bo‘ladi, aytinglar?

Bunday ozuqani u asta-sekin boshqa yoqdan izlaydi. Shunga yo'l bermasligimiz kerak. Mana, gap nima haqda ketyapti!

Buning uchun o'zini jamiyatimiz, yoshlarimiz ma'naviyati, g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyasi uchun mas'ul deb bilgan insonlar – bu mahalla yoki diniy tashkilotlar bo'ladimi, huquq-tartibot idoralari xodimlari yoki katta ta'sir kuchiga ega ijodkor ziyolilar bo'ladimi – ularning barchasi ayniqsa faol bo'lishlari lozim»[1].

Ma'lumki, jahonda vujudga kelgan murakkab vaziyat tufayli hozirgi davrning ma'naviy, mafkuraviy tahdidlari tuzilishi yanada kengayib ketdi. Zamonaviy mafkuraviy tahdid omili siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ma'naviy sohalarni, ya'ni kishilik jamiyati hamda hayotning barcha sohalarini qamrab olgan. Ayni paytda ma'naviy-mafkuraviy tahdid orqali ko'zlangan maqsadlarga erishishda ma'naviyat omilidan asosiy mexanizm sifatida foydalanilmoqda. Mazkur holat ma'naviy tahdidlarga qarshi kurash samaradorligini oshirish uchun ko'plab nazariy muammolarni hal qilishni ham nihoyatda dolzarb vazifa qilib qo'ymoqda.

Ma'naviy tahdid o'z mohiyatidan kelib chiqib, eng avvalo, inson ongi, tafakkuri va xulq-atvoriga xavf-xatar solmoqda. Inson ongi va qalbini vayronkor va buzg'unchi g'oyalar bilan izdan chiqarishga harakat qilish uning eng asosiy mazmun-mohiyatini belgilaydi. Mafkuraviy tahdid esa muayyan jamiyat a'zolarini yagona maqsad va muddaolardan chalg'itib, milliy mentalitetga mos kelmaydigan begona g'oya, fikr, maqsad va qarashlarni chetdan turib eksport qilish jarayonida o'zini yanada aniqroq namoyon qiladi. Mafkuraviy tahdidning o'ta xavfli jihati shundan iboratki, u birinchi navbatda, jamiyatning ma'naviy sohasini barbod qilishga yo'naltirilgan. Chunki, aynan ma'naviy soha har qanday jamiyatning mavjudligi, yashovchanligini ta'minlaydigan asosiy o'zak hisoblanadi.

---

[1] Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: «O'zbekiston», 2017, 484-bet.

O‘zining zararli oqibatlari bilan jamiyat taraqqiyotiga katta xavf solayotgan ma’naviy tahdidga «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» kitobida qayd etilganidek: «Ma’naviy tahdid deganda, avvalo, tili, dini, e’tiqodidan qat’i nazar, har qaysi odamning tom ma’nodagi erkin inson bo‘lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko‘zda tutadigan mafkuraviy, g‘oyaviy va informatsion xurujlarni nazarda tutish lozim, deb o‘ylayman.

Agarki masalaga amaliy ko‘z bilan qaraydigan bo‘lsak, ma’naviyatimizga qarshi qaratilgan har qanday xuruj – bu millatimizni millat qiladigan, asrlar, ming yillar davomida ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan o‘ziga xos va o‘ziga mos xususiyatlarga, milliy g‘urur, milliy iftixor tuyg‘usiga, bizni doimiy ravishda tadrijiy taraqqiyotga chorlaydigan, shu yo‘ldagi barcha asorat va illatlardan xalos bo‘lib, ozod va farovon hayot barpo etishdek ezgu maqsadlarimizga katta zarba beradigan mudhish xavf-xatarlarni anglatadi.

Lo‘nda qilib aytadigan bo‘lsak, bunday mafkuraviy xurujlar milliy va diniy tomirlarimizga bolta urishini, ulardan bizni butunlay uzib tashlashdek yovuz maqsadlarni ko‘zlashini, o‘ylaymanki, yurtimizda yashaydigan sog‘lom fikrli har bir odam yaxshi tushunadi»[1].

Bu to‘laqonli ta’rif o‘zining bir necha jihatlari bilan diqqatni tortadi. Shu ma’noda quyidagilarga e’tibor berish lozim:

1. Ma’naviy tahdidlarning xususiyatlari:

a) til tanlamaydi; b) din tanlamaydi; v) e’tiqod tanlamaydi.

O‘zgacha aytganda, tahdidlar odamning qaysi tilda so‘zlashishi, qaysi dindaligi va e’tiqodining qandayligidan qat’i nazar, insonga daxl qiladi.

2. Ma’naviy tahdidlarning zarari:

a) inson erkinligiga daxl qiladi; b) insonning ruhiy dunyosini izdan chiqaradi; v) maqsadli amalga oshiriladi.

---

[1] Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: «Ma’naviyat», 2008, 13-14-betlar.

3. Ma'naviy tahdidlarning turlari:

a) mafkuraviy; b) g'oyaviy; v) informatsion.

Shu ma'noda, bunday tahdidlarning oldini olish, ularga qarshi kurashish uchun ularning mazmun-mohiyatini o'rganish, tahlil qilish talab etiladi. Jamiyat milliy ongining darajasi, unda demokratik qadriyatlarning tarkib topishi, xotin-qizlar va yosh avlodning faolligi kabi masalalar muhim ahamiyat kasb etadi.

«Milliy g'oya va ma'naviyat» risolasining muallifi Shavkat To'rayevning kuzatishlari shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda O'zbekiston uchun mafkuraviy tahdidlarning bir necha ko'rinishi mavjud. Ularning eng muhimlari quyidagilar:

Birinchidan, mamlakatning barqaror rivojlanishiga shubha uyg'otish.

Ikkinchidan, jamiyatdagi mavjud sog'lom e'tiqodni izdan chiqarish.

Uchinchidan, respublikani yon-atrofdagi etnik mojarolarga tortish.

Mafkuraviy tahdidlarning bu ko'rinishlarini aniqlash u qadar mushkul ish emas. Avval ular Internet saytlarida paydo bo'lib, keyin alamzada va ongi mo'rt kishilar ongida «aks sado» bermoqda. Aslida Internet orqali tarqatilayotgan bu mafkuraviy tahdidlar uch xulosani beradi:

1) Internet saytlarida berilayotgan va tarqatilayotgan ma'lumot hamda xabarlar ilmiy jihatdan asossiz provakatsion xarakterga ega;

2) ammo bunday ma'lumot va xabarlarni ongi past darajada rivojlangan kimsalar o'qib, «ilhomlanmoqda»;

3) mafkuraviy tahdidlarning bu ko'rinishlari chetdan turib xalqaro Internet saytlarida tarqatilayotgani barchamizni ogoh bo'lishga da'vat etadi»[1].

Ilmiy ahamiyatga ega bo'lmagan targ'ibot vositasida jamiyat hayoti uchun xavfli bo'lgan mafkuraviy tahdid tarqatilmoqda. Mi-

[1] To'rayev Sh. Milliy g'oya va ma'naviyat. – T.: «Ma'naviyat», 2015, 14-15-betlar.

sol uchun, yon-atrofdagi etnik mojaroga tortish ko‘rinishini olaylik. 2010-yil iyun oyida bir guruh yovuz niyatli kishilar Qirg‘izistonning O‘sh va Jalolobod shaharlarida o‘zbek millatiga mansub kishilarga nisbatan qo‘poruvchilik ishlarini amalga oshirdi. Natijada o‘nlab begunoh odamlar qurbon bo‘ldi va yuz mingdan ortiq odamlar qochqin sifatida O‘zbekistonga o‘tishdi. Chetdan turib uyushtirilgan bu yovuzlikning asosiy maqsadi – O‘zbekistonni etnik mojarolarga tortish edi.

Mafkuraviy tahdidlar aslida bu – tom ma’noda tajovuzkor bo‘lib, quyidagicha amalga oshiriladi:

– mafkuraviy tahdidlar ilmiy asosga ega bo‘lmagan, primitiv ma’lumotlarni tarqatish va past saviyali kishilar ongiga izchil singdirib borish texnologiyasiga asoslanadi;

– mafkuraviy tahdidlar negizida yovuzlik, zo‘ravonlik, vahshiylik va jaholat maqsadlari turadi;

– mafkuraviy tahdidlar oxir-oqibatda jamiyatning eng nochor va himoyasiz qatlami bo‘lgan begunoh odamlar, homilador ayollar va bolalarning qurbon bo‘lishi evaziga o‘z maqsadiga yetishni ko‘zlaydi.

Shu o‘rinda mafkuraviy tahdidlarni: 1) oldindan aniqlash va bunda har bir faktni e’tibordan chetda qoldirmaslik; 2) ularga qarshi kurashda ishonchli dalillarga tayanib ish olib borish; 3) yuzaga kelayotgan muammolarni ilmiy tahlil qilib borish lozim bo‘ladi.

Hozirgi kunda mamlakatimiz uchun xatarli xurujlardan yana biri g‘oyaviy tahdidlardir. Uning eng muhim ko‘rinishlari quyidagilardir:

– birinchidan, jamiyatda demokratiyaning yo‘qligini da’vo qilish;

– ikkinchidan, milliy madaniyatni inkor etish ruhini tarkib toptirish;

– uchinchidan, umuminsoniy qadriyatlarga amal qilmaslikda ayblash.

Bu g‘oyaviy tahdidlar ommaviy usulda inson nafsoniyatiga ta’sir o‘tkazish va uning ruhiy-ma’naviy qarashlarini izdan chiqarish maqsadida adabiyot, san’at, kino va boshqa vositalar orqali tarqatilmoqda.

Bu tahdidlar insonning ijtimoiy va madaniy ongini izdan chiqarishi bilan nafaqat muayyan xalq, balki butun insoniyat tamadduniga xavf tug‘diradi.

Tezkor axborotlar, yangiliklarning bir vaqtning o‘zida bir necha tilda va terrorchilar uchun foydali bo‘lgan yo‘nalishda berib borilishi, ularning faoliyatini oqlovchi, «qahramonligini» kuylovchi qo‘shiqlar, kliplar berilishi bunday saytlarning mafkuraviy hamda emotsional ta’sir quvvatini oshirishga xizmat qiladi. Bunday saytlar, bir tomondan, terrorchilik tashkilotining faol a’zolariga, ikkinchi tomondan, terrorchilarning asl maqsad-muddaolarini bilmaydigan, ularni «kurashchilar», «oppozitsiya» va shu kabi ijobiy maqom hamda sifatda qabul qilishga o‘rgangan odamlarga mo‘ljallangan bo‘ladi. Ulardan jamiyatda tegishli ijtimoiy fikrni shakllantirish va qarama-qarshi (dushman) tomonga psixologik ta’sir ko‘rsatish, qo‘rquv, vahima tarqatish orqali ichki ikkilanishni keltirib chiqarishdek maqsadlar ko‘zlangan.

Shu ma’noda g‘oyaviy tahdidlarning quyidagi jihatlariga e’tibor berish talab etiladi:

– birinchidan, g‘oyaviy tahdidlarning paydo bo‘lish omillariga o‘z vaqtida barham berish;

– ikkinchidan, g‘oyaviy bo‘shliqqa yo‘l qo‘ymaslik va g‘oyaviy mafkurani kuchaytirish hamda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash;

– uchinchidan, milliy o‘zlikni saqlashda umuminsoniy qadriyatlardan unumli foydalanish.

Hozirgi kunda O‘zbekiston uchun xatarli xurujlarning yana bir turi – informatsion tahdiddir. Bu tahdidning quyidagi ko‘rinishlari mavjud:

– birinchidan, jamiyatda axborot erkinligi yo‘qligini iddao qilish;

– ikkinchidan, jamiyatning ijobiy jihatlaridan ko‘z yumib, kamchiliklarini bo‘rttirib tarqatish;

– uchinchidan, axborot taqchilligi to‘g‘risida shov-shuv tarqatish.

Informatsion tahdid nafaqat ma'naviy-g'oyaviy qurol, balki g'ayriaxloqiy qo'poruvchilik hamdir. Negaki, bu tahdidlar o'ta jozibali vosita va shiorlar asosida amalga oshirilishi, shu sababli u inson ongi va faoliyatini ko'rinmas to'siq bilan o'rab oluvchi omil hisoblanadi.

Shu bois jamiyatimizda ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash masalasiga keng qamrovli, sifat jihatdan butunlay yangi asoslarda yondashish davrimizning eng asosiy muddaosini tashkil etadi. Chunki o'z ma'naviy xavfsizligini ta'minlay olgan jamiyatgina umri boqiy bo'ladi. Xavfsizlikni ta'minlash har birimizning burchimizdir. Ma'naviy xavfsizlikni ta'minlashda quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq: milliy-ma'naviy qadriyatlarni asrab-avaylash; yoshlarni milliy ruhda tarbiyalash; xorijiy san'at namunalarini muntazam ekspert qilib borish; ma'naviy daxlsizlik masalasini qonunlashtirib qo'yish; inson irodasini chiniqtirib borish. Zero, «ma'naviy xavfsizlik» tushunchasi jamiyat a'zolarining milliy, insoniy va shaxsiy tuyg'ulari, qarashlari, turmush tarzi, qadriyatlari hamda urf-odatlarini daxlsiz saqlashni anglatadi. Bugungi davr voqeligi har bir masalada yangicha tamoyillar asosida yondashishni ham taqozo etmoqda. Muayyan tushuncha, g'oya yoki tamoyillarni anglab olish ishning bir qismi, xolos. Shu ma'noda, ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashda amaliy ishlarga e'tibor berish asosiy masaladir.

O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 30-iyulda qabul qilingan «Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida»gi Qonunining 3-moddasida ekstremizm-ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy tuzumini zo'rlik bilan o'zgartirishga, hokimiyatni zo'rlik ishlatib egallashga va uning vakolatlarini o'zlashtirib olishga, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo'zg'atishga qaratilgan harakatlarning ashaddiy shakllari ifodasi.

Qonunning 5-moddasida ekstremizmga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

* ekstremizmning oldini olishga doir chora-tadbirlarni, shu jumladan aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda ekstremizmga nisbatan murosasozlik munosabatini shakllantirish, shuningdek, uning yuzaga kelishiga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish;

* ekstremizm sohasidagi huqubuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash va ularga chek qo'yish, uning oqibatlarini bartaraf etish, shuningdek, javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlash;

* ekstremizmga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro hamkorlik.

Qonunning 8-moddasida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda ekstremizmga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

* tushuntirish ishlarini olib borish;

* huquqiy tarbiya va ta'limni tashkil etish;

* ekstremizmga qarshi kurashish masalalari bo'yicha o'quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlarni ishlab chiqish;

* madaniy an'analarni, ma'naviy, axloqiy va vatanparvarlik ruhdagi tarbiyani mustahkamlash;

* ilmiy-amaliy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish;

* ekstremizmga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini hisobga olgan holda ta'lim dasturlarini takomillashtirish.

Qonunning 17-moddasida O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ekstremistik faoliyatni amalga oshirganlik uchun qonunga muvofiq javobgar bo'ladi.

Shaxs ekstremistik faoliyatida ishtirok etishni o'z ixtiyori bilan rad etgan, u haqda tegishli davlat organlariga xabar bergan hamda og'ir oqibatlar yuzaga kelishining va ekstremistlarning maqsadlari amalga oshirilishining oldini olishga faol ko'maklashgan taqdirda, qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikdan ozod etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Terroristik, ekstremistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilot va guruhlar tarkibiga adashib kirib qolgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini jinoiy javobgarlikdan ozod etish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida»gi 2018-yil 19-sentabrdagi Farmoniga muvofiq mamlakatimizda diniy bag‘rikenglik va vijdon erkinligini ta’minlashga, shuningdek, yoshlarni terroristik, ekstremistik va boshqa buzg‘unchi g‘oyalar ta’siridan samarali himoya qilishga qaratilgan jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Terroristik, ekstremistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilot va guruhlar tarkibiga adashib kirib qolgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida bo‘lgan, o‘z qilmishining qonunga xilofligini anglab yetgan va tuzalish yo‘liga o‘tgan fuqarolarga Vatanga, oila bag‘riga, tinch hayotga qaytish imkonini berish maqsadida, ularning murojaatlarini ko‘rib chiqish bo‘yicha Respublika idoralararo komissiyasi xulosasiga asosan jinoiy javobgarlikdan ozod etiladi.

Buning uchun jamiyatimizda har bir shaxsni insonparvarlik, vatanparvarlik ruhida voyaga yetkazishimiz, inson hayotini, uning ma’naviy-ma’rifiy faoliyatini sog‘lom turmush tarzi talablari negizida ko‘rishimiz lozim. Ana shundagina asl qiyofasi tubanlik bo‘lgan shaxslarning nopok rejalarining ildiziga bolta uriladi. Jahon miqyosida hozirgi paytda xalqaro terrorizm, tajovuz, tahdid va xurujlarga nisbatan passiv kuzatuvchi bo‘lib turish mumkin emasligini, balki unga qarshi ham amaliy-tashkiliy, ham ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarini faol olib borish zarurligini anglab yetishgina emas, balki bu kurashda har bir fuqaro, ayniqsa, yoshlar o‘zlarining faol ishtirok etishga intilishlarini namoyon etmoqdalar. Mana shunday ijtimoiy muhitning shakllanishi uchun jamiyatda shaxsning voqelikka munosabatlarini yangicha badiiy estetik g‘oyalar bilan boyitib borishni insoniyatning bugungi kundagi intellektual taraqqiyoti taqozo etmoqda.

Sizlarga O‘zbekiston xalq shoiri Shukurullo Yusupovning ushbu she’rini xulosa o‘rnida keltirishni o‘rinli deb bildik.

Agar ba’zi birlar seni ranjitsa,
Azob otashidan o‘rtanma butkul!
O‘zing bilasanki, hammani esa,
Ko‘nglini bir xilda ovlamoq mushkul.

Ba’zida joningni jabborga berib,
Asil haqiqatni so‘zlaganing dam,
Ba’zi birlar sendan butunlay ranjib,
Mumkin seni nodon deyishlari ham.

Bordi-yu, yaxshini desang ham yomon,
Aminman, topilur senga tarafdor.
Dunyoda bor ekan haqiqat, yolg‘on,
Hammaga teng yoqish mumkinmas zinhor.

Demak, shunday ekan, yolg‘on gap sotib,
Nopoklar ko‘ngliga bo‘lgandan ma’qul,
Do‘stim, haqiqat-u rostini aytib,
Faqat vijdoningning buyurganin qil!

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Globallashuv jarayonlari haqida ma’lumot bering.
2. «Mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko‘proq kuchga ega» iborasini izohlab bering.
3. Mafkuraviy tahdidlar, uning xatarli xurujlari haqida ma’lumot bering.
4. Diniy ekstremizmning fundamentalizmdan farqini tushuntiring.
5. Islom olamining siyosiylashuvi jamiyat xavfsizligiga katta tahdid ekanligi haqida nimalarni bilib oldingiz?

6. «Hizbut-tahrir» guruhi kurashni necha bosqichda olib borgan, oradagi farqlarni tushundingizmi?

7. Jihodchilarning asl maqsadini tushuntirib bering.

8. Ommaviy madaniyat – mafkuraviy tazyiqning eng xavfli qurollardan biri ekanligi haqida aytib bering.

9. Allomalar ogohlik haqida bildirgan fikrlaridan iqtiboslar keltiring.

10. Loqayd va beparvo odamlar haqida fikringiz.

Bir haqiqatni hech qachon unutmaylik: biz buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan xalqmiz. Biz hech qachon mehnatdan qochmagan, qiyinchilikdan qo'rqmaydigan, adolatni qadrlaydigan, azm-u shijoatli, buyuk xalqmiz.

Shavkat Mirziyoyev

II BO'LIM. MA'NAVIYATNING TARIXIY, ILMIY-NAZARIY VA AMALIY ZAMINLARI

6-MAVZU. QADIMGI O'RTA OSIYO XALQLARI MA'NAVIYATINING SHAKLLANISH JARAYONLARI

Reja:

6.1. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto»da ma'naviyatning dolzarbligi.

6.2. Qadimgi xalq og'zaki ijodiyoti va yozma manbalarda ma'naviyat masalalari.

6.3. Navro'z – yangilanish va mo'tabar orzular bayrami.

Tayanch so'z va iboralar

Ma'naviy javohirlar, zardushtiylik, «Avesto» kitobi, ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal, mardlik kamari, ta'lim-tarbiya, estetik va falsafiy tafakkur, To'maris, Shiroq jasorati, xalq og'zaki ijodi, «Alpomish» dostoni, ajdodlar yodi, Navro'z – muqaddas bayram, sumalak, xalq qo'shiqlari, mo'tabar orzular.

6.1. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto»da ma'naviyatning dolzarbligi

«Avesto», ya'ni «Hayot yo'riqnomasi» deb nomlangan bu kitob Markaziy Osiyoning Xorazm vohasida yaratilgan. Zardushtiylik dinining shakllanishiga asos bo'lgan nazariy manbalar xalqimizning qadimgi davrlaridagi moddiy va ma'naviy hayoti, diniy qarashlari, olam va odam to'g'risidagi tasavvur, urf-odati va qadriyatlari haqida ma'lumot beradi. Unda ma'naviy yuksaklikka da'vat etish, odamlar o'rtasida mehr-oqibat tuyg'ularini mustahkamlashga oid fikrlar, ezgu g'oyalar, ma'budlar sha'niga aytilgan madhiyalar ham o'z ifodasini topgan.

Mamlakat inqirozining oldini olish uchun qabilalar o'rtasidagi ziddiyatlarga barham berib, umumiy manfaatlar mushtarakligini targ'ib qiluvchi, muayyan maqsadga qaratilgan izchil g'oyalar yaratish zarurati paydo bo'lgan. Bunday ta'limot, birinchidan, jamiyatning ijtimoiy barqarorligini saqlab qolish zarurati, ikkinchidan, urug' va qabila dinlaridan ustun turuvchi hamda ular manfaatlariga mos keladigan e'tiqod shaklini yaratish, uchinchidan, har qanday qonli urush va xunrezliklarga qarshi xalqlarni osoyishtalikka chaqirish, to'rtinchidan, davlat chegaralaridan tashqari ko'chmanchi chorvador qabilalar hujumiga qarshi mamlakat ichkarisidagi kuchlarni jipslashtiruvchi g'oyalar tizimini shakllantirish va bunday g'oyalar tizimi o'z davrining siyosiy mafkurasi bo'lishi lozim edi.

«Avesto» dunyodagi muqaddas kitoblar orasida eng nodir va bemisl kitobdir. U bir necha mingyillik davr mobaynida bashariyatning eng ezgu orzu-umidlarini, g'oyatda oliyjanob, ijobiy his-tuyg'ularini bedor etib, bepoyon hududlarda porloq ilohiy, ma'naviyat mash'ali bo'lib, insonlar qalbini ezgulik nuri bilan yoritib turdi.

Dunyoda hech bir muqaddas kitob dushmanlarning shiddatli qarshiliklariga «Avesto»chalik ko'p uchragan emas. U asrlar davomida

son-sanoqsiz zarbalarga duch keldi. Man etildi, olovga tashlandi. «Avesto»ning buyukligi va azimligi shunda ediki, u har safar taqdirning haybati va qudrati bilan yengib chiqadi. Uni yoddan bilgan xalq nasldan naslga o'tkazib, qaytadan kitob suratiga kiritar edi.

«Avesto» singari nodir madaniy yodgorliklar qanday g'oya va maqsadga xizmat qilmasin, ular o'z davridayoq umuminsoniy qadriyatga aylangan. Demak, ularni o'rganish, tadqiq qilish, o'qish va uqish zarur. Masalaning ikkinchi tomoni ham bor: insoniyat hamisha g'oyasi, mafkurasi va ta'limotidan qat'i nazar, taraqqiyotga xizmat qiladigan jihatlarni va omillarni o'rganadi. Unga ehtiyoj sezadi. Uni asrab-avaylaydi. Zotan, har qanday sivilizatsiyalar g'oyalar, mafkuralar va ta'limotlar to'qnashuvidan, ular orqali olamni anglash, idrok etishdan boshlanadi. Ana shu nuqtayi nazardan ham «Avesto»ning mustaqillik sharoitidagi ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy, falsafiy, tarixiy va mantiqiy ahamiyati katta.

«Avesto» o'zining ma'naviy-axloqiy qarashlari bilan bir necha ming yillik kishilik taraqqiyotida sivilizatsiyaviy ta'sir ko'rsatgan, butun borliq, mavjudot, jumladan, inson mohiyati bilan bog'liq bo'lgan buyuk qadriyat. U asotiriy-diniy qarashlarga asoslangan bo'lsa-da, tub mohiyati bilan dunyoviy tafakkurning noyob, o'ziga xos, barkamol majmuasi, fundamental qarashlarga asoslangan, qomusiy ahamiyatga ega bo'lgan buyuk yodgorlikdir. Zardushtiylik ta'limotining nodir majmuasi sifatida «Avesto» insoniyat tafakkurining genezisini, uning evolutsion tamoyillarini mantiqiy asoslab berganligi bilan qimmatli. Zardushtiylik falsafasi bevosita inson qalbi, his-tuyg'ulari, orzu-umidlarini ijtimoiy adolat va yuksak axloqiy me'yorlar asosida ifoda etadiki, bu o'z davrida mutlaqo yangicha qarashlar tizimi, inson mohiyatini tashkil etuvchi g'oya sifatida keskin burilish yasadi. Natijada insonning istiqbolga ishonchini mustahkamlaydigan, yangicha tafakkurni qaror toptiradigan, iroda quvvatini oshiradigan ma'naviy-ruhiy vositaga aylandi.

«Avesto» – Markaziy Osiyoning qadimgi zaminida buyuk madaniyat va ma'naviyat, yuksak ijtimoiy, axloqiy va huquqiy tamoyillar, gumanistik g'oyalar bilan sug'orilgan falsafa bo'lganligidan guvohlik beruvchi, tarixiy ma'naviy yodgorlik. «Avesto» – inson mehnati, axloqiy yuksakligi va insonparvarligining madhiyasi. Undagi inson barkamolligining ma'naviy mezoni sifatida zikr etilgan fikr, so'z va amal birligi axloqiy-estetik ideal ma'nosida hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

O'z davrining ilk jahon dini sifatida zardushtiylik va uning muqaddas kitobi «Avesto» boy insonparvar qadriyatlarni, olamning yaxlitligi, harakatda ekanligi, baxtli hayot qurish, jamiyatni adolatli boshqarish, insonning huquq va majburiyatlari, fikr va amallarining pokligi, ezgulikning yovuzlik ustidan g'alaba qozonishi, mehnatning zarurligi va foydaliligi, teran axloqiy g'oyalarni o'zida mujassamlashtirgan, ulardan jahon xalqlari ma'naviyati bahramand bo'lgan.

Zardushtiylik dini insoniyat tafakkurida keskin burilish yasagan, kishilik jamiyati mohiyatini anglash, tushunish va uni yangi mazmun bilan boyitishda o'ziga xos sivilizatsiyaviy hodisa sifatida dunyoga keldi. U insoniyat tarixida ilk marta ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, muhabbat va nafrat g'oyasini ilgari surib, o'z hududida insonni anglash, o'zini o'zi baholash konsepsiyasini ilgari surdi. O'rta Osiyo, Kavkaz, Eron, Hindiston hamda Kichik Osiyoda yashayotgan xalqlar hayotida tub burilish yasab, ularning ibtidoiy tafakkur tarziga chek qo'yib, keskin to'ntarish qildi. Butun mintaqa xalqlari taqdirini, taraqqiyot omillarini bir g'oya atrofida jipslashtirdi va o'zida ifoda etdi.

Zardushtiylik dinining Nizomi hisoblangan «Avesto» nodir va mahobatli madaniy yodgorlik sifatida o'z davrida yuksak mafkuraviy va ma'naviy maqomga ega bo'ldi. Shu bilan birga, u zardushtiylik dini hukmron bo'lgan makonda ilk marta ma'rifiy hodisa sifatida kishilik jamiyatiga madaniyat va ma'rifat, axloq va ma'naviyat kategoriyalarini ishlab chiqdi va amalda joriy etdi.

Odamlar qalbidagi ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik tuyg‘ularining o‘zaro kurashida yaxshilik tantanasi va ezgulik g‘olibligining ta’minlanishida odamlarga ma’naviy qudrat, ma’naviy rag‘bat, ruhiy da’vatkorlik vazifasini o‘taydi. Bu nafaqat zardushtiylikka daxldor bo‘lgan odamlarni, balki butun insoniyatni yaxshilik sari burishga, kishilik hayotida yuksak ma’naviyat va madaniyatning kirib kelishiga sabab bo‘ladi.

Zardushtiylik ta’limoti, birinchi navbatda, axloqiy va estetik ideallarning mushtarak birligiga asoslanadi. O‘z yakkaxudolik ta’limotidan ilhomlanib ketgan Zardusht axloqiy poklikni targ‘ib qila boshlaydi; «axloq tangrisini panteistik ruhda talqin qilgani uchun uning diniga olam go‘zalligi va tartibidagi estetik zavq olish belgisi ham kirib keldi va unga yerni, suvni, ilohiy olov va barcha hayot gulzorini iflos qilib qo‘ymaslik xavfi ham qo‘yildi. Har qanday jismoniy va ma’naviy ifloslik nafrat uyg‘otgan. Poklanish – ularning birinchi ibodati sanalgan. Zardushtiylarning ta’limoti ana shunday axloqiy-estetik xarakter kasb etgan».

Zardusht ta’limotiga qanchalik chuqur kirib borsak, unda inson go‘zalligi qanchalik yuksak axloqiy-estetik axloq nuqtayi nazaridan talqin etilganini ko‘ramiz. Inson fikri, so‘zi va ishi bilan go‘zaldir, degan g‘oya «Avesto»ning boshdan oxirigacha asosiy falsafiy-estetik g‘oya bo‘lib o‘tadi. Xuddi mana shu fazilatlarning mushtarakligi inson qalbi va amallarining go‘zalligini belgilaydi. So‘z Zardusht nazdida yaxshi fikr va ezgu amal ifodasidir. Shuning uchun ovozning shirinligi va mayinligi, she’rlarni chiroyli o‘qish va duolar tilovatida me’yorni saqlay olish inson estetik madaniyatining belgisi hisoblanadi.

Bundan uch ming yil avvalgi odamlar tasavvuridagi ilk aqliy va madaniy o‘zgarishlar bevosita «Avesto» orqali umuminsoniy qadriyatlar maqomini egalladi. Jumladan:

Birinchidan, «Avesto» turli qabilalar, guruhlar o‘rtasida mavjud bo‘lgan ko‘pxudolik hayot tarziga nuqta qo‘yib, yakkaxudo-

lik g‘oyasini ilgari surdi. Bu diniy ta’limotda inson qanday guruh, urug‘, qabila yoki irqqa mansub bo‘lmasin, yer yuzining qaysi hududida yashamasin, u yolg‘iz Allohning bandasi va yagona Alloh uning asraguvchisidir, degan g‘oyaga olib keldi. Yakkaxudolik orqali «Avesto» turli qabila va urug‘larni yagona e’tiqod, yagona maslak va yagona g‘oya orqali birlashtirib, umumiy manfaatlar atrofida jipslashishiga da’vat etdi.

Ikkinchidan, turli qabila va urug‘lar o‘rtasidagi azaliy nizolar, kelishmovchiliklar hamda manfaatlar to‘qnashuviga yakkaxudolik orqali chek qo‘yib, umumiy maqsadlar, umumiy g‘oyalar, yagona e’tiqod atrofida birlashishga olib keldi. Jamoa bo‘lib yashashga da’vat etdi. Natijada kishilik jamiyatining ilk shakllanish bosqichiga asos solib, boshqaruv tizimining vujudga kelishiga, dastlabki davlatchilik boshqaruvining shakllanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi.

Uchinchidan, «Avesto» odamlarni ezgulikka, yaxshilikka da’vat etuvchi ilohiy imdod, ruhiy va ma’naviy chaqiriq bo‘lib dunyoga keldi.

«Avesto» Markaziy Osiyo xalqlari ko‘p ming yillik tarixi mohiyatini o‘zida mujassam etgan. Uch ming yillik taraqqiyot yo‘li, kishilik jamiyati evolutsiyasi, uning rivojlanish qonuniyatlari bevosita «Avesto» g‘oyalari va qoidalari asosida takomillashdi. Turonzamin ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, madaniy-ma’naviy olami, o‘ziga xos beqiyos qadriyatlari ana shu mo‘tabar tarixiy-madaniy yodgorlikning mevasidir.

«Avesto» g‘oyalari haqida to‘xtalar ekanmiz, zardushtiylik falsafasiga ko‘ra yaxshilik va yomonlik kishilarning botinida – ichki dunyosida yashaydi. Inson Axriman yo Ahuramazda tarafida bo‘lishi mumkin, chunki ezgulik farishtasi uni hamisha yaxshilik qilishga, yovuz Axriman esa uni yomonlik qilishga undaydi va bu tortishuv kishi hayotining oxirgi damlarigacha davom etadi. Agar biz «Avesto»ni ulug‘ axloq kitobi desak, to‘g‘ri aytgan bo‘lamiz. Zardushtiylar yax-

shi so‘z, yaxshi amal va yaxshi andishani ilohiylashtirib, bu uch nom bilan atalgan muqaddas ruhlarga har kuni uch martadan ibodat qilar edilar. Bu dinda yolg‘on gapirish, birovni aldash kechirib bo‘lmas gunoh hisoblanadi. Zardusht aqidasiga ko‘ra inson zulmat ichida qolib, sargardon bo‘lmasligi uchun rostlik va haqiqat chirog‘ini qalbida yoqishi kerak. Ana shu tarzda Sharq fenomeni – yuksak axloq va odob, komillik va yetuklik, pokiza xayollar, ezguliklar va yaxshiliklar inson mohiyati bilan bog‘liq bo‘lgan omilga aylantirildi. Inson fe’l-atvori va munosabatlarini belgilaydigan ushbu o‘lchovlar Turonzamin xalqlari, jumladan, o‘zbeklar fe’l-atvorining shakllanishiga asos bo‘lgan.

1999-yil noyabr oyida bo‘lib o‘tgan YUNESKO Bosh konferensiyasi 30-sessiyasi «Avesto» yaratilganligining 2700 yilligini dunyo miqyosida nishonlash to‘g‘risidagi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 29-martda qabul qilingan qaroriga asosan, 2001-yil 3-noyabrda Xorazmda yubileyi munosabati bilan «Avesto» va uning insoniyat taraqqiyotidagi o‘rni» mavzusida Xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya o‘zbek xalqi ma’naviy hayotining yirik hodisalaridan biriga aylandi.

6.2. Qadimgi xalq og‘zaki ijodiyoti va yozma manbalarda ma’naviyat masalalari

Muayyan millat, elatning o‘ziga xos xususiyatlari, an’ana va urf-odatlari, qadriyatlari, dunyoqarashi, tafakkur tarzini shakllantiradigan ma’naviy asoslarini ifodalovchi tushuncha, ma’naviyatning, milliy asoslari millatning tarixi, taraqqiyoti va bugungi rivojlantirish darajasining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. O‘zbekiston xalqi o‘z ma’naviyatining milliy-etnik asoslarini, tarixiy va madaniy qadriyatlari va o‘ziga xos ijobiy an’analarini ming yillar mobaynida asrab-avaylab, boyitib kelmoqda. Ko‘p ming yillik tariximiz shundan

dalolat beradiki, eng murakkab davrlarda ham xalqimizning og‘ir sinovlardan o‘tishi, hayotning turli to‘fon va buhronlarga mardona dosh berib, qaddi-qomatini tik tutib yashashiga katta madad baxsh etadigan kuch – yuksak ma’naviyat va adolatga intilish tuyg‘usi bo‘lgan.

Xalqimiz hayot yo‘lini, merosini o‘rganar ekanmiz, ana shu ikki haqiqat bu jarayonning bosh mezoni bo‘lib kelganiga ishonch hosil qilamiz. Adolat tuyg‘usi, o‘z davrining huquqiy mezonlari asosida yashash, o‘zganing mol-mulkiga ko‘z olaytirmaslik, haromdan hazar qilish, insof va diyonat, mehr-oqibat kabi xalqimizga xos bo‘lgan ezgu tushunchalar bugungi kunda ham ma’naviy hayot asoslarini tashkil etadi. Turli etnos vakillariga hurmat, ular bilan bahamjihat yashash, dinlararo bag‘rikenglik, dunyoviy bilimlarga intilish, o‘zga xalqlarning ilg‘or tajribalar va madaniyatini o‘rganish kabi xususiyatlar ham xalqimizda azaldan mavjud.

Shu bilan birga, milliy xarakterga xos bo‘lgan fazilatlar, xalqimizning o‘ziga xos xususiyatlari o‘zbekona ma’naviyatning milliy asoslarini tashkil etadi. Qadimdan O‘zbekiston hududida asrlar davomida turli madaniyat va sivilizatsiyalar yonma-yon yashab kelgan, bu esa tinchliksevarlik, saxovat, mehr-oqibatlilik fazilatlari bilan ajralib turadigan o‘ziga xos mentalitetning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Bu nafaqat o‘ziga xoslik, balki ahamiyati va mohiyati jihatidan bebaho bo‘lgan g‘oyat katta boylikdir. Bir tomondan, xalqning o‘ziga xosligi va betakrorligini saqlash uchun, boshqa tarafdan, tarixan shakllangan qadimiy milliy madaniyatlar, san’at va xalq ijodiyoti, ming yillar mobaynida tarkib topgan milliy an’ana va urf-odatlarning o‘zaro yaqinlashuvi hamda bir-birini boyitishda O‘zbekistonda yashayotgan turli millat, elat vakillari o‘rtasida o‘zaro hamjihatlik va hurmat muhitini qaror toptirish uchun ochilayotgan imkoniyatlar yuksak ahamiyatga ega.

Qadimgi xalq og‘zaki ijodiyoti va yozma yodgorliklar Markaziy Osiyo xalqlari milliy ma’naviyatining takomil bosqichlari bu o‘lka

xalqlari madaniy taraqqiyot jarayoni bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ushbu sahnada yuz beruvchi hodisa sanaldi. Xalqimiz madaniy taraqqiyoti o‘ta murakkab tarixiy hodisalar majmuini tashkil etib, o‘z ichiga bir necha ming yilliklarni qamrab oladi. Ana shu murakkab va ko‘p ming yillik ma’naviy takomilimiz jarayonidan asosiy bo‘g‘inlarini ajratib olishimiz lozim. Busiz milliy ma’naviyatimiz rivojlanishi bosqichlari haqida fikr yuritib bo‘lmaydi.

Qadimgi O‘rta Osiyo aholisi yaratgan og‘zaki adabiyot yodgorliklari orasida qahramonlik eposi muhim o‘rin tutadi. Ularda xalqimizning chet el bosqinchilariga qarshi vatanparvarlik kurashi asosiy o‘rinni egallagan.

To‘maris – Turon xalqlarining ahomaniylar bosqiniga qarshi kurashiga rahbarlik qilgan jasur sarkarda. Qadimgi yunon tarixchisi Gerodotning «Tarix» asarida yozlishicha, Ahomaniylar davlati asoschisi Kir II miloddan avvalgi 530-yilda Turonga bostirib kirganida, To‘maris massagetlar qabilasining malikasi bo‘lgan. Massagetlar bu paytda Amudaryo (Araks) bo‘ylari va Qizilqumda yashagan. To‘maris massagetlar podshosining xotini bo‘lib, u erining vafotidan keyin davlatni boshqargan.

Eron shohi unga uylanish maqsadida o‘z sovchilarini yuborgan. Hukmdor unga uylanish orqali massagetlar podshohligiga erishmoqchi ekanligini anglagan To‘maris uni rad qiladi. Ayyorlik bilan ish bitira olmagan Kir II massagetlarga qarshi ochiq jangga otlanadi. Kir II qo‘shinlari o‘tishi uchun daryoga pontom ko‘priklarini qurdiradi, ko‘prik vazifasini bajaruvchi kemalarga minoralar o‘rnatmoqchi bo‘ladi. Uning qo‘shinlari bu kabi ishlar bilan band ekan, To‘maris Kir II ga: «Midiyaliklar podshohi, niyatingdan qayt. Oldindan nima bo‘lishini bilmaysan, bu ishlarni qoldirib, o‘z mulklaringda podshohlik qilaver, bizning yurtimizning hukmroni bo‘lish niyatidan qayt. Albatta, sen bunga rozi bo‘lmaysan, o‘z bilganingcha ish tutasan. Sen chindan ham massagetlarga qarshi kurashmoqchi bo‘lsang,

ko‘prik qurish ishlarini to‘xtat. Agar bizning yerimizga kirmoqchi bo‘lsang, biz tomonga o‘t, biz daryodan uch kunlik yo‘lga chekinib turamiz. O‘z yeringda urushmoqchi bo‘lsang, unda xabar ber», deydi. So‘ngra «Tarix»da Kir II ning mashvarat qilgani, massagetlar yeriga o‘tib, jang qilmoqchi bo‘lgani, To‘maris va’dasida turgani aytiladi. Bolalikdan bizga yod bo‘lib ketgan bu tarixdan massagetlar badiiy tafakkuriga oid ikki nuqtani ilg‘ash qiyin emas. Birinchisi, haqiqat va hiyla munosabati. Hiyla yo‘lini tutgan, buni o‘ziga odat qilib olgan Kir II halokatga mahkumdir. Ikkinchisi, ularning mast qiluvchi ichimlikka munosabati (massagetlar mast qiluvchi ichimlik ichmas, yovvoyi mevalarni yoqib, huzur qilishlarini eslang). Bu To‘maris so‘zlarida ko‘rinadi: «Ey qonxo‘r Kir! Uzum suvi ichganda siz eroniylar aqlingizni yo‘qotib qo‘yasizlar. May miyangizga urganda, siz mast-alast bo‘lib, og‘zingizdan noma’qul so‘zlarni chiqarasizlar».

Erondan kelgan bosqinchilar qo‘shini bilan massagetlar o‘rtasida shiddatli janglar bo‘lgan. Dastlabki jangda To‘marisning o‘g‘li Spargalis boshchiligidagi massagetlar g‘olib chiqqan. Biroq keyingi jangda forslar hiyla yo‘li bilan Spargalis va ayrim massagetlarni asir olishganda, or-nomusga chiday olmagan Spargalis o‘zini o‘ldirgan. To‘maris o‘g‘lining halokatidan esankirab qolmay, o‘z xalqining manfaatini o‘ylab, Kir II dan massagetlar yurtidan chiqib ketishini so‘raydi. Biroq forslar shohi rad javobini bergach, ikki o‘rtada ayovsiz jang bo‘lgan.

Gerodot massagetlar va forslar o‘rtasidagi jang tafsilotlarini o‘z asarida quyidagicha tasvirlaydi: «Mening bilishimcha, bu jang varvarlar o‘rtasidagi barcha janglardan ham dahshatli bo‘lgan. Avval har ikkala qo‘shin bir-biriga uzoq masofadan turib, kamondan o‘qqa tutganlar. Kamon o‘qlari tugagach, ular nayza va qilich bilan kurashganlar. Jang uzoq vaqt davom etgan. Ko‘p qon to‘kilgan. Nihoyat, massagetlar g‘alaba qozongan. Fors qo‘shinlarining asosiy qismi, jumladan, Kir II ham jang maydonida halok bo‘lgan. Kir II ning ja-

sadi topilgach, malikaning buyrug‘i bilan uning kesilgan boshi inson qoni bilan to‘lg‘azilgan meshga solingan».

To‘marisning ma’naviy jasorati va harbiy-siyosiy faoliyati to‘g‘risida xalq dostonlari yaratildi, jangnoma va rivoyatlar to‘qildi. Ergash Jumanbulbul o‘g‘lidan Hodi Zaripov yozib olgan «Oysuluv» dostonida Turon mamlakatining podshosi Oysuluv obrazida To‘maris faoliyati o‘zining badiiy talqinini topgan. Yozuvchi Mirkarim Osim «To‘maris» qissasida uning jasoratini ulug‘laydi. Ibrohim Yusupov «To‘maris» dostonida millatimizning ayollaridan bo‘lgan davlat arbobini va mohir sarkardasini yuksak badiiy mahorat bilan ifodalagan.

Shoir jasur To‘maris haqida:

«Sening jasorating g‘animlar uchun
Bir saboq bo‘lajak, bo‘lajak ibrat.
Qalbingdagi o‘g‘ling va vatan qasdi
Seni g‘alabaga yetkazdi faqat...». –

deb yozganida, uning yuksak ma’naviy jasoratini ulug‘lagan.

Ma’naviyat insonni eng buyuk jasoratlarga qodir, vatanparvar va vatansevar qilib, ulkan muvaffaqiyatlarga safarbar etadi.

Shiroq – Turon xalqlarining ahomaniylar podshosi Doro I bosqiniga qarshi kurashgan xalq qahramoni. Miloddan avvalgi VI asr boshlarida Eron shohi Doro I qo‘shini Turon hududiga bostirib kirgan. Yunon tarixchisi va notig‘i Poliyenning 8 kitobdan iborat «Harbiy hiylalar» («Strategmalar») asarida ilk marta Shiroq jasorati tilga olingan. Poliyenning yozishicha, Sak qabilalari oqsoqollari Sakfar, Omarg va Oamiris fors qo‘shinini yengish uchun harbiy kengash (qurultoy) o‘tkazayotganda, ularning huzuriga oddiy otboqar Shiroq kelib, o‘z rejasini bayon qiladi. Rejaga ko‘ra, Shiroq o‘z qabilasi manfaatini himoya qilib, harbiy hiyla ishlatgan va yolg‘iz o‘zi Doro I lashkariga qarshi turgan.

Shiroq Doro I qarorgohiga kelib, unga qabiladoshlari nohaq sitam yetkazganligi uchun (uning burni va quloqlari kesilgan edi) u Eron

qo‘shinini Saklar qabilasi turgan yerga qisqa yo‘l bilan olib borishini aytib, dushman qo‘shinini Qizilqum cho‘li ichkarisiga boshlaydi, Eron qo‘shini «yo‘lboshlovchi»ning maslahati bilan faqat yetti kunga yetadigan suv, oziq-ovqat va yem-xashak olgan edi. Jazirama issiqda cho‘lni kesib o‘tayotgan dushman qo‘shini holdan toyib, oziq-ovqati ham tugaydi. Nihoyat, muhlatning yettinchi kunida dushman qo‘shini aldanganini payqaydi. Shiroq atrofini qurshab olgan shoh Doro I va uning sarkardalariga qarata quyidagi so‘zlarni aytgan: «Men yolg‘iz o‘zim Doro qo‘shinini yengdim. Sizlarni aldab, cho‘lning qoq o‘rtasiga olib keldim. Xohlagan tomoningizga ketishingiz mumkin, vohagacha to‘rt tomoningiz ham yetti kunlik yo‘l!»

Dahshatga tushgan shoh va uning sarkardalari Shiroqqa yolvorib, unga suvsiz cho‘ldan olib chiqishi uchun katta boylik va’da qilishadi. Shiroq vatan ozodligi yo‘lida jon fido qilishini aytgach, Doro I ning sarkardasi Ranosbat uni qilich bilan chopib tashlaydi. Qo‘shinning asosiy qismi suvsizlik va ochlikdan Qizilqum cho‘lida qirilib ketgan. Faqat Doro I va uning oz sonli a’yonlari yomg‘ir yog‘ishi natijasida halokatdan qutulib, Baqtriya (Amudaryo) daryosi qirg‘og‘igacha yetib kelishgan. Shiroqning buyuk jasorati, tadbirkorligi, vatanparvarligi va elparvarlik fazilatlari o‘z qabilasining manfaatlarini himoya qilib chiqdi. U o‘zi halok bo‘lsa-da, yurtdoshlarini, vatanini katta bir ofatdan saqlab qoldi. Ona Vatanining taqdiri, vatan mudofaasi, bosqinchilarga qaqshatqich zarba berish, ularni o‘z yurtidan surib chiqarish, mardlik ko‘rsatish uchun inson buyuk ma’naviy jasorat sohibi bo‘lmog‘i zarur.

Shiroqning jasorati haqida turkiy xalqlar o‘rtasida jangnoma va rivoyatlar yaratildi. U turkiy xalqlarga qo‘shni boshqa hududlardagi xalq og‘zaki ijodiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Yozuvchi Mirkarim Osim «Shiroq» qissasida va shoir Usmon Qo‘chqor «Shiroq» dostonida vatanparvarlik va jasorat, vatan va o‘z xalqi baxt-saodati yo‘lida fidoyilik qilishga shay, tayyor turish kabi yuksak ma’naviylik Sak qabilasining cho‘poni Shiroq timsolida gavdalangan.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodiyoti janr rang-barangligi, yaratilishi jihatdan qadimiyligi, g‘oyaviy, badiiy yuksakligi, adabiy merosiga munosib hissa bo‘lib qo‘shiluvchi go‘zal asarlarga boyligi bilan alohida ajralib turadi. Qadimgi ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan bebaho og‘zaki badiiy meros klassik adabiyot, me’morlik san’ati va musiqa asarlari kabi bahosiz obidalar qatoridan o‘rin oladi. Qadimgi O‘rta Osiyo xalqlarining yorqin dostonlari xoh mazmun va xoh shakl jihatdan qadimgi epik adabiyotning yodnomasi bo‘lgan greklarning «Illiada», «Odisseya» nomli qahramonlik eposidan sira qolishmaydi.

Xalq ijodi deganda, bevosita ko‘z o‘ngimizda ota-bobolarimizdan bizga meros bo‘lib kelayotgan, millatimizning tarixi, buguni va kelajagini o‘zida mujassam etgan «Alpomish», «Go‘ro‘g‘li», «Rustamxon», «Kuntug‘mish», «Orzigul», «Qironxon» kabi muazzam dostonlar, purma’no ertaklar, maqol-matallar, hassos va o‘ynoqi xalq qo‘shiqlari, afsona-yu rivoyatlar namoyon bo‘ladi. Avloddan-avlodga og‘zaki tarzda o‘tib kelayotgan bu tafakkur durdonalari milliy ma’naviyatimizning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Xalq og‘zaki ijodi muttasil harakatdagi uzluksiz jarayon bo‘lib, millat o‘z milliy ma’naviyatini yillar, asrlar davomida yuksaltirib, boyitib boradi. Ularda qo‘yilgan yuksak insoniy tuyg‘ular, ilgari surilgan ezgu g‘oyalar barcha zamonlarda kishilarni yaxshi amallar, bunyodkorlik ishlariga ilhomlantirib kelgan.

Bu asarlarning umrboqiyligi, ommabopligi, ularda mehnatkash xalq ijtimoiy xayoloti, hayoti, ruhiy-ma’naviy ehtiyojlarining yuksak badiiy talqinida ifoda etilganidadir. Ijtimoiy hayot taqozosi, shuningdek, kishilarda paydo bo‘lgan oliyjanob orzu-umidlar ishlab chiqarish munosabatlarining o‘sib borishi natijasida, tafakkur va tushunchalarning yanada takomillashib, oila qurish uchun kurash, or-nomusi uchun talashish, tabiat ofatlari, tashqi bosqinchilarga qarshi kurash qahramonlik eposi yaratilishining asosiy zamini bo‘lib hisoblanadi. Faol yaratuvchanlik va san’atkorlik xususiyatlariga ega bo‘lgan

o'zbek xalqining qahramonlik eposini yaratib, maroq bilan kuylashida san'atning ko'pgina turlari, chunonchi, musiqa, raqs, voizxonlik, ijrochilik muhim rol o'ynadi. Eposga xos bu sinkretik xususiyat, uni san'atning murakkab va badiiy yetuk turiga aylantirdi.

O'zbek qahramonlik eposida ifoda etilgan xalqona g'oyalar va qahramonlar (odil hukmdor, ozodlik, o'lka haqidagi orzular, munosib yor uchun kurash, mustaqillikka erishish istagi) ilg'or ijtimoiy ehtiyojlar va bu yo'lda qahramonning turli-tuman sarguzashtlarini tasvirlash mahorati ishqiy-romantik hamda ishqiy-qahramonlik dostonlarining yaratilishi va takomillashuvida faol ta'sir ko'rsatilganligi shubhasizdir. Bunday dostonlarda erkin hayot va mehnat, sevgi va vafo, oila erkinligi va mustaqilligi, ota-onaga hurmat va sadoqat, do'stlik va inoqlik, yurt sevgisi, insonlar o'rtasidagi tenglik va zulmga qarshi kurash kabi barcha davrlar uchun zarur bo'lgan mavzular kuylanib kelinadi. Shuningdek, jaholat, zulm-istibdod, adolatsizlikka qarshi kurash, erkparvarlik va adolat kabi ijtimoiy-siyosiy g'oyalar voqea-hodisalarning xalq tafakkuri, dunyoqarashi asosida betakror obrazlar, rang-barang tasviriy vositalarda tarannum ettirilishi bu asarlarni ommalashtirgan omillardir.

Darhaqiqat, «Alpomish» dostoni qon-qardosh turkiy xalqlar, shu jumladan o'zbeklar orasida qadim-qadim zamonlarda xalq donoligi-yu, baxshi shoirlar zukkoligi, katta talant-iste'dodlari tufayli yaratilgan. Ayni chog'da ushbu doston asrlar davomida avlod-ajdodlar, birinchi navbatda, yoshlarning ma'naviyati, madaniyati, axloq-odobi, ulardagi Vatan, milliy tuyg'ularini o'stirish, shuningdek, do'st-birodarlik, oriyat, mardlik, bahodirlik, pahlavonlik, qat'iyatlik fazilatlarini shakllantirish va kamolga yetkazishda muhim tarbiya vositasi bo'lib kelganligi ko'hna tariximizdan ayon.

«Alpomish» dostoni ota-bobolarimiz ijodiy dahosining bebaho badiiy yodgorligi, jahon xalqlari epik ijodiyoti namunalari ichida alohida o'rin tutuvchi, mustaqil rivojlanishimiz davrida millatimiz

birligi va ma'naviy uyg'onishi, milliy g'urur, iftixor va o'z-o'zini anglash ramzidir. Zero, ushbu doston yaratilganligining 1000 yillik to'yini xalqaro nufuzli tashkilot YUNESKOning 1999-yildagi tadbirlari rejasiga kiritilganligi va jahon miqyosida keng nishonlanishi bejiz emas, albatta.

«Alpomish» – o'zbek xalq qahramonlik dostoni dunyo estetik tafakkuri tarixida kamdan-kam uchraydigan favqulodda va noyob badiiy hodisalardan biridir. Uning favqulodda va noyobligi shundaki, qadimda yaratilgan bu ulkan epos baxshilar tomonidan asrlar davomida kuylanib, jonli epik an'analarda og'zaki ravishda bizgacha yetib kelgan. Shuning uchun ham u bugungi kunda qadimiyatning buyuk bir ehsoni, o'zi yaratilgan diyorning umumiy dunyoqarashi, ayni paytda jonli an'anaviy ijod va ijro sharoitlarida xalq ommasi ruhining obyektiv holatini davrlararo ifodalab, mazmun va shakl jihatdan goh kengayib, goh torayib, ko'plab variantlarda va xilma-xil ko'rinishlarda ajdodlardan avlodlarga yetib kelgan adabiy yodgorlik, xalq milliy tarixidagi qahramonlik voqealarining afsonalar qobig'iga o'ralgan o'ziga xos badiiy ifodasi, buyuk epos sifatida baholanadi.

«Alpomish» dostoni bundan ming yil oldin turkiy xalqlarning qadimgi dostonchilik an'analari asosida xalq og'zaki ijodi namunasi sifatida yaxlit doston shaklini olgan bo'lsa-da, aslida «Alpomish» dostonining eng qadimgi qatlamlari miloddan avvalgi yuz yilliklarda yurtimizda kechgan jarayonlarning badiiy talqinini o'zida aks ettirgan. Qo'ng'irot qabilasining turli hududlarga siljishi va ularning yangidan shakllanayotgan xalqlar tarkibiga kira borishi natijasida doston boshqa urug' va elatlarga ham o'tib, ularning epik an'analari asosida qayta ishlana borib, juda keng tarqaldi va nihoyat, uning yaratilishida ota-bobolari ishtirok etgan har bir xalqning o'z eposiga aylandi. O'zbeklar «Alpomish», qoraqalpoqlar «Aldamis», qozoqlar «Alpamis batir», oltoyliklar «Alip-Manash», qozon tatarlari «Alpamsha», boshqirdlar «Alpamisha va Barsin huluu» deb nomlaganlar.

«Alpomish» dostonining og‘zaki epik an’analari bizgacha yetib kelgan nusxalari IX – X asrlarda yaratilgan. Ammo bunday xulosa dostonga asos sujet va yetakchi motivlarning mifologik va tarixiy-hayotiy ildizlari qadimgi davrlarga – miloddan avvalgi zamonlarga taqalishini inkor etmaydi! Doston sujet tarkibida islomgacha bo‘lgan qarashlar va mifologik qatlam mavjud. Undagi mifologik qatlam esa, qadimgi turmush tarzining badiiylashtirilgan va ideallashtirilgan ko‘rinishlaridir. «Alpomish» nusxalari 1922-yildan yozib olina boshlangan. Hozirgacha Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Muhammadqul Jonmurod o‘g‘li Po‘lkan, Saidmurod Panoh o‘g‘li, Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li, Mardonqul Avliyoqul o‘g‘li, Abdulla Nurali o‘g‘li, Rahmatulla Yusuf o‘g‘li, Qodir Rahim o‘g‘li kabi o‘ttizdan ortiq dostonchilardan qirqqa yaqin nusxalar yozib olingan. Bu nusxalar orasida eng mukammali, badiiy jihatdan eng yuksagi Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lidan yozib olingani hisoblanadi.

Doston qo‘ng‘irot urug‘i boshliqlari – aka-uka Boybo‘ri va Boysarining farzandsizligi tasviri bilan boshlanadi. Unda Alpomish, Barchin, Qaldirg‘ochlarning bir kunda tug‘ilishi, Barchinning Alpomishga beshikkerti qilinishi, Boysarining Boybo‘ridan arazlab o‘n ming uyli elat bilan qalmoq eliga ko‘chishi, qahramonning yorini olib kelish uchun o‘zga mamlakatga safari, Qorajon bilan do‘st tutinib, Barchinning shartlarini bajarishi va yorini olib o‘z yurtiga qaytishi, keyin yana yetti yil tutqunda qolishi, zindondan oti Boychibor yordamida qutulib, o‘z eliga umr yo‘ldoshi Barchinning zo‘ravon Ultontoz bilan bo‘layotgan majburiy to‘yi ustiga kelishi va raqibini yengib, murod-maqsadiga erishish voqealari juda qiziqarli, eposga xos rang-barang badiiy bo‘yoqlarda tasvirlangan. Alpomish, Qorajon, Qultoy va Yodgorlarning o‘zaro munosabatlari, hatto qahramonning oti Boychibor bilan, enchi harvona tuya bilan munosabati tasvirda jamiyat taraqqiyotining dostonda tasvirlangan bosqichiga xos oliyjanob soddalik, ulug‘vor vazminlik, pat-

riarxal insoniylik, bolalarcha beg‘ubor samimiylik g‘oyatda go‘zal mujassamlashgan. «Alpomish» dostoni badiiy barkamol asar. Unda o‘zbek xalqi she’riy dahosining buyuk qudrati to‘laligicha namoyon bo‘lgan.

Bu durdonalarda zahmatkash, bag‘rikeng, tanti va zukko xalqimizning shonli tarixini emas, o‘y-fikrlari, ezgu qadriyatlari va boy an’analari, urf-odatlari, erk va ozodlik hamda farovon hayot uchun kurashlari, himmati va mardligi, qo‘yingki, butun borlig‘i o‘zining yuksak badiiy talqinini topgan bo‘lib, mazkur asarlar yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik, o‘zi tug‘ilib o‘sgan tuproqqa muhabbat va o‘zini voyaga yetkazgan xalqqa sadoqat, haqiqat va halollik, mehr va muruvvat, bag‘rikenglik va kechirimlik, sabr-u qanoat, xayr-u saxovat ruhida tarbiyalaydi, qalblariga ezgulik urug‘ini qadab, insoniy kamolot yo‘liga da’vat etadi.

6.3. Navro‘z – yangilanish va mo‘tabar orzular bayrami

Istiqlol yillarida milliy o‘zlikni anglash, bebaho madaniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va rivojlantirish jarayonida Navro‘z bayramini yangicha ma’no-mazmun bilan boyitishga, uning zamiridagi ezgu an’analarni xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodga to‘g‘ri yetkazish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Har qanday g‘araz, ginalar va nizolardan voz kechib, tinch va osoyishta hayotning qadriga yetish, ahillik va birdamlik, elatlar orasida o‘zaro hurmat va hamjihatlik naqadar bebaho boylik ekanini ulug‘lashi bilan Navro‘z bayrami xalqimizning qarashlariga g‘oyat hamohangdir.

Buyuk mutafakkir Umar Xayyom qayd etganidek:

Gul uzra ko‘klamning shabnami yaxshi,
Chamanda yuz ochgan hamdami yaxshi.
Yaxshimas kechagi kundan so‘z ochmoq,
Quvonib qol, bu kunning har dami yaxshi.

Navro‘z insoniyatning murakkab hayot yo‘lidagi diniy dunyoqarashlar va siyosiy o‘zgarishlarga qaramay, unga azaldan muttasil hamrohlik qilib kelayotgan ulug‘ bayramlar sirasiga kiradi.

Bashariyat tarixida tabiatning bahoriy uyg‘onish bayrami Navro‘zdan ham qadimiyroq bayramni topish amrimahol. Uning ildizi neolit asriga borib taqaladi, bu davrda insoniyat iste’mol davridan (yovvoyi donli o‘simliklar va mevalarni to‘plash, ov qilish) million yil keyin bu ekinlarni o‘zlashtira boshladi. Dehqonchilik va yer sug‘orishga insoniyatni tabiiy hodisalardan va yil fasllari almashuvi bilan bog‘liq tegishli taqvimiy aylanishlarni olib keldi. Shunga hamohang ravishda dehqonchilik odatlari, turli xildagi dehqon xalq bayramlari yuzaga keldiki, ular mifologiya bilan uzviy bog‘lanib ketgan. Bu esa, ibtidoiy jamoa turmushida dunyoni anglashning asosiy usuli bo‘lib, inson o‘z atrofini qurshab turgan tabiatni ana shu tariqa his qilishni o‘rgangan.

Yurtimizning tabiiy iqlim sharoiti – daryolar suvining mo‘l bo‘lishi, quyosh haroratining hosil yetilishi uchun yetarli darajada ekani, tuproqning unumdorligi ona diyorimizda qadimdan sug‘orma dehqonchilik shakllanishi va taraqqiy etishi uchun qulay imkoniyatlarni yuzaga keltirgan. Serhosil vodiylarda kelib chiqqan dehqonchilik madaniyati, an’analari ekin ekish, uni parvarishlash va hosilni o‘z vaqtida yig‘ib-terib olish muddatlarini aniq belgilashga asoslangan. Bu yil fasllari almashinuvi hamda oy va quyosh harakatini muttasil kuzatishni, muayyan vaqt hisobi amallarini qo‘llashni taqozo etar edi. Binobarin, ajdodlarimizning vaqt hisobini yurgizish bilan aloqador an’analari, osmon jismlari harakati va tabiat hodisalarini muttasil kuzatishga asoslangan hayotiy tajribalari Navro‘z bayramining kelib chiqishiga asos bo‘lgan.

Shoirlar shohi tojini kiygan Abulqosim Firdavsiyning «Shohnoma», buyuk alloma Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», mutafakkir bobokalonimiz Mahmud Koshg‘ari-

yning «Devon-u lug'otit-turk», buyuk astronom va faylasuf, shoir Umar Xayyomning «Navro'znoma», nuktadon san'at sohibi Xoja Ali Termiziyning «Navro'znoma», malikul kalom, benazir shoir Mavlono Lutfiyning go'zal dostoni «Gul va Navro'z», she'riyat sultoni Alisher Navoiyning «Tarixi mulki Ajam» va «Farhod va Shirin» asarlarida bitilgan Navro'z haqidagi qimmatli fikrlari bilan tanishgan yoshlarimiz bu bayramning qanchalik uzoq tarixga ega ekanligidan voqif bo'ladi.

Navro'zni bayram qilish Markaziy Osiyoda qadim davrlarda tarkib topgan an'anadir. U insoniyatning ilk taraqqiyot bosqichlarida shakllana boshlagan ma'lum udum, urf-odatlari, kundalik turmush ehtiyojlari atrof-muhit, tabiat omillari bilan munosabatlari zaminida vujudga kelgan. Asrlar o'tishi bilan bu urf-odatlar mamlakatlar, xalqlar o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalar rivojlanishi zamirida keng yoyila borgan, mazmunan boyigan hamda ma'lum o'lkalar doirasida tarqalgan mustahkam an'anaga aylangan.

Abu Rayhon Beruniy «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida Navro'z tarixi haqida shunday yozadi: «Eron olimlarining ba'zisi: u kunni Navro'z deb atashning sababi shuki, Jamshid (Abulqosim Firdavsiy «Shohnoma»sida keltirilishicha, qadimgi Eron podshohlaridan biri, u o'z saltanati davrida ijobiy tadbirlar joriy etganmish; jumladan, davlat tuzgan, odamlarni tabaqalarga ajratgan, kiyim kiyishga o'rgatgan, deyiladi) podshoh bo'lgach, majusiylar dinini (otashparastlikni) yangiladi va bu ish qilingan kun «Navro'z» – yangi kun», deb ataladi.

Ushbu mavzuga oid, Jamshid saltanati bilan bog'liq yana bir rivoyatda Abu Rayhon Beruniy quyidagilarni yozadi: «Jamshid o'ziga arava yasatib olgach, o'sha kuni aravaga chiqib oldi, jinlar va shaytonlar uni havoga ko'tarib, bir kunda Dunbovanddan (Damovichya tog'i) Bobilga olib bordilar. Odamlar bu ajoyib voqeani ko'rgach, o'sha kunni hayit qildilar va Jamshidning (aravada uchishiga) taqlid

qilib, arg‘imchoqlarda uchdilar». Bu rivoyat mashhur shoir Abulqosim Firdavsiyning «Shohnoma»sida ham nazm etilgan. Jamshid podsholik saltanatining ravnaqini ta’riflar ekan, shoir quyidagi misralarni keltiradi:

Ishlari gurillab berganda meva,
Yana ulug‘likni ayladi jeva.
Bitta taxt qurdirdi bari siym-u zar,
Shukuh-u Kayoniy, bezagi gavhar.
«Dev ko‘tarib uchsin» deb bo‘ldi farmon,
Taxt ko‘tarilganda past bo‘ldi osmon.
Farmondor o‘tirar unda irg‘ab bosh,
Barcha jim, odamlar qarar taxtga,
Jahon qoyil bo‘lib shukuh baxtiga.
Shu kunni yangi yil – bayram deyishar.
Yil boshi hurmuz-u edi farvardin,
Dilda na g‘am qoldi, na adovat, kin.

Navro‘z asrlar davomida kishilar turmush tarziga singib ketgan an’ana. Navro‘z so‘zi shaxs ismi (Navro‘z, Gulro‘z), o‘simlik nomi (Navro‘zgul), kuy (Navro‘zi buzurg) va joy nomlari (Navro‘z buloq, Navro‘zsoy, Navro‘ztepa)da aks etgan. Navro‘z kalendar udumlari jumlasiga kiradi. Navro‘z – dehqonchilik bayrami. Navro‘z – geografik bayram. Bu tushunchalar bir-biriga yaqin, bir-birini to‘ldiradi va insonning tabiat bilan munosabati omilidan kelib chiqqan.

Umar Xayomning «Navro‘znoma» risolasi uning tarixni, etnografiyani, xalq urf-odatlarini juda mukammal bilganligidan dalolat beradi. Mutafakkirning bu asari Malikshoh va Nizom-ul-mulk vafotidan keyin yaratildi. Buning o‘z sabablari bor. Binobarin, Malikshoh bilan Nizom-ul-mulk Umar Xayyom va bir qancha olimlarni rasadxona qurishga va rasadxonada astronomiya fanini rivojlantirishga taklif etadilar. Shoh va vazir rasadxona qurilishi uchun juda ko‘p mablag‘ ajratadilar, olimlarning ta’minotini yaxshilaydilar. Ammo rasadxona ikki davlat arbobining o‘limidan so‘ng bitmay qoladi. Nazarimizda,

Umar Xayyom Malikshoh vorislarini shu rasadxonani bitirish ishiga da'vat qilish maqsadida «Navro'znoma»ni yozgan hamda unda burungi o'tgan podsholarning olimlarga qilgan homiyliklarini ataylab ishora tarzida aytgan.

Biz bu risolada Navro'z bayrami bilan bog'liq bo'lgan juda ko'p odatlar, predmetlar, afsonalarga duch kelamiz. Hozirgi zamonda o'tayotgan Navro'z bayrami bilan Umar Xayyom tasvir qilayotgan davrdagi Navro'z bayrami orasida katta farqlar mavjudligidan hayron bo'lamiz. Durust zamonda qilichbozlik, tirandozlik, chavandozlik kabi odatlar deyarli yo'q, ammo risola bu odatlar haqida ma'lum darajada o'ylab ko'rishga da'vat etadi. Atom va kosmos asrida yashasak-da, o'sha go'zal odatlarni qo'msagimiz keladi, jiyron, qorabayir otlarimizning kishnashlarini sog'inamiz.

Alisher Navoiy «Tarixi mulki Ajam» («Eron podshohlari tarixi») asarida shoh Jamshid haqida so'zlab, u «Husn-u jamolda dilnazir va fazl-u kamolda benazr» bo'lganligini, saltanat taxtiga o'tirgach, Jahon mulkini adl va insof bila tuzgan»ligini maxsus qayd etadi. Jamshidning «G'arib ixtirolari» jumlasida ip va ipak matolarni to'qish ishlarini arog'a kiyurgani»ni, shahar va qishloqlar barpo etganini, muhtasham binolar qurdirganini maqtov ruhida bitadi. Shunday imoratlardan biri «Chihil minor» deb atalgan. «Chun bu imorat tugandi, – deb yozadi Alisher Navoiy, – anda jashi (bayram, to'y-tomosha) qildi. Ul vaqtekim, quyosh nuqtayi e'tidoli rabiiyg'a (bahorda kecha-kunduz teng bo'lgan kun) tahvil (bir holat joydan ikkinchi holat joyga o'tish) qilib erdi-ul binoan binoda taxt ustida o'lturub, adolat savtu savdosin olamga muntashir (tarqatish, yoyish) qildi va ul kunning otin Navro'z qo'ydi».

Ko'rinadaki, Alisher Navoiy Navro'zni, birinchidan, kecha va kunduzning bahorgi teng kelish kuni («E'tidoli rabiiy») deb ilmiy asoslangan haqiqatni ta'kidlamoqda, ikkinchidan, Navro'zni bayram sifatida tantanavor nishonlash odatining qadim-qadimdan – yarim afsonaviy shoh Jamshid zamonidan boshlanganini qayd etmoqda.

Navro‘z bayramining boshida rizq-ro‘z va hosil sarkori Bobodehqon turadi. Dehqonbobo bahoriy rangga nisbat berib, yashil chopon kiyadi. Yashillik, yalpizlar, sabzalar, boychechaklar, lolalar, anvoyi gullar malikasi bo‘lmish Bahorqiz (Bahoroy, Bahorxon) Dehqonbobo-boning munosib nabirasidir. Bunda Dehqonbobo mehnatkash va ijodkor erkaklar (bobolar va otalar, akalar va ukalar) ramzi bo‘lsa, Bahorxon pokdomon, zahmatkash, zakovatpesha va san’atkor momolarimiz, onalarimiz, opalarimiz, vafodor mahbubalarimiz va mehribon qizlarimiz obrazidir. Chindan ham, shoirlar ilhomining bahorda mavj urishi bejiz emas-da! Mavlono Furqat yozganidek:

Bahor ayyomida gulgasht etarga bir chaman bo‘lsa,
Qilurga sharhi hol, ahli muhabbat ikki tan bo‘lsa.

Kishi to‘bit kavsar, jannat-u rivozvonni ne qilsun,
Jahon ayvonida hosil bu yanglig‘ anjuman bo‘lsa?!

Ko‘rinib turibdiki, Mavlono Furqat ham Navro‘zi olam nafosatini diniy an’analarda olg‘a surilgan jannat-u rizvon nafosatidan afzal, deb kuylayapti. Navro‘z bayrami Zebuniso, Nodirabegim, Uvaysiy, Mahzuna, Dilshod Barno, Anbar Otinlar uchun, ya’ni muhtarama Bahorxonlar uchun qanday ardoqli bo‘lsa, Bobodehqonlar – erkaklar uchun ham shunday bebahodir.

Navro‘z marosimidan Dehqonbobolar, ya’ni Navoiylar, Boburlar, Mashrablar, Muqimiylar, Furqatlar, endilikda esa, bizga zamondosh shoirlar boqiy ilhom olmoqdalar. Zero, Navro‘zi olam faqat bahor bayramigina emas, ayni chog‘da u tabiat va mehnat, sport va ijodkorlik, odamiylik va mehmondo‘stlik, do‘stlik va totuvlik, ezgulik va mehribonlik, go‘zallik va nafosat, shafqat va san’at bayrami hamdir. O‘tmishda ham, hozirda ham xalqning ilg‘or urf-odatlariga diniy tus berib, ularni din mulkiga aylantirishga urinish mutanosib va ustamon shaxslarning mafkura maydonidagi o‘ziga xos usullaridandir. Navro‘z bayrami biror bir diniy tadbir emas, balki hazil-mutoyibalar,

beg‘ubor shodlik, sho‘x qo‘shiqlar, gulxan yoqib atrofida raqsga tushish, boychechak terish, gul sayli, kurash, chavandozlik, uloq, sumalak pishirish, mehmondo‘stlik singari xalq estetik va badiiy faoliyatidir. Shak-shubhasizki, Navro‘z bayrami hech qachon, hatto qadimda ham, o‘rta asrlarda ham diniy tusga kirmagan.

Bir ayolning eri janggohlarda qurbon bo‘lganidan so‘ng, u yetti nafar farzandi bilan qoladi. Ochlik va benavolik ularning madorini kundan kunga qurita boshlaydi. Yillik tejagan oziq-ovqatlari ham nihoyasiga yetadi. Uydan hattoki bir parcha qotgan non u yoqda tursin, bir siqim un ham topish amrimahol edi. Ona sandiqni ochib qarasa, bir kaft bug‘doy sochilib qolgan ekan. O‘shani avaylab-asrab, avval pishirmoqchi bo‘libdi. So‘ng keyingi kunlarni o‘ylab, bug‘doyni bir parcha yerga sepibdi. Bolalar har kuni yerdan bug‘doy unib chiqishini orziqib kutishar, onalariga biror narsa deyishga botina olishmabdi. Nihoyat, yer betini yam-yashil maysalar qoplay boshlabdi. Bolalarning shodligi yer-u ko‘kka sig‘masdi. Ammo bu maysalar o‘sib, bug‘doy bo‘lib pishishi uchun hali qancha kun, qancha oy o‘tishini ular bilishmasdi. Ochlikdan madori qurigan kenjatoy ko‘rpa-yostiq qilib yotib qolibdi. Ona boshqa hech qanday iloji bo‘lmagach, ilhaq bolalarini o‘ylab, o‘sha sabza maysani maydalab qozonni suvga to‘ldirib, sabzani pishirishga kirishibdi. Tinka-madori qurigan bolalar har vaqt-har vaqt boshlarini ko‘tarib, «non» deganlarida ona bir marta qozonni kavlab qo‘yar, bolalarini biron yumush bilan band qilish uchun tosh terib kelishini buyuribdi. Yetti bola yettita tosh olib kelibdilar. Ona bu toshlar xosiyatli, ovqatni shirin qiladi, deb, maysa qaynayotgan qozonga tashlabdi.

Tun yarmidan oqqanda bolalar horib-charchab uxlab qolishibdi. Tongga yaqin ona ham kavlashdan charchab, qozonning qopqog‘ini yaxshilab yopib, dimlabdi-da, bolalarining yoniga yonboshlab uyquga ketibdi. Ertalab onaizor bolalarining shovqinidan uyg‘onib qarasa, bolalari qozonga qo‘lchalarini tiqib, nimanidir yalashayotganmish.

Mo'jiza ro'y berganidan ko'zlariga ishonmagan onaizorning o'ziyam jimjilog'i bilan qozondagi taomdan yalab ko'rsa, juda mazali ekan. U shunday shirin ediki, hidi juda yoqimli, o'zi to'yimli, mazasi esa uzoq vaqt yodda qoladigan ekan.

Shunda bolalari: – Ona, bu ovqatingizning nomi nima? – deb so'rashgan ekan, onaizor qozon to'la qizg'ish shirinlikni bolalari tez-tez barmoqlari bilan yalayotganliklariga qarab turib:

– Bolalarim, bu maloyikalarning karomati bilan pishdi. Uning oti sermalak, – debdi. Bu so'z keyinchalik «sumalak» bo'lib o'zgarib ketgan ekan.

Shu tariqa sumalak pishirish udumi paydo bo'libdi. Bu taom xalq o'rtasida keng tarqalib, bahorning lazzatli ne'matiga aylanibdi.

Navro'zni ham mazmunan, ham shaklan boyitib borish borasidagi salmoqli ishlar samarasida bu bayram xalqimiz farovonligi, yurtimiz osoyishtaligi va taraqqiyotimizning o'ziga xos tamoyillarini namoyish etadigan muhtasham tantanalardan biriga aylandi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2010-yil 23-fevralda qabul qilgan qaroriga binoan 21-mart butun dunyoda Xalqaro Navro'z kuni, deb e'lon qilindi. Navro'z bayrami YUNESKO tomonidan jahon xalqlari nomoddiy madaniy merosi durdonalaridan biri sifatida e'tirof etildi. Bu – xalqimiz ma'naviyatining gultoji sanalmish Navro'zi olamning umuminsoniy sivilizatsiya rivojida naqadar muhim o'rin tutishidan dalolatdir.

Navro'zni nomoddiy madaniy meros obyektlaridan biri sifatida muhofaza qilish va rivojlantirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 7-oktabrdagi qarori bilan tasdiqlangan 2010 – 2020-yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturiga muvofiq Navro'z bayramini ilmiy o'rganish, muhofaza qilish va targ'ib etish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar olib borilayotir.

Bugun biz Navro‘zni yangi orzu-umidlar, bahor, yasharish ma’nosi bilan birga, milliy ravnaq, milliy taraqqiyot, buyuk kelajak uchun intilish kabi ezgu g‘oyalar bilan mushtarak holda tushunmoqdamiz. Navro‘z va mustaqillik biz uchun tengdosh yangitdan dunyoga keldi. Ayni paytda, qayta tiklangan Navro‘z qayta tiklangan mustaqillik g‘oyalari tufayli o‘z mavqeiga ega bo‘ldi. Mustaqillik g‘oyalari esa xalqimizning qadimiy an’analari, turmush tarzi, urf-odatlarini o‘zida mujassam etgan, Navro‘zdan madad olgan. Ana shu ruhiyat xalqimizning jon-joniga, qon-qoniga singib ketdi. Demak, endi biz milliy Istiqlol tushunchalari bilan Navro‘z nashidasini bir-biridan ajrata olmaymiz. Odamlarimiz esa ayni paytda, yangilanish va mo‘tabar orzu-umidlar ta’sirida shakllanmoqda.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Zardushtiylik dini haqida qanday fikrdasiz?
2. «Avesto» umuminsoniy qadriyatlar majmuasi sifatida ma’naviy-madaniy manba ekanligi to‘g‘risida.
3. Zardusht qanday g‘oyalarni ilgari surgan?
4. Ahuramazda to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
5. «Avesto»da dehqonchilik eng oliyjanob kasb sifatida ekanligining sababini bilasizmi?
6. To‘marisning jasoratini qayd eting.
7. Nima uchun Shiroq Doro qo‘shinlariga yolg‘iz o‘zi qarshi chiqishi ma’naviy jasorat ekanligini izohlang.
8. «Alpomish» dostoni haqida nimalarni bilasiz?
9. Navro‘z haqida qaysi allomalarimiz o‘zlarining asarlarida yozib qoldirganlar?

Buyuk allomalardan biri Imom Buxoriy o'z ahamiyatiga ko'ra islom dinida Qur'oni Karimdan keyin muqaddas kitob hisoblangan «Sahihi Buxoriy»ning muallifi sifatida butun dunyoda tan olingan.

Shavkat MIRZIYOYEV

7-MAVZU. ISLOM DINIDA MA'NAVIYAT VA SHAXS MA'NAVIY QIYOFASINING TALQINI

Reja:

7.1. Din – inson ma'naviyatining tarkibiy qismi.

7.2. Imom Buxoriy va Imom Termiziy hadisshunos allomalar.

7.3. Markaziy Osiyolik mutafakkirlarning kalom va fiqh ilmi rivojiga qo'shgan hissalari.

Tayanch so'z va iboralar

Islom dini, Qur'onning nozil bo'lishi, xalifalik davri, sunniylik, shia, din ruhiyatimiz tarbiyachisi, sahobalar, Imom Buxoriy, «al-Jomi' as-sahih», Imom Termiziy, «Sahihi Termiziy», uslublar, Imom Moturidiy, Alisher Navoiy vasfi, «Kitob at-tavhid», botiniy ilmlar, ilmi laduniy, musulmon qonunshunosligi, Burhoniddin Marg'inoniy, «Hidoya», bayon uslubi, beqiyos so'z zargari.

7.1. Din – inson ma'naviyatining tarkibiy qismi

«Tavrot»da tug'ilishi bashorat qilingan so'nggi payg'ambar Muhammad alayhissalom ibn Abdulloh milodiy 570-yilda Makkada tavallud topadi. Allohning rasuli dunyoga kelishi arafasida Arabiston yarim orolida tarqoq qabila tuzumida istiqomat qiladigan xalqlar butparastlik va jaholat botqog'iga botib qolgandilar. Payg'ambar Ibrohim (a.s.) va uning o'g'li Ismoil (a.s.) tiklagan muqaddas Ka'ba but va sanamlarga to'lib bo'lgandi. Qabilalar tinmay o'zaro janglar olib borar, ijtimoiy va mulkiy tengsizlik chidab bo'lmas darajada edi. Jaholat shu darajaga borgandiki, ayrim qabilalarda qiz farzand dunyoga kelsa, uni tiriklayin ko'mib yuborar edilar.

Ushbu haqiqatni Hazrat Umar ibn Xattob (r.a.) shunday hikoya qiladilar: «Musulmonlikdan avvalgi ikki narsani eslaymanki, birini eslab yig'layman, birini eslab kulaman. Ushbu narsaga yig'laymanki, bir kun qizimni, jajji qizchamni shu o'z qo'llarim bilan mozor (qabr) qazib ko'mdim. Men qizim uchun o'z qo'llarim bilan chuqur qazir ekanman, u mening soqolimga sachragan tuproqlarni jajji qo'llari ila silab olardi. Qachon buni xotirlasam, doimo yig'layman. Insoniylikning qanday qorong'u davrlarida yashaganimni tushunib, tinmay ko'z yoshi to'kishdan o'zimni tiya olmayman.

Shuning uchun kulamanki, yo'lga chiqqanimizda, turli safarlarda bo'lganimizda holvadan sanam (but) yasab olardik. Unga Alloh deb sig'inardik. Yo'lda qornimiz ochsa, uni yer edik. Shularni qachon eslasam, kulaman. Bu kofirlik, aqlsizlik shunchalik edi».

Muhammad alayhissalomning otasi Abdulloh bo'lajak nabiy tug'ilmasdan bir necha hafta ilgari vafot etadi. Bolaning tarbiyasi bilan uning bobosi shug'ullanadi. Sakkiz yoshida onasidan ham judo bo'ladi. Yoshligidan shuncha qiyinchiliklarni ko'rib ulgurgan, qarindoshlarining oilasida mol boqadi, tijorat ishlariga yordamlashadi. Halolligi bilan barchaga tanilgan Muhammad alayhissalomga Mak-

kalik badavlat beva, Xadicha (r.a.) o‘z karvonlarini ishonib topshiradi va bo‘lg‘usi payg‘ambar Suriya mamlakatidagi tijorat markazlariga qatnay boshlaydi. Muhammad alayhissalomning halolligi va boshqa barcha insoniy fazilatlaridan hayratga tushgan Xadicha vakillar orqali nikoh ittifoqini taklif qiladi. Uzoq va saodatli lahzalarga boy bo‘lgan ushbu nikoh ahdi bog‘langanda Xadicha (r.a.) 40 yoshda bo‘lganlar.

Milodning 605-yillarida Ka’baning Ibrohim (a.s.) zamonida tiklangan devorlari vayrona holiga kelib qoladi. Uni qayta tiklash va ta’mirlash ishlarida Makkaning butun aholisi ishtirok etadi. Muhammad alayhissalom ham tosh teruvchilarga bajonidil yordamlashadi. Tabarruk binoning devorlari tiklangach, Ibrohim zamonasidan qolgan mashhur yodgorik – «Hajar al-Asvad», ya’ni qora toshni o‘rnatish lahzalari yaqinlashadi. Ushbu mavzu katta bahs-munozaraga sabab bo‘lib, odamlar yoqalashish darajasiga yetib borganlarida oqsoqollardan biri, bu ishni Yaratganning o‘zi hal qilsin, ya’ni kim hozir birinchi bo‘lib qurilish maydoniga kirib kelsa, qora toshni devorga o‘rnatish sharafini unga yuklaymiz, deb taklif qiladi. Barcha ushbu taklifga rozilik berib turganda halol va sofdilligi uchun «al-Amin» («Ishonchli, to‘g‘riso‘z») unvoniga musharraf bo‘lgan Muhammad alayhissalom paydo bo‘ladi. U bajonidil shartni qabul qiladi va ustki kiyimini yechib, qora tosh («Hajar al-Asvad»)ni ustiga soladi hamda barcha qabila oqsoqollariga toshni baravariga ko‘tarishni so‘raydi. Bo‘lajak payg‘ambarning ushbu taklifi hammaga ma’qul keladi va u o‘z qo‘li bilan toshni Ka’baning burchagiga o‘rnatadi.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, aynan ana shu voqeadan keyin Muhammad alayhissalom ko‘p o‘y suradigan, Ramazon oylarida esa, bobosi kabi Jabal an-Nur (Nur tog‘i)dagi Hiro g‘origa borib, ibodat va xayolotga beriladigan bo‘lib qoladi.

Uzlatning beshinchi yili, Ramazon oyi oxirlab qolganida, Muhammad alayhissalom 40 yoshga yetganida huzuriga farishta Jabroil (a.s.) kelib: «Alloh sizni o‘zining rasuli qilib tanladi hamda insonlar

huzuriga borib, bundan xabar berishni buyurdi», deydi. Jabroil (a.s.) Muhammad alayhissalomga tahorat va namoz qoidalarini, Allohga itoat va muhabbat izhori yo'llarini o'rgatdi. Payg'ambar alayhissalomga yuborilgan dastlabki ilohiy xabar quyidagicha edi:

Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan.

«(Ey, Muhammad, butun borliqni) yaratgan zot bo'lmish Rabbingiz nomi bilan o'qing! U insonni lahta qondan yaratdi. O'qing! Rabbingiz esa karamli zotdir. U insonga qalam bilan (yozishni) o'rgatgan zotdir. U insonga bilmagan narsalarini o'rgatdi». («Alaq» surasi, 1-5-oyatlar).

Muhammad alayhissalom hayajon ichida uyga qaytib, rafiqasi Xadichaga bo'lib o'tgan voqeani so'zlab beradi. Oqila ayol: «Yaratgan sizni saxiy va muruvvatli bo'lganingiz, yetimlar va muhtojlarga ko'mak berganingiz uchun albatta barcha balo-qazolardan asraydi», deb u kishini xotirjam qiladi.

Shu tariqa Qur'onning nozil bo'lish jarayoni Makkada o'n yil, Madinada o'n uch yil, hammasi bo'lib 23 yil davom etadi. Bu yillar davomida Muhammad alayhissalom va uning tarafdorlari islom dinini yoyishda, targ'ib qilishda davom etganlar. Mazmun-mohiyatiga ko'ra salom, ya'ni tinchlik va oqibat dini bo'lgan islomning keng tarqalishi natijasida qabilalar orasidagi nizolar, insonlarning o'zaro adovatlari va jaholat bilan bog'liq udumlariga barham berilgan.

Qur'on (*arab.* o'qimoq, qiroat qilmoq; jamlash ma'nolarini bildiradi) – musulmonlarning asosiy muqaddas kitobi. Qur'on ilmi ulamolari Qur'onni quyidagicha ta'riflaydilar: «Qur'on – Alloh taoloning Muhammad alayhissalomga vahiy orqali nozil qilingan, tavotur ila naql qilingan. Ibodatda o'qiladigan, (barchani) lol qoldiruvchi kalomdir».

Tavotur ila naql qilingan, degani esa, kalomni yolg'onga chiqarib bo'lmaydigan darajada ko'p sonli kishilar tomonidan naql qilinishiga aytiladi. Ularning hammalari ishonchli odamlar bo'lib, yolg'onga

yaqinlashmagan, sonlari jihatidan yolg‘onga berilib ketish imkoni ham yo‘q bo‘ladi.

Muhammad alayhissalom hayotlik vaqtlarida, yana vahiy tushib qolar degan maqsadda, Qur’on jamlanib, kitob shakliga keltirilmagan. U kishining vafotlaridan keyin Qur’on kishilarning qalbida, xotirasida va yozuvlarida saqlanib qolgan. Ro‘y bergan g‘alayonlardan birida Qur’onni to‘liq yod olgan ko‘plab qorilar shahid bo‘ladilar. Shunda Hazrati Umar ibn Xattob (r.a.) Hazrati Abu Bakr Siddiq (r.a.)ga, «qorilar o‘lib ketaversa, Qur’onga zarar yetishi mumkin, shuning uchun uni kitob shakliga keltirib, jamlab qo‘yish kerak», degan maslahatni beradi.

Abu Bakr Siddiq (r.a.) Zayd ibn Sobit (r.a.) ismli sahobani chaqirib, bu ishni amalga oshirishni unga topshiradi. Chunki Zayd ibn Sobit (r.a.) Payg‘ambar alayhissalom bilan juda ko‘p birga bo‘lgan. Qur’onni eng yaxshi yod olgan va uni payg‘ambar huzurlarida yozgan. Payg‘ambar alayhissalom vafot etadigan yillari Jabroil farishtaga Qur’onni avvalidan oxirigacha o‘qib o‘tkazganida birga bo‘lgan edi.

Zayd ibn Sobit (r.a.), Umar ibn Xattob (r.a.) va boshqalar Qur’oni karimni puxta bilishlariga qaramay, bu ishni mustahkam, ishonchli bo‘lishiga harakat qilib, masjidda: «Kimning qo‘lida yozilgan Qur’on bo‘lsa va uni Payg‘ambar alayhissalom huzurida yozilganiga ikkita guvohi bo‘lsa, bizga olib kelsin, Qur’onni jam qilishga xalifaning buyrug‘i bo‘ldi», deb e’lon qiladilar.

Ular masjidda o‘tirib, guvohlarni tekshirib, nihoyatda aniqlik bilan bir yildan ortiq vaqt Qur’onni jamlaganlar. So‘ng ko‘pchilikka ko‘rsatadilar, hamma rozi bo‘ladi. Shunday qilib, Zayd ibn Sobit (r.a.) va Umar ibn Xattob (r.a.)larning mashaqqatli urinishlaridan keyin Qur’onni kiyik terisidan ishlangan sahifalarga yozib, uni Abu Bakr Siddiq (r.a.)ning uyiga qo‘yadilar. U kishi olamdan o‘tganidan keyin sahifalar Umar ibn Xattob (r.a.)ning uylariga, u kishidan so‘ng esa qizlari va payg‘ambarimizning ayollari Hafsa binti Umar (r.a.) huzurida qoladi.

Vaqt o‘tishi bilan islom davlatining chegarasi kengayib, ko‘plab xalqlar ham musulmonlikni qabul qilib, musulmonlarning soni ko‘paygandan so‘ng Qur’onni o‘qishda turli kelishmovchiliklar chiqa boshladi. Bu holatni ko‘rgan o‘sha vaqtdagi xalifa Usmon ibn Affon (r.a.) Hafsa binti Umar (r.a.)dan Abu Bakr Siddiq (r.a.) davridagi sahifalarni so‘rab olib, undan besh nusxa ko‘chirishga buyruq beradi. Nusxalar tayyor bo‘lganidan so‘ng kitob shaklida taxlanib, muqovalanadi. Qur’onlarning hajmi 68x53x22 sm bo‘lib, jami 353 varaqni tashkil etgan. Qur’on nusxalarini musulmonlar yashaydigan diyorlardagi markaziy shaharlarga: Makka, Madina, Shom, Kufa, Basraga bittadan qori qo‘shib jo‘natadi va shu qorilardan qiroat o‘rganishga buyruq beradi. Abu Bakr Siddiq (r.a.) davrida ko‘chirilgan dastlabki nusxa ham sahifalanib, kitob shakliga keltirilgandan keyin Hafsa binti Umar (r.a.)ga qaytarish maqsadida Usmon ibn Affon (r.a.) o‘zida olib qoladi.

Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom mendan keyin xalifalik 30 yil davom etib, keyin saltanat (podsholik) davri boshlanadi, deb bashorat qilganlar. Haqiqatan:

1. Abu Bakr Siddiq 632 – 634-yillarda;
2. Umar ibn Xattob 634 – 644-yillarda;
3. Usmon ibn Affon 644 – 656-yillarda;
4. Ali ibn Abu Tolib 656 – 661 yillarda xalifalik qilganlar.

Xalifalardan faqat Abu Bakr Siddiq o‘z ajali bilan vafot etgan. Qolganlari dushmanlari tomonidan o‘ldirilgan. Xalifa Usmon ibn Affon uyida Qur’on mutolaa qilib turganda dushmanlari xonaga bostirib kiradi. Shovqindan Qur’onni yopib, nima gap ekanligini bilish uchun orqasiga o‘giriladi. Shu mahal qotil xalifaning bo‘yniga xanjar sanchadi. Qon Qur’oni karimning muqovasiga ham sachrab ketadi. Kiyik terisidan ishlanganligi sababli qon dog‘lari hozirgacha saqlanib qolgan. O‘zbekiston musulmonlari idorasida saqlanayotgan Qur’oni karimning asl nusxasini Sohibqiron Amir Temur o‘zining zafarli yurishlari davrida Basra shahridan Samarqandga olib kelgan.

Sunniylik – islom dinidagi 2 asosiy yo‘nalishdan biri va eng keng tarqalgani. Jahondagi barcha musulmonlarning 93 foizi sunniylikka, qolgan 7 foizi shialikka mansub. Islom dini dastlabki davrda hech qanday yo‘nalish, mazhab va oqimlarga bo‘linmagan. VII asrning o‘rtalarida turli siyosiy sabablarga ko‘ra, musulmonlar safida bo‘linish bo‘ldi. Avval shialar, keyin xorijiylar musulmonlar ommasidan ajralib chiqdilar. Ular o‘zlarining haqligini isbot qilish uchun o‘z fikrini, yo‘nalishini himoya qila boshladi, shu tariqa har guruhning o‘ziga xos aqidasi shakllana bordi.

Sunniylikda 4 ta diniy-huquqiy mazhab (hanafiylik, molikiylik, shofi’ylik, hanbaliylik) mavjud. Sunniylik bilan shialik o‘rtasida hokimiyat masalasida, ayrim diniy marosim va an’analarda birmuncha tafovutlar bor.

Shia so‘zining to‘liq shakli «shiat Ali» (Ali partiyasi) bo‘lib, bu nom Ali ibn Abu Tolib va uning avlodlariga ergashganlarga nisbatan berilgan. Shiada musulmonlar jamoasi yoki davlatida faqat Muhammad (s.a.v.) avlodlari (Ali va Fotimadan tarqalgan) hukmron bo‘lish huquqiga ega, deb hisoblanadi. Ularning ta’limotiga ko‘ra, rahbar jamoa tomonidan saylanmay, meros sifatida o‘tadi. Imomlik payg‘ambarlik kabi ilohiy mansab hisoblanadi.

Shialikka ko‘ra payg‘ambar vafotidan keyin xalifalikka haqli kishi Hazrati Ali ibn Abu Tolib bo‘lgan. Hazrati Abu Bakr Siddiq, Hazrati Umar ibn Xattob, Hazrati Usmon ibn Affonlar esa bu huquqni undan zo‘rlik bilan tortib olishgan. Shialik tarafdorlari sunniylar kabi Qur’onni ilohiy deb e’tirof etadi, lekin ularning ayrim o‘ta reaksion ruhdagi vakillari xalifalar davrida Qur’oni karimning ayrim qismlari tushirib qoldirilgan, deb hisoblaydilar.

Shialik ilohiyotchilari Qur’oni karimning mazmunini majoziy sharhlash orqali o‘z ta’limotlarini asoslaydi. Ular faqat Ali ibn Abu Tolib avlodlari tomonidan rivoyat qilingan hadislarni tan oladi. Bunday hadislardan iborat to‘plam tuzilib, u axbor deb atalgan. Shialikda

8 ta aqidaga e'tiqod qilinadi. Bular – tavhid (Allohnshg yagonaligini e'tirof etish), adl (adolat, Allohning odilligi, ya'ni taqdir aqidasi), nubuvvat (payg'ambarlik), imomat (imomlik – imomlar hokimiyatini e'tirof etish), Amri ma'ruf (yaxshilikka buyurish), Nahyi munkar (yomonlikdan qaytarish), tavallo (Alloh do'stlarini do'st tutish), tabarro (Alloh dushmanlaridan uzoqlashish).

Shialikda Ali ibn Abu Tolibning avlodlaridan iborat o'n ikki imom hokimiyati tan olinadi. Imom al-Maxdiyni shialar «yashiringan» hisoblaydi, zamona oxir bo'lganda uning qaytib kelishini va adolat o'rnatishini kutadi. Shialikda 12 imomlik (isnoashariya) Ali ibn Abu Tolibdan boshlanib, uning Fotimadan tug'ilgan o'g'illari Hasan va Husaynga o'tadi va Muhammad al-Mahdiyga borib tugaydi. Shuning uchun shialikdagi isnoashariylar firqasi «o'n ikki imomni e'tirof qiluvchilar», deb nomlangan.

Isnoashariylarning ba'zilari Ali ibn Abu Tolibni Payg'ambardan afzal, deb e'tiqod qiladilar hamda Ali ibn Abu Tolibning o'n bir avlodi insonlarga rizq berib turadi, deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, Ali ibn Abu Tolib va uning avlodlari Payg'ambardan keyingi Allohning hujjatlaridir. Ularning buyruqlari, taqiqlari Payg'ambarning buyrug'i, taqiqidir, ularga itoat qilish Payg'ambarga itoat qilishdir. Ularga bo'ysunmaslik Payg'ambarga isyon qilishdir.

Yuqorida Islom, uning muqaddas kitobi Qur'oni karim, hadislar va shariat haqida ba'zi ma'lumotlarni keltirdik. Endi umuman islom dinida, xususan Qur'oni karim, hadislar va shariatda inson ma'naviyati, axloq-odob, ma'rifati haqidagi qarashlarning ba'zi jihatlari to'g'risida fikr yuritamiz.

Islomning asosiy aqidasi – «Allohdan boshqa iloh yo'q va Muhammad uning rasuli». Islom ilohiyotining ilk shakli – kalom bo'lib, VII asrda arab xalifaligida vujudga kelgan. Mutakallimlar islom dini aqidalarini ishlab chiqqanlar. Islom dini 5 «asos» yoki «ustun» (arkon ad-din al-islomiy)ga ega: 1) kalima keltirish; 2) namoz o'qish;

3) ro'za tutish; 4) zakot berish; 5) imkoniyat topilsa, haj qilish. Shulardan birinchisi iymon va qolganlari ibodat deb e'tirof etilgan. Iymon 7 aqidani – Allohga, uning farishtalariga, muqaddas kitoblarga, payg'ambarlarga, oxirat kuniga, taqdir (yaxshilik va yomonlik Allohning irodasi bilan bo'lishi)ga va vafot etgandan keyin tirilishga ishonishni o'z ichiga oladi. Islomda xatna, ro'za hayiti, qurbonlik va qurbon hayiti, aqiqa, mavlud, xudoyi, ashuro kabi o'ziga xos diniy marosimchilik tarkib topgan.

Qur'oni karim, hadislar va shariat ko'rsatmalari inson ma'naviy-ma'rifiy kamolotining asosi bo'lgan axloq-odob tarbiyasining barcha qirralarini o'z ichiga olgan. Sirasini aytganda, hadislar ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid bo'lgan fikrlarning mukammal to'plamidir. Qur'oni karim, hadislarni, shariat ko'rsatmalarini o'rganar ekanmiz, ularda axloqiy kamolot, halollik va poklik, iymon va vijdon bilan bog'liq bo'lgan birorta ham muhim masala e'tibordan chetda qolmaganini ko'ramiz. Ayniqsa, islom harom va halol masalasiga musulmonlar e'tiborini qaratadi. Shariatda Alloh tomonidan qilinishiga ruxsat etilgan amallar, ishlar halol deyiladi. Harom esa aksincha, qilinishga ruxsat etilmagan ishlar va amallardir. Alloh harom etilgan ishlarni qiluvchilarga bu dunyoda yoki qiyomatda jazosini albatta berishi aytilgan.

Halol qilingan narsalar va ishlar ko'pchilikka ma'lum, u haqda ko'p eshitganmiz. Harom qilingan ishlarni eslatib o'tish joizdir. Bulardan ayrimlari quyidagilar: sog' bo'la turib, ishsiz yurish, zinokorlik, ota-onaga oq bo'lish, savdo-sotiqda g'irromlik qilish, birovning haqqiga, omonatiga xiyonat qilish, qasamxo'rlik, sudxo'rlik, o'g'irlik, qaroqchilik, aroqxo'rlik, g'iybat, tuhmat, bo'hton, josuslik, qotillik, poraxo'rlik va boshqalar kiradi. Xullas, harom inson va jamiyatga zarar keltiradigan ish va amallardan iborat.

Islomda ilm-fanni egallash, ma'rifatli bo'lish juda katta savobli ish ekani qayta-qayta ta'kidlanadi. Beshikdan to qabrgacha ilm izlash

lozimligini qayd qilinishining o‘zi katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Hadislardagi «Sadaqaning afzali mo‘min kishi ilm o‘rganib, so‘ng boshqa mo‘minlarga ham o‘rgatishdir», «Ilm ibodatdan afzaldir» kabi fikrlar ham tahlilga muhtoj emas.

Inson Allohning xalifasi sifatida bilim egasi, yorug‘ dunyoning barcha bilimlariga uning idroki yotadi. Faqat kibrga berilib ketmasa, o‘zini hammadan ortiq qo‘ya boshlamasa bas, Parvardigor bizni inson qilib yaratgan ekan, aql-xush, ilm-u amal bergan ekan, demak, biz inson sifatida tafakkur qilib, dunyoviy ilmlarni o‘rganib, dunyo orqali Allohning zotini, ilmlarini kashf qilib, yashashimiz kerak. Din-ruhiyatimiz tarbiyachisi, ilm-dunyoni va oxiratni bilish quroli, inson unisini ham, bunisini ham egallamog‘i kerak.

Buyuk ajdodlarimiz ilmiy faoliyat bilan mashg‘ul bo‘lar ekanlar, ilmga asoslanmagan amal Alloh huzurida ma’qul emas, degan udumga rioya qilganlar. Shu tamoyilga vijdonan va halollik bilan rioya qilib, jahon mutafakkirlari qatoridan munosib o‘rin olishdi. Hayotida Qur’oni karimning: **«Biladiganlar bilan bilmaydiganlar teng bo‘la oladimi?»** Alloh taolo biladiganlarning martabasi balandroq ekanini ta’kidlaydi. Dunyoda ilmdan boshqa ziyoda narsa bo‘lganida Tangri taolo «Toho» surasining 114-oyatida Payg‘ambarimizga: **«Ey rabbim, menga ilmni ziyoda qilgin!»**, – deb so‘rashni buyurmasdi. Ilm egallagan kishi ikki dunyo saodatiga erishadi. Rasulullоh (s.a.v.) o‘z hadislaridan birida shunday deganlar: «Alloh taolo kimgaki yaxshilikni ravo ko‘rsa, uni din ilmini tushunadigan qiladi».

Haqiqiy ilm shunday ilmki, u kishida Allohdan qo‘rqish hissini vujudga keltiradi. Johil kishi esa go‘zal axloqlardan bebahra bo‘lib, halol va haromning farqiga bormaydi. Johil odamlardan har qanday yomonlik kutish mumkin bo‘lganidek, ular jinoyatning ham manbai, sababchisi bo‘ladilar. Aksincha, Allohdan qo‘rquvchi kishilar esa chinakam ulamolardir. «Fotir» surasining 28-oyati bunga

dalildir: **«Allohdan bandalari orasidagi olim-bilimdonlarigina qo'rqur»**. Bu ahli ilm egalari va ahllariga berilgan yuksak bahodir. Rasulullоh (s.a.v.) o'z hadislaridan birida bunday deganlar: **«Olimning obiddan afzalligi to'lin oyning yulduzlardan ortiqligiga o'xshaydi»**. Demak, olim kishilar obidlarga nur, ziyo beruvchilardir.

Darhaqiqat, olimlar inson ruhini va e'tiqodini tarbiya etuvchi kishilardir. Luqmoni Hakim o'z o'g'illariga nasihat qilib: «Ey o'g'lim, suhbat qurmoqchi bo'lsang, ulamolar bilan qurgin, ularning suhbatidan qolma. Zero, Alloh taolo yerni yomg'ir suvi bilan tiriltirganidek, insonlarning qalblarini hikmat nuri bilan tiriltiradi», deganlar. Ilmning qadri Alloh va uning Rasuli oldida ulug' bo'lganligi uchun Payg'ambarimiz ummatlarining barchasini olim bo'lishga da'vat etganlar: «Ilm talab qilmoq har bir erkak va ayol musulmonlar uchun farzdir». Boshqa bir hadisi sharifda esa ilm istashning chegaralanmaganligini qayd etib, bunday deganlar: «Ey mo'minlar, beshikdan to qabrgacha ilm talab qilinglar». Ilmga jidd-u jahd qilgan insonlar qancha ko'p o'qisa, u o'zidagi bilim dengizdan tomchi ekanligini his qila boradi. Aksincha, oz ilmdan xabardor bo'lib, uning bilan chegaralanib qolgan odamlarda o'zini bilimdon qilib ko'rsatish, gerdayish kabi salbiy illatlar mavjud bo'ladi, ular o'zlarini boshqalardan dono his qiladilar.

Islomda har bir harakat odob va axloq normalariga bo'ysundirilgan. U izchil targ'ibot va tashviqot asosiga qurilgan. Natijada har bir musulmon e'tiqodda mustahkam irodali inson sifatida sobit bo'lib yetishgan. Bunda Allohning roziligini topadigan, mo'min-musulmon ekanligiga iqror bo'ladigan, Allohning uyi – muqaddas joy – masjidlarning tarbiyaviy ahamiyati katta bo'lgan.

7.2. Imom Buxoriy va Imom Termiziy hadisshunos allomalar

«Hadis» va «sunnat» so‘zlari muhaddislar o‘rtasida bir ma’noda qo‘llanilib, janob Payg‘ambarimizning aytgan so‘zlari, fe’l-atvorlari, axloqlari, tahrirlari va payg‘ambarlikka qadar bo‘lgan hamda payg‘ambarlik yillaridagi siyratlarini, ya’ni hayot yo‘llarini anglatadi. Rasulullohning turli sharoitlarda shariat ahkomlariga oid aytgan so‘zlari ham hadis bo‘lib, fe’l-atvorlari esa, ul zot qilgan va sahobalar tarafidan naql qilingan amallaridir.

Sahobalarning payg‘ambarimiz ma’qullagan so‘zlari va xatti-harakatlari «tahrir» deyilib, ular shar’iylik huquqiga egadir. Zero, janob Rasulullоh shariatga xilof narsalarni hech qachon ma’qullamas edilar!

IX asr hadis ilmi uchun oltin davr hisoblanadi. Bu davrda hadis ta’lif etish sohasida «Musnad», «Sahih» va «Sunan» deb atalmish turli yo‘nalishlar vujudga keldi:

1) «Musnad» yo‘nalishida tasnif etilgan to‘plamlarda turli mavzudagi hadislar bir joyga keltirib, ular hadis rivoyat qiluvchi sahobalarning islom dinini qabul qilgan vaqtiga ko‘ra yoki alifbo tartibida joylashtirilgan.

2) «Sahih» yo‘nalishiga buyuk muhaddis Imom Buxoriy asos solgan. Bu yo‘nalishda ta’lif etilgan to‘plamlarga faqat to‘g‘ri, ishonchli hadislar kiritilgan.

3) «Sunan» yo‘nalishidagi to‘plamlarda esa, to‘g‘ri, ishonchli hadislar bilan bir qatorda, «zaif» hadislar ham keltirilgan. Imom Abu Dovud, Imom Termiziy, Imom an-Nasoiy, Imom ibn Mojaning mualiafotlari ana shu yo‘nalishga mansubdir.

Jami muhaddislarning imomi, hadis ilmining sultoni (amir al-mo‘miniyn fil-hadis), sayyid al-fuqaho laqablariga muyassar bo‘lib, Payg‘ambar alayhissalomning muborak hadislariga durdonasiymon

sayqal berib, ularni abadulabad barhayot qilgan ulug‘ zot – **Imom Abu Abdulloh – Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy** 810–870-yillarda yashab, ijod qilgan.

Imom Buxoriyning ko‘zi ko‘r bo‘lganligi ma’lum. Onalari o‘g‘lini ko‘zini davolatish maqsadida ko‘p sa’y-harakat qilgan. Qartaygan, ko‘zlari qisiq, titroq qo‘lli tabib o‘g‘lini obdan sinchiklab ko‘rib, davolashga ojiz ekanligini aytadi. «Shifo yolg‘iz Allohdan!» deb taskin ham beradi. Ismoilning onasi Fotima tabib huzuridan bo‘shashib, oyoq-qo‘li holsiz qaytdi. Shu soatdan boshlab ona sarosimaga tushadi. Necha kundir, tunlari bedor, kunduzlari ro‘zador, Allohga iltijo bilan yolvoradi, farzandining kasaliga shifo so‘raydi. Ana shunday kunlarning birida juda toliqib, ozroq uxlagan edi, tush ko‘radi. Hassa tutgan baland bo‘yli, yuzi nurli, ko‘rkam soqolli bir qariya tushiga kiradi. Keyin bilsa, bu zot Ibrohim xalilulloh (alayhissalom) ekanlar. U kishi Fotima qarshisiga kelib, unga xursand holda: «Ey ayol, Allohga ko‘p yolborib yig‘laganing, tinmay duolar qilganing samarasiz ketmadi, mehribon Alloh o‘g‘lingga ko‘zlarini qaytarib berdi», deydi. Uyqudan yuragi hapqirib uyg‘onadi. Shoshilinch o‘g‘li yotgan xonaga chopadi. Kirib qarasa, ko‘zi hammayoqni ko‘ra boshlagan o‘g‘li o‘rnida jilmayib yotardi. Ayol umid-iltijosi mukofotiga berilgan bu yaxshilikdan cheksiz sevindi. Allohga hisobsiz shukurlar aytadi, hamd-u sanolar yo‘llaydi.

Imom Buxoriy dastavval o‘sha paytda Buxoroning taniqli muhaddislaridan biri hisoblangan olim al-Doxiliydan hadis ilmidan saboq olgan. Hadislarni o‘rganish bo‘yicha ushbu olim tashkil etgan to‘garak (halqa)ning shuhrati keng tarqalgan bo‘lib, uning faoliyati yoyilib, ulkan samaralarga erishgan. Kunlardan bir kun al-Doxiliy, o‘z odaticha, hadis ilmidan dars berayotganda, al-Buxoriy ham boshqalar qatori dars tinglab o‘tirgan edi. Shunda al-Doxiliy bir hadis isnodi haqida gapirib: «Sufyon Abu Zubayrdan, u Ibrohimdan», – deb zikr qiladi. Bunga al-Buxoriy: «Abu Zubayr hech vaqt Ibrohimdan rivoyat qilma-

gan», – dedi. Bu bilan u al-Doxiliyni ushbu sanad xususidagi xatodan ogoh qilmoqni istagandi. O‘z shogirdining ovozini eshitgan al-Doxiliy esa hayratga tushib, dag‘allik bilan uning so‘zini bo‘ldi. Shunda al-Buxoriy o‘ta xotirjamlik bilan: «Ustoz, agar ishonmasangiz asl manbaga qarang», – deydi. Al-Doxiliy manbaga qarab, al-Buxoriy aytgan gapning to‘g‘riligini e’tirof qildi-yu, lekin o‘sha hadis sanadini tuzatishni paysalga soldi. Insof yuzasidanmi yoki sinab ko‘rish uchunmi, xullas, sanadni tuzatish masalasini al-Buxoriyning o‘ziga tashlaydi.

Tashqariga chiqishgach al-Buxoriydan:

– «E, bola, endi qanday bo‘ladi?» – deb so‘radi.

Al-Buxoriy esa o‘ylamasdan shunday javob qildi:

– «Az-Zubayr aslida Ibn Adiy bo‘lib, u Ibrohimdan rivoyat qilgan». Shundan keyin u (al-Doxiliy) qalam olib yozganini tuzatdi va «Sen haqsan», – dedi. Al-Buxoriyning aytishicha, bu vaqtda u atigi o‘n bir yoshda bo‘lgan .

Imom Buxoriyga hadislarni yod olish ilhomi o‘n yoshidan boshlab nasib etib, yoshi ulg‘aygan sari bu rag‘bati tobora kuchayib, ziyoda bo‘lib boradi. U hadislarni yod olibgina qolmay, balki yoshligidan boshlab hadislarni sahih (to‘g‘ri, ishonchli) va g‘ayrisahih (xato, noto‘g‘ri)larga ajratish, ularning illatini aniqlash, hadis roviylarini o‘rganib tahqiq qilish, ular rivoyatining adolatliligi, to‘g‘riligi, ishonchli yoki ishonchsizligi, roviylarning maishiy hayoti, yashash joyi, tug‘ilgan va vafot etgan sanalari, bir-birlari bilan o‘zaro muloqotlari, turli roviylar keltirgan hadislarni bir-biriga solishtirib muqorana (muqoyasa) qilish, ularning bir-birlari bilan o‘zaro bog‘liqligi va bir-biriga bog‘liq bo‘lmay, uzilishlar bo‘lgan holatlari, hadis ilmining xilma-xil va eng yuqori nuqtalariga yetishish, uning turli masalalarini chuqur tahqiq etish, ularni jamlash va Qur’oni karim oyatlari bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganish kabi masalalar bilan qiziqdi. Bu olijanob ishlar Imom Buxoriyning butun fikri-zikrini batamom chulg‘ab, uning dilida kundan kun kuchayib, tobora mustahkamlanib boradi.

Al-Buxoriyga ta'lim bergan ustozlari o'sha davrda Buxoroda ko'zga ko'ringan muhaddislardan Muhammad ibn Salom al-Poykandiy, Muhammad ibn Yusuf al-Poykandiy, Abdulloh ibn Muhammad al-Masnadiy va boshqalar edi.

Hadislar bo'yicha dastlabki saboqni mana shu ustozlardan olgan al-Buxoriy o'n olti yoshga yetmasdan ko'pdan ko'p hadislarni o'zlashtirib, Abdulloh ibn al-Muborakning kitoblarini yod oladi.

Al-Buxoriyning noyob qobiliyati va zukkoligi tez fursatda ko'pchilik ulamolar tomonidan, shuningdek, unga ustozlik qilgan yetuk muhaddislar tomonidan ham yuksak baholandi. Bu hol shu darajaga yetdiki, hatto taniqli olimlar ham o'z darslarida al-Buxoriyning hozir bo'lishidan tashvishlanib, uning huzurida biror xato yoki kamchilikka yo'l qo'yishdan xavotirlanadigan bo'lib qoldilar. Ular hatto o'z kitoblaridagi xatolarni tuzatish uchun al-Buxoriyga murojaat qilardilar. Manbalarda keltirilishicha, al-Buxoriy hadis talabida sorijiy yurtlarga safarga chiqishdan oldin bir voqea sodir bo'lgan edi. Bu haqda buxorolik olim Salim ibn Mujohid hikoya qiladi: «Bir kuni do'stim Muhammad ibn Salom al-Poykandiyning uyiga borgan edim, u menga: «Biroz oldinroq kelganingda yetmish ming hadisni yod olgan bir yosh bolani ko'rar eding-da», dedi. Men shu zahoti orqamga qaytib ko'chaga chiqdim va o'sha bolani uchratib: «Yetmish ming hadisni yod bilaman, deydigan bola senmisan?» – deb so'rasam, u: «Ha, undan ham ortiqrog'ini bilaman», – dedi.

Imom Buxoriy (825-yilda) o'n olti yoshga to'lganida safarga chiqadi. Onasi va akasi Ahmad bilan Makkayi mukarramaga yetib kelib, haj ibodatini ado etgandan keyin onasi va akasini yurtiga qaytarib yuboradi. O'zi bu muqaddas shahar mashoyixlarining ilmiy yig'inlarida qatnasha boshlaydi. O'sha paytda Makkada bir qancha ko'zga ko'ringan hadis ilmi sohasida katta obro'-e'tibor egalaridan Imom Abul Valid ibn al-Arzaqiy, Abdulloh ibn az-Zubayr va alloma al-Hamidiylarni ko'rsatish mumkin. Imom Buxoriy Makkadan Ma-

dinaga, keyin Toif, Jidda, Basra, Bag'dod, Qo'fadagi ustozlaridan ishonchli va ibratli hadislar yozib olgan va ularga tayanib rivoyat qilgan. Abbosiy xalifalar poytaxti bo'lgan Bag'dodda o'sha paytda ilm-fan taraqqiy qilgan bo'lib, bu yerda dunyoning turli tomonlaridan kelgan ko'plab olimlar to'plangan edi. Imom Buxoriy Bag'dodda sakkiz marta bo'lgan va har gal u yerda katta hurmat bilan kutib olingan.

Tarixchi Shamsuddin az-Zahabiy quyidagicha hikoya qiladilar: «Xoshid ibn Ismoil bunday degan edi: «Imom Buxoriy biz bilan Basra mashoyixlari huzuriga qatnar edilar. O'sha paytda ul kishi o'spirin bo'lib, hadislarni yozib olmas edilar. Shu zaylda o'n olti kun o'tgach, Imom Buxoriy bizga: «Juda ko'p hadis yozib oldingizlar, qani menga ko'rsatinglarchi, qancha ekan?» – dedilar. Hisoblab ko'rsak, o'n besh mingdan ziyod hadis yozib olibmiz. Shunda Imom al-Buxoriy ularning hammasini yoddan aytib berganlar, hatto biz o'shal yozib olgan hadislarimizdagi xatolarni ul kishi yoddan aytganda tuzatib ham oldik».

Olim Muhammad ibn al-Azhar as-Sijistoniy: «Men alloma Sulaymon ibn Harbdan hadis ilmini o'rganar edim. Al-Buxoriy ham biz bilan birga hadis eshitardilar-u, lekin sira yozib olmasdilar. Shunda: «Nechun yozib olmayotir?» – deb ba'zilar so'raganda, «Hozir barchasini yodlab olib, Buxoroga qaytgach, qog'ozga tushiradi», deb aytishgan edi», – dedilar. O'shal alloma Sulaymon ibn Harb mashhur muhaddislardan bo'lib, Makkayi Mukaramada qozi ham bo'lganlar. Xotiralari g'oyatda kuchli bo'lib, hech bir kitob-daftarlarga boqmay, o'n minglab hadisni yoddan rivoyat qilar edilar.

Abu Hotam bu haqda quyidagilarni hikoya qiladilar: «Men Bag'dodda Sulaymon ibn Harbdan saboq olganman. Ul kishining shogirdlarining soni qirq mingdan ham oshib ketgan. Imom Buxoriy ham ul zotning shogirdlaridan edilar. Shunga qaramay, Sulaymon ibn Harb al-Buxoriydan: «Siz bizga Shu'baning xatosini tushuntirib beringiz!» – deb iltimos qildilar. Alloh Imom Buxoriyga shu qadar

kuchli quvvayi hofiza, aql-u zakovat va o‘tkir zehn tuhfa etgan ediki, bul fazilatlar tufayli hatto ustozlari ham ul kishini nihoyatda qattiq izzat-ikrom qilib, huzurlarida dars o‘tishga botina olmas edilar. Bu haqda faqih ibn Nuh an-Naysoburiy: «Men Ali ibn al-Madiniyning darslarida hozir bo‘lganimda Muhammad al-Buxoriyning ul kishining o‘ng tomonlarida o‘tirganlarini ko‘rdim. Shunda ustoz har bir hadisni zikr qilgach al-Buxoriyga hayiqib bir qarab qo‘yar edilar», – deydi.

Ko‘pgina manbalarda ulamolar tomonidan Imom al-Buxoriyning aql-zakovati va quvvayi hofizalarini sinash maqsadida uyushtirilgan sinovlar xususida ma’lumotlar zikr qilingan. Shunday sinovlardan biri Bag‘doddagi Dor ul-xilofat (Xalifalik uyi)da Bag‘dod ulamolari tomonidan uyushtirilgan. Bag‘dod muhaddislari buning uchun yuzta hadisni tanlab olishib, ularning matn va isnodlarini o‘zgartiradilar, ya’ni bir isnod matnini ikkinchi bir isnod matni bilan va bir matn isnodini boshqa matn isnodi bilan almashtirib qo‘ydilar. So‘ngra, ularni o‘n kishiga o‘ntadan bo‘lib berdilar-da, yig‘in vaqtida Imom Buxoriyga aytishni amr qildilar. Yig‘inga minglab xurosonlik, bag‘dodlik va boshqa hududlardan vakillar kelishdi.

So‘ngra, mazkur o‘n kishidan biri o‘ziga topshirilgan o‘nta hadisdan birini Imom Buxoriyga aytib, uning xususida so‘radi. Shunda Imom Buxoriy: «Bunday hadisni bilmayman», – dedilar. Keyin to‘qqiz kishi ham navbat bilan o‘zidagi hadislarni aytdi. Imom Buxoriy ularga ham: «Bunday hadisni bilmayman», deb javob qildilar. Imom Buxoriy ularning savollari tugaganligini anglagach, birinchi bo‘lib savol bergan kishiga o‘girildilar-da: «Ammo sen aytgan birinchi hadisning matni boshqa bir hadis isnodiga taalluqli bo‘lib, to‘g‘risi mana bunday..., ikkinchisining isnodi esa bo‘lak hadis matniga tegishli bo‘lib, to‘g‘risi mana bunday...» – deya u aytgan barcha hadislarning isnod-u matnini joy-joyiga qo‘ydilar. Shu tariqa Imom Buxoriy mazkur o‘n kishi aytgan hamma hadislarning isnod-u matnlarini joy-joyiga qo‘ydilar. Shunda yig‘ilishda hozir bo‘lganlar ul

kishining quvvayi hofizlariga, aql-u zakovatlariga tan berib, chuqur izzat-ehtirom bildirdilar.

Imom Buxoriy o'zining butun faoliyati davomida ilmiy, imkoni bo'lsa moddiy jihatdan odamlarga, ya'ni Allohning bandalariga biror naf yetkazishni o'zining asosiy maqsadi qilib qo'ygan edi. U ilm ahllari-yu ilm toliblariga, hatto ustozlar (ash-shayx) va muhaddislarga ham doimo yordam qilardi. Tijorat qilganda o'zi ko'rayotgan oylik daromadidan, ya'ni foydasidan besh yuz dirhamni faqir-u miskinlarga, ilm toliblarga sarflardi.

Imom Buxoriy g'oyatda beg'ubor, halol-pokiza, diyonatli inson bo'lib, g'iybat-u nohaqliklardan uzoq bir kishi edi. U doimo: «G'iybat qilishlik harom ekanini bilganimdan boshlab, hech qachon biror kishi haqida g'iybat gapirmaganman», – deb ta'kidlardi.

Imom Buxoriyning eng ulug' fazilatlaridan yana biri shuki, u taassub (mutaassiblik)ning har qanday ko'rinishlaridan uzoq bo'lgan alloma edi. Uning shoh asari «Al-Jomi' as-sahih» bilan chuqurroq tanishilsa, Imom Buxoriyning o'z kitobidagi ma'lumotlarga nihoyatda katta sinchkovlik va ehtiyotkorlik bilan yondashganini ko'ramiz. Qanchadan qancha mashaqqatlar bilan to'plagan hadislarining sahihligiga to'la ishonch hosil qilib, obdan tekshirgandan keyingina o'z asariga kiritganligi ushbu fikrimizni yana bir bor tasdiqlaydi.

Imom Buxoriyning «Al-Jomi' as-sahih» asari islom dini ta'limotiga ko'ra, Qur'oni karimdan keyingi ikkinchi asosiy manba hisoblanadi. Ushbu asarning ta'lif etilishi sababi Imom Buxoriy tushida Payg'ambar alayhissalomni ko'rganda, go'yoki men U Zotning ro'baro'larida turibman-u qo'limdagi yelpig'ich bilan ul zoti sharifdan nimalarnidir haydayapman. Men bu voqea haqida tushning ta'birini aytuvchilardan so'rasam, ular: «Siz Payg'ambar alayhissalom qavllarini kizbdan, ya'ni xato-yu yolg'ondan tozalagansiz», deyishdi.

Mana shu gap mening zimmamga «Al-Jomi' as-sahih»ni yozishni yukladi. Imom Buxoriy g'oyatda taqvodor va pokiza inson bo'lgan-

ligidan Janob payg‘ambarimizning sahih hadislarini to‘plashga juda katta mas’uliyat va halollik bilan yondashgan. Shu boisdan ham allomaning o‘zi: «As-sahih» kitobimga tahorat qilib ikki rakaat namoz o‘qimasdan turib, birorta ham hadis kiritmaganman», – deb ta’kidlaydi. O‘rni kelganda shuni ta’kidlash joizki, payg‘ambar hadislariga bag‘ishlab o‘sha davrda yaratilgan asarlarga xilma-xil hadislar bilan bir qatorda, sahobalarning qavllari-yu tobeinlarning fatvolari ham kiritilgan.

Imom Buxoriyning bu yirik asari olti yuz ming hadisdan saralanib, sahihlari tanlab olingan va o‘n olti yil davomida ta’lif etilgan. Hadis ilmi va uning turli tarmoqlari, roviylar tarixlaridan har tomonlama to‘liq va keng qamrovli ilmga ega bo‘lishi, hadislarni to‘plash maqsadida turli mamlakatlarga ilmiy safarlar qilishi, ko‘p sonli va xilma-xil saviyadagi ustoz-u shayxlardan hadislar yozib olinganligi va nihoyat, uning quvvayi hofizasi aql bovar qilmaydigan darajada kuchliligi, noyob qobiliyati va fidoyiligi – mana shu omillar allomaga «Al-Jomi’ as-sahih»dek ilmiy va amaliy jihatdan yuksak saviyada bo‘lgan yirik asar yaratish imkoniyatini berdi.

Imom Buxoriy o‘z ijodiy faoliyati davrida yigirmadan ortiq asarlar yaratgan. «Al-Jomi’ as-sahih» («Ishonchli to‘plam»), «Al-Adab al-mufrad» («Adab durdonalari»), «Kitob al-kuna» («Kunyalar haqida kitob»), «Kitob al-favoid» («Foydali ashyolar haqida kitob»), «At-ta’rix al-kabiyr» («Katta tarix»), «At-ta’rix al-avsat» («O‘rta tarix»), «At-ta’rix as-sag‘iyr» («Kichik tarix»), «Al-Jomi’ al-kabiyr» («Katta tayanch») va boshqalar.

Muhaddislar sultoni Imom Buxoriy o‘z ona shahriga qarab yo‘l oladi. Buxoro ahli u kishini juda go‘zal tarzda kutib olishdi. Shaharning bir farsax narisida qubbalar o‘rnatildi. Aholi uning istiqboliga chiqadi. Ustidan dirxamlar-u dinorlarni sochadilar. Bir qancha muddat masjidda ularga hadis aytadi. Imom Buxoriyning shon-shuhrati turli tomonlarga tarqab, ko‘plab hadis tolibiari to‘da-to‘da bo‘lishib, un-

ing huzuriga kela boshlagach, Tohiriylarning Buxorodagi amiri Xolid ibn Ahmad az-Zuhriy Imom Buxoriydan o‘z saroyiga kelib, unga va uning o‘g‘illariga «Al-Jomi’ as-sahih» va «At-ta’rix al-kabiyr» kabi asarlaridan saboq berishni talab qiladi. Shunda alloma amirdan kelgan xabarchiga: «Men ilmni xor qilib, uni hukmdorlar eshigiga olib bormayman», degan javobni beradi. Shundan keyin amir, agar Imom Buxoriy amir saroyiga kelishni xohlamasa, bolalar uchun alohida, maxsus vaqt ajratib dars berishni, unda boshqa talabalar ishtirok qilmasligini ta’kidlab, yana vakilini yuboradi.

Lekin Imom Buxoriy amirning bu talabiga ham rad javobini beradi, chunonchi, ilm olmoqliq Payg‘ambar alayhissalom meroslaridan bo‘lib, bunda har bir inson – xos-u avom teng huquqqa ega, dedi va agar amirda undan dars olish ehtiyoji bo‘lsa, uyiga yoki bo‘lmasa masjidga kelishini so‘rab: «Agar bu taklifim sizga ma’qul bo‘lmasa, siz hokimsiz, meni saboqlarimdan (ilmiy yig‘inlarimdan) ma’n qiling (to‘xtating), bu menga odamlardan o‘z ilmimni bekitmayotganim uchun qiyomat kunida Alloh huzurida bir uzr bo‘ladi», dedi. Mana shu dadil javobdan keyin Buxoro amiri qattiq g‘azablanadi va allomani shahardan chiqarib yuborish yo‘llarini izlaydi. Lekin Imom Buxoriy millionlab musulmonlarning qalbini o‘ziga rom qilib, ularning cheksiz hurmati-yu muhabbatiga sazovor bo‘lganligidan amir o‘z hokimiyati-yu saltanati kuchi bilan uni shahardan chiqarib yuborishga muvaffaq bo‘la olmadi. Shundan keyin u bir guruh beandisha, nopok kimsalarni topib, Imom Buxoriyga nisbatan xaloyiqning g‘azabini qo‘zg‘aydigan yolg‘on-yashiq tuhmat va bo‘htonlardan aybnomalarni to‘qishni buyuradi. Ular Imom Buxoriy to‘g‘risida xilma-xil bo‘lmag‘ur bo‘hton va tuhmat gaplar tarqatadilar, natijada amir allomadan shaharni tark etib chiqib ketishni talab qiladi.

Imom Buxoriy Buxorodan chiqib ketgach, Poykandga keladi. G‘animlar Buxoroda allomaga qarshi o‘zlari to‘qigan ig‘vogarona tuhmatlarni chor atrofga tarqatishga zo‘r berib uringan edilar. Shu

bo'lsdan bu bo'hton xabar Imom Buxoriydan oldin Poykandga kelib yetgan, Poykand ahli esa bu masala xususida ikki toifaga bo'lingan edi. Ularning bir qismi Imom Buxoriyni ushbu tuhmatdan himoya qilib, uning tarafini olsa, ikkinchi qismi fisq-u fasodchilarni qo'llab-quvvatlaganlar. Imom Buxoriy Poykand ahli o'rtasidagi ushbu ixtilofdan voqif bo'lgach, bu shaharda yashashni o'ziga munosib ko'rmadi. Samarqand ahli Imom Buxoriy Poykandga kelganini bilgach, uni Samarqandga, unda muqim istiqomat aylab, mudarrislik qilishga taklif etadi. Bunga rozilik bildirgan Imom Buxoriy Poykanddan chiqib, Samarqand tomon ravona bo'ladi va shahar yaqinidagi Xartang qishlog'ida bir qarindoshinikida to'xtaydi. Lekin Imom Buxoriy Buxoroda ko'tarilgan fitna Samarqandga ham yetib kelganini eshitib, ish bir taraf bo'lguncha, Xartangda turmoqni ma'qul ko'radi. Bir kechasi siqilib, kechqurungi namozlardan forig' bo'lganidan keyin: «Ey Alloh, yer shuncha keng bo'lishi bilan menga torlik qildi, endi meni o'z rahmatingga qabul et», – deb duo qildi.

Muhammad ibn Abu Hotam al-Varroq shunday yozadi: «G'olib ibn Jabriyldan eshitg'ondim: Xartangga kelg'onida, Imom Buxoriy aning uyinda to'xtag'on edi. U shunday deb so'zlaydur: «U (Imom Buxoriy) mening uyimda bir necha kun yashag'onidan keyin Samarqand ahlidan chopar kelib, alar o'z shaharlariga taklif qilg'onida, u rozilik bildirg'onidi, ammo shu mahal ul betob bo'lib qolg'ondi.

Imom Buxoriy hozirlik ko'rib, kavush va yaktagini kiydi va otga minmoq uchun o'shul tomon qarab yigirma qadamcha yurg'och (men aning qo'ltig'iga kirib ko'maklashib borurdim, o'zga bir kishi esa otning jilovini tutg'ondi) ul bizga o'tinib: «Meni o'z holimga qo'yingiz, mazam qochdi», dedi. Biz ani ohista yerga o'tqazdik. U pichirlag'onicha, botinida bir qancha duolar o'qidi-da, yerga yotib oldi va bandalikni bajo kelturdi. So'ngra andin juda ko'p ter oqdi. G'assol uni yuvib, kafanga o'ramaguncha ham marhumdan ter tepchip turdi».

Imom Buxoriy dafn qilingandan keyin uning qabri uzra shunday xushbo‘y riyha (hid) taraldiki, muarrixlar uni mushk va anbar hidiga qiyoslab tashbeh keltirdilar. Bu mujda el orasida yoyildi va bunga ishonch hosil qilish uchun odamlar juda uzoq manzillardan ham ziyoratga kelib, marhumning muborak xokidan olib keta boshladi. Bu hol to‘xtovsiz davom etganligidan xartangliklar xavotirga tushdi. Chunki bu ketishda qabrning ochilib qolishi hech gap emas edi. Darhol qishloq ahli qabr atrofini ihotalab qo‘ydi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: «Islom olamida Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom hadislari to‘plamining ishonchli manbai deb e’tirof etilgan «Al-Jomi’ as-sahih» to‘plami barcha muhadddislar ustozi bo‘lmish Imom Buxoriyning ko‘p yillik fidokorona izlanishlari samarasidir. O‘n ikki asrdirki, ushbu asar ahamiyatiga ko‘ra, muqaddas Qur’ondan keyin islom dini haqidagi ikkinchi ishonchli yozma manba bo‘lib qolmoqda. Nafaqat bizning yurtimiz, balki boshqa mamlakatlardan ham minglab, millionlab musulmonlar bu tabarruk zot tug‘ilgan Buxoroyi sharifga borish va uning Samarqanddagi qabrini ziyorat qilishga intilishi beiz emas, albatta»[1].

Imom Muhammad ibn Iso at-Termiziy (824 – 892)ning ota-onasi va oilasi haqida manbalarda aniq ma’lumotlar keltirilmagan. Tarixchilar uning: «Bobom asli marvlik edi, u kishi Lays ibn Sayyor zamonida yashagan, so‘ng u yerdan Termizga ko‘chib kelgan», – degan fikrini keltiradi.

Imom Termiziy muborak hayotini hadisning oltin davri deb nom olgan purhikmat zamonda ilmga amal qilish bilan uni to‘lg‘azib yashagan. Ya’ni, ilm ham, amal ham limmo-lim to‘la hayotda umrguzaronlik qilgan. Ilm tahsili yo‘lida har qanday qimmatbaho narsalarni ayamasdan sarflab, so‘ngra uning mahsulini ilm ahli bilan baham ko‘rgan.

---

[1] Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T.: «O‘zbekiston», 2017, 28–29-betlar.

U zotning hadis va turli arabiy fanlardan tahsil olish, boshqalarga ta'lim berish uchun bir necha marotaba talabi ilm safarlarini uyushtirdi. Bunda xolis niyat bilan yo'ldagi ba'zi xavf-xatarlarda, gohida uchrab qoladigan tahlikali vaziyatlarda Allohning o'zigagina tavakkal qilib, undan najot so'rab, faqat ilm talabida shahardan shaharga ko'chib yurgan. Jumladan, Termizdan Marvga, undan Nisoburga, so'ngra Rayga, u yerdan Xurosonga, keyin Sherozga, undan Bag'dod, Kufa va Basra kabi shaharlarga, Hijozdagi Makkayi mukarrama va Madinayi munavvara singari shaharlarda turib ilmini rivojlantiradi. O'sha davrdagi yirik ilmiy markazlarning hadis imomlariga va ulug' ustoz-shayxlariga uchradi. U kishilardan hadislar tinglab, ularni yozib olish va yodlash bilan kifoyalanib, rivoyat qiladi.

Imom Termiziy zehnining o'tkirligi hamda quvvayi hofizasi kuchliligi xususida tarixiy manbalarda ko'plab misollar, rivoyatlar bor. Jumladan, arab tarixchisi Shamsuddin az-Zahabiyning (1274–1347) «Tazkirat ul-huffoz» («Hofizlar haqida tazkira») nomli asarida quyidagi hikoya keltiriladi: Imom Termiziy Makkaga hajga borayotganida yo'lda mashhur muhaddislar bilan muloqotda bo'ladi va ularning biridan hadislardan saboq berishini iltimos qiladi. U olim: «Bo'lmasa qog'oz-qalam ol», degan. Aksiga olib shu payt qalam topa olmagan va olim ro'parasida o'tirib eshitgan hadislarini yozib olayotgandek qog'oz ustida, qo'lini harakat qildiravergan. Olim esa turli-tuman hadislardan yetmishga yaqinini hikoya qilgan. Shu orada olim qog'ozga qarab unda hech qanday yozuv yo'qligini ko'rgan va Imom Termiziyning bu ishidan jahli chiqqan. Imom Termiziy shunda bamaylixotir: «Siz aytgan hadislaringizni yoddan aytib beraymi?», – degan-u hozirgina olimdan eshitgan hadislarning hammasini birin-ketin takror aytib bergan. Imom Termiziyning xotirasi kuchliligidan o'sha olim hayratga tushib, qoyil qolganligini bildirgan.

Bu xususda yana bir hikoya Imom Termiziyning so'ziga asoslanib keltiriladi: Makkaga ketayotganimda bir shayx to'plagan

hadislardan ikki qismini yozib olgan edim. Tasodifan o‘sha shayx bilan uchrashib qoldim. Yozib olingan hadislar mazmunan ularga o‘xshash-u, biroq boshqa hadislar ekan. Salom-alikdan so‘ng hadislarni aynan uning o‘z og‘zidan eshitishni iltimos qildim. U rozi bo‘lib, hadislarni hikoya qila boshladi. Keyin menga qarab qo‘limdagi oq qog‘ozni toza, ya’ni hech narsa yozilmagan holda ko‘rgach: «Bu qilig‘ing uchun mendan uyalmaysanmi?» – dedi. Men ma’zurona holda bor haqiqatni aytib: «Siz hikoyat qilgan hadislarning hammasini yoddan bilaman», dedim va uni birin-ketin so‘zma-so‘z aytib berdim. Shayx esa so‘zlarimga ishonqiramasdan: «Nima, mening huzurimga kelishdan oldin ularni maxsus yodlagan edingmi?» – dedi. «Yo‘q», deb javob qilib: «Agar so‘zlarimga ishonmasangiz, boshqa hadislardan ayting», dedim. Shunda u o‘zining g‘aroyib hadislaridan qirqtasini hikoya qildi. Men unga ularni ham boshdan oxir birma-bir aytib berdim. Shunda u: «Senga o‘xshaganini hech qachon ko‘rmagan edim», – dedi.

Ulug‘ muhaddis Imom Termiziy ulamoyi kiromlardan buyuk muhaddis Imom Buxoriy, Imom Abu Muslim Nisoburiy, Imom Abu Dovud Sijistoniy, Imom Nasoiy, Imom Dorimiy Samarqandiy, Imom ibn Moja Qazviniy, Imom Ahmad ibn Xanbal Bag‘dodiy va boshqa bir qancha ko‘zga ko‘rinib, hadis rivoyati sohasida tanilgan muhaddis, mujtaqid, allomalar bilan zamondosh bo‘lib, hadis ilmi dunyosida umrguzaronlik qilgan.

Fiqh ilmi, ya’ni islom huquqshunosligi eng sharifli ilmlardandir. Payg‘ambarimiz (s.a.v.): «Mingta johil obiddan ko‘ra bitta faqh yaxshiroq», deb marhamat qilganlar. Chunki inson faqh bo‘lsa, uni hech narsa chalg‘ita olmaydi, u har qanday oqim, guruhlarga o‘zini urmaydi. Aksincha, o‘z e’tiqodida sobitqadam bo‘ladi. Faqhning eng ulug‘i esa sog‘lom e’tiqoddir. Xanafiy mazhabining asoschisi hazrati Imomi A’zam e’tiqod ilmini «fiqhi akbar» deb, ya’ni «ulug‘ fiqh» deb ta’riflaganlar.

Imom Termiziyning «al-Jomi'» asari bahsli masalalarni talqin qilishda yirik manba hisoblanadi. U ayniqsa qadimiy (qariyb unutilayozgan) ta'limotlarni o'rganish masalasida tengi yo'q asarlardan biri sifatida tan olingan. Masalan, Imom al-Avzo'iy, Iroqda yashagan mashhur imomlardan Sufyon as-Savriylarning mazhabiy ta'limotlari uzoq muddat amalda joriy bo'lgan edi.

Ibn Rohvayh nomi bilan mashhur bo'lgan xurosonlik olim Imom Is'hoq Ibrohim al-Hanzaliy, movarounnahrlik alloma Abdulloh al-Muborak al-Marvaziy mazhablarini o'rganishda ham Imom Termiziy asarining ahamiyati beqiyos edi. Bu asar nafaqat qator mazhabiy ta'limotlar, ayni vaqtda ulamolar o'rtasidagi ixtilofiy masalalarni har tomonlama o'rganishda ham alohida ahamiyatga molik edi. Shu bois bu asar haqida: «Ixtilofli masalalar haqida bizgacha yetib kelgan eng qadimiy manba», deb alohida ta'kidlanadi. Imom Termiziy asarining o'sha mazhab sohiblari va peshvolari yashagan davrga vaqt jihatdan yaqinligi asarga ishonchli manba sifatida qarashni taqozo etadi. Bu hol ayniqsa ilm ahllari va tadqiqotchilar uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, asardagi naqllarda imkon boricha kamroq xatoga yo'l qo'yilib, keyin yozilgan asarlarga nisbatan unga afzallik beriladi.

Imom Termiziyning «Al-Jomi' as-sahih» asarida fiqhiy masalalar ham ifoda etilgan bo'lib, ularni tadqiq etishda uchta muhim jihatga e'tibor berishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Birinchi masala – Imom Termiziyning fiqhiy yo'nalishi.

Ikkinchi masala – u rivoyat qilgan hadislarda mazhabiy isnodlarning o'rni.

Uchinchi masala – fiqhiy masalalar ifodasi.

Mana shu masalalarni batafsil ko'rib chiqish Imom Termiziyning fiqhiy masalalardagi qarashlarini to'liq ifoda etadi.

Imom Termiziyning fiqhiy yo'nalishi. Hijriy ikkinchi asrni islom dinida fiqhiy masalalarda uyg'onish davri, desak hech bir mubo-

laga bo‘lmaydi. Chunonchi, ayni shu paytda ijtihod degan masala paydo bo‘lib, bu sohada turli mazhablarning asxoblari – yirik ulamolar yetishib chiqqan.

Ijtihod – Qur’oni karim va payg‘ambar alayhissalom hadislariga asoslangan holda davr taqozosini hisobga olib, jamiyat taraqqiyoti va ma’naviyati ravnaqiga xizmat qiladigan foydali g‘oya va mafkuralar yaratish, muammolarni hal etishning maqbul, yangi yo‘llarini topishdir. Bu hol, albatta, islom dinining o‘ziga xos xususiyatlaridan hisoblanadi. Binobarin ilm-fan taraqqiyotidagi o‘zgarishlarni teran anglab, shariat ahkomlarini zamonga mos ravishda talqin qilish har qanday davrda ham xalqimizning har tomonlama taraqqiy etishiga sezilarli vosita bo‘lgan.

Imom Buxoriy, Imom Termiziyga o‘xshash nufuzli muhaddislar Qur’oni karim, payg‘ambar hadislari, sahobayi kiromlarning asarlarini butun mazmun-mohiyati bilan egallaganliklari tufayli, ularda ijtihodiy qarashlar mavjud bo‘lsa-da, lekin ular taqlidchilarga mansub emasdilar. Ular o‘z ijtihodiy g‘oyalari haqida baralla gapirib, shunga amal qilardilar, ayniqsa ixtilofli masalalar paydo bo‘lgan vaziyatlarda bu holatga ko‘proq rioya qilardilar.

Turli mazhablar va g‘oyalarga munosabat masalasida Imom Termiziyning tutgan mavqeyi payg‘ambar alayhissalomning hadislari va faqat dalil-isbotlar bilangina xulosa chiqarishga asoslangan edi. Albatta, bunday hollarda faqat sahiyh hadislar va eng kuchli dalil asosiy rol o‘ynar edi. U o‘z ustozlari – eng avvalo Imom Buxoriyning va boshqa hadis ilmidagi ulamolarning ta’sirida ahl ar-ray mazhabiga emas, ahl al-hadis yo‘lida sobitqadamlik bilan fikr yuritdi, uni chuqur tahqiq va tadqiq (istinbot) etish orqali o‘z fikr-mulohazalarini bildirdi.

Shu bilan bir qatorda, Imom Termiziy payg‘ambar alayhissalom hadislarini to‘plashga alohida e’tibor bilan qaraydi. Bu borada u har qanday qiyinchiliklarga bardosh beradi. U o‘zi o‘qigan yoki biror roviydan eshitgan hadisini alohida qog‘ozlarga qayd etib borar, ular-

ning asli va isnodini izchillik bilan aniqlab, to‘g‘riligiga to‘liq ishonch hosil qilsagina maxsus qog‘ozlarga qayd etardi. Hadislarning to‘g‘riligiga shubha bo‘lganda ularni alohida ajratib yozardi. Shu tariqa hadislar sahiyh (to‘g‘ri, ishonchli), hasan (yaxshi, ma’qul), zaiyf (bo‘sh, ishonchsiz), g‘ariyb (g‘alati) kabi xillarga ajratilgan.

O‘z ustozlari Imom Buxoriy, Imom Abu Muslim asos solgan xayrli ishni Imom Termiziy chuqur mas’uliyat va katta idrok bilan davom ettirdi. Hadisshunoslikning ilmiy asosda rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shib, musulmon dunyosidagi eng nufuzli muhaddislardan biri darajasiga ko‘tarildi. Imom Termiziyning shoh asari bo‘lmish «Al-Jomi’ as-sahiyh» olim mashaqqatli mehnatining mahsuli sifatida hadis ilmida katta ahamiyatga ega. Eng avvalo shuni aytish kerakki, muallif o‘z asarini alohida-alohida boblarga bo‘ladi, imkoni boricha har bir hadis roviylarini keltiradi. Har bir hadisdan keyin uning ishonchli yoki ishonchsizlik darajasini aniqlabб alohida ko‘rsatadi. Shular bilan bir qatorda asarda pand-nasihat, axloq-odob, go‘zal xulq-u fazilatlar xususida ham juda ko‘p hadisi shariflar keltirilganki, bu darajadagi hadislar hech bir muallif asarida uchramaydi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Imom Termiziy o‘z ustozi va safdoshi Imom Buxoriy suhbatida bo‘lganda u Imom Termiziyga: «Men sendan ko‘rgan foyda sen mendan ko‘rgan foydadan ko‘proq», deb uning bilimi va aql-idrokiga yuksak baho bergan. Mana shu keltirilgan fikr-mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, Imom Termiziy hadis ilmining ravnaqiga munosib hissa qo‘shgan buyuk alloma bo‘lgan. Shu bilan bir qatorda Imom Termiziy faoliyatiga bir qadar ta’na bilan qaragan olimlar ham bo‘lgan. Uni sahiyh va hasan hadislar darajasi (rutbasi)ni aniqlashda biroz ko‘ngli bo‘sh, iltifotli bo‘lgan. Bu shundan iboratki, ba’zi bir sahiyh yoki hasan hadislar ushbu darajaga loyiq bo‘lmasa ham ularni sahiyh va hasan deb qabul qilgan deyiladi. Mana shunday Imom Termiziyga ta’na bildirganlardan biri tarixchi

Shamsuddin az-Zahabiy bo‘lib, u o‘z asari «Miyzon al-e’tidol»da bu e’tirozini bildirgan. Lekin Imom Termiziy ijodini chuqur o‘rgangan qator tadqiqotchilar az-Zahabiy e’tirozlari aksar holda asossiz ekanligini ilmiy, asosli xulosalar bilan isbotlagan.

Hadis ilmi bilan shug‘ullangan muhaddislar hadislarni boblarga bo‘lish (tabviyb)ga, tarojum va unvonlar (anoviyn)ga alohida e’tibor berganlar. Bu masalalar muallifdan yuksak salohiyatni talab qiladi. Boblarga bo‘lish masalasi yaxshi hal bo‘lgan asarlarning bir tomondan, ilmiy ahamiyati katta bo‘lsa, ikkinchi tomondan, bu zayldagi asarlar ulkan amaliy ahamiyatga ham molikdir. Chunonchi, undan foydalanuvchi har bir kishi istagan masala bo‘yicha kerakli ma’lumotga ega bo‘lishi mumkin. Mana shu tarzdagi ilmiy-amaliy ahamiyatga molik olti kitob eng ishonchli manba hisoblanadi. Ular olti kitob (kutub sitta) yoki olti sahiyh kitoblar (as-sihoh as-sitta) deb ataladi: al-Buxoriyning «Sahih», Muslim ibn Hajjojning «Sahih», at-Termiziyning «Al-Jomi’», Abu Dovudning «as-Sunan», An-Nasoiyning «al-Mujtabo» yoki «as-Sunan» va Ibn Moja al-Qazviniyning «as-Sunan» asarlari.

Imom Termiziyning o‘zlari o‘z kitobi haqida bunday deydilar:«Ushbu kitobni tasnif qilganimdan keyin, uni Hijoz, Iroq va Xuroson ulamolariga taqdim etdim. Ular rozilik bildirib, qabul qildilar. Kimning uyida bu kitobdan bo‘lsa, o‘sha xonadonda xuddi Payg‘ambar sallallohu alayhi vasallam gapirayotgandek bo‘lur...»

Imom Termiziyning ijodiy faoliyatida yaratilgan asarlar ichida «Al-Jomi’ as-sahih» («Ishonchli to‘plam») eng asosiy o‘rinni egallaydi. Tarixchi Ibn Xajar al-Asqaloniyning yozishicha, Imom Termiziy ushbu asarini 884-yilda, ya’ni qariyb oltmish yoshlarda, ilm-fanda katta tajriba orttirib, imomlik darajasiga erishgandan keyin yozib tugatgan.

Imom Termiziyning boshqa bir yirik asari «Ash-Shamoil an-nabaviya» («Payg‘ambarning alohida fazilatlari») deb ataladi. Bu

asar ba'zi manbalarda «Ash-shamoil an-nabiy sallallohu alayhi vasallam», «Ash-Shamoil al-Muhammadiya» nomlari bilan ham keltirilgan. Asar payg'ambar alayhissalomning shaxsiy hayotlari, U Zotning suvrat va siyratlari, ajoyib fazilat va odatlariga oid to'rt yuz-u sakkiz hadisi sharifni o'ziga jamlagan qimmatli manbadir. Bu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, ushbu mavzu, ya'ni payg'ambar alayhissalomning fazilatlari, odatlari haqidagi hadislarni to'plash bilan juda ko'p olimlar, muhaddislar shug'ullanganlar va bu xildagi hadislar turli-tuman kitoblardan o'rin olgan.

Lekin Imom Termiziy asarining boshqalardan afzalligi va farqi shundaki, muallif imkoni boricha payg'ambar alayhissalom fazilatlariga doir barcha hadislarni muntazam ravishda to'plab, mantiqan izchil bir holatda tartibga keltirgan va o'ziga xos mustaqil, yaxlit kitob shaklida tasnif qilgan. «Ash-Shamoil an-nabaviya» azaldan islom-shunos olimlar va tadqiqotchilarning diqqatini o'ziga jalb qilib keladi. Arab tilida bitilgan ushbu asarga bir qancha sharhlar va hoshiyalar ham yozilgan. Ulardan Abdurauf al-Munoviy al-Misriyning (vafoti 1003-hijriy yili) «Sharh ush-shamoil», Ali ibn Sulton al-Haraviy al-Qoriyning (vafoti 1192-hijriy yili) «Jam' ul-vasoil fi sharhi ash-Shamoil», Sulaymon ibn Umar ibn Mansur al-Jumalning «Al-Mavohib al-Muhammadiyya bisharh ash-shamoil at-Termiziyya» kabilarni keltirish mumkin.

Bu asarning bir qo'lyozmasi Qohiradagi al-Azhar kutubxonasida 144 hadis ilmi raqami ostida saqlanmoqda, «Ash-shamoil an-nabaviyya»ning tuzilishi va tarkibi haqida gapiradigan bo'lsak, bu muxtasar asar ellik olti bobga bo'linib u «bobun joa fi xalqi Rasulullah sallallohu alayhi vassallam», ya'ni «Rasulullah sallallohu alayhi vassallamning jismi karimlari haqida rivoyat qilingan hadis shariflar bobi» dan tashkil topgan. Umuman olganda, mazmun-mohiyatiga ko'ra asarni ikki asosiy qismga bo'lish mumkin. Birinchi qismga mansub hadislar payg'ambar alayhissalomning suvrat (tashqi qiyofa)lariga bag'ish-

langan. Bularga ko‘ra payg‘ambarimiz novcha ham, pakana ham bo‘lmay, balki o‘rta bo‘yli, yag‘rindor, qo‘llari bo‘lali, go‘shtdor va doimo jun bilan qoplangan, kaftlari bo‘liq, qirg‘iyburun, peshonalari keng, ko‘zlari katta-katta bir zot bo‘lgan.

Asarning ikkinchi qismida keltirilgan hadisi shariflar esa payg‘ambar alayhissalomning siyratlari – ichki dunyosi va axloqiy fazilatlarini bayon qiladi. Bu hadislar bilan tanishar ekanmiz, Muhammad alayhissalom axloqiy jihatlardan namunaviy, mukammal bir siymo ekanligini, muomalada U Zotning katta-yu kichik, ayol-u erkak, boy-kambag‘allar bilan o‘zini bir xil muomalada tutishlarini, ro‘zg‘or va oila yumushlarida o‘z ayollariga astoydil yordam berishlarini, basharti biror gunoh qilib qo‘ygan kishi uzr so‘rasa, uning gunohlarini kechirganlarini, yo‘lda uchragan barcha kishilarga birinchi bo‘lib salom berib, samimiy hol-ahvol so‘rashlarini bilib olamiz.

O‘z ijodiy faoliyati davomida Imom Termiziy o‘ndan ortiq asarlar yaratdi. Uning madaniy merosida, shubhasiz, «Al-Jomi’ as-sahih» («Ishonchli to‘plam») asari katta ahamiyatga egadir. Muallifning yirik asarlaridan yana biri «Ash-Shamoil an-nabaviya» («Payg‘ambar alayhissalomning shakl va sifatlari»)dir. «At-ta’rix», «Kitob al-ilal as-sag‘iyr va al-kabiyr», «Kitob uz-zuxd» («Zohidlik haqida kitob»), «Kitob ul-asmo val-kuno» («Ismlar va kunyalar haqida kitob»), «al-Ilal fil-hadis» («Hadislardagi illatlar»), «Risola fil-xilof val-jadil» («Hadislardagi ixtilof va bahslar haqida risola» shular jumlasidandir.

Imom Termiziy o‘z davrining yetuk muhaddisi sifatida ko‘pgina shogirdlarga ustozlik ham qilgan. Uning shogirdlaridan Maqxul ibn al-Fazl, Muhammad ibn Mahmud Anbar, Abu ibn Muhammad an-Nasafyun, Hammod ibn Shokir, Xaysam ibn Kulayb ash-Shoshiy, Ahmad ibn Yusuf an-Nasafiy, Abul-Abbos Muhammad ibn al-Mahbubiy kabi yetuk olimlarni ko‘rsatish mumkin. Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, Imom Termiziyning ustoz va shogirdlari orasida turli mamlakat va

elat vakillari borligi sezilib turibdi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, uzoq o'tmishda ham ilm-fanning taraqqiyoti va ma'rifat urug'larini tarqatish borasida turli o'lkalarning vakillari yakdil bo'lib faoliyat ko'rsatib, samarali hamkorlik qilganliklari, umumbashariy qadriyatlar ravnaqi yo'lida haqiqiy baynalmilallik ruhi mavjud bo'lganligi hozirgi davrimiz uchun ham ibratli bir holdir.

Imom Termiziy asarlari hozirda ham o'z qimmatini yo'qotgan emas. Uning «Al-Jomi' as-sahiyh», «Ash-Shamoil an-nabaviya» kabi asarlarida keltirilgan hadisi shariflar katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, insonlarni halol, adolatli, iymon-e'tiqodli, diyonatli, pokiza, mehnatsevar, muruvvatli, rahm-shafqatli, ota-ona va ayollarga nisbatan hurmat-e'tiborli bo'lishga chorlaydi.

Bu ibratli pand-nasihatlar xalqimizni, ayniqsa yoshlarimizni tarbiyalashda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, buyuk bobokalonimizning shaxsiy hayoti va uning boy ma'naviy merosini chuqur va har tomonlama o'rganish ham ilmiy, ham amaliy jihatdan katta ahamiyatga egadir.

7.3. O'rta Osiyolik mutafakkirlarning kalom va fiqh ilmi rivojiga qo'shgan hissalari

Abu Mansur Moturidiy as-Samarqandiy (870–944) – imom, faqih, kalom ilmining moturidiylik oqimi asoschisi, Abu Mansur ism oldida qo'llanadigan kunyadir. Kunya esa, buyuk zotlar ismiga qo'shilib aytiladigan martabasiga aylangan. Abu – arabcha ota, Mansur – g'olib, demakdir. Bundan boshqa Imom ul-hido (haq yo'lga boshlovchi), Imom ul-mutakallimin (kalom olimlarning boshlovchisi) kabi ulug' sifatlarga ega bo'lgan. Moturid buyuk ulamoning tug'ilgan joyi bo'lib, o'sha joyni o'ziga nisba qilib olgan. Bu joy dunyoga mashhur Samarqandda bo'lganligi uchun o'z nisbasiga "as-Samarqandiy" deb yanada aniqlik bergan.

Moturidiya ta'limoti mohiyatini, paydo bo'lish sabablarini tushunmoq uchun uning asoschisi hayoti, jamiyatda tutgan mavqeini aniqlash muhim hisoblanadi. Shayx Samarqanddagi al-Ayoziy madrasasida tahsil olgan. Abu Bakr Ahmad al-Juzjoniy, Abu Nasr Ahmad ibn al-Husayn al-Iyodiy, Nusayr ibn Yahyo al-Balxiy, Muhammad ibn Muqotil ar-Roziylar unga ustozlik qilishgan.

Abu Mansur al-Moturidiyning zohidlik obrazi xalq adabiyotida ham saqlanib qolgan. Masalan, Samarqanddagi muqaddas joylar tavsifiga bag'ishlangan Abu Tohirxoja Samarqandiyning «Samariya» asarida shunday hikoya qilinadi: Shayx bir kuni bog'ida edi, Bag'dod xalifasi tomonidan shayxdan bir masalani so'ragani Samarqandga yuborilgan elchi kelib bog' eshigini taqillatadi. Hazrat yirtiq kiyim kiygan holda chiqadi.

Elchi: «Mavlono qaydadir?» – deb so'raydi.

Shayx: «Mavlono tangridir» – deb javob beradi.

Tag'in elchi: «Xoja qaydadir» – deb so'raydi.

Shayx: «Xoja Mustafodir» – deb javob qaytaradi.

Yana elchi: «Abu Mansur qaydadir» – deb so'raydi.

Shayx Abu Mansur Moturidiy: «Ushbu tilanchi keksa» – deb o'zini ko'rsatadi.

Demak, bu an'ana ham Abu Mansur Moturidiyni zohid olim sifatida tasvirlaydi.

Hazrat Abu Mansur Moturidiyning xotini dag'al va badfe'l ekan. Bir kuni shayx tandirga olov yoqayotganida xotini jahl qilib shayxning muborak orqasiga besh bor tepadi. Hazrat umrining oxirida: «O'sha besh tepki bilan besh parda o'rtadan ko'tarildi va o'ttiz ikki yil ro'za tutib, kechalari tik turishni bajo keltirdim, toki qolgan ikki hijob ham o'rtadan ko'tarilsin deb. Qani endi yana ikki tepki tepganida, bunchalik mashaqqat chekmagan bo'lur edim», degan ekan.

Alisher Navoiy «Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul Futuvvat» («Ulug'lik xushbo'yliklarini taratuvchi sevgi shabbodalari»)

nomli tazkirasida Turk mashoyixlari qismining 649 avliyo tartibida, Abu Mansur Moturidiy haqida quyidagilarni yozadi: «Shayx Abu Mansur Moturidiy quddisa sirruhu. O‘z zamonining a’lami ulamosi ermish. Ul vaqt ulamosi alarni Sultonul mu’izzuddin der ermishlar. Zohir va botin ulumi (ilmlari) bilan orosta (bezatilgan) ermishlar. Alardin g‘arib holot manquldir». Alisher Navoiy Abu Mansur Moturidiy to‘g‘risidagi vasfni daho mahoratda yozgan edilar.

Tabarruk ilmiy asarda qayd etilishicha, Abu Mansur Moturidiy avliyo martabasiga yetgan ulug‘ zotlardan bo‘lgan. Alisher Navoiy ul zotga nisbat bergan «Shayx» kalimasi ham islom ilmida va tasavvuf ta’limotida yetakchi, yo‘lboshchi ma’nosini bildiradi. «O‘z zamonining a’lami ulamosi» iborasiga kelsak, bu uning o‘sha zamon olimlarining peshqadami, eng bilimdonlarining bilimdoni ekanligini anglatadi.

Bu zamon islom olamining «Oltin davri» edi. Ilm-fan g‘oyat yuksalib, taraqqiyotga yo‘l ochgan, dunyoviy ilmlar jahonni lol qoldirgan zamon edi. Osmon ilmi, yulduzlar ilmi, Qur’on asosida Kalom ilmi, Shariat asosida fiqh ilmi, tasavvuf ta’limoti ham o‘z maqomlari bilan shakllanib mustaqil ilgarilagan, sof muqaddas e’tiqod bo‘lgan islomning fan darajasiga ko‘tarilgan zamon edi.

Hazrat Abu Mansur Moturidiy qalamiga mansub «Kitob at-tavhid» («Yakkaxudolik haqidagi kitob») asarida Allohning yagonaligi, Alloh bir ekanligi qat’iy va uzil-kesil hal etilgan. Qur’onning «Ixlos» surasi tavhid kalimasi deb ataladi. So‘ngra shariat bir, tariqat bir, ma’rifat bir, haqiqat bir, degan qonun qaror topdi. Shu sababdan, teologiya islomdan oldingi tushunchalarni qamrab olgan bo‘lsa, tavhid faqat islom bilan bog‘liq ekanligi munozarasiz haqiqatga aylandi.

Hazrat ushbu asarini Qur’oni karim asosida, uning har bir oyati, kalimasi, harfi sirini anglash nuqtayi nazaridan yondoshgan holda yozadiki, bu ulug‘ ishga, sirlar sirriga butun dunyo lol qoldi. Shuning uchun ham alloma fikriga ko‘ra, Qur’oni karim, Hadisi sharif tub

asos bo‘lib, islom aqidalari shu asosga qurilmog‘i lozim. O‘zgacha nazariyalarga, ya’ni har qanday mazhablarga, boshqacha fikrlarga o‘rin yo‘q. Bu – chinakamiga olamshumul haqiqat ediki, u bayon bo‘lganidan keyin mazhablarning xato talqinidan faqat buzuq niyatli kuchlar foydalanib keldilar.

Abu Mansur Moturidiy ta’limotiga ko‘ra, birdan bir to‘g‘ri yo‘l – ahli sunna val-jamoa yo‘li bo‘lib, boshqa har qanaqasi gumrohlikdir. Chunki islomda o‘zgartirishlar, islohotlar qilish yaramaydi. Zero, pok e’tiqod haqiqiy insoniylikka, taraqqiyparvarlik, erkinlik va hurriyatga, dunyo va barcha olamlar sirini o‘rganishga undaydi. Har qanday ishda ilm yo‘lboshchi bo‘lishini targ‘ib qiladi. Chunki nodonlik – zulmat, undan faqat ilm ziyosi tufayligina qutulish mumkin.

Masalaning eng asosiy negizi va mohiyati Alisher Navoiy hazratlari Abu Mansur Moturidiy dahosining «Zohir va botin ulumi bila orosta»ligini alohida ta’kidlab ko‘rsatilganligidir. Bundan kelib chiqadiki, «Sultonul mu’izzuddin»ning tafakkur etish, idrok qilish, umumiy qilib aytganda, bilish iqtidori o‘sha «zohir va botin» ilmlarida edi. Anig‘i, g‘ayritabiiy ilmni uning qalbiga, diliga yaratgan Allohning o‘zi inoyat qilgandi. Shu nuqtayi nazardan bu ilmlar tarixi an’anaga ko‘ra ikki turkumga bo‘lingan:

1. Zohiriy ilmlar. Bu turkumga barcha ijtimoiy va tabiiy fanlar kiritilgan. Ya’ni, kishi o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, o‘z aqlida qoyim etgan ilmdir. Kitobi hukmda esa aynul yaqin, ilmul yaqin va haqqul yaqin deb ataganlar.

2. Botiniy ilmlar. Bu turkumga Alloh o‘ziga yaqin bilgan kishi qalbiga, ko‘ngliga g‘aybi inoyat etgan ilmlar kiritilgan. Bu ilm o‘z navbatida uchga bo‘linadi:

– ilmi ladunniy – Allohning payg‘ambarlarga, orif-avliyolarga inoyat etilgan ilmdir;

– ilmi voridot – muayyan zotning aqli va fikriga inoyat qilingan bilim, tushunchalar;

– ilmi voqe' – tush asnosida ayon qilib uqtirilgan ilmlar.

Bu sirrul-asror ilmi bilan tasavvuf ta'limoti ahli bevosita shug'ullangan. Kimlarga g'ayb ilmi yuqtirilgan bo'lsa, kimlargadir yuqtirilmagan edi. Ushbu botin ilmi o'zi o'qimay, o'rganmay, ko'rmay ega bo'lgan, Allohning o'zi o'sha kishi ko'ngliga bergan ilmlardir. Demak, bu ilmlar Abu Mansur Moturidiyga ham inoyat etilgan edi.

Abu Mansur Moturidiy e'tiqod masalasida, avvalambor, Imom A'zam Abu Hanifa ta'limotiga suyangan. Ma'lumki, Imom A'zam Abu Hanifa ikki soha – fiqh va aqidaga oid yirik asar qoldirgan. Abu Mansur Moturidiy Imom A'zam Abu Hanifa ta'limotiga suyangan holda, zamon talabidan kelib chiqib, uni taraqqiy ettirdi va islomning e'tiqodiy asoslarini qayta ishlab chiqdi. Shayx o'zining ko'pgina fikrlarini «Kitob at-tahvid» asarida bayon etar ekan, xususan, o'zga toifadagi firqalarga qarshi shunday so'zlarni aytadi: «Ular tafakkur va tadqiq bilan qarasalar edi, Alloh taolo ham bandalarini tafakkur va tadqiqot, ibrat va tajriba bilan ish qilishga buyurganini tushunar edilar, ibrat va tafakkur esa ilm manbalaridan biridir».

Abu Mansur Moturidiy ta'limotining ratsional mag'zi – ma'lumotlarni qabul qilishda mu'taziliylar (islomda ilk ilohiyot oqimlaridan biri mu'tazila – ajralib chiqqanlar, uzoqlashganlar. Bu dastlabki oqim vakillari VII–IX asrlarda Bag'dod va Damashq xalifaligining diniy-siyosiy hayotiga sezilarli ta'sir o'tkazganlar) kabi faqat aqlga suyanish emas, balki aql bilan naql (Qur'oni karim va Hadis nazarda tutilmoqda)ni qo'shib foydalanishning zarurligidir. Abu Mansur Moturidiy o'z maktab an'analari va ilmiy asarlari bilan Movarounnahr islom ilohiyot maktabining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Ilohiyot ilmlari to'la shakllanib, takomiliga yetishida ularni qayta ishlab chiqib, ma'lum tizimga soldi. Shuningdek, Shayx hanafiylikning Movarounnahr xalqlari urf-odatlariga ta'sirini o'z qarashlari orqali ko'rsatib berdi. Uning islom tarixida ko'rsatgan xizmatlari ham shunda ko'rinadi.

Abu Mansur Moturidiy «sof diniy e'tiqoddagi ta'limotni bilish, aslida, oson ish emas» ekanligini uqtiradi. Shu bilan birga u sof diniy e'tiqoddagi ta'limotni bilish uchun quyidagi usullarini ko'rsatadi:

1. Jism (ya'ni, tana) orqali sezish. Bu hol barcha jonli mavjudotlarga xosdir.

2. Aqliy mulohazaga va insonlarga xos tafakkur bilan sezish.

3. Ishonchli xabarlar.

Abu Mansur Moturidiy o'sha paytda Samarqandda paydo bo'lgan qator fikr va qarashlarga e'tiroz bildiradi. Shu tariqa uning Abu Umar Bohiliy asariga raddiya sifatida yozilgan «Radd al-usul al-xamsa» asari, Ka'biy bilan bir necha bosqichlardan iborat raddiyalar majmui ham shu tariqa vujudga kelgan, Ka'biyga bo'lgan raddiyalar faqat «Kitob at-tavhid» asari bilan cheklanmagan. Yana bir necha risolalarda o'z aksini topgan: ulardan biri «Kitob radd ava'il adilla li-l-Ka'biy» deb nomlangan, asosan mashhur mu'taziliylardan biriga taalluqli bo'lgan «Ava'il adilla fi usul din» («Din asoslari ilmining asosiy dalillari») asariga qarshi ruhda bitilgan. Abu Mansur Moturidiyning har ikki asari alohida-alohida mavzu va muammolarga bag'ishlangan.

Moturidiya aqidasi Abu Hanifa ta'limoti negizida Movarounnahr aholisining siyosiy-madaniy, ijtimoiy-axloqiy, huquqiy munosabatlarini islomiy asoslar yordamida yaratib berdi. Natijada, islom nafaqat diniy e'tiqod, balki xalqning turmush tarzi, ruhiyati, qadriyatlari, tafakkuri, huquqiy, axloqiy munosabatlarining majmui sifatida o'zining juda keng ijtimoiy, ilmiy, tarbiyaviy, axloqiy vazifalarini ham bajara boshladi. Ko'rinib turibdiki, Abu Mansur Moturidiyning ilmiy faoliyati islomni ilmiy jihatdan himoya qilish edi. Shuning uchun islomning tub mohiyatidan og'gan, uzoqlashgan «Mu'taziliy»chilarga, «Butun dunyo Imomi» nomini olgan Ka'biy qarashlariga, shuningdek, Bohiliy, Rozifiy va qarmatiylarning qarashlarini ilmiy asosda fosh etib, ularning qusuri, nuqsonlari, xato fikri ilmni yo'qqa chiqara-

di. Mana bular Abu Mansur Moturidiyning amalga oshirgan olamshumul tadqiqotlari edi.

Shayx Abu Mansur Moturidiy asos solgan kalom ilmi islom ilmining aqidasiga aylandi, insoniyat tafakkur olamining ma'naviy boyligi negizini belgilab berdi. Shayx ilmiy dunyoqarashi jahon tafakkur olamida tub o'zgarishlariga olib keldi. Alloh to'g'risida necha ming yillik bahsli, har xil tushunchalarga ul zoti muborak yozgan «Kitob at-tavhid» asari yakun yasadi. Natija shu bo'ldiki, islom ilmi olamida hanafiya amali, Moturidiya e'tiqodi asos qilindi. Abu Mansur Moturidiy yozib qoldirgan ilmiy asarlar majmuasi jahon xalqlari merosi bo'lib qoldi. Bu meros Alloh, olam va mavjudotlar hamda inson tafakkur olami to'g'risidagi buyuk kashfiyotga aylandi.

Imom A'zam Abu Hanifa shariatni Qur'on asosida fiqh ilmi bilan belgilab, uni rasmiy tizimda, insonning huquqi va oshkora amalini belgilab berdi. Abu Mansur Moturidiy esa islomning Kalom ilmi bilan bir e'tiqodda bo'lishini asosladi. Bu bilan fiqh ilmida Imom A'zam Abu Hanifa, Kalom ilmida Abu Mansur Moturidiy buyuk kashfiyotlarni amalga oshirdilar. Har ikki avliyo ulamomizning ilmiy asarlari natijasida va ularning ta'sirida insoniyat olamida tubdan o'zgarishlar maydonga keldi, e'tiqodni ilmiy asosda fan darajasiga ko'tardi. Demakki, jahon fanida yangi qonun, yangi ta'limot yaratildi.

Fiqh – musulmon qonunshunosligi Sharq xalqlari va Islom madaniyati erishgan buyuk qadriyat hisoblanadi. U nafaqat diniy muammolarni, balki mo'min-musulmonlarning butun turmush tarzini ham o'z ichiga olgan. U O'rta Osiyo xalqlari, Yunon va Rum, Fors va Hind madaniyati namunalaridan kelib chiqqan holda, umuminsoniy, diniy, axloqiy va huquqiy qadriyatlarni o'z ichiga oladi. Sharq uyg'onish davri shunday qomusiy olimlarni yuzaga chiqardiki, ularning jahon ilm-faniga va madaniyatiga qo'shgan hissasi hanuzgacha hayrat bilan e'tirof etiladi.

Burhoniddin Marg‘inoniy (to‘liq ismi Abulhasan Ali ibn Abubakr ibn Abduljalil al-Marg‘inoniy) (1123–1197) imom, faqih, hofiz, muhaddis, mufassir, ko‘p ilmlarni egallagan, turli fanlar zobiti, yetuk muhaqqiq, o‘tkir chamalik, taqvodor zohid, iste’dod sohibi, fazilatli, mohir, usul ilmining egasi, adib va shoir bo‘lganlar. Ilm va odobda ul kishi misolini ko‘z ko‘rmagandir. Ixtilofli masalalarda qo‘llari uzun, mazhabda esa qulochlari keng bo‘lgan. Hazratni «Burhoniddin val-milla» degan sharafli nom bilan atashgan. Milla degani olimni ulug‘lab, uni musulmon dunyosidagi xalqlar hamda islom dinining dalili, isboti deb madh etishdir.

Burhoniddin Marg‘inoniy Qur’oni karimni yod olib, hadislarni chuqur o‘rganganlar va 1149-yilda muqaddas haj safariga borganlar. Fanlarga qiziqish olimni uzoq safarlarga borib, o‘sha davrning asosiy fanlarini chuqur o‘zlashtirish uchun imkon yaratib bergan. U butun umri davomida ilm o‘rgangan va Islom olamining hanafiy mazhabi bo‘yicha buyuk faqihi va huquqshunos alloma hamda Shayxulislom darajasiga ko‘tarilgan.

Burhoniddin Marg‘inoniy Islom olamidagi sunniylarning to‘rtta asosiy mazhabi asoschilarining asarlarini o‘rganish bilan birga, o‘zi ham fiqhga oid yirik asarlar yaratgan. «Islom Qomusi» mualliflari tomonidan berilgan ma’lumotlarga ko‘ra, o‘ndan ziyod mukammal fiqhiy asarlar Burhoniddin Marg‘inoniy qalamiga mansubdir.

Burhoniddin Marg‘inoniy «Bidoyat ul-mubtadi’»ni Al-Husayn ibn Ahmad ibn Muhammad ibn Hasan ash-Shayboniyning «Al-Jomi’ us-sag‘iyr» asariga asoslanib, bir qisqartirilgan fiqh kitobi sifatida yozib, undagi masalalarni tartibga solishda, tabarruk bo‘lsin deb, ash-Shayboniy uslubidan foydalangan. «Bidoyat ul-mubtadi’» kitobida Burhoniddin Marg‘inoniy shunday deydilarki: «Ilgarilari xotirimda fiqh borasidagi kitob bo‘lsa, unda fiqh navi bo‘lib, hajmi kichik, mazmuni keng bo‘lsa edi».

Ko‘p izlanishlardan so‘ng Muhammad Abul Hasan Quduriy holatlariga mansub bo‘lgan, juda go‘zal, juda puxta va juda ajoyib kitob bo‘lmish «Muxtasar»ni topdim. Zamona kattalari barchani «Al-Jome’ us-sag‘iyr» kitobini yod olishga targ‘ib qilar edilar. Men ushbu ikki kitobni birlashtirib, bir kitob holiga keltirishga va kitobda yuqoridagi ikki kitobdan chetga zaruratsiz chiqmaslikka qaror qildim va u kitobni «Bidoyat ul-mubtadi’» deb nomladim».

Alloma kitobdagi boblarni tartibga solishda «Al-Jome’ us-sag‘iyr» muallifi Muhammad ibn ul-Hasan tanlagan tartibni tabarrukan tanlaganlar. Olim: «Agar ushbu kitobni sharhlay olsam, «Kifoyat ul-Muntahiy» deb nomlar edim», degan edilar. Bir oz vaqt o‘tgach, kitobni sharhlashga muvaffaq bo‘lganlar. «Kifoyat ul-Muntahiy» («Yakunlovchilar uchun tugal ta’limot») sakson jildlik buyuk kitobdir.

Ushbu kitob katta bo‘lib ketgach, Burhoniddin Marg‘inoniy sharhsiz qolishidan qo‘rqqach, ikkinchi bir kitob matnini qisqa, lo‘nda, foydali, barcha ma’nolarni qamrab oluvchi qilib sharhlaganlar va uni «Hidoya» deb nomlaganlar.

Burhoniddin Marg‘inoniyning ijod va bayon uslubi o‘ziga xos. Jumladan, olim qalbida zarracha bo‘lsin manmanlik tuyg‘usi oralab qolishidan cho‘chib, asarlarida o‘z fikrini birinchi shaxs lafzida izhor etishdan istihola qilgan. Shu sababli o‘z fikrlarini «u zaif qul dedi» iborasi vositasida izhor qilgan. Keyinchalik olim asarlaridan nusxa ko‘chirgan shogirdlari va izdoshlari bu iborani «u zot shunday dedi» shakliga o‘zgartirganlar.

Allomaning bayon uslubidagi yana bir xususiyat – muayyan masalalar bo‘yicha eng to‘g‘ri hukmni turli nuqtayi nazarlardan keltirish bo‘lgan. Natijada, qator keltirilgan dalillar qiyoslanib, eng so‘nggi o‘rindagi xulosa masalaning to‘g‘ri javobi sifatida qabul qilingan. Fiqhiy asarlarida zikr qilingan mavzularning qamrovi kengligi muallifdan bunday asarlarning qisqa hajmli bo‘lishi uchun zarur

uslublarga murojaat qilishni taqozo qilgan. Natijada, olim asarlarida Samarqand va Buxorodan chiqqan ulamolarga ishora qilganda, «Bizning shaharlarimiz» iborasini, Movarounnahr hududidagi shaharlarni nazarda tutganda, «Bizning diyorimiz» degan shaklni ishlatishni odat qilgan.

Bundan tashqari, muallif o'z asarlarida boshqa manbalardan iqtibos keltirgan o'rinlarda «yuqorida zikr qilganimizdek», «bayon qilganimizdek» shaklini qo'llagan holda, Qur'on oyatlari haqida so'z ketganda «tilovat qilganimizdek» iborasini ishlatadi va shu yo'l bilan Qur'oni karimga alohida hurmat namoyon qiladi.

Burhoniddin Marg'inoniyning bayon uslubidagi mazkur o'ziga xosliklar asar yozishdan ko'zlangan asosiy maqsadni to'laqonli va tushunarli tarzda taqdim etishga va ayni paytda asar hajmini juda katta bo'lib ketmasligiga xizmat qilganligi bilan ahamiyatlidir.

Burhoniddin Marg'inoniyning hayot tarzida ham go'zal bir odob bor edi. U kishi har bir jiddiy ishni haftaning chorshanba kuni choshgoh paytida boshlashga odatlangan edi. Bunga bir hadisi sharifda haftaning chorshanba kuni boshlangan har qanday ezgu ish muvaffaqiyatli bo'lishi haqidagi fikr sabab bo'lgan.

Alloma fiqhga oid asarlar yozishda o'zidan oldingi mualliflarda kuzatilmagan quyidagi yangi uslublarni qo'llaydi:

– huquqiy masalalarni oyat, hadis, sunnat dalillari bilan asoslash;

– muayyan huquqiy masalalar bo'yicha mazhablardagi hukmlar bir-biridan farqlangan hollarda barcha hukmlar keltirilib, ayni shu xildagi hukmni chiqarishga asos bo'lgan dalillarni ko'rsatish;

– mavjud fiqhiy dalillarni zikr etishda ularning bevosita manbasi va bu voqeaga guvohlik qilgan tarixiy shaxslarning nomlarini keltirish;

– fiqhiy masalalarni Movarounnahr allomalarining fikrlari va hukmlari bilan taqqoslagan holda asoslash;

– fiqhiy qoidani asoslashda tarixiy voqealardan dalil sifatida foydalanish.

Burhoniddin Marg'inoniyga xos bu ijobiy xususiyatlarning ayrimlarini o'sha davrda yozilgan boshqa asarlarda ham uchratadi. Biroq, bu xususiyatlarning barchasi bir asarda jam bo'lishi «Hidoya»ni boshqa asarlardan afzalligini ta'minladi.

«Hidoya» (*arab.* – yo'llanma: to'la nomi «Hidoya fi furu' al-fiqh» – «Fiqh sohalari bo'yicha qo'llanma») – hanafiylikda keng tarqalgan shariat qo'llanmasi (kodeks). Uni Burhoniddin Marg'inoniy 13 yil davomida yozgan. Qo'llanmani yaratishda Qur'on oyatlariga, dastlabki to'rt xalifa, sahobalar va tobe'inlarning rivoyatlari, hadislar, sunniylikdagi to'rt mazhab asoschilarining asarlariga tayangan.

«Hidoya» 4 jild, 57 kitob, 165 bob, 152 fasldan tarkib topgan. Hidoyaning 1-jildi 5 kitobdan iborat bo'lib, tahorat va amaliy ibodatlar (namoz, ro'za, zakot va haj)ga bag'ishlangan. 2-jildga nikoh, taloq, qulni ozod qilish, topib olingan bolalarning nasabini aniqlash, bedarak yo'qolganlar, sherikchilik, vaqf huquqi kabi masalalar kiritilgan. 3-jildda oldi-sotdi, pul muammolari, kafolat, qozilarning vazifalari, guvohlik, vakolat, da'vo, sulh, qarz berish, sovg'a, ijara, voliylik, homiylik kabi masalalar o'rin olgan. 4-jildda merosni taqsimlash, vasiyat, shartnoma, ovchilik, garovga berish, jinoyatlar xususida xun haqi to'lash kabi masalalar yoritilgan.

Burhoniddin Marg'inoniyning «Hidoya» asari yozilish uslubi bo'yicha ajralib turadi. Unda huquqiy muammolarning yechimi dastavval mashhur faqihlarning fikr-mulohazalarini bayon qilish va unga boshqa faqih olimlarining e'tirozlari va qo'shilishlarini izhor qilish yo'li bilan berilgan. Xuddi shunday umume'tirof etgan obro'li faqihlar nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda muayyan huquqiy muammoning eng ma'qul yechimini tanlab olish mumkin bo'lgan. Shu yo'l bilan «Hidoya»da shariat qoidalarining aynan o'zigina emas, balki ularning mukammal asos va dalillari ham asl ravishda berilgan. «Hidoya» bir necha asr davomida ko'p musulmon davlatlarida huquqshunoslik bo'yicha asosiy manba hisoblangan. «Hidoya»

sudlov bo‘yicha qo‘llanma sifatida Markaziy Osiyoda XX asrning 20-yillarigacha – qozilar sudi bekor qilinib, sho‘rolar sud tizimi joriy qilinguncha amalda bo‘ldi.

Vatandoshimiz yuksak iqtidorga ega bo‘lishi bilan bir qatorda, arab tilining mohir bilimdoni ham edi. Uning barcha asarlari ayni shu tilda yozilgani bundan dalolat beradi. U zotning beqiyos so‘z zargari bo‘lganligi, uning ajoyib nazmiy misralarida ham aks etgan. Qo‘l-yozmalarda uchragan ayrim she’riy satrlar esa olimning shoirona iqtidori ham ancha baland bo‘lganligini ko‘rsatadi. She’riyatning bosh mavzusi inson odobi, teran dunyoqarashi va mukammal axloqi masalasidir.

Masalan, olimning o‘z shogirdlariga yozgan to‘rtligida shunday deyiladi:

Axloqsiz olim katta fasoddir,
Tarki dunyo qilgan johil undan ham yomon.
Bular ikki dunyoning kushandasidir,
Kim ular o‘rtasida dindan topgandir omon.

Demak, kimki olimlikni da’vo qilib, ilmda muayyan darajaga muyassar bo‘lsa-yu, o‘zi munofiq, axloqsiz, odamlar orasida yomonlik va fasod tarqatishni, ixtiloflar chiqarib, ularning o‘rtasida bir-biriga adovat qo‘zg‘atishni kasb qilib olgan bo‘lsa, bunday olim musulmonlar uchun ham, jamiyat uchun ham, din uchun ham katta zarardir. Lekin, tarki dunyo qilib Alloh bergan, islom dini ruxsat bergan ne’matlardan bahramand bo‘lishdan insonlarni asossiz ravishda qaytaruvchi johillar esa undan ham yomon. Bu ikki toifa odamlarning tutgan yo‘llari ikki dunyo saodatining ham kushandasidir. Bunday kimsalarga bilib yoki bilmay ergashgan odamlar bu dunyoda na obro‘-ehtirom va na e’tibor topdilar, oxirat saodatidan esa noumid qoladilar. Bas, shunday ekan, bunday kimsalar bor za-

monda yashovchi hamzamonlar o‘z dinlarini mahkam tutishlari lozim. Buning uchun esa ilm olish yo‘lidan borishlari va har qanday noqobil «allomalar»ga ergashishdan tiyilishlari kerak. Nozik nazmiy satrlar bilan yuksak g‘oyalarni kishilar ongiga singdirish va hayotga tatbiq etish yo‘lida ijod qilganligi olimning benazir iste’dodining yana bir qirrasidir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Qadimgi dinlar haqida ma’lumotga egamisiz?
2. Payg‘ambarimizga Qur’onning nozil etilganligini gapirib bering.
3. Islom dinidagi mazhablarning bir-biridan farqini tushuntirib bering.
4. Markaziy Osiyolik musulmonlar qaysi mazhabga e’tiqod qiladilar?
5. Hadis ta’lif etish sohasida qanday yo‘nalishlar mavjud?
6. Imom Buxoriyning ilmiy merosi haqida ma’lumot bering.
7. Imom Termiziyning bayon uslubini tushundingizmi?
8. Imom Termiziyning ilmiy merosi to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
9. Imom Moturidiyning ilmiy maktabi haqida so‘zlab bering.
10. Burhoniddin Marg‘inoniyning «Hidoya» asarini ahamiyatini tushuntirib bering.

Yaxshi (qiliq) xulq, go'zal muomala bir yo'ldirki, u yo'l bilan yurmasdan turib izzat va sharaf manziliga yetib bo'lmaydi. U yo'lga qadam bosmasdan turib vujud yukini hayvoniyat biyobonidan insoniyat dorilmulkiga eltib bo'lmaydi.

Husayn Voiz Koshifiy

8-MAVZU. O'RTA OSIYOLIK TASAVVUF ILMINING ALLOMALARI, ULARNING MA'NAVIYAT TARAQQIYOTIGA QO'SHGAN HISSASI

Reja:

8.1. Tasavvuf ilmi va uning ma'naviy jihatlari.

8.2. Naqshbandiya tariqatining ahamiyati.

8.3. Ahmad Yassaviy – jaholatni qoralagan tasavvuf sultoni.

8.4. Kubraviya tariqatining ilohiylik va insoniylik jabhalari.

Tayanch so'z va iboralar

Tasavvuf, komil inson, ruhiy-ma'naviy yuksalish, Yusuf Hamadoniy, Abduxoliq G'ijduvoniy, ilmi laduniy, tasavvuf ta'limoti, uvaysiylik, Yassaviy nasibasi, hikmatlar, muridlik, nafs ilgi, kubroviya tariqati, donishmand kishi, Najmiddin – «din yulduzi», buzrukvor oshiq, o'nta talab.

8.1. Tasavvuf ilmi va uning ma'naviy jihatlari

Falsafiy fikrlash salohiyati, imkoniyati, madaniyati barcha insonlarda bor. Lekin hamma bir xil bo'lmaydi. Chuqur bilimli, boy tajribali, ma'naviy yetuk odamlargina teran falsafiy xulosalar qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Xalqimiz bundaylarni donolar deb ataydilar. Donolik – insonga Alloh baxsh etgan, hayot saboqlari bilan serjilo

bo‘lgan aqliy salohiyat, yuksak axloqiy qadriyatlarga tayanib o‘ylash va fikrlash, umumiy xulosalar qilish imkoniyatidir. Faqat ma’naviy, axloqiy, ilmiy yetuk kishilargina falsafiy g‘oyalarning mohiyati va ahamiyatini to‘g‘ri tushunish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu sababli barcha davrlarda ham falsafa insonlarning donolikni sevishini, hikmatga, haqiqatga cheksiz intilishini ifodalagan. Falsafa fikriy teranlik, keng mulohazalik, adolatparvarlik, haqiqatga tashnalik, ilmiy xolislik, inson manfaatlari, insonparvarlik, qadriyatlarga tayanishning natijasidir.

Sharqda inson bilan butun borliq muammosi birgalikda, uzviy bog‘liqlikda o‘rganilgan. Lekin borliq nima ekanini bilishdan oldin, inson o‘zi nima ekanini bilib olish masalasi birinchi o‘ringa qo‘yiladi. Borliq abadiy, cheksiz, uning rivojlanishi uzluksiz. Inson hayoti vaqtincha bo‘lsa ham u borliqdagi kamolot va buyuklikning oliy timsolidir. Insonning mohiyati – tobora takomillashib, rivojlanib turadigan ma’naviyati, u bilan taqozo etilgan faoliyati birligida namoyon bo‘ladi. Inson ma’naviyati darajasi uning borliqqa bo‘lgan munosabatini belgilaydi va shu munosabat tadriji natijasida rivojlanadi. Shu sababli ham Sharqda inson nima, degan savolga javob berish uchun dastavval uning qalbiga quloq solish kerak, degan fikr ilgari surilgan.

Sharq ana’analariga ko‘ra barcha falsafiy mulohazalarning birinchi nuqtasi – inson nima, u dunyoda nima uchun yashaydi, degan savolga javob berishdan boshlanadi. Bu o‘rinda buyuk mutafakkir Umar Xayyomning quyidagi ruboiysini bilish ahamiyatlidir:

Men keldim, dunyo hech ko‘rdimi foyda,
Ketsam martabasi osharmi, qayda?
Hech kim tushuntirib bera olmadi,
Kelishim, ketishim sababi qayda?

Sharq faylasuflari barcha davrlarda ham inson avval o‘z qalbiga, ruhiga nazar tashlab, keyin boshqalarni, tabiat va jamiyatni bilishga

intilishi lozim ekanligini ko‘rsatganlar. Aziziddin Nasafiy aytganidek: «o‘zini anglamagan har bir kishi hech narsani anglamay dunyodan o‘tadi».

Tasavvuf so‘zi «so‘fiy» so‘zidan, «so‘fiy» so‘zi esa arabcha «so‘f» so‘zidan yasalgan. Jundan bo‘lgan matoni arablar so‘f deb ataydilar. Dastlabki davrlarda so‘fiylik yo‘lini tutgan kishilar, boshqa oddiy kishilardan ajralib turish uchun jundan tikilgan chakmon (u hirqa deb ham atalgan) yoki po‘stin kiyib yurishni odat qilganlar. Shuning uchun ularni jun chakmon kiyib yuruvchilar, ya’ni so‘fiylar deb ataganlar. So‘fiy boshqa odamlardan o‘zini pok va g‘aribona turmush kechirishi, doimiy toat-ibodatda bo‘lishi va faqat ilohiy ruhga qo‘shilishini maqsad qilib qo‘yishi bilan ajralib turadi. Hamma narsadan voz kechish, oxir-oqibatda o‘zlikdan kechish – so‘fiylik ta’limotining ma’nosi shu. Buyuk so‘fiy Boyazid Bistomiy aytadilarki: «O‘zingdan o‘tding, Allohga yetding».

Sahoba va ahli baytga tarafdor ilk zohidlar yashash tarzlari, va’zlari, sadoqatlari bilan zuhd maslagining keng quloch yozishiga erisha bilganlar. Abu Hamid G‘azzoliy Ihyoda zuhdning tarixi va haqiqatidan bahs yuritib, «Bilgilki, zuhd dunyoda oxirat yo‘lchilarining sharafli maqomlaridandir. Bu maqom ham ilm, hol va amaldan maydonga keladi», deydi. Tariqatda nafs tarbiyasi uchun uch xil usuldan keng foydalanilgan. Bular: 1. Taqlili taom. 2. Taqlili kalom. 3. Taklili maqom.

Taqlili taom ovqat hirsini yengib, oz yeb-ichishga rioya qilish. Dunyodagi ko‘p mayl, urinish va nafsining bir orzu bilan aloqadorligi bo‘lganidek, qorin, ya’ni me’daning ham orzu va talabi bor. Insonlarning ko‘pchiligi ana shu orzu va talab qullari. Qoringa qullik va yeb-ichish hirsi «Shahvat ul-botin» insonni hayvonga yaqinlashtiradi. Shuning uchun taqlili taomga qat’iyan rioya qilish, shubhali har bir luqmadan o‘zini tiyish so‘fiylar uchun umumiy urf hisoblangan. Ko‘p so‘zlash, huda-behudaga valjirash ham insondagi yomon xususiyat-

lardandir. Hazrati Payg‘ambar esa «Sukut ham ibodatdir», dermishlar. Buni amalga oshirishning chegarasi esa taqlili kalomdir. Taqlili maqom – ma’naviy-ruhiy bedorlikni sevib, ko‘p uxlash, g‘aflat girdobida yashashdan o‘zini xalos etish degani. Abu Homid G‘azzoliy bu xususda shunday deydi: «Oz uyqu qalbni jilolantiradi va nurlantiradi, bu esa taqlili taomdan vujudga kelgan porloqlik bilan qo‘shiladi va qalb yulduz yanglig‘ jilolanib, oyna kabi tiniqlashadi. Yeyish va uxlash zarur miqdorda bo‘lmog‘i kerak. Chunki faqat shu yo‘l bilan g‘ayb sirlari kashf etila boshlanadi».

So‘fiylik aqidasining asosi yagona Haqiqat – Haq taolo. Shu sababdan so‘fiylar shariat qoidalarini o‘rganib, ma’rifat va haqiqatga, Haqqa yetishga intilar edilar. So‘fiylik taraqqiyotida taqvoga katta e’tibor berilgan. Zuhd va taqvo – ko‘ngilni foniy dunyo gunohlaridan, g‘araz, tamalardan tozalash va Xudo buyurganiga amal qilib, Alloh man etgan ishlardan saqlanish demakdir. So‘fiylar fikricha, ilohiy ishq har qanday g‘arazli manfaatlardan xoli bo‘lishi zarur. Tasavvuf ta’limotiga ko‘ra, borliqdagi hamma xilqatlarda, xususan, odamzodda ham ilohiy zarralar bor, so‘fiyning maqsadi ko‘ngildagi ilohiy zarralarni uzoq va mashaqqatli poklanish yo‘lidan borib, yana Allohga qaytarishdan iboratdir.

Tasavvuf ilmida komil insonni ruhan shakllantirish, kamolotga yetkazish nazariyasi bosh masala hisoblanadi. Bu nazariyaga ko‘ra: «Insonni Xudo o‘ziga o‘xshatib yaratdimi, Allohning bu olamni paydo qilishdan ko‘zlagan bosh maqsadi ham, aslida, inson ekanmi, demak, inson Allohning bu muruvvatiga shukronalar aytib, o‘zini batamom Allohga bag‘ishlashi, buning uchun esa o‘zini unga loyiq darajada poklashi – kamolga yetkazish kerak. Ana shunday o‘zini oliy maqsadga chog‘lagan, jismini unutib, ruhini Allohga yetar darajada o‘stirgan, yetar darajada poklagan, jism ehtiyojlari tufayli paydo bo‘ladigan jamiki insoniy illatlardan forig‘ qilgan kishilar insoni komil bo‘lganlar. Tasavvuf aqidaga ko‘ra, komil insonlar piro-

vardida, shubhasiz, Alloh vasliga musharraf bo‘ladilar, ruhan Tangri bilan birlashib ketadilar».

Komil insonlar barcha xalqni sevishi, insonlar, ayniqsa, g‘ariblar, bechoralar, muhtojlar xizmatida bo‘lishi, doimo xudoning borligi va birligini unutmasligi kabi so‘fiylik aqidalariga ega bo‘lishlari lozim. Sa’diy Sheroziy aytadiki: «Toat-ibodat tasbeh tutub, jundan eski libos kiyib, namoz o‘qib yashash bilan bo‘lmaydi, u Xoliq va xalqning xizmatidan boshqa narsa emas».

So‘fizm (tasavvuf)dagi ana shu bosh g‘oyani tushunmas ekanmiz, o‘tmish tariximizda o‘tgan, haqiqatdan ham mavjud bo‘lgan ulug‘ zotlar, avliyo va anbiyolarning mohiyati va bugungi kunda uning ahamiyatini tushunib yeta olmaymiz. Shayx Aziziddin Nasafiy «Insoni komil» risolasida quyidagilarni ta’kidlagan: «....jumla mavjudod odamzodga shuning uchun sajda qiladiki, odamlar orasida komil inson bor. Bas, jumla odamzod komil inson tufayli (sharafli)dir. Mavjudot ichra komil insondan ko‘ra ulug‘roq va donoroq narsa yo‘q, chunki komil inson, eng pastdan eng yuqorigacha martabalardagi mavjudotning xulosasi va qaymog‘idir, farishtalar, ruhoniy mavjudotlar va arshu kursi, samovot qavoqib hammasi komil inson xizmatlaridadirlar va hamisha komil inson tegrasini tavof qilurlar va komil inson ishlarini bajo keltirurlar. Komil inson ilm mazharidir, komil inson ilohiy zot sifatlarining ham mazharidir».

Aql-idrok, mantiqiy tafakkur bilan zohiriy ilmni o‘rganish mumkin. Biroq botiniy ilm uchun mantiqiy tafakkurning o‘zigina yetarli emas. Shuning uchun zohiriy ilm egasi – olim, botiniy ilm egasi – orif deyilgan. Botiniy ilm «irfon» ham deyiladi. «Olim kim-u, orif kim? Ilm nima-yu, irfon nima?» Adabiyotshunos olim Muhammadjon Imomnazarov masalani ana shu tarzda qo‘yib, bu savollarga, jumladan, shunday javob beradi: «Tasavvuf haqidagi suhbat ana shu yerdan boshlanadi. Biz bilim manbai aql deb hisoblaymiz, so‘fiy bilim manbai ishq deb hisoblaydi. Chunki ishq intilish tug‘diradi, aql faqat

nazariy mushohadaga tayansa, mantiqiy bilimlar majmuidan kelib chiqsa, ishq insonning butun tabiatini, shuurini ishga soladi, unda ko'zning va quloqning tajribasigina emas, insonning butun ruhiyati va moddiyati tajribasi bir nuqtaga jamlanadi. Biz bilgangina emas, hali bilmagan, aniq tasavvur etmagan omillar ham ishga tushadi».

Zohidlar uzlat va taqvoni pesha etgan bo'lishlariga qaramay, ishq irfon (ilohiy ma'rifat)dan bexabar kishilar edilar. Ular falsafiy mushohadakorlik, ajz-u irodat bilan ma'naviy-axloqiy kamolot sari intilish, valiylik, karomatlar ko'rsatish kabi xislatlarga ega emasdilar. Zohidlarning niyati ibodat bilan oxirat mag'firatni qozonish, Qur'onda va'da qilingan jannatning huzur-halovatiga yetishish edi. So'fiylar nazarida esa jannat umidida toat-ibodat qilish ham tamaning bir ko'rinishidir. Holbuki, so'fiy uchun na dunyodan va na oxiratdan tama bo'lmasligi kerak. Yagona istak bu – Haq taoloning diydoridir, xolos.

Mashhur so'fiy ayol Robia Adaviyya Tangriga munojotlarida nola qilib aytar ekan: «Ey Parvardigorim, Ey Yori aziz, agar jannatning tamasida toat qiladigan bo'lsam, jannatingdan benasib et, agar do'zaxingdan qo'rqib ibodat qiladigan bo'lsam, meni do'zax o'tida kuydir – ming-ming roziman! Ammo agar Sening jamolingni deb tunlarni bedor o'tkazar ekanman, yolvoraman, meni jamolingdan mahrum etma!».

Alloh taologa quruq, ko'r-ko'rona mutelikning hojati yo'q. Uning g'azabidan qo'rqibgina amri ma'rufni bajarish sadoqat belgisi emas, balki riyodir. Shuning uchun so'fiylar Allohni jon-dildan sevish, Uning zoti va sifatlarini tanish va bilish, ko'ngilni nafs-u hirs g'uboridan poklanib, botiniy musaffo bir holatda Iloh vasliga yetishish va bundan lazzatlanish g'oyasini keng targ'ib qiladilar. Inson ruhi ilohiydir va, demak, asosiy maqsad – ilohiy olamga borib qo'shilmoqdir, dedilar.

Shu tariqa dunyodan ko'ngil uzgan, ammo zohidlarga o'xshamaydigan, zehn-u zakovat, aql-u farosatda tengsiz, ammo o'zga mutafakkirlar, faylasuflardan ajralib turadigan, shariat ilmini suv qilib

ichgan, toat-u ibodatda mustahkam, lekin oddiy dindorlardan farqlanadigan ajoyib xislatli odamlar toifasi paydo bo'lgan ediki, ularni ruh kishilari deb atardilar. Bunday odamlarning fe'l-atvori, yurish-turishi, xoriqulodda (odatdan tashqari) so'zlari va ishlari atrofdagilarni hayratga solar, ba'zilarining g'aybdan bashorat beruvchi karomatlari, sirli mo'jizalari aqllarni lol qoldiradi. Ularni ahlulloh, avliyo, ahli hol, ahli botin, arbobi tariqat, darvesh, qalandar, faqir degan nomlar bilan tilga olardilar. Ammo bu toifaga nisbatan ko'proq «so'fiy» nomi qo'llanilgan.

Murid-murod, ya'ni maqsadga intiluvchi odam, murod esa Alloh taoloning vasli. Murodning asosiy xislati niyozmandlik, ya'ni talabgor bo'lish, murshidi komil etagini tutib, aytganlariga so'zsiz rioya qilishdir. Pirsiz solik manzilga yetolmaydi. Chunki odam o'zini o'zi nazorat qilishi qiyin, toki birov rahnamolik qilib, yo'l ko'rsatmasa, mushkuli oson bo'lmaydi. Rahnamo bo'lmasa, hatto eng yaxshi niyatlar ham samara bermay, qalbdagi zavq-u shavq noto'g'ri yo'lda sarf bo'lishi, muhabbat isyonga aylanishi hech gap emas.

Ulug' tarixiy burilishlar mafkurasini belgilagan jahoniy dinlar insoniyat taraqqiyotining muayyan bosqichida yangi ma'naviy-ruhiy zarurat, fikriy va hissiy izlanishlar ehtiyojga javob tariqasida paydo bo'lganligi sababli madaniy-ma'naviy hayotning hamma sohasini qamrab olib, ijodiy ko'tarilish, tasavvurlar olami, aqliy va badiiy davomat tarziga ta'sir etib keldi. «Mafkuraviy demokratiya»ga izn bergani, inson qalbi va ruhiyatini nishonga olib, jaholat va xudbinlikka qarshi maydonga chiqqani, axloqiy poklikni targ'ib etgani sababli tasavvuf mohiyatan ilm-u ijod ahliga yaqin edi.

Tasavvufiy allomalar g'ayb ilmi – ilmi hikmat egalari bo'lib, ko'pchilik insonlar jilovlashni uddasidan chiqa olmaydigan nafsni – ajdahoni jilovlashdek murakkab, mashaqqatli ishning uddasidan chiqa olganlar. So'fizm ulug'lari Haqqa pokizalik yo'lidan borib xizmat qilish bilan birga, xalqqa, avomga, miskinga borlig'i bilan,

biron manfaatni, ayniqsa moddiy manfaat yoki tamagarlikdan yiroq saxiylik bilan xizmat qilganlar. Shu xususiyatlar bilan ularning bosib o'tgan yo'li ibrat, tarbiya maktabiga aylanib, ular oxir-oqibat hukmdorlarning ko'pchiligi qaysidir yirik tasavvufiy alloma etagini tutib, pir-u murshidlarga aylangan.

Markaziy Osiyo, Eron, Xalifalik, Kichik Osiyo hukmdorlarining siyosiy tarixida bunga juda ko'plab misollar mavjud. Chunonchi, Xorazmshohlar Najmiddin Kubroga, Amir Temur va temuriylar Shamsiddin Mirsayyid Baraka va Zayniddin Tayobodiy, keyinchalik Bahouddin Naqshband va Xo'ja Ahror Valiy hazratlariga, Shayboniylar Jo'ybor xo'jalariga, Ashtarxoniylar Maxdumi A'zam va uning vorislariga xuddi shunday munosabat bildirgan edilar. Shu yaqinlashuv xalq bilan hukmdorlar o'rtasidagi ziddiyatlarning chuqurlashuvi va murakkablashuviga yo'l qo'ymagan.

Chunki So'fiy arboblar ko'proq va asosan xalq tomonida turib, muammo yechimini topishga jur'at qiluvchi, shu yo'lda hayotini garovga qo'yishga tayyor shaxslar bo'lgan edilar. Bu jamiyatda hukmron tabaqalar bilan avom o'rtasidagi muvozanatning ijobiy holatda saqlanib turishida katta o'rin tutdiki, bunda tasavvufiy allomalar xizmati alohida ahamiyat kasb etdi. Shuning o'ziyoq tasavvufiy ta'limot, avvalo, xalqchil bo'lgani, komil inson muammosini hal etish yo'lida katta va mashaqqatli dovon sari shiddatli ilgarilab, insoniylik ilmi darajasiga ko'tarilganligining yaqqol dalili ekanligidan darak beradi.

8.2. Naqshbandiya tariqatining ahamiyati

Alloh insonni aziz-u mukarram etib yaratdi va uni latif aylab, «barchadan insonni sharaf ayladi». Asrlar mobaynida ilohiyatshunoslik, ilm, falsafa inson tabiatini anglab yetmoq yo'lida tinimsiz urinib kelmoqda. Insoniyat tarixi aslini olganda insonning o'zini o'zi anglash va poklash, Alloh visoliga erishish yo'lidan iborat.

Islom dini Arabiston yarim orolidan tashqariga, o‘zgacha an’ana va urf-odatlar olamiga yoyilishi bilan uni falsafiy asoslash, yangi shart-sharoit nuqtayi nazaridan talqin va tahlil etishga muhtojlik ortidan vujudga kelgan tasavvuf ilmi bir tomondan, ilohiyshunoslik va shariat, ikkinchi tomondan, falsafa va ilm-fanning o‘ziga xos jihatlarini o‘zida mujassam etdi hamda insonshunoslikdagi yangi yo‘nalish sifatida inson uchun kamolot sari o‘ziga xos yo‘lni belgilab berdi.

Markaziy Osiyo xalqlari islom dini tufayli yangi bir madaniyat va ma’naviyat maydoniga kirgan edi. Islom dinining ishonch va e’tiqod mafkurasi o‘tmish ajdodlarimizning madaniyati hamda ijtimoiy turmush tarziga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Tasavvuf ana shu yangi madaniyat zaminida Markaziy Osiyo xalqlari qadimiy madaniyatining islomiy mohiyati bilan birikishdan tug‘ilgan ko‘p qirrali va nihoyatda qudratli maslakdir.

Yusuf Hamadoniy (1048–1141) – tasavvufning yirik namoyandasi, olim. Bag‘dodga borib, Abu Is’hoq Sheroziydan saboq olgan. Tasavvuf sirlarini Abu Ali Formadiy, Abdulloh Juvayniy va Hasan Simnoniylardan o‘rgangan. Bag‘doddagi mashhur Nizomiya madrasasida dars bergan. Isfahon, Samarqand va Buxoroda tahsilni davom ettirgan. Abdulqodir Giloniy, Imom Abu Homid G‘azzoliy, Hamiduddin Multoniy kabi zamonasining yetuk shayx-u murshidlari bilan muloqotda bo‘lgan. 30 marta haj qilgan. Buxoroda xonoqoh qurib, Xuroson va Movarounnahrdan bu yerga ilm istab kelgan ko‘plab yoshlarga tasavvufdan saboq beradi.

Tasavvufdagi «barcha tariqat» g‘oyalari, tartib-qoidalari juda qadimiy rishtalardan suv ichgan. Shu ma’noda naqshbandiya tariqatining butun mohiyatini belgilab turadigan mavjud o‘n bir qoidasining ham boshlanishi Yusuf Hamadoniyga borib taqaladi. U kishi tayin etgan dastlabki qoidalar asosan to‘rtta:

1. «Xush dar dam», ya’ni shu tariqat a’zosi – solik xudo sharafiga qilinadigan xufya zikr paytida xushxol va xushchaqchaq yurmog‘i lozim.

2. «Nazar dar qadam», ya'ni solik hamisha hushyor bo'lib, parishonxotirlikka yo'l qo'ymasligi lozim.

3. «Safar dar vatan», ya'ni solik har dam o'z diliga nazar solishi, agar unda g'ubor izi paydo bo'ladigan bo'lsa, darhol undan o'tishi va yana haq visoliga o'z hushini bog'lash;

4. «Xilvat dar anjuman», ya'ni solik zohiran xalq bilan, botinan xoliq bilan bo'lsin.

Xoja Yusuf Hamadoniy juma kunidan boshqa kunlari hujrasidan tashqari chiqmasdan ilm-u riyozat bilan mashg'ul bo'lgan, ammo bir kuni zoviyasida o'tirgan edi, ko'nglida tashqari chiqish fikri tug'ildi. Betoqat bo'la boshladi, lekin qayoqqa borishini bilmasdi. Shunda otiga minib, otning jilovini qo'ydi – qayergacha olib borsa, borayin dedi. Ot shahardan chiqib dalada uzoq yurdi va bir vayrona masjid oldiga kelib to'xtaydi. Shayx otdan tushub qarasa, bir yigit boshini tizzalari orasiga olib, «muroqabaga tortibdur». Bir muddatdan keyin yigit boshini ko'tarib va haybat bilan Xoja Yusufga qarab dedi: Yo Yusuf, menga masala mushkul bo'ldi (ya'ni, meni bir savol qiynamoqda). Yusuf Hamadoniy yigit aytgan masalani hal qilib berganidan keyin muloyimlik bilan debdi: «Ey farzand, har qachon sening oldingda masala paydo bo'lsa, shaharga mening oldimga kelgin, meni qiynab yurma». Yigit Yusuf Hamadoniyga qarab dedi: «Har qachon manga masala tug'ulsa, aning halliga har tosh saningdek Yusufdur» («Nasoyim ul-muhabbat»dan).

Xo'sh, tavajjuh nima? Tavajjuh – bu chuqur tafakkurga berilib, o'zi istagan odamni huzuriga olib kelish va u bilan yuzlashishdir. Fikr energiyasini zo'r xohish bilan bir nuqtaga jamlashni muroqaba (ya'ni Xudo yodida hamma narsani unutib, qalb-u shuur mushohadasiga g'arq bo'lish) deganlar. Xoja Yusuf Hamadoniyga g'oyibona murid bo'lgan yigit vayronada o'tirib, shunchalik fikr-u xayolga berilganki, tasavvufning mushkul masalalarini yecholmasdan, fikran o'z pirini yordamga chaqirganda bu da'vat Xoja Yusuf Hamadoniyga borib yet-

gan va u o‘zi beixtiyor bu da’vatga javoban shahardan chiqib, vayronaga yetib kelgan. Va eng ajoyibi shuki, tilsiz jonivor bo‘lmish ot ham bu amrga itoat etib, Shayxni belgilangan joyga olib keladi. Mana, sizga ilohiy karomat qudrati.

Musulmon Sharqida mashhur Naqshbandiya silsilasining asoschisi **Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy** (1103–1179) boshlang‘ich ta’limni G‘ijduvonda olib, 9 yoshidayoq Qur’oni karimni yod bilgan, 10 yoshidan boshlab darvishlarning zikr tushishlarida faol ishtirok etgan. Keyin tahsilni Buxoro shahrida davom ettirgan. Bu yerda u Imom Sadriddin degan zamonasining yetuk allomasidan tafsir ilmini mukammal o‘rganadi. Bir kuni u o‘z ustozidan xufiya zikr (yashirin zikr, dil zikri) haqida so‘raydi. Ustoz unga bu ilohiy ilm bo‘lib, uni Xudoning o‘zi xohlagan bandalariga o‘rgatishini aytadi.

Xo‘sh, unda xufiya zikr qoidasi va tartibi qay tarzda bo‘lur? Imom Sadriddin: «Sen so‘rayotgan ilm «ilmi laduniy»dir, ya’ni Alloh taolo tomonidan ato qilingan ilm. Agar Alloh laduniy ilmini senga ma’lum qilmoqni xohlasa, albatta ahlulloh (Alloh odamlari)dan birini yoningga yuboradi, u seni bu ilmdan ogoh etadi», deb javob beribdilar. Laduniy ilm haqida «G‘iyosul lug‘ot»da shunday xabar bor: «... Alloh taolo tomonidan ato qilingan ilm. Unday ilmga urinish, sa’y-harakat, riyozat chekish natijasida, Alloh taolo xohlasa, ega bo‘lish mumkin. Chunki bu Alloh xohlagan kishilargagina beriluvchi ilohiy ilmdur».

Laduniy ilm uchga bo‘linadi: vahiy, ilhom, farosat (intuitsiya). Vahiy payg‘ambarlarga, ilhom avliyolarga, farosat orqali bilish esa so‘fiylarga Alloh izni (ruxsati) bilan beriladi. Imom Sadriddin bilan bo‘lgan suhbatdan bir necha muddat o‘tgandan so‘ng Xizr alayhissalom kelib, Abdulxoliq G‘ijduvoniyga xufiya zikrdan ta’lim beradilar va farzandlikka qabul qiladilar. Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy yozadiki: «Yigirma ikki yoshimda uyg‘oq qalblarning xojasi Xizr alayhissalom meni shayxi rabboniy Yusuf Hamadoniy qo‘liga topshirdilar va tarbiyat qilishga vasiyat qildilar».

Ustozi Xurosonga qaytib ketgunga qadar u buyuk zotning xizmat-mulozamatida bo‘lib, xojagon tariqatining usullarini mukammal egallaydi (xojagon tariqatini garchand Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy asoslagan bo‘lsa-da, uning ilk urug‘lari Xoja Yusuf Hamadoniy tomonidan tashlangan) va ko‘p o‘tmay o‘zi ham yirik tasavvuf olimiga aylandi.

Ma’lumki, islom dini dunyoga berilishni qoralasa-da, lekin unda tarkidunyochilik yo‘q. Aksincha, u dunyo ne’matlaridan me’yorida foydalanishni buyuradi hamda nafs botqog‘iga butunlay botib ketish va dunyoga etak silkishga qarshi. Naqshbandiya shayxlaridan Sayyid Sig‘batulloh Ervosiy to‘g‘ri ta’kidlagani kabi nafsni o‘ldirish degani, uni islomiylashtirish va sajiya (fe’l-atvor)ni ijobiy tomonga o‘zgartirish bo‘lib, u nafsni butunlay yo‘q qilish ma’nosini bildirmaydi. Afsuski, ibtidoda ko‘ngil tozaligi, zohir va botin birligini bayroq qilib chiqqan tasavvur tobora kengayib rang-baranglashib borar ekan, ayrim tariqatlarda haddan ziyod chuqur ketish, hatto tarkidunyochilikka berilishi mayllari avj olgan. Islom buyurmagan, Muhammad alayhissalom qoralagan riyozatlar, o‘zini har turli qiynoqqa solishlar axloqiy poklanishning asosi qilib olingan.

Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy tasavvuf tarixidagi buyuk xizmati yangi bir tariqatga asos solgani bilangina belgilanmaydi. Xojagon tariqati vositasida u umuman tariqatni Muhammad payg‘ambar sunnatiga muvofiqlashtirdi, uni turli bid’atlar va botil qarashlardan tozaladi. Shariatga amal qilish, undan chekinmaslikni asosiy qoidaga aylantirdi. Tarkidunyochilik xilvatini rad etib, jamoat bilan birga bo‘lishni shart qilib qo‘ydi. Alloh muhabbati deb dunyodan kechmaslikka da’vat qildi. Luqma halolligi – har kim o‘z mehnati bilan kun ko‘rishi zarurligini tariqatning asosiy talabi qilib belgiladi. Bu tariqat taqvo deb haddan oshishni ma’qullamaydi. Axloq masalasi qat’iy qilib qo‘yildi. Bularning barchasi tasavvuf taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Bahouddin Naqshbandga nisbat berib mashhur bo‘lgan

«Dil ba yor-u dast ba kor!» – «Ko‘ngling yorda-yu, qo‘ling ishda bo‘lsin!» shiori ham g‘oya sifatida dastlab Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy tomonidan ilgari surilganligi bejiz emas.

Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy o‘z ta’limotini va’zlari orqali targ‘ib qilish bilan kifoyalanmay, bir qator risolalar ham yozgan. «Odobi tariqat» («Tariqat odobi»), «Risolai sohibiya» («Do‘stlik risolasi»), «Az guftori Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy» («Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniyning ba’zi so‘zlari»), «Risolai shayx ush-shuyux Hazrati Yusuf Hamadoniy» («Shayxlar shayxi Hazrati Yusuf Hamadoniy») asarlari shular jumlasidandir.

Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy Hazrat Yusuf Hamadoniyning to‘rt qoidasiga o‘zining to‘rt qoidasini ishlab chiqdi:

– «Yod kard», ya’ni solik xudo yodi bilan yashamog‘i, zikrga g‘arq bo‘lmog‘i lozim.

– «Bozgasht», ya’ni solik hamisha xudo ishqida botinan munojot aytib yurmog‘i darkor.

– «Nigohdosht», ya’ni solik xayolini bir joyga yig‘ib, xotirjam yurmog‘i lozim.

– «Yoddosht», ya’ni solik vaxdati vujud ta’limotini bilmog‘i kerak.

Abdulxoliq G‘ijduvoniyning «Maqomoti Yusuf Hamadoniy» asarida Yusuf Hamadoniyga ergashgan Xoja Hasan Andoqiy, Xoja Abdulloh Barraqiy, Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Aliyona va o‘zining nomini keltirib: «Bu azizlarning yo‘li barcha ofatlardan xolidir. Unda na ta’til (bo‘shliq) rangi, na tashbih hidi bor (Allohning sifatlarini inkor etmaydilar va uni boshqa narsaga o‘xshatmaydilar). Aksincha, faqat xolis hidoyat va ma’rifat nuridan iboratdir», deb yozgan.

Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy ruhidan tarbiya topgan va naqshbandiya silsilasiga asos solgan **Hazrat Bahouddin Naqshband (1318–1389)** bu shiorni o‘z tariqatining asosiy qoidasi qilib olgan (Voqean, naqshbandiyaning o‘zi ham xojagon silsilasidan o‘sib chiqqan bo‘lib, xojagon-naqshbandiya deb yuritiladi va Xoja Abdul-

xoliq G‘ijduvoniy uning boshlovchisi (sarhalqai silsila) hisoblanadi). Xojagon – naqshbandiyaning real hayotiy shart-sharoitlari, insonning mavjud imkoniyatlariga asoslanganligi uning hamma zamonlar va barcha tabaqalar talabiga javob beradigan zamini mustahkam tariqat ekanligidan dalolat beradi. Shariat andozasiga solingan, bid’at va nuqsonlardan holi Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy yo‘lining asrlar davomida tariqatda hujjat va barcha guruhlarda maqbul, deb e’tirof etib kelinayotgani sababi shunda.

Alisher Navoiy o‘zining «Nasoyim ul-muhabbat» asarida ta’kidlaganidek: «Hazrat Bahouddinga suhbat nisbati va tariqat odobi ta’limi va zikr talqini Boboyi Samosiydandir. Boboyi Samosiy yosh Bahouddinni Amir Sayyid Kulolga topshiradi. Amir Sayyid Kulol tariqat odobi ta’limini davom ettirgan. Biroq hazrat Naqshband ancha ilgari vafot etgan Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniyni va Qusam shayxni ham o‘z pirlari qatoriga qo‘shadi. Nega? Chunki Amir Sayyid Kulol zohir yuzasida pir bo‘lsalar, haqiqat yuzidan ruhiy tarbiyatni hazrat Bahouddin Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniydan olgan».

«Maqomot»da zikr qilinishicha, «naqshbandiya tariqati pirlarining ayrimlari uvaysiydir. Jumladan, Boyazid Bastomiy, Abulhasan Xaraqoniy, Hazrat Bahouddin Naqshband uvaysiy hisoblanadilar. “Uvaysiy” so‘zining mazmuni nima? Alisher Navoiy ushbu savolga quyidagicha javob berganlar: «...har kishiki, bu toifadan zohir yuzidin piri ma’lum bo‘lmasa va mashoyixdan birining ruhi oni tarbiyat qilgan bo‘lsa, oni uvaysiy derlar». Demak, o‘tmish ulug‘laridan birining ruhi qaysi kishini tarbiya qilsa, unday shaxs uvaysiy bo‘lar ekan. Ilk uvaysiylardan Shayx Sulton Uvays Qaraniy hisoblanadi. Chunki Sulton Uvays tobeinlardan, ya’ni payg‘ambar alayhissalomni ko‘rmay, u kishining sahobalari bilan hamsuhbat bo‘lgan. Muhammad alayhissalomning ruhi shayx Uvaysni tarbiya etgan. Shu sabab, keyingi tobeinlar uvaysiy atalganlar. Demak, muridni ko‘rmay tarbiya etish an’anasi ham payg‘ambar alayhissalomdan qolgan ekan. Hazrat Bahouddin

Naqshbandga Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy ruhlari tariqat sabog‘ini o‘rgatadi. Vaholanki, Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy vafotlaridan 139 yil o‘tgandan keyin Bahouddin tug‘iladi.

Uning otasi to‘quvchi va naqsh soluvchi usta bo‘lgan. Hazrat Bahouddin Naqshbandning taqdirida, kamolotga erishishda so‘fiylar bilan yaqindan munosabatda bo‘lgan bobosining xizmati kattadir. U yosh nabirasida sekin-asta tasavvufga qiziqishni uyg‘otadi va shu yo‘lda tarbiyalashga ahamiyat beradi. Buxoroda tahsil olganidan keyin Shayx Xoja Muhammad Samosiy uni o‘g‘il qilib tarbiyasiga oladi. Vafoti oldidan o‘zining xalifasi Amir Sayyid Kulolga Bahouddin Naqshbandni o‘ziga shogird qilib olish va uni Xojagon tariqati jamoasiga qo‘shib, tasavvufiy yo‘lini unga o‘rgatishni vasiyat qiladi. Amir Sayyid Kulol zikr doirasida va tasbeh aytishlarda ishtirok etib, kamolotini oshiradi.

Abdurahmon Jomiyning «Nafahot ul-uns min hazarot ul-quds» asarida keltirilishicha, yosh Muhammad Bahouddin ilohiy jazba xuruj etgan, ya’ni ko‘nglida so‘fiyona muhabbat mavj urgan tunlarning birida Buxoro mozorotlarini ziyorat qilishga chiqadi. Mozorotda bir necha shamlar yonib turgani, ammo ularning shu’lasi xiraligini ko‘radi. Oxirgi qabrga yetganida, yuzini qiblaga qaratib o‘tiradi, shunda g‘ayb mo‘jizalaridan biri yuz beradi. Taxtda o‘tirgan odam yuziga yashil parda tortilgan, taxt atrofida esa bir necha nuroniy kishilar o‘tirgan bo‘lib, Muhammad Bahouddin ular orasidan o‘zining birinchi piri – «qabul nazari» bilan Bahouddinni siylagan va uning valiylik rutbasini bolaligidanoq tanib, bashorat etgan Boboyi Samosiyni ko‘rib, taniydi.

Taxt atrofida o‘tirganlarning qolgani ham Xojagon shayxlari edilar, ya’ni Xoja Ahmad, Xojai Avliyoi Kalon, Xoja Orif Revgariy, Xoja Mahmud Fag‘naviy, Xoja Ali Romitaniy. Taxtda o‘tirgan zot esa Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy edi. Mashoyixlar o‘zlarini tanitganidan keyin Bahouddinga murojaat qilib, Xojayi buzrug – Abdulxoliq

G‘ijduvoniy nasihat tariqasida so‘z aytajagini bildirdilar. Shunda Bahouddin xojalarga murojaat qilib, taxtda o‘tirgan zotga salom berish va ul zotning jamolini ko‘rish istagi borligini bildirib, ijozat so‘raydi. Shayxlar bu talabni qondiradilar – yashil parda Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy yuzidan ko‘tarildi. Bahouddin Ulug‘ xojaga salom beradi va uning nur yog‘ilib turgan yuzini ko‘rdi. Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy yosh Bahouddinga qarab deydi:

«Senga ko‘rsatilgan chiroqlar ushbu yo‘lning iste’dod va qobiliyatiga ishorat va bashoratdir. Iste’dod piligini harakatga keltirib, toki nuri ravshanroq bo‘lib, asror ko‘zga ko‘rinsin». Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy yana davom ettirdi: «Har qanday sharoit-u ahvolda qadamni amr-u nahiy shodasida (martabasida) tutgin, ya’ni qadamni sharoitdan tashqari qo‘yma va sunnat-u azimat talablari asosida amal qilgin va bid’atlardan uzoqlashgin va doimo Muhammad mustafo sallallohu alayhi vasallam hadisini o‘zingga rahbar etgin va ham Rasul va aning sahobayi kiromlari axbor-u osorining tahqiq etuvchisi, izlovchisi va saqlovchisi bo‘lgin».

Hazrat Bahouddin Naqshband Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatiga, tarixiga, tasavvuf ta’limotiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk faylasuf olimdir. Buyuk bir shaxs, olim sifatida «Qur’oni karim»ni yodlagan, U «Maxfiy zikr» qoidalarini va oriflik shartlarini o‘rgangan, dehqonchilik bilan shug‘ullangan, barcha so‘fiy mashoyihlarning ta’limotini puxta egallagan. Butun umri davomida Hazrat Bahouddin Naqshband xudo yo‘liga xizmat qilgan va muridlarini, shogirdlarini, hunarmandlarni, oddiy xalqni, barcha insonlarni yaxshilik qilishga, halol mol-dunyo orttirishga, o‘z qo‘l mehnati evaziga kun kechirishga, birovlarning dardiga malham bo‘lishga, og‘ir mehnat bilan topilgan nonning yarmini muhtojga berishga, dilozor bo‘lmaslikka chin qalbdan chaqirgan.

Hazrat Bahouddin Naqshband ustozlarning sakkiz qoidasiga o‘zining uchta yangi qoidasini kiritdi:

– «Vuqufi zamon», ya'ni solik hamisha o'z vaqtini hisoblab yurishi, uning qanchasi yaxshilikka, qanchasi yomonlikka ketganini bilib turmog'i zarur.

– «Vuqufi a'dodi», ya'ni solik hamisha o'zining yagonaligini, tanholigini nazarda tutmog'i kerak.

– «Vuqufi qalbiy», ya'ni solik xufya zikriga g'arq yurib, dilida Allohni saqlashi bilan xotirjam bo'lmog'i kerak.

Xoja Yusuf Hamadoniy boshlab bergan tasavvuf tariqatining bu qoidalari so'fiylar faoliyatining asosiy yo'nalishini tashkil etdi.

Hazrat Bahouddin Naqshband o'zining ta'limoti, tariqati bilan oddiy xalq o'rtasida shuhrat qozongan, juda ham mashhur bo'lgan. Mehnat bilan kun kechiruvchi dehqonlar, hunarmandlar, chorvadorlar, savdogarlar va boshqalar Hazrat avliyo pirni «Bahouddin Balogardon», ya'ni «Barcha dard-u balolardan asrab qoluvchi», «Bahouddin pirim qo'llasinlar», «Bahouddin madadkor bo'lsinlar», deb avliyo nomini boshga ko'targanlar.

Hazrat Bahouddin Naqshband «hikmat»laridan, «Maqomot»laridan namunalar:

Xudoning mardlari Xudo emaslar,
Lek, ular Xudodan judo emaslar.
Jonim bilan etay koring nechun etmayin,
Boshim bilan tortay boring, nechun tortmayin.

Menda na mafkash bor va na mafrashkash,
Va na gulomoni turki tarkash kash,
Har oqshom qahdonda bechora itdek,
Uxlarman, dumimga qo'yib g'arib bosh.

Faqirmiz, lek emasmiz hech kimdan kam,
Bizda yo'qdir hech narsadan anduh-g'am,
Janda kiyib, yashaymiz to guriston,
Hatto o'lsak, tutilmas bizga motam.

Yaxshilarga jahonda emas hech kim muxolif,
Gar yomonlarni yaxshi ko'rolsang u holda sen g'olib,
Kim ichdan oshnomono, tashdin begonavash bo'lg'usi,
Bundayin zebo ravish jahonda kam topulgusi.

In dida bipush, to dilat dida shavad,
3-on dida jahoni digare dida shavad.
Gar ravzani dil ba zikri Haq bikshoyi,
Dar jomi falak har chi buvad dida shavad.

Mazmuni: «Ko'zlaringni yum, to ko'ngil ko'zlari ochilsin, zero, ko'ngil ko'zida o'zga jahonni ko'rib bo'ladi. Agar ko'ngil ravzani darchasi Haq zikri ila ochishsa, falak komida ne ish bo'lsa, hammasini ko'rib bo'ladi».

Mayxonada mast-xumorligim qo'rqitgay,
O'tkinchi jahonda borligim qo'rqitgay.
O'zingga o'zingni ko'rsatar ul damda,
Har lahza g'ururga yorligim qo'rqitgay.

Dil qonidan ikki ko'zdagi nam afzal,
Aysh-u ishratdan alam-u g'am afzal.
Haq dargohida bir lahza dil huzuri,
Jumla olam davlatidan ham afzal.

Yo Rab, ne qilay, hech bir eshik ochilmas,
Gunoh ko'pidan tilimga so'z ham kelmas.
Olamda meni bir chaqaga olmaslar,
Yo Rab, ne matoman – xaridor topilmas?!

Naqshbandiya ta'limoti hayratlanarli darajada ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy ma'no va mohiyatga, hayotiy mazmunga ega. Bu tariqatdagilar mehnat qilish, ilm olish, o'z mehnati evaziga halol yashash, noz-ne'matlarni ko'pchilik bilan baham ko'rish, faqirona

hayot kechirish, hammaga yaxshilikni ravo ko‘rishni afzal bilgan. Ular odamlarga yaxshilik qilish eng yuksak insoniy burch ekanligini ta’kidlab, «sham kabi bo‘lgin va odamlarga yorug‘lik ber, o‘zing esa qorong‘uda bo‘l», degan ekan.

8.3. Ahmad Yassaviy – jaholatni qoralagan tasavvuf sultoni

Xoja Ahmad Yassaviy (XI asrning ikkinchi yarmi – 1166) – tasavvufning mashhur namoyandalaridan biri, shoir. Otasi Shayx Ibrohim javonmardlik tariqatiga mansub nufuzli zotlardan bo‘lgan. Onasi Muso Shayxning qizi Oysha xotun Ahmad tug‘ilganidan keyin ko‘p o‘tmay vafot etgan. 7 yoshida otasidan ham ajralgan. Ahmad tarbiyasi bilan opasi Gavhar Shahnoz mashg‘ul bo‘ladi.

Ma’lumki, tariqat talabiga ko‘ra, solik biror yetuk shayxga qo‘l berib, uning rahnamoligida riyozat bosqichlarini bosib o‘tishi shart. Lekin ba’zi so‘fiylar bunga ehtiyoj sezmaydilar. Chunki ularni Xizr alayhissalom, Muhammad alayhissalom yoki o‘tgan buyuk avliyolardan birining ruhi g‘oyibona tarbiyalaydi. Bu hodisa tasavvufda uvaysiylik deb ataladi. Sababi – yamanlik darvesh Uvays Qaraniy Muhammad alayhissalom ruhidan g‘oyibona tarbiya oladi. Bu – shunga ishora. Chunonchi: «Shayx Mansur Halloj nuri yuz ellik yildan so‘ngra Shayx Farididdin Attor ruhiga tajalliy (jilva) qildi va uning murabbiysi bo‘libdur», – degan edi Jaloliddin Rumiy. Yoki Xoja Bahouddin Naqshband Abduxoliq G‘ijduvoniy ruhidan tarbiya topgani ma’lum. Ibrohim Adham, Abusaid Abulxayr, Abulhasan Xaraqoniy, Abulqosim Jurjoniy, Najmiddin Kubro kabi ulug‘ zotlar ham aynan uvaysiylik orqali kamolotga erishganlar.

Ahmad Yassaviy ham uvaysiy shayxlar sirasiga kiradi. Rivoyat qilishlaricha, Muhammad alayhissalom sahobalari bilan g‘azotga ketayotganlarida Jabroil alayhissalom jannatdan bir lagan xurmo keltiradi. Ittifoqo, bir dona xurmo yerga tushadi. Jabroil alayhissalom

bu xurmo bir necha vaqtdan keyin dunyoga kelajak Ahmad Yassaviyning nasibasi ekanligidan xabar beradi. Muhammad alahissalom sahobalariga yuzlanib:

– Bu omonatni egasiga kim yetkazadi? – deb so‘raydilar. Hech kim bu ishga jur’at qilmaydi. Shunda Arslon bob:

– Agar lozim ko‘rsangiz, bu vazifani men o‘z zimmamga olsam, – deydi. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) o‘z muborak qo‘llari bilan xurmoni uning og‘ziga solib qo‘yar ekan, Ahmadning ta’rif-tavsifini keltirib, uning tarbiyasi bilan shug‘ullanishni amr etadilar.

Ahmad opasi bilan Yassiga ko‘chib borgach, birinchi ustozi Arslon bob bilan uchrashadi va undan tahsil oladi. («Yetti yoshda Asrlon bobom izlab topdim»).

Rivoyatlarga ko‘ra Arslon bob maktabdan shodon qaytayotgan bolalarni kuzatarkan, ilohiyat og‘ushida balqib-toshib kelayotgan bir bolani tanib:

– Assalomu alaykum, mulla! – dedi.

– Valaykum assalom, pirim «omonatimni bersangiz!» – dedi. Arslon bob necha yuz yil lunjida saqlagan «omonat»ni asta chiqarib berdi-yu, omon-eson egasiga topshirganligidan behad xursand bo‘lib, “E parvardigoro, qulchiligimga, Sizning behad inoyatingizga ming bora rahmat!” – dedi.

Ahmad ham: – Kechirasiz, pirim, menga «omonat»ning tilifini berdingiz, mag‘zi qalbingizda qoldi, – dedi. Arslon bob ham kichik Ahmadning valiyligiga va donishligiga yana bir bora hayratlandi.

Tasavvufda har bir pir muridni o‘z bilimi va iste’dodi darajasida tarbiyalagach, layoqatiga qarab, uni o‘zidan kuchli pirlarga yo‘llagan. Shu tariqa ko‘p so‘fiylar bir necha pirning tarbiyasini olganlar. Arslon bob ham Ahmadning boshlang‘ich tarbiyasini nihoyasiga yetkazgach, uni o‘sha davrdagi ilm-madaniyat markazlaridan biri bo‘lgan Buxoroi sharifga yo‘llaydi. Bu yerda u diniy va tasavvufiy ilmlarni chuqur o‘rganishga kirishadi, arab va fors tillarini mukammal o‘zlashtiradi.

Buxoroda uning hayotida muhim ahamiyat kasb etgan voqea yuz berdi – u o‘sha zamonning buyuk Shayxi Yusuf Hamadoniy bilan uchrashadi va unga murid bo‘ladi.

Ahmad Yassaviy Yusuf Hamadoniyning uchinchi xalifasi bo‘lgan. Yusuf Hamadoniy vafot etgach, uning o‘rnini avval Abdulloh Barraqiy, keyin esa Hasan Andoqiy egallaydi. Undan keyin irshod xirqasi Ahmad Yassaviyga topshirilgan. Bir muddat xonaqoh murshidi sifatida faoliyat ko‘rsatgach, u ustozining ma’naviy ishoratiga ko‘ra, o‘z o‘rnini va muridlarini Abdulxoliq G‘ijduvoniyga qoldirib, Yassiga qaytadi. Bu yerda xalqni islomga, tariqatga da`vat etib, Yassaviya degan yangi va ilk turkiy tariqatga asos soldi. Yassaviyshunos olim Ibrohim Haqqulning yozishicha, u Qur’oni karimni asos qilib olib, forsiy tasavvuf tajribalaridan foydalanib, turkiy axloq, qadimiy turkiy dunyoqarash va ishonchlarini ham o‘ziga omuxta qilgan. «Yassaviylikda ilm-ma’rifat egallash, himmat va saxovat tuyg‘ularini kamol toptirish, nafsga qarshi kurashda sobit bo‘lish, halol mehnat bilan rizq topishga alohida ahamiyat berilgan».

Xoja Ahmad Yassaviy tasavvuf piri sifatida yangi turkiy tariqatga asos solibgina qolmay, shaklan sodda, usluban ravon, mazmunan teran, badiiy yuksak she’rlari orqali hikmat aytish an’anasini boshlab bergan va turkiy adabiyotga katta ta’sir ko‘rsatgan siymodir. Hazratning turkiy xalqlar ijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqqiyotidagi xizmati beqiyos.

Xoja Ahmad Yassaviy qarashlari mohiyatini anglash uchun tasavvuf ta’limoti ruknlariga murojaat qilish lozimdir. Tasavvuf o‘zini anglash va shu orqali Allohni bilish va sevish ilmi hisoblanadi. Shunday ekan, tasavvufni insonning o‘z vujudi, nafsiga qarshi isyoni, o‘z-o‘zidan qoniqmaslik noroziligi sifatida talqin etish o‘rinlidir. Shayxlarning o‘z-o‘zini mazammat etishi, surunkali riyozatni bo‘yniga olib, mahrumliklarga ko‘nishi, hech narsa bilan o‘rnini to‘ldirib bo‘lmaydigan buyuk bir ruhoniy poklik olamiga intilishi shu bilan izohlanadi.

Bu riyozat va irodat zikr va samO‘, jazava va nolalar, munojot va toatlar, ma’naviy suhbatlar, karomat va ishoratlar, chillada chiltonlar bilan suhbat qurish, xilvatda yor xayoli bilan uns tutmoq, irfoniy kashfiyotlar yo‘lidagi tasvirlab bo‘lmas zavq-u surur nashidasidan iborat bo‘lgan. Tasavvuf ahli Alloh ma’rifatini qozonishni inson kamoloti, axloqiy poklanish yo‘li, insonning insonligini ochish, uning ruhini shayton changalidan qutqarish chorasi, deb hisoblar edilar. Haq va haqiqat g‘oyasi, ruhiy farog‘at hissi, ijod yaratish niyatlari ushbu ta’limot bag‘rida panoh topib, rivojlangan.

Xoja Ahmad Yassaviy ibodat adabiyoti va hikmat janrining boshlovchisi sifatida ilk adabiy maktabga asos solgan. Bu tariqatning asosi, yo‘nalishi va ta’siri masalalari «Maslaqu-l-orifin», «Lama’ot», «Samarotu-l-mashoyix», «Javohiru-l-abror», «Faqrnoma» kabi manqaba va risolalarda bayon qilingan. «Devoni hikmat» nomi bilan bizgacha yetib kelgan kitob, asosan, shogirdlari tomonidan tartib berilgan. Kitobdagi hikmatlarning bosh g‘oyasi – «ilohiy ishq» borliqning tub sababi va ma’nosi bo‘lgani holda, u insoniy muhabbatni rad etmaydi. Haqiqiy ishqdan ko‘zlangan maqsad diydor ko‘rishdir. Haq oshig‘i zuhd va taqvo ahliga o‘xshab jannat ilinjida yashamaydi. Chinakam oshiq bir daqiqa bo‘lsin Haqdan g‘ofil qolmaydi. Chunki g‘ofillik bilan oshiqlikning hech bir bog‘liqligi yo‘q. Zero, oshiqlik kamoliga erishmasdan Haq diydorini mushohada etish imkonsiz. Inson ishq yo‘lida xuddi Layli va Majnun, Farhod-u Shirin, Vomiq-u Uzro yanglig‘ sodiq bo‘lmog‘i shart:

Qul Xoja Ahmad zohid o‘lma, oshiq bo‘lg‘il,
Bu yo‘llarda beboq yurma sodiq bo‘lg‘il.
Layli Majnun, Farhod Shirin, Vomiq bo‘lg‘il,
Oshiq bo‘lmay Haq diydorni ko‘rsa bo‘lmas.

Xoja Ahmad Yassaviy asarlari quruq nasihatlar yig‘indisi ham, tasavvuf va shariat haqidagi betaraf qarashlar, mulohazalar bayoni

ham emas, balki sharrga – yomonlikka nafrat, ezgulik-xayrni himoya etuvchi zarbali satrlardir. Shu bois Xoja Ahmad Yassaviyning juda ko‘p fikrlari g‘azabkor bir ohangda jaranglaydi, shoir dunyoni tark etish, zulmga chidash, ishq-muhabbat, darveshning riyozat-u karomati haqida yozar ekan, bularning hammasi, birinchidan, tasavvuf ta’limoti talablaridan kelib chiqishini, ikkinchidan, shoirning ilohsevar va insonsevar qalbi nidolari ekanini esda tutmoq kerak.

Hazrat Shayx inson va ruh, lohut olami va nosut olami (ya’ni, jismoniy olam), ruhning jism ichra iztiroblari, jismoniy talablar bilan ruhoniy-ma’naviy talablar orasidagi ziddiyatlar xususida fikr yuritadi. Inson fojiasini tub-tubidan idrok etishga jazm etadi. Insonni qanchalik chuqur anglaganing sari undan hafsalang pir bo‘ladi, uning ojizligi, noqobilligini ko‘rib ham rahming keladi, ham g‘azabing qo‘zg‘aydi. Bu nochor maxluqning ayblarini o‘ziga ko‘rsatib, ilohiy martabaga hidoyat etmoqchi bo‘ladi valiyulloh. Insondagi nuqsonlarni ochiq aytib, shu nuqsonlardan qutulish yo‘lini ko‘rsatishmi yoxud uni «buyuksan», «ulug‘san» deb maqtashmi? Bizningcha, birinchi yo‘l afzal va foydali. Insonning ojizligini ko‘rsatish, uni mazammat etish badbinlik emas. Aksincha, chin inson uchun qayg‘urishdir. Inson uchun qayg‘urish esa, uning nuqson va gunohlarini ko‘rsatish, to‘g‘ri yo‘lga boshlash hisoblanmog‘i kerak. Qur’oni karimda ham Parvardigori olam insonning mukarramligi, shamoyili go‘zalligi, Yerdagi «xalifa» ekani, farishtalar unga sajda etgani haqida oyatlar yuborish barobarida, insonning norasoligi, gumrohligi, manmanligini nuqson sifatida ko‘rsatadi.

«Yassaviya» tariqatida muridlikka bel bog‘lagan har bir inson rioya qilishi majburiy bo‘lgan quyidagi qoidalarga qat’iy amal qilishi shart edi.

1. Hech bir kimsani o‘z shayxi yoki piridan afzal bilmasligi.

2. Murid zakovatli va idrokli bo‘lib, shayxning ko‘nglidagi fikrlarini, ko‘z qarashlarini anglay bilishlari.

3. Shayxning har bir so‘ziga ishonib, undan sodir bo‘lgan har bir ishga rozilik bilan qarashi kerak.

4. Shayxning har qanday topshiriq va xizmatlarini tez hamda mas’uliyat bilan bajarishi lozim.

5. So‘zda sodiq, dinda sog‘lom bo‘lib, hech qachon shak-shubhaga o‘rin bermasin.

6. Vafoli bo‘lib, o‘z ahdida (bergan so‘zida) tursin.

7. Har qanday sharoitda, har doim mol-u mulkidan o‘z shayxi yo‘lida voz kechishga tayyor bo‘lsin.

8. Shayxning barcha sirlarini saqlab, ularni hech qachon fosh etmasin.

9. Shayxning barcha o‘git va nasihatlarini nazarda tutib, hech qachon uni esidan chiqarmasin va unutmasin.

10. Ilohiy visol uchun shayx yo‘lida jonidan kechishga doim tayyor tursin.

Ahmad Yassaviyning juda chuqur va boy mazmunga ega bo‘lgan «Devoni hikmat»ida mutafakkirning so‘fiylik falsafiy dunyoqarashi o‘zining butun borlig‘i bilan o‘quvchi diqqatini tortadi. Donishmandning fikricha: «Haqning so‘zi emas, o‘zini bilish» asosiy masaladir. Shuning uchun u bu dunyo rohatini qidiradigan so‘fiy – so‘fiy emas, toat-ibodat qilib, halollik va poklikni targ‘ib etib, dunyoning g‘am-g‘ussasini chekib, xalq tashvishi bilan yashagan insongina haqiqiy so‘fiydir, deydi.

Asarning boshidan oxiriga qadar ulug‘vor insoniy fazilatlar: oddiylik, kamtarlik, mehr-muhabbat, ishq, sadoqat, haqiqat, adolat, hurfikrlilik, insonning insondan ayirmaslik kabi masalalar falsafiy nuqtayi nazardan tashviqot qilinadi. Va aksincha yomonlik, nodonlik, johillik, adolatsizlik, haqsizlik, saxovatsizlik, molparastlik kabi illatlar tanqid qilinadi.

Alloma fikricha, inson bu dunyoda mol-u davlatiga ishonib yashamasligi kerak, bu dunyo hammadan ham qoladi. Shu bois in-

sonlar bir-birlariga yaxshilik qilishlari, Haqni ko‘z oldilariga keltirib, o‘zgalar mol-davlatiga hasadgo‘ylik qilmasdan yashashlari lozim:

Beshak biling, bu dunyo barcha xalqdan o‘taro,
Ishonmagin molingga, bir kun qo‘ldan ketaro.
Ota-ona, qarindosh qayon ketti, fikr qil,
To‘rt oyoqli cho‘bun ot bir kun senga yetaro.
Dunyo uchun g‘am yema. Haqdan o‘zgani dema,
Kishi molini yema, sirot uzra tutaro.

Ahmad Yassaviy tariqat iztiroblari, aziyat chekish yo‘li bilan insonni poklash, nuqsonlaridan, noxush fe’l-atvordan xalos etish mumkin, deydi. Tarki dunyo ana shu tadbirning boshidir. Zero, ilohiy ma’naviyatga talpinuvchi, poklik va pokizalikni, Haqni sevuvchi har bir orif, mutafakkir shaxsda uzlat va xilvatga ehtiyoj, sog‘inch bor. So‘fiy – Alloh oshig‘i, uning ko‘nglida Allohdan o‘zga narsa bo‘lmasligi kerak. Bunday odam qanday qilib dunyoga bog‘lansin? Tarkidunyoning yorqin namunasi – Ibrohim Adham sarguzashti. Ko‘p shayxlar qatori Ahmad Yassaviy ham Ibrohim Adhamni ibrat qilib ko‘rsatadi. Ibrohim Adham qalbida ilohiy ishq jo‘sh urgandan keyin Balx shahrida taxt-toji, bola-chaqasini ham tashlab, xirqa kiyib darvesh bo‘lgan edi. U Alloh muhabbatini farzand muhabbatidan ham baland qo‘ydi. Ahmad Yassaviy ham Ibrohim Adhamga ergashmoqchi bo‘ladi, ammo tarkidunyo haqida qizg‘in da’vatlar qilgan shoir shu yerga kelganida yuragi larzaga tushib, mana bunday satrlarni yozgan:

Alloh uchun farzandlarim yetim qilsam,
Jondan kechib, moldan kechib g‘arib bo‘lsam,
Biyobonda yalg‘uz qozdek nola qilsam.
Nechuk iloj etarimni bilmam, do‘stlar!

Bir tomondan, ilohiy ishq tug‘yoni, ikkinchi yoqdan, ahli ayol, farzand muhabbati shiddatli baqamti kelgan. Orif inson qalbidagi

dardli fojia, nozik ruhiy mushkulot tasvirlanadi. Ahmad Yassaviyning mazkur g‘oyalari Farididdin Attor va Jaloliddin Rumiy asarlari bilan hamohangdir. Chunki Farididdin Attor «Ilohiynoma», «Javhar uzzot» nomli dostonlarida farzand muhabbati bilan Alloh muhabbatini ko‘p marta qiyoslagan.

Mashhur Balx hukmdori Ibrohim Adham saltanat ichida umr o‘tkazardi. Bir kun kechasi yotog‘ida uxlar ekan, saroyda shovqin-suron ko‘tarildi. Ibrohim Adham shiddat bilan:

– Bu yerda kim bor? – deb baqirdi.

Tepadan bir ovoz:

– Men borman, – dedi.

«Saroyda hukmdor bexabar kim bo‘lishi mumkin?» degan xayolda o‘pkalab baqirdi:

– Sen kimsan, tun paytida bu yerda nima qilayapsan?

Ul odam:

– Tuyamni yo‘qotdim, uni qidirayapman, – dedi.

Hukmdor xonasidan chiqdi va:

– Esing bormi sening, ey odam, tomda tuya nima qilsin? – dedi.

Ul odam:

– Ey sen! Ey, Balx hukmdori! Allohni yumshoq par to‘shaklardan qidirasanmi?

Bu javob hukmdorning jigarini tildi, yuragini ezdi. Dur kabi yoshini to‘kardi. Ibrohim Adham toj-u taxtni tark etdi. O‘z to‘nini o‘zi yamaydigan so‘fiy bo‘ldi. Bir kuni Ibrohim Adham soy qirg‘og‘ida to‘nining so‘kilgan joyini tikib o‘tirgan edi, undan keyin Balx valiysi bo‘lgan yangi hukmdor mulozimlari ila kelib, Ibrohim Adhamdan nega toj-u taxtni tark etib, bu holga tushganini so‘radi.

Ibrohim Adham ignasini soyga otdi va:

– Baliqlar, ignani keltiring! – dedi.

Baliqlar ignani keltirdilar. Ibrohim Adhamga berib, yana suvga tushib ketdilar.

Ibrohim Adham Balxning yangi valiysiga javob berib:

– Ey valiy! Ko‘rdingmi, Ibrohim Adham nega toj-u taxtni tark etdi, – dedi.

Ibrohim Adham dunyo tojini tark etgan edi. Ammo Alloh uni oxirat toj-taxtiga o‘tkazdi. Baliqlar Ibrohim Adhamga xizmat etar edilar. Ibrohim Adhamni bunday yuksak darajaga, martabaga ko‘targan quvvat nima edi? Koinotning yagona sohibiga, holiqiga bo‘lgan muhabbat edi. Ammo bunday ko‘ngil qo‘ymoqlik Ibrohim Adham kabi dunyo toj-taxtini tark eta bilgan asl insonlar haqqidir.

Xoja Ahmad Yassaviyning o‘zi oltmish uch yoshga kirguncha oilasi, farzandlari bilan umr kechirgan, bog‘bonlik qilgan, kosataroshlik kasbi bilan shug‘ullanib, muridlar tarbiyalagan. Biroq o‘shanda ham shayxul mashoyixning qalbida Alloh muhabbati ustun bo‘lgan, u dunyoga e’tibor qilmas, nafsni odamni buzadigan narsa deb qaragan. Bu e’tiqod unda ota meros bo‘lib, Arslon bob va Yusuf Hamadoniy tarbiyasi tufayli yana kuchaygandi. Zotan, tarkidunyochilik – bu axir avliyolar tavbasi, ular mijoziga bu sut bilan kirgandir. Avliyolar tarki dunyo qilishni barchadan talab qilgan emaslar, chunki uzlatnishinlik, zikr-u samO‘ darvesh «nasibasi» (ulushi). Shayx o‘zini faqirlar zumrasiga kiritadi va bu bilan faxrlanadi. Faqir esa dunyoning asbob-u ahvolidan hech narsaga ega bo‘lmagan, hech bir tama-yu da’vosi bo‘lmagan kishi, faqirlarning Alloh diydoridan o‘zga talablari yo‘q.

«Devoni hikmat»da yoziladiki, Ahmad Yassaviy ruhi hali u tug‘ilmasdan Allohga oshiq edi. Chunki hazrati Payg‘ambar alayhissalom Me’roj tunida ko‘kda faqir haykalini ko‘rdilar (nur shaklida). Bu mening ruhim edi, deb yozadi Ahmad Yassaviy:

Ayo do‘stlar, quloq soling aytdug‘imga,
Ne sababdan oltmish uchda kirdim yerga.
Me’roj uzra Haq Mustafo ruhim ko‘rdi,
Ul sababdan oltmish uchda kirdim yerga.

Haq Mustafo Jabroildin qildi savol,
Bu nechuk ruh tanga kirmay topdi kamol.
Ko'zi yoshlig', xalqqa boshlig', qaddi hilol,
Ul sababdan oltmish uchda kirdim yerga.

O'shal ruhkim, Ahmad onasi hamlida paydo bo'lgan kuni uning vujudiga kirgan edi va tanasi bilan birga yashadi. Biroq ushbu ruh tanaga kirmasdan avval ham barkamol oshiq bo'lib, «ko'zi yoshli, boshi egik, qaddi hilol edi». Ya'ni toat-ibodatga moyil, komil musulmonning ruhi edi. Shu bois bu ruh tanaga kirgan zahoti, jism bilan kelisholmay, o'z asliga qarab intildi:

To'qqiz oyu to'qqiz kunda yerga tushdim,
To'qqiz soat turolmadim ko'kka uchdim.
Arsh-u kursi poyasini borib quchdim.
Ul sababdan oltmish uchda kirdim yerga.

Arsh ustida namoz o'qib tizzam bukdim,
Zorim aytib Haqqa boqib yoshim to'kdim.
Yolg'on oshiq, yolg'on so'fi ko'rdim, so'kdim,
Ul sababdan oltmish uchda kirdim yerga.

Hazrat Ahmad Yassaviy o'zini «Haq taolo partavidan» bahramand bo'lgan, go'dakligidan ilohiy ishq «jazbasi» tekkan kishi ekanini faxr bilan tilga oladi. Ma'lum bo'ladiki, valiylik, kashf-u karomat iste'dodining nishona berishi ham ishqdandir, ya'ni chin oshiq – chin so'fiydir, boshqacha qilib aytganda, ishq Allohni sevish. Unga sig'inib, nola-munojotlar qilishgina bo'lmasdan, balki Allohni tanish va, demak, o'z aslini tanish, kamolotga yetishish yo'lidir.

Ishq bog'ini mehnat tortib ko'kartmasang,
Xorlik tortib, shum nafsingni o'ldirmasang,
Alloh deyub ichga nurni to'ldirmasang,
Valloh-billoh, senda ishqning nishoni yo'q.

Ahmad Yassaviyni 120, 125, hatto 130 yil umr ko‘rgan deydilar. Hazrat 63 yoshga to‘lganida, yer yuzida Payg‘ambardan uzoq yashashga andisha qilib, bir chillaxona qazdiradi va umrining oxirigacha tashqariga chiqmay, o‘sha joyda hayot kechiradi. Lekin u yer ostiga kirganda ham dunyoviy ishlardan voz kechmagan: uning oldiga turli yerlardan olimlar va boshqa (uning aqidalari bilan qiziqqan) shaxslar kelib-ketib turganlar, shayx ular bilan suhbatlar o‘tkazgan.

8.4. Kubroviya tariqatining ilohiylik va insoniylik jabhalari

Xalqimiz avliyo, donishmandlarga e’tiqod va ehtirom bilan yashab keladi, ularning hokini ziyorat etib, ruhiy-ma’naviy quvvat oladi. Odamlarning buzrugvorligini e’zozlash poklikni, ma’rifatni, iymonni e’zozlashdir. Valiylarning tabarruk ruhlarini yodlash, ularga duo yuborish orqali biz o‘z qalbimizni, vijdonimizni poklash,hayot tarzimizni rostlik va ezgulik sari muvofiqlashtirishni ham o‘ylaymiz. Chunki valiy insonlarning hayoti, so‘zlari va ezgu amallari bizga ibrat, saboqdir. Komil insonning siyrat va suratida ilohiylik va insoniylik mujassamdir, zotan, ilohiylikni insoniylikdan va insoniylikni ilohiylikdan ajratib tasavvur qilib bo‘lmas. Ulug‘ insonlardagi qudrat va karomat, ma’naviy yetuklik ularning taqvolari evaziga Tangri taolo bergan bir ilohiy ne’mat, Tangri taolo qudrati va kamolotining muayan miqdordagi ifodasi va davomidir. Shuning uchun komil insonlar hayotini o‘rganish ham insonning o‘zini, ham Allohni tanish va bilish demakdir.

Xorazm diyori asrlar davomida Turkistonning madaniyat o‘choqlaridan biri bo‘lib kelgan. Bu tarixiy diyor nafaqat Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy kabi buyuk riyoziyot olimi, Mahmud az-Zamaxshariy kabi yirik mufassir, Abu Rayhon Beruniy kabi ulkan qomusiy olim, Jaloliddin Manguberdidek sheryurak sarkarda, ko‘plab shoir

va adiblar, davlat va siyosat arboblarini yetishtirib, jahon madaniyati xazinasiga unutilmas hissa qo‘shgan, balki tasavvuf va irfon olamida ham mangu va barhayot siymolardan biri bo‘lgan Shayx Najmiddin Kubrodek buyuk so‘fiy va mutafakkir orifni kamolga yetkazib, u asos solgan kubroviya tariqatini falsafiy fikrlar bilan yo‘g‘rilgan yangi tasavvuf maktabi sifatida islom olamiga taqdim etgan.

Insonlarga ezgu ishlarda ibrat va namuna bo‘lgan zotlar bashariyatni ulug‘lash va baxtiyorlik sari yetaklaydilar. Ana shunday ustod va ma’naviy yo‘lboshchilardan biri Shayx Najmiddin Kubrodir.

Shayx Najmiddin Kubro (taxallusi: asl ism-sharifi Ahmad ibn Umar ibn Muhammad Xivaqiy al-Xorazmiy (1145–1221) – ulug‘ shayx, tasavvufning taniqli vakllaridan biri, kubroviylik tariqatining asoschisi (uning taxallusi «dinning ulug‘ yulduzi» ma’nosini bildiradi). Shayx Najmiddin Kubro yoshligidan tahsilini tugallagach, tariqat bazmiga kirib, jomi vahdatdin may ichmakni orzu qildi. Xorazm mulkida qirq ikki piri komil bor edi. Ahmad ularning bazmida bo‘ldi, ammo ko‘ngli to‘lmadi. Ahmad ko‘ngliga ma’qul bo‘lmagan ishni qilmas, o‘zi ma’qul topgan ishdan ayrilmas edi. Ahmad Ajamga ketdi. U yerdagi bir mo‘tabar pir suhbatida bo‘ldi. Undan ham ko‘ngli to‘lmay, Bistomga, Shayx Ahmad Bistomiy huzuriga keldi. U yerdan ham ketdi. Shayx Ismoil Jomning suhbatiga keldi, ammo ularning ishi Ahmadga qabul tushmadi.

Jahon ichra menga yo‘l ko‘rsaturg‘a bir habibim yo‘q,
Agar bo‘lsa habibim ham, menga andin nasibim yo‘q. –

deb nola qilar edi.

Ko‘ngliga ilm-u urfon o‘ti tushub, darvish libosida Misrga safarga otlanadi. U mashhur mutasavvuf olim Ro‘zbehon Vazzon al-Misriyga shogird tushdi. Tez orada u sufiylikning uch asosi – shariat, tariqat va ma’rifat ilmlarini puxta egallaydi. Shayx Ro‘zbehon iste’dodli, bilimga chanqoq shogirdini o‘z o‘g‘lidek yaxshi ko‘rib, alohida mehr bilan

tarbiya qiladi, hatto unga qizini berib, o‘ziga kuyov qiladi. Shu tariqa bir necha yil Misrda yashaydi, ustozidan avval aqliy va fiqhiy ilmlarni o‘rganadi. Shunisi xarakterliki, u hunar egallash va mehnat qilish, toza kiyinib, hovli-joy, bola-chaqa orttirib ham tasavvuf ahlidan bo‘la olish mumkinligini amalda isbotlagan ulug‘ insondir.

Shayx Najmiddin Kubro Xorazmga 1185-yilda qaytib keladi. Demak, bu vaqtda u qirq yashar bo‘lib, yigirma besh yildan ortiq umrini ilm tahsiliga bag‘ishlagan edi. Yetuklik, komillik yo‘li mana shunday og‘ir va mashaqqatlidir. U Xorazmga qaytgach, katta xonaqoh qurdirib, tariqatda yangi bir maktab yo‘nalishi hisoblanmish kubraviya silsilasini asosladi. Uning qo‘li ostida yuzlab odamlar tarbiyalanib, islom ma’rifatidan, ilohiy irfondan bahramand bo‘ldilar. Shayx Najmiddin Kubro kishilarni ezgulikka, ilmga, saxovat va mardlikka da’vat etdi.

Shayx Najmiddin Kubroning «Al-usul al-ashara», «Risola at-turuq», «Odob us-solikin», «Favoyih ul-jamol» nomli asarlarini, ul zoti sharif haqida yozilgan kitoblarni mutolaa qilar ekanmiz, kubraviya tariqatining birmuncha jihatlari, talab va qoidalarini anglab olamiz. Shayx Najmiddin Kubro tasavvuf tarixida kengfe’llik yo‘lini tutgan shayxlardandir. Chunki u zotning xonaqohida sunniy mazhabli shogirdlar bilan birga, shia mazhabli muridlar ham ta’lim olavergan. Shayxning o‘zlari sunniylikka e’tiqod qo‘ygan bo‘lsalar-da, lekin hazrati Ali Abu Tolib raziyallohu anhu xonadoniga ham hurmat bilan qaragan va shia ahli bilan sunniylar orasida xusumat va janjal kelib chiqishiga yo‘l qo‘ymagan. Aslini olganda, tasavvuf mazhablar ayirmachiliklaridan ustun turadi. Tasavvuf ahli uchun Parvardigor ishqi, diydori hamma narsadan ustun. So‘fiy ilohiyot olamiga ruhan qo‘shilish uchun yashaydi va o‘zligini barbod berib, Yor vasliga erishadi. Bunday odamlar faqat Haqning haqiqatini, tavhid mohiyatini idrok etishni, ruhoniy soflik olamida sayr qilishni muhim deb bilgan.

Abdurahmon Jomiyning «Nafahot ul-uns» asarida qayd etilishicha, Ahmad yoshligidan ilmga qiziquvchanligi va qobiliyati bilan ajralib turgan. U islom asoslari, shariat ilmlarini juda tez o‘zlashtirib, Xorazmning o‘sha paytdagi ulamolaridan ancha ilgarilab ketadi va «Najmiddin» – «Dinning yulduzi» degan nom oladi. Shundan keyin Ahmad ibn Umar Najmiddin Kubro nomi bilan mashhur bo‘lib ketdi.

Shayx Najmiddin Kubro tabiatida donishmandlik, mantiq va majzublik birlashib ketganidan, so‘fiyona amallari va qarashlarida ham xilma-xil tomonlar ko‘zga tashlanadi. Xonaqohida xilvatnishinlik va chilla o‘tirish ham, botiniy – xufiy zikr, qizg‘in bahs-munozara ham, samO‘ majlislari ham bo‘lib turgan. Najmiddin Kubroning holatlari shunday ekanki, u kishi ba’zan birdan jo‘shib, o‘zga kayfiyatga kirib, vujudlari balqib ketar ekan, ba’zida esa hazin va o‘ychan, g‘oyat kamgap bo‘lib qolar ekanlar. Ba’zan bo‘lsa, xushchaqchaq va ochiq chehra bilan suhbatga berilar, g‘oyat nozik did va o‘tkir so‘zlar bilan muridlar qalbiga olovli cho‘g‘ tashlar, turli ishoralar, harakatlar, ruhiy karomatlar orqali atrofdagilarni hayratga solarkan. Shayx bag‘oyat zukko, salobatli, haybatli kishi bo‘lgan, kechalari aksar bedor o‘tirib, ibodat qilgan, surunkali ro‘za tutishni odat qilib, ilhomli damlarda xonaqoh hovlisini kezib, xushnud sayr etgan.

Demak, barcha tasavvufiy ta’limotlardagi (Yassaviya, Xojagon-Naqshbandiya) asosiy mohiyat: Inson tarbiyasi, Inson takomili, Inson axloqi, ya’ni Insonni ulug‘lash, uni e’zozlash, shu yo‘l bilan maxluqni Xoliqqa (yaratilganni Yaratuvchiga) yaqinlashtirishdek muhim axloqiy masala Kubro ta’limotida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Nazarimizda, Shayx Kubroning Ilohiy va Insoniy konsepsiyasini ham aynan mana shu masaladan izlasak xato qilmagan bo‘lamiz.

Deyarli boshqa barcha tasavvufiy ta’limotda ham Ishq va uzlat masalasiga katta ahamiyat beriladi. Shayx Najmiddin Kubroning Ishq haqidagi fikrlari ham o‘ziga xos va originaldir. Ishq haqida tavzihat berib yozganlar: «Ishq insonning ichini, qalbini va jigarini o‘rtay-

digan nihoyatda kuchli otashdur. U aqlni shoshqin, dilni toshqin qiladi, ko‘zni ko‘r qilib qo‘yadi. Insonga katta qo‘rquvlarni kichik qilib ko‘rsatadi».

Shayx Najmiddin Kubro aqidasiga ko‘ra, buzrukvor Oshiq, pok va jasur, Haq yo‘lida o‘zini mahv etgan ulug‘ inson Mansur Halloj (vaf. 910) Alloh ishqida, Alloh ishqi jazavasida: «Senga shoshilaman (talpinaman). Meni mendan ajratib olib, Senda, ya’ni o‘zingda foniy etding. Meni o‘zingga shu darajada ham yaqinlashtirdingki, Seni men, deb, his qildim», degan ekan.

Haqiqiy Oshiq haqida yana Shayx Najmiddin Kubro yozadi: «Ba’zan Oshiq Ishqda foniy bo‘ladi. U holda Oshiq Ishqqa aylanadi, ya’ni Ishq holiga keladi, so‘ngra Ishq Ma’shuqda foniy bo‘ladi».

Ko‘rinib turganidek, Shayx Najmiddin Kubro o‘zining buzurkvor o‘tmishdoshi, «Anal-Haq!» deya nido qilgan jasur Oshiq Inson Mansur Halloj darajasiga borib qolgan ekan. Bunday fikr Shayx Kubro dunyoqarashidagi haqiqiy va majoziy Ishq (Ilohiy va Insoniy Ishq) tushunchasidir, vahdati vujud holati va ta’limotidir.

Hazrati Shayx Najmiddin Kubro doim aytar ekanlarki, «Tariqimiz (ya’ni, yo‘limiz) kimyo (ma’danlarni oltinga aylantirish) yo‘lidur!» Bu yerda, albatta, odamlarni pishitmoq (puxtalamoq), xom va nomukammal kishilarni puxta va mukammal qilish, ya’ni odamlarni takomillashtirish yo‘li bilan Xudoga yaqinlashtirish, vasl qilish yo‘lidur, deyilmoqda. Mana shu yerda biz bobokalon va donishmand Shayximiz tasavvufiy dunyoqarashning asl mohiyatini bilsak bo‘ladi, ya’ni ma’danlarni (oddiy odamlarni) oltinga aylantirish, mukammallashtirish, aqliga aql qo‘shib, poklab, halollab, barkamol qilib, Alloh vasliga yaqinlashtirishdir. Ayni mana shu yerda Shayx Najmiddin Kubroning tasavvufiy ta’limotidagi asosiy axloqiy-tasavvufiy dunyoqarashga, Kubraviya ta’limotining asl mohiyatiga duch kelamiz.

Hazrati Najmiddin Kubro tariqatining o‘ziga xos jihatlari u kishining dunyoqarashida ham, amaliy ishlarida ham ko‘zga tashla-

nadi. Ulkan orif inson sifatida kishilarning ruhiyati, ruh xislatlarini chuqur o‘rgangan. Uning fikriga ko‘ra, inson «olami Sug‘ro», ya’ni kichik olam bo‘lib, unda «olami Kubro»ning, ya’ni katta olamning barcha xususiyatlari mujassamdir. Shayx Najmiddin Kubro deydi-kim, inson taraqqiy etib borsa, u Allohning «Rahm» va «Rahmon» sifatlaridan boshqa barcha sifatlarini egallay oladi. Ilohiy sifatlar pog‘onama-pog‘ona osmoniy-kayhoniy olamlarda joylashgan ekan, inson ham kamolot zinalaridan ko‘tarilib, shu darajalarni egallay oladi. Biroq bu yo‘lda unga piri komil rahnamolik qilishi kerak.

Pir qattiq va qat’iy nizomlar bilan solik-muridni o‘z irodasiga itoat ettirib, belgilangan yo‘ldan olib boradi. Solik zikr-u xilvat, muroqaba va mushohada chog‘ida har xil holatlarni boshidan o‘tkazadi, ko‘nglida turli fikrlar, tuyg‘ular paydo bo‘ladi. Shuning uchun agar pir unga rahbarlik qilmasa, murid noto‘g‘ri, shaytoniy yo‘lga kirishi hech gap emas. Zero, ilhom Rahmondan ham, shaytondan ham bo‘lishi yoki jismdan, yoxud ruhdan hosil bo‘lishi mumkin ekan.

Najmiddin Kubro katta badiiy ijod egasi ham bo‘lgan. Uning ijodi bo‘yicha ma’lumotlar bizgacha yetib kelmagan. Ammo uning she’rlaridan saqlanib qolgan ba’zi bir namunalar shoirning chuqur ichki dunyosi go‘zalligidan xabar beradi, uning hayot nashidasini surmoqqa intilishi, katta dunyoviy muhabbat egasi bo‘lganligi va oliyjanob insoniy fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirganligini ko‘rsatadi.

Oshiq kishining ko‘ngli to‘la dard bo‘lgay,
Dil dardi bilan mard yana ham mard bo‘lgay.
O‘z ishqi o‘tida u yonarkan, bul dam,
Do‘zax o‘ti o‘zgalar uchun sard bo‘lgay.

Haq yo‘liga har lahza sa’y etmak lozim,
Dunyodan etak tortmagu ketmak lozim.
Diydangni davola, zero, olam hama-ul,
Ko‘rmak uni – asroriga yetmak lozim.

Ey tun, hademay saharga aylangaysan,
Bul dardi dilim quvishga shaylangaysan.
Maqsud sari yetkazishga dilni balki,
Ey tong, o'zing, beshubha, saylangaysan.

Bir kun ko'rsanki, jon tanimdan ketgan,
Boshimga fig'on chekib xaloyiq yetgan.
Koshki kelib boshimda o'tirsang, aytsang:
O'ldirgan o'zim, o'zim pushaymon etgan...

Ishqing mayini ichib, bu dil mast bo'lgay,
Hajring g'amini chekib, u, bil, past bo'lgay.
Bir boqsang agar – ko'yingda tuproq bo'lgan,
Jonsiz tanaga jon yana payvast bo'lgay!

Sunbul sochidan men begumon qo'rqaman,
Xatti xush-u fe'li beomon – qo'rqaman.
Xalq qo'rqsa yomon ko'zdan agar, men sho'rlik,
Yaxshi ko'zdan yorning yomon qo'rqarman.

Shayx Najmiddin Kubro xonaqohida murid tarbiyalashning o'ziga xos usullarini ishlab chiqadi, o'nta talab asosida tariqat manzillarini bosib o'tish va poklanib, ma'rifatga erishish yo'llari borligini ko'rsatadi. «Risola at-turuq» («Tariqatlar risolasi») va «Al-usul al-ashara» («Tasavuffning asosiy o'n qoidasi») nomli kitoblarida sufiylar tarbiyasida quyidagi o'nta talabning muhimligi qayd etiladi.

Tavba – barcha amallarning boshi. O'z gunohlarini anglab, Alloh taolo oldida tavba qilgan va bundan keyingi hayotini faqat ilohiy ezgulik va xayrga bag'ishlashga ahd qilgan odamgina tariqatga kira oladi. Tavba qilgan odam bir hayot tarzini tark etib, ikkinchisiga o'tadi, xulqini, axloqini o'zgartira boshlaydi, o'zini anglash sari safarga chiqadi.

Zuxd – taqvo, parhez demak. Zero, tavba qilgan endi haromdan hazar qilib, halollikka yuz tutishi, Allohdan qo‘rqib, Alloh man etgan ishlarni qilmasligi lozim.

Tavakkul – o‘z amallari, fikri va ishlarida yolg‘iz Allohga suyanish demak. Rizqni Alloh beradi, inson taqdirini Alloh belgilaydi va inson amallari ham Alloh irodasi doirasida bo‘lishi kerak. Chunki yaxshilik va yomonlik, to‘qlik va ochlik, boylik va kambag‘allik ham Allohdandir. Alloh bizni toat-ibodatga chorlaydi, insonligimizni eslatib turadi. Ammo inson buyuk zaruriyat ichidadur. Uning faoliyati, ijodi va qudrati shu Ilohiy zaruriyatdan tashqariga chiqib ketolmaydi. Inson buni anglamog‘i lozim. Chunki inson barcha mavjudot kabi foniydir, u abadiy emas. Abadiy faqat Allohning o‘zi, agar inson abadiyatni xohlasa, Alloh sari intilsin, Poklik olamiga qarab, kamol kasb etsin.

Qanoat – kamolotning eng maqbul yo‘li hisoblanadi. Modomiki inson farishta bilan hayvon orasida turuvchi maxluq ekan, unda ruh va jism kurashi muqarrar bo‘lib, kamolot ana shu jism talablarini yenga borish va ruh talablarini ko‘paytirish bilan qo‘lga kiradi. Qanoat insonni inson qiladi, ma’naviyat bezagi bilan bezatadi.

Uzlat – tasavvuf ta’limotiga ko‘ra insonning ruhi, agar u poklanishga moyil bo‘lsa, tabiiy ravishda yakkalanish va go‘shanishin bo‘lishi talab qiladi. Inson ruhi tashrid (ajralish) va tafrid (yolg‘izlanish) bosqichlarini bosib o‘tmasa, mutlaq poklanmaydi. Uzlat – so‘fiylarning chilla o‘tirishlari, xilvatlari bilan amalga oshirilgan.

Tavajjuh – kurash, o‘zi bilan o‘zining kurashi. Solik hamma vaqt yaratganga yuzlanib, undan madad so‘rab, unga sari qalban intilmog‘i darkor.

Sabr – solikning e’tiqodi, niyatini sinash. Haq yo‘li og‘ir va mushkul yo‘l. Uning azob-u iztirobiga chidagan kishilargina maqsadga erishadi. Tariqat yo‘lovchisi sabr manzilidan o‘tsa, ajib bir ruhiy dovondan o‘tgan, yangi kuch-qudrat topgan bo‘ladi.

Muroqaba – kuzatish, tafakkur – shuurga berilish demak. Tavba-tazarru qilib, zikri toat, sabr-u sadoqat bilan o‘zining ma’rifatini oshirib borgan solik, bora-bora osoyishta bir holga keladi, Alloh diydori yodida tafakkurga g‘arq bo‘ladi, olamlarni ruhan sayr qilib chiqadi, ko‘z oldiga Haq taolo jamoli va Payg‘ambar siymosini keltira oladi. Ruhi to‘lishib, tasavvur va tahayyuli kengayadi, g‘ayb asrori eshiklari yuzaga ochiladi.

Zikr – so‘fiy odam har yerda, har doim Allohning ismlarini tilidan qo‘ymasligi kerak, kalimalarni, duolarni muntazam takrorlab turishi bilan qalbga Alloh taolo sifatlari va zoti joylanadi. Alloh nuri porlay boshlaydi.

Rizo – solik Alloh qudratini, ilmini chuqur his qilgan Alloh olami bilan huzurlana boshlaydi. Haq unga va u Haqga yaqinlashadi.

Shayx Najmiddin Kubroning tasavvuf tarixidagi yana bir xizmatlari – javonmardlik g‘oyalarini tariqatga joriy etish bo‘ldi. Aslida, bu ish ilgari ham bo‘lgan, biroq Shayx Najmiddin Kubro bu qarashni so‘fiylar hayotiga yana ham izchilroq singdirib yubordi. Natijada, mardlik va poklik, qahramonlik va fidoyilik, ma’rifat va jismoniy-ruhiy qudrat birlashtiriladi, inson kamolotida axloqiy yuksaklik, vatanparvarlik g‘oyalari qo‘shilib ifodalandi.

Shayx Najmiddin Kubro Hazrati Jomiy iborasi bilan aytganda, «o‘z zamonalarining yagonasi va davrlarining muqtadosi» bo‘lgan yuzlab shogirdlarni tarbiyalab voyaga yetkazgan: Bahovuddin Valad (Rumiyning otasi), Majdiddin Bag‘dodiy, Sa’diddin Hamaviy, Raziddin Ali Lolo, Sayfiddin Boxarziy, Najmiddin Roziy Doya, Bobo Kamol Jandiy va boshqalar Shayx Najmiddin Kubro izdoshlaridir.

Avliyolar suhbatining o‘zi ayni karomat, chunki ular suhbatidan fayzyob bo‘lgan kishi o‘zini o‘zga olamda his etadi, bir ilohiy qudrat bilan tubanlikdan yuksaklik sari ko‘tariladi, martaba-maqomga erishadi. Shayx Najmiddin Kubro hazratlari karomat ko‘rsatish va xoriqulodda xislatlari bilan mashhur bo‘lgan. Ul zotni behudaga «valiy-

tarosh» demaganlar. Zero, valiylarni tarbiyalab yetishtirish uchun o‘zi valiylar peshvosi bo‘lishi kerak. Shuni aytish lozimki, karomatlarning turi ham ko‘p, chunonchi: quvvayi nazar, quvvayi nafas, quvvai dil orqali boshqalarga ta’sir etish, voqealarni oldindan tushda ko‘rish yoki o‘ngda ham bo‘lajak ishlarni oldindan sezish, ruhan olamlarni sayr qilib qaytish va boshqalar.

Shayx Najmiddin Kubroda karomatning ko‘rinishlari ko‘p. Ul zot ham o‘tkir nafasi, ham nazari va ham suhbati-so‘zi bilan qalblarga g‘ulg‘ula sola olgan. Abdurahmon Jomiyning «Nafahot ul-uns» asarida Shayxning karomat-u holatlaridan bir necha misol va rivoyatlar keltirilgan. Shulardan birini quyida bayon etamiz.

Bir kun Shayx Najmiddin Kubroning suyukli muridi Majdiddin Bag‘dodiy darveshlar bilan o‘tirgan edi. Unda behudlik holati yuz berdi, darveshlarga qarab dedi: biz o‘rdak tuxumlari edik, shayximiz Najmiddin tovuq edi, bizni ochdi, biz daryoga qarab yo‘l oldik, u esa qirg‘oqda qoldi.

Nega, nima demoqchi bu bilan? Demoqchiki, Shayx Najmiddin Kubro sukrani, ya’ni behudlik nazariyasini, botiniy bilishni, fano fillohni butkul qabul qilgan emas, u aqliy bilim tarafdori bo‘lib qoldi. Bu gap Shayx Najmiddin Kubroning qulog‘iga yetganda, u xafa bo‘ladi va Majdiddinni qarg‘ab, «va o‘sha suvda g‘arq bo‘lib o‘l», dedi.

Darhaqiqat, ko‘p o‘tmay bir sabab bilan Muhammad Xorazmshoh Majdiddinga g‘azab qilib, uni Amudaryoga cho‘ktirib o‘ldiradi. Bu voqeadan xabar topgan Shayx Najmiddin Kubro yana battarroq ranjiydi. Endi u Xorazmshohning halokatidan, Chingizxonning bosib kelishi va obod shaharlarni vayron qilishidan bashorat beradi. Muhammad Xorazmshoh olamjahon tuhfa bilan Shayx oldiga kechirim so‘rab keladi, boshini oyog‘iga qo‘yadi. Ammo Shayx unga shafqat qilmaydi: «Endi kech bo‘ldi, farzandim Majdiddin qoni jamiki el-avloding, mol-u mulkingni berganingda ham yuvilmaydi, qonni qon

yuvadi», – deb javob beradi. Bu karomatlar tezda sodir bo‘ladi – Xorazm o‘t ichida qoladi.

Dushman Xorazmga yaqinlashganda, Muhammad Xorazmshoh qochib ketgan, lashkar parokanda edi. Shayx muridlarini jamlab, ularga qarab bunday deydi: «Mashriqdan kelgan bu balo Mashriq-u Mag‘ribni yakson etadi, yondirib kul qiladi. Sizlar har biringiz o‘z yurtingizga boring, o‘z joningizni asrash payida bo‘ling». Ahob shayxga iltimos qilib dedilar: «Ot-ulovlar tayyor, agar shayx biz bilan hamroh ketishni ixtiyor etsalar, yaxshi bo‘lardi». Bunga javoban Shayx Najmiddin Kubro deydi: «Men bu yerda shahid bo‘laman, menga Xorazmni tark etishga ruxsat yo‘q».

Mo‘g‘ul askarlari Gurganjga kirganda, Shayx qolgan muridlari bilan jangga shaylanadi. U xirqasining ustidan belbog‘ bog‘lab, qo‘yinlarini tosh bilan to‘ldiradi, qo‘liga nayza olib, dushman qarshisiga chiqadi. Kofirlarga qarab tosh ota boshlaydi, bir nechtasini nayza bilan urib yiqitadi. Ammo kofirlar uning ustiga kamon o‘qi yog‘diradilar. Bir o‘q kelib Shayxning ko‘kragiga tegadi. Mo‘ysafid – ilohiy ilhomdan ma’rifat topib, qalblarni nurlantirgan shayxi kabir holdan toyib, kuchi ketayotganini sezsa ham, jangni to‘xtatmay, dushman bayrog‘ini g‘azab bilan mahkam tutamlab oladi-da, shu holatda jon beradi. Deydilarkim, vafotidan keyin o‘nta odam uning mahkam qisilgan panjalari orasidan bayroqni zo‘rg‘a ajratib olgan.

Shayx Najmiddin Kubro voqean yengildimikan? Mo‘g‘ullar Xorazmni va boshqa shaharlarimizni bosib olib, ko‘z ko‘rmagan, quloq eshitmagan vahshiyliklarni qildilar, ma’rifat va madaniyatimiz obidalari yakson bo‘ldi, yondirildi, vayron etildi. Lekin xalqimiz bu madaniyatni qaytadan tikladi, mo‘g‘ul vahshiylaridan bora-bora nishon ham qolmadi – ular butunlay mahalliy xalqqa singib, islomni qabul etib, vahshiylik botqog‘idan qutulib, islomiy yorug‘likka ko‘tarildilar va, hatto, ba’zilari keyinchalik islomiy ma’rifat homiylari bo‘lib maydon-

ga chiqdilar. Shunday ekan, Shayx Najmiddin Kubro va uning xalqi yengilgani yo‘q, mo‘g‘ul lashkarlari yengildi – u yo‘q bo‘ldi. Bu asl ma’rifatning qudratiga, taraqqiyotning o‘lmasligiga misoldir. Shuning uchun Shayxning «Quvvayi nazari»ni ma’rifat qudrati, o‘lmas ma’naviyat qudrati, deb bilish kerak.

Najmiddin Kubroning tasavvuf ilmining va kengroq olganda jahon falsafiy fikrining rivojida tutgan alohida o‘rni shu bilan belgilanadiki, u insonning komillikka intilishi g‘oyasini dunyoviy hayot amaliyoti bilan izchil ravishda qovushtirishga, muvofiqlashtirishga erishdi. U botiniy va zohiriy hayotni uyg‘unlashtirdi, javonmardlik g‘oyalarini insoniy hayotga izchillik bilan singdirishga harakat qildi. Natijada Najmiddin Kubro ta’limotida axloqiy yuksaklik va jismoniy qudrat, jamiyat yo‘lidagi fidoyi qahramonlik va shaxsning ruhiy pokligi, Haq ishqi va el-yurt qayg‘usi komil insonning ajralmas belgilari sifatida o‘z ifodasini topgan.

Xulosa qilib aytganda, tasavvuf ilmi – inson haqidagi, inson qalbiga sayqal berish ilmidir. U inson odobini, ya’ni ma’naviyatini yanada yuksaltiradi, islom axloqining eng muhim qadriyatlarini bir nuqtaga jamlaydi. Shu tariqa tasavvuf komil inson nazariyasi va amaliyotini ishlab chiqadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar

1. So‘fiylik aqidasining asosida qanday g‘oya mavjud?
2. Olim kim-u, orif kim? Ilm nima-yu, irfon nima?
3. Tadqiqotchilar tasavvuf tarixini necha davrga ajratadi?
4. Pir-murshid masalasini mohiyatini aniqlang.
5. Yusuf Hamadoniy qanday ta’limotni ilgari surgan?
6. Abduxoliq G‘ijduvoniy nima uchun Bahouddin Naqshbandga uvays ustoz?
7. Bahouddin Naqshbandning qoidalari haqida so‘zlang.

8. Alisher Navoiy ijodida Naqshbandiya tariqatining ahamiyati haqida nimalarni bilasiz?

9. Nima uchun Ahmad Yassaviy uvaysiy shayxlar sirasiga kiradi?

10. Ahmad Yassaviyning «Devoni hikmat»ida nasihatlaridan namunalar keltiring.

11. Najmiddin Kubro shariat ilmlari bilan tariqat ilmlarini barobar o‘rganganligini sababini ayting.

12. Shayxning ilmiy asarlari to‘g‘risida ma’lumot bering.

Xalqimizda «Oqqan daryo oqaveradi» degan dono naql bor. Shu ma'noda, el-yurtimizning qon-qonida azaldan bo'lgan aql-zakovat, ilm-u ma'rifat tufayli siz kabi zahmatkash va fidoyi insonlarning xizmatlari tufayli O'zbekistonimiz zaminidan yangi xorazmiylar, beruniylar, ulug'beklar yetishib chiqadi va Vatanimiz shuhratini butun dunyoga yuksaltiradi, deb ishonaman.

Shavkat Mirziyoyev

9-MAVZU. O'RTA OSIYOLIK MUTAFAKKIRLARNING FALSAFIY TAFAKKURIDA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MASALALARI

Reja:

9.1. Markaziy Osiyo – Sharqning yuksak ma'naviyat va tafakkur markazi.

9.2. Bag'dod Ma'mun akademiyasida faoliyat yuritgan O'rta Osiyolik mutafakkirlar.

9.3. Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sinolarning jahon ilm-fani taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissalari.

Tayanch so'z va iboralar

Ma'mun akademiyasi, Al-Xorazmiy, hisob al-hind, «Dixi Algoritmik», Ziji Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, samoviy harakatlar, Miqyos an-Nil, al-Fraganus, Abu Nasr Forobiy, falsafa fani, ilmlar tasnifi, ma'naviyat aqlda emas, ruhiy tuyg'ularda, Abu Rayhon Beruniy, haqiqat ehtiroslarga bo'ysunmaydi, og'irlik va yengillik, «Hindiston» asari, Ibn Sino, kutubxona, Kitob ash-Shifo, «Tib qonunlari».

9.1. Markaziy Osiyo – Sharqning yuksak ma'naviyat va tafakkur markazi

Markaziy Osiyo tarixiy voqealarga g'oyat boy o'lka bo'lishi bilan azaldan ilm-fan, madaniyat va ma'naviyatning markazlaridan biri bo'lib kelgan. Bu o'lka dunyoga ma'naviyat va ma'rifatning barcha sohalarida minglab jahonshumul ulug' zotlar, davlat arboblarini tarbiyalab bergan, umumbashariyat ma'rifatparvarligini yaratishda buyuk ajdodlarimiz bevosita ishtirok etganlar, uning taraqqiyoti va boyishiga ulkan hissa qo'shganlar, Markaziy Osiyo madaniy merosi jahon madaniyati va ma'rifatining uzviy ajralmas tarkibiy qismidir.

IX asrda jahon sivilizatsiyasi taraqqiyoti davomida qadimgi Sharq mintaqasiga mansub Mesopotamiya, Hindiston, Xitoy, Markaziy Osiyo hududlarida insoniyat sivilizatsiyasining ilk beshiklari vujudga kelib, Uyg'onish davri uchun poydevor (birinchi omil) bo'lib, keyingi bosqichda fan va madaniyat yanada yuksaklikka ko'tarildi.

Bu jarayonda ko'p ming yillik tarixga ega bo'lgan, Sharq-u G'arbni tutashtirgan, o'zaro madaniyat, din-u e'tiqod, urf-odat, an'analar almashinuvini ta'minlagan Buyuk ipak yo'lining o'rni katta bo'ldi. Ko'hna Xitoy yurtidan boshlangan bu yo'l, avvalo, Sharq xalqlarini bir-biri bilan bog'lab, ularning iqtisodiy, savdo-sotiq, madaniy-ma'naviy aloqalarining rivojlanishi, turmush tarzining boyishida sezilarli turtki bo'ldi. Sharq xalqlari, elatlarining tili, urf-odatlari, musiqasi, to'y-u ma'rakalari, diniy rasm-rusumlaridagi o'xshashlik jihatlarning mavjudligi ham buni isbot etadi.

Yana biri – bu IX asrga kelib Sharq, jumladan, O'rta Osiyoda natural ishlab chiqarishning rivojlangan davriga kirishi, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdoning rivojlanishi, Damashq, Bag'dod, Marv, Urganch, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Sian, Dunxuan kabi madaniyat markazlari sifatida rivojlanishi ham muhim omil bo'ldi.

Shuningdek, VII asrdan boshlab arab dunyosida islom bayrog'i ostida vujudga kelgan xalifalik davlati qisqa tarixiy davr ichida ko'pgina hududlarni egallab, ularda nisbatan yagona iqtisodiy va madaniy-ma'naviy makon yaratishga muvaffaq bo'ldi. Bunday holat Sharq Uyg'onish jarayoniga va ayniqsa, arab dunyosi bilan tutashgan Markaziy Osiyo hududlariga ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Xalifalik tasarrufidagi mamlakatlarda islomiy hamda dunyoviy madaniyatning yonma-yon rivojlanishiga keng yo'l ochildiki, bu hol oxir-oqibatda Sharq dunyosini ulkan o'zgarishlarga olib keldi.

Bu jarayonlarning kuchayishiga shu yurtlar ko'plab hukmdorlarini o'z davrining siymolari sifatida adolatga amal qilib, ilm-fan rivojiga rahnamolik qilganligi ham omil hisoblanadi. Buni xalifalik hukmdorlari sanalgan Xorun ar-Rashid va uning o'g'li Ma'mun, Ismoil Somoniy, Mahmud G'aznaviy, Malikshoh, Ma'mun ibn Ma'mun, Nizomulmulk, Jaloliddin Otsiz va boshqalar timsolida ko'rishimiz mumkin.

IX asrga kelib Movarounnahrning mustaqillikka erishishi, somoniylar va qoraxoniylar davrida moddiy va ma'naviy madaniyatning rivojlanishi ham Sharq Uyg'onish davrida O'rta Osiyolik yuzlab allomalar faoliyatining o'z o'rni bor.

Sharq Uyg'onish davri o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra quyidagi muhim omillar va xususiyatlari bilan ajralib turadi:

1) madaniyatda dunyoviy bilimlar, islom ahkomlari, aqidalarining rivojlanishi, ularning jamiyat va odamlar manfaatlari nuqtayi nazaridan talqin etilishi;

2) turli davlatlar, xalqlarning (arab, eron, yunon, hind, turkiy va b.) madaniy meroslari, qadriyatlari, yutuqlari, ma'naviy boyliklaridan foydalanilganligi;

3) astronomiya, matematika, minerologiya, jug'rofiya, kimyo va boshqa tabiiy fanlar rivoji;

4) uslub (metodologiya)da ratsionalizm (oqilonalik), mantiqning ustuvorligi;

5) insoniy do‘stlik, yuksak axloqiylik, komil inson shaxsini shakllantirish g‘oyalarining talqin etilishi;

6) falsafa, tarix va tibbiyot fanlarining rivojlanishi;

7) adabiyot, musiqa, xalq amaliy san’ati, notiqlikning keng rivoj topishi;

8) bilimdonlik, donishmandlikning qomusiy tarzda keng e’tirof topishi va shu kabilar.

Uyg‘onish davrining bu asosiy omillari va xususiyatlari dunyoviy ilm-fanning rivojlanishi – bular, shubhasiz, bashariyat ma’naviyati yuksalishining muhim o‘lchov mezonlari bo‘lib xizmat qildi.

Sharq madaniy Uyg‘onishining o‘ziga xos muhim jihatlaridan biri shundaki, bu yuksalish jarayoni bir vaqtning o‘zida ham xalifalik markazida va uning Mag‘rib-u Mashriq tomonlarida (Ispaniya Andaluziyasi va Markaziy Osiyoda) birdek namoyon bo‘ldi. Masalan, IX asr boshlarida xalifalik poytaxti Bag‘dod bir vaqtning o‘zida islomiy va dunyoviy madaniyat, ilm-u urfonning yirik markazlaridan biriga aylangandi. Xalifa Xorun ar-Rashid (786 – 809) davrida Bag‘dodda tashkil etilgan «Bayt ul-hikmat» («Donishmandlar uyi») – olimlarni birlashtirgan ilmiy muassasa xalifa Ma’mun (813 – 833) davrida yanada rivojlandi. Unda ko‘p sonli qomusiy bilim sohiblari ilm-u fanning turli-tuman sohalari bo‘yicha yirik tadqiqotlar olib borganlar. Bu allomalarning talay qismi O‘rta Osiyo namoyandalari bo‘lgan.

Bu davr dunyoviy ilm-fanining yana bir muhim yutug‘i shundaki, arab va ajam olimlari sa’y-harakatlari, izlanishlari tufayli, lotin, suryoniy, hind tillarida bitilgan, son-sanoqsiz noyob ilmiy asarlar, qo‘lyozmalar topilib, ular arab tiliga tarjima qilindi va hayotga ijobiy tatbiq etila bordi.

Xorun ar-Rashidning o‘g‘li Ma’mun avval Xorazm, keyinchalik Xuroson noibi etib tayinlangan edi. Ma’mun yoshligida yaxshigina ma’lumot olgan va otasi kabi ilm-fan rivojiga homiylik qiluvchi shaxs bo‘lgan. Ma’mun Marvda o‘z atrofiga Xorazm, Farg‘ona,

So‘g‘d, Shosh, Forob kabi o‘lkalardan olimlarni to‘plab, ularning ilmiy-ijodiy faoliyatlariga sharoit yaratib bergan. Ular Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Kasr al-Farg‘oniy, Abbos Ahmad ibn Muhammad Abbos ibn Abdulloh al-Marvaziy, Abbos ibn Said Javhariy, Abu Bakr Ahmad bin Ali al-Marvaziylar edi.

Xorazm Ma’mun akademiyasi Xorazmshoh Ma’muniylar davlati (995 – 1017) tarixi bilan bevosita bog‘liq. Siyosiy, iqtisodiy, harbiy qudratga erishgan Xorazmshohlar davlati mamlakatni birlashtirish, unda tartib o‘rnatish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirgan. Kun tartibida, birinchi navbatda, davlat ichki va tashqi siyosatini olib borishda mafkuraviy masalalarni hal qilish turgan.

Xorazmshoh Ali ibn Ma’mun (997 – 1009) dono va zukko maslahatchilarga muhtoj bo‘lgan. Uning baxtiga tog‘asi, Abu Nasr ibn Iroq o‘z davrining o‘ta bilimdon olimi bo‘lgan. 1004-yilda Ibn Iroqning taklifi bilan Abu Rayhon Beruniy Urganchga qaytib kelgan. Ma’mun saroyida ilm ahli uchun yaxshi sharoit yaratib berilgan. Bu ikki shaxs Yaqin va O‘rta Sharqdagi ko‘plab olimlar bilan shaxsiy yozishmalar olib borgan. Ularning taklifi bilan Nishopur, Balx, Buxoro va hatto arab Iroqidan ko‘plab olimlar Urganchga kelishgan.

Shu tariqa 1004-yildan boshlab Urganchda «Dor-ul hikmat» (ba’zi bir manbalarda «Majlisi ulamo») nomini olgan ilmiy muassasa to‘la shakllangan. Bu ilmiy muassasada xuddi Afinadagi Platon, Bag‘doddagi «Bayt ul-hikmat» akademiyasi faoliyatiga o‘xshab ilmning barcha sohalarida tadqiqot va izlanishlar olib borilgan, juda ko‘p manbalar to‘plangan, tarjimonlik ishlari bajarilgan; hind, yunon, arab olimlarining ishlari o‘rganilgan, Al-Xorazmiy, Al-Farg‘oniylarning boqiy asarlari, ilmiy ishlaridan foydalanilgan.

Xorazm Ma’mun akademiyasi asosini quyidagi olimlar tashkil etgan: Abu Nasr Mansur ibn Ali ibn Iroq al-Ja’diy, Abulxayr ibn Hammor, Abu Sahl Iso ibn Yah’yo al-Masihiy al-Jurjoniy, Abu Rayhon

Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy, Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn Sino, Abu Ahmad ibn Muhammad ibn Ya'qub ibn Miskavayh, Abu Mansur Abdulmalik ibn Muhammad ibn Ismoil as-Saolibiy an-Naysaburiy, Ahmad ibn Muhammad as-Sahriy, Abu Ali al-Hasan ibn Horis al-Hububiy al-Xorazmiy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Homid al-Xorazmiy va boshqalar.

Xorazm Ma'mun akademiyasi olimlari Yunoniston, Yaqin va O'rta Sharq, Hindiston ilm-fan yutuqlarini ijodiy, tanqidiy o'rganib, uni yanada yuksak bosqichga ko'targanlar, ularning ilmiy faoliyati, asarlari tufayli qadimgi Xorazm badiiy san'ati, adabiyoti, astronomiyasi, sug'orish madaniyati yutuqlari jahon tamadduni xazinasiga kirgan va butun insoniyat manfaatlariga xizmat qila boshlagan.

Masalan, Abu Nasr ibn Iroq astronomiyaga oid ilmiy asarlari tufayli «Batlimusi soniy» («Ikkinchi Ptolemey») degan faxriy nom oldi. Abdulxayr ibn Hammor mantiq, falsafadan tashqari tabobatda ham juda mashhur bo'lgani uchun «Buqroti soniy» («Ikkinchi Gippokrat») taxallusiga sazovor bo'lgan.

Uyg'onish davri madaniyatining buyuk namoyandalari o'z ijodiy izlanishlarida bevosita qadimgi madaniyat merosiga tayanganlar. Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi yunonlar, rimliklar, mesopotamiyaliklar, hindistonliklar, xitoyliklarning madaniyati bilan yaqindan tanish bo'lganligi, ularning tilini yaxshi bilganligini qayd etish mumkin.

Yurtni xarobaga aylantirgan, madaniy yodgorliklarni xonavayron qilgan, ilm ahlini quvg'in qilgan arab bosqinchilariga qaramay, qadimgi boy madaniyat izsiz yo'qolmadi. Islom dini butun madaniyatga, tilga, udum-an'analarga ma'lum darajada o'z ta'sirini o'tkazgan bo'lsa-da, uning mohiyati o'zgarmadi. Bu – xalqimizga xos ezgulik, mehr-shafqat, insonparvarlik, xayr-muruvvat, oqko'ngillik, bag'rikenglik, ilmga tashnalik, o'zga xalqlarga ishonch, ehtirom fazilatlaridir.

Yunon, Hind, Xitoy va boshqa xalqlar madaniyatini juda yaxshi bilgan Markaziy Osiyoning ilm ahli o‘zga xalqlarni boshqalar madaniyati bilan tanishtirdilar. Mashhur matematik al-Xorazmiy hindlarning hisob tizimini, Abu Nasr Forobiy yunonistonlik Arastuning falsafiy ta’limotini, Ibn Sino Gippokrat tibbiyotini, yangi davrda yuqori bosqichlarga ko‘tardilar. Imom Buxoriy islomiy ta’limotga asoslanib, hadislar ilmida «Muhaddislar sultoni» degan buyuk unvonga sazovor bo‘ldi.

Aniq fanlar sohasida Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Bakr Roziy, Abu Rayhon Beruniy, Umar Xayyom jahonshumul kashfiyotlar qildilar.

Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Ibn Rushd, Abul Hamid G‘azzoliy, Aziziddin Nasafiylarning falsafiy asarlari insonlar tafakkur xazinasini boyitdi, olam, odam va jamiyat yaxlitlikda tadqiq etilib, yangi qonuniyatlar ochildi, aqliy bilim ufqlari kengaydi, fozil jamiyat va komil inson nazariyasi chuqur ishlab chiqildi.

She’riyatda Abu Abdullo Rudakiy, Abulqosim Firdavsiy, Jaloliddin Rumiy, Hofiz Sheroziy, Nizomiy Ganjaviy kabi daho ijodkorlar yetishib, o‘lmas asarlar yaratdilar, ishq-muhabbat, qahramonlik, ozodlik va ezgulikni kuyladilar.

Musiqada ham uyg‘onish davri jarayoniga xos yuksaklik dastlab Sharqda yuz berdi. Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi an’analari arab, hind va fors musiqiy meros asarlari, cholg‘ulari bilan o‘zaro ta’sir jarayonlari natijasida boyib, qaytadan jonlandi. Zero, Abu Nasr Forobiy va uning izdoshi Ibn Sino musiqaning nazariy, falsafiy va estetik masalalarini atroflicha tadqiq etib, umumsharqiy ta’limotni yaratgan. Xususan, Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari musiqa amaliyotiga tayangan holda, kuy va usullar, qo‘llaniladigan sozlar, muayyan shakl va janrlar doirasida mushtaraklik mavjudligini isbotlagan.

Abu Nasr Forobiyning «Kitob us musiqa al-kabir» (“Musiqaga doir katta kitob”) va Ibn Sinoning «Javome’ ilm ul-musiqa» (“Mu-

siqaga oid ilmlar to‘plami”) kabi asarlarida yunon olimlari Pifagor, Aristoksen va boshqalarning qarashlari boyitilib, tovushlar baland-pastligi munosabatlari matematik uslubda ifodalangan. Shuningdek, sof tovushqator tizimi, undan o‘rin olgan bo‘dlarning muloyimat va munofirat tasnifoti, iyqo nazariyasi ilk bor asoslab berilgan. XII – XIII asrlarda ijodiy va aqliy kuchlar rivojini namoyish etgan o‘n ikki maqom tizimi yuzaga keldi.

Uyg‘onish davrining yana bir belgisi xalq ruhini ifodalaydigan «Ming bir kecha», «Kalila va Dimna», «Qirq vazir», «To‘tinoma», «Sindbodnoma» kabi qiziqarli sarguzashtlarga to‘la, shavq-u zavq qo‘zg‘atadigan asarlarning ko‘paygani, ikkinchi tomondan, «Xamsa»larda bo‘lganiday, insoniy ideallarni mujassam etgan hikmat va falsafaga boy umumbashariy g‘oyalarning tasvirlanishidir.

Eron va Markaziy Osiyo xalqlari bir necha ming yillik sivilizatsiya tarixiga ega. Zotan, qadimiyati, qadimgi davlatchiligi bo‘lmagan xalqda Uyg‘onish davri ham bo‘lmaydi. Markaziy Osiyoda IX – XII asrlarda o‘z xalqining qadimiyatiga qaytish, «Avesto» falsafasini Qur’on ma’rifati bilan uyg‘unlashtirilib, qayta tiklashga intilish tasavvuf ta’limoti, «Ishroq» falsafasida namoyon bo‘lgan. Shu asosda turli nazariyalar, ta’limotlar yuzaga kelib, fikriy xilma-xillik rivojlandi. Tasavvufiy-orifona ta’limotning qaror topishi, tariqatlar ham, aslida, hurfikrlik va inson kamolotiga bo‘lgan ishonchning nishonasi edi. Uyg‘onish davri vakillari dinga emas, balki dinni sxolastika va jaholat manbaiga aylantirganlarga qarshi kurashganlar.

Tafakkurdagi aqliy (ratsionalizm) va vajdiy (irratsionalizm) yo‘nalish namoyandalari zohiran o‘zaro kelishmay kelgan bo‘lsalarda, amalda Yevropa Uyg‘onish davrida bo‘lganidek, inson ongini bedor etib, uni aqidaparastlik (taqlidchilik) g‘uboridan tozalashda hamkorlik qildilar. Shu bois hurfikrli mutafakkirlar orasida ratsionalist olimlar bilan birga, orif so‘fiylar ham bor edi.

Sharq Uyg‘onish davri vakillari o‘z xalqlarining qadimgi madaniyati bilan birga, yunon va hind xalqlari merosidan ham foydalanishgan. Yunon olimlarining asarlari VIII – IX asrlarda arab tiliga tarjima qilindi, sharhlandi. Aflotun, Arastuni Sharq faylasuflari ham ustoz deb hisoblashgan. Biroq yunonlar ham ko‘p fikrlarni qadimgi osiyoliklardan olganlar. Bu tarix qonuniyati: yuksalishga shaylangan xalq madaniyati o‘zigacha yaratilgan bashariy yutuqlarni o‘zlashtirib, yana yuksaklikka ko‘tariladi.

Sharq uyg‘onish davri keng ko‘lamli: ta’lim va tahlil, madrasa va maorif rivojlangan, ulkan kutubxonalarda yuz minglab jild kitoblar yig‘ilgan, «xazinat ul-hikmat», «dor ul-ulum»larda tolibi ilmlar ustoz-shogirdlar suhbati bardavom edi, olimlarning obro‘-e’tibori yuksak qadrlandi.

Yurt obodonchiligi, mamlakat ravnaqi, qudratining yuksalishi davomida tabiiy ravishda ma’naviy madaniyat, ilm-fan rivoji ham jadal sur’atlar bilan ko‘zga tashlanib bordiki, buning natijasida bu zamindan o‘z elini shon-sharafga burkagan, dunyoga dovrug‘ taratgan mashhur allomalar, ilm-fan yulduzlari yetishib chiqdilar.

9.2. Bag‘dod Ma’mun akademiyasida faoliyat yuritgan O‘rta Osiyolik mutafakkirlar

Mohir geodezist, ajoyib geograf, zabardast astronom **Abu Abdullo Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy** (783 – 850) tengsiz matematik olim sifatida ham Sharq, ham G‘arb olimlari o‘rtasida buyuk shuhrat qozondi. Uning matematik kashfiyotlari o‘zidan ilgari o‘tgan olimlarnikidan tubdan farq qiladi. «Algebra» so‘zi hammaga tanish. Bu fan necha asrlardan beri butun dunyo maktablarida o‘qitilib keladi. Uning yuzaga kelishi va fan sifatida shakllanishida ulug‘ vatandoshimizning xizmati nihoyatda katta.

Alloma Bag‘dodda yunon fanining yutuqlarini o‘rgandi, hind va eron manbalari, hatto bevosita Bobildan qolgan ayrim faktlar hamda Xitoy manbalari bilan ham tanishdi, ularni o‘zining muhim kashfiyotlari bilan boyitdi va fan tarixida abadiy iz qoldirgan fundamental asarlar yaratdi. Shuning uchun Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy o‘zigacha mavjud bo‘lgan sivilizatsiya merosini sintez qilib, boyitib jahonga yoygan fan dahosi hisoblanadi.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyga dastlabki buyuk shuhratni «Hisob al-Hind» («Hind hisobi») nomli risolasi olib keldi. Mazkur risolada jahon fani tarixida birinchi marta o‘nlik sistema va uning amaliy ahamiyati haqida so‘z boradi. Alloma tomonidan «0» (nol) ning kashf qilinishi insoniyat ilmiy tafakkurining beqiyos ulkan yutug‘idir. U tomonidan yozilgan kitobda eng muhim oltita arifmetik amallar – qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish, bo‘lish, darajaga ko‘tarish va kvadrat ildiz chiqarish kabilar ishlab chiqilgan va uning uslub va qonunlari kashf qilingan edi.

Shunday qilib, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning eng sermazmun davri xalifa al-Ma’mun davri bo‘lib, u xalifalikda birinchilar qatorida kundalik hayotda turli tabiiy-ilmiy va ijtimoiy fanlarning kerakligini va ilmsiz rivojlanish bo‘lmasligini tushunib yetgan edi. U ilm-ma’rifat inson hayotini osonlashtirishini, uning kundalik faoliyatida yordam berishini anglab yetgan olimlardandir. Vatandoshimiz olamni bilishga intilib, diniy va milliy yoki irqiy chegaralarni tan olmay, turli din va millatga mansub xalqlarning ilmiy yutuqlarini o‘zlashtirgan edi. U moddiy olam hodisalarini talqin qilishda, undagi qonuniyatlarni bayon etishda faqat ilmga va tajribaga tayangan. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy arifmetikaga doir risolasida aytadi: «Men hindlar 9 harfdan (ularni o‘zlari xohlaganlaricha joylashtirishlariga ko‘ra) istagan sonlarini tuzilishlarini ko‘rganimdan keyin, o‘rganayotganlariga osonlik uchun bu harflardan nima hosil bo‘lishini ko‘rsatishni azm qildim!».

Sonlarni hind raqamlari bilan o‘nlik pozitsion sistemasida yozilishini va «0» ga o‘xshash kichik doirachaning ishlatilishi haqida mufassal so‘zlaganidan so‘ng, mutafakkir katta sonlarni aytishni o‘rgatdi va bunda u faqat birlar, o‘nlar, yuzlar va minglarning nomlaridan foydalandi. Misol tariqasida alloma mana bu 1180073051492863 sonning o‘qilishini ko‘rsatadi, u bunday o‘qiladi: mingta ming ming ming ming ming besh marta va yuz ming ming ming ming ming to‘rt marta va sakson ming ming ming ming to‘rt marta va yetmish to‘qson ikki ming va sakkiz yuz oltmish uch. Sonlarning bunday noqulay o‘qilishi Sharqda ham, Yevropada ham uzoq muddatgacha saqlanib, o‘nlik pozitsion sistema uzil-kesil g‘alaba qilgandagina yo‘qoldi.

«Kitob muxtasar min hisob al-jabr val-muqobala» («Al-jabr val-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob»)ning fan tarixidagi muhim jihati, «al-jabr» so‘zining zamonaviy algebra fanining kelib chiqishi va shu so‘z bilan atalib qolishiga sabab bo‘lgani bilan belgilanadi. U maxsus raqamlangan boblardan tashkil topmagan, shunday bo‘lsa-da, u shartli ravishda kichik bir muqaddima va 27 bobdan iborat. Muqaddimani Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy o‘sha davr uchun an’anaviy bo‘lgan Alloh va payg‘ambarga hamd-u sano aytish bilan boshlaydi.

So‘ngra u xalifa al-Ma’munni eslaydi va u haqida shunday deydi: «Alloh imomi al-Ma’munga, unga meros bo‘lib o‘tgan xalifalik lavozimini in’om qilib, muruvvat etganligi, bu lavozim libosini kiydirib, uni bezaganligi va shu bilan birga unda fanlarga muhabbat va olimlarni o‘ziga yaqin tutishga intilish (hissiyotini) uyg‘otganligi menga jasorat ato qildi, (chunki, u) ularning ustiga o‘z homiylik qanotini yozib, ularga noaniq bo‘lgan narsalarni yoritishga va ular uchun mushkul bo‘lgan narsalarni osonlashtirishga yordamlashardi. Shuning uchun men arifmetikaning oddiy va murakkab masalalarini o‘z ichiga oluvchi «Al-jabr val-muqobala hisobi haqida qisqacha

kitob»ni ta'lif qildim, chunki meros taqsim qilishda, vasiyatnoma tuzishda, mol taqsimlashda va adliya ishlarida, savdoda va har qanday bitimlarda, shuningdek, yer o'lchashda, kanallar o'tkazishda, handasa va boshqa shunga o'xshash turlicha ishlarda kishilar uchun bu zarurdir».

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy algebra faniga asos solgani, bu fan atamasi uning «Kitob muxtasar min hisob al-jabr val-muqobala» («Al-jabr val-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob») asari nomidan kelib chiqqani yaxshi ma'lum. Lekin ba'zan Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy faqat o'zidan avval ma'lum bo'lgan chiziqli va kvadrat tenglamalar yechish usulini tizimga solgan, degan nuqtayi nazar uchraydi. Bu fikr asar shu mavzudan boshlanganligi tufayli paydo bo'lgan. Holbuki, mutafakkir kitobi, birinchi navbatda, algebraik hisobga bag'ishlangan. Bu shundan ham ko'rinadiki, kitob nomi ikki muhim algebraik amal-al-jabr va al-muqobala deb atalgan. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy algebraik amallarni, avval tenglamalarni yechishda qanday qo'llanilishini bayon etib, so'ng algebraik shakl almashtirishlariga o'tgan. Aks holda kitobning maqsadini tushunish qiyin bo'lar edi.

Umar Xayyom alloma kashf etgan algebra haqida bunday degan edi: «Algebra ilmiy uslubdir. Uning predmeti son yoki miqdor. Sonlar noma'lum bo'lib, qandaydir ma'lum miqdorlarga shunday munosabat qo'yildiki, natijada ular topilsinlar; algebra noma'lumlar bilan ma'lumlarni birlashtiruvchi munosabatni aniqlaydi».

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy ilmiy faoliyatida algebraning fan shaklida voyaga yetishiga asosiy sabablardan biri – olimning ma'lum qonun-qoidaga ega bo'lgan hisoblari uslubini mukammal egallaganligidadir. Turli xalqlar matematikasi elementlarini chuqur ilmiy asosda o'rganib, algebra fanini nazariya darajasiga ko'tardi. Uning «Algebra»sida nazariy fikrlar izohlanishi bilan darhol amaliy masalalarni yechishga o'rin beriladi. Masalan, risolaning chiziqli

tenglamalarga bag‘ishlangan bobida vasiyatnoma va meroslar masalasiga misollar keltiriladi. Shariat huquqida merosning qarindoshlik darajasiga qarab bo‘linishi xalq ichida ko‘pincha turli-tuman chigalliklarni yuzaga chiqarar edi.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy o‘zidan ilgari o‘tgan deyarli hamma matematiklarning kashfiyotlarini o‘rganar ekan, bu Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy matematikasi qadimgi matematik g‘oyalarning yig‘indisi degani emas. Vatandoshimizning matematik kashfiyotlari ulardan tubdan farq qilar edi. Chunonchi:

– aljabr operatsiyasi ilgari hech kimda uchramagan;

– irratsional sonlar haqidagi tushuncha tarixda birinchi berildi;

– matematika tarixida sxolastik munosabatlarga qarama-qarshi o‘laroq, nazariya bilan amaliyot birgalikda olib borildi;

– xitoylar va hindlar e’tibor bermagan grek mantiq usuli rivojlantirildi;

– hisoblash matematikasi rivojlantirildi;

– tenglamalar haqidagi tushunchalar alohida fan darajasiga ko‘tarildi – algebra fani kashf etildi;

– yangi geometrik kashfiyotlar yaratildi;

– geometrik munosabatlar bilan algebra munosabatlar orasidagi bog‘lanish kashf etildi;

– hozirgi zamon matematik mantiq va kibernetika fanlarining muhim qismi bo‘lgan algoritmlar nazariyasida asosiy rol o‘ynagan tushunchalardan biri – algoritm tushunchasi yaratildi;

– grek algebrasi matematikaga isbotlash usulini bergan ekan, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy qoidalashtirish g‘oyasini berdi.

Algoritmlar nazariyasining ham Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy nomi bilan bog‘langanligi, hatto «Algoritm» atamasi ham lotincha ifoda etilgan «Dixi Algoritmik» (dediki al-Xorazmiy) so‘zidan kelib chiqqanligini hech kim inkor etolmaydi. «Algoritm» tushuncha-

si hozirgi zamon kibernetikasi, EHM (elektron hisoblash mashinasi) va informatsion texnologiyasi hamda jarayonlarining asosiy kategoriyasiga aylandi.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy nomining sinonimi bo'lmish algoritm – matematikada dolzarb kategoriyadir. Hozirgi zamon hisoblash matematikasida tenglamalarning amaliy yechimini topishda, eng avvalo, uning algoritmini tuzish muhim ahamiyatga ega. Algoritmdan so'ng amaliyotga o'tiladi. Algoritm haqida fikr yuritilganda «Hisoblash jarayoni» degan terminni sodda va tor ma'noda tushunmaslik kerak. U faqatgina amallardangina iborat emas. Uning ko'lami keng va murakkabdir.

Elektron hisoblash mashinalari rivoji algoritm nazariyasini, nazariy kibernetikani maydonga keltirdi. Dastavval, aniq ishlaydigan EHM yaratildi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, hisoblash texnikasi turli xil yo'nalishda rivojlantirilmoqda. Ba'zi mashinalarda hisoblashning tezkorligi, boshqalarida «xotira»sining hajmiga, uchinchisida logik masalalarni yechishga, to'rtinchisida esa, inson mehnatini osonlashtirish tomonlariga e'tibor berilmoqda.

EHMning «xotira»si barcha xabarlarni qayta ishlab, uzatish jarayonini aql bovar qilmaydigan tezlikda bajarish xususiyati bilan inson ongini, aqliy mehnatini, ilm-fan sohasidagi ishlarning yo'nalishini tubdan o'zgartirib yubordi.

EHMda dastlab ishlay boshlagan mutaxassislar ancha qiyinchiliklarga duch keldilar. Dastur tuzish va qo'yilgan masalalarni ishlab, muassasalarga tarqatish uchun juda ko'p vaqt ketayotgani mutaxassislarni qiynar edi. Keyinchalik ularda mashinani o'ziga o'zi dastur tuzishga «majbur etish» kerak, degan fikr tug'ildi. Shu tariqa algoritmik «tillar», masala uchun algoritm yozish, algebraik algoritmlar uchun qulay, yengil «tillar» vujudga keldi. Demak, aytish mumkinki, algoritm nazariyasi hozirgi zamon kibernetikasining nazariy va logik asosi hisoblanadi.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy geografiya va geodeziya fanlariga oid muhim ilmiy izlanishlar ham olib borgan. U barcha astronomik kuzatishlarda faol qatnashadi va bir necha (Vizantiya, Shimoliy Hindiston va Volga quyi oqimidagi Xazoriyada bo'lgan) ilmiy safarlarga boshchilik qiladi. Jumladan, 827-yilda Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy rahbarligida Yer kurrasining kattaligini aniqlash maqsadida Yer meridianining bir gradusi o'lchab chiqiladi.

Buning uchun Mesopotamiyada shimoliy kenglikning 35^0 va 36^0 lari orasida chiziqli masofa bevosita o'lchov chizmasi bilan meridian yo'nalishida aniqlanib, burchak o'lchash esa yulduzlarning meridian balandliklarini kuzatish asosida bajarilgan edi. Meridian gradusi uzunligi 56–2/3 arab milyasiga, ya'ni o'rta hisobda 112 km ga teng qilib olingan. Bu natija juda aniq bo'lib, undan tashqari, o'lchash usulining o'zi ham katta ilmiy ahamiyatga ega edi. Shu tariqa Yer meridiani bir gradusining uzunligi alloma o'lchashlarida 111815 metrga teng. Hozirgi zamon o'lchashlari esa uning 110938 metrga teng ekanini ko'rsatadi.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning fan taraqqiyotida chuqur iz qoldirgan yana bir asari «Ziji Xorazmiy»dir. Bu asar o'rta asrlar fanidagi astronomiyaga oid dastlabki asar bo'lib, 37 bobdan iborat va 116 ta jadvalni o'z ichiga oladi. Unda turli taqvimlar, xronologiya, Quyosh, Oy, sayyoralarning harakati, burjlar va boshqalar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Xususan, Quyosh va Oy harakati tenglamalari va tutilish muddatlarini aniqlash qoidalari, sinuslar jadvallari, geografik nuqtalarni topish qoidalari beriladi. «Zij»ga birinchi marta tangens funksiyasi kiritilgan.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning «Ziji al-Xorazmiy», «Al-jabr val-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob», «Hind hisobi» asarlari XII asrdayoq Toledoda Batlin Adelyard, Kirmonlik Gerardo, ingliz Robert Chester, Sevilyalik Xuanlar tomonidan lotin tiliga tarjima etilgan. Bu tarjimalar mazkur asarlar yaratilganidan uch yuz yil

keyin Yevropada astronomiya, matematika, jug'rofiya, meditsina fanlarining tarqalishiga olib keldi va ularning poydevoriga asos bo'ldi. Bu tarjimalar keng tarqalgan bo'lib, hozir ularning qo'lyozmalari shunchalik ko'p uchraydiki, bu holat o'sha asrlardan darslik sifatida foydalanganligidan dalolat beradi.

O'nlik pozitsion hisoblash tizimi va hind raqamlarining Yevropada tarqalishida Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy asarlarining lotincha tarjimalari katta ahamiyat kasb etdi, rim sifrlari o'rniga qulaygina raqamlarni qo'llashga o'tishni osonlashtirdi. Sivilyalik Xuanning «Algorizmiyning arifmetika amali haqida kitobi» (XII asr), ispaniyalik Savasordaning «O'lchashlar haqida kitob»i, Iordan Nemorariyning «Algorizmni tushuntirish», fransuz matematigi Aleksandr de Vildening «Algorizm haqida she'r» she'riy risolasi, ingliz Jon Galifaksning «Oddiy algorizm» asarlari shular jumlasidandir. Ular vatandoshimizning ishlab chiqqan raqamlar tizimining Yevropada keng tarqalishini ta'minladi.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning «Zij»i yevropaliklar uchun mutloq yangilik bo'ldi. Mutafakkir «Zij»iga sharhlar yozildi, undan butun qismlari ko'chirilgani aniqlandi. Yevropada ilmi nujumdan qator risolalar ham yozilgan. Buyuk vatandoshimizning «Zij»i Yevropada yagona asar bo'lib, astronomiyadan qo'llanma sifatida foydalanilgan. Yevropada zijlar tuzishdagi yagona namuna va Uyg'onish davrida keng rivoj etgan astronomiya fanining poydevorini yaratdi.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy asarlari faqat aniq fanlar rivojini belgilab beribgina qolmay, o'rta asr tabobatiga ham barakali ta'sir etgan. O'rta asrlarda astrologiya (insonlar taqdirini yulduzlar harakati orqali aniqlash) Sharqda keng rivojlangan va alloma ham bu haqda risola yaratgan. Asrlar o'tishi bilan osmon jismlarining harakati odamlar sog'lig'iga ta'sir etishi aniqlandi. Buning natijasida astrologiya muhim «fan»ga aylandi. Lekin yulduzlar holati va harakatini aniqlash

hammaning ham qo'lidan kelmagan. Buning uchun ham astronomiya, ham matematikani yaxshi bilish kerak edi. Shuning uchun hatto XVIII asrgacha shifokorlar matematik bo'lishi kerak edi. O'rta asrlarda Yevropa universitetlarida matematikani tibbiyot fakultetlarida o'qitilgan. Astrologiya inson sog'lig'iga tabiat hodisalari bilan bog'liqligi, har bir insonning tabiatiga qarab muolaja qilish zarurligi tushunchasini tibbiyotga olib kiradi. Shunday qilib, astrologiya orqali matematika tibbiyot bilan bog'landi.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning «Kitob amal bil-asturlobot» («Astrolyabiyalar bilan amallar haqida kitob») asarida qadimgi va o'rta asr astronomiyasining asosiy kuzatuv asbobi bo'lgan astrolyabiya yasash va undan foydalanish, osmon yoritqichlarining balandligi, burjlarga kirish vaqti, bir kunlik harakati va ekliptik koordinatalari, yangi oy chiqish muddatlarini aniqlash hamda boshqa aniq va lo'nda qoidalar tarzida bayon qilingan.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning fan tarixidagi xizmati uning ayrim ilm sohalariga qo'shgan xizmatlari bilangina chegaralanmaydi. U o'z zamonasi madaniyatining yirik arbobi, mutafakkir sifatida, umuman, fanning jamiyatda tutgan o'rni, ahamiyati, qimmati ustida qator ilg'or fikrlarni ilgari surgan. Bu jihatdan algebraga oid risolaning muqaddima qismida olg'a surgan fikrlari muhim ahamiyat kasb etadi. Allomaning ta'kidlashicha: fan, ilmiy-tadqiqotlar o'zining tarixiga ega va vorislik asosida rivojlanadi. Ilmiy yutuqlar avloddan-avlodga o'tib boradi, fan bilimlarning to'planib, ko'payib borishi hisobiga taraqqiy etadi. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy inson hayotida, jamiyat tarixida, ilm-fanning roliga katta ahamiyat bergan holda ilm haqiqatni bilish, ochish bilan shug'ullanadi, deb ta'kidlaydi. Ilm bilan mashg'ul bo'lish olimlarning faoliyatini yuqori baholash, ularga shart-sharoitlar tug'dirib berishni insonning eng yaxshi fazilatlaridan biri deb biladi, xalifa al-Ma'munning «Bayt ul-hikma»da ilmiy-tadqiqotlarni rivojlanti-

rish, olimlarni to‘plash ularning ilmiy ishlarini uyushtirish sohasidagi xizmatlarga yuqori baho beradi.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy fikricha, fan tabiatni bilish, tabiiy hodisalarni o‘rganish bilan shug‘illanmog‘i lozim. Mutafakkir olimlarni ular faoliyatining xarakteriga qarab 3 guruhga bo‘ladi: birinchi guruh – bevosita tabiatni o‘rganib, ilmiy haqiqatni aniqlovchi olimlar; ular fanga yangiliklar olib kiradilar. Ikkinchi guruh olimlar – ilmiy yutuqlarni tashviq qiladilar, oldingi yutuqlarni rivojlantiradilar, boyitadilar, tuzatadilar. Uchinchilari esa o‘zlaridan oldin o‘tgan olimlarning kamchiligi, xatolarini tuzatib, ilmiy an’analarni davom ettiradilar.

Yer yuzidagi har bir maktab o‘quvchisi «algebra» der ekan, elektron avtomat hisoblash mashinasida ishlovchi muhandis «algoritm» der ekan, har doim Muhammad Muso al-Xorazmiyning muborak siymosi ular ko‘z oldida gavdalanaveradi.

Ahmad al-Farg‘oniy (798 – 865)ning nomi jahon ilmiy jamiyatiga yaxshi tanish. U Bag‘doddagi al-Ma’munning «Bayt ul-hikma» akademiyasining yorqin yulduzi sifatida tanilgan olim. U butun insoniyat uchun boylik sifatida buyuk ilmiy meros qoldirdi. Bunday allomani dunyoga al-Xorazmiy, al-Beruniy, Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy va Mirzo Ulug‘bek kabi dunyo ilmi xazinasini o‘z meroslari bilan boyitgan buyuk siymolarni tarbiyalagan O‘zbekiston zamini berdi.

Ahmad al-Farg‘oniyning hayoti va ilmiy faoliyati arab xalifaligining eng gullagan davriga to‘g‘ri keladi. VIII asrning o‘rtalarida xalifalik abbosiylar sulolasi qo‘liga o‘tganda arab imperiyasi Sharqda – Markaziy Osiyogacha, G‘arbda esa – Ispaniyagacha kengaygan edi. Markazlashgan bu mamlakatda qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilik rivojlana bordi. Savdo-sotiq, dengiz yo‘li orqali boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqa shakllana borib, irrigatsiya va gidrotexnik inshootlar, yangi shaharlar qurish avj oldirildi.

Ekish va yig‘im-terim muddatlarini belgilaydigan kalendarlar, geografik xaritalar, aholi yashaydigan joylar orasidagi masofalarni topish, sug‘orish ishlarida suv sarfini hisoblash kabi amaliy bilimlarga ehtiyojning kun sayin ortib borishi, astronomiya, geodeziya va matematika fanlarining rivojlanishiga katta talablar qo‘ya boshladi. Shuningdek, astronomik bilimlarning rivojlanishida islom dinining roli ham kichik bo‘lmadi. Diniy tadbirlar, xususan, namoz vaqtlarini aniq belgilash, diniy marosimlar (ro‘za, hayit) muddatlarini aniqlash, buyuk imperiyaning turli nuqtalaridan turib qibla yo‘nalishini belgilash kabi ishlar ham astronomiyaning rivojlanishiga katta turtki bo‘ldi.

Ahmad al-Farg‘oniy o‘zining astronomiyaga oid asosiy asari «*Kitob al-harakat as-samoviya va javomi' ilm an-nujum*»da o‘sha davrdagi astronomiya fani oldiga qo‘yilgan muhim talablarni qamrab olgan. Chunonchi, kosmik fazo haqidagi tasavvurda osmon tushunchasi yotgan va uni sfera (hamma nuqtalari bir markazdan baravar uzoqlikda joylashgan sirt) shaklida va Yer shari ana shu sferaning markazida deb bilganlar (geotsentrik nazariya). Tabiiyki, kosmik fazo – osmon sferasi deganda, undan o‘rin olgan jismlar – yoritqichlar ham e’tiborga olingan; birinchi navbatda Quyosh va Oy, so‘ngra boshqa sayyoralar va yulduzlar. Astronomik kuzatuvlar asosida osmon yoritqichlari haqida ma’lumot to‘plangan, ilmiy tahlil qilingan, so‘ngra ma’lumotlar maxsus daftarlarda qayd etib borilgan va ularning mukammal shakldagisini «zij» deb ataganlar (bu haqda yana to‘xtalib o‘tamiz).

Astronomik kuzatuvlar asosida amaliyot uchun zarur xulosalar ham qilingan. Jumladan, yil hisobini olib borish, bahorgi va kuzgi tengkunliklarni belgilash va shu asosda solnoma (kalendar)lar yaratish; o‘n ikki burj tushunchasi; okean suvining qalqishi va qaytishining Oy holati bilan bog‘liqligi, osmon yoritqichlari holatining inson mijoziga ta’siri (astrologiya) va boshqalar.

Astronomik tadqiqotlar yordamida Yer haqida ham ancha ma'lumot olingan (Yerning shakli, kattaligi, kosmik fazodagi o'rni, eng katta og'ish burchagi – osmon ekvatorining ekliptika bilan kesishish burchagini aniqlash, iqlimlar chegaralarini belgilash, Yerdan boshqa sayyoralar va yulduzlargacha bo'lgan masofa), astronomik kuzatishlar va o'lchovlar yordamida shaharlarning geografik kengligi va uzunliklarini aniqlash. Bag'dod xalifaligi islom davlati bo'lganligi sababli, musulmonlar uchun muqaddas shahar hisoblanmish Makkaning geografik o'rnini aniq belgilash va xalifalikning turli shaharlaridan turib Qiblani, aniqrog'i, uning shu shahardagi azimutini to'g'ri topish masalalari juda muhim edi.

Ushbu misollardan va Ahmad al-Farg'oniyning astronomiyaga oid asarining mazmunidan xulosa qiladigan bo'lsak, Bag'dod xalifaligida astronomiya sohasidagi bilimlarga katta e'tibor berilganligi, borliq haqida, osmon yoritqichlarining holati, Yerdan boshqa sayyoralargacha bo'lgan masofalar haqida fikr yuritilganligi, Yerning koinotdagi boshqa yoritqichlar bilan uzviyligi, yoritqichlar harakati va ulardagi qonuniyatlarni aniqlash kabi chuqur ilmiy masalalarga e'tibor berilganligi ma'lum bo'ladi. Bu masalalarning aksari hozirgi ilmiy kuzatuvlarda ham o'z mavqeini yo'qotmagan.

Ahmad al-Farg'oniy yuqorida zikr etilgan asarida «Yerning kattaligi va yetti iqlim haqida» sarlavha ostida bu masalaga oid maxsus bir bob ajratgan. Bu haqda Abu Rayhon Beruniyning «Qonuni Mas'udiy» asarida ham batafsil yozilgan. Unda qayd etilishicha, xalifa al-Ma'mun yunon olimlari asarlarida bir gradus 500 stadiy (1 stadiy – 184,47 m)ga teng, degan ma'lumotni o'qiydi. Ularning kitoblari tarjimalaridan bu o'lcham haqida aniq bir ma'lumot ololmagach, yer meridianining bir gradusini aniqlash maqsadida, ilmiy ekspeditsiya tashkil qilish va uni astronomlar, yer o'lchovi (geodezistlar va xizmatkorlar) bilan ta'minlab, o'lchov asboblarini muhayyo qilish va o'lchash uchun joy tanlash haqida buyruq beradi.

Bu ishlar uchun Mosul viloyatining Sinjor shahri yaqinidagi dashtni ma'qul deb topadilar. Bu joy poytaxt Bag'doddan 12 farsax, Somarrodan 43 farsax uzoqlikda, 35–36 gradus oralig'ida edi. O'lchov natijasida Yer aylanasining bir gradusini 56 milyaga teng, deb topadilar. Bu raqamni kilometrda ifodalaganda yerning meridian bo'ylab kattaligi 40252 kilometrni tashkil etgan bo'ladi; hozirgi o'lchovda yaxlit hisobda 40000 km. Agar o'sha paytdagi o'lchov asboblarining nisbatan soddaligi hisobga olinsa, oradagi farq unchalik katta xato emasligi ko'rinadi.

Ahmad al-Farg'oniy nafaqat Yerning kattaligi, balki boshqa yoritqichlarning kattaligi haqida ham fikr yuritib, «Yoritqichlarning yarmi ko'zga juda kichik o'zgarmas yulduzlarga o'xshab ko'rinsa-da, lekin aslida ular o'lcham jihatdan Yerdan katta. Eng kichik yulduzlar esa osmonda bamisoli nuqtalardek ko'rinadi; Yerning jismi ana shu mitti yulduzlardan ham kichikdir»[1], deb yozadi. Quyosh sistemasidagi sayyoralarning o'lchami haqida mulohaza qilganda, Ahmad al-Farg'oniy yunon olimi Klavdiy Ptolemeyning bu boradagi ma'lumotlarini anchagina to'ldirganining shohidi bo'lamiz. U, jumladan, shunday yozadi: «Ptolemey Quyosh va Oyning o'lchami haqida so'z yuritish bilangina cheklanib qoldi va boshqa yoritqichlar to'g'risida eslatgani yo'q, buni aniqlash juda oson va xuddi Quyosh va Oy o'lchamini aniqlashga o'xshashdek».

So'zsiz, olamdagi (Quyosh sistemasida) eng katta jism – bu Quyoshdir; ikkinchi o'rinda – o'n beshta eng katta harakatsiz yulduzlar; uchinchi – Mushtariy (Yupiter); to'rtinchi – Zuhal (Saturn); beshinchi qolgan harakatsiz yulduzlar, darajasiga qarab; oltinchi – Mirrix (Mars); yettinchi – Yer; sakkizinchi – Zuhro (Venera); to'qqizinchi – Oy, o'ninchi – Utorud (Merkuriy)». Yerning kattaligini aniqlash juda muhim masalalardan sanalgan. Bunda Yerning o'lchami haqida tasavvur hosil qilish bilan bir qatorda, geografik xaritalar tuzish,

1 Ahmad al-Farg'oniy. Astronomiya ilmi asoslari. – T.: «Sharq», 1998, 76-bet.

mamlakatlar va shaharlarning uzoq-yaqinligini belgilash, ayniqsa, xalqaro savdo aloqalarini rivojlantirishda juda zarur bo‘lgan.

Asturlob (asturlabiya) – bu yunoncha so‘z, ularning talaffuzida «astrolabon», ma’nosi yulduzlarning oynasi demakdir. Bu asbob yordamida vaqtni oson va to‘g‘ri aniqlaydilar, kun va tunning qancha qismi qolganini biladilar va boshqa yana ko‘pgina masalalarni hal qiladilar». U asturlabiyaning geometriyadagi xizmatini amaliyot bilan bog‘liq bir qancha misollarda (daryoning kengligini va yer yuzida masofalarni aniqlash, quduqlarning chuqurligini, minoralar va devorlar balandligini bilish) sharhlab bergan.

Ma’lum bo‘ladiki, asturlabiya nafaqat astronomiyada, balki geometriya va geodeziya sohalarida ham qo‘llanilgan. Uni Abu Rayhon Beruniy «Geodeziya» asarida tavsiflagani ham bejiz emas. O‘lchov ishlarida gnomondan ham foydalanganlar. Gnomon qadimgi yunon fanida ham ma’lum edi. Bu odatda tekis maydonga o‘rnatilgan tik ustunchadan iborat bo‘lib, undan tushgan soyaning uzunligi va yo‘nalishiga qarab Quyoshning ufqdan balandligini va azimutini aniqlash mumkin. Yunonlar gnomon vositasida joyning geografik kengligini topganlar (masalan, Eratosfen, Gipparx, Ptolemey).

Ahmad al-Farg‘oniyning hayoti, ilmiy hamda amaliy faoliyati to‘g‘risidagi eng so‘nggi ma’lumot milodiy 861-yilga mansub. Tarixdan ma’lum bo‘lishicha, xalifa Abul Fizl Ja’far al-Mutavakkil farmoni bilan keksayib qolgan Ahmad al-Farg‘oniy 861-yilda qadimgi Qohira – Fustat shahriga yuboriladi. Bu yerda olim Nil daryosi deltasining yuqori qismida Ravza orolida daryoning Sayyolat ul-Rod tarmog‘i bo‘yicha bino qilinayotgan suv inshooti qurilishida qatnashadi va daryo oqimining mavsumiy darajotini o‘rganadi hamda inshootning suv sathi o‘lchagichini takomillashtirishda ishtirok etadi. Nil daryosi bo‘yicha qurilgan bu qadimgi gidrotexnika inshooti yozma manbalarda Miqyos an-Nil, Yevropa adabiyotida Nilomer nomlari bilan shuhrat topadi.

Asrlar davomida daryo oqindi jinslarning yotqiziqlari tufayli Nil o'zanining asta-sekinlik bilan ma'lum darajada ko'tarilishi Miqyos an-Nil darajoti ko'rsatkichlarining noto'g'ri ishlashiga va nilomerlarning ishdan chiqishiga olib kelgan. Natijada ular qayta qurilgan yoki takomillashtirilgan. Shularni hisobga olganda, qadimgi Fustat shahri yaqinida 861-yilda bino qilingan Miqyos an-Nilni qayta qurishda va uning o'lchov uskunasi darajotini aniq matematik hisoblar asosida yangitdan belgilab chiqishda IX asrning buyuk allomasi, vatandoshimiz Ahmad al-Farg'oniyning hissasi beqiyosdir.

Xalifa al-Mutavakkil Misr aholisi zich joylashgan va serhosil bu voha vayronaga aylanganidan keyin qayta tiklash uchun nilomerni ta'mirlashni maqsad qilgan. Bunga dalil Ahmad al-Farg'oniyning ushbu so'zlarini qayd etish mumkin: «Biz amirul-mo'minindan olgan xabarda, unga (nilomerga) Qur'ondan mos oyatlarni va uni ishlatish bo'yicha maslahatlarni va amirul mulkning ismini bitish buyurilgan edi». Ahmad al-Farg'oniyning ta'kidlashicha: «Men Qur'ondan mazkur ko'rinishga mos suralarni topib, ularni nilomer devorlarining mumkin bo'lgan joylariga bitdim». Natijada u 17 tirsak balandlikda nilomer qudug'ining 4 tarafiga Qur'ondan unga tegishli oyatlarni bitadi. Masalan, g'arbiy tomonida «Haj» surasining 63-oyati bitilgan: «Alloh osmondan suv-yomg'ir yog'dirib (butun) yer ko'm-ko'k bo'lishini ko'rmadingmi?! Darhaqiqat, Alloh mehribon va ogoh».

Ahmad al-Farg'oniy asarlarining turli mamlakatlar kutubxonalaridan keng o'rin olganligi, ularning qanchalik keng tarqalganligini ko'rsatadi. Uning ilmiy merosiga oid tadqiqotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, uni jahon ilmiy jamoatchiligi muntazam o'rganib kelayotgani haqida xulosa chiqarish mumkin.

Ahmad al-Farg'oniyning ilmiy merosi, aniqrog'i uning qalamiga mansub hozirda ma'lum yettita asari qayd etilgan. Ularning ko'lyozmalari hozirgi vaqtda Misr, Iroq, Tunis, Marokash, Turkiya, Hindiston, Eron, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Nider-

landiya, Irlandiya, Rossiya kabi jahonning turli davlatlari kutubxonalaridan o‘rin olgan. Ahmad al-Farg‘oniyning yuqorida eslatilgan yettita asarining nomlari quyidagicha:

1. «Kitob fiy harakat as-samoviya va javomi’ ilm an-nujum» («Samoviy harakatlar va umumiy astronomiya kitobi»); asar fanda aksari ana shu nom bilan mashhurdir. Uning qo‘lyozmalari ham ko‘p. Bu asar Sharq yozma manbalarida yana bir qancha nomlar bilan qayd etilgan:

«Kitob fiy usul ilm an-nujum» («Astronomiya asoslari kitobi»); «Kitob al-hay’a al-fusul as-salosin» («O‘ttiz bobdan iborat astronomiya kitobi»); «Al-Fusul madxal fiy Majistiy va huva saloso‘na faslan» («Ptolemeyning «Al-magest» asariga muqaddima tarzida yozilgan o‘ttiz bob»); Ilal al-aflok» («Falaklar haqida kitob»); «Tarkib al-aflok» («Falaklarning tuzilishi»); «Al-Majistiy» («Al-magest») – Klavdiy Ptolemeyning astronomiyaga oid mashhur asari haqida; bu asar yana «Ilm al-hay’a» («Astronomiya») deb ham atalgan.

2. «Kitob al-komil fiy san’a al-asturlob» («Asturlob yasash haqida kitob»); bu asar shuningdek, «Kitob al-komil al-Farg‘oniy» («Al-Farg‘oniyning mukammal kitobi») nomi bilan ham ma’lumdir. Qo‘lyozmalari Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya va Eron kitob xazinalarida saqlanmoqda.

3. «Kitob amal bil asturlob» («Astrolyabiya bilan ishlash kitobi») qo‘lyozmasi Hindistonning Rampur shahri kutubxonasida.

4. «Jadval al-Farg‘oniy» («Al Farg‘oniy jadvallari») qo‘lyozmasi Hindistonning Patna shahri kutubxonasida.

5. «Risola fiy ma’rifa al-avqot allatiy yakun al-qamarfiyho favn, al-arz av taht» («Oyning Yer ostida va ustida bo‘lish vaqtlarini aniqlash haqida risola») qo‘lyozmasi Misrning Qohira shahri kutubxonasida.

6. «Hisob al-aqolim as-sab’a»(«Yetti iqlimni hisoblash») qo‘lyozmasi Misrning Qohira shahri kutubxonasida.

7. «Kitob amal ar-ruxomot» («Quyosh soatini yasash kitobi») qo'lyozmalari Halab (Suriya) va Kopira (Misr) kitob xazinalarida saqlanmoqda.

Ahmad al-Farg'oniyning asosiy astronomik asari «Astronomiya asoslari haqidagi kitob» nomi bilan mashhur bo'lib, XII asrda ikki marta lotin tiliga va bir marta yahudiy tiliga tarjima qilingan. Birinchi lotincha tarjimani 1145-yili seviliyalik Ionn va ikkinchisini 1175-yili kremonalik Gerardo bajargan. Shundan so'ng Ahmad al-Farg'oniy nomi lotinlashtirilib, Alfraganus shaklida Yevropada shuhrat topdi.

Allomaning asaridan bir necha asrlar davomida Yevropa universitetlarida astronomiya fani bo'yicha asosiy darslik sifatida foydalanilgan, chunki bu kitob zamonasidagi astronomiya haqidagi eng muhim va zarur bo'lgan bilimlarni o'z ichiga olgan. Asarning geografiyaga oid bo'limi Yer yuzidagi mamlakatlar va shaharlar haqidagi eng boshlang'ich va zaruriy bilimlarga bag'ishlangan bo'lib, «Yerdagi ma'lum mamlakatlar va shaharlarning nomlari va har bir iqlimidagi hodisalar haqida» deb ataladi.

Asarda falakiyot va geografik ilmlarning asosiy mazmuni, vazifalari va qismlari tushunarli dalillar asosida sodda qilib bayon etilgan. Xususan, Yerning dumaloqligi, bir xil osmon yoritkichlarining turli vaqtda ko'tarilishi, tutilishi va bu tutilishning har bir joydan turlicha ko'rinishi, masofalar o'zgarishi bilan ularning ko'rinishi, o'zgarishi haqidagi qimmatli mulohazalar bildiriladi. Bu asar o'rta asr Yevropa mamlakatlaridagi astronomiya ilmining rivojini boshlab berdi.

Ahmad al-Farg'oniyning ilmiy merosidan va o'rta asrlar mualliflari yozib qoldirgan lavhalar asosida xulosa qiladigan bo'lsak, uning Bag'dod xalifaligida olib borilgan ilmiy-tadqiqotlarda faol ishtirok etganligi hamda tabiiy fanlardan astronomiya, geografiya, geodeziya, gidrologiya kabi sohalarning rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shganligi ma'lum bo'ladi.

Ahmad al-Farg‘oniy tabiiy fanlar, aniqrog‘i astronomiya va geografiya sohalarida salmoqli ilmiy meros yozib qoldirgan va olim yashagan davridagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liqdir. IX asrda Bag‘dod xalifaligida umumiy siyosiy fan va madaniyat ravnaqiga asos bo‘ldi; hukmdorlarning fanga alohida e’tibor berganlari, ba’zida esa, ilmiy tadqiqotlarda bevosita qatnashganlari (masalan, xalifa al-Ma’mun) xalifalikning ilmiy salohiyatini oshirdi. O‘sha davrda olib borilgan ilmiy ishlar natijalari olimlar tomonidan yaratilgan asarlarda o‘z aksini topgan va ular keyingi asrlarda Sharq va G‘arbda ilm-fan taraqqiyoti uchun muhim omil va jamiyat tarixida uning davomiyligini ta’minlovchi vosita bo‘lib xizmat qildi.

Abu Nasr Forobiy (873 – 950) – O‘rta asr fan va madaniyatiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk olim, ilm-ma’rifatning ko‘p sohalarini egallagan va o‘zidan salmoqli meros qoldirgan. Alloma riyoziyot va falakiyot, tabobat va musiqa, mantiq va falsafa, tilshunoslik va adabiyot sohalarida qalam tebratgan, bu sohalarning har birida ajoyib asarlar yaratgan.

Abu Nasr Forobiy Sirdaryo bo‘yidagi Forob shahriga yaqin Vosinch qishlog‘ida harbiy xizmatchi oilasida dunyoga kelgan. Boshlang‘ich maktabni o‘z qishlog‘ida tugatgan. Abu Nasr Buxoro va Samarqand madrasalarida bilim oladi. Otasi bilan Isfahon, Hamadon va Ray shaharlariga safar qiladi. So‘ng Forobiylar oilasi o‘sha paytlarda Kichik Osiyo, Xuroson va Movarounnahr asosiy ilmiy markaz bo‘lmish Bag‘dod shahriga ko‘chib boradi va bo‘lajak olim ilm o‘rganish bilan jiddiy shug‘ullana boshlaydi. Yosh yigit Abu Nasr ham ilm o‘rganar va muallimlik qilar ekan. Chunonchi, mashhur olim Abu Sirojiddindan astronomiya va matematikani o‘rganadi, o‘zi esa unga mantiq ilmidan dars bergan.

Bag‘dod madrasalarining birida arabshunos olimlarning yig‘ilishida raislik qiluvchi yosh bir yigitchaga so‘z beradi. U arab tili

shevasining tovush xususiyatlari mavzusida ma'ruza qiladi. Ma'ruza anjuman qatnashchilari o'rtasida jiddiy bahsga sabab bo'ladi. Ma'ruzachiga berilgan ilmiy-nazariy jihatdan murakkab savollarga to'liq va aniq javob olganlaridan keyin barcha mashhur tilshunos olimlar bu yigitchani arab tili donishmandi, deb tan oladilar. Bu tolibi ilm qomusiy bilim sohibi, mashhur faylasuf, shoir, adabiyotshunos va musiqashunos Abu Nasr Forobiy edi.

Manbalarning guvohlik berishicha, Abu Nasr Forobiy dastlab qozilik qilgan. Lekin keyinchalik haqiqatni izlab topish maqsadida davlat ishlari va qisman mudarrislik bilan mashg'ul bo'ladi. Bir kuni yaqin kishilaridan Abu Nasr Forobiyga bir qancha kitoblarni omonatga topshirib ketadi. Bu kitoblarning ichida Aristotelning asarlari ham bor edi. Alloma bo'sh vaqtlarida ana shu asarlarni bir chekkadan o'qishga kirishadi. Bu tasodif Abu Nasr Forobiyning taqdirida muhim o'rin tutadi va u buyuk olimlik maqomiga yetishadi. Natijada Abu Nasr Forobiyda Aristotelning g'oyalarini yengillik bilan tushunib, uning o'z oldiga qo'ygan vazifalari va o'ylantirgan muammolari ko'lamini his etish ko'nikmalari paydo bo'ldi. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, mutafakkir Aristotelning «Jon haqida» deb nomlangan asariga o'z qo'li bilan: «Men bu asarni 200 marta o'qidim», – deb yozib qo'ygan ekan. «Tabiiy uyg'unlik» asarini 40 marta, «Ritorika» asarini 200 marta o'qib chiqqan.

Bir kuni Abu Nasr Forobiydan so'rashibdi:

– Kimning bilimi kuchliroq: senikimi yo Aristotelnikimi?

Abu Nasr Forobiy shunday javob qaytaradi:

– Men o'sha zamonda yashab, u bilan uchrashganimda va uning qo'lida tahsil olganimda edi, uning eng yaxshi shogirdlari safidan joy olgan bo'lardim.

Abu Nasr Forobiy yirik ma'rifatparvar edi. U umr bo'yi ilm axtardi, bilim o'rgandi. Allomaning o'z iborasi bilan aytganda, «bo'shab qolgan diyorlar, odamlar so'zlaridan meva terib yurdi». Abu Nasr Fo-

robiy bilim axtarishda hormas-tolmas kishilardan edi. U o‘sha paytda Shomning shimolida joylashgan Xarron degan shaharda Yuhonno ibn Xiylon degan mantiq ilmiga usta xristian olimi bor deb eshitadi. Bu olim Aristoteldan qolgan falsafiy sistemani o‘z davrining eng yirik olimlaridan o‘rgangan ekan. Abu Nasr Forobiy o‘sha davrdagi musulmon farzandi faqat musulmondan ta’lim olishi kerak, degan aqidani tark etib, g‘ayridindan ham ilm o‘rganishdan toymadi. Keyin u Shom, Misr o‘lkalariga yuzlandi, bu yerlarda u faylasuf sifatida juda katta obro‘ qozondi, mudarrislik qilib shogirdlar orttirdi. Tarixchilarning yozishicha, Abu Nasr Forobiy doimo o‘z shogirdlari davrasida bo‘lar va ularning yig‘inlarida qatnashib turar ekan. Shuningdek, uning oldiga navbatma-navbat ilm ahli ham kelib turar ekan. Damashqning o‘zida mutafakkirdan ta’lim oluvchilar soni o‘n mingga yetgan.

Abu Nasr Forobiy o‘rta asrda mukammal hisoblangan ilmlar tasnifini yaratdi. Olim «Ilmlarning kelib chiqishi haqida», «Ilmlarning tasnifi haqida» nomli risolalarida o‘sha davrda ma’lum bo‘lgan 30 ga yaqin ilm sohasining tavsifi va tafsilotini bayon qilib berdi. Mutafakkir tabiat va inson organizmiga xos bo‘lgan tabiiy jarayonlarni o‘rganuvchi ilm sohalarini birinchi o‘ringa qo‘ydi. Alloma ilmlarni quyidagicha tasniflaydi: 1) til haqidagi ilm (grammatika, orfografiya, she’riyat, to‘g‘ri yozuv va boshqani o‘z ichiga oladi), 2) mantiq (8 bo‘limdan iborat bo‘lib, tushuncha, muhokama, xulosa, sillogistika, dialektika, sofistika va boshqalarni o‘z ichiga oladi), 3) matematika (arifmetika, geometriya, astronomiya, mexanika, optika, sayyoralar, musiqa va og‘irlik haqidagi ilmlardan iborat), 4) tabiiy ilmlar, ilohiy ilmlar yoki metafizika, 5) shahar haqidagi ilm (siyosiy ilm, fiqh, pedagogika, axloqshunoslik va kalom kiradi).

«Ilmlar tasnifi haqida» risolasining kirish qismida Abu Nasr Forobiy o‘zining ilmlarning tasnifi bo‘yicha ishidan maqsadi haqiqatni o‘rganish va tasdiqlashdan, uni yolg‘on sifatlardan farqlashdan iborat, deydi. Shu munosabat bilan u bilishning qiyinchiliklarini bayon

etadi, olimning yuksak mas'uliyatini ta'kidlaydi hamda ilmiy bilish dogmatik munosabatda bo'luvchi, shuningdek, aslida ilmning mohiyatini tushunmasdan turib, hamma narsani bilishni da'vo qiladigan kishilarni tanqid qiladi.

Abu Nasr Forobiy musiqani ham inson tarbiyasiga ta'sir qiluvchi omillardan biri deb bildi, u musiqani insonga nafosat, estetik zavq bag'ishlovchi, his-tuyg'ularni va axloqni tarbiyalovchi muhim vosita, deb hisoblaydi. Mutafakkir «Musiqaga doir katta kitob» nomli ko'p jildli asarida musiqa tuzilishi, tovushlar, ritmlar, ohanglar haqida ma'lumot beradi. U ilmi iyqo, ilmi ta'lif fanlariga asos soldi. Yuqoridagi asarida o'tmishdagi musiqashunos va tadqiqotchilar musiqa taraqqiyotiga katta hissa qo'shganligini alohida qayd qiladi. Shuningdek, kuylar uyg'unligi, kuy ijro etish usullari haqida so'z yuritadi. Abu Nasr Forobiyning aytishicha, musiqiy tasavvurlar inson ruhining eng nozik joyidan qaynab chiqib, ohang holida sezgi quvvatlariga ta'sir qiladi.

O'rta asrlar sharoitida Abu Nasr Forobiy insoniyat tarixida jamiyatning kelib chiqishi, uning mohiyat va maqsad-vazifalari haqida izchil ta'limot yaratdi, davlatni boshqarish to'g'risida ilmiy qarashlar tizimini ishlab chiqdi. U o'z davridagi inson jamoalari va jamiyatning paydo bo'lishi hamda rivojlanishi haqidagi qotib qolgan, bir yoqlama qarashlarni rad etib, jamiyat paydo bo'lishining tabiiy-ijtimoiy sabablarini ochib berdi. «Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kirita olmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi», deb yozadi mutafakkir o'zining «Fozil shahar ahllarining fikrlari» risolasida.

Abu Nasr Forobiy o'z asarlarida bilish shakllari, insonning ruhiy holati, jon va tananing o'zaro munosabati, mantiqiy fikrlash to'g'risidagi mulohazalarini bildiradi. Uning aytishicha, inson-

ning bilish, ruhiy qobiliyatlarini miya boshqaradi, yurak esa barcha a'zolarni hayot uchun zarur bo'lgan qon bilan ta'minlovchi markaz vazifasini bajaradi. Inson voqelikning idrok, sezgi, xotira, tasavvur, mantiqiy tafakkur, aql, nutq va boshqa vosita hamda usullar orqali bila oladi.

Abu Nasr Forobiy mantiq ilmining mohiyati va vazifasi haqida «Mantiq ilmiga muqaddima» asarida shunday deydi: «Bu shunday bir san'atki, u har doim odam notiqlikda adashib qoladigan bo'lsa, to'g'ri fikrlashga olib keluvchi va aql yordamida biror bir xulosa qilinadigan bo'lsa, xatolarning oldini oluvchi narsalarni o'z ichiga oladi. Uning aqlga nisbatan munosabati grammatika san'atining tilga nisbatan munosabati kabidir. Grammatika odamlar nutqini to'g'rilagani kabi, u ham mantiq ilmi ham xato kelib chiqishi mumkin bo'lgan joyda tafakkurni to'g'ri yo'ldan olib borish uchun aqlni to'g'rilab turadi».

Buyuk mutafakkir Aristotel asarlarini o'rganish, ularga sharhlar yozish va targ'ib etish bilan ham shug'ullangan. Alloma ustozining «Birinchi analitika», «Ikkinchi analitika», «Talqin etish», «Topika», «Sofistika», «Kategoriyalar», «Etika», «Ritorika», «Poetika», «Metafizika» asarlari, Ptolomeyning «Almagest», Afrodiziyalik Aleksandrning «Qalb haqida», Platonning «Qonunlari», Yevklid «Geometriya»siga sharhlar yozgan. Qadimgi yunon fani, ayniqsa, Aristotel asarlari Sharqda ilm-fan va xususan, tabiiy fanlar va falsafa rivojiga katta yo'l ochdi. Aristotel risolalariga ilmiy atamalar ishlab chiqilmagani uchun faylasuf asarlarining arabiy tarjimalarini tushunish juda qiyin bo'lgan.

Buni Ibn Sino shunday e'tirof etadi. Men Aristotelning «Mo-ba'da at-tabia» («Tabiatdan tashqari narsalar», ya'ni «Metafizika») kitobini o'qidim. Bu kitobni o'qirdim-u lekin unda nimalar deyilganini tushunolmasdim: kitob yozgan kishining maqsadi men uchun qorong'i edi. Hatto uni qirq bor qayta o'qidim, kitob menga yod bo'lib ketdi. Lekin shunda ham men kitobni va uning maqsadlarini to'la tushuna olma-

dim. Nihoyat umidimni uzib, bu tushunib bo‘lmaydigan bir kitob ekan, degan xulosaga keldim.

Ammo kunlardan bir kun asr namozi vaqtida kitobfurushlarning oldiga borib qoldim. Bir dallol muqovalangan bir kitobni qo‘lida tutgancha uni maqtardi. U meni ham chaqirib kitobni ko‘rsatdi... Men, bu ilmni bilishning foydasi yo‘q, degan xayolda unga qiyo ham boqmay rad qildim. Dallol menga: «Bu kitobni ol, narxi arzon – uch dirhamga sotaman, egasi pulga muhtoj», dedi.

Kitobni noiloj sotib oldim. Qarasam, bu Abu Nasr Forobiyning o‘sha «Mo ba’da at-tabia» ktobiga yozgan sharhi ekan. Uyga qaytib, darrov uni o‘qishga kirishdim. «Mo ba’da at-tabia» dilimda yod bo‘lib qolganligi sababli tezda bu kitobning maqsadlarini tushunib oldim.

Sharhlovchi asarning asosiy mazmunini tushuntiribgina qolmay, qadimiy olimlar fikrlarini o‘z bilim nuqtayi nazaridan tushuntirgan. Demak, bu asarda sharhlovchining dunyoqarashi, g‘oyalarini ham yoritadi. Abu Nasr Forobiy yaratgan sharhlar faqat yunon faylasufining materialistik ta’limotini sharqona talqin etib qolmay, o‘zining ijtimoiy-siyosiy g‘oyalarini ommalashtirish usuli ham bo‘lgan. Sharqdagi ilm-fan, ayniqsa, falsafaning shakllanishi va rivojiga ta’sirini ham ta’minlagan.

Alloma haqida Yevropada yaratilgan ilmiy ishlarda ko‘pincha faylasuf Platon va Aristotel ta’limotlari o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga urinadi, deyiladi va olimning «Kitob a’raz falsafa al-Aflotun va Aristotelis» asari misol tariqasida keltiriladi. Bu asar olimning qadimgi yunon falsafasini to‘liq va har taraflama o‘zlashtirganidan darak beradi.

Risolada har ikkala faylasuf ta’limotlari haqida ma’lumot berib, keyin umumiy falsafiy muammolar bo‘yicha birini ikkinchisi bilan muqoyasa etadi. Mantiq, tabiat, substansiya, ruh intellektiga doir muammolarning har ikkala faylasuf tomonidan qanday hal etilishini izchil ravishda kuzatadi. Olim Aristotel ta’limotining ilmiy-tabiiy,

naturfalsafiy, Platon ta'limotining diniy xarakterda ekanini, har ikkisi ham ziddiyatlardan holi emasligini ko'rsatadi. Shunisi qiziqki, har ikkala ta'limotni bir-biriga yaqinlashtirishga urinish umuman bo'lmagan.

Abu Nasr Forobiyning asosiy asarlari: «Falsafani o'rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to'g'risida», «Falsafiy savollar va ularga javoblar», «Inson a'zolari haqida risola», «Bo'shliq haqida risola», «Donolik asoslari», «Falsafaning ma'nosi va kelib chiqishi», «Mantiq to'g'risidagi risolaga muqaddima», «Mantiq ilmiga kirish», «Ilmlarning kelib chiqishi haqida», «Musiqa haqida katta kitob», «Baxt-saodatga erishuv haqida», «Hikmat ma'nolari», «Aql to'g'risida», «Ilmlar va san'atlar fazilati», «Fozil shahar aholisining fikrlari», «Aristotel «Metafizika» kitobining maqsadi to'g'risida», «Ritorika haqida kitob» va boshqalar.

Abu Nasr Forobiyning asarlari XII asrda Toledo tarjimonlik maktabi va Ispaniyaning boshqa shaharlarida XII–XIV asrlarda lotin va ivrit tillariga tarjima qilingan. Olimning «Ilmlar tasnifi» risolasi XII asrdayoq ikki marta lotin tiliga tarjima etilgan, keyinchalik esa bir necha bor ko'chirilib tarqatilgan. Bu davrda Abu Nasr Forobiyning falsafaga oid «Aqlning mazmuni», «Baxt-saodatga erishish haqida risola», «Masalalar manbai», «Isbot kitobi», «Jon (ruh)ning mohiyati haqida», «Mantiqqa kirish kitobi», «Fizika»ga sharhlar, «Poetikaga sharhlar» kabi asarlari lotin hamda ivrit tillariga tarjima qilingan.

Abu Nasr Forobiy ilm-fan tarixida yirik mantiqshunos, faylasuf sifatida mashhurdir, uning tarjimayi holi haqida tibbiyot tarixiga oid kitob bitgan arab olimi Ibn Abi Usaybia (1203 – 1270) shunday yozadi: «Abu Nasr Forobiy bir qancha vaqt Bag'dodda yashadi, keyin Shom (Suriya)ga ko'chib kelib, umrining oxiriga qadar shu yerda turib qoldi. Rahmatli yetuk faylasuflardan, fozil donishmandlardan edi, hikmat-falsafaga oid fanlarni mukammal bilardi. Riyoziyot (matematika), falakiyot (astronomiya) ilmlariga mohir, pokiza, yirik

alloma kishi edi. Mol-dunyo bilan ishi yo‘q, «o‘lmas ovqat»ga chidab yashaydigan qanoatli odam edi. Uning fe’l-atvori xuddi qadimgi faylasuf – hakamlar odobiga o‘xshardi»[1].

Abu Nasr Forobiy bir kuni Sayfuddavlaning huzuriga kiradi. Amir, odatiga ko‘ra, tevaragiga olim-u fozillarni to‘plab, suhbatlashib o‘tirgan ekan. Abu Nasr Forobiy amir dargohiga kirib kelganida u o‘zining turk kiyimida bo‘ladi, odati bo‘yicha u doim shu kiyimda yurar edi. U asta ichkariga kirib keldi-da, amirga yuzlanib tippa-tik turib qoladi. Shunda amir unga qarab:

– O‘tir! – deydi. Abu Nasr Forobiy:

– Qaysi joyga, o‘z darajamga qarabmi yo sen aytgan joygami? – deydi.

– O‘z darajangga qarab o‘tir, – deydi Sayfuddavla.

U dadil yurib, to‘rga ravona bo‘ladi, to‘g‘ri, Sayfuddavla o‘tirgan kursi oldiga kelib to‘xtaydi. Hatto amirni o‘tirgan joyidan sal nariga surib ham yuboradi.

Odatda, Sayfuddavlaning huzurida mamluklar – xizmatkorlari hozir-u nozir bo‘lguvchi edi. Amir esa ko‘pchilik odamlar oldida gapirib bo‘lmaydigan bekitiqcha gaplarini o‘zi va o‘sha xizmatkorlari biladigan maxsus tilda gaplashardi. Bu tilni ulardan boshqa hech kim bilmas edi. Shunda amir o‘sha tilda o‘z odamlariga qarab:

– Qanday beodob chol ekan! Hay mayli, men undan ba’zi narsalarni so‘rayman, agar to‘g‘ri javob berolmasa, boplab adabini berib qo‘yarsizlar, – deydi.

Amir shunday deyishi bilan Abu Nasr Forobiy o‘sha tilda unga qarab:

– E amir, biroz sabr qil, – chunki, har bir ishning oqibatiga qarab hukm chiqariladi, – dedi.

Abu Nasr Forobiyning bu gapidan Sayfuddavla dahshatga tushadi, keyin unga:

---

[1] Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: «Meros», 2011, 248-bet.

– Bu tilni bilasanmi? – deydi. Abu Nasr Forobiy unga javoban,

– Ha, men yetmishdan ortiq tilni bilaman, – deydi.

Abu Nasr Forobiy shu gapini aytishi bilan amir unga boshqacha qaray boshladi va hozir bo'lgan olimlar bilan har xil fanlardan gaplashib ketdi. Shunda Abu Nasr Forobiyning har jihatdan ustunligi ayon bo'ladi, bora-bora yig'ilganlarning ko'pchiligi suhbatni to'xtatib, jim qoladilar, faqat Abu Nasr Forobiygina suhbatni davom ettirar edi. Uning og'zidan chiqqan har bir gapni majlis ahli yozib olar edilar. Oxiri Sayfuddavla olimlarni jo'natib yuborib, Abu Nasr Forobiy bilan yolg'iz qoladi. Amir o'z suhbatdoshiga qarab:

– Biror narsa yeyishga qalaysan? – deydi. Abu Nasr Forobiy unga:

– Hech narsa yemayman, – deydi.

– Biror narsa ichishga-chi? – deydi amir.

– Yo'q, – deydi Abu Nasr Forobiy.

– Bo'lmasa, biror shirin kuy eshitishga rag'bating bormi? – deydi amir.

– Ha, bor, – deydi Abu Nasr Forobiy.

Sayfuddavla mutrib-u mashshoqlarni chaqirtiradi.

Chorlangan mashshoqlar qaysi kuyni mashq qilsa, Abu Nasr Forobiy, sen falon joyda piston xatoga yo'l qo'yding, deb uning kamchiligini ko'rsatib turardi. Buni ko'rib, Sayfuddavla Abu Nasr Forobiydan:

– Bu san'atdan ham xabaring bormi, deyman, – deb so'raydi.

– Ha, – dedi Abu Nasr Forobiy, u shunday deydi-yu, belidagi to'rvasini ochib, undan bir necha cho'p oldi va ularni bir-biriga uladi, so'ng chalib mashq qila boshlagan edi, davrada o'tirganlar o'zlarini tutolmay kula boshlashadi. Keyin olim o'sha cho'plarni boshqacha qilib biriktirib chalgan edi, davradagilar piq-piq yig'lashga tushishdi. Olim cho'plarni boshqacha tartibga solib chalgan edi, amirdan tortib darvozabongacha hamma dong qotib uxlab qoldi. Abu Nasr Forobiy esa fursatdan foydalanib, saroydan chiqib ketadi.

Ijtimoiy fanlar taraqqiyotini belgilab bergan olimlardan biri Abu Nasr Forobiy edi. Ko‘pchilik taniqli olimlarning asarlarida qayd etilishicha, «Yevropani Aristotel ta’limoti bilan tanishtirish xizmati Abu Nasr Forobiyga taalluqli. U moddaning abadiyligi ta’limotini ishlab chiqdi. Abu Nasr Forobiy, umuman, o‘rta asr madaniyatining eng buyuk allomasi» sifatida tarix sahifalaridan o‘rin oldi.

9.3. Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sinolarning jahon ilm-fani taraqqiyotiga qo‘shgan ulkan hissalari

Abu Rayhon Beruniy (973–1048), haqiqatan ham, insoniyatning eng ulug‘ mutafakkirlaridan biri hisoblanadi. Uning ilmiy faoliyati fan taraqqiyotida butun bir davrni tashkil etadi. Ilmiy qiziqishlari doirasining kengligi va chuqurligiga, tanqidiy tahlilning jiddiyligi va o‘tkirligiga, mavhum bilimdonlikdan qochib, moddiy madaniyat sohasida ham, ma’naviy madaniyat sohasida ham, insoniyatning real hayoti bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan masalalarga ham qiziqqan. Shaxsan o‘zi sinchiklab kuzatgan hamda «g‘azablanmasdan», «beg‘araz» baho bergan obyektiv faktlarnigina olim ahamiyatli deb hisoblar edi. «Haqiqat ehtiroslarga bo‘ysunmaydi», – degan so‘zni doim takrorlashni yoqtirgan.

O‘z zamonasining hamma fanlarini, birinchi navbatda, falakiyot, fizika, riyoziyot, ilohiyot, ma’danshunoslik fanlarini puxta egalladi. Bu fanlar taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi bilan uning nomi dunyo fanining buyuk siymolari qatoridan joy oldi. Abu Rayhon Beruniy 995-yili Kat shahrida globus yasagan va unga geografik obyektlarni joylab, ularning koordinatlarini aniqlagan. Bu globus jahonda tayyorlangan birinchi va relyefli globus bo‘lgan.

Abu Rayhon Beruniy «Al-osor al boqiya an al-qurun al-holiya» («Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar») asarini Jurjonda muhojirlik davrida yoza boshlagan. Mutafakkir uni yozishga juda

katta tayyorgarlik ko‘rgan. Qunt va matonat bilan turli xalqlar tarixi, madaniyati va tillarini o‘rgangan. Ilm-fanga oid asarlar juda kam nusxada va qo‘lyozma shaklida ayrim shaxslar qo‘lida saqlangan bir davrda yosh olim fanning turli sohalarini bu qadar egallab olishi, uning nihoyatda iste’dodli ekanligini ko‘rsatadi.

Asarda Bobil, Misr, Hindiston, Yunoniston, Eron, Rum (Vizantiya) xalqlarining tarixi, madaniyati, mifologiyasi, she’riyatini juda yaxshi bilishini ko‘rsatgan. Alloma jahon xalqlari hayoti, diniy e’tiqodi, bayramlari, marosimlari, urf-odatlari, turli davlatlar tarixida yuz bergan son-sanoqsiz muhim voqealarni bir-biriga qiyoslab yozar ekan, eng muhim, ehtirosli o‘rinlarda she’riy parchalarni va miflar-asotirlarni xolislik bilan keltiradi. Shu tariqa bu asar o‘ziga xos betakror, keng ko‘lamli, jahon xalqlarining tarixiy va mifologik qomusiga aylanadi. Abu Rayhon Beruniy bu asarida turli xalqlar taqvimidagi oylarning har kunida yuz bergan eng muhim voqealarni va ularning yuz berish sabablari haqida o‘zining adolatli, mustaqil, xolis fikrlarini keltiradi.

Abu Rayhon Beruniy «Tarixlar mohiyati» va «Millatlarning bu haqdagi ixtiloflari» maqolasida yahudiylar, zardushtiylar, masihiylar (nasroniylar)ning ulamolari orasidagi bahs-munozaralar haqida, Aleksandr Makedonskiyning lashkarboshilaridan Batlimus davrida Tavrot kitobi yetmish ikki olim tomonidan yunon tiliga tarjima qilinishi, yahudiylar bu tarjimani buzilgan deb tan olmasligi, shumerlik somiriylarning Bobil podshohi Baxtunnasrga yordam berib, yahudiylarning Falastinga ko‘chirilishi, to‘rt xil Injil kitoblarining mazmuni bir-biriga to‘g‘ri kelmasligini aytadi. Nuh to‘foni, Qayumars, Iskandar erasi, Abu Ma’shar Balxiyning samoviy yoritqichlar har 180 000 yilda bir joyga jamlangan vaqtida butun olam to‘fon boshlanishi haqidagi fikrlari bahsli ekanligini bildiradi. Bu asarda yahudiy, masihiy, fors ulamolarining insoniyat tarixining uch, to‘rt ming yildan boshlanishi haqidagi fikriga qo‘shilmay, «Agar hisoblovchi», «Minglarcha million yillar» deb javob bersa, «uni ayblash kerak emas», deydi.

Abu Rayhon Beruniy «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» nomli asarida «Zulqarnayn» laqabini olgan podshohni (kimligini) aniqlashda turli millatlarning ixtiloflariga to'xtalib: «Zulqarnayn – Abu Karib Shammar Yur'ish ibn Ifriqis Himyariydir, u ikki yelkasiga tushub turgan ikkita kokili sababli shu ism bilan atalgan. U yerning kun chiqish va kun botish tomonlariga yetib borgan, shimol va janub tomonlarni kezgan, mamlakatlar fath etib, xalqlarni o'ziga bo'ysundirgan. Yaman podshohlarining biri bo'lgan Asad ibn Amir ibn Rabna ibn Molik ibn Subayx ibn Abdulloh ibn Zayd ibn Yosir ibn Fan'um al-Himyariy o'z she'rida Zulqarnayn bilan faxrlanib, shunday deydi:

Zulqarnayn men ilgari musulmon, yer yuzini egallagan, hech kimga bo'ysunmagan podshoh bo'lgan.

U, karamli va hurmatli (Xudodan) podshohlik vositalarini so'rab, Mashriq va Mag'rib tomonlarga yetib borgan.

Quyoshning botadigan joyini – qora balchiqli buloqqa va qora botqoqqa botayotgan vaqtini ko'rgan.

Zulqarnayndan oldin ammam Bilqis bor edi, nihoyat uning podshohligi popishak tufayli tugadi.

Shu so'zlar orasida oxirgisi to'g'riga o'xshaydi, – deydi Abu Rayhon Beruniy. Ularning ismlari «zu» lafzidan holi emas edi. Chunki, «zu» (laqabli kishilar faqat) Yamandan bo'lib, boshqa joylarda uchramagan. Masalan, Zulmanor, Zulaz'or, Zushshanotr, Zunuvos, Zujadan, Zuyazan va boshqalar. Shu bilan birga Zulqarnayn xabarlari Qur'ondagi u haqida aytilgan hikoyaga o'xshaydi. Ammo to'siqqa kelsak, u yer yuzining qaysi joyida ekanini, ikki to'g'on o'rtasiga qurilgan Qur'ondagi qissaning zohir iboratini aniq ko'rsatmaydi»[1].

Abu Rayhon Beruniyning so'ziga qaraganda, «Xorazmshoh Abul Abbos Ma'mun fan va bilimni juda qadrlar edi, kunlardan bir kuni Xorazmshoh may ichib, otiga minibdi va mening hujram tomon-

[1] Beruniy A.R. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – T.: «Fan», 1968, 77-bet.

ga yuribdi. U meni chaqirtiradi, lekin men kechikib chiqdim. Xorazmshoh otini choptirib, mening xonam eshigi oldiga yetib keladi va shoshib, otdan tushmoqchi bo'ladi, lekin men unga egilib ta'zim qildim hamda uning otdan tushmasligini o'tinib so'ray boshladim. Xorazmshoh: «Fan juda sharafli soha: hamma unga qarab boradi, lekin u hech kimning oldiga kelmaydi. Agar o'zingizga ma'lum urf-odatlar bo'lmasa, – deb qo'shib qo'ydi u, – men sizni sira chaqirmas edim, – fan hamma narsadan yuqori va hech narsa unga teng kela olmaydi», dedi.

Abu Rayhon Beruniyning Ibn Sino bilan yozishmalari ham uning Xorazmda turgan davrida bo'lgan. Ularning savol-javoblaridan va Abu Rayhon Beruniyning Ibn Sinoga yozgan e'tirozlaridan bizgacha faqat 18 tasi yetib kelgan.

Bu savol-javoblarni dastlab Ibn Sino quyidagicha ikki guruhga ayiradi:

1. Aristotelga qarshi qaratilgan savollar 10 ta.

2. Abu Rayhon Beruniyning o'zi hal qilishi qiyin bo'lgan (Ibn Sinoning so'zicha) masalalar haqidagi savollar 8 ta, javoblarga ko'ra, Abu Ali ibn Sino Platon, Aristotel, Abu Nasr Forobiy kabi qator olimlar bilan bir fikrda bo'lib, Abu Bakr Roziy va umuman Abu Rayhon Beruniy atrofidagi fozillarga qarshi bo'lgani ma'lum bo'ladi. Bu savol-javoblar yolg'iz, balki o'sha davrdagi ikki falsafiy oqimning dunyoqarashlaridan namuna hamdir.

Biz yuqorida shohidi bo'lgan savol-javoblar 25 yoshli Abu Rayhon Beruniy bilan 18 yoshli Abu Ali ibn Sino tafakkuriga mansubdir. Yozishmalar mazmunidan anglashilib turibdiki, ular bolaligidanoq yunon olimlari asarlarini batafsil o'rganganlar.

Bu yozishmalar ularning tabiat falsafasi va fizika masalalari bilan ham qiziqqanini ko'rsatadi. Bu savol-javoblarda ikki mashhur olim fazo, issiqlikning tarqalishi, jismlarning issiqdan kengayishi, nurning aks etishi va sinishi kabi masalalarda ilmiy munozara olib borgan.

Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sinoning falsafa, astronomiya, fizikaga doir qiziqarli savol-javoblarida tabiat jismlarining o'zaro aloqadorligiga oid izchil qarashlar aks etgan. Abu Ali ibn Sinoning ta'biricha, jismlarning bir-biriga ta'siri va bu ta'sirning tabiati ularning ichki imkoniyatlariga bog'liq. Bu yerda imkoniyat tushunchasi Isaak Nyuton qonunlarida uchraydigan «kuch» tushunchasiga mos kelib, u faol va nofaol shakllarda ifodalanishi qayd etiladi. Jism (modda) bir-biriga asosan ikki xil ta'sir ko'rsatadi. Jismlar o'rtasida bog'lanish bo'lsa, ishqalanish hodisasi kelib chiqadi. Masalan, muz har qanday jismga tegishi bilan, uning haroratini butunlay o'zgartirib yuboradi. Hodisalar aloqadorligi jismlar o'rtasidagi bevosita bog'lanish bilan chegaralanmaydi. Chunki bilvosita aloqadorlik ham bor. Bunda narsa-buyumlar bir-biriga ta'sir ko'rsatib, bir-birida o'z aksi, ya'ni tasvirini qoldiradi. Quyosh va oydan tarqaladigan nur va quvvat ta'sirida yerda sodir bo'ladigan jami hodisalar bunga misol bo'ladi. Kishilar hayvonot va o'simlik olami hayoti, jonsiz tabiat hodisalari harakatiga ta'sir etadi. Abu Ali ibn Sino «Oyning yaqqol ko'zga tashlanadigan ta'siri shundan iboratki, u mevalarni yetishtiradi, o'z sathining kattalashishi tufayli meva mag'zi hajmini kengaytiradi va dengiz suvining ko'tarilishiga olib keladi», deb uqtiradi.

Abu Rayhon Beruniyning Aristotel qalamiga mansub «Osmon haqida» kitobiga doir o'nta savoli va unga Abu Ali ibn Sinoning javoblarida qayd etilishicha, buyuk yunon olimi, falak tashqarisida bo'shliqning yo'qligi aniq bo'lsa va biz uni olov kabi latif gavhar deb taxmin qilsak ham, falakni go'yo chegaralangan to'da bir narsa, deb qaraydi.

Abu Ali ibn Sino o'z javoblarida mantiqli dalillar keltiradi: «Falakning yengil ham, og'ir ham emasligini o'z so'zlaringda isbot qilib, men uchun yetarli mashaqqat chekibsan: o'z so'zlaringda falakning na yuqorisiga va na quyisiga tomon harakat qilishi uchun o'rin yo'qligini inkor qilibsan. Bunga falak bo'laklarining bir-bir-

lari bilan almashganini dalil qilibsan. Men ham falakning pastga tomon harakat qilishi mumkin emas, pastda falakning ko‘chib borishi uchun tabiiy bir o‘rin yo‘q, deyman. Chunki falak pastga tomon harakat qiladi, olamdagi hamma unsurlar o‘z tabiiy o‘rnidan ko‘chib yuradi. Bunday ko‘chib yurish tabiat olamida ham mumkin deyish – yanglish fikr...».

Abu Rayhon Beruniy Abu Ali ibn Sinodan yana «Nima uchun Aristotel o‘z kitobining ikki joyida ilgari o‘tgan olimlarning, falak bor, degan fikrini falakning doimo turg‘un ekaniga kuchli hujjat va dalil qildi?» – deb so‘raydi.

Abu Ali ibn Sino bunday javob yo‘llaydi: «Bilmak kerakki, Aristotel «Olamning boshi (ibtidosi) yo‘q» deganining ma’nosi, olamning yaratuvchisi yo‘q, degani emas, balki olamning yaratuvchisi ishlashdan bo‘sh emas, degani. Bu maqom olam boshiga oid masallar bayoni emas».

Abu Ali ibn Sino moddiy narsa-buyumlar asosi – o‘zgarmas substrati to‘g‘risidagi Levkipp-Demokrit konsepsiyasini qabul qilmaydi. Bu konsepsiyada barcha narsalarning substrati atomlar ham bo‘shliqdan tashkil topishi ilgari suriladi. Abu Ali ibn Sino esa moddiy olam asosi sifatida suv, tuproq, havo va olovni tan oladi, ularning o‘zaro biridan ikkinchisiga aylanishini uqtiradi.

Abu Ali ibn Sino fikricha, tashqi olam hodisalari harakatida bo‘shliqning mavjud bo‘lishiga hech qanday muhtojlik sezilmaydi. Bo‘shliq jismlarning fazo va vaqtda harakat qilish vositasi vazifasini bajarmaydi. Tashqi olamda jismlardan boshqa hech qanday narsa bo‘lishi mumkin emas. Jism materiya (moddiyat) va shakl birligidan tashkil topadi. U uchta o‘lchamga – uzunlik, balandlik va enga ega. Jism bir butun hamda yaxlit bo‘lib, turli qismlardan iborat emas.

Abu Ali ibn Sino atomistlar ta’limotiga qarshi chiqib, «Materiya bo‘linmas atomlardan tashkil topadi va ularning yig‘indisi jismni keltirib chiqaradi», degan g‘oyani xato deb e’lon qiladi.

Demokrit va uning tarafdorlari, atom – oxirgi bo‘lakcha, undan keyin bo‘linadigan qism yo‘q, hamma modda atomning birikishidan paydo bo‘lgan, deydi. Aristotel esa, atom bo‘linadi, bo‘linaveradi, bo‘linishning chegarasi yo‘q, deb hisoblaydi. O‘sha davrdagi boshqa olimlar ham bu fikrni yoqlaydi. Bu masalada Abu Rayhon Beruniy Abu Ali ibn Snoga 18 ta savol yuboradi.

Abu Rayhon Beruniy, jumladan, bunday savol yo‘llaydi: «Do‘stim Abu Ali, ba’zi faylasuflar, atom bo‘linmaydi, deb aytadi. Bunday deyish – nodonlik. Ikkinchi guruh faylasuflar, atomning bo‘linishi – cheksiz, deb hisoblaydi. Bu esa, o‘taketgan nodonlik! Agar atom bo‘linishi cheksiz bo‘lsa, materiya yo‘q bo‘lib ketishi kerak, vaholanki, materiya abadiydir. Bu masalada sening fikring qanday?».

Abu Ali ibn Sino: «Ustoz Aristotelning, Roziyning «bo‘linadi» degan fikrini cheksiz deb tushunmagin, bo‘linadi, lekin bo‘linishning chegarasi bor», – deb javob qaytaradi.

Abu Rayhon Beruniy esa bu javobdan qoniqmaydi, e’tiroz bildirib, yana maktub yuboradi: «Ey, Ibn Sino, sen javobingda ustozlarning fikrini qaytaribsan. Ammo o‘zing fikr bildirmabsan. Menga sening fikring qiziq. Faraz qilaylik, atom ikkiga, shu bo‘lingan bo‘laklar orasida katta bo‘shliq mavjud. Bo‘lingan bo‘laklar shu bo‘shliqda to‘xtovsiz harakatda, ular orasida ta’sir kuchi bor. Lekin shu bo‘lingan bo‘lakchaning o‘lchami oraliqdagi bo‘shliqdan necha marta kichkina yoki katta – buni bir tasavvur qilib ko‘rdingmi? Tafakkur qilib ko‘rginki, shu bo‘lingan bo‘lakcha bo‘shliqdan necha marta kichkina?».

Bu – fanning barcha zamonlari uchun xos va dolzarb bo‘lgan savol. Unga hozirgi zamon fani ham aniq javob bera olganicha yo‘q.

Bilish nazariyasi xususida Abu Rayhon Beruniyning ham o‘ziga xos fikrlari bor. Uning fikricha, bilishning asosi, bizning dunyo haqidagi bilimlarimiz manbai bo‘lmish sezgi a’zolari orqali olingan bilimlardir. Umuman, ilmiy bilimlar haqida gapirar ekan, bu

– aql-idrok tufayli erishilgan yutuqlar, deydi. Alloma birinchilardan bo‘lib, Aristotelning fan sohasidagi xizmatlariga yuksak baho berish bilan birga tanqidiy fikrlar ham bildirgan. U Aristotelning «tabiiy joy», «dunyoning yagonaligi», «og‘irlik va yengillik» kabi tushunchalarini tanqid qiladi. Aristotelning «og‘ir» va «yengil» degan tushunchasidan farqli ravishda Abu Rayhon Beruniy Ibn Sinoga yozgan «E’tiroz»larida hamma narsalarning Yer markazi tomon tortilishi haqidagi fikrni olg‘a suradi. Bu, tortilish kuchi haqidagi nazariyaning ishlab chiqish yo‘lida qo‘yilgan muhim qadam edi. Abu Rayhon Beruniyning bu nazariy xulosalari XVIII asr boshida ingliz olimi Isaak Nyuton tomonidan «Olamning tortilish qonuni» kashf etilishiga olib keldi.

Abu Rayhon Beruniy jismlarning yer markaziga tortilib turishi haqidagi ta’limotni yoqlagan va shuningdek, geliotsentrik nazariya tarafdori bo‘lishi bilan Nikolay Kopernikning kashfiyotini oldindan ko‘rgan. Uning o‘simliklar va hayvonlar orasidagi tabiiy tanlanishning roli haqidagi mulohazalari hayron qolarli darajada Charlz Darvin kashfiyotidan oldin xabar beradi. Mutafakkirning eski dunyo qit’alari va dengizlarini tasvirlab yozganidagiga o‘xshash tasavvurlar Yevropa kartografiyasi tarixida XV – XVI asrlarda paydo bo‘ldi.

Abu Rayhon Beruniyning tabiiyotga oid ishlari: tezlik, tovush va yorug‘lik tezligi, aylanma harakat, chiziqli va burchakli tezlik, og‘irlik kuchi, jismlarning erkin tushishi. Solishtirma og‘irlik, tutash idishlar qonuni, favvora va buloq suvlarining chiqish sabablari, atmosfera bosimi, vaznsizlik holati, issiqlik hodisalari, ob-havo, qahrabo va ohangraboga oid ishlar, yorug‘likning tabiati, yorug‘likning qaytishi va sinish hodisalari, billurdan o‘tganda nurlarning sinishi va kuydirish xossalariga ega bo‘lishining sabablari kabi yuzlab ilmiy tadqiqotlari jahonda fizika fanining rivojlanishiga qo‘shgan bebaho durdonadir.

Abu Rayhon Beruniyning birgina yorug‘likning tabiatiga doir kashfiyotini Isaak Nyuton va Xristian Gyuygensning kashfiyotlari

bilan taqqoslaganimizda Isaak Nyuton korpuskulyar nazariyasiga ko‘ra, Quyoshdan bizga yetib kelayotgan nurlar porsiyali zarrachalar oqimidan iborat bo‘lib, to‘g‘ri chiziq bo‘ylab harakat qiladi. Biroq Isaak Nyuton yorug‘likning to‘lqinini ochib berolmagan edi. Yorug‘likning to‘lqinli tabiati haqidagi kashfiyot Xristian Gyuygensga nasib bo‘ldi. Biroq Xristian Gyuygens ham yorug‘likning kvant xossasini inkor etdi. Faqat XX asrning boshlarida interferensiya va difraksiya hodisalarining kashf qilinishi natijasidagina yorug‘likning kvant va to‘lqin tabiati aniqlandi.

Abu Rayhon Beruniy ta’kidlaganidek: «Yerdagi haroratning dastlabki sababi, Quyosh jismidan chiqib kelayotgan yorug‘lik zarrachalarining oqimi va ular to‘lqini shu’lasining yetib kelmog‘i tufaylidur». Buni qarangki, mutafakkirning ana shu bir jumlasining o‘zidayoq Isaak Nyuton va Xristian Gyuygensning kamchiliklarini to‘ldirib, XX asrning xulosasini bergan edi.

Abu Rayhon Beruniyning ilmi hay’at va geografiya fanlariga oid ilmiy ishlari ham benihoya ko‘pdir. Nikolay Kopernik Yevropada birinchi bo‘lib (Abu Rayhon Beruniydan keyin), Yerning Quyosh atrofida aylanishini aytib, sayyoralarning Quyosh atrofidagi harakati yo‘llarini aylana shaklida, deb hisoblaydi. Iogann Kapler esa sayyoralarning Quyosh atrofidagi harakat yo‘llari aynan aylana shaklida emas, balki ellips shaklida ekanligini isbotlaydi. Abu Rayhon Beruniy esa Nikolay Kopernikning xatosini to‘g‘rilab, Iogann Kaplerning kashfiyotini oldindan aytib bergan. Ulug‘ bobokalonimizning «Sayyoralar Quyosh atrofida aylanadilar deb aytganida, ularning harakati aynan aylana shaklida, deb tushunmaslik kerak. Sayyoralar Quyosh atrofida bir marotaba aylanib chiqqanlarida ikki marta Quyoshga yaqinlashib, ikki marta uzoqlashurlar» (Bu hozirgi atamalarda ellipsni anglatadi).

1017-yilda Xorazm Mahmud G‘aznaviy davlatiga qo‘shib olinganidan keyin Abu Rayhon Beruniy boshqa saroy olimlari bilan birgalikda G‘azna shahriga olib ketiladi. Allomaning G‘aznadagi davri

g‘urbatda kechsa-da, o‘zining barcha vaqtini ilmiy-tadqiqot ishlariga sarf qildi.

Kunlardan birida Sulton Mahmud G‘aznaviy Abu Rayhon Beruniyni sinamoqchi bo‘lib, unga savol beribdi:

– Ey munajjim! Aytgin-chi, Qur’oni karimda bashoratchilik qoralangan, lekin, ayrim munajjimlar Quyosh va Oy tutilishini oldindan bashorat qilaman, deb da’vo qilishadi. Sen ham shu fikrdamisan?

– Men masalaga mantiqan yondashish tarafdoriman. Shunday hodisalar borki, ularning harakatlanishini o‘lchab, agar unga tashqi kuch xalaqit bermasa, falon narsa, falon vaqtda, falon joyda bo‘ladi, deb bashorat qilish mumkin. Shunday hodisalar borki, ularning holati biz biladigan ta’sirlardan yashiringan bo‘ladi, ularni bilmaganimiz uchun bashorat qilib bo‘lmaydi. Qur’oni karimda ana shunday hodisalarni nazarda tutib, soxta bashoratchilik, folbinlik qoralangan. Yolg‘onchilikdan bizni xudoning o‘zi asrasin. Osmon yoritqichlarining harakatlanishi bir tekisda o‘zgarishsiz boradi va muayyan qonuniyatlarga bo‘ysunadi. Shu sababli ularni oldindan aytib berish mumkin. Falakiyot ilmiga tayanib, Quyosh va Oy tutilishini oldindan bashorat qilish mumkin.

Sulton Mahmud G‘aznaviy bu fikrni eshitgach, g‘azabi qaynaydi va ataylab Abu Rayhon Beruniyni mulzam qilish niyatida yana savol beradi:

– Ey «bashoratchi», sen hozir men shu binoning qaysi eshigidan chiqishimni o‘z ilmingga tayanib topgin-chi?

Alloma noyob xislat-fazilatlar sohibi sifatida dong taratib, inson miyasidagi fikrlarni o‘qish darajasiga yetgan edi.

Sulton Mahmud G‘aznaviy shu payt 12 ta eshigi bor aylana shakldagi binoda majlis qurayotgan edi. Abu Rayhon Beruniy hukmdorning vajohatini yaxshi anglab yetdi va bir qog‘ozga bir qancha so‘zni yozib, unga uzatdi. Sulton Mahmud G‘aznaviy qog‘ozni o‘zi o‘tirgan o‘rindiq tagiga bekitib qo‘yadi-da, Abu Rayhon Beruniyga istehzoli qarab, xizmatkoriga buyurdi.

– Zudlik bilan bu yerga duradgorni chaqirib kel, mening ro‘paramdagi devorga 13-eshikni o‘rnatsin. Eshik o‘rnatilgandan keyin Sulton Mahmud G‘aznaviy shu eshikdan chiqib ketadi. Bir oz vaqtdan so‘ng, hammalari shu joyga yana to‘planishgach, Sulton Mahmud G‘aznaviy Abu Rayhon Beruniy yozgan qog‘ozni bekitgan joyidan oladi. Majlisda guvoh bo‘lganlardan biri qog‘ozni o‘qiydi. Qog‘ozda shunday so‘zlar bitilgan edi: «Hukmdor! Siz bu binodagi 12 ta eshikning birontasidan chiqmaysiz, ro‘parangizdan 13-eshikni ochtirib, o‘sha eshikdan tashqariga chiqasiz». Majlis ahli bu holatdan nihoyatda hayratga tushadi. Sulton Mahmud G‘aznaviyning esa g‘azabdan yuzi qizarib ketdi va amr qildi:

– Bu shakkok olimni zindonga tashlanglar!

Hukm ijro etildi.

Abu Rayhon Beruniyning mashhur «Hindiston» asari – «Tahqiq mo lil-Hind min ma’qula maqbula fi-l-aql av marzula» («Hindlarning aqlga sig‘adigan va sig‘maydigan ta’limotlarini aniqlash kitobi») 1030-yilda yozilgan. Bu asar G‘arb va Sharq olimlari tomonidan yuksak baholangan. Hindistonda sanskrit tilini puxta o‘rganish uning hind madaniyati, adabiyoti va Hindistonning o‘sha davr olimlari bilan yaqindan tanishishiga hamda bu mamlakat haqida o‘lmas asar yaratishiga imkon berdi. «Hindiston» hajmi jihatdan juda katta asar. Unda hind adabiyoti, falsafasi, aniq fanlar, geografiya, elshunoslik, qonun va urf-odatlar, tarixiy-diniy rivoyatlar, hind yozuvining turlari haqidagi ma’lumotlar bor.

Abu Rayhon Beruniyning «Hindiston» asari jahon tarixiy va jo‘g‘rofiy adabiyotining shunday bir namunasiki, unga olimlar hozirgacha ilmiy jihatdan sira eskirmaydigan ajoyib bir manba sifatida murojaat qiladilar. Alloma Hindistondagi fanlarni chuqur tekshirish orqali ularning fikriy hayotlariga kirib boradi, shuningdek, falsafalarini o‘rgandi. Shunisi qiziqki, u ko‘pchilik musulmon olimlari singari bularning hammasiga bir taraflamalik bilan qaramadi, diniy bo‘-

yoqlardan saqlanib ish ko‘rdi. Uning bu asari uchun manba hind olimlari va ko‘p sonli sanskrit tekstlari bo‘ldi. Olim hindlarning aqliy tushunchalarini turkumlarga bo‘ldi va tekshirdi. Ularni musulmonlar, xristianlar va ayniqsa, qadimgi yunonlarning sistemalari bilan taqqosladi. U pifagorchilar ta’limoti bilan hindlarga xos ba’zi narsalar orasida ma’lum bir munosabat borligini yaqqol ko‘radi.

Tarixda Amerika qit’asini 1492-yilda dengiz sayyohi Xristofor Kolumb kashf etganligi qayd qilingan. Ammo bu borada Abu Rayhon Beruniyning ilmiy farazi mavjudligi ham ma’lum. Olim o‘zining «Hindiston» asarida yer yuzasining tuzilishi, dengiz va quruqlik to‘g‘risida gapirib, «...Yerning choragi ma’muradir. Ma’murani G‘arb va Sharq tomondan Muhit okeani (Atlantika va Tinch okeanlari) o‘rab turibdi. Bu Muhit okeani, yerning obod qismini dengizlarning narigi tomonida bo‘lishi mumkin bo‘lgan quruqlik yoki odam yashaydigan orollardan ikkala yoqdan (g‘arbdan va sharqdan) ajratib turadi...»[1], – deb yozadi. Shunday fikrni «Al-Qonun al-Mas’udiy» asarida ham uqtiradi. Demak, g‘arbiy yarim sharda yaxlit bir quruqlikning, keyinchalik Amerika deb nomlangan qit’aning mavjudligini Abu Rayhon Beruniy yevropalik olimlardan 450 yil oldin bashorat qilgan.

Ma’lumki, «Al-Javohir» qimmatbaho toshlar, noyob ma’danlar xususiyatlari tadqiqiga bag‘ishlangan asar. Sharq shoirlari qadim zamonlardan boshlab yoqut, gavhar, oltin, kumush va la’l ta’rifini keltirib, odamlarning o‘zaro munosabatlarida ularning ijtimoiy roli, ular haqidagi afsona ham rivoyatlardan she’riyatda foydalanib kelganlar. Mazkur tashbehotlarni Abu Rayhon Beruniy ilmiy mulohazalarga dalil tarzida keltirib, ularning qanchalik to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini ham ko‘rsatib o‘tadi. Natijada, mutafakkir ham gavharshunos, ham she’rshunos sifatida namoyon bo‘ladi. «Al-Javohir»ning har bobida ko‘plab she’rlar keltiriladi. Ulardagi

---

[1] A. Otaxo‘jayev. Abu Rayhon Beruniy. – T.: «Abu matbuot konsult», 2011, 128-bet.

badiiy-tasviriy vositalar teran tahlil etilishidan tashqari, «Lu'-lu'» bobining «Gavhar va uning nomlarining adiblar tomonidan ta'riflanishida adabiyot masalasiga to'xtaladi.

Abu Rayhon Beruniy, asosan, diqqatni qo'llagan tashbeh ham istioralarning hayotga nechog'li mos kelishi, mantiqiyligi masalasiga qaratilgan. Alloma biror tosh yoki ma'danga ta'rif berar ekan, uning shoirlar ijodida qay yo'sinda qo'llanishini aytib, shunga muvofiq misol keltiradi. O'sha obraz xizmatini o'tagan so'zning qaysi tildan kelib chiqqanligi, qanday qilib tashbehga aylanganligi, ifodaning predmetga aloqadorligini turli manba va ma'lumotlar asosida aniqlaydi. Chunonchi, yoqutning tabiiy xossalari, rangi va belgilari xususida yozar ekan, uning qizilligini ifodalash maqsadida shoir «usfur», «jarel» va «baxromon» so'zlarini qo'llaganliklarini ta'kidlaydi. Nobig'a al-Ja'diy va Al-Ash'o she'rlaridan bunga misollar keltirib, aslida forscha bo'lgan bu so'zlar qizil bo'yoq beradigan tog' o'simligining nomi ekanligi, ammo arab tilida ular shaklining o'zgartirilganligini isbotlab beradi.

Mabodo, shoir qo'llagan tashbeh muayyan toshning tabiiy xususiyatlariga to'g'ri kelmasa, alloma she'rni atroflicha tahlil eta turib, tashbehning soxtaligi yoxud xunukligini ko'rsatib o'tadi. Jumladan, qadimgi bir shoirning:

Mening qalbim nozik qomatli, beli niholday harakatlanuvchi jononga qaratilgan.

U qiz husn-u jamolda dengiz qirg'oqqa uloqtirgan gavhardekdir, misralarini keltirib: «Lekin, bu o'xshatish ma'no jihatdan chiroyli emas, chunki gavhar qirg'oqqa uning chig'anog'i o'lgandan keyingina uloqtiriladi. Bunday holda esa gavhar yemirilish va o'zgarishlardan buzilgan bo'ladi.

Shunga yaqin yana bir misol Mansur al-Qodiydan keltiriladi. *«Dengiz po'rtana urganda o'lim keltirib, tinch turganida gavhar tashlaganidek, saxiy kishi osoyishta bo'lganda qo'llaridan shabnam*

(dur) to'kiladi, lekin g'azablansa – jala yog'iladi». Bu tashbeh kuchsiz bo'lsa-da, «shoirona yolg'on, mubolag'a orqali ancha chiroyli ifodalangan», deydi olim. Shu asnoda she'riy san'atning o'ziga xosligi, she'r tuzilishini, balki obrazli ifoda o'rtasidagi mutanosiblik to'g'risida «Al-Javohir»da bayon etilmish juda ko'p fikrlaridan birini keltirmoq joizdir. Abu Rayhon Beruniy Imrul Qaysning (mazmuni):

O'tovlarimiz va yuk tashuvchi ulovlarimiz atrofidagi yovvoyi hayvonlarning ko'zlari,

Xuddi teshilmagan aqiqday yaltirardi, –

baytida «ipga tizilmagan aqiq nazarda tutilsa ham, aslida aqiq yoki gavharni teshmasdan turib, ipga tizish mumkin emas», deydi. Biroq Imrul Qays misralarida mantiqsizlik yo'q, chunki: «Abu Ahmad al-Asqariy «She'riyatda iyg'ol – kuchaytirish, mubolag'a shundan iboratki, shoir o'z fikrini qofiyalovchi so'zlarga yetmasdanoq to'la ifodalab bo'ladi va so'ngra qofiya she'rga alohida joziba bag'ishlaydi. Bu – Imrul Qays «teshilmagan» so'zini she'rga qofiya sifatida ilova qilgani kabidir».

Ilm-fan sohasida erishgan yutuqlarini zamonasining ilm-fani yutuqlarga qo'shish uchun bo'lgan qonuniy intilishdan kelib chiqqan Abu Rayhon Beruniy ilmiy tadqiqotlarini, o'zining ona tili bo'lmasa-da, o'sha davrda Sharqning ko'pgina mamlakatlarida ilmiy aloqa vositasi bo'lib xizmat qilgan arab tilida yaratgan. Mutafakkir bu haqda afsuslanib, quyidagilarni yozadi: «Mening ona tilim shunday tilki, agar men biror fanga oid asarni shu tilda yozsam, u uyning sharillab, yomg'ir quyulib turgan tarnovi ostidagi tuya yoki arab arg'umoqlari orasida qolgan jirafa kabi o'zini yot his qiladi... So'ngra, men arab va fors tillarida yoza boshladim. Lekin bularning har ikkovi uchun ham men mehmondekman, bu tillarni mashaqqat bilan egallaganman»[1]. Keyin alloma jahonning barcha mamlakatlaridagi jamiki fanlarga doir asarlar arab tiliga tarjima qilinganligini aytadi: «Ular bu

[1] O'sha joy, 148-bet.

tilda go‘zallik kasb etib, dillarga orom bag‘ishlaydilar. Garchi arab tili yoqimliligi bilan kishini maftun qilsa-da, har bir xalq o‘z shevasini sevadi, chunki shunga o‘rgangan va shundan o‘z ehtiyoji uchun muomalada foydalanadi»[1].

Abu Rayhon Beruniy o‘z ilmiy ishlarining ro‘yxatini tuzadi. Bunda 1035-yilgacha yozilgan kitoblari va risolalari 113 taga yetgani ko‘rsatilgan. Keyingi yozgan asarlarini ham qo‘shsak, u qoldirgan ilmiy meros 152 kitob va risoladan iborat. Uning asarlari mavzu jihatdan turli-tuman. Ko‘pchilik asarlari o‘z zamonasida o‘ziga xos bir ensiklopediya hisoblangan. Asarlarining 70 tasi falakiyot, 20 tasi riyoziyot, 12 tasi geografiya va geodeziya, 3 tasi ma’danshunoslik, 4 tasi xaritagrafiya, 3 tasi iqlimshunoslik, biri fizika, biri dorishunoslik, 15 tasi tarix va elshunoslik, 4 tasi falsafa, 18 tasi adabiyot va boshqa fanlarga oiddir. Abu Rayhon Beruniy turli tillardan bir qancha ilmiy va adabiy asarlarni tarjima ham qilgan. Afsuski, hozirda olimning faqat 31 asarigina ma’lum. Qolganlari bizgacha yetib kelmagan yoki hali topilganicha yo‘q.

Abu Rayhon Beruniy yoshlarni ilmga o‘rgatish jarayonida aqlga va tajribadan o‘tgan bilimga tayanish lozimligi to‘g‘risidagi g‘oyani ilgari surgan holda, bolalar bilishi va o‘rganishi zarur bo‘lgan fanlarni haqiqiy fanlar (til, adabiyot, falsafa, tarix, etnografiya, she’riyat, psixologiya, matematika, fizika, geografiya, geodeziya, falakiyot, minerologiya, tibbiyot)ga bo‘ladi. Bu fanlarning har biriga o‘z davrigacha bilimlarni umumlashtirib, o‘zining yangi xulosalari bilan katta hissa qo‘shdi. Jumladan, Abu Rayhon Beruniy umuman til, til ilmi haqida gapirib, til kishilar o‘rtasidagi aloqa va fikr almashuvi vositasigina emas, balki til ilmi barcha fanlarning asosini o‘rganish kaliti deydi.

Abu Rayhon Beruniy ilm olishga shunday g‘ayrat va ishtiyoq bilan kirishdiki, charchash va dam olish nima ekanligini bilmas, kecha bilan kunduzni farq qilmas, uning qalami yozishdan to‘xtamas, tili

[1] O‘sha joy, 148-bet.

bayon etishdan charchamas edi. Uning butun borlig'i ilmning so'nmas olovi bilan qoplab olingan edi. Bunday odatdan tashqari ishchanlik olimning o'tkir zehni bilan qo'yilib, uning fan sohasidagi buyuk muvaffaqiyatlarga erishishiga sababchi bo'ldi.

Yoqut al-Hamaviy o'zining «Mu'jam al-udabo» («Adiblar qomusi») kitobida qayd etishicha: Abu Rayhon Beruniy o'lim to'shagida yotganda ham ilmiy fikrlar bilan band bo'ladi. G'azna qozisi Abulhasan Ali ibn Iso al-Valvolijiy uning oldiga kirganda u jon berayotgan, g'arg'ara bilan nafas olib, ko'kragi siqilayotgan edi. O'shanday holda menga qarab: – Sen bir kuni menga «Al jaddot al-fosida» («Meros mulkining buvilarga doir») hisobi haqida nima degan eding? – dedi.

Men uning qiynalayotgan holiga rahmim kelib:

– Shunday holatda-ya? – deb so'radim.

– Ey sen, – dedi Abu Rayhon Beruniy, – men bu dunyo bilan xayrlashayotibman, o'sha masalani bilmay ketganimdan ko'ra, bilib ketganim yaxshiroq emasmi? – dedi.

Men o'sha masalani unga tushuntirib berdim, u bo'lsa uni yodlab oldi va o'zi ham va'da bergan narsasini menga o'rgatdi. Shu bilan men uning oldidan chiqdim, hali uyga yetmay, yo'lda ketayotganimda uning uyidan yig'i ovozi eshitildi. Abu Rayhon Beruniy shunday zot ediki, o'lim to'shagida ham bilimga intildi, undan bahra oldi, rohat topdi. Hayotining so'nggi daqiqalarida ham ma'rifat sari intilishdan bo'shamadi.

Alloma o'z davrining eng ko'zga ko'ringan ilm-fan homiysi edi. U mamlakat ravnaqini fan, ma'rifat rivojida ko'rgan. Ilm-fan, ma'rifat saxovat xizmatini o'tashi mumkin deb hisoblagan. U shunday yozadi: «Mening butun fikri-yodim, qalbim – bilimlarni targ'ib qilishiga qaratilgan, chunki, men bilim orttirish lazzatidan bahramand bo'ldim. Buni men o'zim uchun katta baxt deb hisoblayman». Insonning eng oliy fazilati boshqalar haqida, ayniqsa, yoshlar haqida g'amxo'rlik qilishdan iboratdir. Buyuk mutafakkir doimo xalqlarning

do‘stligi, inoq, ittifoq bo‘lib yashashi uchun kurashib keldi, insoniyat va u tomonidan yaratilgan madaniyatga qirg‘in keltiruvchi urushlarni qoraladi. Madaniy hamkorlik va ilm-ma’rifatning keng tarqalishiga katta e’tibor bergan allomadir.

Umumjahon madaniyatiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk qomusiy olim **Abu Ali ibn Sino (980–1037)** tabiatshunoslik, falsafa, astronomiya, matematika, musiqa, huquq, axloq, mantiq, adabiyot, tibbiyot ilmida o‘chmas meros qoldirgan. Ham Sharqda, ham G‘arbda «Donishmandlar sultoni» va «Tabiblar shohi» deb dong taratgan, birgina «al-Qonuni»ning o‘zi Yevropada bir necha asr dasturilamal bo‘lib kelgan mutafakkir xalqimizning buyuk faxridir.

Abu Ali ibn Sinoning bizgacha saqlanib qolgan tarjimayi holida jumladan, shunday deb yozadi: «Otam meni Qur’on va adab ilmini o‘qitadigan muallimlarga topshirdilar. Bu paytda yoshim o‘nga to‘lgan edi. Qur’onni va adabiyotga oid kitoblardan ko‘pini o‘zlashtirib olgan edim. Buxoroga Abu Abdulloh an-Notiliy kelib qoldi. Otam u kishini o‘g‘limga dars bersin deb uyimizga ko‘chirib keldi, u qaysi masalani so‘ramasin, men undan ko‘ra durustroq tasavvur qilardim. U mening javoblarimdan juda hayratga tushdi. Keyin otamga meni ilmdan boshqa narsa bilan shug‘ullanmasligimni uqtirdi.

Men uchun ilm eshiklari lang ochilib ketdi. Keyin tib ilmi bilan shug‘ullangim kelib qoldi, unga oid kitoblarni o‘qishga tushdim. Tib o‘zi qiyin ilmlardan emas, shu sababli qisqa muddat ichida bu sohada shunday yutuqqa erishdimki, hamma fozil tabiblar ham huzurimga kelib mendan tib ilmini o‘qiydigan bo‘ldilar. Bemorlarni ham ko‘rib turardim. Erishgan tajribalarim tufayli men uchun davolash yo‘llari shunday keng ochildiki, buni ta’riflab berish qiyin. Shu bilan birga, ba’zan fiqhni o‘rganishda ham davom etdim va ana shu xususdagi munozaralarda ishtirok etib turardim. Bu vaqtda men o‘n olti yoshda edim.

Bu vaqtda Buxoroning podshohi Nux ibn Mansur edi. Ittifoqo u shunday bir kasallikka duchor bo‘lib qolibdiki, tabiblar bir fikrga keli-

sha olmabdilar. O‘qishga qattiq kirishganim sababli nomim ular o‘rtasida mashhur bo‘lib qolgan edi. Podshoh huzurida mening haqimda gapirishib, undan meni ham chaqirishni so‘rashibdi. Men tabiblar bilan birgalikda shohni davolashda ishtirok etganim uchun obro‘yim ortib ketdi.

Bir kuni shohdan kutubxonasiga kirishga va tibga oid kitoblarni mutolaa qilishga ruxsat so‘radim. Shoh menga ruxsat berdi.

Bu kutubxona haqida Ibn Sino shunday deb yozadi: «...kutubxona bir necha xonalardan iborat edi, har bir xonada bir-birining ustiga taxlangan va kitobga to‘la sandiqlar mavjud edi. Bir xonada arab tilidagi kitoblar va she’rlar, boshqasida qonunshunoslik (fiqh)ga oid va shunday tartibda har bir xonada fanning qandaydir sohasiga oid kitoblar mavjud edi... Men bu yerda shunday kitoblarni uchratdimki, bularning nomini ilgari ko‘pchilik hech eshitmagan va men ham ilgari uchratmagan edim va keyin ham uchratmadim. Va lekin o‘sha kitoblarni o‘qib chiqdim. Ulardagi foydali tomonlarni o‘zlashtirdim... 18 yoshga kirganimda fanlarni mutolaa qilishni tugatdim».

Abu Ali ibn Sino har kuni ertalab uyidan chiqayotganida, uning eshigi oldida bemorlar ikki tomonga tizilishib qator o‘tirishar ekan. Uyidan chiqib ketayotgan vaqtida u bir tomonda o‘tirgan kasallarga qarab, ulardan hol-ahvol so‘rar va: «Siz falon narsa bilan kasalsiz, buning davosi falon narsa», deb o‘tib ketar ekan. Uyga qaytayotganida esa ikkinchi tomondagilarga qarab, ularning kasallariga davo bo‘ladigan narsani aytib o‘tar ekan.

Bir kuni u bir bemorga juda diqqat bilan qarab turibdi-da, unga lom-mim ham demasdan, boshqalardan hol so‘ragani o‘tib ketibdi. Bu holdan bemor juda xafa bo‘lib, hatto hayotdan ham umidini uzibdi. Uyiga qaytib kelib: «Men shu kasalimdan o‘lar ekanman. Agar o‘lmaydigan bo‘lganimda edi, Ibn Sino sal e’tibor berib qarardi, u bo‘lsa so‘rashga ham loyiq ko‘rmadi. Endi go‘r-u kafanimning hozirligini ko‘raveringlar», – debdi.

Shu tariqa bemor o‘zining o‘limini kutib yotibdi. Bir vaqt uyning burchagidagi teshikdan bir zaharli ilon chiqib, o‘rmalab kelaveribdi. Ilon uyning o‘rtasida turgan bir kosa sutga yaqinlashib, sutni o‘z domiga tortibdi, bir ozdan keyin ichgan sutni qaytadan kosaga qayd qilib tashlabdi. Buni kuzatib turgan bemor ilon iniga qaytib ketganidan keyin o‘zicha o‘ylab, baribir o‘lar ekanman, tuzalishimdan-ku hech darak yo‘q, kel, shu zaharli sutni ichay-da, o‘lsam o‘lib qo‘ya qolay, degan qarorga kelibdi. So‘ngra u sutni simirib ichibdi. Lekin bemor o‘lmay, aksincha tobora tuzala boribdi. Kundan kunga tuzalib borayotganini sezgan bemor o‘zining o‘lmaganini, balki sog‘ligi borgan sari yaxshilanayotganini aytib, e’tiroz bildirish niyatida Abu Ali ibn Sino oldiga boribdi. Ibn Sino uning ahvolini ko‘rib, juda hayron qolibdi va bemorga: «Sen ilon qayd qilgan yegulikni qachon va qanday qilib topding? Kasalingning davosi zaharli ilonning qaydi edi. Uni topishning iloji bo‘lmaganidan u kuni men sening kasalingni ham so‘rab o‘tirmagan edim», debdi. Shunda kasal Abu Ali ibn Sinoga qoyil qolib, bo‘lgan voqeani batafsil gapirib bergan ekan.

Allomaning ilmiy ijodi 18 yoshidan boshlanadi. U Nuh ibn Mansurga atab nafsoniy quvvatlar haqida risola, «Urjuza» tibbiy she’riy asari, o‘z qo‘shnisi va do‘sti Abu-l-Husayn al Aruziyning iltimosiga binoan, ko‘p fanlarni o‘z ichiga olgan «Al-Hikmat al-Aruziy» («Aruziy hikmati») asarini ta’lif etdi. Undan tashqari, boshqa bir do‘sti – faqh Abu Bakr al-Barqiyning iltimosiga ko‘ra, 20 jildli «Al-Hosil va-l-mahsul» («Yakun va natija») qomusiy asari hamda 2 jildli «Kitob al-bar va-l-ism» («Saxovat va jinoyat kitobi») ni yozdi.

Qoraxoniylar 999-yil Buxoroni zabt etib, somoniylar davlatini ag‘darganidan keyin Ibn Sino hayotida tashvishli, notinch va og‘ir damlar boshlanadi. Bunday vaziyatda Buxoroda ortiq qolish mumkin emas edi. Shu bois Ibn Sino o‘z yurtini tark etib, Xorazmga bosh olib ketadi.

Xorazmshohlar Ali ibn Ma'mun va Ma'mun ibn Ma'mun ilm-fanga e'tiborli hukmdorlar bo'lib, olimlarga ilmiy ijod uchun qulay sharoit yaratib bergan edilar. Shu bois bu davrda Xorazmning poytaxti Gurganj (Urganch)da zamonasining ko'pgina taniqli olimlari to'plandi. Yirik matematik va astronom Abu Nasr ibn Iroq, atoqli tabib va faylasuflar Abu Sahl Masihiy, Abul Xayr ibn Xammor va buyuk olim Abu Rayhon Beruniy shular jumlasidan. Ana shu ilmiy davraga 1005-yili Ibn Sino ham kelib qo'shildi.

Xorazmda Ibn Sino asosan, matematika va astronomiya bilan shug'ullandi. Bu sohalardagi bilimlarining chuqurlashib, ilmiy dunyoqarashining shakllanishida Ibn Iroq va Abu Rayhon Beruniy bilan bo'lgan ilmiy muloqotlar katta ahamiyat kasb etadi. Ibn Sinoning Aristotel ta'limoti xususida Abu Rayhon Beruniy va o'zining shogirdi Baxmanyor bilan yozishmalari tarixda mashhurdir. Ibn Sino Abu Sahl Masihiyning tibbiy tajribasi va bilimlaridan ham katta saboq oladi.

Biroq Xorazmda ham Ibn Sino ko'p yashay olmadi. Movarounnahrning ko'p joylarini o'ziga qaratgan Mahmud G'anaviy maktub yuborib, Xorazmdagi olim, shoirlarni uning ixtiyoriga yuborishni talab etgan. O'rta osiyolik tarixchi Nizomiy Aruziy Samarqandiyning (XII asrda yashagan) ma'lumoticha, Abu Ali ibn Sino Mahmud G'aznaviyning ixtiyoriga borishni istamagan va Xorazmdan Abu Sahl Masihiy bilan birga Qoraqum sahrosida juda ko'p qiyinchiliklarni boshidan kechirib, Gurgon shahriga boradi, yo'lda Abu Sahl Masihiy vafot etadi. Bu voqea, taxminan, 1011-yilga to'g'ri keladi.

Ibn Sino 1012 – 1014-yillarda Jurjonda yashaydi, lekin shu qisqa vaqt ichida uning hayotidagi muhim voqealardan biri – Abu Ubayd Abdulvohid Juzjoniy bilan uchrashadi. U Ibn Sinoga ham shogird, ham sodiq do'st edi. Juzjoniy Ibn Sino bilan olimning so'nggi damigacha, 25 yil davomida birga bo'ladi. Ibn Sino tarjimayi holining yozilib qoldirilishi, ko'pgina asarlarining ta'rifi va tartibga tushishi hamda ularning keyingi avlodlarga yetishida Juzjoniyning xizmati katta.

Juzjoniy (Ibn Sinoning Gurgon shahriga kelguniga qadar bo‘lgan biografiyasini uning o‘zidan eshitib) Ibn Sinoning tarjimayi holi va asosiy asarlarining ro‘yxatini yozib qoldiradi. Juzjoniy tufayli biz buyuk vatandoshimiz to‘g‘risida aniq ma’lumotlarga egamiz. Gurgonga kelishidan boshlab to umrining oxirigacha, ya’ni 1037-yilgacha Abu Ali ibn Sino Ray, Qazvin, Isfaxon, Hamadon kabi viloyatlarda sarson-sargardonlikda yashadi, vataniga qaytishga sharoit bo‘lmadi, tabiblik bilan shug‘ullandi, ba’zan vazirlik qildi, qamaldi, kitoblari, mol-mulki talon-toroj etildi, ammo tinmay mehnat qildi, buyuk asarlar yozib, kelajak avlodga qoldirdi, nomini va merosini abadiyga aylantirdi. Manbalarning guvohlik berishicha, Ibn Sino jismoniy jihatdan juda baquvvat bo‘lgan.

Abu Ali ibn Sinoning xotirasi zo‘r bo‘lgan ekan. U barcha kitoblarni bir marta o‘qir, ikkinchi bor o‘qimas ekan. Hikoya qilishlariga qaraganda, Abu Ali bir narsaga bir qarasa bo‘ldi, unga ikkinchi bir nazar tashlashga zarurat qolmas ekan. Bir gal Hamadonga kelayotganida yo‘lda musofirxonaga qo‘nganida, bir olimni ko‘ribdi. U bir kitob yozib, evaziga mukofot olish umidida uni Hamadon amiriga taqdim qilish uchun olib ketayotgan ekan. Eshitishiga qaraganda, Hamadon amiri ilm, san’atning qadriga yetadigan va bu sohalar ahlini taqdirlaydigan shaxs ekan.

Abu Ali ibn Sino kitobni bir ko‘rib berish uchun so‘rab olibdi. U kitobni bergisi kelmabdi, Siz tushunmaysiz, mayli varaqlab ko‘ring, debdi. Shayx Abu Ali ibn Sino uni olib varaqlashga tushibdi, nihoyat olim so‘nggi varaqni ko‘rib bo‘lgach, muallif: «Bo‘ldi, yo‘lga otlanishim kerak», – degan bahona bilan kitobni qaytarib so‘rab olibdi. Abu Ali ibn Sino uning kitobini qaytarib beribdi. Oradan ikki kun o‘tgach, Ibn Sino Hamadon amiri huzurida o‘tirsa, haligi olim amir dargohiga kirib, kitobini unga taqdim qilibdi. Shunda amir Abu Aliga murojaat qilib:

– Qani Shayxim, bu kitob qadrini belgilab bering-chi, taqdirlasa bo‘ladimi-yo‘qmi? – debdi.

Abu Ali ibn Sino kitobni qo‘liga olibdi-yu, sal-pal varaqlab ko‘rgan bo‘libdi. Shayx kiyimlarini o‘zgartirgani sababli haligi odam uni tanimabdi.

– Bu kitob, amirim, ancha asr ilgari ta’lif bo‘lgan asar, bu kishi uni ko‘chirib olib, o‘ziniki deb keltiribdi, men buni yoshligimda Buxoroda mutolaa qilganman, – debdi Shayx.

Olim amir oldida aytilgan bu gapdan cho‘chib ketib, o‘zi ta’lif qilganiga qasamlar ichibdi.

– Hamma vaqt ham qasamlar dalil bo‘la olmasligini bilursiz. Mana bo‘lmasa ikkalangiz kitobga tikilib turinglar, men yoshligimda o‘qiganimda xotiramda qolganini aytib turaman, sizlar uni kitobga solishtirib turasizlar.

Abu Ali ibn Sino shunday debdi-yu, kitobni boshdan oxirigacha yod o‘qishga tushib ketibdi. Kitob tugagach, qo‘rqqanidan olim dag‘-dag‘ titrab, ranglari oqarib ham ketibdi. U yaqindagina yozib tugatgan kitobini boshqa bir odam shunchalik yoddan aytib berishini hech kutmagan ekan.

Muallif nima qilishini bilmay, indamay kitobni olib, chiqib ketmoqchi ekan, Shayx to‘xtatibdi:

– Bir gal kitobni mening qo‘limdan olib ketganingiz yetar, endi olib ketolmaysiz, – debdi.

Shayx shunday degach, haligi odam musofirxonada ko‘rgan kishisi shu ekanligini payqabdi. U unga bir oz tikilib turibdi-da, birdan:

– Siz Abu Ali ibn Sinosiz, – debdi Shayxga va darhol unga qulluq qilib, qo‘lini o‘pibdi. – Men siz haqingizda ko‘p eshitgan edim, lekin xotirangiz haqida aytilgan gapga hech ishonmas edim, endi ishondim. Agar bu kitobni o‘zim yozmaganimda ham ishonmasmidim.

Abu Ali ibn Sino miyig‘ida kulib, olimga hazil-mutoyiba qilganini aytibdi va bu kitobni taqdirlash kerakligini amirdan so‘rabdi.

Abu Ali ibn Sino jahon madaniyatiga buyuk hissa qo‘shgan olimlardan biridir. Buyuk ensiklopedist olim sifatida u o‘z davri ilmining deyarli barcha sohalari bilan shug‘ullangan. 1014-yil Jurjondan Rayga, keyin Hamadonga keladi. Hamadonda dastlab saroy tabibi, so‘ng vazirlik mansabiga ko‘tariladi. Davlat ishlari bilan band bo‘lishiga qaramay, ilmiy ishlarini ham davom ettiradi va qator asarlar yaratadi. O‘zining mashhur falsafiy qomusi «Kitob ash-Shifo»ni ham shu yerda yozishga kirishgan. «Tib qonunlari»ning qolgan qismini ham shu yerda, Hamadonda yozib bitiradi.

«Tib qonunlari» (asl nomi «Kitob al-Qonun fi-t-tibb») o‘z davridagi tabobatning mufassal ensiklopediyasi bo‘lib, unda inson sog‘lig‘i va kasalliklariga oid bo‘lgan barcha masalalar mantiqiy tartibda to‘la bayon etilgan. Oldinlari tabobat, asosan, hunar hisoblanar va u bilan shug‘ullanuvchilar nazariy masalalarga unchalik ahamiyat bermay, uni amalda qo‘llash bilan cheklanar edilar. Ibn Sino esa asosan shu kitobida tabobatni ilm darajasiga ko‘tardi va yunon, rim, hind, Yaqin va O‘rta Sharq tabiblarining erishgan yutuqlariga tayanib, uning ham nazariy, ham amaliy tomonlarini chuqur ishlab chiqdi.

Olimning falsafaga oid eng yirik va muhim asari «Kitob ash-Shifo»dir. U 4 qismdan iborat:

1) mantiq – 9 qismga bo‘lingan: «al-madhal» – mantiqqa kirish; «al-maqulot»-kategoriyalar; «al-iborat» – interpretatsiya; «al-qiyos» – sillogizm; «al-burhon» isbot-dalil; «al-jadal» – tortishuv, dialektika; «as-safsata» sofistika; «al-xitoba» – ritorika; «ash-she’r» – poetika (she’r san’ati);

2) tabiiyot –bu yerda minerallar, o‘simliklar, hayvonot olami va insonlar haqida alohida-alohida bo‘limlarda gapiriladi;

3) riyoziyot – 4 fanga bo‘linadi; hisob (arifmetika), handasa (geometriya), astronomiya va musiqa;

4) metafizika yoki ilohiyot.

Abu Ali ibn Sino nazarida, ruh, aql, ishq kabi tushunchalar yaxlit falsafiy ta’limotning turli mavhumlari o‘laroq, o‘zaro vobastadirlar.

Shuning uchun Sharq mutafakkirlari bu tushunchalarning biri haqida gapira turib, albatta, ikkinchisini ham tilga olib o‘tganlar. Sababi, aql ruhiy yuksaltiruvchi kuch bo‘lsa, ishq barcha unsurlar hamda ruhning intilishi, harakatlanishini anglatuvchi quvvatdir. Zero, butun mavjudot doimiy harakatda va u nimagadir intiladi. Abu Ali ibn Sino ta’kidlab aytadiki, osmon o‘z javharida mukammal jismdir. Shu holatda u, xuddi falak jismlari Birinchi sabab bilan monandlikka intilgani kabi, ko‘proq sokinlikka moyildir.

Ishq – mavjudotning oliy qudrat tomon intilishidir. Har bir unsur, har bir jismda, jumladan, osmon jismida ham bu intilish mavjud. Zero, ishq – mutlaq ezgulikka o‘xshash uchun harakatda bo‘lish demakdir. Har bir jismdagi ana shu monand bo‘lishlik qobiliyatiga qarab, muhabbat darajasi belgilanadi. Mutlaq ruh ham, shunga ko‘ra, qobiliyati darajasida uni o‘z monandiga aylantiradi. Abu Ali ibn Sinoning «Ruh to‘g‘risida»gi («Kitob ash-Shifo»ning bir qismi) asarida ruhning moddiy dunyo bilan aloqadorlik xususiyatlari; faol aql, universal aql, hayulo (modda) va uning ruh bilan munosabati kabi falsafiy kategoriyalar xususida fikr yuritiladi.

Mutafakkir nur, ruh, ishq tushunchalarini o‘zaro jips aloqadorlikda tushuntiradi. Nur, ya’ni aql ruhni o‘ziga jalb qiladi, maftun etadi, mukammallikka yetaklaydi. Ana shu da’vat, kamolotga ishtiyoq – ishqning ijobiy xislatidir. Bizning ruhimiz – go‘yoki yuzlidir. U bir yuzi bilan pastga, jasadga qaragan bo‘lib, jismoniy tabiatiga ko‘ra, jinsiy harakatdan o‘zgani qabul etmaydi, yuqoriga – oliy sababiyatga qaragan ikkinchi yuz esa ana shu oliy sababiyatga xos va uning ta’siridagi fazilatlarnigina qabul qiladi.

Ruh shu ikki olam bilan aloqadorlikdadir. Yuqori olamga uni sof idrokiy aql bog‘lasa, quyi olamga faol aql bog‘lab turadi. Faol aql jism va ruh orasidagi vositachi sifatida, hissiy dunyo axborotini ruhga yetkazib turadi. Tahayyuliy (abstrakt) g‘oyalar, mavhum bilimlarni qabul qilishga qobil fikriy yoxud idrokiy aql esa moddiy olamdan

ajralgandir. U ruh bilan aqliy anglashiladigan shakllar orasida vositachidirkim, shu orqali aqliy anglashilgan olam jismlari o‘z takomiliga intilgan ruhga ta’sir etib turadi. Shunday qilib, ruhning takomili – odiy saodatga loyiqligi, yuqoriga qarab intilishi, tahayyuliy – tafakkuriy ezgulikka tomon harakat vositasida sodir bo‘ladi. Zero, ruh faqat o‘z manbai tomon intilishdan kamol topishi mumkin. Bu yo‘lda uning rahnamosi Aqldir.

Mazkur ta’limot allomaning «Risola fil-ishq» asarida yanada kengroq hamda yorqinroq bayon etilgan. Agarki Ruh o‘zining moddiy jismlarga yo‘naltirilgan tomoni ta’siriga berilsa, kishini ma’naviy qashshoqlik, baxtsizlik sari yetaklaydi. Ruhning farog‘ati ham chinakam kamol – yovuzlik (yomonlik)dan qutulib, moddiy olamdan ajralishi, uni ato etgan aqllar olami tomon parvozi bilan amalga oshadi. Inson ruhiyatining baxt-u kamoli, uning aloqachi uqula (agent – intelligensiya) bilan qo‘shilishi yoxud unga monandlikka erishishi orqali qo‘lga kiritiladi. Zero, ishq mohiyati – o‘zidan afzal va mukammalga qarab intilishi, uni idrok etish, balki tuyush, unga monand bo‘lish uchun qaratishdan iboratdir. Abu Ali ibn Sino barcha jonli va jonsiz mavjudotda ham ishq mavjud, ularning har biri, o‘z darajalariga ko‘ra o‘zgarishda, ko‘payish va yangilanishda, ya’ni kamolotga tomon intilishdadirlar. Chunki kulli ashyo tabiiy ravishda Birinchi sababga qarab intiladi.

Abu Ali ibn Sino boshqariladigan har bir alohida javhar tabiatiga ko‘ra, Sof Xayrning yagona javharidan yaralgan juz’iy (individual) xayr hisoblanmish o‘z takomiliga intiladi... barcha mavjud ashyolar tabiiy istakka – tug‘ma ishqqa egadirlar. Bundan chiqadigan mantiqiy zarurat shuki, ishq ashyo (narsa, unsur)larning yashash sababidir. Bu kabi ishq o‘simliklar va hayvonlarda ham mavjud, ammo ulardagi ishq oliy ruh sari intilish va u bilan yaqinlashish qobiliyatidan mahrum. Bunday qobiliyat faqat inson Ruhidagina yashaydi. Insoniy muhabbat go‘zallikka (chiroyli shakllar, yoshlik, navqironlik, go‘zal

chehralarga) mehr qo'yishda, aqliy, ma'naviy va hissiy kamolot uchun kurashda namoyon bo'ladi. Inson hech qachon erishilganiga qanoat qilmaydi. U hamma vaqt bilmaganini bilishga, hali qo'lga kiritilmagan yutuqqa muyassar bo'lishga, musaffolik va go'zallikni idrok etish bilan ruhni qoniqtirishga ruju qo'yadi. Ishqning har bir ko'rinishi allaqachon erishilgan yoxud erishilishi lozim bo'lgan narsada, ya'ni sevganiga yetishmoqda zuhurlanadi. Xayrning fazilati ko'paygan sari ishq sohibining qimmati oshadi, shunga ko'ra, xayrga nisbatan ishq ham kuchaya boradi.

Modomiki, ishq kishining istak-xohishi, sa'y-u ko'shishlarini ifodalar ekan, bu harakat pastga yo'nalsa hirsiy, hayvoniy quvvatlar g'olib kelib, Ruh yemiriladi. Natijada inson baxtsizlikka uchrab, tubanlashadi. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun hayvoniy quvvatlarni insoniy quvvatlarga bo'ysundirib, nafsi oqilaga to'la itoat ettirish lozim. Shundagina aql, bu demakkim, ishq rivoj topib, ruh musaffolashadi. Hayvoniy quvvatlar – nafsi oqilaning holati, kerakli o'rindagina foydalaniladigan qurolidir. Shu boisdan, mahbubaning go'zal chehrasini ko'rganda, u bilan aloqa qilishga intilishdan tiyilish kerak. Sof muhabbat oshiq ham ma'shuqa yuragi bilan ruhning qo'shiluvida namoyon bo'ladi. Abu Ali ibn Sino «Risola fil-ishq» asarida ta'kidlaganidek: «Agar odam go'zal qiyofani hayvoniy quvvatni qondirish uchungina sevsa – bu qoralashga, hatto mahkum etilishga loyiqdir... Mabodo, kishi dilkash chehrani aql-idrok bilan sevsa, hali tushuntirganimdek, buni baland rutbaga erishish vositasi, ezgulikka yaqinlashish deb hisoblash lozim. Chunki u Birinchi manba ta'sirini – sof ishq chashmasini yanada yaqinroq his etadi, ko'proq oliymaqom, oliymartabalilarga monandlikka erishadi. Bu esa uning xulqi nafis, dilkash ham navqiron bo'lishining garovidir».

Zero, zukko ham farosatli kishilar, oqil faylasuflar «Qalb mehvarida yashiringan, sof muhabbatni tashkil etadigan» hislardan bahra olishga oshiqadilar. Shunday qilib, muhabbat oxir-oqibatda shaxsni

ruhan olijanob etishga yordamlashadi, uni ezgulik manbaiga yaqinlashtiradi. Chinakam ilohiy ishq ana shudir. Allomaning niyati shuki: u yaxshi inson uchun, har tomonlama yetuk, barkamol shaxs uchun kurashmoqda! Ezgulikni sevish, bilim-ma'rifatli bo'lish, past-tuban axloqdan jirkanib hamisha yuksaklikka, halollik va poklik sari tinmay harakat qilish inson zotining burchi bo'lmog'i lozim. Darhaqiqat, «maqsad oqil va odil bo'lish, irfon fayz-u oriyat kasb etishdir», deydi allomaning o'zi ham risolada.

Ibn Sinoning yana bir falsafiy asari «Kitob an-Najot» «Kitob ash-Shifo»ning qisqartirilgan shakli. Olimning falsafiy qarashlari yana «Al-ishorat va-t-tanbihot» («Ishoralar va tanbehlar»), «Hikmat al-mashriqiyn» («Sharqchilar falsafasi»), «Kitob al-ishorat fi-l-mantiq va l-hikmat» («Mantiq va falsafaning ishoralari») fors tilida yozilgan. «Donishnoma» («Bilim kitobi») va boshqa turli hajmdagi falsafiy risolalarida hamda «Tayr qissasi», «Salomon va Ibsol», «Hayy ibn Yaqzon», «Yusuf haqida qissa» kabi falsafiy mazmunli badiiy qissalarda o'z aksini topgan.

Shuningdek, «Ayniya» qasidasida u ruh to'g'risida mushohada yuritib, inson tabiatidagi ziddiyatlarni ko'rsatgan, nokas-u nojins shaxslardan nafratlanib, jaholat va hasadni tanqid qilgan bo'lsa, «Hayy ibn Yaqzon» («Uyg'oq o'g'li Tirik»), «Tayr qissasi» («Qushlar»), «Salomon va Ibsol» falsafiy qissalarida bir qator tamsiliy obrazlar yaratib, hayotiy kuzatishlarini, estetik-falsafiy qarashlarini ifodalaydi. Bu qissalarning hammasi ham inson, uning taqdiri to'g'risida hikoya qiladi. Komil inson fazilati nimadan iborat, degan savolga javob qidiradi. Mazkur falsafiy qissalar ma'nolari g'oyat teran va ko'p narsalarga dalolat etuvchidir.

Fardjon qal'asida, mahbuslikda yozilgan «Tayr qissasi» tadqiqotchilar fikricha, muallif ahvolini ifodalovchi asardir. Tutqunlikdagi azob-uqubat, dushmanlar ta'qibi unda ramziy yo'sinda bayon etilgan. Ammo, bu hikoyat o'zining hayotiy asosidan ham kengroq va

teranroqdir. Unda ruh tutqunligi, jism tuzog'ida azob chekishi, do'stlari – aql va bilim ba'zan yordam bermasligi, dushmani – nafs domiga giriftor bo'lishi g'oyalari ham tushuniladi. Darhaqiqat, Abu Ali ibn Sino hikoyatda do'stlik fazilatlari, insoniylik haqida fikr yuritayotib, birodarlik shartini o'rtaga soladi: «Ey birodarlar, es-hushingizni jamlang va do'stlaringiz uchun yuzdan pardani ko'taring. Qachonki, bir-birlaringizning ichki sirlaringizni pardasiz ko'rib, bir-birlaringiz kamoliga sababchi bo'lsangiz – baxt sizga yuz ko'rsatadi».

Bu g'oya, ya'ni aql takomili va ruhning quvvat topib poklanishi orqali jismni yayratishi, halokatga olib borishi «Hayy ibn Yaqzon» qissasida yanada izchilroq yoritilgan. Abu Ali ibn Sino aql kuchiga juda katta baho beradi va u orqali ruh kamolotini inson hayotining mohiyati deb tushuntiradi. Asarda tasvirlanishicha, bosh qahramon o'z oshna-og'aynilari bilan shahar tashqarisiga sayrga chiqib, bir nuroniy cholni uchratadi va u bilan suhbat quradi. Mo'ysafid – Hayy ibn Yaqzon o'zi haqida hikoya qilar ekan, tinglovchini xayolan dunyo sayohatiga olib chiqadi. «Hunarim jahonni sayohat qilish va barcha ilmlardan xabardor bo'lishdir», – deydi u. Chunki u aql timsoli. Dunyoni faqat aql bilan bilish mumkin – mazkur ramz ma'nosi shu. Shuning uchun u mantiq ilmining foydasini alohida ta'kidlaydi. «Yomon oshnolar» – g'azab, yolg'on, qalloblik, shahvatparastlik, ochko'zlik, hirs, hasad kabi tuban xislatlar zararini ko'rsatib, ularni jilovlab olish, iloji bo'lsa, ulardan butunlay qutulishga da'vat etadi. Asar qahramoni xayoliy dunyo sir-u asrori bilan tanishtirish haqidagi iltimosiga mo'ysafiddan rad javobini oladi. Chunki aql rahnamoligiga erishish uchun dastlab g'arazli oshnolardan qutulish lozim edi.

Suhbat davomida mo'ysafid dunyoning tuzilishi, materiya, ong, hayvonot va o'simliklar olami xususida, ularning inson ruhi bilan aloqasi, vujudining tuzilishi haqidagi dualistik qarashlarini qatorlashtiradi. Odam organizmidagi sezgilar, dunyoni bilish yo'llari, inson tabiatidagi xilma-xil xislatlar, jaholat va ilm, shakl va mazmun, ruhning

modda bilan mukammal bo‘lib, o‘zgarish qonuniyati kabi Abu Ali ibn Sinoning ilmiy-falsafiy asarlarida zikr etilgan qarashlar endi badiiy ramziy-tamsiliy obrazlar vositasida tushuntiriladi. Mo‘ysafid xayolan falakka ko‘tarilib, sayyoralar, burjlar, ularning xususiyatlari, ular haqidagi asotir-rivoyatlarni keltiradi. Bu sayyoralarda manzil qurgan kishilar fazilatlari, falak bilan ruhlar, farishtalar, faol aql, nazariy aql va amaliy aql kabi tushunchalar, ularning vazifalari aytiladi. Asar oxirida podshoh huzuri – abadiyat quyoshi manziliga yaqinlashish va undan keladigan quvonch tavsifi beriladi.

Ibn Sinoning dunyoqarashi Aristotel ta’limoti va Abu Nasr Forobiy asarlari ta’sirida shakllandi. Uning fikricha, falsafaning vazifasi mavjudotni, ya’ni barcha mavjud narsalarni, ularning kelib chiqishi, tartibi, o‘zaro munosabati, bir-biriga o‘tishini zaruriyat, imkoniyat, voqelik, sababiyat olamlari asosida, har tomonlama o‘rganishdan iborat.

Abu Ali ibn Sinoni Sharqda falsafiy she’riyatni boshlab bergan shoir sifatida bilishadi. Chindan ham, bu qomusiy olim olam va odam haqidagi ilmiy-falsafiy qarashlarini birinchi bo‘lib she’riyatga singdirgan. Xususan, ruboiylarida uning teran ilmiy fikrlari, keng falsafiy mushohadalarini ko‘ramiz. Buyuk faylasuf olamning Alloh tomonidan yaratilganini e’tirof etgan holda, tabiat hodisalari, inson vujudining faoliyatiga real qaragani, dunyoviy ilmlar rivojiga katta hissa qo‘shganini yaxshi bilamiz. Ayniqsa, tib ilmida u shunchalik ilgarilab ketdiki, o‘z davrida u davolay olmagan kasallik bo‘lmagan hisob. Zamonasining barcha olim-u donishmandlari uning bu boradagi beqiyos ilmi va iste’dodiga tan berganlar. Shuning uchun ham tibbiyot ilmining bobokaloni faxr va armon bilan yozgan ediki:

Ko‘k toqigacha yer qa’ridan asli azal,
Har qancha tugun bo‘lsa, aql ayladi hal.
Har makr-u firib bandini yechsam-da tugal,
Ko‘nglimda tugun bo‘lib faqat qoldi ajal.

Ma'lumki, ilm – tubsiz bir ummon. Qancha ko'p o'qiganingiz sari shuncha kam narsani bilishingizni anglab boraverasiz. Mutafakkir shoir Alisher Navoiy: «Bo'ldi o'z nodonligimni anglamoq donoligim», – deb bejiz aytmagan. Ibn Sinoning zamonaning barcha ilmlarini egallab, tun-u kun tafakkur qilish natijasida dunyodagi hamma narsaning sir-sinoatiga yetdim, menga ma'lum bo'lmagan narsa qolmadi, lekin bilimim haqida chuqur o'ylasam, hech narsani bilmasligim ma'lum bo'ldi, mazmunidagi mana bu ruboiysi shu xususda:

So'z qolmadi parda ichra hech ma'lum emas,
Dunyoda biror sir men uchun mavhum emas.
Men ma'rifatingda ko'p tafakkur qildim,
Ma'lum bo'ldi: hech narsa ma'lum emas.

Olim fan va ma'rifat bayrog'ini baland ko'tarib chiqqan mutafakkir edi. U ilm-ma'rifat tarqatishga odamlarni targ'ib qilib, haqiqiy musulmon mavjud bilimlarni egallasa, o'shandagina u haqiqiy musulmon bo'la oladi, deb tushuntiradi. Bu bilan u din olimlarining tor g'oyasi bo'lmish, «dunyoda faqat toat-ibodat bilan shug'ullanish kerak, bu dunyo vaqtincha dunyo», deydigan bo'lmag'ur fikrlarga qarama-qarshi chiqdi. Shu sababli ham din ayg'oqchilari Abu Ali ibn Sinoni kofirga chiqarib qo'yadilar, hatto uni Qur'onga nazira yozgan, deb ham ayblaydilar, lekin Abu Ali ibn Sino ularga qarshi g'azab bilan otashin satrlarni yozadi:

Kufri chu man g'azof va oson nabuvad,
Mahkamtar az iymoni man iymon nabuvad.
Dar daxr chu man yakiy va on ham kofir,
Pas dar hama daxr yak musulmon nabuvad.

Tarjimasi:

Mening kufrimni ayblarga ko'nglimdan o'zga sulton yo'q.
Bu yorug' olamda maning pokiza iymonimdek iymon yo'q.
Jahon ahli ichinda bir musulmon men erdim do'stlar,
Agar kofir ersam men ham bu dunyoda musulmon yo'q.

Zamondoshlari Ibn Sinoni «Shayx ar-rais» («Donishmandlar sardori, allomalar boshlig'i»); «Sharaf al-mulk» («O'lka, mamlakatning obro'si, sharafi»), «Hujjat al-haqq» («Rostlikka dalil»), «Hakim al-vazir» («Donishmand vazir») deb ataganlar. Jahon fani tarixida Ibn Sino qomusiy olim sifatida tan olingan, chunki, u o'z davridagi mavjud fanlarning qariyb barchasi bilan shug'ullangan va ularga oid asarlar yozgan. Olim asarlarini o'sha davrda Yaqin va O'rta Sharqning ilmiy tili bo'lgan arab tilida, ba'zilari (she'riy va ayrim falsafiy asarlari)ni fors tilida yozgan. Turli manbalarda uning 450 dan ortiq asar yozganligi qayd etilgan, lekin bizgacha ularning 274 tasi yetib kelgan. Shulardan 80 tasi falsafaga, 43 tasi tabobatga oid bo'lib, qolganlari mantiq, psixologiya, tabiiyot, astronomiya, matematika, musiqa, kimyo, axloq, adabiyot va tilshunoslikka bag'ishlangan.

Allomaning «Al-qonun fi-t-tib» asari Abu Ali ibn Sinogacha Sharq, Gretsiya va Rimda yaratilgan tibbiyot haqidagi ilm va shaxsiy tajriba yakunigina bo'lib qolmay, bu fanni o'z davri uchun hayratomuz yuqori darajaga ko'targan asardir. XII asrdayoq Xerardo tomonidan «Tib qonunlari» va «Ash-shifo» lotin tiliga tarjima qilingan. 1279-yili Natan ta Meati Rimda «Tib qonunlari»ni ivrit tiliga tarjima qilgan. Shu o'rinda olim ismining yevropacha transkipsiyasi haqida to'xtalsak, tarjimon «Ibn Sino» nomini yahudiy variantida «Aben Sina» deb bergan. U borib og'zaki tilda «Aven Sina»ga, bu variant lotin transkripsiyasida «Avitsenna»ga aylangan. Olim asrlar davomida butun Yevropada shu ism ostida mashhur bo'lgan.

Ibn Sinoning jahon fani va madaniyati rivojiga qo'shgan hissasini e'tiborga olib, Jordano Bruno Ibn Sinoni qadimgi Yunonistonning buyuk faylasufi Aristotel, tabib (vrach) Galenlar bilan teng qatorga qo'ysa, A. Dante o'zining «Ilohiy komediyasi»da olimni Ptolomey, Yevklid, Gippokratlarga tenglashtiradi. Nemis faylasufi L. Feyerbax olimni «mashhur tabib va faylasuf» desa, Hindistonning buyuk davlat arbobi J. Neru o'zining «Hindistonning ochilishi» nomli asarida

Markaziy Osiyo olimlarini tilga olar ekan, Ibn Sino nomini alohida ta'kidlab: «Ulardan eng mashhuri, tabiblar (vrachlar) podshohi degan nomni olgan buxorolik Ibn Sino (Avitsenna)dir», deb hurmat bilan tilga oladi.

Shunday qilib, Abu Ali ibn Sinoning jamiyat va inson, davlat va huquq, jinoyat, oila va nikoh haqidagi qarashlari asosidagi adolatparvarlik g'oyalari yotadi. Umuman, Ibn Sino ham boshqa ilg'or fikrli allomalar singari xalqlar va davlatlar o'rtasida tinchlik bo'lishini, zolim shohlar o'rnida adolatli, ma'rifatparvar shohlar va hokimlar davlatni boshqarishini, shuningdek, jamiyatda ilm-fan taraqqiy etishini orzu qilgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Sharq Uyg'onish davriga oid qanday ma'lumotlarga ega bo'ldingiz?
2. Bag'dod Ma'mun akademiyasi namoyandalari haqida gapiring.
3. Muhammad al-Xorazmiyning qanday asarlarini bilasiz?
4. «Dixi Algoritmik» atamasi sizga nimani anglatadi?
5. Ahmad al-Farg'oniyning asarlari tabiiy ilmlarning qaysi sohasiga bag'ishlangan?
6. Ahmad al-Farg'oniyning qaysi xizmatlari uchun Yevropada «Al-Fraganus» deb atashadi?
7. Abu Nasr Forobiy faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
8. Muallim as-Soniy unvoniga sazovor bo'lishining sababi?
9. Abu Rayhon Beruniy qaysi fanlarga asos soldi?
10. Nima uchun Abu Rayhon Beruniy asarlari juda murakkab o'qiladi?
11. Abu Rayhon Beruniy kashfiyotlari haqida gapirib bering.
12. Abu Ali ibn Sino tabobat ilmining sultoni ekanligiga ta'rif bering.
13. «Kitob ash-Shifo» asari fanning qaysi sohalariga bag'ishlangan?
14. Abu Ali ibn Sinoning ilmiy merosi haqida yana nimalarni bilasiz?

Asrlar davomida ezgu g'oyalarni tarannum etib, badiiy ijodning barcha janrlarida ko'plab betakror durdonalarning yaratilganligi o'zbek xalqi estetik tafakkurining mahsuli hisoblanadi.

Begali Qosimov

10-MAVZU. YOZMA ADABIY MEROS – SHAXS MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM VOSITASI

Reja:

10.1. «Shohnoma» – xalq zakovati va jasoratiga qo'yilgan nazmiy haykal.

10.2. Mahmud az-Zamaxshariyning hayoti, ilmiy faoliyati.

10.3. Mahmud Koshg'ariy – dunyo tan olgan tilshunos.

10.4. Yusuf Xos Hojib qomusiy bilim sohibi.

Tayanch so'z va iboralar

Qadimgi turkiy adabiyot, Abulqosim Firdavsiy, «Shohnoma», xalq ichidan chiqqan bahodirlar, o'quvchilar qalbini zabt etib, shuhrati so'nmagan, Zamaxshariy fazilatlari, notiqlik, nafis adabiyotga oid, arab tili grammatikasi, Mahmud Koshg'ariy dunyo tan olgan tilshunos, lug'at to'plash, epik doston, turkiy tillar fonetikasi, Yusuf Xos Hojib, ilk didaktik, saodatga yo'llovchi bilim.

10.1. «Shohnoma» – xalq zakovati va jasoratiga qo'yilgan nazmiy haykal

Qadimgi turkiy xalqlar orasida forsiy adabiyotga mansub va eng qadimgi e'tiqodiy afsonalar asosida yuzaga kelgan Mitra va Anaxita,

Qayumas, ayniqsa, inson qavmiga ko‘p yaxshiliklar ko‘rsatgan, uning mashaqqatlarini yengillashtirib, turmushini farovon qilishga intilish, Ahriman kabi devlarning dodini bergan mard, odil podshoh Jamshid, shuningdek, Rustam va Siyovush haqida ham keng tarqalgan.

Qadimgi turkiy adabiyotda qasida, yig‘i (marsiya), qo‘shiq va to‘rtlik janrlari rivojlangan (Kultegin bitigi, Alp Er To‘nga marsiyasi, «Oltin yoruq»dagi yig‘i tasviri). Enasoy (Yenisey) bitiklarining aksariyati yig‘i janriga mansub. Bu adabiy yodgorliklar Markaziy Osiyo xalqlarining ko‘hna tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, madaniyati, san’ati, tili, adabiyoti, tafakkuri, tadrijiy o‘rganishda muhim manba bo‘libgina qolmay, muayyan badiiy qimmatga ham ega – ular turkiy adabiyotning shakllanish bosqichlarini ko‘rsatadi.

Arablar istilosi bilan turkiy xalqlarning musulmonlashuvi boshlandi. Davlat tili arab tili bo‘lib, u ijtimoiy-madaniy hayotning ham barcha sohalarini egalladi. IX – X asrlarda yashagan ko‘plab movarounnahrlik olim-u adiblar o‘z asarlarini o‘sha davrning rasmiy tili bo‘lmish arab tilida yaratganlar. IX asrning boshida somoniylar hokimiyatining o‘rnatilishi bilan fors tilining mavqei kuchaya boshladi – u badiiy adabiyot tili bo‘lib qoldi. Shuningdek, ba’zi falsafiy, tarixiy adabiyotshunoslikka oid asarlar ham fors tilida yozildi. Misol uchun, «Shohnoma»ning vujudga kelishi Somoniylar davlatining poytaxti Buxoro shahri mahsuli ekanligini qayd etamiz.

Arab tilining davlat tili maqomi darajasini olishi ko‘plab O‘rta Osiyolik allomalarning ijodida bu tilning zaif tomonlari qayd etilib, ilmiy-nazariy jihatdan yuqori bosqichga ko‘tarish, tahlil qilish ishlarini ham o‘z zimmalariga oldilar. Shunday allomalardan biri Mahmud az-Zamaxshariydir. Bu benazir inson arab tili bilan bog‘liq barcha sohalarda samarali ijod qilib, nafaqat islom olamida, butun dunyo ilm ahlini lol qoldirdi.

IX asrning boshlarida qoraxoniylarning hokimiyat tepasiga kelishi turkiy adabiyotning yangicha shakl va mazmunda taraqqiy etishi uchun

zamin yaratildi. Qoraxoniylar davlatining ilmiy-madaniy markazi Qashqarda fan, adabiyot va san'at rivojlandi. Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» va boshqa asarlar shu davrda yaratilib, turkiy yozma adabiyotning tamal toshini qo'yish barobarida, uning kelajagini ham belgilab berdi.

Abulqosim Firdavsiy (934 – 1030) – shoir va mutafakkir. Zamonasining barcha asosiy ilmlarini egallab, arab va pahlaviy tillarini chuqur o'rgangan. O'z davrining qomusiy olimi bo'lib yetishgani uchun ham, uni hakim deb ulug'lashgan. Yoshligidan she'rlar mashq qila boshlagan. Eron, Turon, Yunon va Hindiston olimlarining turli sohadagi asarlaridan yaxshi xabardor bo'lgan.

Abulqosim Firdavsiyning yoshlik yillari somoniylar davlatining gullab-yashnagan davriga to'g'ri keladi. Bu davrda Eron va Turon xalqlarining nafaqat ijtimoiy-siyosiy, balki madaniy-ma'naviy hayotida ham bir ko'tarilish bo'lgan. O'zining kimligini anglash va uni boshqalarga ham ko'rsatish maqsadida ular Eron va Turonning shonli tarixini to'plashga intiladilar. Shu maqsadda qadimgi afsona va rivoyatlar, buyuk shohlar va bahodirlar tarixi to'planadi va yoziladi. Bu boradagi intilishlarni somoniy hukmdorlar qo'llab-quvvatlab turganlar va to'plangan ulkan manbalarni she'rga solishni Abu Mansur Daqiqiydan so'raganlar. Lekin shoir endigina ming bayt ijod qilganda, fojiali ravishda o'ldirilgach, Buxoro amiri Nuh ibn Mansur Somoniy Abulqosim Firdavsiyni huzuriga chaqirib, unga chala qolgan «Shohnoma»ni nihoyasiga yetkazishni buyuradi.

Bundan maqsad shonli tarixi va buyuk sha'n-shavkatiga ko'ra Eron–Turon xalqlarining arablardan kam emasligi, balki ustunligini ko'rsatish va ularga qarshi kurashda foydalanish edi. Vatanga va uning buyuk tarixiga muhabbat ruhida tarbiyalangan, bolalikda qadimgi afsona va rivoyatlar, qahramonlik qissalari, jangnomalarni jon qulog'i bilan tinglab ulg'aygan Abulqosim Firdavsiyning o'zi ham xalq ichida yurib, ularni yozib olgan, ko'plab og'zaki va yozma manbalarni to'plagan.

Abulqosim Firdavsiy 50 podshohlikdan iborat 4 ta sulola misolida Eron va Turon xalqlarining to‘rt ming yillik tarixini yuksak mahorat bilan qalamga olib, 60 ming bayt (120000 misra)dan iborat muazzam «Shohnoma» ustida u 30 yildan ortiq ishlagan. Tadqiqotchilar asarni uch qismga bo‘ladilar: birinchi bo‘limda eng qadimgi afsonalar qayta ishlanib, nazm ipiga terilgan bo‘lsa, ikkinchi bo‘limda xalq qahramonlari haqidagi rivoyat-u qissalar badiiy talqin qilinadi; uchinchi bo‘limda tarixiy shohlar hayoti tasvirlangan «Shohnoma» eng qadimgi davrlardan boshlanib, sosoniylar shohi Yazdigard III davrida arablarning Eronga bostirib kirishi bilan yakunlanadi.

Mavzu ko‘lami, obrazlar olami, qahramonlarning ko‘p va xilma-xilligi, g‘oyaviy motivlari va ko‘tarilgan masalalar jihatidan jahon adabiyotidagi eng katta epik asar. «Shohnoma» garchi shohlar kitobi deb atalsa-da, barcha kurashlar va qahramonliklar xalq ichidan chiqqan bahodirlar tomonidan amalga oshirilgan. Aslida, Vatan va xalq yo‘lida jonini tikkan yuzlab fidoyi qahramonlar obrazi yaratilgan. Podshohlar bahonasida xalq, uning tarixi, qadriyatlari, qahramonliklari ulug‘langan. Ayni jihatdan «Shohnoma» – xalq zakovati va jasoratiga qo‘yilgan o‘ziga xos nazmiy haykal.

«Shohnoma»ning asosiy g‘oyasi – vatanni ulug‘lash, xalq qudrati va zakovatini ko‘z-ko‘z qilish, millat farzandlarini vasf etish va shu orqali ularni birlikka, markazlashgan davlat qurishga chaqirish, vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik va tinchliksevarlikni madh etish, ezgulik, oliyjanoblik, halollik, mardlik, mehnatni taranum etib, qonli urushlar, yovuzlik, jabr-u zulm, adolatsizlik, munofiqlikni qoralashdan iborat.

Yerimiz, suvimiz, farzandimiz deb,
Xotin, bola-chaqa, dilbandimiz deb,
Birma-bir jonimiz etamiz fido,
Vatanni dushmanga bermaymiz aslo!

Ammo bu degan gap, «Shohnoma»ning butun badiiy boyligi, uning rang-barangligi faqat vatanparvarlik va oddiy mehnat ahliga bo‘lgan

mehr-u muhabbatdangina iborat, deyish bu ulkan va murakkab masalani jo'nlashtirishga olib kelar edi. Zero, Abulqosim Firdavsiy yaratgan ulkan dostonni turli-tuman g'oyaviy, mafkuraviy va badiiy javohirlarga boy ulkan bir dengizga qiyos etgulikki, unga sho'ng'igan har bir g'avvos o'ziga xos durdona, ajib javohir olib chiqadi, ammo bu xazinaning tubi ko'rinmaydi. Uning afsonaviy, tarixiy rivoyatlari, ishqiy poemalari, lirik chekinishlaridagi badiiy boyliklar son-sanoqsizdir.

«Shohnoma»dek salmoqli va badiiy yuksak asari bilan Abulqosim Firdavsiy forsiy tilning beqiyos qudratini namoyish qildi, uning she'riyat tili sifatidagi mavqeini mustahkamladi. Bu haqda shoirning o'zi asar xotimasida shunday deydi:

Obod binolar ham bo'lg'usi xarob,
Ularni yemirar yomg'ir va oftob.
Nazmdan yaratdim bir qasri baland,
Yomg'irlar, shamollar unga ne pisand.
O'ttiz yil mehnatga o'zni urdim men,
Forsiyda Ajamni tiriltirdim men.
Endi men o'lmasman, tirikman mudom,
Chunki so'z urug'in sochganman chunon...

Lirik chekinishlarda shoir tiriklikning azaliy va abadiy muammolari bilan bog'liq fikr-mulohazalarini ham yuksak mahorat bilan bayon etadiki, ularning ko'pi hikmat kabi jaranglab, xalq maqol-matallariga aylanib ketgan:

Taqdir yomonlikni ko'rganda ravo,
Saboq ol undan ham, topa ol ziyo.

Birovga sog'insa har kim yomonlik,
Nihoyat ul o'zi topmas omonlik.

Hunar bilan aqling birikkan hamon,
Har ish bu jahonda yurishgay ravon.

Abulqosim Firdavsiy o‘zining bu ajoyib asarini yozib tamomlagan vaqtda, o‘z ichki qarama-qarshiliklari natijasida zaiflashgan Somoniylar davlati Qoraxoniylar va G‘aznaviylar hujumiga bardosh berolmay, yemirilgan edi. Qarib qolgan shoir, umrining eng yaxshi davrini sarf qilib yozgan bu asarini tortiq qilish uchun munosib kishi qidirib yigirma yilcha kutganini ko‘rsatib:

Poyonsiz chekib ranj bisyor yil,
Bu ishni tugatgan hamon shod dil.
Vale baxsh etarga munosib odam
Topilmay, dilimni bosib qayg‘u-g‘am...
Yigirma zimiston, yigirma bahor
Qidirdim bu ganjga loyiq tojdor. –

deydi va ortiqcha kutishga toqati qolmagan paytda G‘aznada Sulton Mahmud taxtga o‘tirganini yozadi.

Abulqosim Firdavsiy oldida uch yo‘l mavjud edi. Biri asarni Qoraxoniylar saroyiga olib borish, ammo ular asosan turkiy qabilalardan bo‘lganliklari uchun yaxshi qabul qilmasliklari mumkin edi. Eronda esa Oli Buya sulolasi hukmronlik qilar, hali arab tili va arab xalifaligining mavqei kuchli edi. Musulmonlikdan avvalgi davrni madh etuvchi, arab bosqinchilariga qahr-g‘azab bilan to‘lgan asarni ular ham qabul qilmasligi turgan gap edi. Nihoyat, Abulqosim Firdavsiy G‘aznada o‘z saroyiga olimlar va adiblarni to‘playotgan Mahmud G‘aznaviyni tanlaydi.

Hukmdor shunday shoirga yetishgani uchun Xudoyi taologa shukurlar qiladi. Shunda Sulton majlis ahliga qarab Ayozning xatti haqida bir ruboiy aytishni buyuradi. Shoirlar Abulqosimga ishora qilishadi. U badiha tarzida ruboiy to‘qiydi. Sulton buni eshitib, «omon bo‘l ey Firdavsiy, majlisimni Firdavs bog‘idek obod qilding», deydi-da, unga in’omlar beradi. Hukm qiladiki, bundan buyon uni Firdavsiy deb ulug‘lasinlar.

Mo‘tabar manbalarda «Shohnoma»ning muqaddimasida Abulqosim Tusiy Sulton dargohi a’yonlaridan bir nechtasini madh qilgan.

Hukmdorning vaziri Xoja Hasan Maymandiyni, shoir shia va u esa nosibiy (Alini tan olmaydigan)lar toifasidan bo‘lganligi uchun tilga olmagan. Abulqosim Firdavsiyning do‘stlari unga nasihat qilib, Maymandiyni madh etishga undaganlar. Ammo u qabul qilmaydi: «Mening nomim nazm bilan boqiy qoladi. Sulton karami bilan emas, devon mimnatini tortmayman». E’tiroz bildiruvchilar bu gapni Xoja Hasan Maymandiyga yetkazadilar va uning dilida adovat qo‘zg‘atdilar.

Abulqosim Firdavsiy muqaddima yozib, hazrati Sultonga keltirgach, asar g‘oyat maqbul va manzur bo‘ladi. Mahmud G‘aznaviy Xoja Hasan Maymandiyga: «Yuz ming dirham qizil tillani Abulqosim Firdavsiyga jo‘nating, Odam Atodan shu kungacha hech kim bunchalik nazm aytmagan va ayta olmaydi ham», deydi. Shoirga nisbatan g‘arazini diliga tugib yurgan vazir fursatni g‘animat bilib dedi: «Sulton himmati va Abulqosim Firdavsiy she’rini qiyoslaganda bu in’omni ikki bor ko‘paytirmoq lozim. Shunda ham uning haqi ketadi. Ammo oz-ozdan bermoq lozim». Sultonning g‘azabi qaynab, «nima xazinamda bunchalik zar yo‘qmi», deydi. Vazir esa: «Sultonim, agar istasa undan yuz ming chandon ortig‘i topiladi. Ammo odam bunday katta boylik oldida hayratdan va xursandlikdan o‘lib qolishi mumkin. Unda hayf bo‘ladi, garchi shoir rofiziy va mu’taziliy bo‘lsa ham...» – deydi.

Mahmud G‘aznaviy mutaassib odam edi. Bu so‘zlar unga yomon ta’sir qildi va vazirga: «Bilganingni qil. Ilojini topib uni rozi qilish yo‘lini top», dedi. Vazirning buyrug‘i bilan oltmish ming dirhamni Abulqosim Firdavsiyga olib boradilar. Shoir hammomda edi. Uyiga kelsa, unga pul xaltasini berishadi. Qizil tilla bo‘lsa kerak deb faraz qiladi. Kumush ekanligini ko‘rib, dilgir bo‘ladi. Xoja Hasan uni aldagani ma’lum bo‘ldi. Mablag‘ning yigirma ming dirhamini hammomchiga, yana yigirma mingini bo‘zachiga, qolgan yigirma mingini uni olib keltirgan kishiga berib, «Sultonga mening ta’zimimni yetkaz. Mening bu xizmatim nomimning boqiy qolishi uchun qilingan, foniy mol-u dunyo uchun emasligini ham aytgin», – deydi.

Bu gap Sultonga yetgach, Xoja Hasanga g‘azab qiladi: «Sen qo‘zg‘ading shu fitnani. Biz endi shoirlar orasida gap bo‘lamiz, badnom qilding». Xoja Hasan deydi: «Ey shohim, Sultondan nima kelsa, raiyat uni ulug‘lashi lozim. Unga bir bo‘lak kesak beriladigan bo‘lsa ham, uni xor qilmasligi lozim edi. Kam hurmat va iltifotsizlik qilmasligi lozim. U odam ahmoq ekan. Sizning in’omingizni xor qilibdi». Sultonning avzoyi o‘zgarib, deydi: «Farmonim shu – bundayin qarmatiyni fil oyoqlari ostiga tashlasinlar». Abulqosim Firdavsiy uning oyog‘iga yiqilib, «Shohim, bu xususda shubhangiz bor ekan, shoh fikriga qarshi chiqib bo‘lmaydi. Ammo Sulton mulklarida musulmonlarga zid bo‘lgan har millat odamlari borki, hashamatingiz soyasida yashamoqdalar. Ne bo‘lgayki, bu qulingizni ham ularning biri qatorida ko‘rsangiz-u, u o‘limdan qolsa». Bu gaplardan Sulton xijolatda qolib, deydi: «Joningizga omonlik beraman. Ammo bu dargohdan ketishingiz lozim». Abulqosim Firdavsiy tashakkur aytib chiqib ketadi. U Ayoz bilan yaqin bo‘lganligi sababli, qog‘ozga bir necha bayt yozib beradi-da, yigirma kundan keyin Sultonga berasan, deydi. O‘zi esa G‘aznadan chiqib ketadi. O‘sha muddat yetib kelgach, Ayoz qog‘ozni Sultonga beradi. Sulton ishrat bilan mashg‘ul edi. Uni o‘qish uchun Unsuriyga beradi.

Shohlardan bo‘lsaydi u, shohga padar,
Kiygizgan bo‘lardi menga toji zar.
Agarda onasi bo‘lsaydi xondan,
Tillaga ko‘mardi meni naq sondan.
Ulug‘lar zotidan bo‘lmagan-chun shoh,
Ulug‘lar nomidan bo‘lur dil siyoh...
Achchiq mevali bir daraxtni agar,
Jannatning bog‘iga ko‘chat qilsalar,
Kavsardan suv ichsa chanqagan mahal,
Suv emas, bersalar sharbat-u asal,
Yetilgach, hosil ham beradi axir,
Va lekin mevasi bo‘ladi taxir...

Zoti pastlarga hech umid bog'lama,
Qaro tun oqarmas, diling dog'lama.
Jahongirning nomi bo'lganida pok,
Bilimdonlar dili bo'lmas edi chok.
Ranjigan shoir hajv yaratsa agar.
Yangrar u qiyomat kuniga qadar.

Sulton Mahmud G'aznaviy unda o'zining hajv qilganligini bilib, g'azabi qaynaydi. Lashkar naqiblariga buradi: «Kimki Abulqosim Firdavsiyni keltirsa o'n ming dinor beraman», deydi. Ular muddat so'radilar. Qidirib, shoirni topolmaydilar. Shu sabab bo'ladi-yu, Sulton Mahmud Xoja Hasan Maymandiyni qatl ettiradi.

Abulqosim Firdavsiy Bag'dodga kelib, bir savdogarning uyiga joylashadi. Savdogar xalifaning vaziri bilan do'st edi. Uning haqida vazirga gapiradi. Vazir esa xalifaga yetkazadi. Xalifa shoirni chorlab, oltmish ming misqol tillo va faxrli liboslar in'om qiladi va shu yerda tinch yashayverishini aytadi. Sulton Mahmud G'aznaviy bu gapdan voqif bo'lib, dorulxilofaga maktub yozadi: «Agar o'sha qarmatiyni menga jo'natmasang, Bag'dodni fillar oyog'i ostida toptataman». Bu xat xalifaga tegishi bilan javob yozadi: «Bismillohir rahmonirrahimi alam...». U bilan elchini qaytarib jo'natadi. Sulton xatni o'qib qarasa, uch kalima so'z. Bo'lak gap yo'q. Butun oqillar uni hal qilishdan ojiz edilar. Shular to'dasida bir yosh yigit bor edi. U dedi: «Agar Sulton ruxsat etsa, bu mushkulni yechsam». Sulton buyurdi. Yigit dedi: «Sulton o'z maktubida agar rad javobi kelsa, Bag'dodni fillar oyoqlari ostida toptataman, degan edilar. Javob keldi: «Alamtara kayfa fa'ala rabbika biashabilfili» («Mehribon va Rahmli Alloh nomi bilan. Parvardigoringiz fil egalarini qanday (halok) qilganini ko'rmadingizmi»). Bu gap Sultonga yoqib tushib, yigitni tarbiya qiladi.

Hajv yozgani ham, keyin umri qochqinlikda o'tgani ham rost. Qarilik va darbadarlikda yashashga majbur bo'lgach, uning ahvoli yana ham og'irlashadi. Vataniga qaytish orzusi bilan yongan, 80 yoshdan

oshib qolgan horg‘in shoir Bag‘dodda yashar ekan, Qur’ondan olingan sujet asosida «Yusuf va Zulayho» dostonini yozishga majbur bo‘ladi. Bu dostonning boshlang‘ich qismi «Tavbanoma» deb ataladi. Unda shoir endi qadimiy pahlavonlar haqida og‘iz ochmaslikka qasamyod qiladi. Butun umrini sarf etib vujudga keltirgan farzandi «Shohnoma» va undagi ajoyib qahramonlardan yuz o‘girib:

Endi Faridunni vasf etmoq qayda,
Zahhok taxtin olsa, menga ne foyda!
Kayqubod tojidan jonimga ozor,
Kovus taxtidan ham qolmadi osor.
Shohlardan yozmayman endi men aslo,
Dargohi ko‘nglimga urdi mutlaqo.
Behuda gaplarni aytmay endi hech,
Aql der, behuda lof urmoqdan kech!
Bu dostonlar bari qip-qizil yolg‘on,
Bir siqim tuproqqa arzimas chunon,

kabi misralar qayd etilgan.

Agar bu so‘zlar haqiqatan ham Abulqosim Firdavsiyniki bo‘lsa, bunday og‘ir fojia hech kimning boshiga tushmasin. Ammo bu misralar Galileo Galiley yerning sayyora ekanligi haqidagi o‘z kitobini toptab turib ham: «Baribir yer aylanadi» degan gaplarini eslatib turadi. Xalq ham bu tavbani qabul qilmadi. Shoirning nomiga abadiylik keltirgan uning «Yusuf va Zulayho» dostoni emas, «Shohnoma» kitobi bo‘ldi.

Sulton Mahmud G‘aznaviy Abulqosim Firdavsiyning Bag‘doddan Tusga kelganligidan xabar topib, yuz ming misqol tilloni xos tuyalarga orttirib Tusga eltishni, shoirni topib, undan uzrlar so‘rashni buyuradi. Sultonning karvonini G‘ubdor darvozasidan kiritdilar. Abulqosim jasadini esa Razon darvozasidan chiqaradilar. Tusda bir mutaassib bor edi, u dedi: «Uning jasadini musulmonlar go‘ristoniga qo‘ymayman, u rozifiy deydi». Noiloj shoirning jasadi otasidan qolgan bog‘ning bir chekkasiga ko‘miladi.

Abulqosim Firdavsiydan bir qiz qolgan edi. Sulton in'omini unga keltirdilar. U qabul qilmagan. Bo'lgan gaplarni hukmdorga yetkazganlarida, u buyruq yuboradi: «Haligi o'zboshimcha kishini shahardan chiqarib haydanglar. Tillalarni esa Imom Is'hoqga topshiringlar, mozorot, xonaqo, vaqflarga sarflasin».

Abulqosim Firdavsiy «Shohnoma»si va uning qahramonlari bilan bog'liq afsona-yu rivoyatlar qadim zamonlardanoq Markaziy Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan. Buning asosiy sabablaridan biri dostonlar sujetining bevosita ko'hna turkiy xalqlar hayotidan olinganligidadir. Muhammad Narshaxiy «Shohnoma»ning eng yorqin, obrazlaridan bo'lmish Siyovush fojiasi bilan bog'liq «Siyovush o'chi» qo'shig'i Buxoro aholisi orasida mashhurligini ta'kidlagan. Buyuk qomuschi tilshunos Mahmud Koshg'ariyning «Devon-u lug'otit turk» asaridagi marsiyada tilga olingan. Alp Er To'nga Abulqosim Firdavsiy «Shohnoma»sidagi Afrosiyobning o'zidir.

Lekin bevosita yozma adabiyotda «Shohnoma» an'analarini, Abulqosim Firdavsiy ijodidan bahramand bo'lishning ilk namunasini biz Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» dostonida uchratamiz. Ma'lumki, o'z davrining barcha bilimlarida barkamol bo'lgan Yusuf Xos Hojib arab va fors tilidagi adabiyotlarni puxta egallab, turkiy tilda birinchilardan bo'lib axloqiy-ta'limiy, ijtimoiy falsafiy xarakterdagi mashhur asarni yaratdi.

Ma'lumki, Abulqosim Firdavsiy «Shohnoma»da o'zaro feodal urushlarni qoralab, markazlashgan davlat, mamlakat birligini ta'minlash g'oyasini targ'ib etadi, hokimiyatni parchalab yuborishga intiluvchi feodallarni qoralaydi. Yusuf Xos Hojib ham Abulqosim Firdavsiydagidek tadbirkor, bilimdon bek boshchiligidagi markazlashgan mustahkam davlat g'oyasini ilgari suradi; hokimiyatni parchalab yuborishga intiluvchi feodallarni qoralaydi; davlat ishlariga bilimdon shaxslarni, olim va ma'rifatli kishilarni jalb etish haqida o'git beradi.

Shoir davlat boshlig‘iga «Shohnoma»dagi Iskandar, Doro, Rustam, Afrosiyob, Zahhok, Faridun, Anushirvon kabi qahramonlarni tilga olib, ularning taqdiridan saboq olishga da’vat etadi:

Suqutlig‘ nelug bo‘ldi Zahhok utun.
Nelug o‘ldi bo‘ldi Faridun qutun.
Biri ezgu erdi ani o‘gdilar,
Biri essiz erdi ani so‘kdilar.

Ma’nosi:

Tuban Zahhok ne uchun taqdirga loyiq bo‘ldi,
Faridun qanday qilib madhga sazovor bo‘ldi.
Biri ezgu edi, uni madh etdilar,
Biri yomon edi, uni haqorat qildilar.

O‘zbek adabiyotining ilk namunalaridan tortib Alisher Navoiygacha bo‘lgan yirik vakillari Mavlono Atoiy, Mavlono Sakkokiy, Mavlono Lutfiy, Mavlono Xorazmiy, Mavlono Qutb, Haydar Xorazmiylarning g‘azal, qasida, munozaralarida «Shohnoma»dagi qahramonlar har xil o‘rinlarda tilga olinadi, shoirlar ulardan qiyos, mubolag‘a, pand-nasihat, o‘xshatish maqsadida foydalanadilar.

XV asrga kelib Abulqosim Firdavsiy ijodiga qiziqish yanada kuchayadi. Shohrux Mirzoning o‘g‘li, ilm-fan ahli homiysi Boysunqur Mirzo boshchiligida Hirot san’atxonasida Nizomiy Ganjaviy, Sa’diy Sheroziy, Hofiz Sheroziy, Xusrav Dehlaviy, Abulqosim Firdavsiy kabi shoirlarning asarlarini to‘plash va ko‘chirtirish bilan shug‘ullanishadi. Chunonchi, kotiblar besh yil davomida «Shohnoma»ning 40 ga yaqin qo‘lyozmalarini qiyosiy o‘rganib, mukammal nusxasini yaratadilar. Ilm-fanda «Shohnoma»ning «Boysunqur nusxasi» deb atalgan bu kitobga Boysunqur Mirzo katta so‘zboshi yozadi. Unda Boysunqur Mirzo Sharq adabiyotida birinchi bo‘lib Abulqosim Firdavsiy ijodini atroflicha tekshiradi. «Shohnoma»ning yaratilishi va shoir taqdiri bilan bog‘liq afsonalarni keltiradi. Markaziy Osiyoda mana shu davrdan boshlab «Shohnoma»xonlik adabiy an’anaga aylanadi.

Sharq adabiyoti va ilm-fanining ilg‘or an’analaridan bahramand bo‘lib, badiiy, ilmiy asarlarida yuksak gumanistik g‘oyalarni targ‘ib etgan, turkiy tildagi adabiyot va madaniyatni yangi taraqqiyot cho‘qqisiga ko‘targan buyuk shoir Alisher Navoiy Abulqosim Firdavsiy ijodiga ham mehr-muhabbat bilan qarab, uni Nizomiy Ganjaviy, Sa’diy Sheroziy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy kabi mutafakkirlar bilan bir qatorga qo‘yadi. «Muhokamat ul-lug‘atayn» asarida Abulqosim Firdavsiyni «masnaviyda ustodi fan» deb atagan shoir «G‘aroyib us-sig‘ar»dagi masnaviysida esa unga she’riyat maydonining bahodiri, deb yuqori baho beradi:

Bu maydonda Firdavsiy ulgurd erur,
Ki gar kelsa Rustam javobin berur.
Raqam qildi Farxunda «Shohnoma» ye,
Ki sindi javobida har xomaye.
Musallam durur zohiran bu ishi,
Ki ma’razg‘a kelmaydur har kishi...

«Rustam kelsa javobini berish» Rustamni yaratgan Abulqosim Firdavsiyning qo‘lidan keladi, xolos. Shoir ijodiga bundan yuqori baho berib bo‘lmaydi. Alisher Navoiyning «Hazoyin ul-maoniy», «Xamsa» kabi asarlarini o‘qiganimizda «Shohnoma» qahramonlarini juda ko‘p uchratamiz. «Hazoyin ul-maoniy»ning debochasidan oxirigacha Abulqosim Firdavsiy qahramonlari qayta-qayta tilga olinadi. Alisher Navoiy shayx-zohidlarni tanqid qilishda, may va mahbuba obrazini yaratishda «Shohnoma»dagi jomi Jamshidga murojaat etib, rang-barang obrazlar yaratadi. Chunonchi, shoir «Sen gumon qilgandan o‘zga jom-u may mavjud erur» deb boshlanadigan g‘azalida shohidni tanqid qilib:

Ey, xush ul maykim, ancha garf o‘lsa bir sing‘on safol,
Jomdurur getinamo, Jamshid ani ichgan gado, –

deydi.

Shoir uchun «...Dayri fano singan safoli jomi Jamshiddekdur».

Gar Navoiy ko'j erur shoh xizmatida ne ajab,
Chunki qilmish qulligi Jamshid-u Afridunni qo'sh.

Oinai Skandaram az jomi may ba dast,
Xoji xabar zi toji Jamu taxti qay kunam.

(Qo'limdagi may jomi Iskandar ko'zgusidir, xohlasang unga qarab Jamshid toji Qayqubod taxti xususida xabar bergum).

Az firebi zoli charx emin mabosh ar Rustam,
3-onki sheronro zi makrash qarda ojiz in ajuz.

(Rustam bo'lsang ham falakning makridan g'aflatda qolma, chunki bu shum o'z makri bilan sherlarni ham ojiz etadi).

Alisher Navoiy Ajam shohlari, tarixi zikr etilgan asarlar orasida eng mo'tabari «Shohnoma» deb bilgan, unga qayta-qayta murojaat etib, Abulqosim Firdavsiyning shuhrati va xizmatini alohida ta'kidlagan. «Shohnoma» tarixiy manba sifatida emas, xalq qudratining barhayot bir she'riy haykali sifatida Alisher Navoiy diqqatiga sazovor bo'lgan.

Alisher Navoiy Abulqosim Firdavsiy qalamga olgan xalqparvarlik, baynalmilallik, adolatli shoh boshchiligida markazlashgan davlat uchun kurash, tinch-totuv yashash g'oyalarini davom ettirdi, zamon, davr talabiga ko'ra yangicha talqin etib, yuksak taraqqiyot bosqichiga ko'tardi. «Shohnoma» obrazlaridan turli maqsadlarda foydalandi, ular orqali o'zining yuksak gumanistik g'oyalarini yanada chuqurroq ifodalashga muyassar bo'ldi.

Badiiy yuksakligi, beqiyos darajada xalqchilligi tufayli va xalq orzu-armonlarini qo'llaganligi uchun ham, mana, ming yillardan buyon «Shohnoma» o'quvchilar qalbini zabt etib, shuhrat cho'qqisidan tushmay kelmoqda. Abulqosim Firdavsiy qahramonlari o'zbek xalqi

orasida ham qadimdan mashhur. «Kitobi Jamshid», «Kitobi podshoh Afrosiyob», «Shoh Tahmuras» nomli xalq kitoblari, «Rustam va Suhrob», «Doro va Iskandarbek» kabi xalq ertaklari «Shohnoma»dan ilhomlanib yoki uning ta'sirida yaratilgan. Yozma adabiyotda ham Yusuf Xos Hojibdan tortib Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Munis Xorazmiy, Muhammadrizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy, Erkin Vohidov, Abdulla Oripovgacha barcha o'zbek shoirlari Abulqosim Firdavsiyni o'zlariga ustoz sanab kelganlar.

Buyuk nemis shoiri va mutafakkiri Iogann Volfgang Gyote «G'arb-u Sharq» devoniga yozilgan sharhlarida Abulqosim Firdavsiy afsonaviy va tarixiy o'tmishni yaxlit holda qalamga olgach, keyingi shoirlarga umumiy gaplar va ba'zi bir talqinlardan boshqa narsa qolmadi, deb lutf etgan edi. Fransuz sharqshunosi Anri Massening e'tiroficha esa, «Shohnoma» xalq ulug'vorligi va u chekkan g'am-g'ussalar haqidagi doston bo'lib, shuning o'zi uni jahon so'z san'atidagi eng ulug' asarlar qatoriga qo'shish uchun kifoya qiladi. «Shohnoma» dunyo xalqlarining ko'plab tillariga tarjima qilingan. Jumladan, XIII asr boshida arab, XV – XVII asrlarda turk va gurji, XIX asrda esa fransuz, ingliz, nemis, italyan va rus tillariga o'girilgan. «Shohnoma» o'zbek tiliga Shoh Hijron, Xomushiy (XVIII), Nurmuhammad Buxoriy, Ochildimurod Miriy (XIX), Hamid G'ulom, Nazarmat, Jumaniyoz Jabborov, Shoislom Shomuhamedovlar (XX) tomonidan tarjima qilingan bo'lsa-da, bu tarjimalarning birortasi to'liq emas.

Abulqosim Firdavsiy nomi jahonga mashhur. Uning Yevropa kitobxonlari qalbini maftun etganiga ham ikki asr bo'ldi, Sharqda esa u ming yildan beri kishilar zavq-u shavqini qo'zg'ab, fikr-u o'yi, orzu-umidlariga madad berib kelmoqda. Shoirga boqiy umr, nomiga bezavollik baxsh etgan asar uning birgina dostonidir. Bu asar «Shohnoma» – «Shohlar kitobi» deb ataladi. Bu kitob yozilgan vaqtidan boshlaboq kitobxon tomonidan «Shohlar haqidagi kitob» sifatida emas,

balki xalqning orzu-umidlari, uning ideali haqidagi «Shoh kitob» sifatida qabul etildi. Shuning uchun ham u faqat forsiy tilda so‘zlashuvchilar orasidagina emas, balki butun O‘rta va Yaqin Sharq, bora-bora esa butun jahon shuhratiga muyassar bo‘ldi.

«Shohnoma» dunyodagi ko‘pgina tillarga to‘liq, ba’zi tillarga esa uning ayrim qismlari tarjima etilgan. Uning dostonlari asosida musiqiy asarlar, drama va librettolar yozildi, kinofilmlar qo‘yildi, tasviriy san’at asarlari yaratildi.

Shunisi ajoyibki, ming yil davomida kishilik jamiyati bir necha marta tubdan o‘zgarishlarni boshidan kechirdi, bo‘ronli zamonlar o‘tdi, kishilar butunlay boshqa bo‘lib qoldi. Ammo «Shohnoma»ning shuhrati so‘nmadi. Aksincha, bu shon-shuhrat barq urib yashnab bormoqda, u yangi-yangi tillarga tarjima etilmoqda, san’at asarlariga ilhom manbai bo‘lmoqda.

Abulqosim Firdavsiy «Shohnoma» asari bilan so‘z san’atida bir alpning jasoratini ko‘rsatdiki, mana, oradan ming yil o‘tsa ham, u ko‘tarilgan yuksaklik biror shoirga muyassar bo‘lgan emas.

10.2. Mahmud az-Zamaxshariyning hayoti va ilmiy faoliyati

Abulqosim Mahmud ibn Umar ibn Ahmad az-Zamaxshariy (1075 – 1144) – tilshunos, adib, shoir, tafsir va hadis olimi. Oilasi islomning mu’taziliy ta’limotiga e’tiqod qo‘ygan bo‘lib, uning dunyoqarashi dindor, taqvodor otasining ta’sirida shakllangan, dastlabki bilimini ham o‘z otasidan olgan.

Allomaning otasi unchalik badavlat bo‘lmasa-da, o‘z davrining savodli, ziyoli, taqvosi kuchli, diyonatli kishisi bo‘lgan. U aksariyat vaqtini Qur’oni karim tilovati-yu toat-ibodat bilan o‘tkazgan va Zamaxshardagi bir masjidda imomlik ham qilgan. U xulq-atvori yaxshi, shirinsuxan va g‘oyat muruvvatli kishi bo‘lgan. Bu fazilati bilan el orasida katta obro‘-e’tibor topgan.

Uning onasi ham taqvodor va dindor ayollardan hisoblangan. Asarlaridan birida o‘z volidasi haqida keltirgan ushbu ma’lumotlar onasining oqko‘ngilliligidan dalolat beradi: «Yoshligimda bir voqea bo‘lgan edi. Kunlarning birida bir chumchuqni tutib olib, oyoqlarini ip bilan mahkam bog‘ladim. Biroq chumchuq qo‘limdan chiqib ketib, devor orasidagi iniga bekindi. Men uni inidan chiqarib olmoqchi bo‘lganimda, oyog‘iga bog‘langan ip siqib, qushning oyog‘i uzilib (kesilib) tushdi. Bundan onam qattiq xafa bo‘lib: «Sen qushning oyog‘ini kesganing kabi xudo ham sening oyog‘ingni kessin!» – deb meni qarg‘adilar».

Bu qissadan ikki xulosa qilish mumkin: ulardan biri onasi qalbining ko‘ngilchanligi, uning mehr-shafqati va lutfi har qanday sharoitda bo‘lmasin, alamzadali ishni ko‘rganda iztirob chekib mutaassir bo‘lishi – rahmdillik ixlosli mo‘minning sifatlaridandir, ikkinchisi, Mahmud az-Zamaxshariy o‘zi garchand mu’taziliy oqimiga mansub bo‘lsa-da, har bir ishni asl sababiga yo‘yadi. Uning iymon-e’tiqodi mustahkamligi Allohu taolo taqdir etganiga binoan edi. Chunonchi, har bir narsa Alloh tomonidan muqaddar, onasi duosining mustajob bo‘lishi ham Alloh tomonidan muqaddar etilganiga qalban ishonadi. Alloh subhonahu va taolo o‘z bandasining peshonasiga nimani yozgan bo‘lsa, hech bir kam-u ko‘stsiz, Uning (Allohning) bilganiyu irodat etgani va muqaddar ko‘rgani hech bir o‘zgarishsiz bo‘lishi muqarrardir.

Mahmud az-Zamaxshariy ilm-fanning turli sohalari, ayniqsa, arab tili va adabiyotini, diniy ilmlarni, shuningdek, o‘sha davrda ilm ahli orasida qadrlangan xattotlik san’atini ham mukammal egallaydi. Ustozi – til, lug‘at va adabiyot sohasida mashhur olim Abu Mudar Isfahoniydan ilm o‘rganadi. Talabalik yoshiga yetgach, bilimini yanada oshirish, har tomonlama kamol toptirish maqsadida Buxoroga yo‘l oladi. Bu yerda u shayx ul-islom Abumansur Nasr Horisiy, Abusa’d Shaqqoniy va Abulxattob ibn Abulbatr kabi olimlardan saboq oladi.

Mahmud az-Zamaxshariy Buxoroda o‘qishni tugatgach, bir necha yil Xorazmshohlar saroyida kotiblik qiladi. Hukmdorlar bilan yaqin bo‘lishga intiladi. Biroq qobiliyati, ilmi va fazilatlariga yarasha munosib e’tibor ko‘rmagach, o‘zga yurtlarga safar qiladi, Marv, Nishopur, Isfahon, Damashq, Bag‘dod va Hijozda, ikki marta Makkada bo‘ladi, o‘z matlab-u maqsadining ushalishiga umid bog‘laydi.

Bu benazir insonning ibratlarga to‘liq hayot yo‘li va qoldirgan boy ilmiy-ma’naviy merosini har tomonlama chuqur o‘rganish hozirgi davr uchun ham favqulodda ahamiyat kasb etishi shubhasizdir. Mahmud az-Zamaxshariy hayoti va ijodi bilan chuqurroq tanishar ekanmiz, u zotning fazilatlari-yu, har qanday daho havas qiladigan darajadagi o‘gitlari, biz avlodlar uchun saboq bo‘ladigan ko‘pdan-ko‘p namunaviy, ibratomuz, tarbiyaviy jihatlarining guvohi bo‘lamiz. Masalan, olim o‘z ona yurti Xorazmga nisbatan cheksiz muhabbati, vatanparvarlik tuyg‘usi va sadoqatini qator asarlarida alohida ta’kidlaydi.

Jumladan, o‘z asarlaridan birida «Xorazm vohasida shunchalik ko‘p, behisob go‘zal fazilatlar mavjudki, dunyoning biror mamlakatida ham bunaqasini ko‘rmadim», – deb alohida iftixor va g‘urur bilan o‘z vatanini ta’riflaydi. Yoki o‘zining «Rabiy’ ul-abror va nusus ul-aytbar» («Ezgular bahori va yaxshilar bayoni») nomli yirik asarida payg‘ambarimizning yaqin sahobalaridan biri Abu Hurayra rivoyat qilgan bir hadisni keltiradi, bunga ko‘ra Rasulullоh Xorazmga g‘oyatda yuksak ta’rif berib: «Xorazmda atigi bir kechagina tunagan inson qanday baxtli-ya!, Xorazmning chang-u g‘ubori tekkan kishidan baxtli inson bo‘lmasa kerak!, Xorazmda ikki rakaat bo‘lsa-da, namoz o‘qigan kishi qanday baxtiyor inson-a!», – deb marhamat qilgan ekanlar!

Allomaning Xorazmshoh Alouddin Abul-Muzaffar Otsizga (1127 – 1156) bag‘ishlab yozilgan «Muqaddimat ul-adab» asari alohida ahamiyatga ega bo‘lib, bu asar haqida batafsilroq to‘xtalamiz.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, Xorazmshohlar hukmronligi davrida ilm-fan, madaniyat ancha taraqqiy qilgan edi. Hukmdorlar, ayniqsa, Xorazmshoh Otsiz olimlar, shoir-u adiblarga alohida hurmat bilan qarar, o‘zi ham iste’dodli, ma’rifatparvar, adabiyotga qiziqqan, bilimdon, ziyoli kishi bo‘lgan. Uning davrida ilm-fan ravnaqi yo‘lida bir qancha xayrli ishlar amalga oshirilganligi yaxshi ma’lum. Shu sababdan bo‘lsa kerak, Mahmud az-Zamaxshariy «Muqaddimat ul-adab»ni bu ma’rifatparvar shohga bag‘ishlab yozgan. Asar besh qismga bo‘lingan bo‘lib – otlar, fe’llar, bog‘lovchilar, ot o‘zgarishlari va fe’l o‘zgarishlari haqida bahs yuritadi. Asar g‘ayri arablar arab tilini o‘rganmog‘i uchun yozilgan.

Mahmud az-Zamaxshariyning bu asarida o‘sha davrdagi adab ilmi jumlasiga kiruvchi barcha bilimlar haqidagi ma’lumotlar kiritilgan. Bu asar ustida ko‘p yillar davomida ilmiy tadqiqotlar olib borgan filologiya fanlari doktori, professor Zohidjon Islomovning yozishicha, bizgacha asarning arabcha-forscha, arabcha-turkiycha, arabcha-xorazmcha ikki tilli, arab-fors-turkiycha uch tilli, arabcha-forscha-mo‘g‘ulcha-turkiy so‘zlik kiritilgan to‘rt tilli qo‘lyozmalari yetib kelgan.

Ogoh bo‘ling, qarindosh-urug‘lar bilan do‘stona munosabatni davom ettirish qiyin ish. Ozod, hur kishi, xuddi kasal hayvonni sog‘idan ajratib, alohida qilingani kabi yomonroq qarindoshidan o‘zini chetga tortmaydi, balki ularga aralashib, barchasini birdek himoya qiladi. Albatta, bunday xulqqa faqat Ma’od ibn Adnon nasli (Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomga ishora) sazovor. U hidoyat talabgori va hidoyatni topgan zotdir.

Ota bilan onaga mehribon bo‘l,
Hamtan bo‘l, jonlariga payvand jon bo‘l.
Tashna qo‘yma, oldiga oq chashmadek,
Betoblikda dardlariga darmon bo‘l.
Izzatla, qarindosh, xesh-aqraboni,
Darig‘ tutma himmat, mehr-u vafoni.

So'rashib hol, qil yaxshilik hamisha,
Ravo ko'rma g'am-aziyat, jafoni.
Qarindoshdan yetsa ozor, xusumat,
Madora yo'lin tut, ko'rsat muruvvat.
Toqatli, shafqatli qul xorlanib qolmas,
Alloh aziz etar aylab marhamat.
O'z jigaring orqangdan otsa ham tosh,
Jahl-u g'azabdan tiyil, chimirma qosh.
Yuz o'girma ko'rsang, qo'l uzat, so'rash,
Bil, toshni qaytarar, qo'y oldiga osh.
Dema yomondan qo'rqib, qochganni mard,
De unga quchog'ini ochganni mard.
Badxulqni yaxshilab, seni do'st qilsa,
Desa bo'lur u zafar quchganni mard.

Ayolni husni uchun emas, iffati, dini uchun nikohingga ol. Chunki iffat-u jamoli birlashsa, bu kamoldan darak. Undan komilrog'i yolg'iz yashamog'ing, agar asrlar umr ko'rsang ham.

Ey yigit, tanlar bo'lsang jufti halol,
Istarsan bo'lsa xushro'y, sohibjamol.
Iffati, dini va odobiga boq,
Tanlab pok muslima, nikohingga ol.
Bo'lsa soz dilga mos husni jamoli,
Xulqida mujassam hayo kamoli.
Qilsa taqvo, nomahramdan chetlanib,
Doim bo'lsa sodiq yorga vafoli.
Bunday yor topmasang, undan-da xushroq,
Yolg'onchi dunyoda o'tmoq yorsiz, toq.
Nobop juftning hisobidan qutulib,
Bo'lgan yaxshi uning sharridan yiroq.
Diyonatli juft bo'lmasa muyassar,
Bo'ydoqlik ayb emas, taqvodor asar.
Bunday parhezkor, pokdomon yigitga,
Rizvonning hurlari guldasta yasar.

Allomaning Sharqning turli shaharlarida juda ko‘plab shogirdlari bo‘lgan. Ayniqsa, Makkayi mukarramada besh yildan ortiq yashagan paytlari olim uchun g‘oyatda serunum bo‘lgan desak, hech bir mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunonchi, Makkayi mukarrama bepoyon musulmon olamining turli burchaklaridan kelgan ziyoratchilar uchun nafaqat muqaddas sajdagoh, balki ilm toliblari to‘planadigan katta ilmiy markaz, ijodiy maskan vazifasini ham o‘tagan. Ilm toliblari muqaddas shaharda yashagan Mahmud az-Zamaxshariydek allomalardan har qadamda foydalanganlar.

Arab olimi ash-Shayx Muhammad Abu Zahro Makkada yashagan davrida Mahmud az-Zamaxshariy aksar vaqtini Baytulloh al-haramda o‘tkazib, har doim uning atrofini adab ilmining toliblari, she’riyat ixlosmandlari, mav’iza-yu hikmatli iboralar shaydolari o‘rab olib, undan saboq olganliklarini alohida ta’kidlagan. Ehtimol, mana shu zayldagi ulkan izzat-hurmat, qayerda bo‘lmasin ilm ahlining doimo unga talpinishi allomaga o‘z nazmiy devonlaridan birida:

«Ko‘rmayapsizmi, men qayda bo‘lmayin,
Odamlar atrofimni gir aylanib,
Ka’bayi muazzamdek o‘rab olurlar,
Guruh-guruh bo‘lib tavof qilurlar», –

deb faxr va g‘urur bilan yozishga turtki bo‘lgandir. Mana shu mulohazalarga tayanib aytish mumkinki, uning ustozlari-yu shogirdlari turli elatlar va millatlarga mansub ilm ahllari bo‘lgan. Ilm yo‘lida Mahmud az-Zamaxshariy tom ma’noda haqiqiy baynalmilallik fazilatlarini namoyon qilgan, deyishimiz mumkin. Chunonchi, unga bevosita shogird bo‘lib, olimdan to‘g‘ridan to‘g‘ri saboq olgan shogirdlari ona yurti Zamaxsharda, Xorazmda, Tabaristonda, Abivardda, Samarqandda, Halabda bo‘lib qolmay, balki uning yetuk asarlari orqali undan saboq olib, o‘zini g‘oyibona Mahmud az-Zamaxshariyning shogirdiman deganlar ham butun musulmon dunyosining turli burchaklarida ko‘plab topilardi.

Ma'lumki, birinchi marta olim Makkada ikki yildan ortiq yashab, o'z yurti Xorazmga qaytadi. Oradan birmuncha vaqt o'tgach, u Makkadan qaytganiga pushaymon bo'lib, qattiq iztirobga tushadi. O'zining ushbu mahzun holatini olim bir qancha qasidalarida ifoda etadi. «O'z umringning ancha qismini Makkada o'tkazding, yana Makkaga ketaman deyishingning boisi nima?», – deb so'raganlarida, u: «Qalb xotirjamligi, dil pokligi va ibodat lazzatini faqat Makkadagina his qilish mumkin», – deb javob qiladi. Makka ahli va ulamolari bilan Mahmud az-Zamaxshariy o'rtasidagi do'stona samimiy munosabatlar olim umrining oxirigacha davom etgan. Mahmud az-Zamaxshariy vafoti haqidagi xabarni eshitgan Makka adiblaridan biri chuqur qayg'u-alamga botib, muqaddas shahar ahlining motamsaro holatini quyidagicha ifodalagan:

«Jorulloh Mahmud vafotidan topgach xabar,
Makka ahlining ko'z yoshlari to'xtamay oqar».

Mahmud az-Zamaxshariy «Asos-al-balog'at» («Notiqlik asoslari») asari arab tili lug'ati bo'lib, 3742 so'zni o'z ichiga oladi. Shundan 2707 so'zning asosiy ma'nosi, 1035 so'zning o'z ma'nolari bilan birga ko'chma ma'nosi ham berilgan. Lug'at tarkibiga ko'ra bosh so'z va uning ma'nosi, bosh so'z hosilalari, izohlovchi manbalar: Qur'oni karim oyatlari, hadislar, xalifa va sahobalarning so'zlari, she'rlari, maqollar va iboralardan iborat. Bu usul sal o'zgargan shaklda hozirgi zamon leksikografiyasida hanuz qo'llanilmoqda.

So'zlarni izohlash borasida ham Mahmud az-Zamaxshariyning katta hissasi bor. U so'zlarning asl ma'nosinigina berib qolmasdan, ularning ko'chma ma'nolarini mufassal, lekin oz so'z bilan lo'nda qilib beradi va berilgan ma'nolarni tasdiqlovchi misollar keltiradi. So'zning qaysi iboralarda, qanday ma'noda qo'llanishiga ham e'tibor beradi, undan tashqari ko'pincha so'zning ko'chma ma'nolarining paydo bo'lish sabablarini ham ko'rsatib o'tadi. So'zlarni chiroyli ibora va so'zlar bilan ifodalash, so'z boyligidan o'rinli va ustalik bilan

foydalanish uchun kishi fasohat va balog‘at ilmlaridan yaxshi xabardor bo‘lishi kerak. Buning uchun so‘zni to‘g‘ri, o‘z o‘rnida ishlatish, qoidaga muvofiq so‘zlash va yozish ham kerak bo‘lgan. Bu asarda adabiyotning asosiy qismlari frazeologik so‘z birikmalari va ularni amalda tatbiq etish yo‘llari chuqur tahlil qilingan.

Mahmud az-Zamaxshariyning «Al-foiq fi g‘arib al-hadis» («G‘arib hadislar haqida qimmatli kitob») asari ham lug‘at bo‘lib, hadis va adabiy asarlarda uchraydigan va ma’nosini anglash qiyin bo‘lgan so‘zlarga bag‘ishlangan. Bunda ham so‘zlar alifbe tartibida berilib, uning ma’nosi izohlanadi va ma’noni ochuvchi she’riy yoki nasriy misollar beriladi.

Mahmud az-Zamaxshariy bevosita adabiyotshunoslikka oid asarlar ham yaratgan. Biroq adabiyotshunoslikka bevosita aloqador bo‘lmagan asarlarida ham adabiyotga, xususan, uslubshunoslikka va she’rshunoslikka tegishli bo‘lgan masalalarni hal qiladi. Bu sohada o‘zigacha mavjud bo‘lgan nazariy fikrlarni rivojlantiradi, yangi materiallar bilan boyitadi va o‘zigacha tilga olinmagan nazariy fikrlarni maydonga tashlaydi.

Mahmud az-Zamaxshariy o‘z asarlarida badiiy tasvir vositalariga qisqa, lekin aniq va nozik izohlar beradi. Masalan, kinoya bilan ta’riz san’atlari bir jihatdan bir-biriga o‘xshab ketadi. Shuning uchun ba’zi filologlar bu ikki san’atni bir san’at deb ko‘rsatadilar. Mahmud az-Zamaxshariy esa bular orasida farq borligini ko‘rsatib, «Biror narsani o‘z nomi bilan emas, boshqa so‘z bilan atasang, bu kinoyadir», deydi va misollar keltiradi.

Ta’rizda esa biror maqsadni aniq aytmasdan, shunga ishora qilinadi. Masalan, bir muhtoj hojat bilan birovning oldiga kelib o‘z hojatini aniq aytmasdan, «saxovatli yuzingizni bir ko‘ray deb keldim» desa, bu ta’rizdir, deydi Mahmud az-Zamaxshariy.

Mahmud az-Zamaxshariy arab maqollarini yig‘ib o‘rganish borasida ham katta ilmiy-tadqiqot ishlari olib borib, «Al-Mustaqso fil

amsol» («Kamolga yetgan maqollar») asarini yozadi. Bu asarda uch yarim mingga yaqin arab maqollari alifbe tartibida berilgan.

Mahmud az-Zamaxshariy «Al-Kashshof»ni yaratishga boshqa bironta ham kitobiga ko‘rsatmagan alohida e’tibor bilan yondashadi. Chunki Qur’oni karimga bag‘ishlab tafsir yozish – bu g‘oyatda sharafli va jiddiy ishdir. Bu murakkab ishning yuqori nuqtasi shundan iboratki, ilm al-bayon va uning zavqidan yuksak malaka hosil qilmasdan, Qur’oniy ilmlar va payg‘ambar alayhissalomning hadislaridan chuqur bilim olmagan, Rasulullohning hayotlari, u zoti sharifning siyratlaridan haqqoniy va ishonchli bilimga ega bo‘lmagan kishi Qur’oni karimga tafsir yozishga jur’at etolmaydi.

Shular bilan birga mufassir katta aql-idrokka-yu munavvar qalbga, hassos ruhiy salohiyatga ham ega bo‘lishi zarur. Yaxshisi, Qur’oni karimga tafsir yozuvchining sifatlari haqida Mahmud az-Zamaxshariyning so‘zini eshitaylik. «Qur’oni karimga xos bo‘lgan ikki ilm, ilm al-maoniy va ilm al-bayonni chuqur egallamagan biror kishi ham uning (Qur’onning) haqiqatlari haqida gapirishga haqli bo‘la olmaydi. Boshqa ko‘p ilmlardan yetarli ilmlar hosil etib, Rasulullоh mo‘jizalarining mohiyatini anglashga o‘ta kirishgan kishigina haqlidir, (u kishi) tahqiq (haqiqatni aniqlash) va hifzni o‘zida jam etib, ko‘p mutolaa qilib, uzoq muddat takror qiladigan, zamona zayliga mos ish tutadigan va uning o‘zi ham tan olinib, rad etilmaydigan kishi bo‘lishi lozim. Shu bilan birga u (mufassir) tabiatiga jilovlangan tusda erk beradigan, iqtidorini yarqiratib zohir qiladigan, ruhoniyati bardam, bir qarashda idrok etadigan zakiylik fazilatiga ega, diqqat-e’tibori ziyoda, garchand ba’zan o‘rniga tushmasa-da, u qo‘pol va qotib qolgan, g‘aliz va jofiy (qiynovchi) bo‘lmasligi kerak. U nazm va nasr uslublaridan g‘oyatda xabardor bo‘lmog‘i lozim. Ko‘p hollarda u (mufassir) kalimalarga qanday tartib berilib, qanday ta’lif etilishini, qanday nazmga solinishini, tafsif ifodasini ham bilishi lozim»[1].

---

[1] Jo‘rayev O., Muhiddinov A. Mahmud az-Zamahshariy. – T.: «Tafakkur», 2011, 116-bet.

Mana shular Qur'oni karim tafsiriga kirishib, uning i'joziy (Qur'onning idrok etishi qiyin mo'jizalari) o'rinlari, uning balog'ati sir-asrorini bilishni istaganlarning sifatlaridir. U o'zining ushbu bilimlar maydonining oqibatlaridan (ya'ni, egallaganlardan) emas, deb hisoblardi va shu boisdan ham u o'z faoliyati bunga qodir emas, degan andisha bilan ushbu maslakdan qadam bosish xususida fikr ham qilmagandi.

Lekin mu'taziliy oqimiga mansub o'z birodarlariga Qur'oni karim ma'nolarini o'rgatdi, ular arab tili va din usullari ilmlarini o'zlashtirgan edilar. Keyin Mahmud az-Zamaxshariy ularga Qur'oni karim oyatlarini tafsir qilishi bilan ushbu guruhdagilarni hayratga solgach, ular uning bu ishga munosibligiga ishonch hosil qilib, undan o'zlari uchun Qur'oni karim sirlarini ochadigan bir tafsir yozishni iltimos qilib so'radilar. Lekin, avvaliga, Mahmud az-Zamaxshariy bu ishning ulkanligidan ulardan uzr bildirgan bilan, ular rosa o'tinib so'ragach, ular uchun «al-Baqara» surasini imlo qiladi hamda boshqalar unga taqlid qilib, uning yo'liga ergashish uchun faqat shu bir sura tafsiri bilan kifoyalanadi. Alloma o'zi imlo qilib bergan «al-Baqara» surasining tafsirida tafsilotini ham sharhlab, shu bilan chegaralangandi; zero, uning yoshi ham keksalik tomon shiddat bilan shoshilardi. Alqissa, uning jiddu jahdini harakatga keltirib, u boshlagan ishini nihoyasiga yetkazishida bir hodisa ro'y berdi. Bu shundan iborat ediki, Mahmud az-Zamaxshariy Baytulloh al-haramga ikkinchi marta qaytib mujovirlikni irodat etgan bo'lib, har gal ilm ahllaridan iborat bir toifa yonidan o'tganda o'zi bitgan tafsirini o'qish zavqi paydo bo'lardi.

O'zi boshlagan (xayrli) ishni poyoniga yetkazish zarurat ekanligi aniq bo'ldi. Lekin bu vazifani o'zi boshlagan uslubda uddalash uchun jismoniy quvvatni qayerdan oladi – yosh ham yettinchi o'nlikka (etmishga) o'tib qolgandi. Bu haqda allomaning o'zi: «Arablar daqqoqat arriqob» (o'lim) deb ataydigan o'nlik (oltmish)ni urib qo'yibman.

Shu bois ko‘pdan ko‘p foydali mulohazalar va sirlarni chuqur tadqiq qilish kafolati bilan oldingi uslubga qaraganda muxtasarroq bir yo‘lni tanlamadim», deb yozgan. Natijada, alloma ushbu tafsirni ikki yildan kamroq vaqtda yozib tugallagan.

Mahmud az-Zamaxshariy yaratgan tafsir, undan boshqa tafsirlarda bo‘lmagan fazilatlar bilan ajralib turadi. Chunonchi mufassir Qur’oni karimdagi balog‘at sirlari va uning o‘ta nozik i’jozlarini yaxshi biladi. Undan muqaddam hech bir kishining aql-idroki bu muammolarni hal qilishga yetmay, faqat u shunday pok maqomga yetishdi. Mahmud az-Zamaxshariydan keyin yashab, Qur’oni karimga bayoniy tafsir yozganlar undan juda ko‘p iqtibos qildilar. Ulardan ba’zilari, garchand uning darajasiga yetmagan bo‘lsalar-da, taqlid qilib, unga ergashib tafsir bitdilar, lekin asliy va taqlidiy fikrlar orasidagi farq ochiq-oydin ko‘rinib turardi. Biron mufassir ham uning tafsiri darajasiga bog‘liq bo‘la olmadi, Mahmud az-Zamaxshariy yetgan buyuk ta’birni izhor qila olmadi.

U, eng avvalo, ma’noni zikr qilib, shundan keyin agar yetsangiz (in qultu) deb o‘z fikrini bildiradi. Mana shu uslubni Mahmud az-Zamaxshariy «al-Baqara» surasidan boshlab qo‘llagan edi. Bu uslub mu’taziliya oqimidagilarga xos bo‘lgan munoqasha va munozaraga rioya qilishning o‘zi ediki, chindan ham ular bu masalada (munozarada) o‘ta qobiliyatli edilar.

«Al-Kashshof» asarida «al-Baqara» surasi mufassal tafsir etilsa-da, undan so‘nggi oyatlar muxtasar holda bayon etilgan. Muallifning o‘zi buning sababini bayon qilgan. «Al-Baqara» surasiga yozilgan tafsir u kuch-quvvatga to‘lgan paytda, qolgan (ikkinchi) qismi esa keksalik paytida yozilib, uni muallif taqdir taqozosi (vafoti)dan oldin tugatishni irodat etgandi. Shu boisdan ham hisoblab ko‘rilsa, tafsirning tugatish zarurati bilan bog‘liqligi aniq bo‘ladi. Shu narsa qiziqarliki, Mahmud az-Zamaxshariyga ergashganlar va unga taqlid qilganlar, u nimani a’lo darajada bajargan bo‘lsa, ular ham a’lo dara-

jada qilganlar. U nimani rad qilgan bo‘lsa, ular ham rad qilganlar. U bu uslubnipg uzrli tomonlarini topgan, lekin keyingilarda hech qanday uzrli holat bo‘lmay, bu faqat ular faoliyatining zaifligi, iqtidori yetishmaganligi va idrokining yo‘qligidan edi.

Buyuk alloma bizga juda katta va boy ilmiy meros qoldirgan. Iroq olimi Fozil Solih as-Samariyning nomma-nom yozishicha, u arab tili va grammatikasi, falsafa, tarix, jug‘rofiya, uslub va notiqlik san’ati, lug‘atshunoslik, arab va aruz ilmi, tafsif, hadis va fiqhga oid 56 ta asar yaratgan bo‘lib, ularning aksariyati bizgacha yetib kelgan. Xususan, olimning tilshunoslikka, arab tili grammatikasi va nafis adabiyotiga oid «Asos al-balog‘at» («Notiqlik asoslari»), «Samim al-arabiya» («Arab tili mag‘zi»), «Foiq al-lug‘at» («Eng yaxshi lug‘atlar»), «Muqaddimat ul-adab» («Nafis adabiyotga muqaddima»), «Al-foiq fi g‘arib al-hadis» («G‘arib hadislar haqida qimmatli kitob»), «Atvoq uz-zahab fil-mavO‘iz val-xutab» («Xutbalar va va’zlar bayonida oltin shodalar»), «Rabiy’ ul-abror va nusus ul-aytbar» («Ezgular bahori va yaxshilar bayoni»), «Al-Qustos fil-aruz» («Aruzda o‘lchov»), «An-nasouh us-sig‘or val bavolig‘ ul-kibor» («Kichiklarga nasihatlar va ulug‘lar yetukligi»), «Devon uz-Zamaxshariy» kabi asarlari o‘ziga xosligi, ilmiy ahamiyati bilan nafaqat Sharq, balki G‘arb ilmiy tafakkurining rivoji uchun ham katta ahamiyat kasb etgan.

Ingliz sharqshunosi X.A. Gibbning yozishicha, Mahmud az-Zamaxshariyning «Al-Mufassal» («Grammatika bo‘yicha mufassal kitob») nomli arab tili nahv-u sarfini o‘rganishga oid darsligi va nasriy saj’, nafis uslubda yozilgan qisqa nasihatomuz xilqatli iboralar majmuasi, «Atvoq uz-Zahab» («Oltin shodalar») asari kabi Yevropa adabiyotshunosligida shuhrat qozongan asarlar juda kam bo‘lgan.

Mahmud az-Zamahshariyning yirik asarlaridan biri hisoblangan «Al-Kashshof» («Ayon qiluvchi») esa Qur’oni karimga bag‘ishlangan mukammal tafsirdir. Asarning to‘liq nomi «Al-Kashshof an haqoiq it-tanziyl va uyun il-aqoviyl fi vujuh it-ta’viyl» («Qur’on haqiqat-

lari va uni sharhlash orqali so‘zlar ko‘zlarini ochish») edi. Alloma Qur’on tafsiri, hadis, fiqh, ilm al-qiroat, nahv, sarf, adab ilmlariga bag‘ishlangan ko‘plab asarlarni qunt bilan o‘rganib, ulardan unumli va tanqidiy ravishda o‘z asarida foydalangan. Darhaqiqat, arab olimlarining yaqdillik bilan ta’kidlashicha, Mahmud az-Zamaxshariyning «Al-Kashshof» asari har xil davrlarda Qur’oni karimga yozilgan tafsirlar ichida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Bu kitob hozirgi vaqtgacha arab mamlakatlarida ko‘plab musulmon ahli, ayniqsa, ulamolar uchun eng zaruriy kitoblardan biri hisoblanadi. Qohiradagi dunyoga mashhur Al-Azhar diniy universitet talabalari esa Mahmud az-Zamaxshariyning «Al-Kashshof» asari asosida Qur’oni karimni va uning tafsirini o‘rganib, undan muhim bir qo‘llanma sifatida foydalanadidar.

Mahmud az-Zamaxshariyning «Qofiya» asari arabcha nahv (sintaksis) mavzusida yozilgan kitob bo‘lib, u madrasalarda o‘quv qo‘llanma sifatida o‘qitilar edi. Mavlono Abdurahmon Jomiyning «Sharhi mullo» asari esa ana shu «Qofiya»ga bag‘ishlangan sharhdir.

Mahmud az-Zamaxshariyning ulug‘ arabshunos deb tanilganini Alisher Navoiyning «Sab’ayi sayyor»idagi Abdurahmon Jomiy madhiga bag‘ishlangan bobida ham ko‘rishimiz mumkin:

Arabiyatda dars aning virdi,
Ibni Hojib kamina shogirdi,
Ibni Hojib demayki Jorulloh,
Oncha tafsif ishinda yo‘q ogoh.

Bu yerda Adburahmon Jomiyning Jorulloh, ya’ni Mahmud az-Zamaxshariy bilan chog‘ishtirilishi Alisher Navoiy davrigacha Mahmud az-Zamaxshariydan o‘tadigan arabshunos adib bo‘lmaganligidan darak beradi.

Mahmud az-Zamaxshariy shunday muhitda shakllandi, kamol topdi. Uning uylanmay o‘tgani sababi ba’zi manbalarda doimiy ilm

xizmatida, ilm talabida bo‘lgani bilan izohlansa, ayrim o‘rinlarda taxmin qilinishicha, bitajak asarlari uning nazdida nikoh va farzanddan muhimroq sanalgan yoki komila ayol topa olmagani, yoxud tahqiq qiluvchi aytganidek, jismoniy kamchiligi uylanishiga yo‘l bermagan.

Mahmud az-Zamaxshariyning bu jismoniy kamchiligini uning yuziga soluvchilar ko‘p bo‘lgan bo‘lishi kerak, chunki u o‘zining «Navobig‘u-l-kalim» asarida «kam ra’aytu man a’raj fi daraji-l-ma’oliy a’raj va man saxuhu-l-qadam, laysa lahu fi-lxayr qadam», ya’ni «Oliyjanoblik so‘qmog‘idan chaqqon o‘rlaydigan oqsoqlarni va ezgulik yo‘lida oyoq bosolmaydigan oyog‘i sog‘larni ko‘p ko‘rganman», deydi. Bu yerda Mahmud az-Zamaxshariy «a’raj» (yaxshi o‘rlovchi) va «a’raj» (oqsoq) so‘zlarining shakldoshligidan mohirona foydalangan. «Qadim» so‘zining takrorlanishi ham juda o‘rinli tushgan. Mana shu bir gapning o‘zi, birinchidan, Mahmud az-Zamaxshariyning zabardast uslubshunos va mohir so‘z ustasi ekanligiga, ikkinchidan, arab tilini a’lo darajada bilganligi, uchinchidan, sog‘lom fikrli olim bo‘lganligiga dalil bo‘la oladi.

Ko‘hna Xorazm tuprog‘ida voyaga yetib, jahon madaniyatiga salmoqli hissa qo‘shgan ulug‘ olim Mahmud az-Zamaxshariyning nomi dunyoga mashhurdir. Uning o‘lmas asarlari va u haqda yozilgan ilmiy asarlar hamda maqolalarni dunyoning hamma burchaklaridagi kutubxonadarda uchratish mumkin. Ilm-u fan xazinasiga bebaho durdonalar qo‘shgan bu buyuk zot bilan Markaziy Osiyo xalqlari har qancha faxrlansalar arziydi.

Zamondoshlari tomonidan berilgan Ustoz ud-dunyo (Butun dunyoning ustozi), Ustoz ul-arab val-ajam (Arablar va g‘ayri arablar ustozi), Faxri Xavorazm (Xorazmning faxri), Ka’bat ul-adab (Adab ahli uchun bamisoli Ka’ba), ayniqsa, Jorulloh (Allohning qo‘shnisi) kabi o‘ta sharafli taxalluslar boshqa bironta ham olimga nasib etmaganligi, vatandoshimizning ulkan obro‘-e’tibor va hurmat-ehtiromga sazovor bo‘lgan buyuk siymo bo‘lganini ko‘rsatadi.

10.3. Mahmud Koshg‘ariy – dunyo tan olgan tilshunos

Mahmud ibn Husayn ibn Muhammad Koshg‘ariy (XI asr) – turkshunoslik ilmining asoschisi, filolog va etnograf olim. Ijtimoiy kelib chiqishi jihatdan qoraxoniylar sulolasiga mansub. Otasi Husayn ibn Muhammad Barsg‘in shahrining amiri bo‘lgan. Ma’lumotni o‘z shahrida olib, keyin o‘qishni Koshg‘ardagi madrasalarda davom ettirgan. Uning eng sevimli ustozi, atoqli olim Abu Abdulloh ibn Husayn Koshg‘ariy bo‘lib, fozil, zohid shayx, ko‘plab asarlar muallifi hamdir. So‘ng u Samarqand, Buxoro, Marv, Nishopur shaharlarida bilimini oshirgan.

Mamlakatdagi ichki nizolar natijasida Mahmud Koshg‘ariy o‘z vatanini tark etib, 15 yil davomida atrofdagi qardosh xalqlar orasida yurishga majbur bo‘ldi. Ana shu yillarda u turli xalqlar yashaydigan o‘lkalarni kezib, to‘plagan materiallari unga, birinchidan, o‘sha davr tilini har tomonlama yoritishga imkoniyat tug‘dirgan bo‘lsa, ikkinchidan, bu usul bilan bor til faktlari asosida puxta ilmiy xulosalar chiqarishga ham yo‘l ochdi.

Devonda berilgan izohlarga ko‘ra, alloma asarni yozishga kirishgandan boshlab qanday tamomlash, qanday usul qo‘llash va boshqa masalalar haqida uzoq fikr yuritdi. Shuning uchun ham u davr uchun benihoya ulug‘ va murakkab hisoblangan bu katta asarni o‘z vaqtida oxiriga yetkazishga muvaffaq bo‘ldi. Axir u davrda lug‘atchilik sohasi yangi masala edi. Lug‘at to‘plash, so‘zlarni izohlash, zarur o‘rinlarga misollar topish, alifbo tartibiga solish va boshqa lug‘atchilikka doir yana ko‘p ishlarning hammasi yangilik edi. Ana shularning hammasini uning o‘zi boshladi va kutilgandan ortiq darajada sifatli qilib tamomladi.

Mahmud Koshg‘ariy o‘z davrining ulug‘ dialektologi edi. Alloma o‘sha davrning benihoyat murakkab vaziyatdagi qabilalarini va ularning tillarini mukammal aniqlab chiqdi. Ma’lumki, XI asrda

O'rta Osiyoda yashovchi qabilalar ham, ularning tillari ham u davr tuzumi sharoitiga muvofiq ancha murakkab tus olgan edi. Ilgarilari kam nufuzli bo'lgan qabilalar yiriklashgan, ba'zi qabilalar bir-birlari bilan birikishgan, yangi-yangi qabilalar paydo bo'la boshlagan edi. Ilgariroq boshchilik qilgan ayrim qabilalar vaqt o'tishi bilan o'zlarining avvalgi mavqelarini yo'qotib, yangidan ma'muriyatga ko'tarilgan qabilalarga tobe bo'lib qolgan bo'lsalar, boshqa mamlakatlardan kelib joylashib qolgan kichik nufuzli qabilalar ham o'sib-unib, yirik qabilalar qatoriga ko'chgan edi.

Mahmud Koshg'ariy devoni, o'zi ta'kidlaganicha, «oldin hech kim tuzmagan va hech kimga ma'lum bo'lmagan alohida bir tartibda» tuzilgan. Unda ko'p shevashunoslikka oid qiyosiy qoidalar, grammatik, morfologik, leksik, semantik alomatlar ko'rsatilgan. Asar foydalanuvchilarga osonlik tug'dirish uchun sodda va lo'nda yozilgan. Unda qadim turk alifbosi, fonetik qonuniyatlar, orfoepik va orfografik qoidalar puxta tushuntirib berilgan. Lug'atda turkiy so'z tuzilishi an'analari, jumladan, so'z tartibi, fe'l shakllari, so'z etimologiyasiga oid fikrlar bayon etilgan.

«Devon-u lug'otit turk» muqaddima, 8 bo'lim va xulosadan iborat. Har bir bo'limda ot-ism so'zlar, fe'llar qulaylik uchun alohida ajratib berilgan. 7500 dan oshiq turkiy so'z va iboralar izohlangan. Ham adabiy til, ham asosiy turkiy shevalarni qamrab olgan bo'lib, undagi adabiy til, sheva unsurlari nisbatan o'rtacha adabiy tildagi 10 – 12 so'zga, shevaga oid bir so'zga to'g'ri keladi, ya'ni umumturkiy adabiy tilga ayricha ahamiyat ajratilgan. «Men bu ishda misol tariqasida turklarning tilida qo'llanilib kelgan she'rlardan, shodlik va motam kunlarida qo'llanadigan hikmatli so'zlardan, maqollardan keltirdim», deydi alloma.

Olim asariga o'zi tuzgan dunyo xaritasini ham ilova qiladi. Xaritada mamlakat, shahar, qishloq, tog', cho'l, dengiz, daryo kabilarning nomlari yozilgan. Xaritada aks etmagan ba'zi bir nomlar lug'at

matnida izohlangan. Xarita, asosan, Sharqiy yarim sharga to‘g‘ri keladi. Mahmud Koshg‘ariy o‘z xaritasida yer yuzining markazi sifatida O‘rta Osiyo – ona yurti Issiqko‘l bilan Bolosog‘un oralig‘idagi yerlarni oladi. Holbuki, o‘sha davrda tuzilgan xaritalarda yer yuzining markazi sifatida Makka va Madina olinardi.

Mahmud Koshg‘ariy Bag‘dodga borib, o‘zining uzoq yillar davomida bunyod etgan «Devon-u lug‘otit turk» («Turkiy so‘zlar devoni») kitobini 1074-yilda tugallab, Abbosiy xalifalar avlodidan bo‘lgan Abulqosim Abdulloh binni Muhammad al-Muqtadoga bag‘ishlagan. Asarning asosiy matni o‘sha davrda mintaqa musulmon Sharqida fan tiliga aylangan arab tilida yozilgan bo‘lib, turkiy tilning boyligini, mazmundor va rang-barangligini tushuntirish uchun yozilgan.

Turkiy xalqlar tarixiga oid qadimiy afsona va rivoyatlar, 300 ga yaqin maqol va matallar, hikmatli so‘zlar, 700 satrdan oshiq she’riy parchalar ushbu asar sahifalaridan o‘rin olgan. She’riy parchalarning ko‘p qismi turkiy xalqlar og‘zaki ijodiga xos to‘rtliklardan iborat. Ammo devonda keltirilgan she’riy satrlardan 150 ga yaqini islom davri she’riyatiga xos bo‘lgan «bayt» tilidagi masnaviy, qasida, g‘azal, qit’a parchalari bo‘lib, ularni muallifning o‘zi ham ko‘pincha «bayt» deb ataydi.

Asarda 7 ta epik doston, ishqiy qo‘shiqlar, pandnomalar, koinot yaratilishiga oid asotir, she’rlar, tabiat manzaralari tasviri, madhiyalar, falsafiy mushohadalar uchraydi. Olim devonida keltirilgan VIII – XI asrlarga oid turkiy she’riyat namunalarida u yoki bu darajada aruz vazniga o‘tish moyilligi seziladi. Aruzning rajaz, ramal, munsarih, hajaz, basit, qarib, mutaqarib vaznlari turkiy she’riyat namunalarida ishlatilgan bo‘lib, ayniqsa, rajaz bahridan keng foydalanilgan.

«Devon-u lug‘otit turk»da qadimgi epik qo‘shiqlardan saqlangan ikki yirik asar ko‘pchilikning diqqatini tortib keladi. Bulardan biri «Alp Er To‘nga marsiyasi» va ikkinchisi – «Qish va yoz» munozarasidir. Marsiya 44 satrdan iborat. Unda ma’lum ma’noda turkiy

el o'zining sevimli qahramoni, xoqoni va yo'lboshchisigagina emas, boy berilgan imkoniyatlari, parchalangan elati, tushkunlikka yuz tutgan turkiy imperiyadagi ma'naviy yo'lsizlik holatiga ham ko'z yosh to'kadi, motam qiladi. Bu qo'shiq xalq og'zaki ijodidagi «yig'i» janrining adabiylashgan namunasi hisoblanadi.

Mahmud Koshg'ariy o'z fikrlarini dalillash uchun ko'plab xalq maqollariga ham murojaat qilgan: «Ardam boshi til» – «Adabning boshi til», «Qut bilgusi bilim» – «Bilim baxt belgisi», «Emgan ekinda qolmas» – «Mehnat yerda qolmas», «Osh totig'i tuz» – «Oshning ta'mi tuz bilan», «Qo'rqmush kishiga qo'y boshi qo'sh ko'rinur», «It isirmas, ot tepmas dema» – «It qopmas, ot tepmas dema», «Toma-toma ko'l bo'lur», «Bir qarg'a bilan qish kelmas», «Quruq yog'och egilmas», «Quruq qoshiq og'izg'a yarmas» – «Quruq qoshiq og'izga yoqmas», «Ali chiranda, bilka taranda» – «Botir jangda, olim suhbatda (sinalar)», «Kuz keligi yozin balkurur» – «Kuzning kelishi yozdan bilinur», «Tavi silkinsa, bir eshakka yuk chiqar» – «Tuya silkinsa, bir eshakka yuk chiqar», «O't tutunsiz bo'lmas, yigit yozuqsiz bo'lmas» va hokazo.

«Devon-u lug'otit turk»da juda go'zal, hassos va o'ynoqi ishqiy termalar ham uchraydi:

Asir etdi xumor ko'z,
Qora xolli, qizil yuz.
Dudog'idan tomar bol,
Asir aylab, boqmas ul.

«Qish va yoz» munozarasi turkiy munozara janrining bizgacha yetib kelgan birinchi yorqin namunasi bo'lib, unda turkiy elatlarning butun tabiati, yashash tarzi, tafakkuri, sevinchlari, qayg'ulari batafsil aks etgan. Ayniqsa, tabiatga mehr go'zal ifoda topgan. Asarda majoziy tasvirlar, tashbehlar, istioralar, jonlantirish va yengil kinoyalar bor. Uni o'qiganda chorvador turkiy elatlar hayoti, faoliyati, tabiiy muhit ko'z oldingizga yaqqol gavdalanadi:

Tog‘ boshlari yashardi,
Qurug‘ o‘tni yashirdi,
Ko‘l suvlari toshurdi,
Sigir, buqa ma’rashur.

Bu bahor tasviri. Qish tasviri aksincha:

Keldi shamol huvillab,
Bo‘ron bo‘lib g‘uvillab,
Xalq titrashur uvillab,
Qora bulut guldirar.

Bu manzaralar chorvadorlar hayoti uchun islomdan oldingi davrda ham, keyinchalik ham xarakterli edi. Bu janrda jangnoma va marsiyalar singari dramatizm ruhi juda kuchli. Shu bilan birga romantik surur ham mavjud. Devonda islom davr she’riyati asosan ishqiy, falsafiy-didaktik, madhiyaviy qasida va she’r namunalari bilan namoyon bo‘lgan. Unda ham mazmun, ham shaklga ko‘ra Ahmad Yugnakiy dostoniga asos bo‘lgan to‘rtliklarni eslatuvchi qofiyali o‘n bir hijoli parchalar bor.

Dushman erur insonga mol-u tovar,
Olim odam yovini qanday sevar,
Mol yig‘ishni sel kelish deb,
Mol egasini tosh kabi yumalatar.

«Devon-u lug‘otit turk»dagi birgina madhiyaviy qasidadan parcha ayol kishiga – malikaga bag‘ishlangan. U tashakkurnoma yo‘sinida yozilgan bo‘lib, aruz vaznining «munsari» bahriga to‘g‘ri keladi. Falsafiy-didaktik qasida va masnaviylar pandnoma yo‘sinida bo‘lib, turkiy elatlar ma’naviyatiga xos bo‘lgan bunday yo‘nalish devonda ko‘proq aks etgan. Ularda ilm o‘rganish tashviq etiladi, jaholat, kibr-u havo qoralanadi, saxovat va himmat, mehmondo‘stlik ulug‘lanadi, mol-dunyoga hirs qo‘yish, baxillik va ochko‘zlik fosh qilinadi, ota-onani hurmatlash, ularning so‘ziga quloq solish da’vat etiladi.

Shuningdek, mardlikni ulug‘lash, hushyorlikka, dushmandan ehtiyot bo‘lishga chaqiruvchi baytlar ham pand-nasihat qatorida uchraydi:

Olim kishi so‘zidan olgil o‘git,
Ezgu so‘zni eshitsang dilga singar.
Ilm-hikmat o‘rgangin, bo‘lma qaysar,
Himmati yo‘q maqtanchoq yo‘l yo‘qotar.

Bu ilm-hunarga tashviq, olimga hurmat haqida bo‘lsa, quyidagi bayt mehmondo‘stlik xususida:

Kelsa agar xonang uzra g‘arib mehmon,
Bor narsangni oldiga qo‘y, bo‘l mehribon.

Ushbu asar hozirgi Markaziy Osiyo xalqlari tarixi uchun, shu jumladan, o‘zbek xalqi tarixi uchun ham benihoyat muhimdir.

Mahmud Koshg‘ariyning «Devon-u lug‘otit turk» asari nafaqat turkiy tilshunoslikka bag‘ishlangan ilk asar ekanligi bilan, balki turkiy tillar fonetikasi va etimologiyasining asosiy qonunlari aniqlangani va keng o‘rganilganligi bilan ham qimmatli. Shuning uchun ham asarning qo‘lyozmasi topilishi bilan u jahon turkiyshunosligining e’tiborini tortdi.

10.4. Yusuf Xos Hojib qomusiy bilim sohibi

Qoraxoniylar davlati hududida yashovchi elatlarning ko‘pchiligini turkiy shevalarda so‘zlashadigan urug‘lar tashkil qilardi. Qoraxoniy feodallar bu tilni o‘zaro so‘zlashuv quroli, ilm-fan, badiiy ijod tili sifatida joriy qildilar. Natijada Ahmad Yugnakiy, Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy kabi bir qator mutafakkirlar yetishib chiqib, turkiy tilda ijod qildilar va uning taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shdilar.

O‘z davrining qomusiy bilim sohibi, davlat arbobi **Yusuf Xos Hojib** ana shu turkiygo‘y ijodkorlarning peshqadamidir. Alloma

1020-yili Bolosog‘unda ziyoliy oilada dunyoga kelgan. Bolosog‘un Sharq va G‘arb o‘rtasidagi savdo yo‘li ustida joylashgani uchun savdo-sotiq, hunarmandchilik, ilm-fan ancha taraqqiy etgan shahar edi. Ijodkorimiz ana shu madaniyat o‘chog‘ida voyaga yetdi, arab, fors tili va undagi adabiyotlarni puxta o‘rgandi. Falsafa, mantiq, matematika va boshqa bilimlarni mukammal egalladi, davlat ishlari, idora qoidalari bilan qiziqdi. Sharq donishmandlarining bu boradagi fikr-mulohazalarini kuzatdi. U 1069 – 1070-yillarda «Qutadg‘u bilig» («Saodatga yo‘llovchi bilim») asarini yozgan. Asar nasriy (38 misra) va she’riy (77 bayt) muqaddima, kirish boblar (390 bayt), asosiy qism (68 bob, 5896 bayt), xotima (2 qasida va masnaviy bob) dan iborat. Jami 6520 bayt.

Kitob Qoraxoniylar xoni Abul Hasan Tavg‘ach Bug‘roxonga manzur bo‘lganidan, u Yusufga «Xos Hojib» – xonning eng ishonchli kishisi, maslahatchisi yuksak unvonini beradi. Shundan so‘ng Yusuf Xos Hojib deb shuhrat qozongani haqida mamnuniyat bilan so‘z yuritadi.

Malik huzurida o‘qidi uni,
Tavg‘ach Qora Bug‘ro – xonlarning xoni.
Og‘irladi ortiq adib xizmatin,
In’om berdi qalam haqqi – hurmati.
Xos Hojib unvonin loyiq bildi u,
O‘ziga eng yaqin odam qildi u.

Ma’lumki, podshoh saroyidagi lavozimlar ichida «Xos Hojib»lik unvoni eng nozik va eng mas’uliyatli hisoblangan. Shoir Hojibning vazifasi xususida to‘xtalib: «Ulug‘ Hojib begining ko‘rar ko‘zidir, qonun (siyosat), rasm-qoida va nizom ishlarida mushkul yo‘l va eshiklarni ocha bilishi kerak. Hojiblik ishi ulug‘likdir, buni faqat yaxshi kishidan o‘zga hech kim qila olmaydi», deb yozadi.

«Qutadg‘u bilig» – baxt va saodatga yo‘llovchi bilim degan ma’noni bildiradi. O‘quvchi qo‘lidan qo‘ymasin, unga baxt keltirsin, deb kitob nomini «Qutadg‘u bilig» qo‘ydim», – deydi bu haqda

muallifning o‘zi. «Haqiqatan ham, agar har kim ushbu kitobda tilga olingan xislatlarga, fazilatlarga ega bo‘lsa, undagi pand-nasihat, yo‘l-yo‘riqlarga amal qilib ish ko‘rsa, baxt-saodat unga yor bo‘ladi». Shuning uchun ham kitob o‘z davridayoq keng tarqalib, mashhur bo‘lgan. Chin (Shimoliy Xitoy)liklar uni «Adab ul-muluk» («Hukmdorlar odobi»), mochin (Janubiy Xitoy)liklar «Oyin ul-mamlakat» («Hukmdorlik qonun-qoidalari»), mashriq (Sharqiy Turkiston)liklar «Ziynat ul-umaro» («Hukmdorlar ziynati»), eronliklar «Shohnomai Turkiy» («Turkiy Shohnoma»), ba’zilar «Pandnomai muluk» («Hukmdorlar pandnomasi»), turonliklar esa «Qutadg‘u bilig» deb ataganlar. Bu nomlarning barchasi ham kitobning davlat idora ishlariga va axloq-odob masalalariga doir ekanini ko‘rsatadi.

«Qutadg‘u bilig» turkiy tilda yozilgan ilk didaktik doston, pandnomadir. Bu asarda shoir axloq-odob, ilm-ma’rifat, bola tarbiyasi, jamoat joylarida o‘zini qanday tutish, so‘zning ahamiyati va qadri, mehmondorchilik qoidasi, turmush tarzi, inson ma’naviyat olamining ko‘p masalalari xususida bir ma’rifat jarchisi sifatida fikr yuritadi. Yusuf Xos Hojib dostonida markazlashgan davlat uchun kurash, donishmand, adolatli hukmdor g‘oyasini ilgari suradi, xalq va davlat, davlat boshlig‘i va fuqaro, olimlar va hokim, qo‘shni davlatlar bilan iqtisodiy, madaniy aloqalar, hukmron tabaqalarning hokimiyat, xalq oldidagi burchi haqida davri uchun g‘oyatda ilg‘or bo‘lgan ijtimoiy-falsafiy mushohadalar yuritgan. Dehqonlar, hunarmandlar, chorvadorlar jamiyatning moddiy ne’matlarini yaratuvchi toifalar sifatida alohida ta’riflangan.

«Qutadg‘u bilig» XI asr so‘z san’atining nodir namunasi bo‘lib, unda o‘z davrining ilg‘or ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy masalalari badiiy talqin qilingan, turkiy xalqlar tarixi, madaniyati, ilm-fani, urf-odati va an’analari, turmush tarzi, qadriyatlari xususida keng ma’lumot berilgan. Biron-bir toifa-tabaqa, kasb-hunar, ilm-fan, hayotiy masala, voqea-hodisa, biron-bir an’ana va urf-odat, insoniy

fazilat va qusurlar muallif nazaridan chetda qolmaydi, bu asarning qomusiy xarakteridan dalolat beradi. Chindan ham, u o‘z davrining badiiy qomusi.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asarining asosiy g‘oyasi turli fazilat asosida qurilganini eslatib o‘tish muhimdir.

– Biri to‘g‘rilikka tayanch – ADOLAT,
– Biri DAVLAT erur qutli g‘oyat.
– Uchinchi – ulug‘lik AQL ham ZAKO,
– To‘rtinchi – QANOAT erur bebaho.

Shu boisdan Yusuf Xos Hojib davlatni boshqarish to‘g‘risidagi ijtimoiy-siyosiy va huquqiy qarashlarini mustahkam, adolatli qonun-qoidalar hukmronligining ramzi – Elig (podshoh) Kuntug‘di (Chiqqan kun) obrazida, davlat ramzi – adolatli vazir Oyto‘ldi (To‘lgan oy) timsolida, aqlning ramzi – O‘gdulmish (aqli raso) vazirning o‘g‘li, oqibatning ramzi – vazirning ukasi O‘zg‘urmish (hushyorlantiruvchi, sergaklantiruvchi) bo‘lib, uni qanoat timsollarida mujassamlashtirib, ularni o‘z davrining saltanat hukmdori, beklari va saroy amaldorlariga ibrat qilib ko‘rsatishga intilganidan dalolat beradi. Jumladan, shoir O‘gdulmish orqali Kuntug‘di Eligga bergan yo‘l-yo‘riqlarda bek (mamlakat boshlig‘i) bo‘ladigan odam qanday fazilatlarga ega bo‘lishi haqida shunday deydi:

Kishi ezgulikka shirin jon berar,
Biri ezgu javobi o‘n bo‘lib borar.
Yaxshi nom oladi, ko‘r, ezgu kishi,
Yomonlar nasibi – el-yurt qarg‘ishi.

«Qutadg‘u bilig» qoraxoniylar hokimiyatining o‘ziga xos nazmiy Nizomnomasi sifatida dunyoga kelgan. Chunki bu ramziy-timsoliy asar oddiy xalq uchun emas, birinchi navbatda, yurt egalari bo‘lmish hukmdorlar va katta-kichik amaldorlarga atab yozilgan va ularga mamlakatni adolat bilan boshqarish, tinchlikni saqlash, raiyatga zulm qilmaslik, bil’aks og‘irini yengil, turmushini farovon qilish, jamiyat-

ning ma'naviy-axloqiy negizlarini mustahkamlash, ilm-ma'rifatga keng e'tibor berish, iste'dod sohiblarini qo'llab-quvvatlash, huquq, burch, adolat bo'yicha maslahatlar va tavsiyalar berilgan.

Qoraxoniylar sulolasi misolida turkiy davlatchilik asoslari yangi bosqichga ko'tarilgan davrda siyosiy-ijtimoiy jihatdan zamon kun tartibiga qo'ygan masalalarni hal qilishga yordam beradigan «Qutadg'u bilig» singari hukmdorlar adabnomasiga hayotiy zarurat tug'ilgan edi va Yusuf Xos Hojib davrning talabini muvaffaqiyat bilan ado etdi. U Koshg'ardan Amudaryogacha cho'zilgan Sharqiy Turkistonning bir qismi, Yettisuv, Shosh, Farg'ona va qadimgi Sug'dni o'z ichiga olgan qoraxoniylar davlat hokimiyatini mustahkamlash, Tavg'achxon va Eloqxonlar o'rtasidagi ixtiloflarni bartaraf etish, hukmron doiralarning turli ijtimoiy tabaqalarga munosabatini belgilash, ma'rifat va obodonchilik uchun kurash, yaxshi xulq-odobni targ'ib qilish kabi maqsadlarini o'z oldiga qo'ygan. Bu bilan Yusuf Xos Hojib o'z davrining yirik ma'rifatparvari va donishmandi sifatida namoyon bo'ladi.

Abulqosim Firdavsiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Nosir Xisrav an'analarini davom ettirgan Yusuf Xos Hojibning mazkur asarida matematika, astronomiya, geografiya, falsafa, mantiq, siyosat, tibbiyot, tush ta'birini aytish, xullas, o'sha zamonning barcha bilimlariga doir fikrlarni uchratish mumkin.

«Qutadg'u bilig»da Allohning yer yuzidagi xalifasi – hazrat insonning ijtimoiy mohiyati, xislati, fazilatlari, qadr-qimmati, odob-axloqi, madaniyati, ma'rifati barcha mavjudotlar ichra buyuk va bebaholigi falsafiy tahlil etilgan. «Odamzod nasli, – deyiladi kitobda, – aslida yer yuzidagi barcha jonlilar orasidagi eng ulug'idir, ammo bu ulug'lik bilim bilangina to'liq, mukammallik kasb etadi».

Bilimni buyuk bil, uquvni ulug',
Shu ikkovi ulug'lar kishini to'liq.
O'quv qayda bo'lsa, ulug'lik bo'lur,
Bilim kimda bo'lsa, buyuklik olar.

Yusuf Xos Hojib ilm, aql-idrok, ma'rifat va ma'naviyatni inson hayoti hamda jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini tashviqot va tushuntirish bilan cheklanib qolmaydi. Shu bilan birga, bilim va zakovatni amalda ishlatish, inson manfaatlari yo'lida xizmat qildirish masalasiga ham birinchi darajali ahamiyat beradi: «Bilim va zakovatni egallab, uni kishilar uchun xizmat qildirmasdan kishilardan yashirib, sir tutib yurish yarashmaydi, mumkin ham emas. Chunki dengiz tubidagi injuni odam olib chiqmasa, uning soy toshidan farqi yo'q, yer qobig'idagi oltin tosh kovlab olingandagina shohlar boshidan o'rin oladi. Xuddi shuningdek, o'rganilib, amal qilinmagan bilim ham, yillar o'tgani sayin zim-ziyolikda, ro'yobga chiqmasdan befoyda yotaveradi».

Mutafakkir «Qutadg'u bilig» asarida kishilarni ezgulikka da'vat etib, inson ezgu ishlari bilan go'zal va ulug' sanalishini tasvirlab shunday yozadi:

Tirik oxir o'lar qora yer quchib,
Nom ezgu esa-chi, ketarmi ko'chib?!
Ikki xil nom qolar juda begumon,
Biri yaxshiligu, birisi yomon.

Dono maqtov olar, nodon-chi, so'kish,
O'zing o'yla, senga ma'qul qaysi ish.
Biri ezgu erdi – oldi duo,
Esiz bo'lgani-chi, so'kish beado.

Yusuf Xos Hojibning fikricha, farzand ko'rish va unga tarbiya berish har bir ota-ona uchun buyuk baxtdir. Ularsiz hayotning ma'nosi yo'q. Lekin bu narsa ota-onaga juda katta mas'uliyat yuklaydi, uning uddasidan chiqmoq, har bir ota-ona uchun ham farz, ham qarzdir. Shu bois ham bola tarbiyasida ota-onaning mas'uliyati alohida ahamiyatga ega, chunki ular tanlagan to'g'ri yo'l farzandning kelajagi va kamoloti uchun nihoyatda muhimdir.

Yusuf Xos Hojib o‘g‘il-qizning tarbiyasi haqida fikr yuritar ekan, ularning o‘zlariga xos xususiyatlariga alohida e’tibor berishni va ta’lim-tarbiya uzviy bog‘liq holda olib borilishini tavsiya etadi. Buning uchun farzand tarbiyasi erta boshlanib, maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lgan, ezgu niyatli va pokiza murabbiy taklif etilishi kerak.

«Qutadg‘u bilig»da bayon qilinishicha, Kuntug‘di Elig O‘gdulmishdan so‘radi:

– Kishi onasidan dono bo‘lib tug‘iladimi yoki muayyan bir yoshga yetganidan keyin zakovatli bo‘ladimi?

O‘gdulmish unga javob aytdi:

– Ey Elig! Bu san’atning nomi – bilim va o‘quvdir. Odamzod onasidan bilimsiz tug‘iladi. Ammo u bilib, o‘rganib, to‘rga chiqadi. O‘quv va zehni esa kishi tabiatida bo‘ladi. Bilim – ko‘p o‘qish va o‘rganish mahsulidir... O‘quv-idrok kishi miyasiga jo etilgan.

Agar bola kichiklikdan bilim o‘rgansa, uning idroki ham yaxshi bo‘ladi. Zakovati ortadi. O‘quv-idrok kishi uchun kishanday gap. U yomon va yaramas ishlarga yaqin yo‘lamaydi. O‘quvli tirikdir, o‘quvsiz – o‘lik. Kishi uyga, oddiy emas, qorong‘i uyga o‘xshaydi. O‘quv-idrok esa mash’al kabi unga nur sochadi. Shu uyni yoritadi. Ya’ni, kishini ravshanlikka eltadi. Tugun tutgan har bir ish u tufayli yechiladi.

Mas’udlikka ko‘nikmaylik va mahliyo bo‘lmaylik. Chunki, u o‘tkinchidir, boqiy emasdir. «Kim mas’uddir – undan ajramoqni o‘rgansin, kim baxtlidir – qayg‘urmoqni o‘rgansin», degan ekanlar.

O‘g‘il-qiz tug‘ilsa, yaxshi bilki, bas,
Uyda tarbiya qil, boshqa yerdamas.
Ustozning yaxshisini tanla, albatta,
O‘g‘il-qiz pok o‘sar, yomondan chetda.

O‘g‘il-qizga o‘rgat bilim ham odob,
Baxtga yor bo‘lur u,bo‘lmagay xarob.
O‘g‘il topsin san’at-hunarda kamol,
Bu hunar bilan u tera berar mol.

O'g'ilni tergab tur: bo'sh qo'yma zinhor,
Benaf, bebosh bo'lar, yugurar bekor.
Bolam tutsin desang donolik yo'lin,
Kichiklikdan tegiz bilimga qo'lin.

Buyuk bobomizning durdonalar majmuasida «til» masalasiga juda katta e'tibor berilgan. Tili natijasida balolarga uchragan kimsalar haqida tarixda istalgancha misollar topiladi. Bundan tashqari, ushbu joyda muallif juda ustalik bilan, turk tilining imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalangan. Boshimni kesmasdan turib «tilimni tiyayin», «jim bo'layin», «nojo'ya gapirib qo'yishning oldini olayin», «so'zimni tilim-tilim qilib tashlayin» degan ma'nolar kelib chiqadi. Yoki ushbu jumlaga e'tibor bering:

Tilingni avayla omondir boshing,
So'zingni avayla – uzayar yoshing.
Qora boshga yovuz yovdur qizil til.
Ne-ne boshni yedi, yana yegay, bil.

Bundan o'zgacha o'gitning bo'lishi mumkin emas. Mazmuni chuqur, tushunish yengil, ta'siri kuchli hikmatdir. Ushbu quyma jumlalar muallifning kim ekanligini manaman deb ko'rsatib turibdi. Ha, achchiq til, o'z o'rnida ishlatilmagan so'z ne-ne boshlarni yemadi, ne-ne boshlarga kulfat solmadi.

Demak, Yusuf Xos Hojibning talqinicha, kishi olamdan o'tganidan so'ng, bu dunyoda undan ikki xil nom qoladi, biri yomon, ikkinchisi yaxshi. Inson iloji boricha o'zidan yaxshi nom qoldirishi, yaxshi olqish olishi kerak, degan fikrni ilgari suradi:

Kishiga naf berar kishi ezgusi,
Kishi ezgusidir el-yurt ko'zgusi.
Ezgu shuki, elga naf bersa faqat,
Bu naf bilan eli topolsa rohat.
Ezgu bo'lar xalqqa mehribon kishi,
Mehribon bo'lgin, ey ezgular boshi.

Kishilarga to naf, berolsin kishi,
Oti tirik bo'lsin, maqtovli – ishi.
Tiriklik nishoni, nedir belgisi,
Kishiga bo'lmasa, uning ezgusi?!

Allomaning uqtirishicha, kishiga naf keltirmaydigan fazilatlar uch xil bo'ladi: o'jar, qaysar va yaramas, fe'li yomon kishilar, yolg'onchilar, baxil va pastkash kishilardir. Kimning fe'li yomon bo'lsa, uning omadi kelgan chog'da ham ishlari teskari bo'lib ketaveradi. Kimda-kim yolg'onchilik bilan mashg'ul bo'lsa, rostgo'ylar orasiga sig'maydi. Ochko'zlik, pastkashlik, tubanlik, yomonlik qadrsiz narsaday, u doimo rostgo'ylikning oyog'i ostida qolib ketaveradi, deyiladi:

Oq sut bilan kirsa qaysi bir qiliq,
O'lim tutmaguncha o'zgarmas yo'riq.
Mijozga qo'shilib kelarkan odat,
Uni buza olar bir o'lim faqat.
Bir udum yaralsa qorinda agar,
Qora yer qa'riga kirganda ketar.

«Qutadg'u bilig» asarida haqiqiy, samimiy do'stlikka yuksak insoniy fazilat sifatida baho berilgan. Do'sti ko'p mustahkam qoyaga o'xshaydi, deyiladi. Haqiqiy do'st qanday bo'lishi, uning soxta yoki soxta emasligini aniqlash yo'llari va mezonlari xususida qimmatli yo'l-yo'riqlar berilgan: «Do'stlik, yaqinlik ikki xil bo'ladi: biri ezgu niyatlar tufayli yuzaga kelsa, boshqa biri shaxsiy manfaatlarni deb bo'ladi».

Mutafakkir shoir hikmatlari katta hayotiy tajriba va qomusiy bilim mahsuli ekanligi, hayotiy negizi mustahkamligi, kundalik turmush va atrofdagi narsa-hodisalar bilan bog'lab tushuntirilganligi, shaklan go'zal, mazmunan teran, usluban ravon, badiiy yuksakligi, tilining soddaligi, timsol-u tashbehlarning tabiiyligi, fikr-xulosalarining samimiyligi, hassos va ta'sirchanligi bilan asrlarni bo'ylab keldi va bugungi kunda ham o'z ahamiyatini, ta'sir kuchini yo'qotgan

emas. Shoirning u yoki bu masala bo‘yicha pand-nasihatlari xuddi hikmatday jaranglaydi, xalq maqollariga o‘xshab ketadi – ularning badiiy barkamolligi va ma’rifiy ahamiyati ham shunda.

Asarning ayrim boblaridagi mulohaza va qaydlar Yusuf Xos Hojib hayotining so‘nggi yillarini xor-zorlikda o‘tkazganligini, jumladan, «Kitob egasi Yusuf – Ulug‘ Hojib o‘ziga pand beradi», «Zamona buzuqiligini, do‘stlar jafosini aytadi» boblarida shoirning moddiy ahvoli, yashagan ijtimoiy hayot haqida jiddiy fikrlar bor.

Turayin, borayin, olamni kezayin,
Vafoli kim ekan olamda, qidirayin...
Vafo qahati bo‘ldi, dunyo jafo bilan to‘ldi,
Vafo kimda ekan, men ozroq so‘rayin.

Agar men birorta vafoli odamni topsam.
Yelkamga ko‘tarayin, yuzimga surayin,
Agar men vafoli odamni topa olmasam,
Yovvoyi kiyik bilan tiriklik qilayin.

Kimni o‘zimga ko‘zdek yaqin tutgan bo‘lsam,
Shaytondek dushman bo‘lib chiqdi, shaytonni kin qilayin.
Kimni sevgan bo‘lsam, shirin jon kabi tutdim,
Undan jafo keldi, bas kimni sevayin.

Shoir eng sevimli kishilari, yor-u birodarlari, qarindosh-urug‘lari, osh-tuzini ichganlari ham undan yuz o‘girganlarini birma-bir o‘tib, chin odam topa olmay yolg‘iz iztirob chekayotganini, odam ham, olam ham buzilganini bayon qiladi.

Lekin Yusuf Xos Hojibning shikoyati boshqacha. Shoir o‘tmish, osoyishta davrni, qo‘ldan ketgan mavqeni qo‘msamoqda. Marhum maslakdoshlarini izlamoqda. Demak, bu davrda olim mansabdan ketib, barcha imtiyozlaridan mahrum bo‘lgan. Endi hech kim uni

nazar-pisand qilmaydi, tahqir etadi, kamsitadi, ba'zi yaqinlari, do'st deb yurganlari ham dushmanlik qiladilar. Shuning uchun u o'zi yashayotgan muhitni rad etadi, dasht-u sahrolarga bosh olib chiqib ketgisi keladi. Bunday hayotdan o'limni afzal biladi.

Bug'roxonga taqdim etilib, Xos Hojiblik mansabiga sazovor qilgan «Qutadg'u bilig» tarkibiga bu shikoyatnoma qanday qo'shilib qoldi, degan savol tug'iladi. Albatta, asarning bir nusxasi shoirning tasarrufida bo'lgan. Hayotining g'am-hasrat to'la kunlarida kitobi unga hamdam-u hamroh bo'lgan. Ana shu paytlarda asarning oxiriga hasbi hol xarakterdagi mazkur bobni ilova qilgan.

«Qutadg'u bilig»ga yirik epopeya yoki doston sifatida qarash yetarli emas, chunki bu asar tarkibida o'sha davrda mashhur bo'lgan masnaviy to'rtlik, qasidai holiyya kabi adabiy janrlar sintezini ko'rish mumkinki, buni qoraxoniylar davri adabiy muhitida yaratilgan asarlarning janrlar ko'lami haqidagi ma'lumot va namunalar sifatida qabul qilish mumkin.

«Qutadg'u bilig»ning uch qo'lyozma nusxasi fanga ma'lum: Hirot (Vena), Qohira va Namangan. Asarning ilk nashri 1870-yilda venger sharqshunosi Xerman Vamberi tomonidan amalga oshirilgan. Shundan keyin V.V. Radlov (1890), S.Ye. Milov (1929, 1951), R.R. Arat (1942, 1943, 1947, 1959), K. Karimov (1971), B. To'xliyev (1989) uni nashr etdilar. Lekin dostonning uchala nusxasi ham mukammal emas; Hirot (Vena) va Qohira nusxalarida ko'plab baytlar tushib qolgan. Namangan nusxasida esa nazmiy muqaddima yo'q, baytlarning o'rni almashgan. Asarning ayrim baytlarini R.R. Arat Anqara Maorif vazirligi kutubxonasidan, ayrimlarini qazilmalarda topilgan sopol ko'zachalarga yozilgan baytlardan olib, matnni to'ldirgan. Chunonchi, XIX asrda Volga daryosi qirg'og'ida joylashgan Saroychuk degan shaharga yaqin bir joydan oddiygina sopol ko'zacha topilgan. Ammo bu oddiy ko'zacha olimlar e'tiborini tortgan. Chunki unda «Qutadg'u bilig» dostonidan olingan misralar bitilgan bo'lgan.

Asar nemis, ingliz, fransuz, rus, chex, turk, uyg‘ur, xitoy va ko‘plab boshqa tillarga tarjima qilingan.

Adabiyotshunos olim Qayumjon Karimov Yusuf Xos Hojibning dunyoga kelishi va ulug‘ bir siymo sifatida tanilishi obyektiv hayotiy va qonuniy zarurat bo‘lganligini quyidagicha ifoda etadi: «O‘sha vaqtda yagona qo‘l ostida birlashgan ulkan davlatni boshqarish, hayotni to‘g‘ri izga solish yo‘l-yo‘riqlarini ko‘rsatib beruvchi donishmand kerak edi. Shunday kishi topildi. Bu Yusuf edi. O‘z davri o‘rtaga tashlagan dolzarb masalalarga u ziyrak ko‘z bilan qaradi. Shu bois uning 13,5 ming misradan iborat keng hajmli «Qutadg‘u bilig» nomli chuqur g‘oyaviy-falsafiy-didaktik asari maydonga keldi».

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Xalq og‘zaki ijodiyoti va yozma adabiy merosini siz qanday tushunasiz?
2. «Shohnoma» asari Somoniylar davri mahsuli ekanligini bilasizmi?
3. Abulqosim Firdavsiy ijodidan namunalar keltiring.
4. Kishilik jamiyatida qanchadan-qancha o‘zgarishlar bo‘lsa-da, nima uchun jahon kitobxonlari qalbida «Shohnoma»ning shuhrati so‘nmaganligi sababini aytib bering.
5. Mahmud az-Zamaxshariy islom dunyosining qaysi shaharlarida tahsil olgan?
6. Alloma qaysi asarida Xorazmga cheksiz muhabbatini, vatanparvarlik tuyg‘usini ta’kidlagan?
7. Mahmud az-Zamaxshariyga zamondoshlari tomonidan berilgan sharafli taxalluslari haqida to‘xtaling.
8. Mahmud Koshg‘ariyning asari haqida umumiy fikringizni bildiring.
9. Yusuf Xos Hojib o‘z asarida qanday mavzularni qamrab olgan?
10. Nima sababdan «Qutadg‘u bilig» asari Qoraxoniylar davlatining ma’naviy-axloqiy pandnomasi deb tan olingan?

Biz kim – mulki Turon, amiri Turkistonmiz.
Biz kim – millatlarning eng qadimi va
eng ulug'i, turkning bosh bo'g'inimiz.

Amir Temur

11-MAVZU. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT RIVOJI

Reja:

11.1. Amir Temur buyuk davlat arbobi, yuksak ma'naviyat sohibi.

11.2. Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan ravnaqi.

11.3. Movarounnahr va Xurosonda badiiy-ma'naviy sohada erishilgan yutuqlar.

Tayanch so'z va iboralar

Uyg'onish davri, ma'naviy salohiyat, ulug' davlat arbobi, «Temur tuzuklari», siyosat maydoni, vazirni tanlash, soliq siyosati, «Zafarnoma», Mirzo Ulug'bek, Samarqand ilmiy maktabi, «Ziji Kuragoniy», temuriylar davrida adabiyotshunoslik, Mavlono Gadoiy, Mavlono Sakkokiy, Mavlono Atoiy, Mavlono Lutfiy, Alisher Navoiy, «Xamsa», turkiy xalqlar ma'naviyati, ezgu insoniy fazilatlar, Bobur Mirzo, «Boburnoma».

11.1. Amir Temur buyuk davlat arbobi, yuksak ma'naviyat sohibi

Milliy mustaqillik tufayli jahon ma'naviyati va ma'rifati sohasida o'z o'rinlariga ega bo'lgan pir-u komil ajdodlarimizni va ular qoldirgan boy ma'naviy merosni teran anglash, o'rganish va ulug'lash im-

koniyati yuzaga keldi. Buyuk davlat arbobi, ilm-fan va madaniyat homiysi, yuksak ma'naviyat sohibi Amir Temur va uning avlodlari qoldirgan, abadiylikka daxldor merosi bugungi kunda xalqimiz ruhiy-ma'naviy poklanishi va milliy o'zligini anglashning bitmas-tuganmas chashmasidir.

Madaniyat taraqqiyoti jarayoni har qanday jamiyatda ham o'sha davr ijtimoiy-iqtisodiy voqeligi bilan bevosita bog'liqlikda va o'sha voqelikka hamohang holda kechadi. Lekin ba'zan shunday ham bo'lishi mumkinki, unda madaniyat taraqqiyoti yuqoridagi qonuniyat doirasidan balandlashib, o'z davriga nisbatan yuksakroq darajalarga ko'tariladi. Bunday hol jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy quvvatidan tashqari, ko'pincha o'sha jamiyatning ilg'or g'oyalari, madaniyatiga jamiyat va davlat tarafidan ko'rsatiladigan ulkan e'tibor ta'sirida bo'lishi mumkin.

Masala ana shu nuqtayi nazardan tahlil etilsa, Amir Temur davri madaniyatining yuksak darajada taraqqiyotga erishuviga sababchi bo'lgan ijtimoiy-ma'naviy vositalarni anglab olishga imkon beradi.

Albatta, IX – XII asrlarda Markaziy Osiyoda kechgan buyuk Uyg'onish davri kashfiyotlari, ilm-fan, madaniyat sohasidagi yuksalish keyingi asrlar, jumladan, Amir Temur zamoni ma'naviyatiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Shuningdek, Sohibqiron tomonidan Movarounnahrda yagona va qudratli davlat barpo etilishi hamda bu yerda tinchlik va osoyishtalikning ta'minlanishi ham ilm-fan va madaniyat ravnaqi uchun zarur omillardan edi.

Kesh begi bo'lgan Muhammad Tarag'ay g'oyatda fozil, insonparvar bo'lib, o'z davrining e'tiborli kishilari, din peshvolari, ulamolari, darveshlari, ilm-fan ahllariga o'ta xayrixohlik qilar, ularga doim izzat-ikrom, hurmat ko'rsatardi. Shu boisdan Kesh Qashqadaryo vohasining markazi bo'lish bilan birga, islomning mashhur ulamo-yu fuzalolari, peshvolari yig'iladigan muqaddas maskanga ham aylangan edi. Shu bois unga «Qubbat al-ilm al-adab» («Ilm-u adab qubbasi»)

degan nom berilgan edi. O‘sha davrning ulug‘ avliyolaridan biri sanalgan shayx Shamsuddin Kulolni Sohibqiron va uning otasi Muhammad Tarag‘ay pir tutganligi ham bejiz emas.

«Tarjimayi hol»dagi ma’lumotlarga asoslanib, Amir Temurning savodini chiqarish uchun barcha sharoitlar bo‘lib, turkiylar udumi asosida besh yoshga to‘lganidan boshlab kirishilgan. Shundan so‘ng u madrasaning boshlang‘ich tizimida tahsil oldi. Amir Tarag‘ay xalq taomiliga ko‘ra, hatto «go‘shti sizniki, suyagi bizniki» deyishni ham unutmaydi. Biroq bola ilk kunlardanoq, saboqqa bo‘lgan ixlosining balandligi bilan tengqurlari orasida shu qadar ajralib ko‘rinadiki, uning boshi uzra ustozining uzun xipchinni sermashiga hojat bo‘lmagan.

Shohrux Mirzo va Husayn Boyqaro davrida yashab o‘tgan muarrix Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkirat ush-shuaro» asarida shunday deyiladi: «Deydilarki, Sohibqiron yetti yoshligida otasi bilan bir qarindoshinikiga bordi. Ul kishi badavlat, nufuzli edi va farovonlik bilan kun kechirardi. (Uning) yetmishta turk va hind quli bor ediki, uning mollarini shundan bilsa bo‘ladi. O‘sha kishi Sohibqironning otasiga shikoyat qildi: «Xudo menga mol-u davlat berdi, lekin uni saqlashga (tamoman) ojizman. Qullarimiz sabr-u toqatli emaslar, farzandlarim (esa) salohiyatsiz. Shu sababli mol-u dunyomga nuqson yetmasa deb qo‘rqaman». Sohibqiron gapga aralashdi va dedi: «Ey ota, farzandlaringizga mollaringizdan bo‘lib bering va undan so‘ng ularni o‘z mol-u mulkiga daxl qilingkim, (ular) o‘z-o‘zi bilan ovora bo‘lsin. (So‘ng) turk qullarini hind qullarining tepasiga, qo‘yingki, hindlarni o‘z amr-u farmoniga bo‘ysundirsinlar. (Keyin) har uch qulni ulardan aqlliroq bir qulning ixtiyoriga topshiring. (So‘ng) ularning har birini yettitadan qulning amri qiling. (Keyin) yetmish qulga bosh bo‘lgan (ana shu) yettita qulni bir-birining ta’zim va tashrifiga buyuring. Ularni ko‘zdan qochirmang, (chunki) bir-birlari bilan ko‘p suhbat-

lashadilar». O‘sha kishi darhol Amir Tarag‘ayga dedi: «... sening bu farzanding jahonga podshoh bo‘ladi, chunki buni (uning) shu gaplaridan fahmlab turibman...»[1].

Madrasaning dastlabki bosqichida talabalar hoji domla rahbarligida Qur’oni karimni qunt bilan o‘rganib, to‘liq o‘zlashtirib oldilar. Amir Temur o‘ta tirishqoqligi, qobiliyatining kuchli ekanligi, darslarni qunt bilan bekam-u ko‘st o‘zlashtirib borishi bilan keskin ajralib turardi. Amir Temur yosh bo‘lishiga qaramay, mulohazalarining chuqurligi, mazmundorligi bilan ko‘pincha tengqurlarini lol qoldirar edi.

Amir Temur madrasaning boshlang‘ich davrini muvaffaqiyatli tamomlagandan so‘ng, tahsilni Madrasai Oliyada davom ettirgan. Uning teran fikrlashi, yuksak qobiliyati o‘z davrining ulamolari va fozillarini juda ajablantirgan. Ba’zan murakkab masalalarni bir zumda yechar, uning uchun har qanday vazifaning hech qanday qiyinchiligi yo‘q edi. O‘qish davomida u jahon mamlakatlarining tarixi, islom ta’limoti va huquqshunosligi, handasa, riyoziyot, jug‘rofiya va falakiyot ilmlarini puxta o‘rgangan, muhimi, ma’naviy olamini boyitgan.

«O‘n olti yoshga to‘lganimda otam meni masjidga olib keldi va ota-bobolarimdan qolgan odat bo‘yicha askarlarga boshchilik qilish huquqi shu kundan menga o‘tishini e’lon qildi». Masjidda namoz tugagandan so‘ng Muhammad Tarag‘ay shunday deganligi boshqa manbalarda ham qayd qilinadi: «Men kim amirzoda Amir Tarag‘ay ... shuni ma’lum qilamankim, o‘g‘lim Temur qo‘liga qilich tutadigan, qo‘y-qo‘zi va yerga egalik qilsa arzirli yoshga chiqdi. Ahli mo‘min xabardor bo‘lsinkim, men kim Amir Tarag‘ay, amirzoda ... o‘z mulki-amlokimning barini o‘g‘limga meros qoldiraman. Azroil tanamdan jonimni oladigan kunga qadar o‘g‘lim mening issiq-sovug‘imdan xabardor turadi. Ushbu joyda hozir bo‘lganlarga shuni ta’kidlab

---

[1] Davlatshoh Samarqandiy. Tazkirat ush-shuaro. – T.: «G‘afur G‘ulom», 1967, 264-bet.

qo'yishim joizki, o'g'lim Temur haqiqatan ham ajoyib inson bo'lib yetishdi...»[1].

«...Otam Amir Tarag'ayning hamda uning xusmidagi odamlarning barchasida ekinlar mo'l hosil berdi, qoramollar ham ko'p tug'di. Men o'z xo'jaligimni tartibga solishga kirishdim. Har o'n xizmatkor orasidan kattasini ajratdim, har yigirma besh yilqini bir to'daga va har o'n to'dani bitta xizmatkorga berdim. Har o'nta tuya bilan ming qo'yga qarab turish uchun ham xizmatkor ajratdim. Butun mulkimni boshqarib borishni alohida ishonchga sazovor xizmatkorga topshirdim»[2], deb aytadi.

Movarounnahr hokimi bo'la oladigan amirlar ko'p edi. Ana endi, nima uchun bu cho'qqiga aynan Amir Temur ko'tarila oldi, degan savolga javob izlaylik. To'g'ri, uning taqdirida bunday qismat avvaldan yozilgan edi, deyish oson. Ammo bunda eng muhim jihat adolat mezonidir, zero, uning xoh siyosiy, xoh ma'rifiy jabhalarda, qaysi hayotiy masala xususida bo'lmasin, u har bir kishiga, birinchi navbatda, insoniy qonun-qoidalar, tamoyillar bo'yicha yondashdi.

Amir Temur jahon tarixida nafaqat qudratli va gullab-yashnagan davlat barpo etgan va davlat arbobi, balki bunyodkorlik, ilm-ma'rifat homiysi, farovonlik uchun, ta'lim-tarbiya, xalqqa tinch mehnat sharoiti yaratish, umuman, xalq ma'naviyatining yuksalishi uchun kurashgan buyuk zot sifatida ham nom qozongan. Bu jihat Amir Temur faoliyatining har bir qirrasida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Amir Temur XIV asrning ikkinchi yarmida Turkistonda keng tarqalgan naqshbandiya ta`limotidan bahramand bo'ldi va keyinchalik bu e'tiqodga aylandi. O'sha davrda Turkistonning qayta rivojlanayotgan moddiy va ma'naviy madaniyati, tobora keskinlashib borayotgan siyosiy kurashlar va chingiziylar zulmiga qarshi ozodlik haraka-

---

[1] Davlatshoh Samarqandiy. Tazkirat ush-shuaro. – T.: «G'afur G'ulom», 1967, 273-bet.

[2] O'sha joy, 192-bet.

tining kuchayishi uning tafakkur doirasiga samarali ta'sir o'tkazdi. Amir Temurda dastlabki siyosiy, harbiy qarashlarning shakllanishida Tohariston (O'zbekistonning janubi, Amudaryoning o'ng va chap sohilidagi yerlar), Hisor tog'i etaklarida, Termiz shahri atrofida olib borgan harakatlari, ilk g'alabalari muhim o'rin tutadi. Ana shuning uchun ham u XIV asrning 50 – 60-yillarida Turkistonda bo'layotgan turli yo'nalishdagi siyosiy kurashlar, g'oyalar to'lqinida adashmasdan insoniy teranlik bilan ish tutdi, ma'naviy kamolot mardligida, dovyurakligida, Vatanga sadoqatida namoyon bo'lib bordi.

Amir Temur hali chingiziylar hukmdorligi sharoitida ham katta mansab, mulkka ega edi. Turkistonning boshqa feodallari singari o'zini siyosiy qarashlardan chetga olib, osoyishta yashashi mumkin edi. Biroq, Amir Temur bu imkoniyatlardan voz kechdi. Vatan ozodligi, mustaqilligi maqsadida og'ir, murakkab, xatarli yo'lni tanladi.

Juda ko'p, hech inkor qilib bo'lmaydigan tarixiy manbalar, dalillarga asoslanib ayta olamizki, Amir Temur ma'naviyati tobora qudratli ijtimoiy omilga aylanib borganligining asoslaridan biri – u hokimiyatga kelganga qadar o'n yildan ortiq vaqt davomida hech ikkilanmasdan Turkistonni xorijiy istilochilardan, g'ayridinlardan tozalash va barcha mayda mulklarni yagona markazga birlashtirishdek ulug' maqsad sari dadil borganligidir. Amir Temur bu yillarda bir qancha murakkab harbiy, siyosiy vaziyatlarga duch keldi, iztirob chekdi, biroq hech qachon chekinmadi, maqsadidan qaytmadi. Bunday hollarda uning mushohadasida manfiy qutblar emas, donoligi, tafakkuri, islomga bo'lgan samimiy e'tiqodi g'alaba qildi. Amir Temurga podsholik meros qolgan emas. U kuchlar teng bo'lmagan va uzoq davom etgan kurashda tantilik bilan, zukko tafakkuri, dono mushohadasiga tayanib, g'alabaga erishdi.

Aholining turmush darajasi ko'tarilishi ilm-fanning, turli sohalarning ravnaq topishiga va ulkan mutafakkirlar guruhi yetishib chiqishiga sabab bo'ldi. Amir Temur saltanati davridan boshlab hisob,

handasa, falakiyot, mantiq, ilohiyot, fiqh, falsafa, tarix, axloqshunoslik, geografiya, tibbiyot, san'at va adabiyot tez taraqqiy eta boshladi. Biz Amir Temurning faoliyati va turmush tarzi bilan yaqindan tanishar ekanmiz, uning o'z davrining bilimdon kishisi bo'lganligiga, olimlarning mehnatini qadrlaydigan, ularga g'amxo'rlik va homiylik qiladigan hukmdor ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Bu fazilatlarni u hali davlat tepasiga kelmasdanoq odat qilib oladi va butun umr ilm-fan ahllarini e'zozlab keladi.

Amir Temurning olimlarga qay darajada munosabatda bo'lganini «Temur tuzuklari»da keltirilgan ma'lumotlardan ham bilsa bo'ladi. Sohibqiron o'sha davrning yirik olimi, mantiq ilmining bilimdoni fiqhshunos Mir Sayid Sharif Jurjoniyni o'zining diniy rahnamosi va piri deb hisoblaydi. Saltanatni boshqarish borasida uning bergan qimmatli maslahatlarini inobatga olib, jamiyatni 12 toifaga ajratib, mamlakatni idora qilishda ularga tayanadi. Ana shu toifalarning boshida olim-u fozillar turadi. Demak, Amir Temur ulkan davlatni boshqarishda ularni asosiy tayanch, o'zining yaqin yordamchisi va maslahatgo'yi deb hisoblaydi. «Ular, – deb ta'kidlaydi Sohibqiron, – mening saroyimga doimo kelib-ketib, majlisimni bezab turishdi. Diniy, huquqiy, aqliy masalalarni o'rtaga tashlab, qimmatli fikrlar bildirishadi. Halol va haromga oid masalalarni men ulardan o'rgandim»[1].

Amir Temur vaqti-vaqti bilan olimlar, amirlar, sayyidlar, hakimlar, tabiblar, munajjimlar, muhaddislar, shayxlar, vazirlar va jamiyatning boshqa tabaqalari bilan kengashib, ular maslahatini olib turgan. Sharafuddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma»sida ana shunday kengashlarning biri haqida so'z ketadi. Bu kengashning e'tiborga molik tomoni shundaki, unda Amir Temur ko'proq olimlar va ularning davlat boshqarishdagi o'rni haqida gapiradi. Sohibqiron mamlakatda adolat o'rnatishda, tartib-intizom va tinchlikni mustahkamlashda, fuqarolarning turmushini yaxshilashda olimlarning yordami zarurligi

[1] Temur tuzuklari. – T.: «O'zbekiston», 2013, 90-bet.

haqida gapiradi. «Mamlakatning ahvoli, devonning suiiste'mol qilinganligi va qilinayotganligi, oddiy odamlarning joylardagi hokimlar tomonidan qisib qo'yilishi kabi hollar hammasidan ko'ra sizga ayondir, – deb murojaat qiladi Amir Temur ularga. Shular haqida ma'lumot berdingizlar, bu kabi adolatsiz ishlarni bartaraf etuvchi hamda shariat va qonunlarga muvofiq chora-tadbirlarni aytsangizlar yaxshi bo'lurdi. Agar oldin bizning diqqat-e'tiborimizda o'zga mamlakatlarni ishg'ol etish uchun bo'lgan harbiy yurishlar turgan bo'lsa, endilikda mamlakatda xotirjamlik o'rnatishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish bosh vazifamizdir. Bu oliyjanob ishda menga yordam berishlaringizni iltimos qilaman»[1]. Sohibqironning bu gaplaridan uning jamiyatda adolat o'rnatishda, fuqarolarning turmushini yaxshilashda olim-u fuzalolarga katta ahamiyat berganligi ayon bo'ladi.

Amir Temur olimlar bilan suhbat qurishni, ular bilan munozara olib borishni yoqtirgan. Bu suhbatlar islom dini, shariat, o'tmishdagi podsholar va ularning sulolalari taqdiri va boshqa masalalar atrofida bo'lgan. Olimlarning bu yig'ilishlarida Amir Temur, ko'pincha, din va tarix sohasida chuqur bilim egasi ekanligini namoyish etgan. Sohibqiron qaysi mamlakatda bo'lmasin, o'sha yerdagi olimlarni yig'ib, ularning bilimini sinab ko'rgan, undan keyin ba'zilarini Samarqandga jo'natgan. Ibn Arabshoh Amir Temur Shom (Suriya)ni zabt etganidan so'ng olimlarni yig'ib, savol-javob o'tkazganligini bayon qiladi. Amir Temur majlislarda olimlarga ataylab ilmoqli savol bilan murojaat qiladi: Qaysi daraja yuqori: ilm darajasimi yoki nasab darajasimi? Olimlar Amir Temur ularni ataylab sinab ko'rayotganligini fahmlab, javob berishdan hayiqib turishadi.

Shunda hanbaliy mazhabidagi qozi Shamsuddin an-Noblusiy Amir Temurga quyidagicha javob beradi: «Ilm darajasi nasab darajasidan yuqori bo'lib, buning martabasi xoliq va maxluq nazdida barcha martabalardan oliy. Past tabaqadagi fozil kishi yuqori tabaqali johildan

[1] Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – T.: «Sharq», 1997, 189-bet.

muqaddam qo‘yiladi. Otasi yoki onasining nasabi past bo‘lib, o‘zi pok bo‘lgan kishi xalifalikka sharaf nasabli kishidan avloroqdir. Bu xususdagi dalil hammaga ayondir. Bu payg‘ambar sahobalarining hammalari bir og‘izdan Abu Bakrni Alidan muqaddam qo‘yganligidir. Ular hammalari Abu Bakrni sahobalari ichida eng olimi, islomda ularga nisbatan sobitqadam va ular ichida dastavval iymon keltirgan zot deb, bir fikrda bo‘lganlar». Amir Temur olimning bergan javobidan to‘la qoniqish hosil qilib, unga qoyil qoladi va: «Vo ajabo, u qanday fasohatli kishi, so‘zida qanchalik shijoatli va dovyurak», deb xitob qilgan.

Amir Temur ma’naviy salohiyatining kuchi – uning iqtisodiy, moliyaviy, xo‘jalik, siyosiy, harbiy, huquqiy, davlatlararo munosabatlar faoliyatida, fanga, madaniyatga, adabiyotga, san’atga, me’morlikka munosabatida yaqqol namoyon bo‘ldi. Sohibqiron ma’naviyati – uning nihoyatda kamtar, hazil-mutoyibaga moyil, o‘tkir so‘zligida, muslimlar, malikalarga munosabatida o‘ta iltifotliligida, katta-kichik muxoliflariga nisbatan kechirimliligida, bilib-bilmay yo‘l qo‘ygan xatolarni ko‘pchilik oldida oshkora e’tirof etganligida, har bir toifa, mansabdagi insonlarga alohida hurmat-ehtirom bildirganligida, hatto shohona qahr-g‘azab ham adolatga, haqiqatga asoslanganligida, harbiy mahorati, ya’ni kam kuch bilan katta talafotsiz dushman ustidan g‘alaba qozonish kabi xislatlari amalda namoyon bo‘lgan.

Alisher Navoiy o‘zining «Majolis un-nafois» asarida Amir Temur haqida bunday deb yozadi: «Mulk shajaralarining bo‘stoni va salotin gavharlarining ummoni, xoqoni Sohibqiron, ya’ni Temur Ko‘ragon – agarchi nazm aytmoqqa iltifot qilmaydurlar, ammo nazm va nasrni andoq xub mahal va mavqeda o‘qubdurlarkim, aningdek bir bayt o‘qig‘oni ming yaxshi bayt atqoncha bor». Hazrat Alisher Navoiy tavsifi bo‘yicha, Amir Temur she’r yozish yoki nasrda ijod qilish bilan shug‘ullanmasa-da, nazm va nasrni teran tushunadigan, nazm o‘qiganda g‘oyat ma’nodorlik bilan uqib olish qobiliyatiga ega bo‘lgan hukmdordir, ya’ni u faqat buyruq bilan rahbarlik qiladigan shoh emas,

ma'naviyat bilan suyagi qotgan, o'z faoliyatida madaniyatni vosita qilib olgan mo'tabar yurtboshidir.

Amir Temur faoliyatini, xususan, uning boy shaxsiyatini badiiy adabiyotsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Amir Temurning davlat siyosati tufayli turkiy tilda ham badiiy adabiyot keng rivojlana boshladi. Iste'dodli shoir Haydar Xorazmiy «Gulshani asror» dostonida bu davrdagi adabiyotda turkiy til birinchi o'ringa ko'tarila boshlaganini ta'kidlab, bu ko'tarilish faqat til hodisasi bilangina emas, balki umuman, hayotda turkiy xalqlarning mavqei orta boshlagani bilan ham bog'liq ekanini izohlab, shunday yozgan edi:

Turk zuhuridur ochunda bu kun,
Boshla uluq yir bila turkona un!
Turk surhdini tuzuk birla tuz,
Yaxshi ayolg'u bila ko'kla qo'buz.

Amir Temur Kamol Xo'jandiyning hayotida muhim rol o'ynagan. Kamol Xo'jandiy To'xtamishxon buyrug'iga ko'ra Oltin O'rdaga – saroyga bandi qilib olib ketilgan. Shoirning bir necha yillik umri bu shaharda tutqunlikda kechgan. Amir Temur 1395-yilda To'xtamishxonni yengishi bilan Kamol Xo'jandiyga yana Tabrizga qaytib kelishiga imkon yaratgan. Kamol Xo'jandiy o'z g'azallaridan birining maqtaida yozadi:

Kamol on damki, xohi did bo yoron karim xudo,
Bigo': – «In davlat az yumni shahi Sohibqiron didam».

Tarjimasi:

Kamol, har vaqt agar bo'lsang birodarlar bilan hamdam,
Degil: «Oni ul shohi Sohibqiron tufayli ko'rdo'm».

Amir Temurning Hofiz Sheroziy bilan uchrashuvi haqida hikoya qilinishicha, Amir Temur 1387-yili Sherozni zabt etganda:

Agar on turki Sherozi bo dast orad, dili moro,
Ba xoli hinduxush baxsham Samarqand-u Buxororo.

Ya'ni:

Agar ko'nglimni shod etsa o'sha Sheroz jononi,
Qora xoliga baxsh etgum Samarqand-u Buxoroni, –

matlasi bilan boshlangan mashhur g'azalni yozgan «Hofiz» laqabli shoir shu shaharda yashashini bilib qoladi. Hofiz o'z g'azalining bu baytida Amir Temur butun kuch-g'ayratini ishga solib, obod qilgan Samarqand va Buxoro shaharlarini o'zi yaxshi ko'rgan jononning bir dona qora xoliga berib yuborishga tayyorligini izhor etgandi. G'azal xalq orasida nihoyatda keng tarqalib ketgan, hatto hamma yerda qo'shiq qilib ham aytilar edi. G'azalni yozgan shoirning bunday tantiligi, saxiyligidan darg'azab bo'lgan Sohibqiron darhol uni topib kelishni buyuradi. Bu vaqtda yoshi oltmishlardan oshgan, ustiga eski janda kiygan, ahvoli nochor shoirni Amir Temur huzuriga olib kelishganida u shoirga o'ta norozilik ohangida:

– Men Samarqand bilan Buxoroning dong'ini ko'tarish uchun qancha mamlakat va xalqlarni zabt etsam-u, sen ularni qandaydir bir jononning bitta xoliga tuhfa qilib yuborsang! Bunga qanday botinding? – deydi.

– Ey Sohibqiron! – debdi bunga javoban shoir. – Egnimdagi jandamga, ahvolimga qara! Shunday isrofgarchiligim meni oxiri shu ahvolga solib qo'ydi-da!

Shoirning Sohibqiron oldida o'zini yo'qotmay, hazil bilan shunday chiroyli, haqqoniy javob qilgani Amir Temurga xush kelib, u ozor ko'rmay uyiga qaytib ketgan ekan.

Mustamlakachilik, ulug'davlatchilik yillarida butun madaniy, ma'naviy hayotdagi tanazzul kabi, milliy qadriyatlarimiz tarixi ham soxtalashtirildi. Jumladan, Turkiston xalqlarining ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayotida muhim o'rin tutgan vatandoshimiz Amir Temur ijtimoiy faoliyatiga, shaxsiga, ruhiga, xokiga nisbatan hurmatsizlik qilindi. Bobokalonimiz ham foniyda, ham boqiyda katta-katta sinovlardan eson-omon o'tib keldilar. Vatanimiz mustaqilligi sharofatidan

nafaqat avlodlar, balki Amir Temur singari ulug‘ ajdodlarimiz ham bahramand bo‘lmoqdalar. Chunki istiqlol ma’naviyati nafaqat kelajak yo‘limizni yoritdi, balki o‘tmishimizni ham turli xil xas-cho‘plardan tozaladi. Buning ustiga hech qayerda yozilmagan qonuniyatga asoslanib aytsak, Amir Temur har qanday maqtovlarga muhtoj emas. Chunki u kishi hayotliklaridayoq barcha sodiq va g‘arazli, uzoq va yaqin avlodlarga o‘z javoblarini aytib qo‘yganlar.

Yuksak ma’naviyatli insonlar umumxalq manfaatlarini ko‘zlab davlat, jamiyat ahamiyatiga molik yirik tadbirlarni amalga oshirishga qodir bo‘ladilar. Sohibqiron Amir Temur ana shunday sharqona, islomiy aql-zakovatli, ma’naviyatli inson bo‘lgan. Sohibqiron ma’naviyatining ummoniyligi, tiniqligi – u dunyoviy, islomiy qadriyatlar qorishmasida mujassamlashganligidir.

11.2. Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan ravnaqi

Amir Temur va temuriylar davri Sharq Uyg‘onish davrining ikkinchi bosqichi bo‘lib tarixga kirdi. O‘sha davrda Markaziy Osiyoda moddiy va ma’naviy madaniyatning gurkirab o‘sishi uchun shart-sharoit yaratildi. Bu – o‘zbek xalqining faxri, g‘ururi, Sohibqiron Amir Temur nomi va faoliyati bilan bog‘liq.

Hofizi Abruning yozishicha, Amir Temur turk, arab va eronliklar tarixini chuqur bilgan. Amaliy jihatdan foyda keltiradigan har qanday bilimni qadrlagan. Odatda, u tibbiyot, riyoziyot, falakiyot, tarix, adabiyot, tilshunoslik ilmi namoyondalari, shuningdek, ilohiyot va diniy sohadagi mashhur ulamolar bilan suhbatlar o‘tkazardi. Amir Temur saroyida ulamolardan Mavlono Abdujabbor Xorazmiy, Mavlono Shamsuddin Munshi, Mavlono Abdullo Lison, Mavlono Bahriddin Ahmad, Mavlono Nu’monnuddin Xorazmiy, Xo‘ja Afzal, Mavlono Alouddin Koshiy, Jalol Koshiy va boshqalar faoliyat olib borgan.

Amur Temur va temuriylar davrini yoritishga oid asarlardan muhim ahamiyatga egalari quyidagilar: «Temur tuzuklari», Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma», Mu'innuddin Natanziyning «Muntaxib ut-tavorixi Mu'inniy» («Saylanma tarixi»), Rui Gonsales de Klavixoning «Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat» kundaligi (1403 – 1406-yillar), Sharafuddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Hofizi Abruning «Zubdat ut-tavorix», Ibn Arabshohning «Ajoyib ul-maqdur fi tarixi Taymur» («Temur tarixida taqdir ajoyibotlari»), Abdurazzoq Samarqandiyning «Matlai sa'dayn va majmai bahrayn» («Ikki saodatli yulduzning chiqish va ikki dengizning qo'shilish joyi»), Mir Muhammad Mirxondning «Ravzat us-safo fi siyratul-anbiyo val-muluk val-xulafo» («Payg'ambarlar, podsholar va xalifalarning tarjimayi holi haqida jannat bog'i»), Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkirat ush-shuaro» va boshqalar.

Sohibqiron Amir Temurning hayotligida, bevosita uning topshirig'i asosida **Nizomiddin Shomiy (? – 1412)** tomonidan yozilgan «Zafarnoma» – Amir Temur davlati tarixiga bag'ishlangan asar. «Zafarnoma»ni yozishda Amir Temurning munshiy va kotiblari ham nazm, ham nasrda, forsiy va turkiy tillarda yozgan ma'lumotlar, muallifning 1400 – 1404-yillar davomida Sohibqiron yurishlarida bo'lib, o'zi ko'rgan-bilganlari, Hindiston yurishi voqealari qismining bayoni uchun G'iyosiddin Alining «Ruznomai g'azavoti «Hindiston» («Hindistonga yurish kundaligi») asari asosiy manba bo'lib xizmat qilgan.

«Zafarnoma» tarixiy asar sifatida Amir Temur hukmronligi davridagi O'rta Osiyo, Oltin O'rda xonligi, Ozarbayjon, Eron, Afg'oniston, Iroq, Suriya, Misr, Turkiya va boshqa mamlakatlar tarixiga oid voqealarni o'z ichiga olgan. Asar muqaddimasida Amir Temur tarix sahnasiga chiqqan 1360-yilga qadar O'rta Osiyoda hukmronlik qilgan chingiziy hukmdorlar haqida qisqa ma'lumot berilgan. So'ngra Amir Temurning XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrning boshida qilgan yurishlarining batafsil bayoni keltirilgan.

tugatadi. Uning 4-jildidagi «Zubdat ut-tavorixi Boysunquriy»da tarixiy voqealar 1417-yilga qadar yetkazilgan. Hofizi Abruning asarlarida ijtimoiy-iqtisodiy ma'lumotlar, bizgacha yetib kelmagan asarlaridan parchalar va muallifning o'z davriga oid xabarlari keng o'rin olgan.

Ibn Arabshoh (1388 – 1450) – arab tarixchisi. Amir Temur Shom (Suriya)ni egallagach (1401), Ibn Arabshohni qarindosh-urug'lari bilan Samarqandga keltirgan. Bu yerda u mashhur olimlardan ta'lim olgan, fors, mo'g'ul va turk tillarini o'rgangan hamda adabiyot va ilohiyot bilan shug'ullangan.

Ibn Arabshoh o'nlab asarlar muallifi. Biz uchun juda noyob hisoblangan «Ajoib ul-maqdur fi tarixi Taymur» («Temur tarixida taqdir ajoyibotlari») Ibn Arabshohning eng mashhur asaridir. Bu asar «Amir Temur tarixi» nomi bilan Ubaydulla Uvatov tomonidan o'zbek tilida nashr qilingan.

Ibn Arabshoh Amir Temurga nisbatan dushmanlik ruhidagi asarlar yozgan mualliflar jumlasiga kiradi. Bu hol uning asarida to'liq aks etgan. Shunga qaramay, Ibn Arabshoh asarida Amir Temur davlati va unga chegaradosh mamlakatlar siyosiy, xo'jalik va madaniy turmushini qo'shimcha ravishda oydinlashtirib beruvchi ko'pdan ko'p diqqatga sazovor ma'lumotlarni keltirgan.

Abdurazzoq Samarqandiy (1413 – 1482) – mashhur sayyoh, elchi va tarixchi. Tafsir, hadis, tarix, til va adabiyot fanlarini puxta egallagan. Shohrux Mirzo saroyida diplomatik yozishmalarni olib borishda qatnashgan, elchilar boshlig'i sifatida 1442 – 44-yillarda Hindistonga borib keladi. 1446 – 47-yillarda Shohrux Mirzo uni diplomatik topshiriq bilan Gilonga jo'natadi. Abdurazzoq Samarqandiy Movarounnahr va O'rta Sharq mamlakatlarining XIV–XV asrlaridagi tarixiga oid boy ma'lumotlarni o'zida jam qilgan «Matlai sa'dayn va majmai bahrayn» («Ikki saodatli yulduzning chiqish va ikki dengizning qo'shilish joyi») nomli tarixiy asari bilan mashhur.

Mirzo Ulug‘bek (Muhammad Tarag‘ay, 1394 – 1449) – buyuk o‘zbek astronomi va matematigi, davlat arbobi. O‘rta Osiyo xalqlari ilm-fani va madaniyatini o‘rta asr sharoitida dunyo fanining eng yuqori pog‘onasiga olib chiqdi.

Mirzo Ulug‘bek shaxsiy hayotida va siyosiy faoliyatida otasi Shohrux Mirzo va bobosi Amir Temurga nisbatan butunlay boshqacha yo‘l tutdi. Agar Amir Temur va Shohrux Mirzolar shariat qonunlariga berilib, o‘zlariga madadkor bo‘lgan musulmon ruhoniylari ta’siriga suyangan holda, ko‘proq diniy muassasalar uchun zarur binolar, ya’ni masjid, maqbara va xonaqohlar qurdirgan bo‘lsalar, Ulug‘bek Mirzo o‘z faoliyatida ulardan o‘zgacha yo‘lni – ko‘proq madaniy va ilmiy muassasalar qurish, mamlakatga ma’rifat nurini sochish, madaniyatni taraqqiy ettirish, obodonchilik, ma’murchilik va ijtimoiy taraqqiyot yo‘lini tanladi.

Uning qilgan eng buyuk ishi – Samarqand ilmiy maktabini, o‘sha davr akademiyasini barpo etganligi bo‘ldi. Bu ilmiy maktabda 200 dan ortiq olimlar faoliyat olib borgan. Ular orasida eng yiriklari Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy edi. Mirzo Ulug‘bekning ilmiy maktabi o‘z faoliyatida O‘rta Osiyolik mashhur olimlar Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abul Abbos al-Javhariy, Ibn Turk al-Xuttaliy, Xolid al-Marvarrudiy, Ahmad al-Marvaziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniylar boshlab bergan ilmiy an’anaga asoslangan.

Hali ancha navqironlik paytidayoq Mirzo Ulug‘bek ijtimoiy, madaniy va ilmiy inshootlarga oid keng miqyosli qurilish bilan shug‘ullana boshlaydi. Uning farmoyishi bilan Buxoro, Samarqand va G‘ijduvonda madrasalar bunyod etilgan, ular nafaqat diniy-ruhoniy, balki dunyoviy ta’lim markazi bo‘lgan. Zero, rasadxona qurilishidan oldin Mirzo Ulug‘bek hozirgi tilimizda aytadigan bo‘lsak, ilmiy kadrlar tayyorlash bilan shug‘ullangan, madrasada o‘qitish dasturlarini kengaytirgan, unda ilohiyotshunoslik fanlari bilan bir qatorda dun-

yoviy fanlar, jumladan, falakiyotshunoslik, riyoziyot va tarix fanlari o‘qitilgan.

«Madrasaning tog‘ shukuhli hay’ati ustuxon band mustahkamligidan falak binosidan tinchlikni olg‘on, yuksaklik jihati bo‘lmish azamatnishon peshtoqi og‘irligidan yer-u zaminga zilzila solg‘on aning oliy darajali kungiralarini qudrat ustasi falak ayvonining mukarnaskorlig‘i birlan bir xilda yosog‘on, lojuvard koshinlarini qazo naqqosh falakning charog‘on yulduzlari birlan bir tartibda naqsh qilub, alarga daxldor qilg‘on, quyosh kabi jilvasi, zarnigor naqshlari go‘zal falak gumbazi birla hamvazn erdi»[1]. Madrasa ikki qavatli, ellikta hujrasi bor, har bir hujra uch xonadan: qaznoq, yotoqxona va darsxonadan iborat. Bu madrasada yuzdan ortiq talaba tahsil olgan va istiqomat qilgan. Madrasaga o‘sha zamonning iqtidorli olimlaridan Mavlono Shamsuddin Muhammad Xavofiy yetakchi mudarris bo‘lgan.

Mashhur adib Zayniddin Vasifiyning «Badoi’ul-vaqoi’» kitobida diqqatga sazovor bir hikoyat bor: «Aytishlaricha, Ulug‘bek madrasasini qurayotganlarida mavlono Xavofiy uning tezroq qurib bitkazilishiga ko‘maklashgan. Chunonchi, u har kuni kelib ustod qo‘liga g‘isht uzatib turgan. Bir kuni mavlono Xavofiy po‘stinini teskari kiyib olib g‘isht to‘dalari orasida o‘tirgandi. Bir kishi Mirzo Ulug‘bekdan so‘radi:

– Shohim, bu ulkan ajoyib madrasa tugay deb qoldi. Unga kimni mudarris tayinlamoqchisiz?

Mirzo javob berdi:

– Bu madrasa mudarrisi jame’i ilmlarga mohir va barcha fanlardan bahramand va komil kishi bo‘lishi kerak.

Mavlono Xavofiy joyidan turib, shunday dedi: – «Ana muta’ayyanun bi hazaul-mansabi» («Bu mansabga men tayin etilurman»).

Mirzo uning kimligi, qayerlik ekanligi va nomini so‘radi. U kishiga shunday javob berishdi:

[1] Pasilov B. Ulug‘bek. – T.: «Abu matbuot konsalt», 2011, 48-bet.

– Uni mavlono Muhammad deyishadi. Xavof viloyatidan. Ancha muddatdan beri bu shaharga kelib, jiddu jahd bilan tahsil ko‘rdi. Hikoya qilishlaricha, Mirzo uni yoniga chaqirib har ilmdan ba’zi narsalarni so‘ragan. Nimani so‘ramasin, ma’qul va maqbul javob olgan. Keyin uni hammomga olib borib yuvintirishni buyurib, o‘zi xos jomalar kiydiradi va aziz tutadi: uni Qozizoda Rumiy huzuriga boshlab borib, ko‘p ta’rif-tavsif qildi va o‘ziga hamsaboq qildi.

Aytishlaricha, madrasa ochilganda yig‘ilishib, munozara o‘tkazishgan kun mavlono Xavofiy Majastiy haqida dars o‘qigan. O‘sha yig‘ilishda to‘qson donishmand hozir ekan. Uning so‘zlarini Mirzo va Qozizoda Rumiydan bo‘lak hech kim tushunmagan.

Mirzo debdilarki, mavlono Xavofiy jame’ ilmlar va fanlar sohasida shunday miqyosga egaki, agar barcha kitob va risolalarni daryoga tashlasalar va biror ilmdan olamda asar qolmasa, u barcha ilmlarni hayotga qaytara olishga qobildir. Biror ilmdan va fandan nuqta yoki daqiqa nobud bo‘lmagan»[1].

Mirzo Ulug‘bekning Buxoro va G‘ijduvondagi madrasalari ham Samarqand madrasasidek to‘g‘ri to‘rtburchak tarxga va chorsu hovliga ega. Hajmiy tuzilishi va tarxining o‘lchovlari jihatdan Samarqand madrasasiga nisbatan kichik bo‘lsa-da, ular ham ancha mukammal ishlangan. Hovlilar ikki muqobil ayvonli, Buxoro madrasasi ikki qavatli hujralar bilan, G‘ijduvondagi madrasa esa bir qavatli qilib qurilgan. Madrasalar hovlisi berk, lekin o‘ziga xos jozibador qilib bezatilgan. Madrasa tarzlari serhasham, puxta va teran kompozitsiyalarda, go‘zal va mahobatli qilib ishlangan. Shunisi diqqatga sazovorki, Mirzo Ulug‘bek madrasalaridagi koshinkoriy bezaklar bir-birida hech takror ishlatilmagan.

Mazkur holat san’at va ta’lim homiysi Mirzo Ulug‘bekning ilmiy qarashlari naqadar keng bo‘lganini bildiradi, falakshunoslik va riyoziyotdan uning o‘zi ham ta’lim bergan. Mirzo Ulug‘bekning eng

[1] Zayniddin Vasifiy. Badoi’ul vaqoi’, – T.: «G‘ofur G‘ulom», 1979, 18-19-betlar.

yaqin shogirdlari va safdoshlaridan biri Jamshid al-Koshiy bunday deb yozgandi: «Ulug'bek haftada bir necha marta Samarqand madrasasidagi mashg'ulotlarda ishtirok etar, muhokama qilinayotgan ilmiy masalalar va muammolarga doir mubohasalarda faol qatnashar edi: «Goh-goh madrasada A'lo Hazratlari va shogirdlari o'rtasida turli sohaga oid bilimlar bo'yicha shunday bahslar yuzaga keladiki, ularni ta'riflashning iloji yo'qdir. Hatto, u to ilmiy masala to'la hal etilmaguncha va hammasi tushunarli ekanligiga zarracha shubha-gumon qolmay, yagona fikrga kelmaguncha muhokamaga nuqta qo'ymas edi. Ba'zan A'lo hazratlariga hurmat yuzasidan kimdir uning munozaralarini ma'qul deb topsa, u norozi ohangda: «Siz bizni nodonlikda ayblamangiz», – deb qo'yar edi»[1].

Jamshid al-Koshiyning so'zlari Mirzo Ulug'bekning teran aql, keng dunyoqarash va dohiyona tabiat egasi ekanligidan dalolat beradi, chunki chinakam iste'dodli odamgina o'ziga tanqid ko'zi bilan qaray oladi, o'z bilimining cheksiz emasligini tushunadi, garchi uning fikriga zid kelgan taqdirda ham o'zgalar fikri bilan hisoblashadi, bag'ri kenglik qiladi.

Mirzo Ulug'bek o'sha davrda dunyoda eng katta astronomiya inshootlaridan biri – Samarqand rasadxonasini qurdirdi. O'z davrining eng ilg'or ilmiy tekshirish asboblari bilan qurollangan olimlar «Ziji Ko'ragoniy» – Yulduzlar jadvalini tuzdi.

Tekshirishlar natijasida ma'lum bo'lishicha, Mirzo Ulug'bek rasadxonasi nihoyatda puxta qurilgan. Avvalo, rasadxona qurilishi uchun joy tanlashga katta ahamiyat beriladi. Bu joy kuzatuv ishlarini olib borishga qulay bo'lsin uchun, tevarak-atrofdan o'z balandligi bilan ajralib turishi va uning zamini qattiq jinsli qatlamdan tarkib topgan bo'lishi kerak edi.

Rasadxona uch qavatli, g'oyat hashamdor va pishiq g'ishtdan ishlangan ulkan bino bo'lgan. Bino balandligi 30,4 metr, aylanasining

[1] Pasilov B. Ulug'bek. – T.: «Abu matbuot konsalt», 2011, 52-bet.

diametri 46,4 metrga teng. Binoning asosiy qismini radiusi 40,2 metrli suds (sekstant) deb atalgan ulkan kuzatish asbobi tashkil qilgan. Sudsning saqlanib qolgan qismi yer ostida joylashgan bo‘lib, qolgan qismi yer sathidan 30 metr baland bo‘lgan. Rasadxona binosi kattaligi, qurilish uslubining originalligi va jihozlanishi jihatdan Sharq va Yevropa mamlakatlaridagi barcha boshqa astronomik inshootlardan ustun turgan. Suds astronomiyaning asosiy doimiyliklari – muaddil (ekvator) va falak al-burj (ekliptika) tekisliklari orasidagi burchakni o‘lchash, yillik protsessiya doimiysini va boshqa fundamental astronomik doimiyliklarni aniqlashga imkon bergan. Rasadxonada sayyoralar, Oy harakati tekshirilgan. Kichik o‘lchamli asboblar, armilyar sfera 2,4 va 7 halqadan iborat o‘lchash asboblari, Quyosh va yulduz soatlari, usturlob (astrolyabiya) va boshqalar bo‘lgan. Rasadxona ichida katta zallar, turli katta-kichik xonalar, 15 ming kitobga ega bo‘lgan kutubxona ham bo‘lgan.

Rasadxona binosining sirti koshin va sirli parchinlar bilan bezatilgan. Rasadxonaning xonalariga Mirzo Ulug‘bek o‘zi va o‘zidan oldin o‘tgan olimlarning astronomiya sohasidagi muhim yutuqlarini turli shakllar, tasvir va raqam-naqshlar bilan chizdirtiradi. Falakiyot, yer kurrasi, yetti iqlim bilan bog‘liq bo‘lgan kashfiyotlar, muhim belgi va ramzlar rasadxona bezaklari sifatida uning ichki devorlari va shiplariga ham tushirilgan edi. Ularni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan muarrix Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha: «... u oliy bunyod va ulug‘sifat imoratning xonalari ichiga to‘qqiz falakning hay’ati-yu, to‘qqiz (osmon) doiralari shakllarini darajalar, daqiqalar, soniyalardan tortib to oshiralargacha (chizildi) hamda aylanuvchi falaklar, yetti sayyora, sobita yulduzlar ko‘rinishi va yer kurrasi hay’ati-yu, iqlimlar suratlarini tog‘lar, biyobonlar ... dilnazar naqshlar-u benazir raqamlar bilan chizildi»[1].

[1] Abdrurazzoq Samarqandiy. Matlai sa’dayn va majmai bahrayn. – T.: «O‘zbekiston», 2008, 278-bet.

Mirzo Ulug‘bek nazdida rasadxonaga ishlangan bunday benazir naqsh-tasvirlar ushbu bino bilan uzoq saqlanishi va kelajak avlodlarga yetib borishi, savodli insonlar uchun kelgusida muhim dastur bo‘lib xizmat qilishi lozim edi. Tasvirlarning rasadxona xonalariga chizilishi esa ulardan hamma savodli kishilarning barobar foydalanishi imkonini tug‘diradi. Mirzo Ulug‘bek vaqt o‘tishi bilan ilmiy yutuqlar majmui bo‘lgan ushbu tasvirlarning xalq mulkiga aylanajakligiga ishongan edi.

Rasadxonada olib boriladigan ilmiy izlanishlarning nihoyatda aniq chiqishini ta’minlash uchun bu omillarning o‘zi kifoya qilmasdi. Gap shundaki, Mirzo Ulug‘bek rasadxonasi teleskopli astronomiyagacha bo‘lgan davrda ish ko‘rgan edi, ya’ni unda olib borilgan ilmiy kuzatishlar, aslida, oddiy ko‘z bilan bajarilgan. Shuning uchun ham rasadxonadagi astronomik asboblarning kattaligi va konstruksiyasi, aniqlik nuqtayi nazardan, nihoyatda muhim rol o‘ynagan.

Mirzo Ulug‘bek rasadxonasidagi asosiy asbobning radiusi qirq metru to‘rt santimetr, yoyining uzunligi esa qirq ikki metrdir. Teleskopli astronomiyagacha bo‘lgan davr tarixida bunday katta asbob bo‘lmagan. Faxri sekstant deb ataladigan ana shu asbob yoyining bunchalik katta bo‘lishi uni faqat graduslarga emas, daqiqalarga va hatto undan ham kichik o‘lchov birliklariga bo‘lish imkonini bergan. Chunonchi, sekstant yoyining 70,2 santimetri – 1 gradusga, 12 millimetri – 1 daqiqaga, 1 millimetri esa – 5 sekundga to‘g‘ri keladi. Millimetrni yana mayda ulushlarga bo‘lish, ko‘rinib turibdiki, amaliy jihatdan juda mushkul.

Mirzo Ulug‘bek rahbarligida ish ko‘rayotgan olimlar – Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid, Ali Qushchi kabi olimlar dunyo tuzilishi haqidagi geliotsentrik nazariyani ochishga yaqinlashib qolgandilar. Ular dunyomizning markazida quyosh turishi ham mumkinligi haqida faktik materiallarni tayyorlab qo‘ygan edilar. Ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiy Mirzo Ulug‘bekka baho berib:

Temurxon naslidan sulton Ulug'bek,
Ki olam ko'rmadi sulton aningdek.

Aning abnoyi jinsi bo'ldi barbod,
Ki davr ahli biridan aylanmas yod.

Valek ul, ilm sori topti chun dast,
Ko'zi olinda bo'ldi osmon past.

Rasadkim bog'lanmish – zebi jahondur,
Jahon ichra yana bir osmondur.

Bilib bu nav' ilmi osmoniy,
Ki andin yozdi «Zichi Ko'ragoniy».

Qiyomatg'a dekincha ahli ayyom,
Yozorlar oning ahkomidin ahkom.

«Ziji Ko'ragoniy», «Ziji jadidi Ko'ragoniy» («Ko'ragoniy yangi astronomik jadvali») ilmiy asari ikki bo'limdan (batafsil yozilgan muqaddima va vaziyatlari ekliptik sistemada berilgan 1018 ta yulduzning jadvalidan) iborat. Muqaddima to'rt qismga ajratilgan.

Birinchi qism – xronologiyada Sharq xalqlarining yil hisoblash usullari bayon qilingan. Arab, yunon, eron, xitoy va uyg'urlarda yil hisoblash tartiblari, bularning biridan ikkinchisiga o'tish yo'llari va u xalqlarning o'ziga xos milliy bayramlarini hisoblash usullari ifodalangan.

Ikkinchi qism amaliy astronomiya masalalariga bag'ishlangan. Bunda ekliptika va ekvator orasidagi burchakni aniqlash, osmon jismlarining koordinatlarini topish usullari, meridian chizig'ini o'tkazish, qibla azimutini aniqlash, geografik koordinatalarni topish, yil davomiyligini aniqlash va osmon sferasida differensial o'lchashlar o'tkazish masalalari yoritilgan.

Uchinchi qismda sayyoralarning ko'rinma harakatlari geotsentrik sistema asosida sharhlangan.

To‘rtinchi qismda goroskop haqida ma’lumotlar keltiriladi.

«Ziji Ko‘ragoniy»da keltirilgan jadval yulduzlar soni va kuzatishlarning originalligi jihatidan astronomiya tarixida Gipparx – Ptolemey jadvalidan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Optik asboblar ixtiro qilinguniga qadar tuzilgan zijlar orasida «Ziji Ko‘ragoniy» eng mukammal hisoblanadi. Undan vaqtni aniqlash va geografik koordinatlarni o‘lchashda, shuningdek, turli astronomik masalalarni hal qilishda XVII asrga qadar Sharq va G‘arbda foydalanib kelingan.

Mirzo Ulug‘bek «Ziji Ko‘ragoniy» asarida VIII–XI asrlarda boshlangan falakiyot ilmiga oid an’analarni davom ettirib, yuqori darajaga ko‘tarish bilan birga, matematikaga doir «Bir daraja sinusni aniqlash haqida risola», falakiyotshunoslikka oid «Risolai Ulug‘bek» va musiqaga doir «Musiqa ilmi haqida risola», shuningdek, «Tarixi arba’a ulus» («To‘rt ulus tarixi») asarlarining ham muallifidir.

Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois» asarida Mirzo Ulug‘bek madhiga aytilgan so‘zlardan va she’rlaridan ba’zi birlarini keltiramiz: Mirzo Ulug‘bek – donishmand podshoh erdi. Kamoloti bag‘oyat ko‘p erdi. Hay’at (astronomiya) ilmi va riyoziyot (matematika)ni xo‘b bilur erdi. Andoqkim, zij bitidi va rasad bog‘ladi va holo aning ziji oroda shoye’dur. Bovujudi bu kamolot gohi nazmga mayl qilur. Bu matla’ aningdurkim:

Harchand mulki husn ba zari nigini tust,
Shuxi makun ki chashmi badon dar namini tust.

Ya’ni:

Mulking go‘zalligi garchand uziging ostida bo‘lsa-da,
Ehtiyot bo‘l, yomonlarning ko‘zi senga tuzoq qo‘ymish.

Mirzo Ulug‘bekning farosati hamda xotirasining quvvati shu darajada edikim, ov paytida biron jonivorga o‘q otib ov qilgudek bo‘lsa, tarixini (vaqtini) eslab qolar, voqea qaysi kuni, qayerda sodir bo‘lganligi, jonivorlardan qaysilari ovlanganini daftarlariga bitib qo‘yar edi-

lar. Tasodifan o‘sha daftar g‘oyib bo‘ladi va qancha qidirsalar ham uni topolmadilar. Daftarni saqlovchilar sarosimaga tushdilar. Podshoh dedi: «Tashvish tortmangiz, men daftarga yozilganlarni boshdan oyoq yod bilurmen». Shundan keyin podshoh kotiblarni chaqirtirib aytib turdi, ular yozdilar. Yangi daftar to‘lgan ham ediki, eskisi topilib qoldi. Har ikkala daftarni solishtirib, to‘rt-besh ixtilofdan boshqa tafovut topmadilar. Ul hazratning iste’dodi va o‘tkir zehni haqidagi naqllar juda ko‘pdur.

Qozizoda Rumiy (Salohiddin Muso ibn Muhammad) 1360 – 1437 – matematik va astronom. Mirzo Ulug‘bek madrasasi va rasadxonasi Qozizoda Rumiyning bevosita ishtirokida barpo etilgan. Shuningdek, «Ziji Ko‘ragoniy» asari ustidagi ishning dastlabki bosqichida ishtirok etadi. Qozizoda Rumiy Mirzo Ulug‘bek madrasasida dars berishdan tashqari ilmiy ish bilan ham shug‘ullangan, rasadxonada kuzatishlar olib borgan. Qozizoda Rumiy arifmetikaga oid tenglamalarni yechishning Jamshid al-Koshiy taklif qilgan iteratsion usuliga oid risola va Mahmud al-Chag‘miniyning «Astronomiyaning qisqa bayoni», Jamshiddin Samarqandiyning geometriya asoslariga doir, Mas’ud Taftazoniyning «Ilmlar kaliti» asarlariga yozgan sharhlar keng tarqalgan.

Mirzo Ulug‘bekning «Ziji Ko‘ragoniy»ida tilga olingan yana bir mashhur olim **Jamshid ibn Ma’sud ibn Mahmud al-Koshiy (? – 1430)** – matematik va astronom. Samarqandda Qozizoda Rumiy bilan birga Mirzo Ulug‘bek rasadxonasi va madrasasi qurilishiga rahbarlik qilgan.

Jamshid Koshiy Mirzo Ulug‘bek qo‘l ostida ishlagan Husayn Birjoniy, Ali Qushchi va boshqalarning kamolotga yetishishiga katta hissa qo‘shgan. U astronomiyaga oid «Ziji Xoqoniy dar takmili ziji Elxoniy» («Elxoniy astronomik jadvalini takomillashtirishda Xoqoniy astronomik jadvalining ahamiyati»), «Sullam us-samo» («Osmon narvoni»), «Nuzhat ul-hodoiq» («Bog‘lar sayri») va matematikaga

oid «Risola al-muhitiyya» («Aylana haqida risola»), «Risola ul-atvor valjayb» («Vatarlar va sinus haqida risola») asarlarini yozgan.

Mavlono Alouddin Ali Qushchi (1403 – 1474) – falakiyot-shunos va riyoziyotchi olim, mutafakkir, Mirzo Ulug'bek ilmiy maktabining atoqli namoyondalaridan biri, uning yaqin shogirdi. Ali Qushchi Qozizoda Rumiy va G'iyosiddin Koshiylardan ilm sirlarini o'rganadi. Madrasani bitirgach, shu yerda falakiyot va riyoziyotdan mashg'ulotlar olib boradi. Mirzo Ulug'bek rasadxonasini qurish ishlarida ham faol qatnashadi. Shu davrda «Hisob risolasi» va «Astronomiya risolasi» asarlarini yozadi va ilm ahli orasida katta obro' qozonadi.

1428-yilda Mirzo Ulug'bek rasadxonasi ishga tushirilgach, bu yerda ustozi rahbarligida kuzatuv ishlarini olib boradi. Mirzo Ulug'bekning «Ziji jadidi Ko'ragoniy» asarining yozilishida Ali Qushchining ham hissasi katta. 1438-yilda Mirzo Ulug'bek Ali Qushchini Xitoy saltanatiga elchi qilib yuboradi. U Xitoydan qaytgach, «Matematika va astronomik jo'g'rofiya» asarini yozadi.

Mirzo Ulug'bek vafotidan so'ng, uning Samarqanddagi mashhur kutubxonasi xavf ostida qoladi. Kutubxonani Ali Qushchi saqlab qolgan degan taxminlar bor. Ta'qiblardan qochib, Ali Qushchi Turk sultoni Muhammad II huzuriga boradi. Ali Qushchining dong'ini eshitgan sulton uni saroy olimlariga rahbar qilib tayinlaydi. Ali Qushchi Turkiyada olimlar, faylasuflar, shoirlarni o'z atrofiga to'plab, ilmiy ishlarni taraqqiy ettirishga intiladi, o'zi esa riyoziyot, falakiyot, falsafa, mantiq, adabiyot, musiqa va boshqa fan sohalaridan risolalar yozadi. Ali Qushchidan 20 dan ortiq ilmiy asarlar meros bo'lib qolgan. U ko'p olimlar asarlariga sharhlar yozgan. Ali Qushchining «Ulug'bek Zijiga sharh» asari astronomiya tarixida katta ahamiyatga ega. U «Zij»ni geometrik teoremalar yordamida sharhlaydi. Ali Qushchi asarlarining ko'pchiligi Turkiyadagi Ayo-So'fiyo madrasasi kutubxonasida saqlanib qolgan.

Mirzo Ulug‘bek maktabi namoyondalari, xususan, Ali Qushchining dunyoqarashi ilm-fan tarixida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Ali Qushchi dunyo moddiy narsalardan iborat, moddiy narsalar esa oddiy va murakkab holda bo‘lib, ularda ichki ziddiyatlar mavjud, deb hisoblagan. U fasllar almashinuviga Yerning Quyoshga yaqinlashuvi sababligini aytadi.

Ali Qushchi XVI–XVII asrlarda O‘rta va Yaqin Sharq mamlakatlarida riyoziyot fani rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. «Hisob risolasi» asaridan O‘rta Osiyo madrasalarida o‘quv qo‘llanma sifatida foydalanilgan. Bu asarda hindlar arifmetikasi (o‘nlik sanoq tizimi), falakiyotshunoslar arifmetikasi (oltmishlik sanoq tizimi) va geometriya (handasa) haqida yangi fikrlar aytilgan.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash lozimki, Samarqand ilmiy maktabi olimlarining, ayniqsa, Mirzo Ulug‘bek, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy va Ali Qushchilarning asarlari o‘z davri uchun yangilik bo‘lib, zamonasidan ancha ilgarilab ketgandi. Ular XV asr Uyg‘onish davri ruhi va darajasida yaratilgan asarlardir.

11.3. Movarounnahr va Xurosonda badiiy-ma’naviy sohada erishilgan yutuqlar

Amir Temur va temuriylar davrida xalq og‘zaki ijodi rivoj topdi. Adabiyot badiiy uslub jihatdan takomillashdi, adabiyotshunoslik va tilshunoslikka oid ilmiy asarlar yaratildi. O‘zbek tarjima adabiyoti vujudga keldi. Bu davrda yetuk ijodkorlar Mavlono Gadoiy, Mavlono Sakkokiy, Davlatshoh Samarqandiy, Mavlono Atoiy, Mavlono Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muhammad Solih va boshqalar yashab, ijod qildi. Ayniqsa, o‘zbek yozma adabiyotining dunyoviy ko‘lamini Alisher Navoiyning ijodi kamolot bosqichiga ko‘tardi.

Movarounnahr va Xurosonda o‘zbek tili, adabiyoti va madaniyatining mavqei orta bordi. Xurosondagi turkiyzabon xalqlar va ularning ziyolilari Samarqand, Buxoro, Turkiston va boshqa shaharlardagi olimlar, shoirlar va san’atkorlar bilan o‘zaro juda yaqin munosabatda bo‘la boshladilar. Shuningdek, Amir Temur va uning avlodlari adabiyot va san’atga, ilm-fanga yaqin kishilar edi. Temuriylardan 22 nafar ijodkor-shoir chiqqan bo‘lib, ular o‘zlari she’r yozish bilan birga qalam ahliga homiylik ham qilganlar. Xalil Sulton va Husayn Boyqaro kabilar o‘z she’rlaridan devon tuzganlar.

Movarounnahrda Ulug‘bek Mirzo davrida ko‘plab forsiy va turkiy ijodkorlar to‘plandi. Adabiy muhitni bevosita Ulug‘bek Mirzoning o‘zi boshqarar, shoirlarning sardori («Malik ul-kalom») sifatida Mavlono Kamol Baraxshiy tayinlangan edi. Mavlono Sakkokiy o‘z qasidalarining birida Ulug‘bek Mirzoning she’r yozishini va uning she’r haqidagi tushunchasi yuqori bo‘lganligini ta’kidlaydi. XV asrning ikkinchi yarmi o‘zbek adabiyotining eng rivojlangan davri bo‘lib, bu yuksalish Husayn Boyqaro va o‘zbek adabiyotining porloq quyoshi Alisher Navoiy nomlari bilan bog‘liq.

Mavlono Gadoiy (1402 – XV asr oxiri) – shoir. G‘azal janri, aruz ilmi va she’riyat qoidalarini yaxshi bilgan. Asosan chig‘atoy va qisman fors tilida g‘azal, qit’a, tuyuq, mustazod, qasidalar yaratgan. She’riyatda «charx jafosi», «ro‘zg‘or javri»dan fig‘on, «g‘urbat mehnati» va «rohiblar tazyiqidan» shikoyat ohanglari seziladi. Mavlono Gadoiy she’rlari aruzning xalq qo‘shiqlariga yaqin ramal, hazaj bahrlarida yozilgan: tili xalqona sodda, vazni yengil, sho‘x va o‘ynoqi. Mavlono Gadoiyning XV asr ikkinchi yarmi – XVI asr boshlarida ko‘chirilgan «Devoni Gadoiy» asariga 2974 misradan iborat 230 g‘azal, 1 mustazod, 1 qasida, 5 qit’a, tuyuq kirgan.

Alisher Navoiy o‘zining «Majolis un-nafois» tazkirasida shoir ijodiga yuksak baho beradi:

«Mavlono Gadoiy – turkigo‘ydir, balki mashohirdindur. Bir nav’i aytur va uning mashhur matla’laridan biri budurkim:

Ohkim, devona ko‘nglum mubtalo bo‘ldi yana,
Bu ko‘ngulning ilgidan jong‘a balo bo‘ldi yana.

Mavlononing yoshi to‘qsondan o‘tubdur. Bu matla’ aningdurkim:

Dilrabo, sensiz tiriklik bir baloi jon emish –
Kim, aning dardi qoshida yuz o‘lum hayron emish.

Alisher Navoiydek ulkan shoir va talabchan she’rshunos tomonidan iste’dodli shoir sifatida e’tirof etilishi va she’rlarining yuksak baholanishining o‘zi Mavlono Gadoiyning katta iste’dod egasi ekanligini ko‘rsatadi. 90 yildan ortiq umr kechirgan Mavlono Sharq she’riyatini puxta egallab, go‘zal asarlar yaratdi. Bizgacha yetib kelgan uning yagona devoni qo‘lyozmasidagi merosi shoir dunyoqarashini, turmush voqealariga bo‘lgan munosabatini, ruhiy kechinmalarini, uning san’atkorlik mahoratini, uslubini, zamondoshlari va o‘zidan keyingi shoirlarga ta’sirini aniqlashda g‘oyat muhim manbadir. Mavlono Gadoiy g‘azallari sodda va ravon tilda yozilgan. 230 g‘azalidan 164 tasi va 5 to‘rtligi aruzning eng xalqchil bahri bo‘lmish ramal bahrida ijod etilganligi uning mahorati yuksak san’atkor ekanligidan nishonadir.

Komil inson ta’limoti Muhammad alayhissalomga asoslanadi. Sharq islomiy adabiyotida koinot sarvari, bashariyat xulosasi, payg‘ambarlar hotami, ikki dunyo sohibi, komillar komili kabi ko‘pdan ko‘p sifatlar bilan ulug‘lanib kelingan bu buyuk zot barcha ilohiy va dunyoviy ilmlar egasi, yaxshi axloq va ezgu insoniy fazilatlar jamuljami bo‘lib, kamolot yo‘lini tanlagan kishilar uchun oliy bir ideal edi. Garchi Muhammad alayhissalom maqomlariga yetish imkonsiz bo‘lsa-da, ahli muslim bu najib insonni kamolot yo‘lida mayoq bilib, u ko‘rsatgan hidoyat yo‘liga yurishga, unga munosib ummat bo‘lishga, unga mansub fazilatlarni egallashga, muxtasar

qilib aytganda, mumkin bo‘lgani qadar komillik kasb etishga intilganlar.

Mavlono Gadoiy ijodida Muhammad alayhissalomning bashar qavmining yaratilishiga bois bo‘lgani, surat va ma’nida olamning yagonasi ekanligi, insoniyat u tufayli sharaf topgani xususidagi g‘azal va baytlar ko‘p. Shoir komil insonning ideal timsoli sifatida payg‘ambarlar sarvarini har qancha ta’rif-tavsif etmasin, kamolot yo‘liga kirgan va komillik maqomini egallagan real insonlarni ham soqiy, orif, ahli ma’ni, solik, murid kabi sufiyona istilohlar vositasida ulug‘laydi. Chunonchi, shoir ahl-u ilm-u kamolotda yetuk piri murshid rahbarligida tariqat bosqichini bosib o‘tgan insonni sohibjamol, abadiy umrga erishgan saodatli inson, deb ta’lif etadi:

Topdi umri jovidon Haqdin, zihi sohibjamol,
Ul saodatlig‘ki, sendek mehribon dildori bor.

Dunyoning asosida ziddiyat, qarama-qarshilik yotadi. Binobarin, hayotning in’ikosi bo‘lgan adabiyot ham bundan xoli emas. Shoirlar o‘z fikrlarini ko‘pincha boshqa bir fikrga, narsaga zid qo‘yish orqali tasvirlab, uning haq, ustun ekanligini ta’kidlaydilar va ayni paytda, fikrlarning ta’sirchanligini, jozibadorligini ta’minlaydilar. Bu mumtoz poetikada tazod san’ati deyiladi. Mavlono Gadoiy she’riyatida ham bu san’atning go‘zal namunalari bor:

Baxt-u tole’ ko‘r, toalalloh, qazodinkim, manga,
Yor agar rahm etsa nogoh, charxi g‘addor o‘lturur.

Mazmuni: «Qazo tomonidan belgilangan mening bu baxt-u toleimni ko‘r: yor agar rahm etsa, shum, zolim falak o‘ldiradi».

Bu biri kam dunyo ana shunday qarama-qarshiliklar birligi va kurashidan iborat: birini topsang, ikkinchisini boy berasan – ikkita narsa sira bir vaqtda yor bo‘lmaydi. Shunga o‘xshab, bu yerda shoirning asl maqsadi – yor visoli. Unga yetish uchun u jon-u jahonini tikkan. Lekin unga yetdim deganda taqdir pand beradi. Agar taqdirga tan

berib yuray desa, bunday hayotning ma'nosi yo'q. Baytda shoir ana shu azaliy va abadiy ziddiyatni go'zal badiiy shaklda aks ettirgan: bu dunyoda to'kis baxt, mukammal taqdir yo'q. Shuning uchun ham biri kam dunyo, deydilar.

La'li sarobingdek, ey jon, obi zamzammi bo'lur?
Ya'ni kavsar suyi birla teng shabnammi bo'lur?

Mazmuni: «Hech qanday obi zamzam labing suviga (jonbaxshlikda) teng kelolmaydi, chunki shabnamni kavsar suviga sira nisbat berib bo'ladimi?»

Xush yaroshur ul nabot irning uza mushkin xating –
Kim, ko'runur obi hayvon uzra nilufar g'arib.

Bu yerda ma'shuqaning novvotday shirin labi ustidagi mayin tuklar – xat xizr chashmasi uzra o'sgan nilufarga qiyoslanib, undan ustun qo'yilmoqda. Obi hayot chashmasi ustidagi nilufar yolg'iz bo'lsa, yor labi ustidagi xat saf tortib, o'ziga xos go'zallik kasb etadi. Har qanday yolg'izlikda g'ariblik, nochorlik ma'nosi bor va shoir bu tushunchadan mahorat bilan foydalangan.

Oy yuzing vasfinga betaqrib erur so'z so'zlamak –
Kim, quyosh mohiyatini hojat ermastur shurux.

Ma'lum bo'ladiki, Mavlono Gadoiy Alisher Navoiygacha o'tgan o'zbek adabiyotining mashhur va zabardast namoyandalaridan hisoblanadi. Uning ijodi o'z davri shoirlariga katta ta'sir o'tkazgan.

Mavlono Sakkokiy (XV asr) – Samarqandda Xalil Sulton va Ulug'bek Mirzo hukmronligi davrida yashab, ijod etgan shoir. Uning ijodiga Alisher Navoiy yuksak baho bergan: «Turkiy alfozining bo'lag'osindin Movlono Sakkokiy ham Lutfiylarkim, birining shirin bayotining ishtihori Turkistonda bag'oyat va birining latif g'azaliyotining intishori Iroq va Xurosonda benihoyatdurur» («Xutbai davovin»). Mavlono Sakkokiy xalqning boy og'zaki ijodini, salaflari,

asarlarini puxta o‘rgangan va ijodiy oziqlangan. Turkiy tilda asarlar yaratish, uning boy ichki imkoniyatlaridan foydalanishi borasida ko‘p ish qilgan.

Mavlono Sakkokiy devoni Sharq devon tuzish an’anasiga muvofiq hamd va na’t bilan boshlanadi. Keyin uning 10 ta qasidasi beriladi. Bu qasidalardan 4 tasi – Mirzo Ulug‘bekka, 4 tasi – Arslonxoja Tarxonga, bittasi – mashhur naqshbandiya shayxlaridan Xoja Muhammad Porsoga, bittasi – temuriy shahzodalardan Xalil Sultonga bag‘ishlangan. Qasidalardan keyin g‘azallar boshlanadi.

Barcha Sharq shoirlari kabi Mavlono Sakkokiy ijodida ham ishq-muhabbat mavzui yetakchilik qiladi. Lekin salaflari va zamondoshlaridan farqli o‘laroq, shoir she’rlari o‘zining dunyoviy mazmuni bilan alohida ajralib turadi. Bu uning dunyoviy fanlar rivojlangan Samarqand olimlari davrasiga yaqin bo‘lgani, Mirzo Ulug‘bekdek ilm-u ma’rifat peshvosi va homiysi qo‘l ostida yashagani tufayli, albatta.

Ishq-muhabbat mavzusi tasavvuf tufayli o‘zining avj pardasiga ko‘tarilgani ma’lum. Lekin Sharq adabiyotida sevgi tarannumi azaldan yetakchi bo‘lgan. Shoirlar dunyo, inson, tabiat va jamiyat haqidagi fikr-tuyg‘ularini asosan muhabbatga bog‘lab ifoda etishgan. Ishqiy mavzudagi she’rlar ichida falsafiy-ijtimoiy fikrlar ham, tabiat tasviri ham, zamonadan, odamlardan shikoyat motivlari ham, pand-nasihat ham kelishining sababi shunda. Mavlono Sakkokiy yor, diyor, tabiat, insonga bo‘lgan cheksiz muhabbatni ham, zamondan, raqiblardan shikoyatini ham ishqiy she’rlari ich-ichiga singdirib yuboradi. Zero, o‘rta asrlarda g‘azal faqat muhabbat mavzuida bitilgan. G‘azalning lug‘aviy ma’nosi ham ayollarga muhabbat qo‘yish va ularga munosabat ko‘rsatish bo‘lib, u faqat ishqiy mavzuda yozilishi shart qilib qo‘yilgan. Boshqa mavzular she’riyatning o‘zga janrlarida yoritilgan.

Shoir g‘azallari badiiy yuksak: ohorli tashbeh-u timsollarga boy, she’riy san’atlar mahorat bilan qo‘llangan, uslubi ravon, tili sodda va go‘zal. Tashbeh-u timsollarini asosan tevarak-atrofdagi ko‘rinib

turgan narsalar, xalq tili, an'analari, urf-odatlaridan oladi. Chunonchi, oqar suvga boqsa, ko'z ravshan bo'ladi, degan xalqona ta'birdan o'z badiiy maqsadi yo'lida foydalanib, ma'shuqasiga deydi: ko'zlarimdan oqayotgan suvga boqsang, muhabbatim qanchalik chuqur va qat'iy ekanligini ko'rib, ko'ngling ravshan tortadi:

Ko'zum yoshing'a nazar qil – ko'ngul bo'lur ravshan,
Ey sarvinoz, oqar suvg'a qilsa nazzora.

Xalqda boshingga o'zing balo orttirdingmi, endi jazosini ham tort, o'zing pishirgan osh – aylanib ham, o'rgilib ham ich, qabilidagi teran mazmunli go'zal hikmatlar bor. Quyidagi bayt shu asosga qurilgan:

Bale, bu ranj-u baloni men ixtiyor etdim,
O'zumga ishni o'zum qildim, emdi ne chora.

Yuzi qaro bo'lsin, yo'q bo'lsin, degan qarg'ishlar xalq orasida keng tarqalgan. Ularni shoir ko'zi va ko'ngliga nisbatan qo'llaydi. Chunki ko'z bilan ko'ngli uning gapiga kirmay, ming bir balolarga mubtalo qiladi-da. Gunohkor esa hamisha qarg'ishga loyiq.

Yuzi qaro bo'lsin ko'zum – andin ko'rarmen bu balo,
Yo'q bo'lsun ul ko'nglum mening – hech kirmadi farmonima.

Mubolag'a san'ati ham Mavlono Sakkokiy ijodida ko'p uchraydigan san'atlardan. Quyidagi baytda shoir «men ko'rgan g'amning mingdan birini ko'rsa edi, sandon ham pora-pora bo'lur edi», deb mubolag'a qiladi:

Jonim ko'rgan jafoning mingdan birin,
Bo'lur gar ko'rsa sandon pora-pora.

Mana bu misralarda esa, «Mening oh-u fig'onimni eshitsa, butun olamning bag'rini qon qilib kelgan falakning bag'ri qon bo'ladi», deydi:

Falakkim, barcha olamnung qilur qon bag'rini har dam,
Eshitsa bag'ri qon bo'lg'ay mening oh-u fig'onimni.

Albatta, mubolag'aning bir necha ko'rinishlari mavjud. Agar mubolag'a aql-u odatga muvofiq bo'lsa – tablig', aqlga sig'sa-yu, odatdan tashqari bo'lsa – ig'roq, agar odatdan tashqari bo'lib, aqlga ham sig'masa – g'uluv deydilar. Chunonchi, keltirgan misollarimizda g'amdan sandonning pora-pora bo'lishi, oshiq fig'onini eshitsa, falakning bag'ri qon bo'lishi tasavvurga sig'maydi. Lekin bu mubolag'alar vositasida shoir o'z dardining qanchalik chuqur va og'irligini o'ta oshirib, kuchaytirib ifodalagan.

«Mening ko'nglimga o't solma, – deydi shoir boshqa bir baytda, – chunki u yerda sening xayoling mehmon, tag'in bu o'tning alangasi aziz mehmonni kuydirmasin»:

Ko'ngluma o't solma, uldur chun xayolingga o'toq,
Toki oning so'zishi kuydirmasin mehmonni.

Mavlono Sakkokiy ijodida hayot, falak, zamon, odamlar, ma'shuqa qismatdan shikoyat motivlariga ham duch kelamiz.

Ular goh ochiqdan ochiq, goh ishqiy mavzu vositasida – ma'shuqadan, raqibdan, muhabbatdan shikoyat tarzida o'z ifodasini topgan:

Kecha-yu kunduz ishim yig'lamoq, kuchim zori,
G'amingdan o'zga kishi yo'q qoshimda g'amxora.

Mavlono Sakkokiyning adabiy faoliyati zamondoshlari Lutfiy, Gadoiy, Atoiy kabi Alisher Navoiy ijodiga ham katta ta'sir ko'rsatgan; o'zbek dunyoviy lirikasini ham mazmun, ham shakl jihatdan boyitgan.

Alisher Navoiygacha o'tgan turkiy adabiyotning zabardast namoyandalaridan biri, o'zbek g'azalchiligi ustozlaridan bo'lgan **Mavlono Atoiy** XIV asrning ikkinchi yarmi – XV asrning birinchi yarmida yashab ijod qilgan, Alisher Navoiy «Majolis un-nafois» tazkirasida

yozadi: Mavlono Atoiy Balxda bo‘lur edi. Ismoil ato farzandlaridindur, darveshvash va xushxulq, munbasit kishi erdi. Turkigo‘y erdi. O‘z zamonida she’ri atrok orasida ko‘p shuhrat tutti... Mavlono ko‘p turkona aytur erdi... Qabri Balx navoxisidadur».

Shoirlar borki, devonlarini birov bilmaydi, shoirlar borki, bir bayt she’ri bilan mashhur bo‘lib ketadi. Bunday baytlarni mumtoz adabiyotshunoslikda «shohbayt» deyishadi. Mavlono Atoiyning quyidagi bayti shoirning shuhratini elga yoygan «shohbayt»lar sirasiga kiradi:

Ul sanamkim, suv yaqosinda paritek o‘lturur,
G‘oyati nozuklukindin suv bila yutsa bo‘lur.

Mavlono Atoiy Shohrux Mirzo va Ulug‘bek Mirzolar davrida yashab, ijod qilgan. Shoirning so‘zidagi o‘ta tiniqlik shimoliy Turkiston o‘zbeklarining shevasini eslatadi. Uning 260 lirik g‘azalidan 109 tasi aruz vaznlariga mos tushadigan xalq qo‘shiqlari vaznlari bilan yozilgandir. Asarlariga til tomondan shoir Ahmad Yassaviyning kuchli ta’siri bor. Haqiqatan ham, shoir she’riyati xalq jonli tiliga yaqin, sodda, lo‘nda va tushunarli, shirali va ravon. Xalq og‘zaki ijodini yaxshi bilgan Mavlono Atoiy she’rlarida maqol-matallarga keng o‘rin beradi, oddiy so‘zlar yordamida ohorli tashbehlar, bejirim timsollar yaratadi. Hamma ko‘rib, lekin hech kim e’tibor bermaydigan oddiy narsalar, kundalik voqealardan favqulodda go‘zal obrazlar yasaydi, teran xulosalar chiqaradi. Sodda, shuning barobarida, aqlni hayratga soladigan dilbar o‘xshatishlar tushunarli, lekin kishini maftun etadigan ajoyib timsollar shoir she’riyatining asosini tashkil qiladi. Xalq ertaklari, afsonalari ta’sirida yaratilgan «suv qizi» haqidagi mashhur g‘azalni eslang:

Ul ilikkim, suvdin oriqtur, yumas oni suda,
Balki suvni pok bo‘lsun deb iliki birla yur.

«Sanamning qo‘llari suvdan-da pokiza. U suvda qo‘lini chaymayapti, balki pok bo‘lsin, deb suvni qo‘llari bilan yuvayotir».

Yoki:

Gar boshi ko'kka yetar, oy bir habash quldur sanga,
Har kishi tuymas muning, ul yuzida bilgulari.

Bu baytda oy sening bir qora qulingdir, deyish orqali shoir ma'shuqasining beqiyos go'zalligi-yu, oyning yuzida esa dog'i borligiga kinoya qilyapti.

Yoki:

Chun mukarrardurki, sen husn-u malohat ganjisan,
Ayb emas, gar lutf etib kelsang bu vayron ko'ngluma.

Xalq orasida mashhur «ganj vayronada bo'ladi», degan rivoyatga ishora qilib, shoir ma'shuqasiga aytayapti: «Sen husn-u malohat ganji bo'lsang, mening ko'nglim vayronadir». Bas, ganjning vayronada bo'lishi hech kimni ajablantirmagani singari ko'ksimda vatan tutsang, bu holni hech kim ayb etmaydi».

Mavlono Atoiy g'azallarida muhabbat mavzui bilan bir qatorda may ham kuylanadi. Mayda hayot zavqi, uning barcha go'zalliklari va lazzatlari vasf etiladi. May Mavlono Atoiyda Umar Xayyom ruboiylari va Hofiz Sheroziy g'azallaridagi kabi hayot timsolidir.

Mavlono Lutfiy (1366 – 1465) – o'zbek shoiri, orif va mutafakkir. O'z zamonining «Malik ul-kalom»i. Mavlono Lutfiyning hayot yo'li singari ijodiy taqdiri ham juda ibratli: umrining asosiy qismi o'qish, o'rganish va badiiy ijod mehnati bilan o'tgan.

Mavlono Lutfiyning o'zbek mumtoz so'z san'atidagi ulkan mavqe-maqomi shundan iboratki, u turkiy she'riyat o'zigacha erishgan barcha yutuqlarni o'z ijodida mujassam etdi va o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi, xususan, Alisher Navoiydek ulug' shoirning so'z maydoniga chiqishi uchun zamin bo'lib xizmat qildi.

Mavlono Lutfiy she'riyati xalqona sodda va samimiy ruhi, badiiy tasvir vositalariga boyligi bilan alohida ajralib turadi. Aytish mumkinki, u ilhomni xalq ichidan qidirdi, chunki u xalq maqol-matallari, xalq orasidagi turli obrazli iboralaridan o'z ijodida mahorat bilan foydal-

anadi. Mavlono tashbeh-u timsollarni ham kundalik hayotdan, atrofimizdagi narsalar oladi, ya'ni uning tashbehlari mavhum bo'lmay, fikr-kuzatishlarini aniq narsa-holatlarga o'xshatadi:

Qon bo'ldi ko'ngul firoqingizdin,
Jon kuydi ham ishtiyoqingizdin.

Yoki:

Mahvashim, bir nazar etsang, ne nimang o'qsugusi?
Banda sori guzar etsang, ne nimang o'qsugusi?

singari baytlar Mavlono Lutfiyning chinakam, tom ma'nodagi xalqona shoir bo'lganligini ko'rsatadi.

Alisher Navoiy Mavlono Lutfiyni o'ziga ustoz deb bilgan, unga ergashgan, undan ta'sirlangan. Alisher Navoiy va Mavlono Lutfiy munosabatlari adabiyotshunoslikda keng yoritilgan. Yosh Alisherning:

Orazin yopqoch, ko'zumdin sochilur har lahza yosh,
Bo'ylakim paydo bo'lur yulduz nihon bo'lg'och quyosh, –

baytiga ustoz shoir o'zining butun ijodini almashmoqchi bo'lgani, bir tomondan, uning Navoiyning she'riy salohiyatiga tan berib, uning siymosida o'zbek so'z san'atini yuksak cho'qqiga olib chiqadigan iste'dodini ko'rgandan dalolat bersa, ikkinchi tomondan, Mavlono Lutfiyning ustoz sifatidagi bag'rikengligi va tantiligini ko'rsatadi.

Alisher Navoiy o'zining ko'plab asarlarida Mavlono Lutfiy haqida yozadi, uning iste'dodi va asarlariga baho beradi. Chunonchi, «Holoti Pahlavon Muhammad» asarida ustozining zamondosh turkigo'y shoirlardan senga ma'quli va maqomi balandrog'i qaysi, degan savoliga: «Mavlono Lutfiy holo musallamdurlar va bu qavmning ustodi va malik ul-kalomidur», deb javob berishi bejiz emas.

Mavlono Lutfiyning she'rlari badiiy san'atlarga boyligi bilan alohida go'zallik kasb etadi. Shoir ijodida shunchaki bayondan iborat birorta misra yo'q. U eng oddiy fikrni ham tashbeh-u timsollarga o'rab aytadi. Shoirlik mohiyati ham aslida shunda-da:

«Ko'nglumuz vayron-u qosh-u ko'zda chindur bu masal –
Kim: Qolur masjid agar buzulsa, mehrobi aning».

Bu yerda shoir «ko'nglimiz uyi vayron bo'lsa ham, ma'shuqaning ishqi unda mustahkam» degan fikrni tasdiqlash uchun «Masjid buzilsa ham, mehrobi qoladi» maqolidan foydalangan.

Inson chorasiz ahvolga tushib qolsa, yer qattiq, osmon yiroq deb o'zini yupatadi. Quyidagi baytda shoir mahbubasiga qo'li yetmasligini mazkur maqol bilan asoslaydi:

Yerga kirsam koshki, chun yetmas ul oyga ilik,
Mushkul ahvole tushubdur: Yer qatiq-u ko'k yiroq».

Mana bu baytda esa ma'shuqaning oshig'ini sog'inmasligiga uning uzoqda ekanligi sabab qilib ko'rsatiladi va fikrni dalillash uchun «Ko'zdan yiroq – ko'ngildan yiroq» maqoliga murojaat qilinadi:

Dilbar sog'inmag'on jihati bu firoq ermish,
«Ko'zdan yiroq bo'lsa, ko'ngildin yiroq» emish.

Oz so'z bilan ko'p ma'noni ifodalash san'ati bo'lmish talmehning go'zal namunalarini Mavlono Lutfiy ijodida ko'ramiz:

Ya'qub bikin ko'p yig'indin qolmadi sensiz
Nuri basarim, xoh inon, xoh inonma.

Ma'lumki, sevikli farzandi Yusufdan tiriklayin judo bo'lgan Ya'qub alayhissalom kecha-kunduz o'g'lining firoqida yig'lab, ko'zlari ko'r bo'lib qoladi. Bu yerda shoir ma'shuqa hajrida ko'p yig'lagan o'z holatini o'sha Ya'qub alayhissalomga nisbat bermoqda. Shu orqali qanchalik qiynalganini uzoq bayon etib o'tirmay, so'zni muxtasar qiladi.

Misrda yetti yil ocharchilik bo'lganidan Yusuf har kuni chiqib, xalqqa yuzini ko'rsatar, odamlar uning husnini ko'rib, o'z ochliklarini unutar ekanlar. Quyidagi baytida shoir mahbubasini Yusufga o'xshatib, sen kan'onlik o'sha Yusuf kabi yetilib, husn-u malohatga to'libsanki, seni ko'rgan el Misr xalqidek aqlidan ozadi:

Aqlidin ozar Misr elidek kim seni ko'rsa,
Bu davrda sen Yusufi Kan'on yetilibsen.

Mana bu baytida esa ushbu fikrlarni davom ettirib, ma'shuqasini Yusufdan-da ustun qo'yadi. Sababi: Yusufni ko'rib, barcha to'yar edi, seni esa ko'rgan kishining ko'rgisi kelaveradi:

Yusufni ko'rub, Misr eli barcha to'yar erdi,
To'ymas kishi sendin nechakim qilsa nazora.

Mavlono Lutfiyning nafaqat turkiy, balki forsiy she'rda ham naziri yo'q edi. U umrining oxirida «oftob» radifli bir g'azal aytadi, zamon shoirlarining barchasi unga tatabbu' qiladilar, lekin ularning hech qaysisi matla'ni unga yetkaza bilmadilar. Mana, o'sha matla':

Ey zi zulfi shab misolat soyaparvar oftob,
Shomi zulfatro ba jon moh dar bar oftob.

Mazmuni: «Ey (sening) tun kabi qora zulfing tufayli quyosh (yuzing) soyaparast bo'libdi. Zulfning tunida oy o'rniga quyosh chiqibdi».

Baytda Mavlono Lutfiy tazod san'atini haddi a'losiga yetkazgan. Ma'lumki, ma'shuqasining sochini – tunga, yuzini – quyoshga o'xshatish mumtoz she'riyatda an'ana tusini olgan. Shunga ishora qilib shoir lutf etadiki, quyosh kunduzi, oy kechasi chiqsa, sening soching qorong'iligi ichra yuzing quyoshi tunda porlaydi – zulfing zulmati sababli u soyaparvar – qorong'ilikni sevadigan bo'libdi.

Muqaddas diyorimizdan yetishib chiqqan o'nlab aziz-avliyolar, ulug' alloma va shoirlar, davlat arboblari va sarkardalarning har biri o'z faoliyati, betakror merosi bilan milliy va umuminsoniy mezonlar silsilasida hech mubolag'asiz noyob hodisa-fenomen hisoblanadi. Ayni vaqtda bu benazir zotlar o'rtasida, go'yoki yulduzlar anjumanidagi quyoshdek, yaqqol ajralib turadigan shunday bir buyuk siymo borki, u milliy she'riyatimiz, adabiyotimiz dahosi Mir Alisher Navoiydir.

Alisher Navoiy (1441 – 1501) lirikasi o‘rta asrlar o‘zbek lirikasining eng yuksak bosqichini tashkil etadi. Ulug‘ shoir o‘zigacha rivojlanib kelgan lirik she’riyatni mavzu, g‘oya, vazn va badiiy uslub jihatlarini ulkan mehnat va mahorat bilan misli ko‘rilmagan darajada takomillashtirdi. Turkiy va forsiy tillarda birday mahorat bilan qalam tebratgan zabardast zullisonayn shoir edi. Ammo turkiy tilda she’r bitishda hech kim Alisher Navoiydek kamolot qozonmagan.

Alisher Navoiy o‘zbek adabiyotida she’riy devon yaratish an’anasini ham haddi a’losiga ko‘tardi. Dastlabki devonini uning mashhur bo‘lib ketgan she’rlarini jamlab, shoirning zamondoshlari tizishgan. Bu hodisani keyinchalik yaratilgan «Badoye’ ul-bidoya» («Badiylik ibtidosi») devoni debochasida shoir bunday izohlaydi: «... Ammo xaloyiq orasida ming bayt, ikki ming bayt ortug‘roq-o‘ksukroq-kim, o‘zlari jam’ qilib erdilar, bag‘oyat mashhur bo‘lib erdi». Ushbu devonni shoirning 24 – 25 yoshlik davrida xattotlar sultoni laqabini olgan Sultonali Mashhidiy ko‘chirgan. Bu qo‘lyozma devon ilmida shartli ravishda «Ilk devon» nomi bilan yuritiladi.

Alisher Navoiy lirikasining mavzu doirasi juda keng. Undagi eng yetakchi mavzu ishq-muhabbatdir. Sharq adabiyotida kuylanadigan ishq ikki turga ajratiladi: 1. Haqiqiy ishq. 2. Majoziy ishq.

Haqiqiy ishq deganda, vujudi mutlaqqa – Yaratganga, majoziy ishq deganda esa, insonga, borliqqa bo‘lgan muhabbat anglashiladi. Majoz, shartli ravishda, biron-bir narsaning o‘z-haqiqiy ma’nosini emas, balki biron narsaga ko‘chgan – ko‘chma ma’nosini bildiradi. Haqiqiy ishq – Alloh muhabbati ekan, mana shu ishqning Alloh yaratgan mavjudotlarga, jumladan, insonga ko‘chirilgan shakli majoziy ishq, demakdir. Chunki tasavvuf dunyoqarashiga ko‘ra, Alloh bu dunyo va undagi go‘zal mavjudotni, ya’ni insonni o‘z ishqi hamda barkamolligining ramzi sifatida yaratgan. Allohdagi bor fazilatlar u yaratgan mo‘jizalarda mujassamlashgan. Demak, insondagi go‘zallikni, insonga muhabbatni kuylash majoziy ishqdir.

Gar Navoiy yig'lasa, ishqning majoziydur dema,
Kim, nazar pok aylagach, ayni haqiqatdur majoz.
Majozdin manga maqsud erur haqiqiy ishq,
Nediyki, ahli haqiqatqa bu tariqat erur.
Majozdin chu haqiqatqa yo'l topar oshiq,
Qilur majozni nafy ulki behaqiqat erur.

Alisher Navoiyning ishqqa nisbatan nuqtayi nazaricha, insoniy muhabbatga pok nazar bilan yondashilsa, u haqiqiy ishqning o'zginasidir. Darhaqiqat, shoirning o'zi butun umri mobaynida insonni dunyoviy manfaatlardan, jinsiy-shahvoniy munosabatlardan xoli ravishda, ilohiy muhabbat bilan sevgan. Insondagi xislat va fazilatlarni ilohiy deb e'zozlagan.

Alisher Navoiy o'z e'tiroficha, majoziy ishqdan maqsad haqiqiy ishqni kuylamoqdir. Majoziy ishq orqali haqiqiy ishqni kuylash Alisher Navoiy singari haqiqat ahli uchun maxsus yo'l edi. Demak, Alisher Navoiy asarlarida tasvirlangan insonga muhabbat zamirida Allohga muhabbat mujassamdir.

«Hayotda Alisher Navoiyning chinakam seviklisi bo'lganmi, Alisher Navoiy oila qurganmi?» degan savollar shoir muxlislarini hamisha o'ylantirib keladi. Bir g'azalda shoir go'yo o'z avlodlariga atay javob bergandek yozgan:

Aylamang bekasligimni ta'n, bir kun bor edi,
Menda ham bir nozanin, chobuksuvor, ey do'stlar.

Shoir «Ey do'stlar, mening kimsasiz, yolg'iz yashaganimni ta'na-ma'lomat qilmanglar. Mening ham bir go'zal sevikli yorim bor edi», deya hayotida sevgan kishisi bo'lganini aniq e'tirof etgan.

Qalbi insonlarga mehr-muhabbat bilan to'lib-toshgan, ehtirosli, ulug' shoirning o'z ko'ngil izhori uning dardi, iztiroblarini teranroq anglashimizga ko'mak beradi:

Yorsiz vayronda qon yig'larman, oxir, siz qiling,
Yor birla gashti bog'-u lolazor, ey do'stlar.

Shoirning «Yorsiz vayronada qon yig‘lashi», do‘stlarning esa «Yor birla gasht-u bog‘-u lolazor» qilishi tengsiz va ziddiyatli bir holat. Do‘stona mehr va g‘amgusorlik bilan yor vaslini g‘animat bilishga chorlayotgan axiysiyrat shoirning xayoliga bunday qarama-qarshi holat zohir bo‘lishi kelmaydi. Alisher Navoiy o‘zi benasib bo‘lgan baxt elga nasib bo‘lishini tilagan ulug‘ xalqparvar siymo ekanligi lirikada ana shunday dardchil va kamtarona tajassum topgan.

Sharq an’anasiga ko‘ra, she’rning qadri buyuk edi. Xuroson va Movarounnahrda asosan fors tili bo‘lib kelgan. She’rning masnaviysi alohida e’tiborda kelardi. Masnaviy esa, asosan, doston deganidir. Keng qamrovli, voqeband asarlar mana shu janrda yozilgan. Abdulqosim Firdavsiyning «Shohnoma»si, Nizomiy Ganjaviyning «Panj ganj» singari ulkan obidasi, Sa’diy Sheroziyning «Guluston»idek pandnomalar, Farididdin Attorning «Mantiq ul-tayr»idek mo‘jizakor ibratli dostoni, Hofiz Sheroziy g‘azallaridek jonbaxsh asarlar shu tilda yaratilgan. Lekin bularning hammasi forscha yozilgan. Ulardan forslar, shu tilni bilganlargina bahramand bo‘ldilar. Bu tilda ohangdorlik, timsollarga boylik, ifoda va tasvir vositalariga tayyor andozalar mo‘l-ko‘l edi. O‘z xalqining shunday xazinadan bebahra qolishi Alisher Navoiyni qiynaydi. Ikkinchi tomondan, tilni charxlovchi, borlig‘ini namoyon etuvchi maydon badiiy asardir, til va adabiyot esa ulkan bahslar, musobaqalar orqaligina taraqqiy topadi. Bu jihatdan ham dostonlar kerak.

Turkiy tilda she’r yozadigan kishi esa bu tilda hali katta salmoqli adabiyot yaratilmagani uchun izlanmog‘i, har bir so‘z va ibora, ifoda ustida bosh qotirmog‘i kerak edi. Buning ustiga, turkiy ziyolilarimizning katta qismida o‘z ona tilidan uzoqlashish, hatto unga nopisand qarash mayllari kuchli bo‘lib, milliy g‘urur tamom o‘la boshlagan edi. Bu tilning imkoniyatlarini ilmiy va amaliy ko‘rsatmoq, millatning g‘ururi va sha’nini o‘zining munosib o‘rniga qo‘ymoq sharafi va mas’uliyati Alisher Navoiy zimmasiga tushdi.

Alisher Navoiy maslahatga ustozi Abdurahmon Jomiy huzuriga boradi. Ustozi bu ishga tezlikda kirishishga undaydi, uning o‘z kuchi va imkoniyatlariga ishonchini mustahkamlaydi. Shoir ustozidan oq fotiha olib, og‘ir, mashaqqatli, ammo sharafli ishga kirishadi. Nizomiy Ganjaviy bilan bellashish – uning panjasiga panja urish uchun maydonga chiqish ulkan jasorat talab qilardi. Sherga yuzma-yuz bo‘lish uchun sher bo‘lmaganda ham, yo‘lbars bo‘lmoq lozim edi.

Emas oson bu maydon ichra turmoq,
Nizomiy panjasiga panja urmoq.
Kerak sher oldida ham sheri jangi,
Agar sher o‘lmasa, bori palangi.

Alisher Navoiy «Xamsa»ga kirgan «Hayrat-ul-abror», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sab’ayi sayyor», «Saddi Iskandariy» dostonlarida o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga doir ilg‘or g‘oyalarni ilgari surdi, zulmni, jaholatni, feodal boshboshdoqliklarni ayovsiz fosh qildi, adolatni yoqladi, ma’rifatni, go‘zallikni kuyladi, insonparvarlik bayrog‘ini baland ko‘tardi. Uning qahramonlaridan Farhod Armanistonga kelib qolar ekan, u yerda og‘ir jismoniy mehnat ostida g‘oyat ezilgan xalqni ko‘rib, ularga yordam qo‘lini cho‘zib, o‘z teshavarlik hunarini ishga soladi va deydi:

Hunarni asrabon netkumdir oxir!
Olib tufroqqamu ketkumdir oxir!

Shoir dostonlarida tasvirlangan deyarli hamma ijobiy qahramonlar qariyb ana shu taxlitdagi oliyjanob, xalqparvar, ahdiga va sevgisiga vafodor, o‘zida ham olimlikni, ham qahramonlikni mujassamlashtirgan ajoyib kishilardir. O‘z lirik va epik qahramonlari obrazlarini yorqin badiiy bo‘yoqlarda gavdalantiradi. Qahramonlarning hammasi o‘z yuksak maqsadlari yo‘lida jonini ham ayamagan, har qanday qiyinchiliklarga bardosh bergan, ularni yengishga harakat qilgan shijoatli kurashchilardir. Farhod qancha mard va oqil, vafodor va

samimiy bo‘lsa, uning sevgilisi Shirin ham shuncha vafodor va oqila, mard va shijoatlidir. Majnun sevgisi qancha cheksiz bo‘lsa, Layliniki ham undan qolishmaydi. Dilorom haqiqatni isbotlash uchun qancha mardonavor kurashsa, so‘nggi dostonda Iskandar ham o‘z g‘oyalarini amalga oshirish uchun jonini fido qiladi. Bu obrazlarni ko‘zdan kechirgan kitobxon shoir xayolining cheksizligiga, tafakkurining chuqurligiga qoyil qolmay iloji yo‘q.

Alisher Navoiy besh dostonni ikki yilda yozib tamomlaydi. Turkiy tilda birinchi marotaba «Xamsa» yaratiladi. Olim-u fuzalo – barcha bu hodisani zo‘r olqish bilan kutib oldilar. Abdurahmon Jomiy yozadi: «Bu qalamga falakdan ofarinlar yog‘ilsin. Bu qalam forsiy til egalariga, forscha nazm durlarini terguvchilarga rahm qildi: u ham shu forsiy tilda yozganida, boshqalarga so‘z aytishga majol qolmasdi. Uning mo‘jizali she’ri oldida Nizomiy kim-u Xisrav kim bo‘lardi?»

Husayn Boyqaro-chi? U Alisher Navoiyning bir vaqtlar Sayyid Hasan Ardasherga yozgan she’riy maktubidagi gaplarini shunchaki bir «xomayi gazof» (shoirona gap) deb o‘ylagan edi. Shoir sultonga «Xamsa»ni taqdim etganida, u g‘oyat hayajonga tushdi.

Zayniddin Vosifiyning «Badoye’-ul vaqoye’»sidan: «Shoh Navoiyga: Bir mojaro siz bilan bizning oramizda ko‘pdan beri hal bo‘lmay keladi, shuni bugun bir yoqlik qilaylik, deydi. Bu mojaro shundan iborat ediki, Sulton Husayn Alisherning muridi bo‘lishni ko‘pdan orzu qilar va uni «pirim» deb atar edi. Alisher esa har gal «Yo Ollo, yo ollo, bu qanday gap bo‘ldi! Aslida – biz muridmiz, siz – hammamizga pirsiz», der edi. Endi Sulton Husayn Alisherdan so‘radi:

– Pir nima-yu, murid nima?

Alisher javob berdi:

– Pirning tilagi – muridning tilagi bo‘lishi kerak.

Shunda Sulton Husayn o‘zining oq otini olib kelishni buyurdi. Ot juda asov, chopag‘on edi.

Sulton Husayn aytdi:

– Siz murid, men pir bo‘ladigan bo‘lsam, siz shu otga minasiz, men uni yetaklayman.

Alisher noiloj otga minishga majbur bo‘ldi. Ot g‘oyat asov bo‘lib, shohdan boshqani o‘ziga yaqinlashtirmas edi. Alisher oyog‘ini uzangiga qo‘yishi bilan ot tipirchilay boshladi. Sulton Husayn otiga o‘shqirdi, ot itoat qilib, Alisherning minishini kutdi. Alisher egarga o‘tirishi bilan Sulton Husayn otning jilovini ushlab yetaklay boshladi. Alisher hushidan ketdi. Uni egardan ko‘tarib oldilar».

Tarixda bunday hol ko‘rilmagan edi. Hech bir zamonda shoh shoirga jilovdorlik qilgan emas.

Alisher Navoiy 1491–1492-yillardan boshlab turkiy tilda yozilgan hamma she’rlaridan yangi, yig‘ma devon tuzishga kirishdi va bu ish 1498 – 1499-yillarda nihoyasiga yetdi. Devonning umumiy nomi «Xazoyin ul-maoniy» («Ma’nolar xazinasi») bo‘lib, 4 qismdan iborat bo‘lganligi uchun «Chor devon» deb ham atalgan. Devon shoirning butun hayoti davomida yozilgan she’rlarini qamrab olgan, ularda Alisher Navoiyning barcha davrlardagi kayfiyati, dunyoqarashi, orzu-umidlari ifodalangan.

Taxminan shu yillarda Alisher Navoiy forsiy she’rlardan tashkil topgan «Devoni Foniy» («Foniy devoni»)ni, forsiy tilidagi ikki qasidalar majmualarini tuzib, forsiy she’riyat taraqqiyotiga ham o‘zining munosib hissasini qo‘shdi. Xurosonda forsiyzabon xalqlar ko‘pchilikni tashkil etganligi inobatga olinsa, Alisher Navoiyning bu tilda ham samarali ijod qilgani, mamlakat ma’naviy ehtiyojini yaxshi his etganligini bildiradi.

Alisher Navoiyning so‘nggi buyuk asarlaridan yana biri nasriy pandnoma yo‘sinda yozilgan «Mahbub ul-qulub» («Qalblar sevgani») dir. U Sharq adabiyoti tarixida Shayx Sa’diyning «Guliston», Kaykovusning «Qobusnoma», Nizomiy Aruzi Samarqandiyning «Chor maqola» kabi asarlari qatorida turadi. Bu asarida Alisher Navoiy

o‘zining hayot yo‘lini, boshidan kechirgan turmush mashaqqatlarini yorqin tasvirlab bergan.

O‘zbek adabiyoti va madaniyati tarixida Alisher Navoiyning roli g‘oyat buyuk. U o‘zbek tilidagi she’rlarini to‘plab to‘rt devon – «Xazoyin ul-maoniy»ni tuzdi, besh dostonni ichiga olgan «Xamsa»ni yaratdi. Bundan tashqari, o‘zbek tili, adabiyoti masalalariga doir «Majolis un-nafois», «Muhokamat ul-lug‘atayn», «Mezon ul-avzon», «Xamsat ul-mutahayyirin» kabi ilmiy asarlar yozdi. Umrining oxirlarida ijtimoiy-falsafiy mazmunga ega bo‘lgan «Mahbub ul-qulub» nomli nasriy asarni hamda «Lison ut-tayr» dostonini yozishga kirishdi va muvaffaqiyatli tugatdi. Bu bilan u turkiy xalqlar she’riyatining buyuk bayroqdori sifatida maydonga chiqdi va bu to‘g‘rida faxrlanib quyidagilarni yozdi:

Turk nazmida chu men tortib alam,
Ayladim ul mamlakatni yakqalam.

To‘rt devon birla nazmi Panj ganj,
Dast berdi chekmayin anduh-u ranj.

Nazm-u nasrim kotibi taxminshunos,
Yozsa, yuz ming bayt etar erdi qiyos.

Bu o‘rinda Alisher Navoiyning yuz mingdan ortiq misrani tashkil etgan to‘rt devon bilan besh dostonni hech bir qiynalmasdan yozdim, deyishi xarakterli bo‘lib, biz bunga alohida diqqatni tortmoqchimiz. Chunki, bu shoir tomonidan tasodifiy aytilgan gap emas.

Ulug‘ navoiyshunos olim Maqsud Shayxzoda Alisher Navoiyni «G‘azal mulkining sultoni» deya ta’riflagan edi. Bu ta’rif Alisher Navoiy g‘azaliyoti butun boshli bir mamlakat – ma’naviyat va go‘zallik diyori, falsafiy-badiiy ma’nolar maskani ekanligidan dalolat beradi. Ulug‘ mutafakkir orzusidagi ma’naviy komil inson bo‘lish uchun, borliq, hayot, insonni tushunish uchun bu bepoyon mamlakatni kashf etishimiz, o‘zlashtirishimiz zarur. So‘z sohibqironi hazrat

Alisher Navoiy badiiy so‘z lashkarini qanday boshqarishini kuzataylik, g‘azallardagi badiiy san’at va ifodalarni nigohlardan kechiraylik. G‘azallarni tahlil va mutolaa etishni, san’at sehrini ilg‘ash, ma’no durlarini ajratib olish, asrab-avaylashni o‘rganishimiz lozim.

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483 – 1530) – deganda ko‘z o‘ngimizda o‘zbek adabiyotining Alisher Navoiydan keyingi buyuk namoyandasi, Hindistonda 332 yil hukm surgan buyuk boburiylar saltanatiga asos solgan qudratli davlat arbobi, ko‘plab muzaffar yurishlarni amalga oshirgan jasur va mohir sarkarda, jahon memuar adabiyotining nodir durdonalaridan bo‘lmish «Boburnoma»ni yaratgan bilimdon va haqgo‘y muarrix, islom arkonlari haqida «Mubayyin» asarini bitgan zabardast faqh, mumtoz so‘z san’atining asosiy vazni bo‘lmish aruz tizimini tadqiq etib, «Aruz risolasi»ni yozgan nuktadon adabiyotshunos, o‘tmish va zamondosh olim-u adiblar ijodini talabchanlik bilan baholagan nozikta’b munaqqid, arab yozuvini isloh qilib, «Boburiy xat»ini kashf etgan ijodkor murabbiy, mashhur tariqat piri Xoja Ahror Valiyning «Volidiya» risolasini forsiydan she’riy usulda tarjima qilgan mahobatli mutarjim, turkiy musiqa ohanglari haqida risola bitgan musiqashunos, qator kuylar yaratgan bastakor, harb san’ati haqidagi risola muallifi, go‘zal husnixat sohibi hisoblanmish serqirra faoliyat va iste’dod egasi bo‘lgan barkamol bir zot gavdalanadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur Samarqand fathi voqeasi munosabati bilan yozadi: «Ul fursatlarda biror, ikkirar bayt aytur erdim. Vale g‘azal tugatmaydur erdim. Birgina turkiy ruboiy aytib yibordim...» Ayni ruboiy ulug‘ shoirning ilk ijodi namunalaridan ekani jumla mantiqidan sezilib tursa ham, bu o‘rinda ruboiyning so‘nggi misra’ining qofiyasini radif qilib, o‘zga qofiya bila bir ruboiy aytgan Mulla Binoiy» va uning she’riga Zahiriddin Muhammad Boburning munosabati muhim: o‘shal radif va qofiyaga aytmoq kerak edi. Bu ruboiyni Xoja Abulbaraka aytdi». Sezishimizcha, Zahiriddin Muham-

mad Boburga tatabbu' tarzida javob Mulla Binoiydan kutilgan, biroq uning ruboiysi mazmunan Zahiriddin Muhammad Bobur ruboiysiga yaqin kelsa ham, poetik talablariga ko'ra unga munosib javob bergan Xoja Abulbarakadir. Nazirago'ylikda radif va qofiyaning saqlanishi she'r nazariyasining muhim talablaridan ediki, bu vazifani yetarli aytolmagan shoir Binoiyga munosabat orqali Zahiriddin Muhammad Boburning she'r texnikasi talablari va uning nazariy muammolarini chuqur bilgan sinchkov olim ekani ko'rinadi.

Ikkinchi marta esa Samarqanddan ajralib, Farg'onadan ham mahrum bo'lib, Toshkentga panoh izlab borganida tog'asi Mahmudxonga quyidagi mashhur ruboiysini o'qib bergan, lekin o'zi ham she'r yozadigan xushta'b tog'asidan tayinli javob eshitmaganini qayd etadi:

Yod etmas emish kishini mehnatta kishi,
Shod etmas emish ko'ngulni g'urbatta kishi.
Ko'nglum bu g'aribliqta shod o'lmadi hech,
G'urbatta sevunmas emish, albatta, kishi.

Shundan keyin olti baytdan iborat ilk g'azalini tugatganini aytadi. U quyidagi matla' bilan boshlanadi:

Jonimdan o'zga yori vafodor topmadim,
Ko'nglumdin o'zga mahrami asror topmadim.

Zahiriddin Muhammad Bobur ham shoh, ham shoir sifatida, tabiiyki, benihoya mumtoz bir o'ringa ega. Masalan, uning adabiy xizmatlari haqida gap ketganda faqatgina bir kishiga – Alisher Navoiyga qiyos qilish mumkin. Asarlarining ko'lami, salmog'i bilan emas, kuch-qudrati bilan u «Boburnoma»day ulkan asar yaratdi. XV–XVI asrlardagi Movarounnahr, Xuroson, Hindiston hayotini bu asarsiz o'rganish mumkin emas. Shu uch mintaqa hayotining barcha sohalari – tabiatidan jamiyatigacha, siyosatidan adabiyotigacha, urf-udumdan e'tiqodigacha barcha-barchasi Zahiriddin Muhammad Boburday zamonasining eng ma'rifatli bir kishisi nazari bilan berilgan.

«Boburnoma» nafaqat tarixiy-memuar, balki adabiy-badiiy, falsafiy-axloqiy va ilmiy-ma'rifiy qomusiy asarki, unda adabiyotshunoslik masalalari asarning bosh ilmiy muammolaridan biri sifatida qo'yilgan va qalami ostidagi davrning shuaro va ulamolari, ilmiy-madaniy muhiti, adabiy jarayon masalalari o'zining to'liq ifodasini topgan. «Boburnoma»da, birinchidan, ikki mingdan ortiq tarixiy shaxslar tilga olinar ekan, ularning kamida yarmi adabiyot va san'at hamda ilm kishilari; ikkinchidan, muallif adabiyot bilan mashg'ul bo'lgan professional olim va shoirlarni alohida ehtirom bilan tasvirlabgina qolmay, balki ular haqida xolis haqqoniy baho beradi; uchinchidan, ayrim ilm odamlari faoliyati haqida so'z yuritarkan, ularning asarlaridagi ilmiy muammolar bilan nazariy munozaraga kirishadi va o'z fikrini ilmiy aniqlik bilan bayon etib, tilga olingan mavzu yuzasidan o'zining oliymona xulosasini beradi.

«Boburnoma» o'zbek adabiyotida nasr taraqqiyotiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Buning yorqin namunasi Abulg'ozi Bahodirxonning «Shajarai turk», «Shajarai tarokima» asarlaridir. «Boburnoma»ning tasvir va bayon usuli tarjimalar orqali boshqa adabiyotlarga ham o'tdi, G'arb va Sharqning fan va davlat arboblari Zahiriddin Muhammad Boburning tarix va madaniyat oldidagi xizmatlarini belgilashda bu kitobga asosiy manba sifatida qaraydilar. Hindiston tarixini yoritishda esa, mutaxassislar fikricha, hali ham buyuk qomusiy mutafakkir Abu Rayhon Beruniyning Hindiston»idan keyingi muhim asar «Boburnoma» ekanligi qayd etilmoqda.

Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida «Mubayyin» («Tushuntirish») asari nafaqat adabiyotshunoslar, balki islomshunos, tarixchi, faylasuf, iqtisodchi, pedagog va boshqa qator soha olimlari uchun qimmatli manbadir. «Mubayyin» asari o'tmishimizning boy ma'naviy merosi bilan xalqimizning barkamollik yo'lidagi sa'y-harakatlari, ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi.

Muallif bu asarini farzandlari Humoyun Mirzo va Komron Mirzolarga islom ilmini egallashlari uchun yozib qoldirayotganligini quyidagicha bayon qiladi:

Bilgasen ey xo'jasta-e farzand,
Jigarim birla jonima payvand.

Mas'alalarki, ul zarur erdi,
Bilmasang dininga qusur erdi.

Yetti ko'nglumgakim yig'ishtursam,
Nazm tartibida sig'ishtirsam.

To ani zabt qilg'asen oson,
Ul masoyilni bilgasen yakson.

Tonglaliq kundakim hisob o'lg'ay,
Manga ajr-u senga savob o'lg'ay.

«Mubayyin» asarining kirish qismida har bir musulmon uchun amal qilinishi zarur bo'lgan shartlar ustida gap boradi. Avval besh farz – iymon, salot, zakot, ro'za, haj haqida qisqacha to'xtab o'tiladi. So'ngra besh farzning avvalgisi, iymon haqida tafsiloti bilan bayon qilinadi. Allohning o'zigina ma'budligi, farishtalarning mavjudligi, muqaddas kitoblar-u anbiyolarning barhaqligi, oxirat kunining va barcha yaxshilig-u yomonliklar yaratuvchining irodasi bilan sodir bo'lishi yorqin misralar orqali ifoda etiladi. Haq subhanahuning subutiy sifatlari – hayot, ilm, irodat, qudrat, sam' va basar (eshitish va ko'rish), kamol, taqdirga ishorat qilinadi.

Kitobda Muhammad (s.a.v.) Payg'ambarimizning fazilatlari, me'roj sifatlariga alohida ishorat qilinib, uning sahobalari hazrati Abu Bakr, Hazrati Umar, Hazrati Usmon, Hazrati Alilarning din ishiga diyonat berganliklari tafsiloti bilan birma-bir aytib o'tiladi. Keyin Ahli Qibla, mazhab imomlari va bizning muqtadomiz Abu Hanifa haqida ta'sirchan misralar mohirlik bilan bitilgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur «Mubayyin» asarini yakunlar ekan, bu asarni yozishdan maqsad shoirlik mahoratini ko‘rsatish emas, balki haq yo‘lida bilgan diniy bilimlarini bayon etib, olam ahliga sochishdan iborat ekanligini ta’kidlaydi:

Men bu ganjimni oshkor ettim,
Borin din ahlig‘a nisor ettim.

Ushbularkim dedim bo‘lung ogoh,
Bordurur barcha xolisan lilloh.

Bu demaktin g‘araz Haq erdi-yu bas,
She’r-u shoirlik ermas erdi havas.

Shoir she’rlarining bir qismi an’anaviydir. Lekin deyarli hammasi benihoya samimiy tuyg‘ular bilan yo‘g‘rilgan. Zahiriddin Muhammad Bobur she’rlarining ko‘pchiligi Vatan haqidadir. Ular Vatandan judolik azobi, u bilan birga bo‘la olmaslik iztiroblarini ifodalaydi. Shoir bularning hammasini taqdirdan, deb biladi. O‘zini baxtsiz, tolesiz deb hisoblaydi. Tolesizlik bilan chiqisha olmaydi. U ota yurtida katta, mustahkam bir saltanat qurmoqni orzu qiladi, lekin bu ish unga muyassar bo‘lmadi, barcha intilishlari bekor ketdi, axiri saltanat dag‘dag‘asi bilan o‘zga yurtlarda, Qobulda taxt qurdi, Hindistonni zabt etdi, biroq bundan ko‘ngli taskin topmaydi. Hech bir yurt uning uchun «o‘z yeridek – Vatani»dek bo‘lmaydi. Taxt topgan bo‘lsa-da, baxt topa olmadi. U bir umr Vatanning dardi bilan yashadi. Aksincha, «Hind sori» borishni «xatolig‘», «yuz qarolig‘» hisobladi.

Tole’yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi,
Ne ishniki ayladim, xatolig‘ bo‘ldi.
O‘z yerni qo‘yib, Hind sori yuzlandim,
Yorab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi.

O‘zbek adabiyotining ruboiy janri taraqqiyotida Zahiriddin Muhammad Boburning muhim hissasi bor. Sharqning qadim va mashhur

she'riy janrlaridan bo'lgan ruboiy nomlanishiga ko'ra to'rtlikdir. Nihoyat, u aruzning ruboiy vaznida yozilishi kerak.

G'azal singari ruboiyni ham eng ko'p va eng yaxshi yozgan Alisher Navoiydir. Zahiriddin Muhammad Boburniki u qadar ko'p emas, shunga qaramasdan, uning o'zbek ruboiychiligida alohida o'rni bor. U tabiatan, ijtimoiy-falsafiy bo'lgan ruboiy janriga kundalik, hayotiy mazmunni kiritdi. Uning ko'pgina ruboiylari sarson-sargardonlikda kechgan hayotining iqrornomalaridan taassurot qoldiradi.

Ko'ngli tilagan murodig'a yetsa kishi,
Yo barcha murodlarni tark etsa kishi.
Bu ikkisi muyassar bo'lmasa olamda,
Boshini olib bir sorig'a ketsa kishi.

Shoir ruboiylari orasida an'anaviy mavzu va ohanglarda yozilganlari ham talaygina. Masalan:

Raftori-yu qaddig'a ravonim sadqa,
Bir boqishig'a ikki jahonim sadqa,
Ozg'i-yu belig'a bud-u nobudim sadaf,
Ko'zi-yu labig'a jism-u jonim sadqa.

Turmushning barcha achchiq-chuchugini tortgan, katta hayot tajribasiga ega bo'lgan Zahiriddin Muhammad Boburning ko'pgina baytlari hikmatday jaranglaydi. Lekin u atay nasihat qilmaydi, bu uning hayotiy kuzatishlari va xulosalaridan kelib chiqadi. Aytaylik, agar o'z oldingga biror-bir maqsad qo'yib, unga yetishishni tilasang, g'aflat uyqusidan uyg'on, chunki maqsadga kim bedorroq bo'lsa, o'sha yetishadi, deb teran hayotiy haqiqatni xalqona lo'nda uslub va sodda tilda ta'sirchan bayon qiladi:

G'aflat uyqusidin uyg'on gar tilar bo'lsang murod –
Kim, yetar maqsadga har kim bo'lsa ul bedorroq.

Zahiriddin Muhammad Boburning aqidasi va hayotiy tajribasiga ko'ra har kim qilmishidan topadi: yaxshi odam yomonlik qilishi

mumkin emas, yomon kimsaga esa yaxshilik xayf; xuddi shunday vafo qilgan vafo ko‘radi, jafo qilgan jafo. Bu fikrlar uning she’riy hikmat darajasiga ko‘tarilgan quyidagi ruboiysida o‘zining yorqin ifodasini topgan:

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir,
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidur.
Yaxshi kishi ko‘rmagay yomonliq hargiz,
Har kimki yomon bo‘lsa, jazo topqusidir.

Aslida ixchamlik, lo‘ndalik, o‘tkirlik, tushunarlilik va ta’sirchanlik hikmatli so‘zning asosiy xususiyatlari bo‘lib, shoir o‘z hikmatlari bu talablarga ortig‘i bilan rioya qilgan. Uning qalamiga mansub mazmunan teran, badiiy barkamol hikmatlarning asrlarni bo‘ylab kelgani va bundan keyin ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmasligining siri shunda.

Hozirda uning 119 g‘azali, bir masnu she’r, 209 ruboiysi, 10 dan ortiq tuyuq va qit’alari, 50 dan ortiq muammo va 60 dan ziyod fardlari aniqlangan. Devoni tarkibida umumiy hajmi 270 baytdan iborat 8 masnaviy ham o‘rin olgan. Zahiriddin Muhammad Bobur Sharq she’riyatining asosiy masalalaridan biri – aruz vazni, uning nazariyasi va amaliyotiga oid ilmiy risola yaratgan. Uning nomini jahonga mashhur qilgan shoh asari «Boburnoma»dir.

Dunyoda shunday ulug‘ zotlar, shoir va mufakkirlar borki, ularning ulkan qalb, teran tafakkur, beqiyos iste’dod va mahorat, tengsiz jasorat bilan yaratilgan asarlarining ahamiyati yillar, asrlar o‘tgani sayin ortib, umumbashariyat mulkiga aylanib boradi. Bamisoli vaqt degan qudratli hakam ham bunday buyuk shaxslarning izmiga bo‘ysungandek, ularning qoldirgan merosi naqadar bebaho, haqqoniy va hayotiy ekanini isbotlab, mo‘jizakor ijod namunasini ko‘hna tarix ibratiga, bugungi kun va kelajak idealiga aylanishiga xizmat qiladi.

Jahon madaniyati tarixidan ma'lumki, mumtoz zotlarni tarbiyalab voyaga yetkazgan har qaysi xalq va millat o'z qalbi va yuragini, yuksak aql-zakovat va ma'naviy salohiyatini, asriy orzu-armonlari, ezgu intilishlarini aynan ana shunday farzandlari orqali namoyon etadi. Shu bilan birga, Yer yuzida tinchlik, adolat, do'stlik, mehr-oqibat kabi azaliy qadriyatlar doimo barqaror bo'lishi, obod va farovon hayot tantana qilishi uchun tarix va kelajak oldidagi o'z burchi va mas'uliyatini ham, avvalo, ma'rifatli va bunyodkor xalqgina chuqur his qiladi. Va bunday xalq jahon sivilizatsiyasi va ma'naviyati rivojiga qo'shgan hissasi uchun dunyo ahlining haqli e'tirofi va hurmat-ehtiromiga sazovor bo'ladi.

Amir Temur va temuriylar davri adabiyoti o'zbek adabiyoti rivojida o'ziga xos alohida bir bosqichni tashkil etadi. Undagi insonparvarlik va xalqchillik, adolatparvarlik va ma'rifatparvarlik g'oyalari hamon o'z tarovatini yo'qotgani yo'q. Bu adabiy meros O'zbekistonda asrlar davomida o'zining boy mazmuni, g'oyaviy-mafkuraviy teranligi va ilohiyligi bilan komil insonni tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Amir Temur tavalludining 660 yilligi qachon, qayerda o'tkazildi?
2. Amir Temurning yoshlik yillarini so'zlab bering.
3. «Temur tuzuklari»ni ta'riflab bering.
4. Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan ravnaqi asosan qaysi sohalarni qamrab oldi?
5. Sharafuddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarini o'qiganmisiz?
6. Mirzo Ulug'bek davri haqida nimalarni bilasiz?
7. Mirzo Ulug'bekning Samarqanddagi astronomiya maktabi vakillaridan kimlarni bilasiz?

8. «Ziji jadidi Ko'ragoniy» asari haqida jahon olimlarining fikrlaridan iqtiboslar keltiring.

9. Movarounnahr va Xurosonda adabiyot sohasida ijod qilgan shoirlar haqida fikringiz.

10. Alisher Navoiy turkiy tilda ijod qilish uchun qanday vazifani (masalani) hal qilishi kerak edi?

11. Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asarini o'qiganmisiz?

12. Amir Temur va temuriylar davrida amalga oshirilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning hozirgi davrdagi ahamiyati haqida so'zlab bering.

«...turklarning qonini qaynatguchi, imonini yuksaltguvchi quvvat bergan bir suyunchli so'z tug'ildi, ya'ni 27-no'yabrning kechasinda milliy laylatulqadrimiz bo'lgan Turkiston muxtoriyati e'lon qilindi».

Abdurauf Fitrat

12-MAVZU. JADIDCHILARNING MA'RIFATPARVARLIK HARAKATLARI VA ULARNING XALQ MA'NAVIYATINI KO'TARISHDA TUTGAN O'RNI

Reja:

12.1. Jadidchilik harakatining vujudga kelishi, uning ma'naviy-ma'rifiy mohiyati.

12.2. Turkistonda milliy demokratik davlatchilikning dastlabki tajribasi.

12.3. Jadidchilarning umumxalq ma'naviyatini yuksaltirishdagi roli.

Tayanch so'z va iboralar

Ma'rifat, ma'rifatparvar, jadidchilik harakati, Ismoilbek Gasprinskiy, usuli jadid, xalq maorifi, milliy teatr, «Sho'roi islomiya», «Turkiston Muxtoriyati», Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, «Maktab gulustoni», Cho'lpon, yangi o'zbek she'riyati, Abdulla Qodiriy, o'zbek romanchiligi.

12.1. Jadidchilik harakatining vujudga kelishi, uning ma'naviy-ma'rifiy mohiyati

Ma'rifatning lug'aviy ma'nosi bilish, tanish, bilim demakdir. Boshqacha aytganda, kishilarning ongini, bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayonidir. Ma'rifat so'zining ko'plikdagi ma'nosi maorifdir. Ma'rifat atama sifatida – tabiat va inson mohiyati haqidagi turli-tuman bilimlar, muayyan sohada ma'lumoti bor, demakdir. Fanlar chuqur va keng rivojlanib borayotgan hozirgi davrda bilim va ilmga intilgan har bir kishi, talaba, fan namoyondasi ilmning, ya'ni ma'rifatning ma'lum sohasinigina egallashga erisha oladi.

Ma'rifatni hayotga singdirish maorif tizimi orqali amalga oshiriladi. Demak, ma'rifat – bilim va madaniyatning qo'shma mazmuni bo'lib, maorif esa ana shu mazmunni yoritish quroli, vositasidir. Ma'rifat tushunchasi maorif tushunchasidan keng bo'lib, bilim va madaniyatni yoyish va yuksaltirishning hamma turlari, shakllari va sohalarini o'z ichiga oladi. Jamiyatda ma'rifat, ya'ni bilim ma'rifatparvarlar orqali yoyiladi. Ma'rifatparvar – ma'rifat uchun kurashuvchi, ilm, bilim chirog'ini yoquvchi, ma'rifat homiysi va tarafdori demakdir.

Insoniyatning bir jamiyatdan ikkinchi jamiyatga, bir tarixiy davrdan ikkinchi tarixiy davrga o'tishi ma'rifatparvarlikdan boshlanadi. Zamonning eng yetuk, ongli, oq-qorani tanigan, fidoyi, elim, yurtim deb yashovchi, uzoqni ko'zlovchi ma'naviyatli kishilar ma'rifatparvarlik bilan shug'ullanadilar. Ma'rifatparvarlar odatda davr uchun, jamiyatning, mamlakatning, xalqning bugungi va kelajagi uchun muhim g'oyalarni ilgari suradilar, shu g'oyalarni amalga oshirish uchun kurash olib boradilar.

Ma'rifat ma'naviy qaramlik, qo'rquv va hadikni bartaraf etadi, insonga beqiyos ilohiy qudrat, mislsiz salohiyat baxsh etadi.

Shuning uchun ozodlik kurashchilari mamlakat, millat ozodligini xalqning ma'rifiy uyg'oqligida deb biladilar va ma'rifat uchun kurashadilar. Bizning xalqimiz azal-azaldan ma'rifatga intilib yashagan. Bu o'lkadan dunyo ilmi rivojiga ulkan hissa qo'shgan allomalar chiqqan. Ular ham dunyoviy, ham diniy ilmlar sohasida jahon ilm ahlini hayratga solganlar.

Jadidchilik harakatidagi ma'naviyat quyidagilarda yaqqol namoyon bo'ladi: birinchidan, ular ozodlikka, mustaqillikka qon to'kishlarga olib boruvchi turli to'polon, qirg'in-barot urushlar bilan emas, balki aholining savodini chiqarish, ularning ma'rifatini ko'tarish orqali qaramlikning kelib chiqishi, uning millat taqdiridagi oqibatlarini tushunib yetish darajasiga ko'tarish orqali erishishni; ikkinchidan, milliy ongni rivojlantirish, milliy birlikni ta'minlashning asosiy omili ekanligini, milliy birlikning vujudga kelishi esa uni taraqqiyotga olib boruvchi asosiy omili ekanligi g'oyasi; uchinchidan, jadidchilik harakati namoyondalari faqat o'z g'oyalarini ilgari surish, uni tashviqot qilish, umumiy savodxonligini ko'tarish borasida ko'pgina ishlarni amalga oshirdilar. Ular o'zlarining mablag'lari hisobiga maktablar ochdilar, gazeta, kitoblarni bosmadan chiqardilar. Bu harakatlarning zaminida chinakam ma'naviyat turadi. Chunki ular urushlarga, johillikka va qarama-qarshiliklarni avj oldirishga emas, balki yuksak ma'rifatga va siyosiy onglilikka erishish orqali ozodlik va taraqqiyotga erishish mumkinligi uchun faoliyat ko'rsatdilar. Ana shu jihatlari bilan jadidchilik harakati milliy ma'naviyatimiz rivojida o'ziga xos o'ringa egadir.

Yevropada XVIII–XIX asrlarda texnika taraqqiyotiga keng yo'l berilib, XX asr madaniyati va turmush tarzi uchun mustahkam poydevor yaratilgan edi. Osiyo, jumladan, Turkiston, ilm-fan amaliyoti va texnika taraqqiyotidan orqada qolib ketgandi. O'zbek xonliklari (Buxoro, Xiva, Qo'qon) o'rtasida muntazam davom etib kelgan nizolar oxir-oqibatda ularni zaiflashtirib, Rossiyaning bu xonliklarni

bosib olib, jaholat va iqtisodiy-madaniy tanazzulini yanada chuqurlashtirib yuborishiga olib keldi.

Jadidchilik harakati orqali qoloqlik va jaholat, o'lka aholisining ayanchli ahvoli Turkistonning Yevropa va jahon sivilizatsiyasidan orqada qolib ketishi, islom va shariatning oyoq osti qilinishi va bunday og'ir hayotdan qutulish, erk va ozodlikka erishish haqida o'z zamonasining ilg'or ziyoli qatlamlarida fikr-mulohazalar paydo bo'la boshladi. Jaholat uyqusidan uyg'onish tarixiy zaruratga aylangan edi. Boshqacha qilib aytganda, jadidchilik harakati ijtimoiy rivojlantirishning, tarixiy taraqqiyotning talab va ehtiyojlariga javob sifatida maydonga kelgan ulkan ijtimoiy-siyosiy harakat edi. O'lkada millatning dard-alamlarini, butun ayanchli, mudhish, fojiali og'ir qismatini o'z qalbi va vujudidan o'tkazib, o'zining butun borlig'ini, aql-zakovatini, ongini, hayotini erk, ozodlik, taraqqiyot uchun safarbar etgan ziyolilarning butun bir yangi avlodi shakllana boshlagan.

Millat istiqbolini o'ylovchi taraqqiyparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari – hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolar orasida mavjud edi. Ziyolilar dastlab mustamlakachilarga qarshi kurashni xalqning asriy qoloqlikdan uyg'otish – siyosiy-ma'rifiy jabhadan boshlashga qaror qildilar. Jadidchilik harakati ana shunday tarixiy bir sharoitda Turkiston mintaqasida rivojlanish uchun o'ziga qulay zamin topdi.

Jadidchilar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va Vatanni mustaqil ko'rish orzusida fidoyilarcha kurashdilar. Jadidchilarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida quyidagi yo'nalishlar ustuvor edi: yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish; turli ma'rifiy jamiyatlar va teatr truppalarini tuzish; gazeta va jurnallar chop etish. Xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish maqsadi bo'lib,

jadid ziyolilarining kuchli partiyasi tashkil qilingan taqdirdagina bu ishlarni amalga oshirish mumkin edi.

Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari quyidagilar edi: Turkistonni o'rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariatni isloh qilish, xalqqa ma'rifat tarqatish, Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash. Buxoro va Xivada konstitutsion monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o'rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo'shin tuzish. Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Samarqand va Xivada hur fikrli va taraqqiyparvar kishilarning ayrim guruhlari tomonidan ochilgan madaniy-ma'rifiy yo'nalishdagi jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi.

Jadidchilik harakatining vujudga kelishi va shakllanishida ichki omillar bilan bir qatorda tashqi omillar ham mavjud ediki, ularning eng e'tiborlisi Ismoilbek Gasprinskiy ta'limotidir.

Ismoilbek Gasprinskiy (1851–1914) – jadidchilik harakatining asoschisi, yozuvchi va publitsist. Moskvada tahsil olib, keyinchalik Istanbul va Sorbonna universitetlarida o'qigan. Parijda fransuz sotsialistlari va liberallariga yaqinlashadi. Turkiyada Yosh turklar harakati rahbarlari bilan tanishadi. Ismoilbek Gasprinskiy turkiy xalqlar tarixi va adabiyotini o'rganib, Sharq bilan G'arb olamini taqqoslash imkoniyatiga ega bo'ladi. U «Rossiya musulmonligi» risolasida Yevropa sivilizatsiyasidan ko'r-ko'rona andoza olishga qarshi chiqib, uni tanqidiy qabul qilishga, musulmonlarni ilm-fanni egallashga, texnika yutuqlaridan foydalanishga da'vat etadi. «Ovrupo madaniyatiga bir nazar muvozini» asarida esa sotsializm g'oyalari bilan bahsga kirishib, uning asosiy tamoyillarini shubha ostiga oladi. Ismoilbek Gasprinskiy Rossiya mustamlakasidagi barcha musulmon xalqlar maorifini tubdan isloh qilish, dunyoviy fanlarni o'qitish masalasiga alohida e'tibor beradi.

1881-yili «Tavrida» gazetasidagi maqolasida u o‘zining amaliy dasturini shunday ifoda etadi:

– milliy maorif tizimini isloh etish;

– milliy maorif tizimini moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash uchun «Jamiyati xayriya»lar tashkil etish;

– turkiy xalqlarning umumiy milliy matbuotini tashkil etish;

– musulmon xotin-qizlarni ozod etish;

– milliy mutaxassis va ziyolilarni yetishtirish uchun sharoit yaratish.

Bu esa, o‘z vaqtida, siyosiy va huquqiy ahamiyatga ega bo‘lgan asosiy dastur hisoblangan. Unda bayon etilgan vazifalarni Ismoilbek Gasprinskiy 1883-yildan chiqa boshlagan «Tarjimon» gazetasida ham ilgari suradi. Nazariy va huquqiy g‘oyalarini hayotga tatbiq etib, 1884-yil Boqchasaroyda yangi usuldagi birinchi maktab ochadi. Ismoilbek Gasprinskiy maorif tizimini isloh etish borasidagi g‘oyalarni «Tarjimon» gazetasida e’lon qila boshlaydi. Uning fikricha, maorif tizimi oldida quyidagi vazifalarni hal etish muammosi turar edi:

– maktab madrasadan ajralib chiqishi kerak;

– boshlang‘ich sinflar uchun alohida o‘qituvchilar tayyorlash lozim;

– o‘qituvchi «sadaqa» emas, oylik maosh bilan ta’minlanishi zarur;

– o‘qish va yozish eski hijjalama yo‘li bilan emas, yangi «Alifbo» kitoblari vositasida o‘rgatilishi maqsadga muvofiq;

– faqatgina o‘qish emas, shu bilan birga yozishga ham ahamiyat berilishi shart;

– qizlar uchun ham alohida maktablar ochilib, u yerda o‘qish va yozishga alohida e’tibor berilishi kerak;

– o‘qitish ma’lum bir dastur asosida va darsliklar vositasida olib borilishi lozim.

Ismoilbek Gasprinskiy jadidchilik g‘oyalarini kengroq yoyish uchun «Tarjimon» (1883), «Millat» (1908), «Bolalar olami» (1908–1915), «Uyg‘onish», (Qohira, 1908, arab tilida) gazetalari, «Ayollar olami» jurnali (1908–1910)ni chiqardi. Jadid maktablari uchun «Xo‘jai sibyon» («Bolalar muallimi») darsligini, «Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo‘ldosh» (1898) kitobini yozdi.

Uning eng katta xizmati Rossiya sarhadida yashab turgan, lekin zamonning zayli bilan bir-biridan uzoqlashib, begonalashish darajasiga yetgan turkiy xalqlarni bir-biriga tanitdi. Sharq xalqlari ma’naviy hayotida, xususan, maktab-maorifda chinakam inqilob yasadi, XX asr Sharqining eng mashhur, eng taraqqiyparvar harakatchiligi – jadidchilikka asos soldi.

Jadidchilarning poydevori, tamal toshi – «usuli jadid» maktabi edi. Bu tabiiy, hamonki maqsad jamiyatni yangilamoq ekan, uni yangi avlodgina qilishi mumkin edi. Yangi avlodni esa, yetishtirmoq lozim. Eski an’anaviy usulda bu ishni amalga oshirish qiyin. Chunki, zamon o‘zgargan. U tezkorlikni talab qiladi. Ikkinchidan, bugungi o‘quvchi tarix, jo‘g‘rofiya, iqtisod, fizika, kimyo, matematika kabi zamonaviy fanlarni bilishi kerak. Ilmiy fanlar, fan-texnika yutuqlari so‘nggi uch-to‘rt asr dunyo taqdirini boshqa o‘zanga solib yubordi va Yevropani oldinga olib chiqdi. Endi Yevropa ilm-fanini egallamasdan dunyo bilan barobar yashab bo‘lmaydi.

Bu ilm-fanni o‘zlashtirmoq uchun Yevropa tillarini bilmoq kerak. Ayni paytda o‘zlikni ham saqlamoq lozim. Din-diyonat ham zarur. Xullas, yashamoq uchun uchala jihatni ham ushlamoq kerak bo‘ladi. Ushlaganda ham hech birini suiiste’mol qilmaslik kerak. Aks holda muvozanat buziladi. Muvozanat buzilishi esa, yomon oqibatlarga olib keladi. Masalan, yolg‘izgina din ushlansa, dunyo qo‘ldan ketadi. Faqat o‘zlik, millat desak, yana dunyodan ajralib qolamiz. Birovning biz bilan ishi bo‘lmaydi. Yevropalashsak, o‘zlik yo‘qoladi. Bu ham fojia.

Ismoilbek Gasprinskiy 1895-yilda yozgan maqolalaridan birini «G'oya» deb atagan edi. Uningcha, xalqlar hayotidagi barcha buyuk voqealarning tag-zaminida u yoki bu g'oya yotadi. Eng ulug' kashfiyotlar, avvalo, ular haqidagi orzu-niyatlardan boshlanadi. Islom g'oyalari yarim dunyoni bir hovuch arablar atrofida birlashtirdi. Moskva atrofiga birlashuv g'oyasi qudratli Rusiyani maydonga keltirdi. Tenglik va ozodlik g'oyasi fransuzlar mavqeini Ovro'pada sarbaland qildi.

G'oyasizlik-chi? Millatni zaiflashtiruvchi, turg'unlikka – tanazzulga olib boruvchi mana shu g'oyasizlik, maqsadsizlikdir.

Tarix necha martalab aqlu iste'dodiga guvoh bo'lgan Sharq xalqlari nega bunday zalolatga botdi? Necha yuz million xitoylar, hindlar so'nggi ming yil davomida o'zlarini ko'rsata olmay, nega boshqalar yetoviga tushib qoldilar? Sababi – g'oyasizlik, – deb tushuntiradi muallif.

Shundan keyin u Rusiya qo'l ostidagi musulmonlar hayotiga o'tadi. «Taassufki, Rusiyaning musulmon jamiyatida asl va chinakam g'oya, orzu yo'q, – deb yozadi Ismoilbek Gasprinskiy. – Ular yolg'iz shu kunning, shu daqiqaning manfaati, shu birgina qornini to'qlab olish manfaati bilan yashaydilar va hozirgidan bir necha marta yaxshiroq ishlamoq va yashamoq mumkinligini bilmaydilar. Bizda tushni ta'bir qiluvchi risolalar, gul va bulbul haqidagi qo'shiqlar, o'zi bir qarich, soqoli qirq qarich polvon haqidagi kitoblar ko'p, ammo miyamizni qoplab olgan, jaholatni tarqatuvchi, ahvolimizni tushuntirib beruvchi, taraqqiyot xususida, kelajak xususida o'ylashga, ilgariga intilishga majbur etadigan biror kitob yo'q. Shunday ekan, maorifga, taraqqiyotga intilishni o'z oldimizga vazifa va orzu qilib qo'ymoq kerak emasmi?!».

Shu g'oya bilan ish tutilsa, millatning jonlanishiga, ma'rifatli avlod shakllanib, hayotning go'zallashishiga Ismoilbek Gasprinskiy dil-dilidan ishonadi. Bugina emas, uni hayot-mamot masalasi deb bi-

ladi. Millatning milliy, diniy, insoniy huquqlarini muhofaza qilishda birinchi vosita deb hisoblaydi.

«Bir millatning quvvat va matonati uning saodati va farog‘ati aqlining oz-ko‘pligi bilan emas, a’zolaridagi madaniyat va taraqqiyotga omil hayotiy xususiyatlarining darajasi bilan o‘lchanadi», – deb yozadi Ismoilbek Gasprinskiy 1908-yilda «Ilm va ma’rifat davri» maqolasida. Ilm-hunar g‘ayrat va mehnat bilan qo‘lga kiradi. G‘ayrat va mehnat esa ilm-u hunar tufayli samara beradi. Bular o‘zaro bog‘liq tushunchalardir. Qavmining ko‘pchiligi jismonan sog‘ bo‘lib, ilm-u hunardan bebahra qolishi va hayoti parishon bo‘lib, o‘zini himoya qilmoqdan ojiz holga tushishi mumkin. Ilm-ma’rifatda quvvatli Ovro‘pa millatlari sog‘lom Afrikani asoratga olishlari bejiz emas.

Ma’rifatga ehtiyoj, ilm-fanni egallash g‘oyasi millatning ko‘pchiligi tomonidan anglanishi kerak. Darhaqiqat, jadidchilarimiz olib borgan barcha ishlar, matbuotning yo‘lga qo‘yilishi, «usuli jadid» maktabi nazariyasi va amaliyoti, teatrchilik, hamma-hammasi shunga xizmat qildirildi. Shu tariqa har bir g‘oyaning milliy g‘oyaga aylanishi, jadidchilarimiz fikricha, ikki shartni taqozo etadi.

1. G‘oya millatning tub, asl ehtiyojlaridan, turish-turmushidan, asosiy an’analaridan, o‘zligidan va tabiiyki, imkoniyatidan kelib chiqmog‘i lozim.

2. Mazkur g‘oya millat tomonidan anglanishi, his qilinishi, boshqacha aytganda, ongiga joylashib, yuragidagi o‘tga aylanmog‘i, so‘ngsiz ishtiyoq hosil qilmog‘i kerak.

Tabiiyki, har bir millat taraqqiy topmog‘i uchun jahon ilm-fani yangiliklaridan, umuminsoniy g‘oyalardan foydalanmog‘i shart. Lekin muhim bir shart bilan. Bu fikr-g‘oyalar millatning qalbi va ongidan o‘tmog‘i, «milliylashmog‘i» kerak. Shundagina u millat yo‘lida xizmat qila oladi.

Millat tushunchasi birlikni talab qiladi. Birlik deyilganda, asosan insoniy, irqiy, diniy mushtaraklik ko‘zda tutiladi. Shular asosida mil-

latning uyg‘onishi, o‘z-o‘zini anglashida muhim rol o‘ynagan, lekin so‘ngroq asossiz ravishda ayblov vositasiga aylantirilgan panislomizm, panturkizm, panturonizm, mahalliy millatchilik kabi tushuncha va atamalar paydo bo‘ldi. Ularning ayrimlari o‘z davrida milliy g‘oya darajasiga ko‘tarildi, lekin siyosiy jihatdan amalga oshirish imkoniyati bo‘lmagani uchun zamon qatlarida qolib ketdi.

Dunyoda yashab turgan har bir millatning o‘z fe’li-tabiatidan, hayot sharoiti va turmush tarzidan, maslak-e’tiqodidan kelib chiqqan, asosiy tarixiy tajribalari bilan mustahkamlanib, takomillashib borgan va boradigan fikr-qarashlari tizimi bor. Bu tizim millatning borliq va tabiatga munosabatidan tortib, jamiyat, axloq, siyosatigacha bo‘lgan qarashlarini qamrab oladi. Davlatchiligi, uning kamoli va zavoli, idora tuzumi, askar tutumi, zehniyati, zavqi-didi, iymon-e’tiqodi kabi millatning tarixi, turmushi bilan bog‘liq o‘nlab masalalarni oydinlashtirmasdan u haqda aniq fikr bildirish qiyin. Lekin shunisi aniqki, milliy mafkura jamiyat hayotining jon tomiri. U qurisa, millat o‘sishdan to‘xtaydi, jamiyat buziladi.

Uning asoslari tarixda, urf-udum, an’analarimizda. Uni tiklashning zarurligini birinchi bo‘lib jadidchilarimiz sezdilar va faoliyat ko‘rsatdilar.

Turkiston jadidlari o‘z oldilariga ulkan ikkita vazifani qo‘ygan edilar:

1. Millatni Rossiyaning mustamlakachilik – ruslashtirish siyosatidan saqlab qolish, uning tili, urf-odatlari, dini, madaniyatini rivojlantirish;

2. Millatni ilg‘or Yevropa millatlari darajasiga yetkazish, keyinchalik milliy mustaqillikka erishish, tenglik asosida millatlar hamjamiyatiga qo‘shilish.

Turkistonda jadidchilik harakatining faol tashkilotchi ishtirokchilari – Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shukuriy, Saidahmad Siddiqiy – Ajziy (Samarqand), Munavvarqori Abdurashidxonov,

Abdulla Avloniy, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Toshpo'latbek Norbo'tabekov (Toshkent), Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, Usmonxo'ja Po'latxo'jayev, Abdulvohid Burxonov, Sadriddin Ayniy, Abdulqodir Muhiddinov (Buxoro), Obidjon Mahmudov, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulhamid Cho'lpon, Is'hoqxon Ibrat, Muhammadsharif So'fizoda (Farg'ona vodiysi), Polvonniyoz hoji Yusupov, Bobooxun Salimov (Xorazm) turardi.

Jadidchilar Rossiya mustamlaka siyosati strategiyasiga jiddiy zaiflashtiruvchi o'zgarishlar qilishga majbur etuvchi vatanparvar siyosiy kuch sifatida tarix sahnasiga chiqdilar. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, XX asr boshlaridayoq milliy-ozodlik bayrog'ini baland ko'tarib, erksevar kuchlar birligini ta'minlash borasida salmoqli faoliyat ko'rsatganlar.

XX asrdagi Turkiston milliy adabiyotida Rossiya zulmi, istilosi va unga qarshi kurash juda ajoyib va o'ziga xos tarzda ifodalandi. Birinchi jahon urushi yillaridagi jadid adabiyotida turkchilik va uning g'oyasi asosiy mavzu va mafkura bo'lib qoldi.

Sadriddin Ayniyning jaholatga qarshi kurash olib borishga da'vat qilingan she'rlari mahalliy aholi orasida keng tarqaldi:

Maktabsizlik qildi bizni qip-yalang'och,
Maktabsizlik bizni etdi talon-toroj,
Maktabsizlik Turon elin o'ldiradi och,
Ko'zingni och, bu xo'rlikdan maktabga qoch.

Bilim qochdi qo'limizdan besh yuz yildir,
Unutmagil Ulug'beklar bizning eldir,
Turon eli, o'zbek tili bizning tildir,
Turon o'g'li ekaningni tezroq bildir!

Ma'rifatchi jadidchilar moddiy qiyinchiliklar, g'oyaviy-siyosiy tazyiqlarga qaramay, millatning ma'naviy yuksalishi uchun imkoniyatlar yaratishga harakat qildilar. Tarixning murakkab, mas'uliyatli burilish davrlarida millatning ongini yuksaltirish, milliy iftixor

tuyg‘usini kuchaytirish birinchi darajali vazifalardan ekanligini anglab yetganliklari uchun ham bu boradagi barcha ishlarni o‘z zimmalariga oldilar.

12.2. Turkistonda milliy demokratik davlatchilikning dastlabki tajribalari

Jadidlar Buxoro amirligi va Xiva xonligida xon va amirni ham g‘oya va maslaklariga tortishga harakat qildilar. Buxoro jadidlari 1900-yil boshida amirdan yangi usuldagi maktablar ochishga ruxsat olishga muvaffaq bo‘ldilar. Ammo bunday yangi usul maktablarining ochilishi Rossiya manfaatiga zid edi. Shu bois Rossiyaning amirga bo‘lgan tahdidi ortib ketdi va amir jadidlarga tazyiq o‘tkazishga majbur bo‘ldi. Butun O‘rta Osiyo bo‘ylab ochilgan yangi usul maktablariga qarshi Rossiya mustamlakachilari «o‘t ochdilar». Bu maktablar «islomga qarshi», «g‘ayridin maktablari» degan tashviqot yurgizdilar, josuslik idoralarini ishga soldilar. Ahvol shu darajaga borib yetdiki, bu borada ko‘plab qurbonlar berildi. Rus ma’murlari bu paytga kelib islom diniga ham qarshi kurashni kuchaytirib yubordilar. Hatto, 1903-yili podsho Turkiston aholisi uchun muborak haj qilishni ham maxsus farmon bilan man etdi. Bu mahalliy musulmon aholisida kuchli norozilik uyg‘otdi.

Taraqqiyparvar o‘zbek ziyolilari keng xalq ommasini savodli qilishga, ularni jaholat uyqusidan uyg‘otishga intilib, maktablar ochdilar. Birinchi bo‘lib, 1883-yili Samarqandda, 1898-yili Qo‘qonda Salohiddin domla tomonidan, 1899-yili Eski Toshkentda Mannon qori, Andijonda Shamsiddin domla tomonidan jadid maktablari ochildi. 1900-yili Buxoroda Jo‘raboy qori tomonidan yangi usuldagi maktab ochildi. 1903-yili Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z mablag‘i hisobidan Jomboyda maktab ochdi. 1908 yilda bunday maktablarni Mirza Abduvohid ham tashkil qildi. Muftiy domla Ikrom bu yangi usuldagi

maktablarni diniy jamoat tomonidan qabul qilinishiga erishdi. 1911-yili jadid maktablari Turkistonda 63 ta bo‘lib, ularda 4106 ta bola o‘qigan. Toshkentning o‘zida 24 ta bunday maktablarda 1740 ta bola o‘qigan. 1917-yil boshlarida o‘lkada 100 ga yaqin jadid maktablarida 5 mingdan ziyod o‘quvchi bo‘lgan.

O‘zbek jadidlari Turkiston xalq maorifiga jiddiy e’tibor berganlar. Bu sohada taniqli mudarris va ma’rifatparvar Munavvarqori Abdurashidxonovning xizmati kattadir. 1909-yili maslakdosh do‘stlari Abdulla Avloniy, Ubaydulla Asatullaxo‘jayev, Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov va boshqalar bilan hamkorlikda «Jamiyati xayriya»ni tashkil qildi. Jamiyat qashshoq va kasalmand kishilarga, o‘quvchilarga yordam ko‘rsatish bilan cheklanmaydi. Rossiya va Turkiyadagi oliy o‘quv yurtlariga talabalar yuborish bilan ham shug‘ullanadi.

Ubaydullaxo‘ja Asatullaxo‘jayev – Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Rahim Inog‘omov, Komilbek Norbekov, To‘lagan Xo‘jamyorov (Tavallo), Muhammad Poshshaxo‘jayev, Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov va boshqalar bilan birgalikda «Turon» jamiyatini tuzadi. Bu jamiyat nizomida quyidagilar yozilgan: «Xalq orasida jadidiy va sahna ishiga hamda xayriyaga muhabbat uyg‘otish; xalq uchun spektakl qo‘yib, sog‘lom tomosha ko‘rsatish; Turkiston o‘lkasi hududida yashovchi muhtoj musulmonlarga moddiy yordam berib, ma’naviy va moddiy jihatini yaxshilash». 1914-yil 27-fevralda esa Toshkentdagi Kolizey teatri binosida, taniqli tatar rejissyori Zaki Boyazedskiy Valeyev ta’biri bilan aytganda, «milliy dramaturgiya, milliy til, milliy artistlar bilan tayyorlangan» o‘zbek milliy teatrining birinchi mavsumi rasmiy ochildi. Spektaklni ochish sharafi Munavvarqori Abdurashidxonovga, unga rejissyor bo‘lish Ubaydullaxo‘ja Asatullaxo‘jayevga nasib qildi. Tantanali marosimda Munavvarqori Abdurashidxonov tarixiy so‘zlarni aytdi: «...Turkiston tilida hanuz bir teyotr o‘ynalmag‘onlig‘i barchamizga ma’lumdir. Shul sababli ba’zi kishilarimiz teyotrg‘a, ehtimolki, o‘yinbozliq yoxud masxarabozliq

ko‘zlari ila boqurlar. Holbuki, teyotrning asl ma’nosi ibratxona yoki ulug‘lar maktabi, degan so‘zdir. Teyotr sahnasi har tarafi oynaband qilingan bir uyg‘a o‘xshaydurki, unga har kim kirsa, o‘zining husn va qabihini, ayb va nuqsonini ko‘rib ibrat olur... Teyotr sahnasiga chiqib, yuziga un surtib, bir masxaraboz shakliga kirgon zotlar go‘yoki tabibi hoziq misolindadurlar»[1].

Mahmudxo‘ja Behbudiyning «Padarkush» pyesasi katta muvaffaqiyat qozonib, el og‘ziga tushdi. Abdulla Avloniy bu haqda shunday yozgan: «1913-yildan boshlab xalqni ko‘zin ochmoq, madaniyatga yaqinlashtirmoq uchun teatru ishlariga kirishub Toshkentda bir necha marotaba teatru o‘ynag‘ondin so‘ng butun Farg‘onani aylanub, har bir shaharlarda bizning maqsadimiz zohirda teatru bo‘lsa ham, botinda Turkiston yoshlarini siyosiy jihatdan birlashtiruv va inqilobga hozirlov edi»[2].

«Padarkush» pyesasidan keyin 1917-yilgacha o‘zbek dramalarining soni 40 taga yetgan. Toshkent, Samarqand, Andijon, Qo‘qon shaharlarida turli truppalar vujudga kelgan. Mahmudxo‘ja Behbudiyning «Padarkush» pesasi ta’siri o‘laroq, butun bir siyosiy oqim muxoliflar tomonidan «padarkushchilar» deb atalishiga sabab bo‘ldi. Jadidlarni shunday nomlash johil ulamolar va bid’atchi unsurlar orasida rasm bo‘lib ketdiki, uni keyinchalik rus mustamlakachilari va sho‘ro tadqiqotchilari ham mafkuraviy nuqtayi nazardan ishlatdilar.

«Turon» jamiyatining obro‘si va tarixiy xizmati haqida Munavvarqori Abdurashidxonov bunday deb yozgan edi: «Toshkand jamiyatining ismini unutgan yoki hech bir jamiyat degan so‘zni eshitmagan Toshkand musulmonlarining yetti yasharidin yetmish yasharigacha jamiyatning vujudidan xabardor bo‘ldi, rus, yahudiy va armanlar foydalanib yurgan o‘rinlardan foydalanmak musulmonlarga ham mum-

[1] Munavvarqori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar. – T.: «Ma’naviyat», 2003, 154-155-betlar.

[2] Abdulla Avloniy. Bugungi o‘zbek vaqtli matbuotining tarixi. «Turkiston», 1924-yil 24-iyun; Sh. Rizayev. Jadid dramasi. – T.: «Sharq», 1997.

kin ekanligi ochiq bilindi, bu esa Toshkand musulmonlarining hiyli ruhlari ko‘tarilmog‘iga va jamiyatga muhabbat ila qaramoqlariga sabab o‘ldi...».

Munavvarqori Abdurashidxonov xalq maorifi ahvoli haqidagi bosh maqolasida «Butun dunyodagi madaniy millatlarning qayg‘u va hasratlarina ishtirok etmagan va bu shodlik va masarratlaridan bahra olmagan bir qavm va bir millat zor o‘lsa, ul ham turkiston turklaridirmiz», degan. Buyuk jadidlarimiz rahnamosi boshlang‘ich va o‘rta maktablar faoliyatidan qoniqmasligini ochiq aytish bilan birga, madrasa va mudarrislarning ham zaif ekanligini oshkor qiladi: «Madrasalarga imtihon joriy bo‘lsa, ko‘p shogirdlarning va bir necha mudarrislarning madrasadan chiqarmoqlari lozim kelur». Har bir xalqning millat sifatidagi shakllanishining birinchi belgisi mazkur xalqning o‘zligini tanish va himoya qilish tuyg‘usining uyg‘onishi, milliy qadriyatlarini saqlash va taraqqiy ettirish, bu yo‘lda turli-tuman jamiyat va uyushmalarni vujudga keltirishdir.

Turkiston matbuoti 1905-yil manifestidan ilhom va madad olib, qisqa muddatda katta bosqichni bosib o‘tdi va turkiy dunyoning e’tiborli davralari nazariga tushdi. Abdulla Avloniy «Burungi o‘zbek vaqtli matbuotining tarixi» maqolasida 1905 – 1917-yillar oralig‘ida o‘lkada o‘zbek tilida 22 ta gazeta, 8 ta jurnal nashr etilganini xabar beradi.

1906-yilning 27-iyunida dunyo ko‘rgan «Taraqqiy» (muharriri Ismoil Obidiy) ilk o‘zbek milliy gazetasi sifatida tarixga kirdi. U nashr etilgan kun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi qarori bilan matbuot kuni deb e’lon qilingan. «Elning eng suyib o‘qiydug‘on» (Abdulla Avloniy) bu gazetasi o‘z davrida juda katta shuhrat qozongan. Ismoil Obidiyni «Ismoil taraqqiy» deb ataganlar. Gazetani tashkil qilishdan materiallar bilan ta’minlashgacha Munavvarqori Abdurashidxonov va Abdulla Avloniylarning roli katta bo‘ldi. 20-soni chiqqach, hukumat tomonidan to‘xtatildi.

Munavvarqori Abdurashidxonovning «Xurshid» gazetasi (1906-yilning 6-sentyabridan chiqib, 10-sonida yopilgan) Fansurullobek Xudoyorxonov, Abdulla Avloniy, aka-uka Komilbek va Karimbek Norbekovlar, Muhammadxon Podshoxo'jayev kabi yosh taraqqiyparvar kuchlarni o'z atrofiga jamladi. Siyosiy masalalar bilan ham faol shug'ullandi. Gazetaning 6-sonida bosilgan Mahmudxo'ja Behbudiyning «Xayrul umuri avsatuho» («Ishlarning yaxshisi o'rtachasidir») maqolasida Rusiyaga Ovro'paning qirqqa yaqin mamlakatiga xos umumdemokratik mezonlar nuqtayi nazaridan baho beriladi, chor hukumatining «Idorai mustaqla» – Samoderjaviye idora tizimi tanqid ostiga olinadi. Mavjud partiyalarning dasturlariga turkistonliklar ko'zi bilan qaraladi. Chor hukumatining mustabid siyosati, xususan, vaqflarning tortib olinishi, madrasalarning xarob qilinishi, rus mujiklarini ko'chirib keltirish siyosati, mahalliy xalqning qashshoqlashib, mulk va davlatning yahudiy va armanlar qo'liga o'tib borishi millat fojiasi sifatida baholanadi.

Jadid matbuoti o'z vakillarini e'lon qilar ekan, «xalqni har vaqt g'aflat uyqusidan uyg'onuvchi», «millat ongining ochqichi» ekanligini namoyon etish bilan birga, Turkiston xalqini hur fikrlashga va katta siyosiy kurashga hozirlay oldi. Bu davrda «Erk», «Turon», «O'qituvchilar jamiyati» kabi uyushmalar paydo bo'ldi. Munavvarqori Abdurashidxonov aytganidek: «Ularning butun umidi Rossiyadagi inqilob jarayonida mahalliy aholini milliy, diniy cheklash va jabrlashdan ozod qilish, ularning haq-huquqlarini ovro'paliklar bilan tenglashtirish, xilma-xil maktab va matbuot ishlari hamda turli-tuman jamiyatlar tashkil etishga keng imkoniyat yaratib berishga qaratilgan edi».

Jadidlar bu davrda «ozodlik, tenglik va adolat» shiori ostida ishladilar. Ularning 1916-yil mardikorlikka olish voqeasiga munosabati g'oyatda e'tiborga molik. Mardikorlikka olish – Birinchi jahon urushi ketayotgan joylardagi ishlarga turkistonliklarni jalb qilish oq podshoning 1916-yil 25-iyun farmoniga muvofiq amalga oshirildi.

Bu kutilmagan tadbir, birinchidan, 1865-yil shartnomasiga zid edi. Ikkinchidan, general Kuropatkinning xulosasiga qaraganda, «Aholi va ma'muriyat turar joydan tashqaridagi ishlarga mutlaqo tayyorlanmagan va bunday shoshilinch amalga oshirilgan tadbir og'ir tartibsizliklarni keltirib chiqargan». Aholi uchun ana shunday musibatli paytda jadidlarning ko'zga ko'ringan namoyandalaridan Ubaydullaxo'ja Asatullaxo'jayev («Turkiston mardikorlikka olish qo'mitasi» raisi) va millatparvar Mirkomilboy Mirmo'minboyev Rossiya jamoat vakillarining e'tiborini bu masalaga jalb etish, farmonni bekor qildirish uchun Peterburgga yo'l oladilar.

Davlat dumasining 1916-yil 13 va 15-dekabr kunlari o'tgan majlisida Nikolay II ning iyun farmoni Rossiya imperiyasining qonunchiligida ko'rsatilgan hollariga zid ravishda qabul qilingani tan olindi. Farmon Dumada muhokama qilingunga qadar iyun – avgust oyida jadidlar harakati orqali bir necha eshelon to'xtatib qolindi. Jadidlarning mardikorlarni qaytarishga urinishlari 1917-yil fevral inqilobi boshlanishi bilan to'la amalga oshdi. Bu hodisa el orasida ularning obro'sini ko'tardi. Mazkur holat jadidlar ma'rifatparvarlikdan siyosiy kurashga allaqachon o'tganliklarini bildirar edi.

1917-yil jadidchilik harakati o'zining yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Fevral inqilobidan so'ng o'zbek, tatar va qozoqlar birlashishga ahd qildilar va «Turon» uyushmasi zaminida «Sho'roi Islomiya» jamiyati tuzildi. Asoschilari Munavvarqori Abdurashidxonov, Abduvohidqori Abduraufqoriyev, Ubaydullaxo'ja Asatullaxo'jayevlar edi. 1917-yil 14-martda ish boshlagan bu jamiyat qishloq va shaharlarga targ'ibotchilar yuborib, ozodlik, tenglik haqida tushuntirish olib borish, saylov to'g'risida ma'lumot berish bilan shug'ullandi. Uning dasturini Munavvarqori Abdurashidxonov yozgan edi. Jadidlar joylarda «Sho'roi Islomiya» tizimi yaratilishining tashabbuskori bo'ldilar. Turkistonga muxtoriyat maqomini berish harakati Turkiston mustaqilligi uchun kurashga aylandi.

Turkiy xalqlarni birlashtirish g‘oyasi kun tartibidan mustahkam o‘rin oldi. O‘zbek, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, boshqird, tatar, turkman kabi negizi bitta xalqlarni birlashtirish va shu asosda federativ yoki muxtoriyat davlat qurish masalasi bo‘y ko‘rsata boshladi. Ammo, ko‘pgina kishilar jumhuriyat bilan muxtoriyat o‘rtasidagi farqni tushunmagan. Xususan, Turkiston namoyandalari chin ma’noda respublikani barpo etish va uning davlat tarkibini tashkil etishga to‘liq tayyor bo‘lishmagan. Qozoq va boshqird namoyandalari – Mustafo Cho‘qay, Zakiy Validiy va boshqalar Peterburg ularga hech qachon mustaqillik ham, muxtoriyat ham bermasliklarini sezgach, Turkistonga keldilar, mahalliy jadidlar bilan ish boshladilar.

Toshkentda «Sho‘roi Islomiya», «Turon», «Sho‘roi Ulamo», «Ittifoqi muslimin», Qo‘qonda «G‘ayrat», Buxoroda «Yosh buxoroliklar», Xivada «Yosh xivaliklar»dan tashqari, Samarqandda «Ittifoq», «Mirvash ul-islom», «Miftah ul-maorif» kabi tashkilotlar faoliyat ko‘rsata boshladi. Bularning ijtimoiy-siyosiy yo‘nalishini belgilashda Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydullaxo‘ja Asatullaxo‘jayev, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Ahmad Zakiy Validiy To‘g‘on, Mustafo Cho‘qay, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev, Sherali Lapin, Mirkomilboy Mirmo‘minboyev, Obidjon Mahmudov, Polvonniyoz Hoji Yusupov va boshqalar faollik ko‘rsatdilar.

«Sho‘roi Islomiya»ning tashabbusi bilan 1917-yil 16 – 17-aprel kunlari Butun Turkiston musulmonlarining 1-qurultoyi chaqirildi. Qurultoy ishtirokchilari bir qancha masalalar qatorida Turkiston o‘lkasining davlat maqomi masalasini ham muhokama qildilar. 1-qurultoyda Turkiston o‘lka musulmonlarining Sho‘rosi – Milliy markazni tashkil etishga qaror qilindi. Milliy markazga rais bo‘lib Mustafo Cho‘qay, unga o‘rinbosarlar qilib Ahmad Zakiy Validiy va Ubaydullaxo‘ja Asatullaxo‘jayev saylandilar. Bu esa tashkilotlarni birlashtirish bilan birga milliy ozodlik harakatini izga solib, tashkiliy jihatdan markazlashtirar edi.

1917-yil 17–20-sentabrda Toshkentda bo‘lib o‘tgan Turkiston va Qozog‘iston musulmonlarining Qurultoyida «Sho‘roi Islomiya», «Sho‘roi Ulamo», «Turon» va boshqa siyosiy tashkilotlarni birlashtirish yo‘li bilan «Ittifoqi muslimin» siyosiy partiyasini tuzishga kelishildi.

Toshkentdagi Xalq Komissarlari Kengashi Turkiston musulmonlari vakolatli syezdining mamlakatni idora qilishni yerli xalq qo‘liga topshirish haqidagi qarorini rad etganidan keyin, «Markaziy Sho‘roi Islom» tashkiloti hokimiyat masalasini hal etish uchun mustaqil harakat boshladilar. Biroq Toshkentda mustahkam joylashib olgan Sovet komissariyati qizil qo‘shin kuchiga tayanib Milliy markaz deb hisoblangan «Markaziy Sho‘roi Islom» harakatiga ochiqdan ochiq to‘sqinlik qildi. Shundan keyin Milliy markaz o‘z harakatini Qo‘qonda turib davom ettirishga qaror qildi.

1917-yil 26-noyabrda Qo‘qon shahrida O‘lka musulmonlarining IV favqulodda syezdi ish boshladi. Unda o‘lkaning barcha mintaqalari va ko‘pgina jamoat tashkilotlaridan 200 nafardan ortiq vakil hozir bo‘ldi. Kun tartibiga o‘lkani boshqarish shakli, Turkiston Ta’sis majlisi, militsiya, moliya va boshqa masalalar qo‘yildi.

Syezdda uch kunlik munozaradan keyin vakillar Turkistonning bo‘lg‘usi siyosiy tuzumi to‘g‘risida qat’iy bir fikrga yakdillik bilan kelishib oldilar. 27-noyabr kuni kechasi soat 12.00 da ikki kishi qarshi bo‘lib, qabul qilingan qarorda, jumladan, shunday deyiladi: «Turkistonda yashab turgan turli millatga mansub aholi Rossiya inqilobi da’vat etgan xalqlarning o‘z huquqlarini o‘zlari belgilash xususidagi irodasini namoyon etib, Turkistonni Federativ Rossiya Respublikasi tarkibida hududiy jihatdan muxtor deb e’lon qiladi, shu bilan birga muxtoriyatning qaror topish shakllarini Ta’sis majlisiga havola etadi». Shundan keyin syezd «Turkistonda yashab turgan milliy ozchilik aholi huquqlarining muttasil himoya qilinishini tantanali ravishda e’lon qiladi»[1].

[1] Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. I jild. – T.: «Ma’naviyat», 2000, 68-bet.

28-noyabrda tashkil topayotgan mazkur davlatning nomi «Turkiston muxtoriyati» deb ataladigan bo‘ldi. Hokimiyat esa Ta’sis syezdi chaqirilgunga qadar Turkiston Muvaqqat Kengashi va Turkiston Xalq (Milliy) Majlisi qo‘lida bo‘lishi ta’kidlandi. Shuningdek, syezdda Muvaqqat Kengash tarkibida 12 kishidan iborat a’zolar saylash taklif etildi. Xalq majlisi tarkibiga saylanadigan 54 o‘rindan 18 o‘rin o‘lkadagi turli yevropalik aholi tashkilotlarining vakillari uchun ajratildi. Bu esa uchdan bir o‘rin yevropalik aholi vakillariga tegishini bildirar edi.

Turkiston Muxtoriyati e’lon qilingan kechani Abdurauf Fitrat Laylatulqadr kelgan kecha deb ulug‘laydi. Darhaqiqat, bu kecha shunday qutlug‘ tarixiy kecha bo‘lgan edi. Chunki, shu kecha yarim asrlik yo‘qotilgan milliy davlatchiligimiz yangicha bir milliy-federativ demokratik va muxtoriyat ko‘rinishida rasman qayta tiklangan edi. Buni Abdurauf Fitratning ushbu so‘zlari isbotlab turibdi: «Shul chog‘da (shu kechada) tushkun ruhimizni ko‘tarmak uchun shul qop-qorong‘u dunyoning uzoq bir yerinda oydin bir yulduz yarqillab turar edi. Biror narsaga o‘tmagan ko‘zimiz shuni ko‘rar edi. Ul nima edi? – Turkiston Muxtoriyati!»[1].

Bu quvonch birgina shoirning emas, balki butun millat va xalqning quvonchi edi. Ammo u uzoqqa cho‘zilmadi. Oradan roppa-rosa 74 kun o‘tgach, 1918-yil 19-fevral kuni kunduz soat birdan boshlab Rossiya sho‘ro hukumatining Turkistondagi qizil armiyasi shomgacha 12 ta zambarak bilan Qo‘qonni qonga botirib, Turkiston Muxtoriyatini ag‘dardi. O‘n minglab begunoh xalq qirildi. Bu – Turkistonda leninchi bolsheviklar birinchi bor katta qon to‘kish bo‘ldi. Kommunistik mustamlaka sovet hukumatining qon to‘kishi bu bilan tugamadi. Aksincha, u turli xil ko‘rinishlarda uzluksiz ravishda uzoq yillar davom etdi.

[1] O‘sha joy, 69-bet.

Darhaqiqat, buni Turkiston Muxtoriyatining rahbari Mustafo Cho‘qayning ushbu so‘zlari ham isbotlab turibdi: «Bizning bu quvonchimiz uzoq turmadi. Inqilob bizning umidlarimizni yiqdi, ishonchimizni bitirdi, aldanganimizni ochiq ko‘rsatdi... Keng yurtimiz qurbon bo‘lgan o‘z bolalarining qoni bilan suvlanib, ularning tani bilan qoplandi»[1].

Jadidchilik oqim emas – harakat edi. Ijtimoiy, siyosiy, ma’rifiy harakat. Yaqingacha ham u faqat ma’rifatchilik harakati deb kelindi. Bu ataylabdan qilingan edi. Maqsad jadidchilik doirasini toraytirish, sotsialistik-kommunistik mafkuradan boshqasi keng xalq ongini qamrab olishi, egallashi mumkin emas, degan soxta tushunchaning asorati edi. Aslida esa jadidchilik:

1. Jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta oldi. Uyg‘onish mafkurasi bo‘lib xizmat qildi.

2. Maorif va madaniyatni, matbuotni ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga moslab chiqardi.

3. Mustaqillik uchun kurash olib bordi. Uning g‘ayrat va tashabbusi bilan dunyo yuzini ko‘rgan «Turkiston Muxtoriyati» bu yo‘ldagi amaliy harakatlarning dastlabki natijasi edi.

Hurriyat olinmas hech imkon ila,
Magar olsa mumkin erur qon ila.
Hurriyat olinmadi qurbonsizin
Ki tarixlarning so‘zidur chunin, –

deb yozgan edi shoir Sidqiy Xondayliqiy.

«Butun dunyodagi hurriyatchilar orasida bir so‘z bor. Hurriyat berilmas, olinur. Hech narsa ila olib bo‘lmas, faqat qon va qurbon ilagina olib bo‘lur. Mana shu jumlalar haqiqatga shul qadar muvofiqdurki, Hazrat Odamdan shul vaqtgacha hech bir davlat va mamlakatda

[1] Mustafo Cho‘qay o‘g‘li. Istiqlol jallodlari (1917-yil xotiralari). – T.: «G‘afur G‘ulom», 1992, 8-bet.

hurriyatning berilgani, qon va qurbonsiz berilgani tarixlarda ko‘rilmaydur»[1], – deb yozadi Munavvarqori Abdurashidxonov o‘zining «Najot» gazetasi, 1917-yil, 26-martdagi «Maqbul qurbonlar» maqolasida.

O‘tgan asr boshlaridagi fidoyi bobolarimiz hurriyat kelishini kutish emas, uni qo‘lga kiritish, tortib olish uchun jonbozlik qildilar. Ularning millatni uyg‘otish va istiqlol uchun kurashga boshlash yo‘lida olib borgan ishlari xalqqa xizmat qilishning betimsol namunalari edi. Ular mustaqillik va ozodlik uchun jon olib, jon bergan edilar. Ular mustaqillikning qadr-qimmatini dil-dildan anglagan, millatning bir lahzalik erkin, mustaqil hayoti uchun jonini, jahonini berishga tayyor kishilar edi.

12.3. Jadidchilarning umumxalq ma’naviyatini yuksaltirishdagi roli

Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy va boshqalar farzandlar uchun maktablar ochib, ular o‘zlari dars berar, o‘quv qo‘llanmalari yozar, nashr etar va bu yo‘lda jonbozlik ko‘rsatar edilar. Bu yo‘lda hatto o‘z mablag‘larini ayamaganlar. Bunday saxovatpeshalik, savobtalablik kabi ezgu ishlar bizning hozirgi mustaqil rivojlanishimiz uchun ham nihoyatda zarur. Biz erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish sari intilmoqdamiz. Bugun jamiyatimiz oldida turgan bu ulug‘vor va murakkab vazifalarni hal qilish, eng avvalo, ta’lim-tarbiya, ma’rifat masalasiga borib taqaladi. Bu masalaga keng jamoatchilik diqqatini jalb etish kerak. Matbuot, televideniye orqali odamlarda ma’rifatparvarlik g‘oyalarini tarbiyalash, maktab-maorif tarmoqlariga homiylik, saxovatpeshalik, savobtalablik kabi ezgu xususiyatlarni kuchaytirish zarur.

[1] Munavvarqori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar. – T.: «Ma’naviyat», 2003, 155-bet.

Abdurauf Fitrat (1886 – 1938)ning faoliyati Buxoro va Turkistonning ma'rifiy va madaniy, ijtimoiy va siyosiy hayotida o'ziga xos o'ringa ega. Dastlab, o'z davrining eski maktablaridan birida, so'ng mashhur «Mir Arab» madrasasida o'qidi, mutaassib bir musulmon bo'lib yetishdi. Turkiya, Hindiston, Arabistonda bo'ldi. Haj amallarini bajardi. Buxoroda yangi boshlangan jadidlar harakatiga qarshilik ham qilgan. U zamondagi zehniyaning ta'siri, eski jadidlarning tashviqi bilan Markaziy Rusiyaning Moskva, Peterburg shaharlariga ham sayohat qildi. 1909-yilda hamshaharlari aka-uka Usmonxo'ja va Atoxo'ja Po'latxo'jayevlar hamda Mazhar maxzum Burhon maxzum o'g'li va Muqimbek bilan Istanbulga o'qishga ketadi.

Istanbulda o'tgan to'rt yillik hayoti, turk ma'rifatparvarlari, adib va shoirlarining ijodi bilan tanishdi, Yevropacha falsafa va ijtimoiy ta'limotlardan o'rganish Abdurauf Fitratning qarashlarida keskin burilish yasadi – endi u Buxoro hayotidagi, Turkiston hayotidagi qoloqliklarni, bid'at va xurofotni aniqroq ko'radi, jamiyat rivojiga to'siq bo'lib yotgan kuchlar haqida teranroq o'ylay boshlaydi. Bu izlanishlar Abdurauf Fitratni islohotchilik yo'liga olib keladi – u din bilan ilmni birga qo'yishga intiladi. Bunda, u ayniqsa, feodal psixologiyasining ko'rinishlariga, dindagi, yashash tarzidagi mahdudlikka qarshi chiqadi.

Abdurauf Fitrat Turkiyada tahsil olish, ma'ruzalar o'qish bilan birga samarali ijod ham qilgan. 1909-yili Istanbulda uning fors tilida yozgan «Munozara», «Sayha» («Na're») she'riy majmuasi, 1912-yilda esa «Sayyohi hindi» («Bayonoti sayyohi hindi») asari nashr etiladi. Keyinchalik Abdurauf Fitratning millatchi, turkparast va islomparast yozuvchi sifatida qoralanishiga sababchi bo'lgan bu asarlar XX asr boshlarida Turkistondagi milliy uyg'onish harakatining norasmiy dasturi bo'lib xizmat qilgan. Ayniqsa, «Munozara» va «Sayyohi hindi» asarlari yoshlar dunyoqarashining keskin o'zgarishi va ularning jadidchilar safiga kelib qo'shilishiga sababchi bo'lgan.

1913-yilda Abdurauf Fitrat Buxoroga maorif va madaniy-ijtimoiy qurilish haqidagi yangi g‘oyalar bilan qaytib keldi. Biroq bularni mutaassiblik avj olgan Buxoroda amalga oshirishga yo‘l yo‘q edi. Qisqa muddatda Buxoro jadidchilik harakatining yetakchi vakillaridan biriga aylandi. Biroq ko‘p o‘tmay, 1915-yildayoq Buxoro jadidlarining o‘z orasida ham ajralish yuz berdi. Chetda o‘qib kelgan yoshlarni harakatning maorif va madaniyat bilan cheklanuvchi maqsadi ham, birgina maorif va matbuot, musulmonlarni insofga chaqiruv orqali unga ergashishni ko‘zlovchi vositalari ham qanoatlantirmay qo‘ydi. Ular soliqlarni kamaytirish, dehqonlarning ahvolini yaxshilash, amaldorlarning o‘zboshimchaligini cheklab qo‘yish kabi siyosiy talablar bilan chiqishni taklif qildilar. Bu nuqtayi nazar jadidlarga xayrixoh juda ko‘p yoshlarga ma’qul bo‘ldi. Shu tariqa, jadidlarning o‘zi «eski» va «yangi»ga – o‘ng va so‘lga ajraldi. O‘ngga Abdurauf Fitrat bosh bo‘lib qoldi.

1917-yil fevral inqilobidan so‘ng Buxoro jadidlarining so‘l qanoti – yoshlar tashabbusi bilan yangi markaz tuzildi. «Yosh buxoroliklar» inqilobiy partiyasi tashkil topdi. Uning Markaziy Qo‘mitasi tuzildi. Abdulvohid Burhonov – rais, Abdurauf Fitrat – sarkotib, Usmon Xo‘jayev – xazinachi. F. Xo‘jayev va yana besh kishi a’zo qilib saylandi. Yangi partiya muvaqqat hukumatga tabrik telegrammasi va Rusiya – Buxoro munosbatlaridan kelib chiqib, amirni islohotga majbur etishni so‘rab Murojaatnoma qabul qildi.

Darhaqiqat, 1917-yil Abdurauf Fitrat uchun quvonch va alamga to‘la yil bo‘ldi. Oq podshoning qulashi unga tobe Buxoro va Turkistonda ham erkinlik, mustaqillik tomon yo‘l ochilgandek edi. Biroq, ma’lum bo‘ldiki, uni qo‘lga olish, egallash kerak ekan. So‘ng esa ushlab turish. Buning uchun farzandlar kerak – o‘zligini anglagan, esli, hushli va fidoyi. Adibning «Hurriyat» sahifalaridagi turkum maqolalari, badialari shu haqda.

«Ey, ulug‘ Turon, arslonlar o‘lkasi! Senga ne bo‘ldi? – xitob qildi u. – «Dunyoni urho»lari bilan titratgan yo‘lbars yurakli bolalaring qani? Nechun tovushlari chiqmaydur? Nechun chekindilar? Nechun ketdilar? Kurash maydonlarin o‘zgalarga nechun qo‘ydilar?» (1917-yil 28-iyul).

Boshqa bir maqolasida esa «sharafi talangan, nomus-e’tibori, iymon-vijdoni oyoqosti bo‘lgan», «yurti, ulog‘i, o‘chog‘i» yot qo‘llarga tushgan avlod nomidan buyuk bobokalon Amir Temurga panoh izlab boradi.

BXSR tashkil topishi bilan Abdurauf Fitrat 1921-yilda maorif, 1922-yilda xorijiya – Tashqi ishlar vaziri, Xalq xo‘jaligi kengashi raisi, MIQ va Xalq nozirlari sho‘rosi raisining o‘rinbosari va boshqa lavozimlarda ishladi.

U shu davrda BXSR mablag‘i hisobiga 70 nafar turkistonlik istiqbolli yoshlarning Germaniyaga borib o‘qishida, Buxoroda Sharq musiqasi maktabining tashkil etilishida, fan va madaniyat tarixiga doir xalq qo‘lida sochilib yotgan noyob qo‘lyozmalarni to‘plashda tashabbuskor bo‘ldi.

Abdurauf Fitratning sa’y-harakati bilan Buxoro jumhuriyatida turkiy (o‘zbek) tili davlat tili deb e’lon qilindi. Abdurauf Fitratning adabiy merosi boy va rang-barang bo‘lib, badiiy ijodning barcha turlarida qalam tebratibgina qolmay, o‘zbek adabiyotining yangi janr va turlar bilan boyishi, she’r tuzilishining isloh etilishi, realizmning teranlashishi, davr, jamiyat va xalq hayoti bilan bog‘liq muhim ijtimoiy muammolarning o‘zbek adabiyotida badiiy talqin etilishiga ulkan hissa qo‘shdi. Abdurauf Fitrat zullisonayn shoir bo‘lib, adabiy faoliyatining dastlabki davrida asosan fors tilida ijod qilgan. Abdurauf Fitratning o‘zbek tilidagi she’rlari 1917-yil va undan keyingi davrga oid.

Ma’lumki, Fevral inqilobidan keyin Turkiston xalqlarining mustaqillikka erishishlari uchun birdan bir tarixiy imkoniyat tug‘ilgan. Abdurauf Fitrat shu davrda xalqni mustamlakachilik kishanlarini

parchalab, istiqlol uchun kurashga da'vat etuvchi she'rlar yozishga kirishgan. U «O'zbek yosh shoirlari» (1922) she'riy majmuasining tuzuvchisi va asosiy muallifi. Uning sahna asari sifatida namoyish etilgan «Munozara» nasrdagi ilk asari bo'lsa, «Munozara» va «Sayyohi hindi» publitsistikasining yorqin namunalaridan.

Abdurauf Fitrat o'zbek yoshlariga atab yozgan «O'gut»[1] she'rida bunday deydi:

Og'ir yigit! Sening go'zal nurli ko'zingda
Bu millatning saodatin, baxtin o'qidim.
O'ylashingda, turishingda hamda o'zingda,
Bu yurt uchun qutulishning borlig'in ko'rdim.
Turma, yugur, tinma, tirish, bukilma, yuksal!
Hurma, kirish, qo'rqma, yopish, yurma, qo'zg'ol!
El yo'lini to'sib turgan eski bulutlarni
Yondirib qo'y, yirtib tashla, barchasin yo'q et!
Qila olmasang shu ishlarni
Sening uchun xo'rlikdir bu!..
Yiqil, yo'qol, ket!

She'rning mazmuni, maqsadi juda aniq va qalblarga o't yoqadigan bir harorat bilan ifodalangan. Zero, Abdurauf Fitratning o'zi el-yurtiga shu qadar fidoyi ediki, butun umrini xalqi saodati uchun kurashga safarbar qilgan edi. Har bir yoshdan shuni talab qiladi, Vatani, xalqi kelajagini, baxt-saodatini ta'minlash – ana shu fidoyi yoshlar qo'lidaligini izchil uqtiradi. Hatto yurt baxti uchun kurashga yaramaganlarni ochiqdan ochiq rad etadi, qoralaydi. O'tgan asrning 20-yillarining o'rtasida qizillar yurtimizni qonga botirib, hammayoqni qora bulutlarga ko'mib yuborgan bir vaziyatda ana shu bulutlarni yirtib tashlash – yurtni ozod qilish – o'z yoshlarimizning muqaddas burchi, deb ochiq aytish muallifdan qanday jasorat, qanday ma'naviyat, ulug'vorlik talab etishni bir tasavvur eting: Vatani

[1] Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 1 jild. – T.: «Ma'naviyat», 2000, 41-bet.

uchun boshini garovga qo‘yib, bu g‘oyalarni maydonga tashlash – xalqimizning eng buyuk siymolari qiyofalarini, ularning butun ma’naviy meroslarini qalblarda abadiy ardoqlash, ulardan muttasil ibrat olishni taqozo etadi.

Abdurauf Fitrat bosh xalq maorifi nozirligi 1920-yilning 30-oktabrida Buxoro inqilobi tarixini yozish haqida qaror qabul qilgan. 1922-yil 14-sentabrda esa Jumhuriyat Markaziy ijroiya qo‘mitasi Buxoroda dorilfunun ochish haqidagi tarixiy qarorini e’lon qiladi. Buxoro ilmiy jamiyati tuziladi. Fan va madaniyat tarixiga oid nodir qo‘lyozmalar to‘plana boshladi. Tadqiqot ishlari yo‘lga qo‘yiladi. Davlat teatri (1921) tuziladi. Toshkentdan Mannon Uyg‘ur, Abdulhamid Cho‘lpon taklif qilinadi. Yosh jumhuriyat juda qisqa muddatda Turkiya, Eron, Afg‘oniston bilan do‘stlik, hamkorlik munosabatlarini yo‘lga qo‘yadi. Germaniya va Ozarbayjon o‘z vakolatxonalarini ochadi. Bu ishlarning barchasi Abdurauf Fitratning g‘ayrati bilan boshlangan edi.

Biroq jumhuriyatning erkinlik, mustaqillik yo‘lidagi bu harakatlari markazning Turkistondagi noibi – Turkkomissiyaga yoqmadi. 1923-yil 12-iyunda RKP(b) MK Siyosiy byurosi «Buxoro masalasi»ni ko‘rib chiqadi. Jumhuriyatning davlat hokimiyatini yanada «demokratlashtirish va aktivlashtirish» to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Qarorga Stalinning Buxoro nozirlar Sho‘rosining tarkibi haqidagi Buxoro hukumati nomi ostida ish ko‘rayotganlarning xalq va sovet hukumatiga hech bir aloqadorligi yo‘q» degan fikri asos qilib olindi. Buxoro jumhuriyatida hokimiyatga boylar, savdogarlar tortilgan, birorta ham dehqon yo‘q, uning ustiga hammayoq qarindoshchilik degan ayb qo‘yiladi. Shu yil 23-iyunda RKP(b) MK kotibi Ya.E. Rudzutak ishtirokida BKP MKning Plenumi o‘tkaziladi. Abdurauf Fitrat partiyadan o‘chirilib, ishdan olinadi.

1923 – 1924-yillarda Abdurauf Fitrat Moskvadagi sobiq Lazarev nomidagi jonli Sharq tillari institutida ishladi, ilm bilan shug‘ullandi.

Sankt-Peterburg davlat universitetining Sharq fakultetida Sharq xalq tili, adabiyoti, madaniyatidan ma'ruzalar o'qiydi, professorlikka saylanadi.

Abdurauf Fitrat ijodining shu davrdagi yetakchi motivi – bolshevizmga qarshi istiqlol uchun kurash g'oyasi «Chin sevish» (1920) va «Hind ixtilolchilari» (1923) pyesalarida, ayniqsa, yorqin aks etgan. 1921-yilda Toshkentda bo'lib o'tgan «Til va imlo» qurultoyida Abdurauf Fitrat o'zbek tilining sofligini ta'minlash va rivojlantirish masalalarini o'rtaga tashladi. U «O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba: «Sarf» (Morfologiya) (1925), «O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba: «Nahv» (Sintaksis) (1926) darsliklarini yaratdi va bu darsliklar 1930-yilga qadar bir necha marta nashr etildi. Abdurauf Fitrat «Eng eski turk adabiyoti namunalari» (1927), «O'zbek adabiyoti namunalari» (1 j., 1928) asarlarida adabiy merosimizning eng qadimgi davrdan so'nggi davrlarga qadar yaratilgan namunalarini to'plab, muayyan tizimga soldi.

«She'r va shoirlik» (1919), «Adabiyot qoidalari» (1926), «San'atning manshai» (kelib chiqishi) (1927), «Aruz haqida» (1936) singari maqola va risolalari bilan adabiyot nazariyasi faniga asos soldi. Abdurauf Fitrat 1921-yilda Sharq musiqa maktabini tashkil etib, uning birinchi direktori bo'lgan. U shu vaqtdan boshlab «Shashmaqom» kuylarini to'plash va notaga yozib olish ishlariga rahbarlik qildi. Abdurauf Fitrat tashabbusi bilan mashhur hofizlar Ota Jalol va Ota G'iyoslarning ijrosida Buxoro shashmaqomi V. Uspenskiy tomonidan ilk bor notaga olinib, nashr etildi (Shashmaqom. Shest muzikalnыx poem. – M.: Buxoro, 1924).

Eli uchun kuyib-yongan, bag'ri qonidan mayoq ko'targan kishilarning nomi hech qachon unut bo'lmaydi. Bunday insonlarni siyosatbozlar qanchalik qoralamasinlar, o'zlari el-yurt, tarix va zamon oldida sharmanda bo'lib qolaveradilar. Zero, fidoyi kishilarni el-yurt ham, tarix ham o'z yuragida asrab-avaylaydi. Xalqimiz arzanda qilib,

avloddan avlodga uzatayotgan ana shunday siymolardan yana biri adib, shoir va pedagog, jamoat arbobi **Munavvarqori Abdurashidxonov (1878 – 1931)** edi.

Yo'lboshchi xalqimiz boshiga tushgan chorizm va bolshevizm mustamlakachiligi yillarida «Men – sendamen: sen – mendasen» hikmatiga muvofiq elimiz, millatimiz qalbiga ma'rifat va ozodlik, erk va hurlik urug'ini sochib, yurt hayotining sertashvish yo'llarini munavvar qilgan yo'lchi yulduz edi.

O'lkada yuz berayotgan voqealar tufayli, xalqning ruhi tushib ketganini, ziyolilarning esa ma'naviy tanazzul tomon yuz o'girayotganini ko'rgan Munavvarqori Abdurashidxonov bu holatlarning ijtimoiy ildizini tekshirishga urinadi.

Ushbu urinish uning maktab va madrasa faoliyatini tamoman isloh qilish fikriga olib keladi. U madrasalarda asosiy darslarni arab tilida emas, balki ona tilida olib borish, diniy saboqlar bilan birga ijtimoiy fanlarni o'qitish masalasini ko'ndalang qo'ydi. Usuli jadid maktablari faoliyatini teran o'rganib, yangi usuldagi maktablarni tashkil etish masalasini kun tartibiga chiqardi. Sababi, ongda, fikrlashda, maorifda o'zgarish qilmay turib siyosatda o'zgarish qilib bo'lmasdi. Dushmanni yengish, o'zini har jihatdan himoya qilishning eng asosiy quroli ma'rifatli odamlardan tashkil topgan yangi jamiyatni tashkil qilish edi. Bunga esa maktab va madrasa tizimida inqilob yasamay turib erishish mumkin emasdi.

Munavvarqori Abdurashidxonovning bir qancha darsliklari: «Adibi avval» (1907), «Adib us-soniy» (1907), «Usuli hisob», «Tarixi qavm turk» «Tajvid» (1911), «Javoiyji diniya», «Tarixi anbiyo», «Tarixi islomiya» (1912), «Yer yuzi» (1916-1917), 4 qismdan iborat «O'zbekcha til saboqlari» (Shorasul Zunnun va Qayum Ramazon bilan birga) singari qo'llanmalar tuzib, nashr etadi. Bu darsliklar 1907 – 1917-yillar oralig'ida ikki-uch, ko'pi to'qqiz-o'n martagacha alohida chop etilgan.

Munavvarqori Abdurashidxonov ijtimoiy-pedagogik faoliyat bilan birga badiiy ijod bilan ham shug'ullangan. Uning ixcham hikoyalari, talaygina she'rlari o'sha davrdagi matbuot va o'zi tuzgan, yozgan darsliklariga kiritilgan. Shuningdek, u o'tkir publitsist adib sifatida tanilgan. Maqolalari inson va jamiyat, din va dindorlik, axloq, mustamlakachilik va hurriyat, ziyolilik masalalariga qaratilgan. 1904-yildan boshlab ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotga aralasha boshlagan. 1906-yildan «O'rta Osiyoning umrguzorligi», «Taraqqiy» gazetalarida adabiy xodim. Shu yili noshir va muharrir sifatida «Xurshid» gazetasini tashkil etgan. «Shuhrat» (1907), «Tujjor» (1907), «Osiyo» (1908) gazetalarini g'oyaviy boshqargan va adabiy xodim vazifasini bajargan. So'ng «Sadoyi Turkiston» (1914 – 1915) gazetasida mas'ul muharrir muovini, «Al-isloh» jurnali (1915 – 1917)da maxfiy muharrir, «Najot va Kengash» (1917) gazetalarida mas'ul muharrirlik qilgan.

Munavvarqori Abdurashidxonov turli jamiyat va uyushmalar tashkilotchisi. U «Jamiyat Imdodiya» (1909), «Turon» (1913), «Turkiston kutubxonasi» (1914), «Umid» (1914), «Maktab» (1914), «Ko'mak» (1921) jamiyat, tashkilot, shirkat va uyushmalarida muassis, muovin, rais bo'ldi.

Vatan va xalq dardini vujudida tuyib yashagan Munavvarqori Abdurashidxonov o'zbek adiblari orasida xalqimizning qoloqligi sabablarini adabiyotda birinchilardan bo'lib inkishof etgan siymolardandir. U o'z maqola va hikoyalarida xalqimizning bid'atga botganligi, ulamolarning tor masalalar bilan o'ralashib qolgani va uning oqibatini mutafakkirona ko'rsatib bergan edi. Adib insonlarni ezgu fazilatlarga chorladi. Uning she'r va hikoyalari shunday deyishga asos beradi. Uning birinchi hikoyasi «Sadoyi Turkiston» gazetasida «Muharram» taxallusi bilan kichkina feleton ruknida chop etilgan bo'lib, «Bizda hamiyat» deb ataladi.

«Bizda hamiyat» hikoyasining qahramonlari ziyolilardir. Hikoyaning bosh qahramoni – muallifning o'zi. Yo'lda suhbatlashib keta-

yotgan ziyolilar oldidan ko‘zi ojiz, yetim bola chiqib qolib, ulardan sadaqa so‘raydi. Ulardan biri achchiq til bilan ishlash, o‘qish kerakligini uqtiradi. Bola ojiz va majolsiz ekanini aytadi. Shunda boyagi ziyolilardan biri o‘zining johilligini fosh etib, jahl bilan: «Ovrupolilar ko‘r, quloqsiz kar va hokazo o‘qimog‘i mumkin bo‘lmagan insonlarga maxsus etib maktablar ochganlar va maktablardan ko‘r, karlardan o‘qib chiqqan insonlarning had va hisobi yo‘q, sen ham shundoq maktabda o‘qi», – deydi. Hikoya qahramoni ziyoli do‘stining nodonligini go‘zal fosh qiladi: «Siz bu so‘zlarni qaysi yerda so‘zlayursiz? Berlindami va yo Londondami, o‘zingizni zan etarsiz... aqlingiz qayerda?»[1] O‘z qilmishidan mulzam bo‘lgan ziyolining chehrasi burishadi. Do‘stlaridan arazlaydi.

Adib qahramoni tilidan haqiqiy ziyolilik haqida quyidagi fikrni o‘rtaga tashlaydi: «Ziyoli millat, Vatan nima ekanini bilur va ziyoli millat uchun jonini, molini fido etar va millatning taraqqiysi uchun doimo harakat etar. Vaqti kelganda, millat uchun o‘zini halokat vartasiga tashlamoqqa muhayyo bo‘lur... Millat, Vatan, madaniyat, shunga o‘xshash so‘zlarni bilmak bilan ziyoli bo‘lmaydur»[2].

Xullas, adib o‘z davridagi haqiqiy ziyolilarning intilishlarini, mas’uliyatlarini aniq chizgilarda ko‘rsatib beradi. Bu hikoyani shu kunda ham ko‘pgina jihatlari bilan zamonaviy asar desa mubolag‘a bo‘lmaydi.

Munavvarqori Abdurashidxonov «Ovrupa va Omriqo xalqlari havoda uchar, dengiz ostida suzar, dunyoning eng narigi burchaklari bilan vositasiz xabarlashar bir holg‘a, bir madaniyatga yetishdilar»[3], – deganda, bizning-da, xalqimizni istiqlolga olib chiqib, vatanimizni jahon mezonidagi davlatga aylantirishni orzu etgan edi. Zero, u is-

---

[1] Munavvar qori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar. – T.: «Ma’naviyat», 2003, 58-bet.

[2] O‘sha joy, 58-59-betlar.

[3] O‘sha joy, 59-bet.

tibdodning umri qisqaligini yaxshi bilar edi. Shu bois so‘roqlardan birida sho‘ro hukumati, firqa ham vaqti kelib ichidan yemirilib, parchalanishini bashorat qilgan edi. Uning bashorati to‘liq amalga oshdi. To‘lagan Xo‘jamyorov (Tavallo) yozganidek:

Cho‘q munavvar etdi olamda Munavvar qorimiz,
Ko‘rdimiz ravshanligidan fe’limiz, atvorimiz.
Ibrat oling, yoshlar, deb to‘kdi ko‘zdin yoshlar,
Nutqida tahrir etib bizlarni yo‘q-u borimiz.

Mahmudxo‘ja Behbudiy (1872 – 1919) – yoshligidan ilm-fanga qiziqqan, hisob, huquq, din sohasini, shuningdek, arab, fors, rus tillaridan chuqur saboq olgan. U Makkaga, Madinaga bordi, haj ziyoratini ado etib, Misr va Turkiyada bo‘ldi. Peterburg, Minsk, Qozon, Ufa, Orenburg va Nijniy Novgorod kabi Rossiya shaharlarida yangi davr madaniyati bilan tanishdi. Qozon va Uralda yangi usul maktablarini o‘rgandi, tatar ziyolilari bilan aloqani yo‘lga qo‘ydi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy bolalarga diniy va dunyoviy ilm berish bilan birga, millat farzandlarini zamonaviy ilm olish uchun taraqqiy topgan mamlakatlardagi o‘quv yurtlariga yuborish kerak, degan masalani o‘rtaga tashladi. U quyidagi uch qoidani olg‘a suradi:

– Zamon talablaridan kelib chiqib ish ko‘rish.

– Millat taqdiri va istiqbolini belgilovchi milliy kadrlarni yetishtirish.

– Milliy biqiqlikdan chiqib, dunyo miqyosida fikrlay oladigan, chet ellar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’naviy munosabatlarda jahon andozalari darajasida ish yuritadigan millatga aylanish.

Uning tashabbusi bilan yangi usul maktablari ochildi. Adib bu maktablar uchun 1904 – 1909-yillarda «Risolai asbobi savod» («Savod chiqarish kitobi»), «Risolai jo‘g‘rofiyai umroniy» («Aholi geografiyasiga kirish»), «Risolai jo‘g‘rofiyai Rusiy», «Kitobat ul-atfol» («Bolalar xati»), «Amaliyoti islom», «Muxtasar tarixi islom» kabi darslik va o‘quv qo‘llanmalar yozadi.

Ma'rifat uchun birgina maktab kifoya qilmasdi. Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, millat va Vatanning ahvolidan, kundalik hayotdan ogoh bo'lmoq kerak edi. Binobarin, millat uchun shunday oyna kerak ediki, unda u o'z qabohatini ham, malohatini ham ko'ra olsin.

Mana shu ehtiyoj va zarurat Mahmudxo'ja Behbudiyni teatr va matbuot sari boshladi. «Padarkush» shu tariqa maydonga keldi. Biroq uning dunyo ko'rishi oson kechmadi. Bunga sabab: birinchidan, chor hukumati mustamlaka Turkistonning ma'rifat yo'liga kirib, o'z huquqini tanishidan manfaatdor emas edi; 1916-yildagi Turkiston general-gubernatori N.D. Kuropatkinning o'z kundaligida yozgan va bugun juda mashhur bo'lib ketgan «Biz tubjoy xalqni taraqqiyotdan, maktabdan, rus hayotidan 50 yil chetda tutdik», degan so'zlarini eslash kifoya. Ikkinchidan, turg'unlik va tutqunlik tufayli avj olgan jaholat, mutaassiblik. «Kimiki sahnada ko'rsang, oni jasorati bu», deb yozgan edi shoir Tavallo. Xullas, 1911-yilda yozilgan «Padarkush» dramasi 1913-yildagina bosilib chiqdi. Kitob jildidagi «Borodino jangi va Rusiyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo'lishning yubiley sanasiga bag'ishlanadi», degan yozuv va uning Tiflis senzurasining ruxsati bilan chop etilishi ish oson ko'chmaganini ko'rsatadi. Pyesa bosilib chiqqanidan keyin ham uni sahnaga qo'yish uchun yaqin bir yil vaqt ketdi. Muallif bu haqdagi xatlarga javoban: «O'ynaturgan odam yo'q. Azbaski, Turkistonda bekor odam yo'qki, xalq uchun ishlasa. Bekor kishi yo'qki, teatru sahnasiga chiqib «masxarabozlik» qilsa»[1], deb yozgan edi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning «Padarkush» (1913) asari o'zbek dramasining ilk namunasidir. Muallif «Milliy fojia» deb atagan 3 parda, 4 manzarali bu drama hajman ixcham, mazmunan nihoyatda sodda edi. Bu asar o'qimagan bolaning buzuq yo'llarga kirib, o'z otasini o'ldirgani, nodonlik va jaholat pand berganligi haqida hikoya qiladi.

[1] Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. – T.: «Ma'naviyat», 1997, 11-bet.

Boy atrofidagilarning gapiga kirmaydi, o‘g‘lini o‘qitmaydi, oqibatda u ko‘cha bezorilariga qo‘shiladi. Restoranda maishatiga puli yetmay sheriklarini tunda uyiga boshlab keladi. Boy uyg‘onib, ularni sezib qoladi. Boyni o‘ldirib, pulini olib ketadilar. «Padarkush» dastlab Samarqandda 1914-yili 15-yanvarda sahnaga qo‘yiladi. Abdulla Avloniyning «Turon» teatr truppasi tomonidan Toshkentda 1914-yilning 27-fevralida namoyish qilinadi. Boy rolini Abdulla Avloniy ijro etadi. Spektakldagi o‘z maishatiga o‘ralib, dunyoni unutgan bolaning hayoti millatdoshlarga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Xalqning dunyoqarashi, milliy ongni yuksaltirishda matbuotning o‘rni nihoyatda muhim ekanligini bilgan Mahmudxo‘ja Behbudiy 1913-yildan matbuot ishlari bilan shug‘ullana boshlaydi. U «Samarqand» gazetasi va «Oyna» jurnalini nashr etishda bosh-qosh bo‘ldi. «Nashriyoti Behbudiya» nomi bilan o‘z xususiy nashriyotini ochdi.

1914-yilning 29-mayidan boshlab Mahmudxo‘ja Behbudiy ikkinchi bor arab mamlakatlari bo‘ylab sayohat qiladi. Sayohat xotiralari har jihatdan g‘oyat muhim bo‘lib, «Oyna» jurnalining 1914-yil sonlarida chop etiladi. «Oyna» jurnali ma’rifat va madaniyat tarqatishda juda katta xizmat qildi. Unda millat va uning haq-huquqlari, tarixiga, til-adabiyot masalalariga, dunyo ahvoliga doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borildi. Ayniqsa, til masalasi muallifning hamisha diqqat markazida turgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy millatning taraqqiysi uchun bir necha til bilishni shart hisoblaydi. Uning publitsist sifatidagi faoliyati adib iste’dodining juda yorqin bir qirrasini tashkil etadi. O‘zining millat va vatan, jamiyat va axloq haqidagi fikrlarini yuzlab maqola va chiqishlarida teran ifoda etdi. Ijtimoiy-siyosiy mavzudagi bu maqolalarning aksariyati o‘zbek xalqining yangi yo‘nalishdagi milliy tafakkuri shakllanishida, hayotga, turmushga yangicha qarashlari tug‘ilishida, haq-huquqlarini tanishida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. «Turkiston idorasi», «Turkistonda maktabi jarida», «Buxoroda usuli jadid», «Yoshlarga muro-

jaat», «Ehtiyoji millat», «Ikki emas, to'rt til kerak» kabi publitsistik maqolalari ana shunday xususiyatlarga ega.

Mahmudxo'ja Behbudiy millatimizning ruslar tomonidan «sart» atalishiga isyon qilib, «Qabilasining ismini va yetti otasining otini bilmay turganlarni Qul – marquq (manqurt shundan olingan) derlar»[1]. Demak, bu–millatning tarixini tanishi, nomus – iftixor tuyg'usi baland bo'lganligidan dalolatdir.

Qo'qonda o'lka musulmonlarining IV favqulodda qurultoyi ish boshladi. 27-noyabrga o'tar kechasi «Turkiston Muxtoriyati» e'lon qilindi. Bu mustamlakadan mustaqillik tomon qo'yilgan jiddiy va jasoratli qadam edi. «Muborak va xayrli bo'lsun! Kamina ham majlisda bo'lishdan iftixor etaman. Yashasun Turkiston Muxtoriyati!» deb yozgan edi 1917-yil «Hurriyat» gazetasida. Bolshevizm esa tubjoy millatining «qadim» va «jadid»ga bo'linganidan ustamonlik bilan foydalanib, mahalliy xalq orasiga ham sekin-asta kirib bordi. Ayni paytda millatlar orasiga qutqu solib, ajratish va jamiyatni sinfiy asosga qurish harakati kuchaydi.

«Muhtaram Samarqandiylarg'a xolisona arz» deb nomlangan maqolalarining birida Mahmudxo'ja Behbudiy yoshlarni og'ir, «xushso'z» bo'lishga undagan edi. Muxtoriya ishlarining esa «Sulh ila hal qilinur»iga, «Muhoraba va muqotala ehtimoli yo'q»ligiga astoydil ishonadi. Bu qadim otalar yurtini unda yashab turgan barcha qon-qardosh millatlarning birligi, hamkorligi bilangina saqlab qolish mumkinligini teran anglaydi. Butun vujudi bilan Turkistonni birlikka chorlaydi.

«Bovurlar! – deb yozadi qozoq birodarlariga ochiq xatida, – bilingki, hozirda Turkistondagi barcha xalqlar uchun muxtoriyat e'lon qilindi va siz bilingki, haq olinur, lekin berilmas. Inchunun, muxtoriyat-da olinur, lekin berilmas, ya'ni muxtoriyatni Turkiston bolalarining o'zi birlashib g'ayrat ila olurlar. Albatta, boshqalar tarafidan be-

[1] Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. – T.: «Ma'naviyat», 1997, 173-bet.

rilmas. Boshqalarning qo'lidan kelsa, bermaslar. Biz bo'shlik qilsak va Turkistondagi xalqlar birlashib, muxtoriyat yo'liga sa'y qilmasak, albatta hozirgi qog'oz ustidagi muxtoriyatimizni ham yo'q qilurlar. Bul, albatta shundaydur va bul so'zga hech kim ixtilof qilolmaydur... Endi ishlar shu holda ekan, biz hammamiz, ya'ni qirg'iz, qozoq, o'zbek, turkman, arab, fors, xullas, Turkistondagi, Qozog'istondagi va Turkmanistondagi barcha musulmonlar va ham mundagi yahudiy va xristianlar birlashib, ittifoq ila shu muxtoriyatning amalg'a kelishiga sa'y va ehtimom etmog'imiz lozimdur...

Chirog'larim! Boshqa xalqlar, masalan, serblar, italyanlar, armanlar, slavyanlar, polyaklar va boshqalar, hatto dunyoning u bir uchidagi qarindoshlari ila birlashur ekanlar, boshqa katta va quvvatli davlatlarga tobe' bo'lib, yutilub, hatto tilini yo'qotgan o'z jinsdoshlarini ajratib olib, birlashmoqg'a jon va kuchlarini sarf etar ekanlar, biz o'z ichimizdagi qarindoshlarimizdan ayrilsak, uyatdur, ahmoqlikdur. Turk tomurig'a bolta urmoqlikdur»[1] («Hurriyat» gazetasi, 1918-yil 26-yanvar).

XX-asr boshlarida **Abdulla Avloniy (1878 – 1934)** jadidchilik harakatiga qo'shilib, faol ishtirokchilaridan biri bo'lib tanildi. U yangi usulda, yangicha maktab ochib, dars berdi va darsliklar yozdi. Abdulla Avloniy asos solgan yangi usul maktabi gumanistik va erkin tarbiya asosiga qurilgan, dunyoviy ilm-fanni bolalarga o'rgatishni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'ygan, yoshlarni mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga aralasha olish qobiliyatiga ega bo'lishni ta'minlaydigan haqiqiy xalq maktabi bo'ldi.

Abdulla Avloniyning maktab ishi, xalq orasida ma'rifat tarqatish 1917-yilgacha bo'lgan faoliyatining bosh yo'nalishini tashkil qilgan. U bu yo'lda katta fidoyilik ko'rsatgan. Shoirning Mirobodda katta qiyinchiliklar bilan ochgan maktabi butun Toshkentda dovrug' qozondi. Lekin ish og'ir kechdi, chor mustamlakachilik siyosatini og'ishmay

[1] Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. – T.: «Ma'naviyat», 1997, 217-bet.

amalga oshirib borayotgan o‘lka ma’muriyati maktab masalasida qattiq turdi. Har bir yangi usuldagi maktabning nafaqat o‘qituvchilari (ularning uy manzillarigacha talab etilgan), balki o‘quvchilarning ham kimligi, ayniqsa, dastur va darsliklar hamda ularning mualliflari qat’iy nazorat qilinadi.

Yusuf Tohiriy 1966-yilda «Toshkent oqshomi» gazetasida «Dono murabbiy» degan maqolasida mazkur maktab haqidagi xotiralarida shunday yozgan: «Shaharning qarama-qarshi chekkasida, temir yo‘l ishchilari istiqomat qiladigan Mirobodda yangi tipdagi maktab ochilganligi haqida eshitib qoldik. Tez orada bu maktabning fazilatlari haqidagi shov-shuvlar, uning muallimi Avloniyning dovrug‘i butun shaharga tarqaldi. Hammaning tilida: «Miroboddagi maktab 6 oyda o‘qish-yozishni o‘rgatarmish, jo‘g‘rofiya, hisob, tabiatni o‘rganish degan darslar o‘qitilarmish», – degan gap yurardi. Bizga juda sirli tuyulgan bu maktabni va uning donishmand muallimini ko‘rishga hammamiz oshiqardik. Nihoyat, bir kuni uch-to‘rttamiz borishga jazm qildik.

Maktab pastakkina, nim qorong‘i bo‘lib, masjid yo‘lagiga joylashgan edi. Xonaning tepasidagi yorug‘lik uchun qoldirilgan tuynukdan qish va bahorda qor bilan yomg‘ir ham tushib turardi. Lekin xonada o‘quvchilar va o‘qimoq uchun kelganlar soni ko‘p edi. Xayolimizda domlaning allaqanday bir sirli tomoni bor edi. Bizni qotmagina, kichik jussali, qorachadan kelgan istarasi issiq, cho‘qqi soqol bir kishi kutib oldi. Bu nomi tilga tushgan muallim Avloniy edi. O‘qishga qabul qilindik. Ko‘p o‘tmay ko‘z oldimizda yangi bir dunyo ochilganiga to‘la ishonch hosil qildik. Ular o‘qish-yozishda, hisob masalalarini hal etishda, tabiat hodisalaridan xabardor bo‘lishlari, juda ko‘p she’r va hikoyalarni yod bilishlari bilan hammamizni lol qoldirishdi. Ayni zamonda bizning eski maktabimiz bo‘shab, Miroboddagi Abdulla Avloniy maktabi bizdan borgan bolalar bilan liq to‘ldi. Shu tariqa bu maktab tobora shuhrat topib bordi.

1908-yilda Abdulla Avloniyning Miroboddagi maktabi yopildi. Buning sabablari ko‘p bo‘lishi kerak. Abdulla Avloniy o‘z tarjimayi holida shulardan bittasini tilga oladi: «Maktabimda yer, odamlar, tog‘-toshlar, daryo, osmon haqidagi suhbatlar o‘tkazmoqqa harakat qilganimni Mirobod johil kishilari bilishib, meni kofir bo‘lding, deb maktabimni yopdilar...»

Adib 1909-yilda Degrez mahallasida yangi maktab ochadi. Dars berish jarayonida ochilayotgan yangi maktablar uchun har jihatdan qulay darsliklar yaratish zaruriyatini his qildi. Negaki, yangi maktabning afzalligini shunchaki targ‘ib qilish, o‘z o‘quvchilari misolida ko‘rsatish hali kifoya qilmas edi. Yangi o‘quv tizimining yoyilishi uchun uning prinsiplaridan kelib chiqib yozilgan darsliklar ham kerak edi. Abdulla Avloniy yozadi: «Bizim Turkiston makotibi islomiyasinda avvaldan oxira qadar ta’lim olinajak kitoblar: «Chor kitob», «Sabotul ojizin», «Fuzuliy», «Navoiy», «Bedil», «Maslak ul-muttaqin»lar kabi she’r kitoblari o‘ldig‘i jumlaning ma’lumidir. Bu kitoblarning ba’zilari e’tiqod va amaliyoti islomga taalluq mushkul masalalardan iborat o‘g‘lonlaridan hamda aksarlari forsiy tilda yozilg‘onlari uchun yosh bolalarning onlardan istifodalari, bir narsa anglamoqlari imkon xorijinda edi»[1].

Adibning 1909 – 1917-yillar davomida maxsus maktab bolalari uchun yozilgan o‘ndan ortiq kitoblari maydonga keldi. Uning «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim», «Turkiy Guliston yoxud axloq», «Maktab gulistoni» singari darsliklari; «Adabiyot yoxud milliy she’rlar» to‘plami inqilobga qadar bir necha bor qayta bosilib chiqdi va Turkistonning juda ko‘p yangi usul maktablari uchun qo‘llanma bo‘lib xizmat qildi. «Muallim afandilar va adabiyot muhiblari banim bu asari nochizonalarimni iltifotsiz qoldurmadilar. Turkistonning eng mashhur muallimlari dars jad-

[1] Boboxonov A., Maxsumov M. Abdulla Avloniy. Pedagogik faoliyat. – T.: «O‘qituvchi», 1996, 43-bet.

valini kiritub, maydoni ta'lima qo'ydilar»[1], deb yozgan edi Abdulla Avloniy mamnuniyat bilan.

1913-yilda Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» asari bosilib chiqdi. 1917-yilda ikkinchi marta nashr qilindi. Kitob maktablarning yuqori sinf o'quvchilariga darslik sifatida yozilgan. Lekin asrimiz boshlaridagi o'zbek jadid ma'rifatchiligining noyob hodisalaridan bo'lgan bu asarning ahamiyati faqat maktab doirasi bilan cheklanmadi. U adabiyot va axloq havaskorlari uchun ham qo'llanma bo'lib xizmat qildi. Asarda insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilm –axloq haqida fikr yuritiladi.

Axloq, bu – xulqlar majmui. Xulq esa, ezgulik yoxud razillikning muayyan bir insonda namoyon bo'lish shakli. Binobarin, har bir xulq ezgulik va oliyjanoblikning yoki razillik va badbinlikning timsoli. Shu jihatdan ular yaxshi va yomonga bo'linadilar. Lekin bular kishida o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Ularning shakllanishi uchun ma'lum bir sharoit, tarbiya kerak. Kishilar tug'ilishidan yomon bo'lib tug'ilmaydilar. Ularni muayyan sharoit yomon qiladi. Demak, hamma narsa tarbiyaga bog'liq. Tarbiya «yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidur». Tarbiya tug'ilgan kundan boshlanadi va umrning oxiriga qadar davom etadi. U ikki bosqichdan, uy va maktab tarbiyasidan iborat. Abdulla Avloniy tarbiyaning doirasini keng tushunadi. Uni birgina axloq bilan chegaralab qo'ymaydi. «Sog' tanda – sog' aql», degan hikmatning bejiz emasligini yaxshi biladi. Gapni, birinchi navbatda, bolaning sog'ligi haqida qayg'urish lozimligidan boshlaydi.

Abdulla Avloniy masalaning falsafiy asosiga ko'chdi. Jism bilan ruhning uzviy birligi haqida gap ochadi: «Badan tarbiyasining fikr tarbiyasiga ham yordami bordir». Jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, maqsadga erishib bo'lmaydi.

---

[1] O'sha joy, 73-bet.

Bolalarda fikrlash iqtidorini hosil qilish, fikr tarbiyasi benihoya zarur va muqaddas bir vazifa. Binobarin, u muallimlarning «diqqatlariga suyangan, vijdonlariga yuklangan» bo'lib, ularning «yordamiga so'ng darajada muhtoj». Negaki, «fikrning quvvati, ziynati, kengligi» muallimga ko'p jihatdan bog'liq. Bolalarning fikrlashi tarbiyachining o'zini fikrlash va intilish doirasi, saviyasi bilan ham aloqador.

«Aql insonlarning piri komili, murshidi yagonasidur. Ruh ishlovchi, aql boshlovchidir...» Muallif o'z fikrini yanada aniqroq va ravshanroq anglashi uchun shunday muqoyasa keltiradi: «Hayvonlar o'zlariga bo'laklar tarafidan keladurgon zulm va jabrlarni shox, tish, tumshuq va tirnoqlar ila qaytarurlar. Lekin inson ... aql va idroki soyasida o'ziga keladurgon zarar va zulmlardan saqlanur. Yer yuzidagi hayvonlarni asir qilib, bo'ynidan boylab, iplarining uchini qo'llariga bergan insonlarning aqlidur». Hukamolardan biri: «Har narsa ko'p bo'lsa, arzon bo'lur, aql esa ilm va tajriba soyasida qancha ko'paysa, shuncha qimmatbaho bo'lur», – demish.

Vatan tuyg'usi eng insoniy, eng mo'tabar tuyg'ulardan biri. Vatanni shunchaki sevish mumkin emas. Uning dardi bilan yashamoq, uning baxtidan quvonmoq, u bilan faxrlanmoq kerak. Vatan Onadek muqaddas. Uni qadrlash, e'zozlash, uning shodlik va quvonchiga sherik bo'lish, g'am-hasratini baham ko'rish farzandning burchi. Abdulla Avloniy Vatan va uning oldidagi burchni shunday tushunadi.

Farzandlar ham har xil bo'ladi. Onaning baxtiga sherik bo'lib, baxtsizligida yolg'iz tashlab ketuvchi farzandlar ham topiladi. Vatanning ham fusunkor tabiatini, bog'-rog'larini xush ko'radigan, lekin tashvish va g'amlarini o'ylamaydigan farzandlar yo'q emas. Vatanni, u qanday bo'lmasin, sevishi kerak.

«Biz turkistonlilar o'z vatanimizni jonimizdan ortiq suydig'imiz kabi, arablar Arabistonlarini, qumliq, issiq cho'llarini, eskimo'lar shimol taraflarini, eng sovuq, qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan

ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o‘z vatanlarin tashlab, hijrat qilurlar edi.

Bobolarimiz: «Kishi yurtida sulton bo‘lguncha, o‘z yurtingda cho‘pon bo‘l»[1], demishlar».

Muallif o‘z fikrini xilma-xil misollar bilan asoslashga harakat qiladi. Masalan, u shunday misolni keltiradi: «Hammaga ma’lumdurki, eng muqaddas diniy yerimiz o‘lan Arabistonga bog‘larini sotub hijrat qilgan hojilarimizning aksari yana o‘z vatanlariga qaytub kelurlar. Buning sababi, ya’ni bularni tortib kelturgan quvvat o‘z vatanlarining, tuproqlarining mehr-u muhabbatidur...»[2], deydi.

Shoirning «Maktab gulustoni»ga kirgan she’rlarida bu fikrlar davom ettirilgan.

«Sening isming bu dunyoda muqaddasdur,
Har kim sening qadring bilmas – aqli pastdir», –

deb boshlangan edi undagi «Vatan» she’ri. «Hijron so‘zi»da esa ona yurtning ko‘rkam, boy va ulug‘vor manzarasi chiziladi.

Bas, shunday ekan, uning uchun jonlarni fido etmoq kerakdir:

Vatan, vatan deya jonim tanimdan o‘lsa ravon,
Banga na g‘am qolur, avlodima o‘y-u vatanim.
G‘ubora do‘nsa g‘amim, yo‘q vujud zeri vahm,
Charoki, o‘z vatanim xokidur go‘r-u kafanim.

Tilga, madaniyatga muhabbat esa har bir kishining xalqiga bo‘lgan muhabbatidir; «Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurg‘on oyinai hayoti til va adabiyotidir»[3], – deb yozadi adib.

So‘z – noyob gavhardir. Uning sharafi benihoya. Har qanday qimmatbaho gavhar uning oldida sadaf ham bo‘la olmaydi.

---

[1] Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. Tanlangan asarlar. –T.: «Ma’naviyat», 1998, 55-bet.

[2] O‘sha joy, 56-bet.

[3] Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. Tanlangan asarlar. –T.: «Ma’naviyat», 1998, 35-bet.

Abdulla Avloniy so‘zning inson qadr-qimmatini belgilashdagi roliga umuminsoniy qarashlardan kelib chiqib baho beradi. So‘zning ma’nosiga alohida diqqat qiladi. Til va so‘z odobi haqidagi umuminsoniy fikrlarni davom ettiradi: «... so‘z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o‘lchab ko‘rsatadurgon tarozudir. Aql sohiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qimmatini so‘zlagan so‘zidan bilurlar...»[1]

Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li (taxallusi Cho‘lpon, 1897 –1938) – jadid adabiyotining eng mashhur namoyandalaridandir. Uning hayoti va ijodiy faoliyati adabiyotimizning eng yorqin sahifalaridan birini tashkil qiladi. U badiiy ijodning deyarli hamma turi bilan faol shug‘ullandi. She’r, hikoya, roman, drama, tanqid, tarjima – hammasida ijod etdi. Lekin, birinchi navbatda, yangi o‘zbek she’riyatining asoschisi bo‘lib tarixga kirdi. U an’anaviy mumtoz she’riyatimizni isloh qildi. Eski she’riyat deganda sirlilik, qo‘l yetmaslik, tantanavorlik, she’riy shakl va mazmun, obrazlar tizimi o‘zgardi. Aruz vazni o‘rniga barmoq va erkin vazn qo‘llana boshlandi.

Shoir she’riyatga samimiy, tabiiy, jonli ifoda usulini olib kirdi. Ma’shuqa tavsifi va hol sharhini yangi asoslarga ko‘chirdi. She’riyat hech qachon kundalik xalq hayotiga bu qadar yaqin kirib bormagan edi. U nazmida G‘arb va Sharq, turk va rus she’riyatidan, umuman, jahon adabiyotidan ta’sirlangan. Abdulhamid Cho‘lpon she’riyatida millat va yurt qayg‘usi, ozodlik va erk tushunchalari yetakchilik qiladi. Zamon qorishiq edi. Bir tomondan, mustabid chor hukumati qulab, tarix mustamlaka zulmini tortib kelgan millatlarga o‘z mustaqilliklarini o‘rnatish uchun buyuk bir imkon berdi. Ayni paytda, sho‘rolar ijtimoiy ozodlikni, yo‘qsilparvarlikni bayroq qilib, mehnatkashlar qalbini zabt etmoq uchun kurashni kuchaytirdilar.

Abdulhamid Cho‘lponning «Qo‘zg‘olish», «Kishan», «Bas endi» she’rlari lirik qahramoni ruhiy dunyosidagi isyon ham hayotdan,

[1] O‘sha joy. 37-bet.

siyosatdan norozilik zaminida dunyoga kelgan. «Qo‘zg‘olish» she’ri 1922-yilda yozilgan. She’r shu davrgacha inqilob, ozodlik haqida bizning miyamizga mixlangan fikrlarni alg‘ov-dalg‘ov qilib tashlaydi. Zero, tarix sahifalariga shunchaki nazar tashlasak, she’r dunyoga kelgan davrda inqilob uchun kechilgan qonli janglar asorati barham topmaganligi, grajdanlar urushining esa to‘xtamaganligini inkor qilolmaymiz. Qon to‘kilgach, o‘z-o‘zidan ma’lumki, yurtda, har bir qalbda motam. Mana shular emasmikin shoir lirik qahramoni qalbiga intiqom tuyg‘usini solib, ruhdagi isyon junbushlarini dadil oshkor etishga majbur qilgan narsa?!

Ay! Sen meni haqir ko‘rgan, tuban ko‘rgan afandi!
Ay! Ustimda bir umrga xo‘ja bo‘lmoq istagan,
Ay! Bo‘ynimga kishan solib, halokatga sudragan,
Ko‘zlaringni zaharlatib o‘ynatmag‘il, bas endi!

Bu yerda lirik qahramon faqat o‘z nomidan emas, balki aldab aytilgan bir og‘iz iliq so‘zdan ko‘ngli erib, ozodlikka yetdim, deb qora mehnatga qul bo‘lib, jamiyat moddiy ne’matlarini yaratayotgan mehnatkash omma nomidan so‘zlashga jur’at etayotir. Chunki shoir yaxshi bilardi hayotning eng yaxshi ne’matlarini, O‘rta Osiyoning boyliklarini tekinga o‘zlashtirayotganlarning ulardan osongina voz kechmasligini, bu hodisa hayotda o‘z tasdig‘ini topayotganligini.

O‘lkada o‘rnatilgan Sovet hokimiyati rahbarlarining adolatsiz siyosati sababli yerli xalq vakillari o‘z noroziligini bildirib, haqiqat qaror topishi, har kim o‘z ona yeriga ega bo‘lishi haqidagi fikrlar bilan ko‘tarila boshladilar. Hozirgi hokimiyat tan olingan demokratiyaligi dargumon. Ushbu hokimiyat musulmonlar nomidan gapirishga haqli emas. Mazkur hokimiyatning asl kuchi – to‘p va pulemyotlardir, lekin biz, musulmonlar, bu kuchdan qo‘rqmaymiz. Bizda o‘zga kuch mavjudkim – ul kuch ruhimizdir. Musulmon mehnatkashlarining milliy irodasi va ruhini o‘zida mujassam etgan fikrlar shoirning «Qo‘zg‘olish» she’rida tiniq aks etgan.

Kishanlaring zang bosgandir, sergak bo'lkim, uzulur,
Tomirimda qo'zg'olishning vahshiy qoni gupurdi.
Eski fikr, an'analar endi butkul uzuldi.
Yo bitarman, yoki sening saltanating buzulur!
Ay! Sen, meni qul o'rnida ishlatguvchi afandi!
Titra, qo'rqkim, bog'liq quling bosh ko'targ'on kuch endi!..

Bu misralarda qo'zg'algan, dahshatli, shiddatli ruhiy holatning yorqin manzarasi tajassum topgan. Lirik qahramon g'azabi, nafrati shu darajada kuchliki, uning yo'lini hech narsa to'sa olmaydi. Shu holatda u har qanday ishga qodir. Undagi mana shu qodirlik xususiyati qalbida insoniy g'ururi uyg'oq har bir kishi vujudiga, tuyg'ulariga tug'yon solib, o'zlikni asrash, himoya qilish uchun safarbar eta oladigan qudratga ega. Negaki, she'r orqali kirib boradigan isyonning yashashiga har bir erkparvar qalbda ma'lum zamin mavjud edi.

Abdulhamid Cho'lpon o'z yurti, xalqini boshqalarga aynan o'sha millatchi degan yorliqni uning bo'yniga ildirishga muvaffaq bo'lgan «do'stlar»ga nisbatan butunlay boshqacha, chin ma'nodagi mehr-muhabbat bilan sevgan, ishongan, hurmat qilgan, agar boshqacha atash lozim bo'lsa, uni muqaddas bilib, sig'ingan edi. Mana shoirning asrlar davomida erksizlikdan ezilib, og'ir mehnatdan tinka-madori qurib, lekin yuragiga qudratli isyonni yig'ib yashagan, shu qudrat bilan zulm saltanatini, toj-taxtlarni yiqishga erishgan xalqning buyuk irodasi haqidagi fikr va tuyg'ulari:

Xalq dengizdir, xalq to'lqindir, xalq kuchdir,
Xalq isyondir, xalq olovdir, xalq o'chdir...
Xalq qo'zg'alsa, kuch yo'qdirkim, to'xtatsun,
Quvvat yo'qkim, xalq istagin yo'q etsun.
Xalq isyoni saltanatni yo'q qildi,
Xalq istadi, toj va taxtlar yiqildi...

Shoirning hali omi, uyushmagan, siyosiy ongi shakllanmagan, adolatsizlikka qarshi kurash tuyg'usi feodalizm tuzumi va mus-

tamlakachilik sharoitida so‘ngan xalqqa ishonchni faqat uning romantikligi bilan emas, balki xalqning yashirin imkoniyatlari, uning qonida bilinar-bilinmas tovlangan kurash bilan bog‘liqdir. Xalq, uning qat’iy ishonchiga ko‘ra:

Xalq istasa ozod bo‘lsun bu o‘lka,
Ketsun uning boshidagi ko‘lanka,
Bir qo‘zg‘olur, bir ko‘purar, bir qaynar,
Bir intilur, bir hovliqar, bir o‘ynar.
Yo‘qlikni-da, ochlikni-da, yo‘q etar,
O‘z yurtini har narsaga to‘q etar...

Abdulhamid Cho‘lpon xalq bag‘rida yashiringan kuchni ana shu tarzda ziyrak nigohi bilan ko‘radi. U ayni paytda ham xalqdan madad olish, ham unga rahnamo bo‘lish zarurligini sezadi:

Butun kuchni xalq ichidan olaylik,
Quchoq ochib xalq ichiga boraylik!

Abdulhamid Cho‘lpon o‘z ijodida iste’dod va jaholat millatning taraqqiyot va hurligini bo‘g‘uvchi illatlar ekanligini badiiy aks ettirdi. Turkiston Muxtoriyati hukumatini olqishlab, otashin satrlar yozdi. U o‘z ijodida chorizm va sovet istibdodining butun dahshatlarini, bosqinchi qizil armiyaning talonchiliklarini ko‘rsatib berishdan cho‘chimadi. Abdulhamid Cho‘lponning «Ozod turk bayrami» (1917), «Buzilgan o‘lkaga» (1920), «Go‘zal Turkiston» (1922), «Qurbon» (1923) she’rlari va «Vayronalar orasidan», «Chimkent xatlari», «Yo‘l esdaligi» (1921–1922) kabi publitsistik maqolalarida Turkiston istiqloli kurashchilarining yorqin obrazi chiziladi, mustabid sovet rejimining kirdikorlari fosh etiladi. Abdulhamid Cho‘lpon ijodining asosiy mezonini Turkiston istiqboli uchun kurash va milliy g‘oya tashkil qiladi.

Abdulhamid Cho‘lpon xalq qudrati, kurashlarini ulug‘lovchi she’rlarida murod-maqsadga yetish uchun el-yurt, xalq bilan hamnafas bo‘lishga undaydi, uning kuch-qudratiga g‘oyat katta ishonch

bildiradi, unga yuksak baho beradi, hamisha u bilan birga bo‘lishga da’vat etadi. Uning hamma sevib o‘qiydigan «Xalq» she’rida asli yetakchi g‘oya – ozodlik, erkinlik, mustaqillik uchun intilish naqadar jo‘sh urib turganini ko‘ramiz. Bu she’rlar – bizning kunlarimizni butun qalbi, borlig‘i bilan orzu qilgan. Milliy istiqlolga erishmoq maqsadi bilan yashagan, ammo ungacha yetolmay qizil imperiya tomonidan qatl etilgan buyuk ajdodlarimizning faryodlarini, yurak haroratlarini ifoda etib turgani bilan qimmatlidir. Zero, bu g‘oya va maqsadlar allaqachon umuminsoniy qadriyatlarga aylanib ketgan va milliy iftixor bilan har birimizning qalbimizda abadiy ardoqlanadi.

Abdulla Qodiriy (1894 – 1938) – eng buyuk ehtiromga loyiq inson, iste’dodli romannavis, mohir shoir va dramaturg, o‘tli hajvchi va tarjimon, qolaversa, milliy madaniyatimiz fidoyisi sifatida XX asr milliy-ma’naviy-ma’rifiy rivojimizda o‘chmas iz qoldirgan charog‘on yulduzdir. Buyuk so‘zi faxr va g‘urur, e’tiqod va muhabbat, sadoqat va ehtirom tuyg‘usiga hamohang bo‘lib ketadi. Buyuklik esa, avvalo, Tangri taolo bergan ulkan va noyob iste’dod sohibi ma’nosini anglatadi. Qolaversa, ana shu noyob iste’dod o‘z xalqi, yurti kelajagi yo‘lida safarbar etilgandagina yana ham qudratli, serfayz bo‘ladi. Kelajakni oldindan ko‘rish qobiliyati kamol topib, o‘z xalqini yorug‘ va nurli hayot sari yetaklaydi. Kerak bo‘lsa, shu mashaqqatli, ammo qutlug‘ yo‘lda o‘z jonini ham fido etishdan chekinmaydi. Abdulla Qodiriy ham shunday ulug‘ sifatlardan aslo begona emas. Adibda yana bir buyuk sifat mavjud – unga xos milliylik butun asarlarini, faoliyatini, taqdirini bezab turadi.

Abdulla Qodiriy qisqa umr ko‘rgan, qisqa bir davrda ijod qilgan bo‘lsa ham, o‘z xalqi va adabiyoti uchun g‘oyat katta, salmoqli, ayni chog‘da muhim ma’naviy-ma’rifiy, badiiy-estetik ahamiyatga molik ijodiy meros qoldirib ketgan. Bu, avvalo, adibning mavjud milliy, umuminsoniy an’analardan mahorat bilan foydalanganligida ko‘zga tashlanadi. Qarang: bir vaqtning o‘zida bitmas-tuganmas xalq og‘zaki

ijodi, yozma mumtoz adabiyotimiz durlari, qolaversa, hayotning o‘zi, qardosh va jahon adabiyoti, rus, Yevropa va Sharq badiiy adabiyoti an’analarini omuxta tarzda ijodiy o‘zlashtirdi. Natijada birgina o‘z milliy adabiyotigina emas, qolaversa, butun Markaziy Osiyo, yaxlit holda turkiy adabiyotlarda ilk bor tasvirda epik rivoya (bayonlash), epik obraz yaratish tizimini ishlab chiqdi.

XX asr yangi o‘zbek adabiyotining tug‘ilishida asosan to‘rtta muhim manba yetakchi ahamiyat kasb etgan. Bular: a) tarixiy; b) siyosiy; v) ma’naviy; va nihoyat, g) til birligi bilan xarakterlanadi. E’tibor bersak, butun Markaziy Osiyo xalqlari qadim-qadimdan bir xil tarixiy-jo‘g‘rofiy muhitda yashagan va ijod ham qilgan. Shu tufayli ular o‘rtasidagi tarixiy-ijtimoiy, madaniy-ma’rifiy munosabatlar har jihatdan bir-birining ildiziga borib taqalgan, bir-birini to‘ldirib, boyitgan. Demak, ana shu tarixiy birlik adabiyotlar, madaniyatlar rivojidagi ilk manba vazifasini o‘tagan.

Abdulla Qodiriyning shoir sifatidagi birinchi she’ri «To‘y» bo‘lib, u hajv yo‘sinida bitilgan. Zamona kulfati, millatning loqaydligi, mustamlakachilik illatlari va mavjud qashshoqliklari o‘zi pok, dili pok adib tuyg‘ularini junbushga keltirar edi. Undagi ziyraklik, nurli, aqlli ko‘z va qalb, go‘zallik va fojiaviylikni tez payqagan. Bilamizki, millatimiz urf-odatiga ko‘ra bahor, yozdagi mashaqqatli mehnatdan so‘ng qishda to‘y qilinadi. To‘y boy-boyvachchalar uchun pisand bo‘lmasa ham, beva-bechora, mehnat ahli uchun ko‘p hollarda fojiaga aylangan. To‘y bilan aza almashib turgan, «kim oshish» poygasida ko‘pincha yo‘qsillar pand yegan, qarzga botib, taqdiri achinarli holga tushib qolgan.

Qildi bul vaqt bizda javlon to‘y,
Aqchasi yo‘qni etdi hayron to‘y.
Bir-biridan oshirdilar to‘yni,
Topdi ravnoq, g‘ayrat ila boyon to‘y...

Shoir bunday to‘ylar Qur’oni karimda ham, shariatda ham yo‘qligini ta’kidlash barobarida, «kori majusi, kori shayton to‘y»lardan voz kechishga da’vat etadi.

Kelingiz do‘stlar, din qarindoshlar,
Tashlason bo‘lsa musulmon to‘y.

deya o‘z millati boshidagi g‘am-kulfatdan ozod etish maqsadini ilgari suradi.

Gap bu o‘rinda mazkur she’rning g‘oyaviy-badiiy yetuk yoki yetuk emasligi haqida emas, balki shoir ko‘targan milliy muammoning o‘ta dolzarbligida, hali-hanuz «to‘y kimga to‘y, kimga aza» bo‘lib qolayotganligida hamdir. To‘g‘ri, to‘y odamlarni, mahalla, qarindosh urug‘larni bir-biriga qovushtiradi, o‘zaro oqibat, inoqlik, mehr tuyg‘ularini parvarish etadi. To‘y milliy urf-odat, milliy madaniyat ko‘rigigina emas, balki, katta, yoqimli milliy bayram hamdir.

Binobarin, adib ana shu ma’nodagi to‘y-tomoshani yoqlaydi, isrofgarchilik, kim oshdiga bo‘ladigan to‘ylarning oqibati fojia bilan yakunlanishidan ogoh etadi.

Adibning «Millatimga bir qaror» she’ri g‘azal shaklida bitilgan bo‘lib, unda millatni «taraqqiyot yo‘li»ga da’vat yetakchilik qiladi. Qoloqlik, nodonlikdan xalos bo‘lishining birdan-bir yo‘li ilm-ma’rifatga yetaklovchi maktablar, dorilfununlar ochish deb biladi:

Kel ey millat, bu kun bir maslahat birlan qaror o‘lsun,
Bu kundan o‘tkan ishlarg‘a pushaymon birla or o‘lsun.
Qilaylik bul kuni g‘ayrat, hama birdan qilib himmat,
Jaholat cho‘l-u sahrosini minba’d sabzazor o‘lsun.
Adashmay kumush-u oltinni hama boyonlar aslo,
Solib dorilfununlar ham maktablar hazor o‘lsun.
O‘qishsin millat avlodi, bizni doim duo aylab,
Qilib tahsil ulumlarni fununa yaxshi yor o‘lsun.

Shuni alohida qayd etish lozimki, uning she’rlari XX asr o‘zbek ma’rifatparvarlik adabiyoti, qolaversa, jadid adabiyotining ilk namu-

nalari sifatida muhim qimmatga ega. Negaki, ularda ma'rifatparvarlik va jadidchilik g'oyalari ilgari surilgan holda o'z davri hamda millati oldida turgan va yechimini kutayotgan muhim muammolar ko'tarilgani bilan ham xarakterlidir.

Abdulla Qodiriyning barcha asarlarida adibning o'lmas ruhi, zakovati-yu, jasoratini his qilish qiyin emas. Yozuvchining yalpi ijodini o'zaro birlashtiruvchi, bog'lab turuvchi rishta – komil inson timsoli ko'z oldimizda yaqqol gavdalanadi. Har bir jumlada, har bir qahramon sajiyasida Abdulla Qodiriydek daho shaxsning o'ziga xos fazilatlarini eslatib turuvchi alohida belgilar bor. O'zbek xalqi dardini teran anglash, millat armonlarini o'zinikiday qabul etish yozuvchi ijodining o'zak mag'zidir.

Abdulla Qodiriy o'z ijtimoiy-estetik idealining tajassumi bo'lgan Otabek, Anvar obrazlarida XX asr boshidagi Turkistonning ziyoli, ilg'or yoshlari qiyofasiga xos jihatlarni umumlashtirdi. Adib ushbu obrazlar vositasida o'zbek xarakterini ko'rsatishga muvaffaq bo'ldi. Bu esa, o'z navbatida, yozuvchi asarlariga noyoblik va betakrorlik baxsh etadi.

Ruhshunoslar fikriga ko'ra, o'ziga va o'z kuchiga uncha ishonmagan odamlar guruhbozlikka moyilroq keladi. Chunonchi, qo'rquv, xavotir hissi ham insonlarning birlashishiga sabab bo'lishi mumkin. «Ko'pga kelgan to'y» naqli ham, aslida, insonning voqelikni itoatla qabul qilishni anglatadi. «Hamma birday-ku», degan qanoat-la, «barcha»ning ichida bo'lishga intilish esa insonga xos bir himoyalanishdir. Xulosa shuki, Abdulla Qodiriy «hamma»dan ko'ra «o'zi» bilan bo'lishni ma'qul ko'rgan. Uning himoyalanish tizimi yolg'iz haqiqatga tutashgan. Shuning uchun ham u kurashda ko'plar kabi namoyishkorona yo'lni tanlashdan ko'ra matbuot orqali «jihodi akbar» qilish yo'lini yoqlagan.

Eng muhimi, Otabek, Yusufbek hoji, Anvar singari xalqning orzu-armonlari timsolini yaratmoq uchun ijodkorning o'zida ham maz-

kur sifatlar bo‘lmog‘i lozim. Shu nuqtayi nazardan, yozuvchi adabiy qahramonlariga o‘zi «donorlik» qilgan. Abdulla Qodiriy Otabek va Anvardagi yovqur jasorat, ma’naviy kamolot, odob-hayo kabi fazilatlarga o‘z estetik konsepsiyasidan kelib chiqib yondashgan. Otabek va Anvar ijodkor tafakkuri mahsuli bo‘lish bilan birga, uning orzu-istaklari yig‘indisi hamdir. Ushbu fikrimizni adib tarjimayi holi va uning asarlaridan olingan iqtiboslar tahlili orqali dalillashga harakat qilamiz. Abdulla Qodiriyning sudda, Otabekning Xudoyorxon huzurida, Anvarning dor ostida aytgan so‘zlari yonma-yon qo‘yib o‘rganilsa, ular mohiyatan bir-birini to‘ldirishiga amin bo‘lish mumkin.

Dastlab, Otabek obrazi bilan bog‘liq iqtibosga diqqat qilaylik. «O‘tkan kunlar» romani yaratilgan pallada yozuvchi hali adabiyot maydonida o‘z yo‘lini tanlab olmagan bo‘lsa-da, ammo hayotda o‘z sobit yo‘liga ega edi. «Vijdon» so‘zi biz ajratib ko‘rsatmoqchi bo‘lgan sahnalarda muhim ahamiyatga ega. Bu so‘zni yozuvchi bejiz dominanta o‘rnida qo‘llamagan. Adib uchun vijdon bu – iymon, yashashning zaruriy shartidir.

Otabek Homid tuhmati bilan qamalib, o‘lim jazosiga hukm etilganda, uning o‘zini qanday tutishi qahramon saviyasining muhim belgisini ko‘rsatuvchi sahna hisoblanadi. O‘zining nohaq o‘limga mahkum etilganini eshitgan Otabek xotirjam «haqsiz jazo» deydi. Otabek talvasaga tushmaydi, balki kulimsirab javob beradi. Shu o‘rinda unda na qo‘rquv, na iltijoni sezasiz. Haqligiga ishongan Otabek bosiqlik ila javob beradi. Endi Otabekning Xudoyorxon huzurida Musulmonqulga bergan javobiga e’tibor qaratamiz: «Men bilan otam siz bilan Qushbegiga bir necha turlik bo‘lib tanilsak-da, o‘z vijdonimiz oldida bir turlikkinadirmiz. Shuning uchun siz tilagan tarafingizga hukm qilingiz-da, buyrug‘ingizni beraveringiz!» Otabekning o‘z vijdoni oldida bir turlikligi – juda muhim nuqta. Zero, vijdon yo‘lini hayotiy mezonga aylantirgan qahramon so‘zlari, ayni choqda, yozuvchining ham hayotiy dasturidir.

Abdulla Qodiriy hayoti bilan Anvar taqdirining o‘zaro tutash nuqtalari bir talay. Anvar – yetuk xarakter egasi va bag‘oyat hayotiy obraz. Bu obraz uchun adib o‘z shaxsiy hayotidan xomashyo sifatida foydalangan. Adibning suddagi va Anvarning dor ostidagi nutqini solishtirsak, buni umummaxrajga keltirish oson kechadi. Anvar Xudoyorxonga qarata, «Sizda adolat bormi, janob» deyishga o‘zida jasorat topadi. Xon ko‘ziga qarab so‘z aytmoq uchun, albatta, katta jur’at zarur. Bu fazilat Anvarda bisyor. U dor ostiga ketayotib ham tahorat olib, ikki rakaat nafl namozi o‘qiydi. Bu sahna asarga bejiz kiritilmagan. Anvar boshini tik ko‘tarib, ishonch bilan Abdurahmonga xitob qiladi: «Kulishga haqqingiz bor, domla, chunki o‘ch olasiz. Faqat siz ifloslik natijasida kulasiz, men... men to‘g‘rilik samarasini o‘raman, siz iflos vijdon bilan g‘olibsiz, men sof vijdon bilan mag‘lubman... Meni dor ostiga kim keltirdi? Vijdon emasmi, taqsir?! Sizni bu yerga kim tomoshabin qildi? Ifloslik emasmi, taqsir?! Menim holim ko‘rdingiz, domla, qo‘lim bog‘langan, ustimda xanjar yaraqlaydi. Lekin men kulaman... Nima uchun bunday, taqsir? Chunki vijdon rohatda, jon tinch, yurakda ishq...».

Abdulla Qodiriyning 1926-yil sudda so‘zlagan nutqi uning hur fikrli ozod shaxs ekanini ko‘rsatuvchi muhim hujjat hisoblanadi. «Men to‘g‘rilik orqasida boshi ketsa «ix» deydirgan yigit emasman, – degan edi o‘shanda adib. – Bu gapni siz menga beradigan jazoingizdan qo‘rqib emas, balki vijdonim, iymonim tazyiqi ostida so‘zlayman. Ko‘nglida shamsi g‘uboroti, teskarichilik maqsadi bo‘lmag‘an sodda, go‘l, vijdonlik yigitka bu qadar xo‘rlikdan o‘lim tansiqroqdir. Bir necha shaxslarning orzusicha ma’naviy o‘lim bilan o‘ldirildim. Endi jismoniy o‘lim menga qo‘rqinch emasdur». Darhaqiqat, yozuvchi uchun asosiy mezon – iymon va vijdondir. Har qanday qaltis vaziyatda ham yozuvchi bu mezondan chekinmaydi. Yozuvchi nutqi – bir-birini sotish, chaqishni kasb qilib olgan o‘sha davr ziyolilariga qarata bir murojaatdir.

Abdulla Qodiriy barcha asarlarida, xususan, «O‘tkan kunlar» va «Mehrobdan chayon» romanlarida tasvirga olgan mavzu va materiallarni, qahramonlar harakati doirasi va maydonini, asarning ma’no va mazmuni, g‘oya va maqsadni o‘z ona yurti, ona xalqi tarixidan, xarakteridan kelib chiqib ifodalash orqali erishdi. Mavzu, g‘oya, xarakter ifodasi va yechimi islom ma’rifati hamda jadidchilik ma’rifati bilan yo‘g‘rilgan holda namoyon bo‘lgan holda milliylikni yanada chuqurlashtirdi. Adib XX asr yangi o‘zbek adabiyotining tug‘ilishi, shakllanishi va rivojiga o‘zining salmoqli hissasini qo‘shdi. Qo‘shibgina qolmadi, balki namunaviy an’ana sifatida meros etib qoldirdi. Shu holat Abdulla Qodiriyni adib sifatida buyuklik shohsupasiga ko‘tardi, barhayotlik in’om etdi.

Sovet tuzumi, bir tomondan, o‘zbek adabiyotining rus va jahon adabiyoti yutuqlaridan bahramand bo‘lishiga imkoniyat tug‘dirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, unda erksevarlik, millatparvarlik va milliy taraqqiyot g‘oyalarining kuylanishiga jon-jahdi bilan qarshilik ko‘rsatdi. Badiiy ijod, birinchi navbatda, inson qalbining hurligini, pok va oliyjanob intilishlarini, ona vatanning bosqinchilar erkiga qarshi o‘laroq ozod va obod bo‘lishini tarannum etuvchi hodisa bo‘lgani uchun bu g‘oyalar bilan yashagan yozuvchilar mustabid tuzumga dushman bo‘lib ko‘rindi. 1929-yili turli bahonalar bilan uyushtirilgan «tozalash» kampaniyalarida o‘zbek ziyolilarining dastlabki avlodi mavh etildi. Ammo 1929 – 1930-yillardagi «tozalash» bilan o‘zbek xalqi va uning madaniyatini sovetlashtirish mahol ekanini tushungan davlat va partiya 1937-yilda adabiyotimiz va umuman, madaniyatimizning eng sara arboblarini yo‘q qilib, hatto ular nomini tarixdan o‘chirib tashlash uchun barcha choralarni ko‘rdi. Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Elbek, Usmon Nosir, G‘ozi Yunus, G‘ulom Zafariy singari yozuvchilar «xalq dushmanlari» deb e’lon qilindi.

Taniqli olim Umarali Normatovning «Qodiriy mo‘jizasi» nomli asarida keltirilgan bir manbaga e’tiboringizni jalb etmoqchimiz. Ho-

zirgi Amir Temur xiyoboni yonginasida joylashgan SAGU (bugungi Milliy universitet) binosining ikkinchi qavatida katta o‘quv zalida 1952-yil kech kuzida «Adabiyotshunoslikka kirish» fanidan ma’ruza o‘qilmoqda. Ikki yarim oylik paxta terimi hasharidan qaytgan, ma’ruzalarni sog‘inib qolgan biz – filologiya fakultetining birinchi kurs talabalari – 64 ta jon bir tan bo‘lib, butun vujudimiz quloqqa aylanib dotsent Zikriyo Mirhojiyev so‘zlarini tinglab o‘tiribmiz. Shu payt birdan bino qasir-qusur, derazalar shaqir-shuqur bo‘lib zalda qiyichuv ko‘tarildi. Ustozning qiziq odati bo‘lardi. Ma’ruza o‘qiyotganida doimo yurib, auditoriyaning u boshidan bu boshiga betinim kezib yurardi. Ana shu to‘s-to‘polon onlarida ham domla odatini tark etmay, shitob bilan yurishda davom etdi. Shunda qizlar: «Domla, yer qimirlayapti, zilzila bo‘lyapti!» deb uvvos soldilar. Domla esa parvo qilmay yurib turib: «Nima qilibdi, yer bo‘lgandan keyin qimirlaydi-da!» dedilar. Auditoriyada birdan gurros kulgi ko‘tarildi va shu orada yer silkinishi ham tindi.

Oradan bir hafta o‘tib, yana «Adabiyotshunoslikka kirish» darsi, domlaning o‘sha-o‘sha shitob bilan yurib turib ma’ruza o‘qishlari... Bu galgi dars o‘zgacha tarzda tugadi. Oramizda Samarqand viloyatidan kelgan Sarimsoqov degan nihoyatda ko‘p o‘qigan, kitob jinnisi bo‘lardi. Har bir darsda u albatta domlalarga qandaydir savol berar, ko‘pincha qaltis savoli bilan manaman degan professorlarni dovdiratib qo‘yardi. Bu gal ham shunday bo‘ldi. Dars oxirida: «Julqunboy degan yozuvchi o‘tgan ekan, uning «O‘tkan kunlar» nomli romani bor ekan. Shu haqda ma’lumot bersangiz», deb qolsa bo‘ladimi! Shunda nima bo‘ldi deng? Hamisha, hatto tahlikali zilzila paytida ham betinim yurib turadigan Mirhojiyev domlamiz taqqa to‘xtab, savol bergan talabaga angrayib-bo‘zarib qaradilar. Bir necha daqiqalik sukutdan so‘ng domla: «Oko‘si, komsomolmisan?» deb so‘radilar. Tasdiq javobini olgach: «Komsomol sovet studenti davlat universiteti auditoriyasida bunaqa savol bermaydi, kommunist sovet dotsenti bunaqa

provokatsion savolga javob qaytarmaydi»[1], dedi qat'iy qilib. O'quv zalida o'tirgan talabalarning dami ichiga tushib ketdi.

Ertasi kuni qaltis savol bergan kursdoshimiz darsda ko'rinmadi. To'rt yil daraksiz ketdi. 1956-yil bahor kunlarining birida u Chorsudagi yotoqxonamizga egnida fufayka, oyog'ida kirza etik aftodahol holda kirib keldi. Nima kor-hol bo'lganini biz ham so'ramadik, u ham aytmadi. Orada qandaydir hadik, qo'rquv hukm surardi, gap gapga qovushmadi. Buni sezdi shekilli, xushlamagan mehmonimiz: «Safardan qishloqqa qaytishda sizlarni bir ko'rib o'tay dedim», deya tezgina xayrlashib yo'lga otlandi. O'tgan to'rt yil davomida «O'tkan kunlar», «Julqunboy» so'zlarini tilga olish tugul, hatto bu nomlarni eslashga ham qo'rqardik. Garchi tasodifiy uchrashuvda bu nomlar tilga olinmagan bo'lsa-da, birdaniga xayolimizni chulg'ab oldi. Bu paytga kelib «xalq dushmanlari» sanalmish adiblar, jumladan, Qodiriyga munosabat qisman o'zgara boshlagan, lekin baribir yurtda qo'rquv saltanati kezib yurardi.

Jadidchilar umummilliy ma'rifatni ko'tarish, milliy ongni rivojlantirish, miliy birlikka erishish, jahon madaniyatini egallash kabi g'oyalar bilan milliy ma'naviyatimiz rivojiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar.

Jadidlarning qismati chor hukumati, Vaqtli hokimiyat va ayniqsa, sobiq sho'rolar tuzumi davrida nihoyatda fojiali bo'ldi. Ularning ko'pchiligiga yuqorida bayon qilingan talablari uchun «millatchi», «panturkist», «panislomist» degan tamg'a bosilib, qatag'on qilindi. Jadidlar g'oyalariga va harakatlariga qora chiziq tortildi. Jadidchilikning tor-mor qilinishi turkiy millatlarning jahon miqyosida tanilishini yana bir asrga orqaga surdi. Jadidchilik bir asr davomida avval kommunistik g'oyaning tazyiqida, keyinchalik esa iskanjasida bo'lib, to'la ravishda namoyon bo'la olmadi. Uning zaminlari shakllanishi tarzini o'rganishga intilganlar ham tazyiq ostiga olindi. Mustaqillik

[1] Normatov U. Qodiriy mo'jizasi. – T: «O'zbekiston», 2010, 201-bet.

sharofati bilan Turkiston xalqlarining erki, milliy davlatchilik g'oyalari, ma'rifati uchun kurashgan vatanparvarlarning muborak nomlari tiklandi, asarlari chop etildi.

Jumaniyoz Jabborovning «Shahidlar yodi» she'rini xulosa o'rnida keltiramiz:

Ular... minglab, balki milyon edilar,
Yashashga tug'ilgan inson edilar,
Shirin jon edilar, iymon edilar,
Bu jahon uyiga mehmon edilar,
Hali ushalmagan armon edilar.

Ular yoshlar edi, mardona, asil,
Sevgi-yu sevinchga talpingan nasl,
Bag'rida barq urib bahoriy fasl,
Erk-u istiqlolga chanqoq muttasil,
Mehnat-u ijodda shodmon edilar.

Nogoh changal urib dahshatli balo,
Ularni shu kunga etdi mubtalo.
Sirti xo'p yaltiroq, asli ajdaho
Sochdi g'azabini – yovuz va yuho...
Ayblarin bilmasdan hayron edilar.

Ayblari? Emish o'z xalqiga dushman,
Ularga yot emish shu yurt, shu gulshan,
Qalb-u fikrlari emish, chirk, tuban,
Vatanni to'ntarib tashlashga tubdan –
Ahd etgan, go'yoki nodon edilar.

Dillarni titratur jahoniy alam,
Ruhlar chirqillashin tinglaymiz har dam,
Bu dardni yozganda o'rtanur qalam,
Shaharim, qishlog'im, chamanim, dalam –
Ular Qodiriy va Cho'lpon edilar.

Vale bu dunyoda oliy hakam bor,
O'shal qudrat erur mangu ustuvor,
Shahidlar bong urib har shom-u nahor,
Bizni ogoh etar, bo'ling deb hushyor,
Ular xalqimizga qalqon edilar,
Abadiy barhayot vijdon edilar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Jadidchilik harakatining paydo bo'lish sabablarini tushuntiring.
2. Ismoilbek Gasprinskiy haqida nimalarni bilasiz?
3. Jadidchilik namoyandalari ilgari surgan g'oyalari haqida gapiring.
4. Diniy maktablar bilan dunyoviy maktablarning paydo bo'lishiga sabab nima?
5. Jadidchilar qanday xayriya jamiyatlarini tashkil etdilar?
6. Milliy teatrning vujudga kelishida kimlar jonbozlik ko'rsatdi?
7. «Sho'roi Islomiya» tashkiloti haqida so'zlab bering.
8. «Turkiston Muxtoriyati»ning taqdiri nima bilan tugadi?
9. Mahmudxo'ja Behbudiyning faoliyatini bilasizmi?
10. Munavvarqori Abdurashidxonov qanday darsliklar muallifi?
11. Abdurauf Fitratning qanday asarlarini o'qigansiz?
12. Abdulla Avloniyning darslik va she'rlaridan namunalar keltiring.
13. Abdulla Qodiriy o'zbek xalqining birinchi romannavisi ekanligi haqida so'zlab bering.
14. Abdulhamid Cho'lpon yangi o'zbek she'riyatining asoschisi, istiqlol kuychisi deganda nimalar yodingizga tushadi?
15. Jadidchilik harakati namoyandalarining tarixiy taqdirlari haqida nimalarni bilasiz?
16. Mustaqillik davrida jadidchilik harakatiga bo'lgan o'zgarishlarni tushuntirib bering.

GLOSSARIY

Adolat *(arab. odillik, to'g'rilik)* – u yoki bu qadriyatlarning o'zaro umumiy munosabatini va ularning individlar o'rtasida konkret taqsimlanishini ifodalovchi tushuncha; insonning mohiyati va uning ajralmas huquqlari haqidagi tasavvurlarga mos bo'lgan jamoa tartibi.

An'analar – xalqlarning tarixiy rivojlanishi jarayonida shakllanadi va sayqallanadi. Davr talabiga javob bergan an'analar unutilmaydi, avlodlarga meros qoladi, xalq hayotining tarkibiy qismiga aylanadi. Har bir el, millat yoki xalq o'z an'analarini rivojlantiradi, asrab-avaylaydi.

Aqidaparastlik *(arab. – ishonch so'zidan)* – biron g'oya yoki tamoyilni mutlaqlashtirib, konkret obyektiv sharoitni hisobga olmagan holda ko'r-ko'rona qo'llash, buni ijtimoiy hayotning istagan sohasidan topish mumkin. Keyingi davrlarda diniy aqidaparastlik faollashib ketdi. Barcha dinlarda shak keltirmasdan, muhokama qilmasdan e'tiqod qilish lozim bo'lgan fikrlar – aqidalarni mutlaqlashtirib, ularni saqlab qolishga, tiklashga urinishlar kuchaydi.

Ali avlodlari – Ali ibn Abu Tolib jami 28 farzand ko'rgan, shulardan 11 nafari o'g'il, 17 nafari qiz edi. Fotima (Muhammad payg'ambar (s.a.v.) ning qizi)dan tarqalgan Ali avlodlari «sayidlar», Alining boshqa xotinlaridan tarqalgan avlodlari «xo'jalar»ga kiradi.

Adab *(arab.)* – shaxsning tarbiyaviy darajasi, axloqiy qiyofasi, ma'naviy barkamolligining asosiy sharti va mezoni.

Affekt *(lot. – ruhiy to'lqinlanish, kuchli ehtiros)* – nisbatan tez va qisqa muddatli, kuchli ehtirosli va emotsional holat; shaxs uchun muhim hayotiy vaziyatlarning tez o'zgarishi bilan bog'liq ichki tug'yon va keskin xarakterli o'zgarish tarzida namoyon bo'ladi; muayyan kishining o'z xatti-harakatlarini nazorat qila olmay qolishini ifodalaydigan tushuncha.

Vatan *(arab. «Vatan» – ona yurt)* – kishilarning yashab turgan, ularning avlod va ajdodlari tug'ilib o'sgan joyi, hududi, ijtimoiy muhiti, mamlakati. Vatan bir-birini taqozo etuvchi tashqi muhit va ichki kechinmalar hamda

tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Tashqi muhit nuqtayi nazaridan Vatan kishi yoki avlodlar tug‘ilib o‘sgan va kamol topgan joy, – zamin, o‘lkadir.

Vatanparvarlik – kishilarning ijtimoiy va ma’naviy-axloqiy xislatlarining, fazilatlarining yuksak namoyon bo‘lishi hisoblanadi. Zero, ular negizida ota-bobolardan meros qolgan zaminni sevish, urf-odatlarni, qadriyatlarni saqlash, el-yurt ravnaqi uchun chin dildan mehnat qilib, Vatanni dushmanlardan himoya qilish, har qanday qaramlikdan ozod etish, hatto zarur bo‘lsa, uning ozodligi va mustaqilligi uchun jonini ham ayamaslik kabilar yotadi.

Vayronkor (buzg‘unchi) g‘oya – yovuzlik va jaholatga, ayrim jinoyatkor kuchlarning hukmronligini o‘rnatishga xizmat qiladigan, insonlar, millatlar va jamiyatning mustaqilligiga, erkinligiga, ijodkorligiga zid bo‘lgan g‘oyalar majmuini ifodalovchi tushuncha.

Vijdon erkinligi – ijtimoiy-falsafiy tushuncha; har kimning o‘z e’tiqodiga ko‘ra, mazkur jamiyatda mavjud ijtimoiy me’yorlarni buzmagan holda vijdoni buyurgani bo‘yicha yashash, ishlash imkoniyati. Bunda dinga munosabat masalaning bir tomoni hisoblanadi.

Gunoh – *(fors. jinoyat, ayb, asli shu ma’nodagi arab. «junoh» so‘zidan olingan)* – shariat qonunlariga va diniy aqidalarga xilof ish yoki harakat.

Gegemonizm *(yunon. gegemoniya – yetakchilik, boshqarish)* – turli sohalarda, jumladan, ma’naviy sohada ham ustunlik va o‘z hukmiga bo‘ysundirishni anglatadi. Gegemonizm mohiyatan dunyo barqarorligini ta’minlash yoki uni mustahkamlashga qaratilgan siyosatga zid hodisa bo‘lib, ijtimoiy taraqqiyot, jamiyat barqarorligi va xavfsizligini izdan chiqaradi.

Globallashuv *(lot, shar. Yer sayyorasi)* – XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshlarida jahon taraqqiyotida shakllangan yangi umumsayyoraviy tartibotlar, davlatlar va kishilar o‘rtasida o‘zaro aloqalarning kengayishi va murakkablashishi, dunyo miqyosida axborot maqomi, tovar va ishchi kuchi bozoridagi integratsiyalashuv, atrof-muhitga texnogen ta’sirning kuchayishi, ommaviy madaniyat namunalarining keng tarqalishi, axborot-mafkuraviy va diniy-ekstremistik xurujlar xatarining ortib borishini ifoda etadi.

Gumanizm g‘oyalari – mohiyatiga ko‘ra, bashariyatga xos bo‘lgan, insonni inson qiladigan, uning hayotini teran ma’no-mazmun bilan boyitadigan yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni o‘zida mujassam etadigan qarashlar va ta’limotlarni anglatadi. Gumanizm g‘oyalariga ko‘ra, har bir insonning asosiy fazilati tabiiy ehtiyojlarni qondirish bilan emas, balki mehnat qilish, aql-idrok va tafakkurga ega bo‘lgan, fikrlay olish, madaniyat va ma’naviyat sohibi bo‘lish bilan belgilanadi.

Jasorat – insonning yuksak kamolotga erishganini ko‘rsatuvchi ma’naviy-axloqiy hodisa; insonning jamiyat va uning a’zolari manfaatlarini himoya qilish, muayyan vazifani ado etishda fidoyiligi, butun kuch va imkoniyatlarini to‘la safarbar etishini anglatadigan ma’naviyat kategoriyasi.

Iymon – arabcha so‘z bo‘lib, lug‘aviy ma’nosi – ishonch demakdir. Shariatda esa janob payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom Alloh tarafidan keltirgan barcha xabarlarga til bilan iqror bo‘lib, dil bilan tasdiqlashga iymon deyiladi. Ya’ni, Qur’oni karim va Hadisi shariflar orqali Alloh to‘g‘risida, jannat, do‘zax, qiyomat kabilar haqida berilgan xabarlarga ishonch – iymondir. Ma’naviy-axloqiy fazilat sifatida esa iymon faqat odamzodgagina xos ruhiy hodisa jumlasiga kiradi.

Islom fundamentalizmi – Qur’on va hadislarga so‘zma-so‘z talqin etuvchi, ilk islomga qaytishga qaratilgan aqidalarni targ‘ib qiluvchi diniy-konservativ ruhdagi oqim. Islom fundamentalizmi vakillari islomning fundamental (asosiy) tamoyillari jamiyatning taraqqiyot yo‘lini belgilab beradi, deb hisoblaydilar va faqat ularga amal qilishga da’vat etadilar. Keyingi paytlarda mutaassib musulmonlar «fundamentalistlar» deb atalmoqda.

Inson ma’naviyati – insonga xos bo‘lgan ichki ruhiy holat va uning ijtimoiylashgan shakllari; millat, davlat va jamiyat ma’naviyatining tarkibiy qismi; insonning ruhiy va aqliy olamini ifoda etadigan atama sifatida shaxsning axloqiy, madaniy, falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, diniy tasavvurlarini o‘z ichiga oladi.

Komil inson – ma’naviy barkamol inson tushunchasi bilan hamohangdir. Ma’naviy barkamollikka erishmay turib komil inson darajasiga yetish

mumkin emas. Demak, ma'naviy barkamollikka intilish – bu komil inson darajasiga erishish uchun intilishdir. Komillikka inson butun umri davomida erishib boradi.

Kamtarlik – odamni bezaydi, obro'sini oshiradi, do'stlarini ko'paytiradi. Kamtarlik – inson ichki ma'naviy dunyosining namoyon bo'lishidir. Agar insonning qonida, qalbida yumshoqlik, saxovat, odob-andisha, sharm-hayo, or-nomus, oriyat bo'lmasa, ming harakat qilmasin, baribir, odamlar ko'ziga kamtar bo'lib ko'rina olmaydi.

Madaniyat – kishilarning tabiatni, borliqni o'zlashtirish va o'zgartirish jarayonida yaratgan moddiy, ma'naviy boyliklar hamda bu boyliklarni qayta tiklash va bunyod etish yo'llari va uslublari majmui.

Madaniyatli odam – o'qimishli, zamon talablari asosida kiyinish va muomala me'yorlariga, axloq normalariga to'la amal qiladigan, ilg'or falsafiy g'oyalarga ega bo'lgan, jahon madaniyati durdonalaridan xabardor bo'lgan shaxsga aytiladi.

Mafkura – *(arab. fikrlar majmui)* ijtimoiy jarayonlar ma'no-mazmunini anglashni va uning boshqarish usulini bilishni da'vo qiladigan, ong va xatti-harakatni yo'naltiradigan ideallar, qadriyatlar, maqsadlar, qarashlar yig'indisidir. U ma'lum maqsadni va unga erishish usullarining haqiqiyligiga, amalga oshirish mumkinligiga ishonch tug'diradi. Unda manfaatlari ifodalanadigan kuch va qatlamlarning o'tmishi, bugungi kuni va istiqbollari haqidagi tasavvurlari o'z ifodasini topadi.

Mafkuraviy immunitet – ma'naviy barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun shaxsni tarbiyalashda, har qanday reaksion, buzg'unchi xarakterdagi g'oyaviy tashabbuslarga bardosh bera oladigan yoshlarni tarbiyalashda qo'l keladi. Davlat va millatning ma'naviy birligi, ma'naviy sog'lomligini himoya qiluvchi g'oyaviy qalqon vazifasini bajaradi.

Mafkuraviy tahdid – ijtimoiy-siyosiy harakat, oqim yoki siyosiy kuch o'z manfaatini ifodalovchi mafkurasini qo'rqituv, zo'rlik yo'li bilan boshqalarga tiqishtirish. Mafkuraviy tahdid jamiyat, davlat yoki xalq, millat

yoki elat taqdiriga xavf solib turgan, fojiali oqibatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan mafkuraviy xavfsizlik majmuasi.

Ma’naviy ideal – shaxs va jamiyat ma’naviyatini shakllantiruvchi, yo‘naltiruvchi va harakatlantiruvchi, uni savob ishlar, bunyodkorlikka safarbar qiluvchi ezgu g‘oya, orzu-maqsad va ijobiy namunalar majmuini ifodalaydi.

Ma’naviy meros – ma’naviy taraqqiyot mahsuli, inson aql-zakovati bilan yaratilgan, kelajak avlodni ezgu taraqqiyot sari yetaklash xususiyatiga ega bo‘lgan kishilarning ongi va dunyoqarashining o‘sishi, olamni bilish va o‘zlashtirish borasidagi sa’y-harakatlariga kuch-quvvat beradigan ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan azaliy qadriyatlar majmuini ifodalaydi.

Milliy g‘urur – o‘z xalqining bir necha ming yillar davomida yaratib kelgan barcha moddiy va ma’naviy boyliklari, tarixiy merosi, urf-odatlari, an’analari, odob-axloqi, turmush tarzi, yuksak ma’naviyati, barcha tarixiy yutuqlari va saboqlariga cheksiz hurmat va e’zoz bilan munosabatda bo‘lish, avaylab-asrashdir.

Milliy o‘zlikni anglash – millat yashayotgan Vatanning porloq istiqbolini ta’minlash uchun qanday imkoniyatlar va qulayliklarga ega ekanligini chuqur anglab yetish, ular bilan cheksiz faxrlanish, mavjud imkoniyatlarni yuzaga chiqarish, real voqelikka aylantirish uchun o‘zini safarbar etish, barcha imkoniyatlari, kuch-g‘ayratini ishga solish demakdir.

Milliy g‘oya – millatning o‘tmishi, buguni va istiqbolini o‘zida mujassamlashtirgan, uning tub manfaatlari va maqsadlarini ifodalab, taraqqiyotga xizmat qiladigan ijtimoiy g‘oya shakli.

Millatlararo totuvlik – umumbashariy qadriyat bo‘lib, turli xil xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaqa va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi, shu joydagi tinchlik va barqarorlikning kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

Sahobalar *(yoxud as-sahoba, sohib – «tarafdor»ning ko‘pligi – ashob)* – Muhammad (s.a.v.)ning safdoshlari, u zot bilan muloqotda bo‘lgan yoxud g‘azotlarida qatnashgan kishilar; keyinchalik Muhammad (s.a.v.)ni loaqal

bir marotaba, garchi go'daklik chog'ida bo'lsa ham ko'rgan barcha kishilar Sahobalar deb atala boshlagan.

Siyosiy madaniyat – kishilarning siyosiy ongi, manfaatlari, maqsadlarini ifodalovchi siyosiy-huquqiy g'oyalar majmuidir. Siyosiy madaniyat jamiyatning turli ijtimoiy tabaqalari manfaatlari bilan bog'liq holda vujudga keladi va siyosiy faoliyatda namoyon bo'ladi.

Tavhid *(arab. – yakkaxudolik)* – yakkaxudolik haqidagi ta'limot. Allohning birligiga ishonish, uni yagona deb bilish, Allohning zotiga ham, sifatlariga ham, ishlariga ham, fe'lida ham, ismlarida ham, hukmlarida ham sherigi yo'q deb e'tiqod qilish.

Tarix – tabiat va jamiyatdagi har qanday o'zgarish hamda rivojlanish jarayonini ifodalovchi atama; insoniyat va uning hayoti, avlodlar almashuvi, jamiyat va davlatlar shakllanishi, o'tmishi va taraqqiyoti bilan bog'liq jarayonlarni o'rganuvchi fan.

Tasavvuf *(arab. – sufiylik)* – islomda insonning ruhiy dunyosi to'g'risidagi, uni ruhiy-axloqiy jihatdan komillik sari yetaklovchi ta'limot; diniy e'tiqod, sufiylik oqimi, «mistitsizm, mistika» so'zlari qadimgi yunon tilidagi «yashirin, sirli» so'zidan olingan bo'lib, ilohiyat bilan bevosita muloqot qilish mumkinligi haqidagi ta'limot.

Tafakkur *(arab. – fikrlash, aqliy bilish)* – inson ma'naviyatining tarkibiy qismi, bilishning olamdagi narsa va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlarini aniqlaydigan, ular o'rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, ya'ni qonuniy bog'lanishlarni aks ettiradigan aqliy bosqich.

Terrorizm *(lot. – qo'rquv, dahshat)* – yuksak ma'naviy tamoyillarga zid ravishda yovuz maqsadlar yo'lida kuch ishlatib, odamlarni garovga olish, o'ldirish, ijtimoiy obyektlarni portlatish, xalqni qo'rquv va vahimaga solishga asoslangan zo'ravonlik usulini anglatuvchi tushuncha.

Umuminsoniy qadriyatlar – insoniyat tomonidan yaratilgan, umuminsoniy manfaatlarga va xalqlarning o'zaro hamjihatlikda yashashlari va rivojlanishlari uchun xizmat qiladigan umuminsoniy axloq, xalqaro siyosiy,

iqtisodiy, madaniy, ilmiy, falsafiy, diniy munosabatlar tajribasi, malakalarini o‘zida mujassamlashtiruvchi tushuncha.

Sharm-hayo – ham iymonlilik belgisi sanaladi. Sharm – bu so‘z har bir odamning nojo‘ya, yomon xatti-harakatlardan o‘zini tiya olish, uyalish hissi. Hadisi shariflarda aytilishicha, odam, eng avvalo, o‘zidan uyalishi kerak, Nojo‘ya, yomon qilmishi, xatti-harakati uchun o‘zidan uyalgan odam o‘zgaga ham nojo‘ya xatti-harakatni ravo ko‘rmaydi. O‘zidan uyalmagan odamda sharm bo‘lmaydi. Demak, sharm odam o‘z nojo‘ya harakati uchun o‘z vijdoni, diyonati oldida javob berish hissi, desak bo‘ladi.

E’tiqod – insonning o‘z fikr va qarashlarida dunyo hodisalarining muayyan turiga (masalan: ilmiy, siyosiy, axloqiy, diniy) mustahkam, sobitqadamlik bilan ishonishi va unga qat’iy amal qilishni anglatuvchi falsafiy tushuncha.

G‘oyaviy bo‘shliq – deb, eski hukmron mafkura halokatga uchrab, u bilan bog‘liq tushunchalarning qadrsizlanishi, bugungi hayot, o‘tmish va kelajakka daxldor qadriyatlar, tushuncha va tasavvurlarni to‘liq anglab yetmasligi oqibatida odamlarning qalbi va ongida vujudga keladigan bo‘shliqqa aytiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Mirziyoyev Sh. M.* Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.–T.: «O‘zbekiston», 2017.

2. *Mirziyoyev Sh.M.* Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.–T.: «O‘zbekiston», 2017.

3. *Mirziyoyev Sh.M.* Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.–T.: «O‘zbekiston», 2017.

4. *Mirziyoyev Sh.M.* Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.–T.: «O‘zbekiston», 2017.

5. *Karimov I.A.* O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. Asarlar to‘plami, 1-jild.–T.: «O‘zbekiston», 1996.

6. *Karimov I.A.* Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.–T.: «Ma’naviyat», 2008.

7. *Abu Nasr Forobiy.* Fozil odamlar shahri. – T.: «Meros», 2011.

8. *Imomnazarov M., Eshmuxamedova M.* Milliy ma’naviyatimiz asoslari.–T.: «Toshkent islom universiteti», 2001.

9. *Imomnazarov M.* Milliy ma’naviyatimiz nazariyasiga chizgilar.–T.: «Sharq», 1998.

10. *Matiboyev T.* Ijtimoiy hamkorlik – millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglikni ta’minlash vositasi.–T.: «Yangi kitob», 2016.

11. *Yaxshilikov J. Ya.*, Muxammadiyev N.E. Milliy g‘oya va mafkura.–T.: «Fan», 2015.

12. *Tashanova A.* Vayronkor g‘oyalar va buzg‘unchi mafkuralar (Ma’naviyatga tahdid soluvchi illatlar).–T.: «Turon zamin ziyo», 2015.

13. Ma’naviy-axloqiy immunitet: tahdidlar va ularning manbalari.–T.: «Muharrir», 2011.

14. *Tulenov J.* Falsafiy madaniyat va ma’naviy kamolot.–T.: «Mehnat», 2000.

15. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.–T.: «Yangi asr avlodi», 2001.

16. *Oripov M.* Oila, ma’naviyat va ijtimoiy taraqqiyot.–T.: «Fan», 1998.

17. *Qodirov A.* Ma’naviyatning iqtisodiy tamoyillari.–T.: «O‘qituvchi», 1999.

18. *Ortiqov N.* Ma’naviyat: milliy va umuminsoniy qadriyatlar.–T.: «Ma’naviyat», 1997.

19. *Aliyev A.* Ma’naviyat, qadriyat, badiiyat.–T.: «Akademiya», 2000.

20. *Yusupov E.* Inson kamolotining ma’naviy asoslari.–T.: «Universitet», 1998.

21. *Qosimov B.* Milliy uyg‘onish.–T.: «Ma’naviyat», 2002.

22. *Qo‘chqorov V.* Milliy o‘zlikni anglash va barqaror taraqqiyot.–T.: «Akademiya», 2013.

23. *G‘oyibnazarov Sh.* Xalqaro terrorizm: ildizi, omillari va manbalari.–T.: «O‘zbekiston», 2013.

24. *Alimov U.* Islom ma’rifati – ezgulik yo‘li.–T.: «Movarounnahr», 2015.

25. *Olimov Sh.* Ma’naviy-axloqiy tarbiya asoslari.–T.: «Fan va texnologiyalar»,2015.

26. *Otamuratov S.* Globallashuv va milliy-ma’naviy xavfsizlik (siyosiy-falsafiy tahlil).–T.: «O‘zbekiston», 2015.

27. *Mallayev N.* Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti.–T.: «G‘afur G‘ulom», 2015.

28. *Ro‘ziyeva R.* Jamiyatning ma’naviy yangilanishi: milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi.–T.: «Falsafa va huquq instituti», 2011.

29. *Ravshanov F.* Ma’naviy taraqqiyotga tahdidlar.–T.: «Muharrir», 2010.

30. *Rahimqulov O.* va boshqalar. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash davr talabi.–T.: «Toshkent islom universiteti», 2011.

31. *Ochilova B.* Milliy-ma’naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik.–T.: «Istiqlol», 2009.

32. *Qosimov B.* Uyg‘ongan millat ma’rifati.–T.: «Ma’naviyat», 2011.

33. *Isayev Y.* Abu Ali ibn Sino.–T.: «Tafakkur», 2011.

34. *Jo‘rayev O., Muhiddinov A.* Mahmud az-Zamaxshariy. – T.: «Tafakkur», 2011.

35. *Boboyev S.* Ahmad al-Farg‘oniy.–T.: «Tafakkur», 2011.

36. *Otaxo‘jayev A.* Abu Rayhon Beruniy.–T.: «Abu matbuot konsalt», 2011.

37. *Pasilov B.* Ulug‘bek.–T.: «Abu matbuot konsalt», 2011.

38. *Mahmudova G.* Avestoning falsafiy mohiyati.–T.: «Noshir», 2015.

39. *Karimov B., Ziyayev F.* Ma’naviyat asoslari. O‘quv qo‘llanma.–T.: «Iqtisod-Moliya», 2013.

40. *Karimov B., Ziyayev F., Tulaganova S.* Madaniyatshunoslik. O‘quv-uslubiy qo‘llanma.–T.: «Iqtisod-Moliya», 2016.

41. *Karimov B., Ziyayev F., Tulaganova S.* O‘zbekiston tarixi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T.: «Iqtisod-Moliya», 2016.

42. *Jo‘rayev N.* Avesto mo‘jizasi.–T.: «G‘afur G‘ulom», 2013.

43. *To‘rayev Sh.* O‘zbekistonda demokratik jamiyat rivojida iqtisodiy va ma’naviy omillar uyg‘unligi.–T.: «O‘zbekiston», 2011.

44. *To‘rayev Sh.* Milliy g‘oya va ma’naviyat.–T.: «Ma’naviyat», 2013.

45. *Saifnazarov I., Saifnazarova F.* Mafkuraviy xurujlar nima?–T.: «Ma’naviyat», 2015.

46. *Ochilov E.* Barhayot siymolar.–T.: «O‘zbekiston», 2012.

47. *Izzat Sulton.* Navoiyning qalb daftari.–T.: «G‘afur G‘ulom», 2010.

48. *Nuriddinov Ch.* Ajdodlarimiz jasorati.–T.: «O‘zbekiston», 2012.

49. Temur tuzuklari.–T.: «O‘zbekiston», 2013.

50. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik.–T.: «G‘afur G‘ulom», 2015.

51. *Sharafiddin Ali Yazdiy.* Zafarnoma.–T.: Sharq», 1997.

52. *Rui Gonsales de Klavixo.* Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403–1406).–T.: «O‘zbekiston», 2010.

53. *Yusuf Xos Hojib.* Qutadg‘u bilig (Saodatga yo‘llovchi bilim). – T.: «Akademnashr», 2015.

54. *Firdavsiy* A. Shohnoma. – T.: «G‘afur G‘ulom», 2011.

55. *Xudoyberdiyev J.* Mahmud Koshg'ariy hayoti va «Devon-u lug'otit turk» asarining o'rganilishi. – T.: «Universitet», 2010.

56. *Normatov U.* Qodiriy mo'jizasi.–T.: «O'zbekiston», 2010.

57. *Abdulhamid Cho'lpon.* Go'zal Turkiston. – T.: «Ma'naviyat», 1997.

58. *Abdulla Avloniy.* Tanlangan asarlar. 2 jildlik. – T.: «Ma'naviyat», 1998.

59. *Abdurauf Fitrat.* Tanlangan asarlar. – T.: «Ma'naviyat», 2000.

60. *Mahmudxo'ja Behbudiy.* Tanlangan asarlar. – T.: «Ma'naviyat», 1997.

61. *Munavvar qori Abdurashidxonov.* Tanlangan asarlar. – T.: «Ma'naviyat», 2003.

MUNDARIJA

MUQADDIMA 3

I BO‘LIM. MA’NAVIYAT VA UNING INSON KAMOLOTIDA TUTGAN O‘RNI 10

1-MAVZU. «MA’NAVIYAT ASOSLARI» FANINING PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI 10
1.1. Ma’naviyat tushunchasining ta’rifi va tarixi 10
1.2. «Ma’naviyat asoslari» fanining kategoriyalari, uning rivojlanish qonuniyatlari 17
1.3. «Ma’naviyat asoslari» fanining boshqa fanlar bilan bog‘liqligi 26

2-MAVZU. MILLIY-MA’NAVIY TIKLANISH KONSYEPSIYASI, UNING MILLIY MUSTAQILLIKNI MUSTAHKAMLASHDAGI AHAMIYATI 32
2.1. Inson ma’naviy kamoloti va jamiyat taraqqiyotining o‘zaro bog‘liqligi 33
2.2. Milliy-ma’naviy tiklanish konsepsiyasining ishlab chiqilishi va uning nazariy hamda amaliy ahamiyati 37
2.3. Milliy ma’naviyatning tiklanishi va rivojlanishida amalga oshirilgan tadbirlar 43

3-MAVZU. MA’NAVIYATNING TARKIBIY QISMLARI, ULARNING O‘ZARO MUNOSABATLARI VA RIVOJLANISHI 55
3.1. Ma’naviyat va madaniyat, ularning o‘zaro munosabati 56
3.2. Ma’naviy meros – ma’naviyat taraqqiyotining asosi 67
3.3. Ma’naviyat va mafkura, ularning jamiyat hamda inson hayotida tutgan o‘rni 70

4-MAVZU. MA'NAVIYATDA MILLIYLIK VA UMUMINSONIYLIK **77**
4.1. Milliy ma'naviyat va uning xususiyatlari 77
4.2. Umuminsoniy ma'naviyat va uning zaminlari 92
4.3. Diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikning mustahkamlanishi 99

5-MAVZU: MA'NAVIYATGA TAHDID – O'ZLIGIMIZ VA KELAJAGIMIZGA TAHDID **111**
5.1. Globallashuv jarayonlari va uning salbiy ta'siri 111
5.2. Diniy ekstremizm va terrorizm davr vabosi 119
5.3. Ma'naviy tahdidlarga qarshi kurash usullari 134

II BO'LIM. MA'NAVIYATNING TARIXIY, ILMIY-NAZARIY VA AMALIY ZAMINLARI **149**

6-MAVZU. QADIMGI O'RTA OSIYO XALQLARI MA'NAVIYATINING SHAKLLANISH JARAYONLARI **149**
6.1. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto»da ma'naviyatning dolzarbligi 150
6.2. Qadimgi xalq og'zaki ijodiyoti va yozma manbalarda ma'naviyat masalalari 156
6.3. Navro'z – yangilanish va mo'tabar orzular bayrami 167

7-MAVZU. ISLOM DINIDA MA'NAVIYAT VA SHAXS MA'NAVIY QIYOFASINING TALQINI **176**
7.1. Din – inson ma'naviyatining tarkibiy qismi 177
7.2. Imom Buxoriy va Imom Termiziy hadisshunos allomalar 187
7.3. O'rta Osiyolik mutafakkirlarning kalom va fiqh ilmi rivojiga qo'shgan hissalari 209

8-MAVZU. O'RTA OSIYOLIK TASAVVUF ILMINING ALLOMALARI, ULARNING MA'NAVIYAT TARAQQIYOTIGA QO'SHGAN HISSASI **222**
8.1. Tasavvuf ilmi va uning ma'naviy jihatlari 222

8.2. Naqshbandiya tariqatining ahamiyati 230
8.3. Ahmad Yassaviy – jaholatni qoralagan tasavvuf sultoni.....241
8.4. Kubroviya tariqatining ilohiylik va insoniylik jabhalari.....252

9-MAVZU. O'RTA OSIYOLIK MUTAFAKKIRLARNING FALSAFIY TAFAKKURIDA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MASALALARI.....266
9.1. O'rta Osiyo – Sharqning yuksak ma'naviyat va tafakkur markazi.....267
9.2. Bag'dod Ma'mun akademiyasida faoliyat yuritgan O'rta Osiyolik mutafakkirlar.....275
9.3. Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sinolarning jahon ilm-fani taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissalari.....302

10-MAVZU. YOZMA ADABIY MEROS – SHAXS MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM VOSITASI.....338
10.1. «Shohnoma» – xalq zakovati va jasoratiga qo'yilgan nazmiy haykal.....338
10.2. Mahmud az-Zamaxshariyning hayoti va ilmiy faoliyati.....354
10.3. Mahmud Koshg'ariy – dunyo tan olgan tilshunos.....369
10.4. Yusuf Xos Hojib qomusiy bilim sohibi.....374

11-MAVZU. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT RIVOJI 388
11.1. Amir Temur buyuk davlat arbobi, yuksak ma'naviyat sohibi 388
11.2. Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan ravnaqi.....400
11.3. Movarounnahr va Xurosonda badiiy-ma'naviy sohada erishilgan yutuqlar 416

12-MAVZU. JADIDCHILARNING MA'RIFATPARVARLIK HARAKATLARI VA ULARNING XALQ MA'NAVIYATINI KO'TARISHDA TUTGAN O'RNI.....446
12.1. Jadidchilik harakatining vujudga kelishi, uning ma'naviy-ma'rifiy mohiyati.....447

12.2. Turkistonda milliy demokratik davlatchilikning dastlabki tajribalari.....457
12.3. Jadidchilarning umumxalq ma'naviyatini yuksaltirishdagi roli 468
GLOSSARIY 506
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....513

Ilmiy-ommabop nashr

B. KARIMOV, O‘. NORBOYEV, F. ZIYAYEV

MA’NAVIYAT ASOSLARI

O‘QUV QO‘LLANMA

Muharrir	G. Azizova
Badiiy muharrir	D. Mulla-Axunov
Texnik muharrir	R. Ahmedov
Musahhih	G. Ahmedova
Sahifalovchi	O. Ismoilova

Nashriyot litsenziyasi AA № 0049 18.03.2020-y.
Bosishga 2021-yil 10-mayda ruxsat etildi.
Ofset qog‘ozi. Bichimi 60x84 1/16. «Times New Roman» garniturasida ofset bosma usulida bosildi.
Bosma tabog‘i 30,5. Shartli bosma tabog‘i 28,37.
Adadi 1000 nusxa. Buyurtma №10-21.

«Kamalak-PRESS” MChJ bosmaxonasida chop etildi.
100011. Toshkent sh., Navoiy ko‘chasi, 30.
Telefon: (371) 244-41-90.

«DONISHMAND ZIYOSI»

ISBN 978-9943-6866-5-6